

**ABULQOSIMOV H.P., BERKINOV B.B.,
ABULQOSIMOV M.H., UMAROV A.T., QULMATOV A.A.**

INSTITUSIONAL IQTISODIYOT

DARSLIK

Toshkent 2020

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVRSITETI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**ABULQOSIMOV H.P., BERKINOV B.B., ABULQOSIMOV M.H.,
UMAROV A.T., QULMATOV A.A.**

INSTITUSIONAL IQTISODIYOT

DARSLIK

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan oliy o‘quv yurtlarida ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan oliy o‘quv yurtlarining 340000 –“Biznes va boshqaruv” ta’lim sohasidagi yo‘nalishlari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.

UDK: 330(075)

65.9(50‘)-56

A57

O‘zbekiston Milliy universiteti o‘quv-uslubiy kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Mas’ul muxarrir:

iqtisod fanlari doktori, professor

Tursunxo‘jaEv M.L.

Taqrizchilar:

T.T. Jo‘raEv, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

F.T.EgamberdiEv, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

R.G‘.AbdullaEva, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Abulqosimov H.P., Berkinov B. B., Abulqosimov M.H., Umarov A.T., Qulmatov A.A.

Institutsional iqtisodiyot: darslik./ H.P.Abulqosimov, B.B. Berkinov, M.H.Abulqosimov, A.T.Umarov, A.A.Qulmatov– T.: 2020. – 430 b.

Darslik “Institutsional iqtisodiyot” fani dasturiga muvofiq yozilgan bo‘lib, unda ushbu fanning metodologik asoslari, predmeti va asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilgan. Shuningdek, unda jamiyatda rasmiy va norasmiy institutlarning roliga, bozor instituti, shartnomalar, transaksiya xarajatlari, xufyona iqtisodiyot, mulkchilik, firma, davlat va uy xo‘jaligi nazariyalarining asoslarini yoritishga keng o‘rin berilgan. Darslik oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat yo‘nalishi talabalari, magistrantlar, professor-o‘qituvchilar, shuningdek institutlar iqtisodiyoti masalalari bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Институциональная экономика: учебник./ Х.П. Абулкасимов, Б.Б. Беркинов, М.Х. Абулкасимов, А.Т. Умаров, А.А. Кулматов-Т.: 2020.-430с.

Учебник написана по программу дисциплины “Институциональной экономики” и в нём освещены её методологические основы, предметы и содержания основных понятий. В нём широко освещены роли официальных и неофициальных институтов общества, а также основы теории институтов рынка, контрактов, транзакционных затрат, теневой экономики, фирмы, государства и домашнего хозяйства. Учебник предназначен для

студентов бакалавриата высших учебных заведений, магистрантам, профессорско-преподавательского состава, а также всем тем кого интересуют вопросы по институциональной экономике.

Institutional economics: textbook./ H.P. Abulkasimov, B.B.Berkinov, M.H.Abulkasimov, A.T.Umarov, A.A. Kulmatov-T.: 2020.-430p.

The textbook is written on the program of the discipline "Institutional Economics" and covers its methodological basis, subjects and content of the basic concepts. It widely covers the roles of official and unofficial institutions of society, as well as the foundations of the theory of market institutions, contracts, transactional costs, the shadow economy, companies, the state and households. The textbook is intended for undergraduate students of higher educational institutions, graduate students, teaching staff, as well as for all those interested in institutional economics.

BBK 65,9(50‘)-56

ISBN-978-9943-330-30-6

© Abulqosimov H.P., Berkinov B.B. 2020

© 2020

Kirish

Har qanday jamiyat institutsional muhitini tashkil etuvchi ma'lum bir institutlar doirasida faoliyat yuritadi va rivojlanib boradi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yilidan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarida o'zgarishlarga erishildi, iqtisodiyotning yangi xo'jalik yurituvchi sub'yektlari – aksiyadorlik jamiyatlari, xolding kompaniyalar, kichik va o'rta tadbirkorlik korxonalarini, fermer xo'jaliklari hamda xususiy mulkchilikning turli shakllari barpo etildi. Shu bilan bir vaqtda ular faoliyat yuritishi shartlarini belgilab beruvchi rasmiy qoidalar (konstitutsiya, qonunlar, farmonlar va b.) hamda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va boshqa norasmiy normalarni o'z ichiga olgan institutsional asoslar yaratildi. Bularning barchasi jamiyatda mulkchilik, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlarining takomillashuviga, moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ga asosan mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish¹.

¹ "2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси"// Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида"ги фармони// Халқ сўзи, 2017 йил 8 февраль.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir. Shu bois institutsional muhitni faollashtirish, faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyotning rivojlanish qonuniyatlarini bilish, uni modernizatsiya qilish yo'llarini tanlash va xavf-xatarning oldini olishning samarali vositasi zarur. Institutsional iqtisodiyot, shubhasiz, ana shunday vositalardan biri hisoblanadi.

Institutsional iqtisodiyot – bu iqtisodiy nazariya va xo'jalik amaliyotini institutsional o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligida o'rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarning ilmiy yo'nalishlaridan biridir. Ushbu yo'nalish G'arb mamlakatlari iqtisodiyotining rivojlanishi, talab va taklif qonunlarining ishlashi, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning hulq-atvori, bozor va ma'muriy mexanizmlarning faoliyat ko'rsatishi, iqtisodiy o'sish va shu kabi boshqa bir qator jarayonlar va hodisalarni o'rganishda keng tadbiiq etib kelinmoqda.

Shularni hisobga olgan holda ushbu fanni keng o'rganish O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan asoslab berilgan mamlakatni chuqur isloh etish va modernizatsiyalashning yangi bosqichida amalga oshiriladigan tub o'zgarishlarning mazmun –mohiyatini tushunish, uning faol ishtirokchisiga aylanishda muhim ahamiyatga ega. Bu tub o'zgartirishlarning mazmunini yurtboshimiz asoslab “Biz yangi O'zbekistonni xalqimiz bilan birgalikda barpo etamiz, degan ulug'vor maqsadni o'z oldimizga qo'yganmiz. Bu borada **“Jamiyat – islohotlar tashabbuskori”** degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga tobora chuqur kirib bormoqda. Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim. Eng asosiysi, bu islohotlar natijasida xalqimiz uchun farovon va munosib turmush sharoitini yaratib berishimiz kerak. Odamlarimiz Etarli daromad topishi uchun eng qulay biznes va investitsiya muhitini shakllantirib, yangi-yangi korxonalar va ish joylarini ko'paytirishimiz zarur. Bu g'oyat dolzarb ishlarni o'zimiz qilmasak, hech kim

bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Xalqimiz shuni yaxshi bilishi kerak: oldimizda uzoq va mashaqqatli yo‘l turibdi. Barchamiz jiplashib, tinimsiz o‘qib-o‘rgansak, ishimizni mukammal va unumli bajarsak, zamonaviy bilimlarni egallab, o‘zimizni ayamadan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o‘zgaradi”¹-deb ta’kidlagan.

Hozirgi kunda institutsional iqtisodiyot fani iqtisodiy nazariyaning uzviy bir yo‘nalishi sifatida dadil maydonga chiqdi. Ushbu fan Belorussiya, Rossiya, Ukraina, Qozog‘iston, Boltiq bo‘yi va boshqa o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan qator mamlakatlarning iqtisodiyot yo‘nalishida kadrlar tayyorlovchi oliy o‘quv yurtlarida keng o‘qitilmoqda va mazkur fan bo‘yicha kafedralar tashkil etilgan.

E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu darslikda yangi institutsional nazariyaning metodologik asoslariga, asosiy qoidalariga, tamoyillariga, ushbu yo‘nalish vakillarining ilmiy qarashlariga, jamiyatdagi rasmiy va norasmiy normalarni muvofiqlashtirish muammosiga, norasmiy institutlarning roliga muhim ahamiyat berilgan.

Shuningdek, darslikda institutsional iqtisodiyotning tadqiqot usuli sifatida o‘yinlar nazariyasi va modellashtirish tavsifiga, reja va bozor institutlari faoliyati normalari hamda shartnomalar xillariga katta e’tibor qaratilgan. Transaksiyalar va transaksiya xarajatlari nazariyasi, transformatsion yondashuvning o‘ziga xos xususiyatlari va uning ahamiyati hamda tahliliy usullari, mulkchilik huquqlari va mulk shakllarining rivojlanishi, davlat va uy xo‘jaligi xillari, firmalar turlari va ular faoliyatining institutsional asoslari keng yoritilgan. Darslikda institutlarni yangi institutsional muhitga joriy etish jarayonlarini o‘rganishga keng o‘rin berilgan.

Ushbu darslik T.Veblen, R.Kouz, D.Nort, O.Uilyamson, T.Eggertson kabi institutsionalizm namoyondalarining jahonda tan olingan asarlarini, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlarining so‘nggi yillar mobaynida chop etilgan, institutsional iqtisodiyot nazariyasi doirasidagi tadqiqotlarning yangi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь//Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

yoʻnalishlarini belgilab bergan A.N.Oleynik, R.I.Kapelyushnikov, V.M.Polterovich, V.L.Tambovsev, A.E.Shastitko hamda mamlakatimiz olimlari akademik S.S.Gʻulomov, A.Sh.Bekmurodov, I.Butikov, Ab.V.Vaxabov, Al.V.Vaxabov, N.X.JumaEv, T.T.JoʻraEv, A.F. Rasulev, D.TojiboEva, T.Sh..ShodiEv, Sh.Sh.Shodmonov, A.IsaxodjaEv, F.T.EgamberdiEv, N.Yusupova, R.Yaushev, A.M. Qodirov, A.Xoshimov kabilarning mulkchilik huquqi, institutsional islohotlar, transaksiya va shartnomalar, xufyona va norasmiy iqtisodiyot nazariyalari bilan bogʻliq ilmiy ishlarini hamda mamlakatimizda amalga oshirilgan institutsional hamda iqtisodiy islohotlar natijalarni ilmiy jihatdan umumlashtirishga asoslangan.

I BOB. INSTITUSIONAL NAZARIYALARNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

Kirish

1.1. Institutsional nazariyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi

1.2. Institutsionalizmning metodologik asoslari va institutsional tahlilda boshlang‘ich nuqta masalasi

1.3. Neoinstitutsional nazariyaning asosiy yo‘nalishlari

1.4. Institutsional iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari

Kirish

“Institutsional iqtisodiyot” fani institutlar nazariyasining paydo bo‘lishi va rivojlanishi bosqichlari va xususiyatlari, institutlarning jamiyat rivojidagi roli, rasmiy va norasmiy normalarning shakllanishi, o‘zgarib borishi va ularning o‘zaro bog‘liqligi, reja va bozor institutlari, mulkchilik huquqlari va shakllari, transaksiyalar va transaksiya xarajatlari, shartnoma, xufyona iqtisodiyot, firma, davlat va uy xo‘jaligi faoliyati o‘zgarishi va ular rivojlanish qoidalarining takomillashuvining nazariy va amaliy asoslarini o‘rgatadi.

O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda institutsional iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishining ham nazariy, ham amaliy tomonlarini, iqtisodiyot sub’yektlari faoliyatini o‘rganish usullari bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarga iqtisodiyotda institutlar tizimi rivojlanishi, mulk huquqlari, ular shakllari faoliyatiga ta’sir qiluvchi omillarni, davlat va uy xo‘jaligi kabi institutlarni, institutsional islohotlarni tahlil qilish asosida xulosalar chiqarishni o‘rgatishdan iborat.

Fanning predmetini insonlar tomonidan barpo etiladigan va o‘zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy me‘yorlar va qoidalar tashkil etadi.

“Institutsional iqtisodiyot” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- institutlar tushunchasi, institutsionalizm mohiyati va tamoyillari; institutlar va ularning iqtisodiyotdagi roli; rejali va bozor iqtisodiyot institutlari asosiy qonunlari; transaksiyalar va transaktsion xarajatlari ahamiyati; institutsional islohotlar maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari; shartnoma (kontrakt) tushunchasi va uning asosiy shartlari; bozor, firma va xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari haqida aniq *tasavvurga ega bo‘lishi lozim*;

- institutsional nazariyaning paydo bo‘lishi, uning konsepsiyalarini; institutlar tizimi va o‘yinlar nazariyasini; mulk huquqlarini tasniflanish belgilarini; xufyona faoliyatning kelib chiqish sabablari, maqsadlari va amal qilish sohalari, oqibatlarini; institutlar faoliyatining rasmiy va norasmiy qoidalarini, institutsional islohotlar bosqichlarini; korporativ tizimlarini va ular guruhlarining o‘ziga xos xususiyatlari, ustunliklarini; xufyona iqtisodiyotning kelib chiqish sabablari va oqibatlarini *bilishi kerak*;


- iqtisodiyotda joriy etilgan institutlar tizimini, ular faoliyatining rasmiy va norasmiy me‘yorlarini taqqoslash; transaktsiya xarajatlarini klassifikatsiyalash va ular ko‘rsatkichlarini tahlil qilish; shartnoma (kontrakt) tarkibi va ularning asosiy ko‘rsatkichlarni baholash va tashkiliy tuzilmalarni tahlil qilish; davlat va firma faoliyatining rasmiy va norasmiy me‘yorlarini shakllantirish bo‘yicha *ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim*.

1.1. Institutsional nazariyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi

Ilmiy iqtisodiy nazariyalar shakllanishi XVII asrda Evropada dastlab V.Petti, Buagilber, keyinroq esa, A.Smit va D.Rikardolarning klassik iqtisodiy

ta'limotlari bilan tavsiflanadi. XIX asrning Etmishinchi yillariga kelib, klassik nazariyaning K.Menger, M.Jevons, L.Valras va boshqa tadqiqotchilarning faoliyati zamiridagi marjinal yondashuv bilan kengayishi neoklassik nazariya sifatida A.Marshallning "Iqtisodiyot prinsiplari" asarida o'z ifodasini topdi. Keyinchalik A.Marshallning qarashlari J.B.Klark izlanishlarida takomillashdi.

Neoklassik nazariyaning asosiy tamoyillari ikki qismdan iborat. Asosiy tamoyillarning birinchi qismini klassikaning "eski" tamoyillari, ikkinchi qismni esa, neoklassikaning "yangi" tamoyillari tashkil etadi. "Eski" tamoyillar "qat'iy negiz" bo'lsa, "yangi" tamoyillar neoklassikaning «himoya qobig'i»ni tashkil etadi (qarang: 1.1.1rasm).



1.1.1-rasm. Neoklassik nazariyaning asosiy tamoyillari.

"Eski" tamoyillarga quyidagilar kiradi:

- bozorda hamma vaqt muvozanat mavjud, u yagona Pareto (Valras-Errou-Dobre) optimumi talablariga mos keladi;
- bozorda individlar tomonidan oqilona tanlov amalga oshiriladi;
- individlarga tashqi omillar ta'sir ko'rsatmaydi, ularning biror holatni afzal bilishi barqaror va ekzogen xususiyatga ega;

- xarajatlarning yagona turi – ishlab chiqarish xarajatlari hisobga olinadi. Ayni chogʻda ayirboshlash xarajatlari eʼtiborga olinmaydi.

“Yangi” tamoyillarga koʻra:

- bozorda ayirboshlashni amalga oshirish uchun resurslarning xususiy mulkni tashkil etishi asosiy zamin hisoblanadi;

- individlarda bitim toʻgʻrisidagi barcha axborot mavjud;

- ayirboshlash chegaralari kamayib boruvchi foydalilik tamoyili asosida hamda resurslarning dastlabki taqsimlanishidan kelib chiqib, belgilanadi.

Klassik nazariyaning rivojlanishida kuzatiladigan istalgan qoida tuzatishlar va aniqlashtirishlar jarayonida «Eski tamoyillar»ni tashkil qiluvchi fikrlar oʻzgarishsiz qolishini nazarda tutadi. Ular tadqiqot paradigmasi, nazariyani izchil qabul qiluvchi har qanday tadqiqotchining tanqidi qanchalik keskin boʻlmasin, “eski” tamoyillardan voz kechilmaydi. Aksincha, nazariyaning rivojlanishiga qarab uning tadqiqot predmetiga «yangi tamoyil»ni tashkil qiluvchi qarashlarga doimiy tuzatishlar, yangi unsurlar kiritiladi.

«Eski» institutsionalizm nazariyasining mohiyatini yanada toʻliqroq koʻrib chiqish uchun ushbu ilmiy yoʻnalishning koʻzga koʻringan vakillari T.Veblen, K.Polani va J.K.Gelbreyt qarashlariga murojaat etish mumkin. Mashinali ishlab chiqarishning paydo boʻlishini tahlil qilishda kapitalist bilan yollanma ishchi oʻrtasidagi munosabatlar tizimi mehnat taqsimoti qabul qiladigan quyidagi tashkiliy shakllar orqali ularning oʻzaro taʼsiriga eʼtibor qaratildi: tabiiy mehnat taqsimoti → kooperatsiya → manufaktura va mutlaq qoʻshimcha qiymatni shakllantirish → xususiy ishchining paydo boʻlishi → mashinalarning paydo boʻlishi → fabrika → nisbiy qoʻshimcha qiymatni shakllantirish.

Karl Polanining taʼkidlashicha, aynan milliy resurslar va mehnat bozorining shakllanishi asosida davlatning aralashuvi yotadi. Gʻarbiy Evropaning barcha ichki bozorlari mahalliy bozorlar tabiiy evolyutsiyasining natijasi emas, balki davlatning aralashuvi orqali barpo etilgan.

T.Veblen «Bekorchi sinf nazariyasi» (1899) asaridagi odatlar to'g'risidagi tahlilda xolizm metodologiyasini qo'llaydi¹. Odatlar individlarning bozordagi, siyosiy sohadagi, oiladagi xatti-harakatlari doiralarini belgilab beruvchi institutlardan biri hisoblanadi. Insonlar xatti-harakati Veblen tomonidan ikkita juda qadimiy odatdan kelib chiqib, ta'riflanadi. Bu odatlarni u raqiblik hissiyoti (boshqalardan birinchi bo'lish, umumiylikdan ajralib turish istagi) va mahorat hissiyoti (halol va samarali mehnat qilishga moslashish) deb nomlaydi. T.Veblenning fikriga ko'ra, raqiblik hissiyoti mulkchilik va bozordagi raqobatning asosida yotadi. Ushbu hissiyotning o'zi individ o'z tanlovini amalga oshirishda o'z foydaliligini ko'paytirishni emas, balki boshqalarning ko'z o'ngida o'z nufuzini oshirishni ko'zlovchi «oshkora iste'mol»ni izohlaydi. Masalan, sotib olmoqchi bo'lgan avtomobilni tanlashda iste'molchi uning narxiga va texnik xususiyatlariga emas, balki muayyan rusumdagi mashinaga egalik qilish orqali ta'minlanadigan nufuzga e'tiborni qaratadi.

Va nihoyat, "eski" institutsionalizm namoyondasi J.K.Gelbreyt o'z tahlilini axborot va axborot almashuvining ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanishi masalalaridan boshlaydi. Uning asosiy fikri – hozirgi bozorda hech kim to'liq axborotga ega emas. Har bir shaxsning bilimlari ixtisoslashgan va xususiy ahamiyatga ega, axborot to'liqligiga faqat ushbu to'liq bo'lmagan bilimlarni birlashtiruvchi tashkilot doirasida erishish mumkin, deb ta'kidlaydi. Bunda hokimiyat alohida shaxsdan guruhga birlashgan, individuallikka ega bo'lgan tashkilotlar qo'lga o'tadi. So'ngra mazkur tashkilot individlarning xatti-harakatiga ko'rsatadigan ta'sirni tahlil qilib, individlar tavsiflarini institutsional muhit funksiyasi sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, uning ta'kidlashicha, iste'mol talabining o'sishi iste'molchilarning o'z ichki tuyg'ulari yuqori bo'lishidan emas, balki ularni ishontirish uchun reklamadan faol foydalanuvchi korporatsiyalar manfaatlarining o'sishidan kelib chiqadi.

¹ Каранг: Веблен Т. Теория праздного класса. М.: Прогресс. 1987.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining jadal rivojlanishi barobarida iqtisodiy tadqiqotlar ko‘lami yanada kengaydi va chuqurlashdi. Bu bilan hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarining yirik yo‘nalishlari shakllandi.

Hozirgi zamon iqtisodiy ta’limotlarini o‘rganishning eng keng tarqalgan yondashuvlariga ko‘ra, ular uchta yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: neoklassika, institutsionalizm va keynschilik. Biroq, mamlakatimizda mazkur yo‘nalishlar – ayniqsa, institutsionalizm yo‘nalishi sohasidagi ilmiy-nazariy, o‘quv-uslubiy jabhalar yaxlit bayon etilgan adabiyotlarni Etarli, deb bo‘lmaydi.

Institutsionalizmning nazariy yo‘nalish sifatida shakllanishi bevosita klassik va neoklassik nazariyalar bilan bog‘liq. Binobarin, neoklassika tamoyillaridagi yuqorida ko‘rsatilgan cheklovlarni hisobga olgan holda, bozor modelini tuzishga yo‘naltirilgan nazariya – institutsionalizm hisoblanadi. Ushbu nazariyaning tadqiqot markazida institutlar – insonlar tomonidan barpo etiladigan va o‘zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy me’yorlar va qoidalar turadi. Institutsional nazariya qoidalari neoklassik yondashuvga nisbatan yangi nazariya bo‘lib, bozor munosabatlarini tahlil qilishning yangi sohasidir.

Institutsionalizm bugungi kunda iqtisodiyot fanining eng tez rivojlanib borayotgan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu ko‘proq neoinstitutsional iqtisodiy nazariyaga yoki yanada kengroq qilib aytadigan bo‘lsak, neoinstitutsional nazariyaga yoki neoinstitutsionalizmga taalluqli.

Ilmiy manbalar guvohlik berishicha, neoinstitutsionalizm chuqur tarixiy ildizga ega¹. XIX asr oxiri – XX asr boshida yuzaga kelgan “eski” institutsionalizmning asoschilari bo‘lib T.Veblen, J.R.Kommons va U.Mitchellar hisoblanishadi. Hozirgi zamon iqtisodchilari ularning ishlaridan bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan va iqtisodiyot fanining an’anaviy usullari

¹Каранг: Бренделева Е.А. Неинституциональная теория. Учебное пособие / Под.ред. проф. М.Н.Чепурина. – М.: ТЕИС, 2003. – 253 с.; Веблен Т. Теория праздного класса. М.: Прогресс. 1987.; Гребенников В.Г. Эволюция институциональных систем. - М.: "Наука", 2004. – 240 с.; Институциональная экономика: Учебник / Под общ. ред. А. Олейника. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 704 с.; Институциональная экономика: новая институциональная экономическая теория: Учебник /Под общей ред. д.э.н., проф. А.А. Аузана. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 416 с.; Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.

yordamida izohlanishi qiyin boʻlgan jarayonlarni tahlil qilish imkonini beruvchi gʻoyalarni topmoqda.

Biroq oʻtgan asrning 60-70 yillarigacha institutsional yoʻnalish ancha sust rivojlangan. Keyinchalik eski gʻoyalar ikkinchi bosqich institutsionalistlari – J.K.Gelbreyt, R.Xaylbroner, F.Perru, J.Furaste, G.Myurdal va boshqalarning ishlarida oʻz ifodasini topgan.

“Eski” (zamonaviy) institutsionalizmning uchinchi bosqichi asosan J.Xodjson boshchiligidagi “kembridj maktabi” olimlarining faoliyati bilan bogʻliq¹.

Shu bilan birga turli iqtisodiy maktablarga mansub bir qator iqtisodchilar institutsional tizimlarni tahlil qilish bilan shugʻullanib, oʻz tadqiqotlarida institutsional yondashuvdan bevosita yoki bilavosita foydalanishgan².

Institutsional nazariyaning koʻp sonli masalalarini yorituvchi adabiyotlarda institutsionalizm turli yoʻnalishlarining metodologik xususiyatlari toʻgʻrisidagi fikr-mulohazalarga katta ahamiyat berilgan³.

“Eski” institutsionalizm bilan neoinstitutsionalizmda koʻplab umumiyliklar mavjud – bu institutlarni tadqiq etish, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni oʻrganishga nisbatan evolyutsion yondashuvning ayrim jihatlarini tahlil qilishdir. Umuman olganda ushbu ikkita yondashuv kesishuv nuqtalariga ega emas.

Rossiyalik olim R.NureEvning fikriga koʻra, “eski” institutsionalizm bilan neoinstitutsionalizm oʻrtasida, kamida, uchta asosiy farq mavjud⁴.

1) Agar “eski” institutsionalistlar zamonaviy iqtisodiy nazariya muammolarini jamiyatdagi boshqa fanlar usullari bilan oʻrganishga intilgan holda huquq va siyosatdan iqtisodiyot tomon borishsa, neoinstitutsionalistlar bunga

¹Ходжсон Джеффри. Экономическая теория и институты: Манифест современной институциональной экономической теории / Пер. с англ. – М.: Дело, 2003. – 464 с.

²Қаранг: Бренделева Е.А. Неинституциональная теория. Учебное пособие / Под.ред. проф. М.Н.Чепурина. – М.: ТЕИС, 2003. – 253 с.; Введение в институциональную экономику: Учебное пособие/ Под.ред. Д.С.Львова. – М.: Из-во “Экономика”, 2005. – 636 с.

³ Қаранг: Введение в институциональную экономику: Учебное пособие/ Под.ред. Д.С.Львова. – М.: Из-во “Экономика”, 2005. – 636 с.; Институциональная экономика: Учебник / Под общ. ред. А. Олейника. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 704 с.; Сухарев О.С. Институты и экономическое развитие. – М.: ООО ИКП «ДеКА», 2005. – 384 с.; Шаститко А.Е. Новая институциональная экономическая теория. – 3-е изд., перераб. и доп. – М.: МГУ, ТЕИС, 2002. – 591 с.

⁴ Нуреев Р. Институционализм: вчера, сегодня и завтра. В кн. «Институциональная экономика». Учебное пособие / А.Олейник. –М.: ИНФИМ, 2000. -5-7 б.

to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarama-qarshi yo‘ldan borishadi, ya’ni ular o‘z tahlilida neoklassik iqtisodiy nazariya vositalariga tayanadi, zamonaviy mikroiqtisodiy usullarni qo‘llagan holda siyosiy va huquqiy muammolarni o‘rganadi.

2) “Eski” institutsionalizm asosan induktiv usulga asoslanib, alohida holatlardan umumlashtirishga tomon intildi, buning natijasida, qator iqtisodchilarning fikriga ko‘ra, umumiy institutsional nazariya yuzaga kelmadi; neoinstitutsionalizm deduktiv yo‘ldan borib, neoklassik iqtisodiy nazariyaning umumiy tamoyillaridan ijtimoiy hayotning muayyan hodisalarini izohlashga intilmoqda.

3) “Eski” institutsionalizm radikal iqtisodiy tafakkur oqimi sifatida asosiy e’tiborni insonlar manfaatlarini himoyalovchi jamoalar (asosan, kasaba uyushmalari va hukumat) xatti-harakatiga qaratdi; neoinstitutsionalizm qaysi jamoa a’zosi bo‘lish uning uchun foydali ekanligini o‘z manfaatlariga amal qilgan holda hal etuvchi mustaqil individga e’tibor qaratadi.

4) “Eski” institutsionalizm metodologik xolizmdan foydalanadi, uni umumiy tarzda quyidagicha ta’riflash mumkin: “institutlar birlamchi, individlar ikkilamchi”. Ushbu holat neoinstitutsional nazariyaga asos qilib olindi.

Shu nuqtai nazardan “eski” va “yangi” institutsional maktablarni bir biridan farqlash lozim. Ingliz iqtisodchisi J.Xodjson [55] u yoki bu yo‘nalishga mansub olimlarni quyidagicha tarzda tasniflashni taklif qiladi:

“Eski” institutsional maktab: T.Veblen, J.R.Kommons, U.Mitchellar, Y.Shumpeter, J.K.Gelbreyt, F.Nayt, K.Polani, K.Ayres, G.Myurdal.

“Yangi” institutsional maktab: R.Kouz, D.Nort, O.Uilyamson, R.Pozner, M.Olson, F.XaEk¹.

J.Xodjsonning fikriga ko‘ra, agar “eski” maktab darvinizmga asoslanib, raqobatlashuvchi institutlar to‘g‘risidagi asoslardan foydalangan holda institutlarning uzoq vaqt mobaynida rivojlanishini ko‘rib chiqqan bo‘lsa, “yangi” maktab ijtimoiy darvinizmdan yiroqlashib, o‘z tadqiqotlarini metodologik

¹ Ходжсон Джеффри. Экономическая теория и институты: Манифест современной институциональной экономической теории / Пер. с англ. – М.: Дело, 2003. – 464 с.

individualizm nuqtai nazaridan olib bormoqda. Shunday qilib, J.Xodjson “yangi” maktabni ko‘p jihatdan tanqid qiladi. Uning ta’kidlashicha, “yangi” maktabning nochorligi shunda namoyon bo‘ladiki, tadqiqotlarga jamiyat o‘zining “tabiiy holatida” asos qilib olingan bo‘lib, unda qandaydir insoniy munosabatlar mavjud, lekin institutlarsiz; institutlar urf-odatlar va qoidalar bilan birgalikda paydo bo‘lishi, so‘ngra esa insonlar tomonidan qonuniyat sifatida ochilishi hisobga olinmaydi. Masalan, K.Magner pulning paydo bo‘lishi muammosini tadqiq etishni jamiyatning unda pul mavjud bo‘lmagan institutlardan holi bo‘lgan holatini tahlil qilishdan boshlab, so‘ngra esa ularning paydo bo‘lishiga individual agentlarning oqilona qarorlari natijasi sifatida qaraydi. O.Uilyamson ham asos sifatida institutlardan holi makon – institutlarsiz bozorni ko‘rib chiqadi, so‘ngra esa transaksiya xarajatlarini qisqartiruvchi tuzilmalar sifatida firmalarning paydo bo‘lishini tadqiq etgan. J.Xodjsonning fikricha, neoinstitutsional olamning bunday taxmini noto‘g‘ri, chunki jamiyat azaldan institutsionallashgan. Ushbu xulosa, uning ta’kidlashicha, ko‘plab iqtisodchilarning “eski” maktab institutsionalistlarining g‘oyalariga qaytishiga sabab bo‘ldi¹.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “yangi” institutsional maktab, neoinstitutsional nazariya va yangi institutsional iqtisodiyot – bularning barchasi bitta narsa emas. “Yangi” maktab, R.NureEvning fikricha, o‘z asoslariga ko‘ra bir-biridan farq qiluvchi ikkita so‘nggi yo‘nalish: neoinstitutsionalizm uchun neoklassik nazariya va yangi institutsional iqtisodiyot uchun “eski” institutsionalizm yo‘nalishlariga asos bo‘lib xizmat qildi.

Yangi institutsional iqtisodiyot vakillari tomonidan nafaqat ushbu yo‘nalish doirasida, balki boshqa yo‘nalishlar doirasida ham tan olinib, keng qo‘llanilgan bir necha nazariya ishlab chiqildi. Bular o‘yinlar nazariyasi (J. Fon Neyman, O.Morgenshtern, J.Nesh) va to‘liqsiz oqilonalik nazariyasi (G.Saymon) hisoblanadi². Yangi institutsional iqtisodiyotning hozirgi zamon ishlanmalarini

¹ Ўша манба.

² Бренделева Е.А. Неинституциональная теория. Учебное пособие / Под.ред. проф. М.Н.Чепурина. – М.: ТЕИС, 2003. – 253 с.

fransuz maktabi iqtisodchilari – L.Teveno, O.Favro, A.Orlean, R.BuaE va boshqalar ishlarida uchratish mumkin .

Biroq, institutsionalistlarning bahs-munozaralari bir yo‘nalishning boshq yo‘nalishdan ustunligini isbotlashga qaratilgan. Bir qator iqtisodchilar, xususan, T.Eggertsonning ta’kidlashicha¹, “faqat vaqt munozaralarda hakam sifatida ishtirok etishi mumkin. Aynan metodologik ziddiyatlar tufayli J.R.Kommons boshchiligidagi eski amerika institutsionalistlarining urinishlari muvaffaqiyatsizlikka uchradi, chunki, 1984 yilda R.Kouz yozganidek, “hech qanday nazariyaga ega bo‘lmagan ular (amerika institutsionalistlari) hali anglab Etishni talab etuvchi quruq izohli materialdan boshqa hech narsani taklif eta olishmadi”.

1.2. Institutsionalizmning metodologik asoslari va institutsional tahlilda boshlang‘ich nuqta masalasi

Hozirgi vaqtda neoinstitutsional yondashuvdan nafaqat iqtisodchilar va sotsiologlar, balki yuristlar va siyosatshunoslar ham foydalanishmoqda. Bu ko‘proq ham jahon xo‘jalik tizimini, ham alohida olingan milliy iqtisodiyotni tadqiq etishga taalluqli, chunki fundamental tahlilni, xoh u iqtisodiy nazariya, siyosatshunoslik, sotsiologiya, huquq bo‘lsin, bir fan doirasida olib borib bo‘lmaydi.

Hozirgi bosqichda *iqtisodiy imperializm*² iqtisodiy fanning deyarli barcha oqimlariga xos, biroq neoinstitutsionalizm²da u yaqqol namoyon bo‘ladi, bu boshqa metodologik asoslardan voz kechmagan va neoklassikaning “qat’iy negizi”ni o‘zgartirmagan holda jamiyat haqidagi boshqa fanlar – psixologiya, sotsiolgiya, siyosatshunoslik fanlarining ishlanmalaridan foydalanish imkonini beradi. Bu hol tahlil sohasini sezilarli darajada kengaytirib, uni boyitadi va aniqlikka yaqinlashtiradi.

¹ Эггертссон Т. Экономическое поведение и институты. –М.: ДЕЛЮ, 2001. – С. 18-19.

² Неоклассик ёндашувнинг асосида жамият тўғрисидаги фанларнинг бутун тарқок саналарини умумлаштириш (унификациялаш) ётади.

Neoinstitutsionalizm ikkita umumiy asosdan kelib chiqadi, birinchidan, ijtimoiy institutlar ahamiyatga ega, ikkinchidan ular neoklassik nazariya vositalari yordamida tadqiq etiladi. Ushbu ikki taraflama xususiyat neoinstitutsionalizmni “eski” institutsionalizm va neoklassik nazariyadan ajratib turadi.

Neoinstitutsionalizm neoklassik nazariyadan insonning ko‘paytiruvchi xatti-harakati va metodologik individualizm tamoyillarini meros qilib olgan holda o‘tgan asrning 50-60 yillarga kelib shakllandi. Neoinstitutsionalizmning ayrim variantlarida o‘yinlar nazariyasidan foydalaniladi. Ayrim neoinstitutsionalistlar o‘z tadqiqotlarida evolyutsion nazariya qoidalariga tayanadi.

Biroq, ularning o‘xshashligiga qaramay, neoinstitutsional va neoklassik yondashuvlarining metodologik xususiyatlarini belgilab beruvchi bir qator farqlarni ajratish mumkin.

Neoinstitutsional nazariya ijtimoiy jarayonning real faoliyat ko‘rsatuvchi ishtirokchilari sifatida guruhlar yoki tashkilotlarni emas, balki alohida individlarni o‘rganadi. Shu tariqa tashkilotlar ichida individlar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar turli tashkiliy tuzilmalarning mavjud bo‘lishini izohlash uchun hal qiluvchi omil hisoblanib, neoinstitutsional nazariyani o‘rganish ob’ekti sanaladi, ayni paytda neoklassik nazariyada firma “qora quti” sifatida ko‘rib chiqildi. Firmaning paydo bo‘lishi masalalari ham neoklassiklar nazaridan chetda qoldi, ayni paytda neoinstitutsional yo‘nalish vakillarining ko‘plab ishlari, shu jumladan R.Kouz ishlarining maqsadi “firmaning mavjud bo‘lishini izohlash va uning faoliyati ko‘lamlarini belgilab beruvchi sabablarni qidirib topishdan iborat bo‘ldi”.

Ta’kidlash lozimki, metodologik individualizm bir qator jarayonlarni tadqiq etish uchun ancha jiddiy cheklovlarni belgilaydi. Masalan, davlatni yagona, uyg‘unlashgan tarzda faoliyat ko‘rsatuvchi, bo‘linmas organizm sifatida aniq tasavvur qilishga to‘liq tayangan tadqiqotni amalga oshirish muammoga aylandi; davlatning maqsadli funksiyasini ko‘paytirishga, individlar funksiyalarining qismi (agregati) hisoblanmaydigan o‘ziga xos “ijtimoiy ne‘mat funksiyasi”ga asoslangan yondashuvlardan foydalanish ham qiyindek tuyuladi. Ikkinchi tomondan, bunday

asos tadqiqot natijasida olinadigan xulosalarning amaliyot nuqtai nazaridan ahamiyatini yanada oshiradi, chunki ular real ma'lumotlarga asoslanadi.

Individlar va institutlarning o'zaro bog'liqligini tahlil etishda boshlang'ich nuqtaga nisbatan ikkita tamoyil mavjud (qarang: 1.2.1-rasm).

Institutsionalizmning metodologik asoslari va institutsional tahlilda boshlang'ich nuqta masalasi

Individlar va institutlarning o'zaro bog'liqligini tahlil etishda boshlang'ich nuqtaga nisbatan ikkita tamoyil mavjud



1.2.1-rasm. Institutsional tahlilda boshlang'ich nuqtaga nisbatan ikki tamoyil.

Birinchi tamoyilda institutlar individlarning manfaatlarini hamda xatti-harakatlari orqali tushuntiriladi va *metodologik individualizm* deb nomlanadi. Ya'ni, individ institutlarni tahlil qilishda boshlang'ich nuqta hisoblanadi. Masalan, davlatni tavsiflashda uning fuqarolarining manfaatlarini va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqiladi. Metodologik individualizm tamoyilining davomi

ichki sabab natijasida vujudga kelgan evolyutsiya konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, institutlar insonlarning harakatlari natijasida paydo bo‘ladi degan taxmin ilgari suriladi. Ya’ni, individlar birlamchi, institutlar esa ikkilamchi o‘rin tutishi to‘g‘risidagi taxmin neoklassiklar qarashlarida o‘z aksini topgan.

Aksincha, tahlil uchun boshlang‘ich nuqta sifatida individlar emas, balki institutlar belgilanishi ikkinchi tamoyilga asos bo‘ladi. Shu tariqa ikkinchi tamoyilda *xolizm* metodologiyasidan foydalaniladi. Boshqacha aytganda, individlar institutlarning ta’rifidan kelib chiqib tavsiflanadi. Institutlar esa, o‘zlari makrodarajada munosabatlar tizimini takror ishlab chiqarishda bajaradigan funksiyalar orqali izohlanadi. Endi fuqarolar o‘z hukumatini emas, balki hukumat ma’lum xildagi fuqarolarning shakllanishiga ko‘maklashadi. So‘ngra, ichki sabab natijasida vujudga kelgan evolyutsiya konsepsiyasiga *institutsional determinizm* g‘oyasi qarshi turadi va u muhim barqarorlashtiruvchi omil hisoblanadi. Institutlar – o‘tmishda sodir bo‘lgan «jarayonlar natijasi» bo‘lib, ular o‘tmish holatlariga moslashgan va shuning uchun ijtimoiy mo‘rtlik, ruhiy omili hisoblanadi va barcha keyingi rivojlanish «doiralari» belgilab beradi. Shunday qilib, xolizmda individlarning manfaatlari va xatti-harakatlari ularning o‘zaro hamkorligini oldindan belgilab beruvchi institutlarning tavsifi orqali izohlanadi. Ya’ni, bunda institutlar birlamchi, individlar esa, ikkilamchi o‘rin tutadi.

1.3. Neoinstitutsional nazariyaning asosiy yo‘nalishlari

O‘rganish sohalari va ob’yektlarining xilma-xilligi shunga olib keladiki, neoinstitutsional nazariya mukammal nazariy tizim sifatida emas, balki bir necha muhim g‘oyalar bilan birlashgan yondashuvlar to‘plami sifatida namoyon bo‘ladi.

Neoinstitutsionalizmning asosiy yo‘nalishlari ichida o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan quyidagi tadqiqotlarni ajratish mumkin [30, 37, 40, 42, 47, 52, 56]:

- mulk huquqi nazariyasi – R.Kouz, A.Alchiyan va G.Demsets, R.Pozner, S.Peyovich va E.Furubotn – shartnomalar nazariyasiga asos bo‘ldi;

- transaksiya xarajatlari nazariyasi – R.Kouz, O.Uilyamson, D.Nort – iqtisodiy tashkilot nazariyasi (firma nazariyasi)ga asos bo‘lib xizmat qildi – M.Aoki, A.Alchiyan va G.Demsets, S.Chung, M.Jensen va U.Mikling, O.Uilyamson, Yu.Fama;

- ijtimoiy tanlov nazariyasi – J.Byukenen, T.Tallok, M.Olson – byurokratiya nazariyasi – K.Errou, V.Niskanen, S.Parkinson; jinoyat va jazolar iqtisodiy nazariyasi – G.Bekker, M.Fridmen, J.Stigler, M.Olson va b.; korrupsiya iqtisodiy nazariyasi – E.Kryuger, J.Stigler va b.; xufyona va norasmiy iqtisodiyot neoinstitutsional konsepsiyasining davomi bo‘ldi – E. de Soto, E.Fayg, K.Xart, T.Shanin, F.Shnayder;

- D.Nortning institutsional evolyutsiya konsepsiyasi yangi iqtisodiy tarixda o‘z ifodasini topdi – B.Gustaffson, D.Nort, R.Tomas va boshqalar¹.

Rossiya iqtisodiyot fanida neoinstitutsional nazariya R.I.Kapelyushnikov, O.S.Suxareva, A.N.Oleynik, V.M.Polterovich, V.L.Tambovseva, A.E.Shastitko va boshqalarning ishlarida rivojlantirilgan².

¹Қаранг: Бренделева Е.А. Неинституциональная теория. Учебное пособие / Под.ред. проф. М.Н.Чепурина. – М.: ТЕИС, 2003. – 253 с.; Даглас К.Норт. Институты и экономический рост: историческое введение. – М.: 2003. – 265 с.; Институциональная экономика: Учебник / Под общ. ред. А. Олейника. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 704 с.; Коуз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело, 1993. – 143 с.; Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.; Тарушкин А.Б. Институциональная экономика. Учебное пособие. – СПб.: Питер, 2004. – 368 с.; Ходжсон Джеффри. Экономическая теория и институты: Манифест современной институциональной экономической теории / Пер. с англ. – М.: Дело, 2003. – 464.

² Қаранг: Введение в институциональную экономику: Учебное пособие/ Под.ред. Д.С.Львова. – М.: Из-во “Экономика”, 2005. – 636 с.; Гребенников В.Г. Эволюция институциональных систем. - М.: "Наука", 2004. – 240 с.; Институциональная экономика: новая институциональная экономическая теория: Учебник /Под общей ред. д.э.н., проф. А.А. Аузана. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 416 с.; Кузьминов Я.И. Курс институциональной экономики: институты, сети, транзакционные издержки, контракты: учебник для студентов вузов. – М.: Изд.дом ГУ ВШЭ, 2006. – 442с.ва бошқалар.



Douglas Nort

Ingl. *Douglass Cecil North*

Tug'ilgan Yili: 5 noyabr
1920(1920-11-05)
(91 yosh)

Tug'ilgan joyi: Kembridj,
Massachusets

Vatani: AQSH

Ilmiy yo'nalishi: iqtisodchi

Alma-Mater: Kaliforniya
universiteti
Berkli

Unvonlari: Nobel mukofoti
"iqtisodchi"
(1993)

Xufyona va norasmiy iqtisodiyotning institutsional jihatlarini A.Auzan, L.Kosals, A.Oleynik, V.RadaEv, L.TimofeEv, Yu.Latov va boshqalarning ishida o'z aksini topgan.

Neoinstitutsional nazariyaning sanab o'tilgan yo'nalishlari o'rtasida ko'plab farqlar ham, umumiy jihatlar ham mavjud. Xususan, T.Eggertsson quyidagilarni ajratadi:

Birinchi, barcha ushbu mualliflar almashuvni tartibga soluvchi qoidalar va shartnomalarga nisbatan belgilanadigan cheklovlarni yaqqol ko'rinishda modellashtirishga intilishadi, bunda andoza sifatida ko'proq neoklassik modelda mulk huquqlarining eng na'munali yo'lidan foydalaniladi.

Ikkinchi, to'liq axborot va almashuvning nol darajali xarajatlari to'g'risidagi neoklassik taxminlar oydinlashtirildi, shuning uchun ijobiy transaksiya xarajatlarning oqibatlarini o'rganilmoqda.

Uchinchi, baholanadigan ne'matlarda faqat ikkita o'lchov – narx va sifat o'lchovlari mavjud, degan oddiy taxmin ancha yumshatildi, shu sababdan iqtisodiy

natijalar va iqtisodiy tashkilot uchun tovarlar va xizmatlar sifat o'zgarishlarining oqibatlarini tadqiq etilmoqda¹.

Yana bir bor shuni ta'kidlash lozimki, neoinstitutsional nazariya hozircha to'liq shakllanmagan: ta'riflar va atamashunoslik borasida to'liq uyg'unlikka erishilmagan, matematik modellardan mikroiqtisodiy nazariyadagiga qaraganda juda kam darajada foydalanilmoqda, empirik testlashga katta e'tibor qaratiladi (bu ayniqsa o'tish iqtisodiyotidagi jarayonlarni tahlil qilishda, masalan, xufyona sektorni o'rganishda, turli ma'muriy to'siqlarning samaradorligini tadqiq etishda yaqqol ko'zga tashlanadi).

1.4. Institutsional iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari

Institutsional iqtisodiyot rivojlanishidagi keyingi davr neoinstitutsional hamda yangi institutsional bosqichlardan iborat. Bosqichlarning nomlanishidagi o'xshashlilikka qaramay, institutlar tahlilida prinsipial jihatdan turli konsepsiyalar mavjud. Birinchi nomlanish neoklassikaning qat'iy negizini o'zgarishsiz qoldiradi. Institutlar tahliliga yangi unurni kiritish neoklassika nazariyasining «himoya qobig'i» to'g'risidagi fikrlarga tuzatishlar kiritish hisobidan yuz beradi. Aynan shuning uchun neoinstitutsional iqtisodiyot «iqtisodiy imperializm»^{*}ga misol sifatida keltiriladi: an'anaviy mikroiqtisodiy quroldan voz kechmagan holda «imperialistlar» ilgari neoklassik nazariyaga begana bo'lgan omillar – mafkura, xatti-harakat normalari, qonunlar, oila va hokazolarni tushuntirishga intilishadi. Ikkinchi nomlanish, aksincha, institutlarning neoklassikaning ilgarigi qoidalari bilan bog'liq bo'lmagan yangi nazariyasini yaratishga urinishni aks ettiradi.

Ronald Kouz «Firma tabiati» (1937), «Ijtimoiy xarajatlar muammosi» (1960) kabi maqolalarida birinchi bor neoinstitutsionalizmning tadqiqot dasturini


¹Эгертсон Т. Экономическое поведение и институты. –М.: ДЕЛЮ, 2001.-С. 18-19.

^{*} Иқтисодий империализм – неоклассик ёндашув асосида жамият тўғрисидаги фанларнинг тарқоқ оиласини умумлаштириш.

shakllantirgan edi. Ushbu dasturda neoklassik nazariyaning “himoya qobig‘i”ga quyidagi o‘zgartirishlar kiritilgan.

Birinchiidan, xususiy mulk bilan bir qatorda mulkchilikning jamoaviy, davlat, aksiyadorlik shakllari tahlil qilinadi va ularning bozorda bitimlarni ta’minlashdagi nisbiy samaradorligi taqqoslanadi. Ya’ni, mulkchilik shakllari va shartnoma shakllarining keng doirasi ko‘rib chiqilib, ular asosida almashuv amalga oshiriladi *Mulkchilik huquqlari nazariyasi* (R.Kouz, R.Pozner, S.Peyovich) va *optimal shartnoma nazariyasi* (J.Stiglits, Y.Maknil)ning tadqiqot dasturi ana shunday. Bu Erda mulkchilik huquqlarining o‘rnatilishi va samarali himoyalaniishi uchun mas’ul bo‘lgan davlat nazariyasi, *ijtimoiy tanlov nazariyasi* (J.Byukenen, G.Tallok), shuningdek, ijtimoiy tanlov nazariyasidan hosil bo‘lgan *konstitutsiyaviy iqtisodiyot* (V.Vanberg) ajralib turadi. Ayniqsa, konstitutsiyaviy iqtisodiyotning vazifasi neoklassika, «eski» institutsionalizmning tarkibiy qismi hisoblangan «tartib nazariyasi» hamda “ijtimoiy tanlov” unsurlarini uyg‘unlashtirishdan iborat.

Ikkinchiidan, neoklassik modelga *axborot xarajatlari*, ya’ni bitim to‘g‘risidagi va bozordagi vaziyat to‘g‘risidagi axborotni qidirish va olish bilan bog‘liq xarajatlar tushunchasi kiritiladi. *Axborot nazariyasi* (J.Stigler) neoinstitutsionalizm rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.



Ronald Garri Kouz
Ronald Harry Coase

Tug'ilgan yili:	<u>29 dekabr</u> <u>1910</u> (1910-12-29) (101 yosh)
Tug'ilgan joyi:	Uyillesden, <u>London, Angliya</u> <u>Britaniya imperiyasi</u>
Vatani:	AQSH
Ilmiy yo'nalishi:	<u>iqtisodchi</u>
Ish joyi:	<u>Ronald Kouz instituti;</u> <u>Chikago universiteti</u> <u>qoshidagi huquq</u> <u>maktabi</u>
Alma-mater:	London iqtisodiyot va siyosatshunoslik maktabi
Unvoni va Mukofotlari:	Nobel mukofoti 1991 yil "iqtisodchi"


Uchinchidan, ishlab chiqarish xarajatlari bilan bir qatorda *transaksiya xarajatlari* mavjudligi neoinstitutsionalistlar tomonidan ta'kidlandi. *Transaksiya xarajatlari nazariyasi* (R.Kouz, O.Uilyamson) uchun markaziy bo'lgan ushbu atama zamirida bitimlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan barcha xarajatlar tushuniladi. Transaksiya xarajatlari nazariyasi va mulkchilik huquqlari nazariyasini qo'llash natijasida *Yangi iqtisodiy tarix* (D.Nort), deb nomlangan tarixiy tahlil paydo bo'ldi.

Institutsional iqtisodiyot rivojlanishidagi ikkinchi bosqich *o'yinlar nazariyasi* (J. fon Neyman, O.Morgenshtern, J.Nesh)ning neoklassikadagi umumiy muvozanat modeliga nisbatan bildirgan tanqidiy xulosasi bilan boshlandi(qarang: 1.4.1-rasm).

Institutsional iqtisodiyot rivojlanishidagi ikkinchi bosqich o'yinlar nazariyasi (J. fon Neyman, O. Morgenshtern, J. Nesh)ning neoklassikdagi umumiy muvozanat modeliga nisbatan bildirgan tanqidiy hulosasi bilan boshlandi



Aynan o'yinlar nazariyasi yangi institutsional iqtisodiyot modellarining tilini shakllantirdi. O'yinlar nazariyasi quyidagi taxminlarga asoslanadi:



1.4.1-rasm.O'yinlar nazariyasining asosiy taxminlar.

Aynan o'yinlar nazariyasi yangi institutsional iqtisodiyot modellarining tilini shakllantirdi. O'yinlar nazariyasi quyidagi taxminlarga asoslanadi:

- a) bir necha muvozanat nuqtalari mavjud bo'lishi mumkin;
- b) muvozanat nuqtalari Pareto bo'yicha optimum nuqtalariga mos kelishi shart emas;
- v) muvozanat umuman mavjud bo'lmasligi mumkin.

Xulosa

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida bozor iqtisodiyoti munosabatlarning jadal rivojlanishi barobarida iqtisodiy tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytdi va chuqurlashdi. Bu bilan hozirgi zamon iqtisodiy ta'limotlarining yirik yo'nalishlari shakllandi. Ular uch yo'nalishdan iborat: neoklassika, institutsionalizm va keynschilik. Klassik nazariyaning marjinal yondashuv bilan kengayishi neoklassik nazariya sifatida namoyon bo'ldi.

Institutsionalizmning tadqiqot markazida institutlar – insonlar tomonidan barpo etiladigan va o'zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy me'yorlar va qoidalar turadi. Institutsional nazariya qoidalari neoklassik yondashuvga nisbatan yangi nazariya bo'lib, u bozor munosabatlari tahlilining yangi sohasidir. Individlarning va institutlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilishda metodologik individualizm va xolizm metodologiyasidan foydalaniladi. Ular institutlar yoki individlarning birlamchiligi nuqtai nazaridan bir-biridan farq qiladi.

Institutsional iqtisodiyot rivojlanishida o'zaro o'xshash nomdagi neoinstitutsional hamda yangi institutsional bosqichlardan iborat. Birinchi bosqichda mulkchilik huquqlari (R.Kouz, R.Pozner, S.Peyovich), optimal shartnoma, konstitutsiyaviy iqtisodiyot (V.Vanberg), ijtimoiy tanlov (J.Byukenen, G.Tallok), transaksiya xarajatlari (R.Kouz, O.Uilyamson), axborot (J.Stigler) nazariyalari, ikkinchi bosqichga *o'yinlar nazariyasi* (J. fon Neyman, O.Morgenshtern, J.Nesh), G.Saymonning to'liqsiz ratsionallik nazariyasi kiritilgan. D.Nort tadqiqotlarida individlarning institutsional doiralarni o'zgartirishga qodirligi ta'kidlanadi.

Yangi institutsional iqtisodiyotning eng yoyiq ko'rinishdagi dasturi *kelishuvlar iqtisodiyoti* (L.Tevano, O.Favro, A.Orlean, R.BuaE)dir. Uni tahlil qilish markazida kelishuvlar turadi. Kelishuvlar individlarning o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning umumiy doiralari sifatida qabul qilinadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCh IBORALAR

Institutsional iqtisodiyot – bu iqtisodiy nazariya va xo‘jalik amaliyotini institutsional o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligida o‘rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarning ilmiy yo‘nalishlaridan biridir.

Institutsionallashtirish – individlar o‘rtasidagi munosabatlarda jamiyat a‘zolarining katta qismi tomonidan foydalaniladigan muayyan qoidalar yoki normalarni mustahkamlash.

Institutsional vakuum – bu ilgarigi xo‘jalik tizimini boshqarish mexanizmining tugatilishi va yangi mexanizmning mavjud emasligi tufayli institutsional tizimda eng kam transaksiya xarajatlariga ega bitimlarning amalga oshirilishini qo‘llab-quvvatlashga qodir bo‘lgan rasmiy institutlarning mavjud emasligi yoki Etishmasligi.

Institutsional nizo – rasmiy va norasmiy qoidalar o‘rtasidagi nomuvofiqlik natijasi. Bir holatda, institutsional nizo istiqbolsiz institutlarning paydo bo‘lishiga, boshqa holatda esa samarasiz bo‘lsa-da barqaror hosilalar – institutsional tuzoqlarning paydo bo‘lishiga olib keladi.

Institutsional texnologiya – bu institutlarni joriy etish (import qilish), shuningdek iqtisodiy tizim faoliyat ko‘rsatishi transaksiya xarajatlarning pasayishiga olib kelishga va iqtisodiy o‘sishni ta‘minlashga qodir bo‘lgan yangi institutlarni ishlab chiqish (etishtirish) bilan bog‘liq texnologiya.

Institutsional tuzoq – o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo‘lgan samarasiz barqaror norma (samarasiz institut).

Iqtisodiy resurslar – ishlab chiqarishda foydalaniladigan omillar yoki ishlab chiqarish omillari.

Iqtisodiy o‘shish – ishlab chiqarishda foydalaniladigan resurslar miqdorini oshirish yoki texnologiyani takomillashtirish orqali jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ishlab chiqarish omillari – cheklangan bo‘lib, ularga mehnat (labour), kapital (sapital), materiallar (xom ashyo, butlovchi qismlar, elektr energiyasi, gaz, suv va xokazo), Er (land).

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR:

1–misol. Hozirgi paytda korxonada va tashkilotlarda ish xaqi tarqatishning birinchi kunida juda ko‘p odamlar navbatda to‘planadi. Natijada ish vaqti yo‘qotiladi va turli xil asab buzilishlar sodir bo‘ladi. Siz bu salbiy hodisalarni oldini olish uchun rahbar sifatida kassirga qanday maslahat berar olasiz?

2–misol. Siz rahbarlik qilayotgan salqin ichimlik zavodining mahsulotlari ichki bozorda o‘tmay qoldi. Sotish hajmini va foyda miqdorini ko‘paytirish uchun korxonada rahbari sifatida qanday qaror qabul qilasiz?

3–misol. Sizning 5 soat bo‘sh vaqtingiz bor. Ishlaringiz ularning muhimligi bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

- a) mashg‘ulotlarga tayorgarlik 2 soat;
- b) yangi gazetalar bilan tanishib chiqish 1 soat;
- v) kvartirani tozalash 1 soat;

Siz bu ishlarni bajarmoqchi bo‘lib turganingizda kinoteatrda anchadan beri ko‘rmoqchi bo‘lib yurgan filmingiz qo‘yilayotganligini eshitdingiz. Bir seriyali filmni ko‘rish siz uchun qanchaga tushadi? Ikki seriyali filmni ko‘rishchi?

4–misol. Faraz qilaylik, o‘qishni tomomlaganingizdan so‘ng sizni uzoq bir shaharga ishga taklif qilishdi. Siz uzoq bir joyga, sizning kasbingiz juda ham zarur bo‘lgan joyga borishingiz kerak. Siz bu taklifni qanday shartlar asosida qabul qilasiz? Bu masalani hal qilishda kimlar bilan maslahatlashasiz?

QUYIDA KELITIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Nazariya amaliyotda qo‘llanish uchun, u har bir aniq hodisada tasdiqlanishi shart.

2. Institutsional iqtisodiyot fanini o'rganishning asosiy maqsadi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdan iborat.
3. Institutsional iqtisodiyot–bu iqtisodiy nazariya va xo'jalik amaliyotini institutsional o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligida o'rganuvchi zamonaviy iqtisodiy fikrlarning ilmiy yo'nalishlaridan biridir.
4. Agar iqtisodchilar asosiy iqtisodiy tamoyillarning rivojlanish qonunlariga bir hil baho berishsa, demak ularning siyosiy qarashlari ham o'xshash bo'ladi.
5. Iqtisodiyot aniq fan emas, lekin ko'plab aniq muammolar tadqiqotining statistik uslublaridan foydalana oladi.
6. Institutsional iqtisodiyot aniq fan bo'lmaganligi holda, tahlilning ilmiy uslublaridan foydalana olmaydi.
7. Bir sharoitda amalga oshirilgan iqtisodiy siyosat, boshqa sharoitda noto'g'ri amal qilishi mumkin.
8. Normativ iqtisodiyot “aslida qanday” emas, “nima qanday bo'lishi kerak” savolining tahliliy muammolari bilan shug'ullanadi.
9. Tabiiy fanlardan farqli ravishda, institutsional iqtisodiyot fani, fundamental nazariy asoslarga tayangan holda amaliy faoliyat bilan yaqinroq bog'liqlikka ega.
10. Oliy matematikani o'zlashtirmasdan turib, institutsional iqtisodiyot fanini o'rganish mumkin emas.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. **Institutsional iqtisodiyot nazariyalari qaysi asrdan rivojlangan?**
 - A. XVII asrda Evropada dastlab V.Petti, Buagilber, keyinroq esa, A.Smit va D.Rikardolarning klassik iqtisodiy ta'limotlari bilan tavsiflanadi.
 - B. XXI asrning Etmishinchi yillariga kelib, neoklassik nazariya sifatida A.Marshall asos solgan.
 - C. Keyinchalik J.B.Klark 90 yillarda rivojlantirgan.
 - D. A.Smit va D.Rikardolar XX asrda rivojlantirgan.
2. **Neoklassik nazariyaning asosiy tamoyillari nechta qismdan iborat?**

- A. Ikkita qismdan.
- B. Uchta qismdan.
- C. To‘rtta qismdan.
- D. Beshta qismdan.

3. Neoklassik nazariyaning asosiy tamoyillari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Asosiy tamoyillarning birinchisi klassik “eski”, ikkinchisi neoklassik “yangi” tamoyillarini tashkil etadi.
- B. klassik “yangi” tamoyillari, neoklassik “eski” tamoyillari asosida
- C. Klassikaning “eski va yangi” tamoyillari.
- D. Neoklassikaning “eski va yangi hamda kelajakdagi” tamoyillari tashkil etadi.

4. Klassikaning “eski” tamoyillariga nimalar kiradi?

- A. Bozorda hamma vaqt muvozanat mavjud, u yagona Pareto optimumi talablariga mos keladi.
- B. Bozorda oqilona tanlovni amalga oshirish
- C. Bozorda ayirboshlashni amalga oshirish
- D. Individlarda bitim to‘g‘risidagi barcha axborot mavjud.

5. Neoklassikaning “yangi” tamoyillariga nimalar kiradi?

- A. Bozorda ayirboshlashni amalga oshirish uchun resurslarning xususiy mulkni tashkil etishi asosiy zamin hisoblanadi.
- B. Bozordagi barcha bitimlar to‘g‘risida axborotlarni yig‘ish.
- C. Bozorda hamma vaqt muvozanat mavjud, u yagona Pareto optimumi talablariga mos keladi.
- D. Bozorda individlar tomonidan oqilona tanlov amalga oshirish

6. Institutsionalizmning nazariy yo‘nalish sifatida shakllanishi bevosita qaysi nazariyalar bilan bog‘liq?

- A. Klassik va neoklassik nazariyalar bilan.
- B. Keynisch nazariyalar bilan.
- C. Neokeynschi nazariya bilan
- D. Neoklasik va neokeynschi nazariyalar bilan

7. Rossiyalik olim R.NureEvning fikriga ko'ra, "eski" institutsionalizm bilan neoinstitutsionalizm o'rtasida, kamida nechta asosiy farq mavjud?

- A. Kamida ikkita.
- B. Kamida uchta.
- C. Kamida to'tta.
- D. Kamida beshta.

8. Neoinstitutsional nazariyaning o'rganish asosi nima?

- A. Alohida individlarni o'rganadi.
- B. Umumiy ravishda guruhlar faoliyatini.
- C. Bozor sub'yektlarini.
- D. Iqtisodiy sub'yektlar.

9. Institutsionallashtirish – nima?

- A. Individlar o'rtasidagi munosabatlarda jamiyat a'zolarining katta qismi tomonidan foydalaniladigan qoidalar yoki normalarni mustahkamlash.
- B. Transaksiya xarajatlariga ega bitimlarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash.
- C. Xo'jalik tizimini boshqarish mexanizmi.
- D. Rasmiy va norasmiy qoidalarni amalga oshirish.

10. Institutsional vakuum– nima?

- A. Individlar o'rtasidagi munosabatlarda jamiyat a'zolarining katta qismi tomonidan foydalaniladigan muayyan qoidalar yoki normalarni mustahkamlash.
- B. Bu ilgari xo'jalik tizimini boshqarish mexanizmining tugatilishi va yangi mexanizmning mavjud emasligi tufayli institutsional tizimda eng kam transaksiya xarajatlariga ega bitimlarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan rasmiy institutlarning mavjud emasligi yoki Etishmasligi.
- C. Transaksiya xarajatlariga ega bitimlarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlash.
- D. Xo'jalik tizimini boshqarish mexanizmi.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Institutsional nazariyalar paydo bo'lishi sabablari?
2. Institutsional nazariyalarning rivojlanishi?
3. Institutsionalizmning asosiy xususiyatlari?
4. Institutsionalizmning nazariy yo'nalish sifatida shakllanishi bevosita qaysi nazariyalar bilan bog'liq?
5. Institutsionalizm nazariyasining rivojlanish davrlari?
6. Institutsionalizmning uchta asosiy yo'nalishlarining shakllanishi?
7. Institutsionalizmning metodologik asoslari?
8. Institutsional tahlilda boshlang'ich nuqta masalasi?
9. Neoinstitutsional nazariyaning asosiy yo'nalishlari?
10. Institutsional vakum deganda nimani tushunasiz?

II BOB. INSTITUTLAR VA ULARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI

2.1. “Institut” va “norma” tushunchalarining mohiyati

2.2. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi

2.3. Institutsional matritsa

2.4. Institutsional o‘zgarishlar va institutlarning o‘zaro bog‘liqligi.

2.1. “Institut” va “norma” tushunchalarining mohiyati

Institutlar jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Agar bir daqiqaga barcha institutlar yo‘q bo‘lib ketishini tasavvur qiladigan bo‘lsak, u holda tartibsizlik boshlanib ketgan bo‘lardi va bu hol, o‘z navbatida, abadiy davom etmas edi. Chunki insonlarning o‘z hayotini tartibga keltirishga urinishlari yangi institutlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan bo‘lardi.

Institutlar tabiatini yanada chuqurroq tahlil qilish global xususiyatlarga ega bo‘lgan qator savollarga, xususan, nima uchun bozorlar “ishlaydi” yoki “ishlamaydi”? Iqtisodiy siyosatning u yoki bu tadbirlari nima uchun samarali yoki samarasiz bo‘ldi? Iqtisodiyotdagi qaysi o‘zgarishlar ichki sabablarga ko‘ra yohud hukumatning u yoki bu qarori tufayli yuzaga keldi, degan savollarga javob topish imkonini beradi.

Institutlar o‘zi nima? Turli davrlar tadqiqotchilari institutlar mohiyatini va ularning faoliyat ko‘rsatish mexanizmini yoritvchi bir necha ta’riflarni asoslashgan(2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval.

Institut tushunchasiga yondashuvlar.

Olimlar f.i.sh.	Institut tushunchasiga ta’riflar
T.Veblen	<i>Institutlar</i> – bu insonlar ularga amal qilgan holda turmush

	kechiradigan odatiy tafakkur tarzi
	<i>Institutlar</i> – bu o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlar natijasi bo‘lib, ular o‘tmish sharoitlariga moslashgan va, o‘z navbatida, hozirgi vaqt talablariga to‘liq moslashmagan
E.Erdvard	<i>Institutlar</i> – bu ko‘plab individuumlar ulardan hamma joyda va har kuni foydalanadigan va asosan o‘zining noyobligi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy ne‘matlar. Institutlar almashuv jarayonini soddalashtiradi. Ular – qarorlar qabul qilish jarayonining yakka tartibdagi qarorlarni ijobiy qarorlarga aylantiruvchi ajralmas qismi
J.Xodjson	<i>Institutlar</i> – an‘ana, urf-odat yoki qonunchilik cheklovi orqali uzoq muddatli va barqaror hulq-atvor namunalarning yaratilishiga olib keluvchi ijtimoiy tashkilot
B.Z.Milner	<i>institutlar</i> – bu insonlar tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlar hamda ularning o‘zaro hamkorligini tarkiblashtiruvchi majburlash omillari. Bularning barchasi birgalikda jamiyat va iqtisodiyotning undovchi tarkibini hosil qiladi
Umumiy tushuncha	Institut – bu jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi. Institutlar asosini uning tarkibiy qismlari hisoblangan normalar tashkil etadi.

T.Veblen institutlarni quyidagicha ta’riflagan: “*Institutlar* – bu insonlar ularga amal qilgan holda turmush kechiradigan odatiy tafakkur tarzi” yoki “*Institutlar* – bu o‘tmishda sodir bo‘lgan jarayonlar natijasi bo‘lib, ular o‘tmish sharoitlariga moslashgan va, o‘z navbatida, hozirgi vaqt talablariga to‘liq moslashmagan”¹.

¹ Веблен Т. Теория праздного класса. М.: Прогресс. 1987-С.43.

E.Erdvard tomonidan “*Institutlar* – bu ko‘plab individuumlar ulardan hamma joyda va har kuni foydalanadigan va asosan o‘zining noyoblighi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy ne‘matlar. Institutlar almashuv jarayonini soddalashtiradi. Ular – qarorlar qabul qilish jarayonining yakka tartibdagi qarorlarni ijobiy qarorlarga aylantiruvchi ajralmas qismi”, deya ta’riflangan¹.

J.Xodjsonning ta’riflashicha, “*Institutlar* – an’ana, urf-odat yoki qonunchilik cheklovi orqali uzoq muddatli va barqaror hulq-atvor namunalari yaratilishiga olib keluvchi ijtimoiy tashkilot”².

Institutlarni ko‘z bilan ko‘rib, ularni jismonan his etib yoki o‘lchab bo‘lmaydi. Bu inson ongi bilan yaratilgan o‘ziga xos konstruksiyalar, ko‘zga ko‘rinmaydigan mexanizmlardir. Institutlar insonlarning muayyan jamoasiga xos bo‘lgan tafakkur tarzini aks ettiradi.

Institutlarning yana boshqa bir ta’rifi B.Z.Milner tomonidan D.Nort yozgan so‘zboshishida keltirilgan: “*institutlar* – bu insonlar tomonidan ishlab chiqilgan cheklovlar hamda ularning o‘zaro hamkorligini tarkiblashtiruvchi majburlash omillari. Bularning barchasi birgalikda jamiyat va iqtisodiyotning undovchi tarkibini hosil qiladi”³.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar institutlarning asosiy xususiyatlarini qamrab olgan holda, ularning asosiy funksiyalarini hamda rivojlanish qonunlarini aks ettiradi hamda jamiyatni rivojlantirish uchun institutlarning muhimligini ta’kidlaydi. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha holatlarni umumlashtirgan holda, institutsionalizmning hozirgi zamon talqinlariga asosan institutlarni quyidagicha ta’riflash mumkin:

Institut – bu jamiyat a’zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi. Institutlar asosini uning tarkibiy qismlari hisoblangan normalar tashkil etadi.

¹ Каранг: On Economic Institutions: Theory and Applications. Alder-shot: Edrdward Elgar, 1995. –с. 19.

² Каранг: Ходжсон Джеффри. Экономическая теория и институты: Манифест современной институциональной экономической теории / Пер. с англ. – М.: Дело, 2003. – 464 с.

³ Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги. «Начало», 1997. –с. 6.

Norma – institutsional muhitda individlarning o‘z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu unsur: tartibni saqlash funksiyasiga ega; o‘zaro hamkorliklar tizimida majburiy xatti-harakat bajarilishini talab etadi; shaxslar xatti-harakatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik sanksiyaga tayanuvchi muntazamlik hamda muqarrarlikni aks ettiradi; shaxsning turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishi lozimligini belgilaydi. Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib beshta unsurdan iborat:

- ◆ individlarning guruhlanish belgilari;
- ◆ muqarrarlik omili (kerak yoki kerak emas);
- ◆ maqsad;
- ◆ norma harakatda bo‘lgan shart-sharoitlar;
- ◆ sanksiyalar.

Ajratilgan ushbu 5 ta unsur normalarning turli xillarini, ya’ni hamkorlik strategiyasini, xususan, normaning o‘zini (tor ma’noda) va qoidalarni cheklash imkonini beradi. Norma xillari quyidagilardan iborat:

Hamkorlik strategiyasi = belgi + maqsad + shart-sharoit;

Norma = belgi + muqarrarlik omili + maqsad + shart-sharoit;

Qoida = belgi + muqarrarlik omili + maqsad + shart-sharoit + sanksiya.

Shaharda yoki supermarketda bir-birlarini yo‘qotgan odamlarni qidirish hamkorlik strategiyasiga misol bo‘ladi. Bunda: individlarning guruhlanish belgisi – bir-birini yo‘qotganlik fakti; maqsad - bir-birini topish; shart-sharoit – uchrashish ehtimoli yaqin bo‘lgan ko‘zga tashlanuvchi narsa yoki buyumning mavjudligi bo‘ladi.

Torroq ma’noda norma kelishuv tushunchasiga mos keladi. Chunki kelishuv ko‘rsatmasini bajarish o‘ta ixtiyoriy xususiyatga ega. Qoidaga o‘tishda ko‘rsatmalarni bajarishning ixtiyoriy xususiyati yo‘qoladi, ya’ni bunda sanksiya ishga tushadi.

Normaning inson xatti-harakatiga ta’siri haqidagi munozara sotsiologiya va iqtisodiy nazariya o‘rtasidagi chuqur tarixiy ildizga ega bo‘lgan qarama-qarshilik

bilan bog‘liq. Sotsiologlar normada insonlar xatti-harakatining ularga tashqaridan berilgan va *ekzogen* xususiyatga ega bo‘lgan mutlaq natijasini ko‘radilar. Homo sociologicus xatti-harakati umuman olganda jamiyatning normativ tarkibi bilan aniqlanadi. Normalarning o‘zlari esa, sotsiologlarning fikriga ko‘ra, jamiyat xususiyatlaridan hosil bo‘lgan va uni takror ishlab chiqarish vazifasini ko‘zlaydi.

Iqtisodchilar esa klassik siyosiy iqtisod davridan buyon normalarning bunday talqin etilishiga qo‘shilmaydilar. Chunki norma tanlash erkinligini istisno etadi. Homo economicus o‘z tanlovida, shu jumladan norma tomonidan qo‘yiladigan cheklovlardan holi. Iqtisodchilar shaxs tanlovining institutsional cheklovchisi sifatida normalarning mavjud bo‘lishini umuman inkor etadi. Yoki normalarga oqilona izoh berishga, aniqrog‘i, ularda tashqaridan berilgan xatti-harakat natijasini emas, balki *anglab Etilgan tanlov natijasini* ko‘rishga intiladi.

Umuman olganda, ijtimoiy tanlash nazariyasida normalar: oqilona tanlash natijasi sifatida qaraladi. Kelishuvlar iqtisodiyotida esa normalar oqilona xatti-harakatning omili sifatida tahlil qilinadi.

Ijtimoiy tanlash nazariyasi (D.Byukenen) birinchi galda siyosiy tanlov natijasini aks ettiruvchi va *huquqda* qayd etiladigan yuridik normani o‘rganadi. Yuridik normalarni izohlash uchun oqilona tanlashning neoklassik modelidan foydalaniladi. Xususan, shu narsa nazarda tutiladiki, Byukenen uchun siyosat - bu huddi insonlar bozorda faqat o‘z afzal bilishlariga amal qilgan holda tovarni xarid qilgani kabi, uning asosida ular turli xil muqobil variantlarni, ularni o‘z qadr-qimmatini bilan qiyoslagan holda, tanlaydigan murakkab institutsional jarayon hisoblanadi. Boshqa so‘z bilan aytganda, norma va qoidalar siyosat bozorida shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik natijasida paydo bo‘ladi. Bundan normalarni baholashning navbatdagi mezoni – ularning samaradorligi kelib chiqadi. Normalar faqat ular o‘ziga xos qadr-qimmatga asoslanganda samarali bo‘lib, yakka manfaatlarni o‘zaro foydali tarzda amalga oshirishga ko‘maklashadi¹.

¹Қаранг: Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.

Ijtimoiy tanlash nazariyasiga xos bo'lgan oqilona tanlov modeli yordamida normalarni talqin qilishdan farqli ravishda, kelishuvlar iqtisodi normalarga amal qilishda (bunda normalar tashqaridan berilgan) ekzogen hisoblanishiga qaramasdan, oqilona xatti-harakatning omilini ko'rishni taklif etadi. Bunday bir qarashda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan oqilona tanlash natijasi hisoblanmagan normalarni bajarish, oqilona xatti-harakatning shartiga aylanadi. Ammo bozordagi bitimlar ishtirokchilarining oqilonalik talabi ushbu o'ziga xoslikni izohlash imkonini beradi.

Kelishuvlar iqtisodi normani bozorda ishtirokchilar tomonidan istaklar va afzalliklarning o'zaro talqin etilishi uchun zamin sifatida ko'rib chiqishni taklif etadi (2.1.2-jadval). Shu nuqtai nazardan normaga amal qilish shaxs uchun o'z maqsadlari (signaling) haqidagi xabarlarni kontragentgacha Etkazish usuliga aylanadi. Shaxslar o'z xatti-harakatiga nisbatan bir-birini istisno etuvchi talablarni muvofiqlashtirishga va o'z tomonlarining harakatlariga nisbatan ishonchli fikrlarni bildirishga qodir bo'lmay qoladi. Ko'rib chiqilayotgan yondashuv doirasida kelishuvlar nisbatining quyidagi variantlari tahlil qilinadi.

1. *Ekspansiya* – unda o'zaro hamkorlikni tashkil qilish ilgari boshqa kelishuvlar ustuvorlik qilgan sohalardagi kelishuvlardan birining normalari asosida amalga oshadigan kelishuvlar nisbati. Masalan, siyosiy soha siyosiy bozorga aylanishi mumkin, bunda fuqarolik kelishuvining normalari bozor kelishuvi normalari tomonidan siqib chiqariladi.

Bozor kelishuvining ekspansiyasi o'ta xavfli, u boylikning o'ta nomutanosib taqsimlanishiga va undan siyosiy hokimiyat omili sifatida foydalanishga olib kelgan holda jamiyat rivojlanishini barqarorlikdan mahrum etadi.

2. *Urinish* – unda bir o'zaro hamkorlikning o'zi bir-birini istisno etuvchi normalar asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kelishuvlar nisbati. Shu nuqtai nazardan birinchi bo'lib K.Errou tomonidan tadqiq etilgan qon topshirish bunga aynan mos misol bo'ladi. Gap shundaki, qon odatda pulga (bozor kelishuvi) yoki birdamlik nuqtai nazardan bepul (fuqarolik kelishuvi) topshiriladi. Ushbu

noo'xshatishlik shaxslarning qon topshirish yuzasidan o'zaro hamkorligida noaniqlikning yuqori darajasini belgilab beradi.

3. *Murosa* – unda turli kelishuvlar talablari o'rtasidagi ziddiyatga barham beruvchi egiluvchan normalar namoyon bo'ladigan kelishuvlar nisbati. Masalan, har qanday reklama kampaniyasi bozor kelishuvi va ijtimoiy fikr talablari o'rtasidagi murosani topishni nazarda tutadi. Ushbu ikki kelishuv o'rtasidagi murosaga boshqa misol – ko'r-ko'rona iste'mol, bunda shaxs o'z iste'mol tanlovida tovar yoki xizmatni iste'mol qilishdan foydalilikni oshirishni emas, balki u iste'mol qilish tufayli qo'lga kiritadigan hurmatga erishishni ko'zlaydi.

2.1.2-jadval

Bozor ishtirokchilarining o‘zaro kelishuvlar bo‘yicha xatti-harakatlari normasi*


Kelishuvlar xili	Xatti-harakatning asosiy normasi	Kelishuv predmeti	Axborot manbai	Vaqt (hozir, o‘tmish va kelajak)	Faoliyat sohasi (misol)
Bozor	Boshqa shaxslar ehtiyojlarini qon-dirish orqali foydalilikni oshirish	Tovar va pul	Narx	Hozirgi vaqtni nazarda tutish	Klassik bozor
Industrial	Ishlab chiqarish uzluksizligi, hamkorlikni texnologiya talablariga bo‘ysundirish orqali ta‘minlaydi	Texnologik jihozlar	Standartlar	Bitimlar kelgusini hozirgi davrga aks ettirish	Harbiy-sanoat majmui
An’anaviy	An‘analarning takrorlanishini ta‘minlaydi; kattalik tamoyili	O‘tmishga xos bo‘lgan buyumlar	Odatlar, an‘analar	Bitimlar o‘tgan davrni aks ettirish hisoblanadi	Oila
Fuqarolik	Jamoaviy manfaatlarga bo‘ysunish, mo‘ljal - Pareto optimum	Ijtimoiy boylik	qonun	Hozirgi davrni nazarda tutish	Siyosiy hayot
Ijtimoiy fikr	Mashhurlikka erishish, jamoat e‘tiborini jalb etish	Nufuzli buyumlar	Duv-duvlar	Hozirgi davrni nazarda tutish	Ommaviy axborot vositalari
Ijodiy faoliyat	O‘xshashi yo‘q, betakror natijaga erishish	Ixtiro	Iqtidor	Diskret vaqt	Ijodiy faoliyat
Ekologik	Tabiat bilan uyg‘unlashuv, ekologiya talablariga bo‘ysundirish	Tabiat ob‘yektlari	Atrof muhit haqidagi axborot	Vaqtning davriyligi: tabiiy davriylik	Tabiat muhofazasi

* Manba Oleynik A. Norma kak bazovyy element institutov / Voprosy ekonomiki. –M.: 1999, №2. –S.142.

2.2. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi

Institutsionalizm asoschilaridan biri D.Nort institutlar tarkibida normalarni uchta asosiy qismga ajratadi:

- rasmiy qoidalar (konstitutsiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma'muriy hujjatlar va b.);
- norasmiy normalar (an'analar, urf-odatlar, ijtimoiy shartlilik);
- qoidalarga amal qilinishini ta'minlovchi (sudlar, ichki ishlar organlari, xavfsizlik organlari, davlat va nodavlat nazorat organlari va h.k.) majburlash mexanizmlari (masalan, jazolash tizimi)(qarang:2.2.1-rasm).



2.2.1-rasm. Institutsional tizimda normalarning tarkibiy qismlari.

“Institut”ning yuqorida keltirilgan ta’rifidan kelib chiqib, institutlar inson tomonidan ongli ravishda yaratilgan turli hujjatlar (konstitutsiyalar, qonunlar va

h.k.) ko‘rinishidagi rasmiy, “yozilgan” qoidalarda ifodalanishi mumkin. Shu bilan birga ular umumiy qabul qilingan shartlilik, xatti-harakat kodekslarida, ya’ni norasmiy, “yozilmagan” normalarda namoyon bo‘ladigan, jamiyatning barcha sohalariga kirib borib, an’analar, urf-odatlar ko‘rinishida yoki boshqa shaklda amal qilinadigan inson ongining mahsulini o‘zida namoyon etishi mumkin.

Agar rasmiy qoidalar tizimi insonlar (davlat)ning qonun ijodkorligi faoliyatini o‘zida aks ettirsa, u holda norasmiy normalar tizimi qay tarzda shakllanadi, degan savol tug‘iladi.

T.Veblenning konsepsiyasiga ko‘ra, institutlarning o‘zgarishi tabiiy tanlab olish qonuniga muvofiq ravishda kechadi. Insonning jamiyatdagi hayoti, huddi boshqa turdagi hayot kabi – bu yashash uchun kurashish va, o‘z navbatida, tanlab olish va moslashish. Uning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tuzum evolyutsiyasi ijtimoiy institutlarni tabiiy tanlab olish jarayoni bo‘ldi. Institutlar – inson jamiyati va inson tabiatining rivojlanishda davom etishi va shu nuqtai nazarda erishilgan taraqqiyotni umumiy ko‘rinishda eng ko‘p moslashgan tafakkur tarzini tabiiy ravishda tanlash va individlarni jamiyat rivojlanishi bilan izchil o‘zgarib turadigan yangi sharoitlarga majburiy moslashtirish jarayoni, deyish mumkin. Shunday qilib, T.Veblenning talqinida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (“ijtimoiy tuzum evolyutsiyasi”) turli xildagi institutlarni “tabiiy tanlash” jarayonini amalga oshirish sifatida namoyon bo‘ladi¹.

T.Veblenning nuqtai nazari F.XaEk²ning qarashlariga yaqin. XaEkning fikriga ko‘ra, jamiyatda qaror topgan ahloq qoidalari va normalarini tanlashni biologik tanlovga qiyoslash mumkin. Uning hisoblashicha, rasmiy qoidalar bilan bir qatorda (an’analar va urf-odatlar ko‘rinishida) norasmiy normalarning mavjud bo‘lishi shu bilan shartlanganki, “tanlab olish jarayonida, shakllangan urf-odatlar va ahloqda haqiqiy holatlar soni hisobga olinishi mumkin – individlar qabul qilishi mumkin bo‘lgan narsalardan ko‘proq; buning oqibatida, an’ana ma’lum jihatlarda

¹ Қаранг: Веблен Т. Теория праздного класса. М.: Прогресс. 1987.

² Хайек Ф.А. Пагубная самонадеянность. Ошибка социализма. –М.: Новости, 1992. –С.133.

inson ongidan ustun turadi”. Jamiyat qanchalik ko‘p xilma-xillikka yo‘l qo‘ysa, ijtimoiy maqsadga muvofiq institutlarni tanlab olish shunchalik samarali kechadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan shu narsa kelib chiqadiki, agar rasmiy qoidalar sun‘iy tarzda o‘ylab topilishi va majburan joriy etilishi mumkin bo‘lsa, F.XaEkning ta’kidlashicha, norasmiy normalar “qandaydir o‘tmishdagi voqealar bilan belgilanadi, lekin qandaydir tuzilma yoki model (institutsional matritsa)ning ongsiz tarzda o‘zini o‘zi tashkil etishi jarayonining tarkibiy qismi sifatida shakllanadi”¹. Boshqacha aytganda, norasmiy institutlar – bu shartlilik, o‘zini o‘zi qo‘llab-quvvatlovchi, uchinchi tomon (davlat)ning aralashuvisiz, o‘z o‘zidan bajariladigan qoidalardir. Ta’kidlash lozimki, “evolyutsiya” atamasidan foydalanilsa-da, tabiiy tanlash nazariyasi izchil institutsional o‘zgarishlarga nisbatan hamma vaqt ham qo‘llanilmaydi. Chunki eng “yaxshi” institut hamma vaqt ham yashovchan bo‘lmaydi. Ikkinchi tomondan, institutlarning bir holatdan ikkinchi holatga doimiy ravishda o‘tishi hamma vaqt ham tashqi omillar ta’siri ostida kechmaydi. Ba’zi bir institutlar normativ tarzda mustahkamlanib norasmiy turdan rasmiy institutlarga aylanadi, boshqalari esa, rasmiy institutlar sifatidagi avvalgi ahamiyatini yo‘qotib va huquqiy tizimdan chiqarilgan holda norasmiy ko‘rinishga ega bo‘lishi mumkin.

Amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, ko‘p holatlarda norasmiy normalar jamiyatda “tartibni” ta’minlashda rasmiy qoidalarga qaraganda g‘oyat katta rol o‘ynaydi. Bunga qator omillar xizmat qiladi:

1. Har qanday jamiyatda faoliyatning alohida sohalari rasmiy qoidalar mavjud bo‘lmaganda faqat norasmiy normalar bilan tartibga solinadigan vaziyatni kuzatish mumkin. Xo‘jalik yuritishning jamoa shakli paydo bo‘lishi davrida urug‘doshlik va ular a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlar yoki mafiya (kriminal) guruhlar o‘rtasidagi munosabatlar, O‘zbekistonda mahallada yashovchi aholi orasida keng tarqalgan odatlar va qoidalar bunga misol bo‘lib xizmat qiladi.

Qoidalarga zarurat hamma vaqt, bittadan ko‘p sub’ekt mavjud bo‘lib, ular o‘rtasida qandaydir munosabatlar yuzaga kelgan taqdirda, tug‘iladi. Bunda

¹ Хайек Ф.А. Пагубная самонадеянность. Ошибка социализма. –М.: Новости, 1992. –С. 20.

sub'yektlarning turli guruhlaridagi qoidalar bir xil bo'lishi ham, bir-biridan yaqqol farq qilishi ham mumkin. Alohida oila yoki alohida jamoa doirasidagi munosabatlar ana shunday qoidalarga eng oddiy misol bo'lib xizmat qiladi. Oila doirasidagi munosabatlar norasmiyligicha qoladi, jamoaning qarindoshlar bo'lmagan a'zolari o'rtasidagi munosabatlar esa, aksariyat hollarda shartnoma yoki boshqa hujjat ko'rinishida (fuqarolik kodeksida davlat doirasida) rasmiy tarzda mustahkamlandi.

2. Norasmiy normalar jamiyatda rasmiy qoidalarga qaraganda ancha oldin paydo bo'lib, ko'p jihatdan rasmiy, qonunchilik bilan mustahkamlangan normalar uchun asos bo'lib xizmat qildi. Norasmiy normalarning rasmiy qoidalar sifatida mustahkamlanishiga istalgan mamlakatning tarixida ko'plab misollarni uchratish mumkin.

2.3. Institutsional matritsa


Institutsional matritsa sotsiologiya fani doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, unda sotsiologik tushunchalardan foydalaniladi. Ammo ushbu konsepsiya jamiyatning barcha sohalarida, shu jumladan iqtisodiyotda hamda huquqiy jarayonlarni tahlil qilishda qo'llanilishi mumkin.

Shuni hisobga olib, institutsional matritsaning nisbatan yangi konsepsiyasini ko'rib chiqamiz. Institutsional matritsaning nazariy g'oyasi jamiyatni tahlil qilishga nisbatan tarkibiy-tizimli yondashuvni amalga oshiradi.

Institutsional matritsa – bu tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo'lishini va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o'z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.

Bu Erda institutlar sotsium yashovchanligining tashqi sharoitlari bilan shartlangan jamiyat a'zolari o'rtasidagi muayyan va muqarrar aloqalar tizimi sifatida tushuniladi. Ushbu holatda gap insonning takror shakllanishini tartibga

soluvchi ijtimoiy institutlar (ular jumlasiga oila, salomatlik va boshqa institutlar kiradi) haqida emas, balki davlatlarning takror shakllanishini va ijtimoiy hayotning asosiy sohalarini tartibga soluvchi sotsial institutlar haqida bormoqda.



2.3.1-rasm. Jamiyatnig institutsional matritsasi

Institutlar jamiyatning uning tarixiy barqarorligini va ijtimoiy yaxlitlikning takror shakllanishini ta'minlovchi o'ziga xos tuzilishini (qobirg'asini) hosil qiladi. Institutsional matritsa chizma ko'rinishida jamiyatda teng ahamiyatli mavqeni egallab turgan yagona uchta: siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sohalarni birlashtiruvchi ijtimoiy shakl sifatida namoyon etilgan (2.3.1-rasm). Asosiy matritsalar [30] S.Kirdinaning "Institutsional matritsalar va Rossiyaning rivojlanishi" kitobidan olingan. Biroq ularga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan, xususan siyosiy va mafkuraviy sohalar birlashtirilgan, chunki jamiyatda mafkura ko'p jihatdan boshqaruvchi siyosatchilarga bog'liq bo'lib, ular faoliyatining natijalaridan biri hisoblanadi. Matritsada ijtimoiy soha alohida ajratilgan va institutsional tizimni shakllantirishda u katta rol o'ynaydi.

Matritsalarining asosiy va qo'shimcha institutlarning muayyan to'plami bilan tavsiflanuvchi ikkita xili mavjud – g'arbiy (bozor, demokratik) va sharqiy (buyruqbozlik, diktatura yoki despotiya) matritsalar.

2.4. Institutsional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi

Institutlar qanday ishlayotganligini, nima uchun ular asrlar mobaynida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, ularning "hayotiyliigi" yoki barqarorligini tushunish uchun institutsional o'zgarishlarga olib keluvchi sabablarni o'rganib chiqish lozim.

Jamiyatning rivojlanish jarayonida institutlar shaklining o'zgarishi ro'y beradi. Agar rasmiy qoidalarni u yoki bu qonun, farmonni qabul qilib o'zgartirish mumkin bo'lsa, an'analar va urf-odatlarida ifodalanadigan norasmiy cheklovlarni bir kunda o'zgartirib yoki tugatib bo'lmaydi. Ular yana uzoq vaqt amal qilishda va jamiyat rivojiga ta'sir ko'rsatishda davom etadi.

Biroq institutsional tizimning o'zida doimiy ravishda o'zgarishlarga ehtiyoj sezilib bo'lib turadi. T.Veblenning ta'kidlashicha, institutsional o'zgarishlarning asosiy sababi shakllangan institutlar bilan o'zgargan sharoitlar, tashqi muhit o'rtasidagi o'zaro nomuvofiqlik hisoblanadi.

D.Nort institutsional o'zgarishlar sub'ekti sifatida yakka tartibdagi tadbirkorni, institutsional o'zgarishlar manbai sifatida esa narxlar nisbatidagi fundamental siljishlarni ajratadi.

O'zgarishlar mexanizmi quyidagicha: nisbiy narxlar tarkibidagi siljishlar ishlab chiqarish omillarining narxlari o'rtasidagi narx ulushiga, axborot qiymatiga va texnologiyalardagi o'zgarishlarga ta'sirni nazarda tutadi. Ushbu o'zgarishlardan ayrimlari ekzogen xususiyatga ega (inqiroz, epidimiya va h.k.), biroq aksariyat o'zgarishlar endogen xususiyatga ega bo'lib, insonlarning joriy faoliyati kengayishi natijalarini aks ettiradi. Narxlar nisbatidagi fundamental o'zgarishlar vaqt o'tishi bilan xatti-harakat eski odatlarining o'zgarishiga va insonlar tomonidan xatti-harakat standartlarini hosil qiladigan omillarning aglab Etilishiga olib keladi. Biroq, narxlar o'zgarishining g'oyalarga ta'siri darajasi to'g'risidagi masala hozircha kam o'rganilganligicha qolmoqda.

D.Nortning fikriga ko'ra, mafkura institutsional o'zgarishlarning yana bir manbai hisoblanadi. Mafkura deganda, u insonlar ular orqali atrofda olamni qabul qiladigan va baholaydigan sub'ektiv modelni tushunadi. Mafkuraviy mayillik ham iqtisodiy hisob-kitoblardan holi emas: olamning sub'ektiv manzarasi kimningdir foydali imkoniyatlarini chegaralashi qanchalik katta bo'lsa, uni qayta ko'rib chiqishdan manfaatdorlik shunchalik kuchli bo'ladi.

Shunday qilib, institutsional o'zgarishlar texnika taraqqiyoti, yangi bozorlarning ochilishi, aholi sonining o'sishi va hokazolar, ya'ni ular natijasida tashkiliy va institutsional o'zaro hamkorlikning ilgari muvafaqiyatli faoliyat ko'rsatgan alohida shakllari "foydasiz" bo'lib qoladigan jarayonlar oqibatida yuz berishi mumkin. Yangi rasmiy normalar o'rniga boshqalari qabul qilinadi, norasmiy normalarga amal qiladigan insonlar soni kamayib borishi bilan ular asta-sekin yo'qolib boradi.

Institutlar paydo bo'lishining o'ziga xos jihatlari shundaki, ular o'zlari paydo bo'lishidan avval amal qilgan normalar va sharoitlarga bog'liq hisoblanadi. Shu tariqa, har qanday yangi institut, mavjud iqtisodiy yoki ijtimoiy sharoitlar (institutsional matritsa) tomonidan belgilab beriladi. Institutsional o'zgarishlar sezilarsiz tarzda kechishi ham, yoki o'zgarishlar, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tezda takomillashuviga olib kelishi ham mumkin.

Institutsional o'zgarishlar eski va yangi institutlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik xususiyati ham katta rol o'ynaydi. D.Nort bog'liqlikning quyidagi turlarini ta'kidlaydi:

Birinchisi – rivojlanishning avvalgi yo'lga bog'liqlik – chuqur aloqa, yangi institutlarning faqatgina eski institutlar negizida paydo bo'lishini ta'minlovchi yangi institutlarning eski institutlarga kuchli bog'liqligi.

Ikinchisi – mutlaq yangi institutlarning paydo bo'lishiga bo'shliq mavjudligi orqali belgilanadigan nisbatan kamroq.

Bog'liqlikning ushbu ikki xili evolyutsion xususiyatga ega, chunki eski institutlardan yangi institutlarga o'tishda izchillikka amal qilinadi. Evolyutsion o'zgarishlar jiddiy iqtisodiy larzalar sodir bo'lmagan va ularning jahon ishlab

chiqarishidagi ulushi ustun boʻlgan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning institutsional tizimlariga xosdir. Izchilligiga qaramay evolyutsion oʻzgarishlar sifat jihatdan ilgari siljishlarni istisno etmaydi – miqdoriy-sifat oʻzgarishlar dialektikasi oʻz kuchida qoladi.

D.Nort tomonidan ajratilgan bogʻliqlikning uchinchi xili – eski va yangi institutlar oʻrtasida yaqqol aloqa (bogʻliqlik)ning mavjud emasligi – inqilobiy xususiyatga ega. Inqilobiy oʻzgarishlar jamiyat rivojlanishining avvalgi oʻzgarish chizigʻiga amal qilishni nazarda tutmaydi va tafakkur tarzi odatlari va anʼanalarining tubdan oʻzgarishi bilan kuzatiladi.

Hatto iqtisodiy tizim samaradorligining oshishiga xizmat qiluvchi inqilobiy oʻzgarishlar ham aholining koʻplab guruhlar uchun jiddiy ijtimoiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunga bir yaqqol misol tariqasida XV-XVIII asrlarda Angliyada roʻy bergan agrar sohadagi tub burilishlar bilan bogʻliq institutsional oʻzgarishlarni keltirish mumkin.

Rasmiy qoidalar va norasmiy normalarni muvofiqlashtirish. Rasmiy qoidalar va norasmiy normalarning muvofiqlashtirilishi jamiyatda muhim rol oʻynaydi, chunki u institutlar mavjud tizimi faoliyat koʻrsatishining samaradorligiga katta taʼsir koʻrsatadi.

Odatda, insonlar baʼzan institutlar tarkibiy unsurlaridan biri hisoblangan jazolash tizimining samaradorligiga ziyon etkazgan holda jazolashning ancha yumshoq shakllarini nazarda tutuchi normalarni rasmiylashtirishga intilishadi. Oʻlim jazosini bekor qilish toʻgʻrisidagi bahs-munozaralar bunga misol boʻladi.

Kelishmovchilik natijasida institutsional nizo kelib chiqishi mumkin. Bir holatda, institutsional nizo hech bir oʻzgarishsiz institutlarning paydo boʻlishiga, boshqa holatda esa samarasiz boʻlsa-da barqaror hosilalar – institutsional tuzoqlarning paydo boʻlishiga olib keladi.

Eski va yangi institutlar oʻrtasidagi inqilobiy bogʻliqlik doirasida ular rivojlanishining uchta ehtimoliy yoʻlini taʼkidlash lozim:

- birinchisi – mavjud institutsional matritsaga qarama-qarshi boʻlgan rasmiy institutlarning paydo boʻlishi (odatda, hamma joyda chuqur islohotlar

davrida, masalan, o'tish iqtisodiyotida qonunlar, farmonlar ko'rinishida) va ularning ildiz otishi (kengayib borishi) hamda qabul qilingan rasmiy normalarga mos keluvchi yangi norasmiy normalarning shakllanishi;

- ikkinchisi – qabul qilinayotgan rasmiy qoidalarning norasmiy normalarga to'liq mos kelmasligi shunga olib keladiki, norasmiy normalar ancha “hayotiy” bo'lib chiqadi va buning natijasida yangi qabul qilingan rasmiy qoidalarning norasmiy institutsionallasuvi yuz beradi;

- uchinchisi – yangi rasmiy qoidalar ildiz otmaydi, bu ularning yo'qolib ketishiga olib keladi.

Institutsional tizim samaradorligiga institutlar bilan bir qatorda tashkilotlar ham ta'sir ko'rsatadi. D.Nortning fikriga ko'ra, institutlar iqtisodiy nazariya bilan yoritiladigan standart cheklovlar bilan bir qatorda jamiyat a'zolarining imkoniyatlarini ham shakllantiradi.

Institutsional doiralar qaysi tashkilotlar (siyosiy organlar, iqtisodiy tuzilmalar, jamoat muassasalari) hosil bo'lishi va ishlashini belgilab beradi. Boshqacha aytganda: institutlar – bu “o'yin qoidalari”, tashkilotlar esa – “o'yinchilar”. Biroq bu hol o'yinchilar jamiyatda o'rnatilgan “o'yin qoidalari”ga majburiy tarzda amal qilishini anglatmaydi. Huddi institutlar kabi tashkilotlar ham insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tarkiblashtiradi. “Tashkilotlar aniq maqsadga yo'naltirilgan tarzda faoliyat ko'rsatuvchi, tashkilotchilar tomonidan boylik, daromadni ko'paytirish uchun yoki boshqa maqsadlarda tashkil etilgan birliklar hisoblanadi. Ushbu maqsadlarni ko'zlagan holda, tashkilotlar asta-sekin institutsional tarkibni o'zgartiradi”¹.

Tashkilotlar (korxonalar, firmalar)ning institutsional jarayondagi roli hozircha kam o'rganilgan, biroq institutsional nazariya doirasida, xususan, G.Kleyner tomonidan o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tashkilot nafaqat tovar va xizmatlar ishlab chiqaruvchisi, balki quyidagi asosiy funksiyalarni bajaruvchi o'ziga xos “institut-provayder” hisoblanadi :

¹ Қаранг: Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М.: Фонд экономической книги. «Начало», 1997.

- ishlab chiqarish institutlari va kelishuvlar ishlab chiquvchisi va tarqatuvchisi roli. Alohida tashkilotning muvaffaqiyatli tajribasi, unda foydalaniladigan shartnomalar tizimining samaradorligi, odatda, bunday tuzilmalarni tashkilotning ushbu usullaridan foydalanishga undaydi;

- institutlar inkubatori roli. Tashkilotning faoliyat ko'rsatishi natijasida ushbu tuzilmaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi va yakuniy natijalarning katta samaradorligi bilan faoliyat ko'rsatuvchi yangi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar shakllanadi yoki, boshqacha aytganda, tegishli institutsional muhitda yangi institutlar hosil qilinadi;

- yakka tartibdagi institutsional integrator roli (ushbu normaga amal qiluvchilar tarkibiga yangi individlarni jalb qilish)¹.

Institutsional yondashuvga muvofiq davlatni alohida tashkilot sifatida ko'rib chiqish lozim. Davlatni institut (ijtimoiy shartnoma negizida rasmiy qoidalar tizimini shakllantirish va ularga amal qilish mexanizmi) sifatida ham, tashkilot (davlat boshqaruv apparati tarkibi, qonuniy jazolash va majburlash tizimi) sifatida ham tadqiq etish mumkin.

Xulosa

Institutlar jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim rol o'ynab kelgan. Ular jamiyatda qarorlar qabul qilish, insonlar va iqtisodiyot ishtirokchilarining o'zaro munosabatlarini belgilovchi normalardan tarkib topgan rasmiy va norasmiy qoidalar hisoblanadi. Rasmiy qoidalar mamlakat konstitutsiyasida, qonunlarda, ma'muriy va boshqa hujjatlarda o'z aksini topadi. Norasmiy normalar esa urf-odat, an'analar va shu kabi boshqa hayot tarzi orqali yuzaga kelgan qoidalarda ifodalanadi.

¹ Каранг: Бренделева Е.А. Неинституциональная теория. Учебное пособие / Под.ред. проф. М.Н.Чепурина. – М.: ТЕИС, 2003. – 253 с.

Jamiyat rivojlanishi bilan mavjud institutlar va ular negizini tashkil etuvchi rasmiy va norasmiy qoidalar ham o'zgarib boradi, takomillashadi. Bunday o'zgarishlarni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sharoitlar belgilab beradi.

Institutlar o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda ishlashi, davlat tizimi faoliyatining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Institutlar faoliyati aksariyat hollarda normalarga bog'liq. Norma tushunchasi tartibni saqlash funksiyasiga ega bo'lib, u o'zaro hamkorliklik tizimida majburiy xatti-harakat bajarilishini talab etadi. Normalar hamkorlik strategiyasi, qoida, xususan, normaning o'zi kabi shakllarga ega. Ratsionallikning to'liq, to'liqsiz, tartibotli, asoslangan, harakat normasi kabi shakllari mavjud. Ijtimoiy tanlash nazariyasida normalarga oqilona tanlash natijasi sifatida qaraladi. Kelishuvlar iqtisodiyotida esa, normalar oqilona xatti-harakatning omili sifatida tahlil qilinadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Institut – insonlar tomonidan barpo etiladigan va o'zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy me'yorlar va qoidalar.

Institut – bu jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi.

Institut oprovayder – neoinstitutsional nazariya doirasida – ishlab chiqarish institutlari va kelishuvlar ishlab chiquvchisi va tarqatuvchisi rolini, institutlar inkubatori rolini (tegishli institutsional muhitda yangi institutlarni Etishtirish), yakka tartibdagi institutsional integrator rolini (ushbu normaga amal qiluvchilar tarkibiga yangi individlarni jalb qilish) bajargan holda neoinstitutsional tarkibga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilot.

Institutsional matritsa – bu tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo'lishini va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o'z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.

Norma – institutsional muhitda individlarning o‘z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi

Rasmiy qoidalar – konstitutsiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma‘muriy hujjatlar.

Institutlar – iqtisodiy sub’yektlar xarakatini cheklovchi, ularning o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yorlar, qoidalar xamda ushbu me‘yor va qoidalarni bajarilishini nazorat qilish mexanizmlari.

MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Yo‘l harakati qoidalari institut hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: a), chunki ular yo‘l harakati qatnashchilari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tarkiblaydi. Boshqacha aytganda, yo‘l harakati qoidalari – yo‘ldagi xatti-harakatni tartibga soluvchi institut.

2–misol. Yaqin do‘konchadan kundalik mevalar xarid qilish iste‘molchi tomonidan amalga oshirilgan maqsadga muvofiq xatti-harakatning to‘liq ifodasi hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: b), chunki to‘liq maqsadga muvofiqlik modeliga muvofiq harakat qiluvchi iste‘molchi har kuniumuman bozorda o‘zini qiziqtiruvchi meva navining narxi haqidagi axborotni to‘plashi va ushbu mevalarni ular eng arzon bo‘lgan joyda xarid qilishi lozim.

3–misol. Institutsional nazariyaning qaysi yo‘nalishi vakillari “Do‘sting kimligini ayt, men esa sening kimligini aytaman” degan iborani ma‘qullashgan bo‘lardi?

- a) "eski" institutsionalizm;
- b) "yangi" institutsional iqtisodiyot;

v) neoinstitutsional iqtisodiyot.

Javob: a), gap xolizmtamoyili haqida borayapti.

4–misol. Institutsional nazariyaning qaysi yo‘nalishi vakillarini navbatdagi seminarga tayyorlanmagan talabaning quyidagi bahonasi qiziqtirmaydi: "Universitet kutubxonasi yopiq edi, boshqa kutubxonada kerakli kitob topilmadi va umuman olganda bizda ushbu haftada tayyorgarlik ko‘rish lozim bo‘lgan ikkita test va bitta kurs ishi bor edi"?

a) "eski" institutsionalizm;

b) "yangi" institutsional iqtisodiyot;

v) neoinstitutsional iqtisodiyot.

Javob: v), metodologik individualizm tamoyiliga ko‘ra faqat talabaning o‘zi o‘z ishining tashkil etilishiga javob beradi, tashqi institutsional omillar esa ikkinchi darajali bo‘lib, talabaning o‘qishga bo‘lgan munosabatini aks ettiradi.

KEYSLAR

Rasmiy va norasmiy institutlar: talabalarning ko‘chirishlariga qarshi qanday kurashish mumkin?

Talabalarni dastur yordamida chiqarib olingan ko‘chirma uchun haydashadi.

Virjiniya shtati universiteti fizika fakultetining professori Lu Blumfild (LowBloomfield), talabalar o‘rtasida ko‘p sonli adabiy o‘g‘irlik holatlari haqida eshitib, unga kiritilgan talabalar ishlarini 50 soat ichida matnli ko‘rinishlarning mos kelishi nuqtai nazaridan tahlil qiladigan maxsus kompyuter dasturini yozdi. Tahlil tugaganidan keyin dastur professorni g‘azablantiradigan natijalarni berdi, — aniqlanishicha, talabalarning aksariyati o‘z ishlari uchunkatta miqdordagi tayyor matnlarni Internetdan hamda boshqa talabalarning ishlaridan o‘zlashtirib olar ekan. Professorning talabiga ko‘ra universitetda maxsus tekshirib boshlanib, unda 122 nafar talaba va bitiruvchidan iborat ro‘yxat tuzildi. Talabalar endi universitetdan haydalishi, bitiruvchilar esa diplomdan mahrum etilishi mumkin, deb xabar beradi «*Associated Press*». Universitet xodimlari ushbu ibratli jarayon hozircha qo‘lga tushmagan talabalarga oliy ta’limning mohiyati nimadan iborat ekanligini anglab

Etishga yordam berishiga umid qilmoqda. Bundan tashqari, xodimlarning e'tirof etishlaricha, hozirgi vaqtda kompyuter texnikasining rivojlanganligi munosabati bilan o'zgaralar matnlarini o'zlashtirish jarayoni avvalgi o'n yillikka qaraganda g'oyat soddalashdi, chunki ilgari kitoblardan yoki boshqa ishlardan axborotni qo'lda ko'chirish yoki bosmalash lozim edi.

V.V. RadaEv bilan suxbatdan

Bugungi kunda ko'chirmachilik muammosi barcha o'quv korxonalarida mavjud. Lekin biz universitetimiz (GU VShE) alohida, eng yaxshi bo'lishini xohlaymiz. Shuning uchun hozirda biz ko'chirmachilikka qarshi kurashishni faollashtirmoqdamiz. Biz talabani adabiy o'g'irlik, ko'chirish yoki sohtakorlik ustida ushlagan o'qituvchilar nima qilishi kerakligi aniq yozib qo'yilgan shunday hujjatni tayyorladikki, unda talabani universitdan haydashgacha keskin choralar nazarda tutilgan. Bunda talaba o'qituvchining hatosidan kafolatlangan bo'lishi kerak. O'quvchilarning huquqlarini ham himoya qilish lozim. Shuning uchun talaba shikoyat arizasini berishga haqli. Lekin agar uning aybi isbotlansa, jazo qat'iy bo'lishi kerak. O'qituvchi sifatida men barcha qoidalarni birinchi mashg'ulotning o'zidayoq e'lon qilaman. Ko'chirmachilikka nisbatan munosabat oddiy: aniqlangan holatda darhol «qoniqarsiz» baho qo'yiladi. Hukum qat'iy, shikoyatga o'rin yo'q. Agar qoidalar brcha oldindan ma'lum bo'lsa tortishishga na hojat. Ko'chirish tavakkalchiligi haqida tinimsiz ogohlantiraman. Agar kimdir yonidagidan ko'chirgan bo'lsa, ikkalasiga ham «qoniqarsiz» baho qo'yiladi. Ammo hamma gap ko'chirish va adabiy o'g'irlikda emas. Bundan tashqari, sohtakorlik ham mavjud. Bu bir talaba boshqasi uchun qalbaki hujjat bo'yicha zachyot yoki imtihon topshiradigan holat. Ana shunday holatlardan biri bizda ham aniqlandi. Biz buning uchun talabani universitdan haydadik. Hozircha hech kim buni takrorlashga tavakkal qilgani yo'q. Bunday holatlarning oldini olish choralari ko'rilmoqda. Ko'chirmachilikka kelsak, yana shuni takrorlaymanki, buning uchun ham ayab o'timasdan universitdan haydaymiz. Engil-elpilik hayotda ham, o'qishda ham bo'lmasligi lozim.

Savollar:

Nima uchun talabalar rasmiy qoidalarning mavjudligi haqida bila turib, norasmiy qoidalarga amal qilishadi? Ushbu misolda rasmiy va norasmiy qoidalar qanday bog'lanishli? Talabalar muhitida mavjud norasmiy institutni ta'riflang?

1. “Kim uchun ishlab chiqarish kerak” muammosini davlat aralashuvisiz hal etib bo'lmaydi.
2. “Ko'rinmas qo'l mexanizmi” ni asoslash bilan Adam Smit, iqtisodiyotni davlat boshqarishi, lekin buni jamiyat sezmasligini nazarda tutgan.
3. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'p holatlarda norasmiy normalar jamiyatda “tartibni” ta'minlashda rasmiy qoidalarga qaraganda g'oyat katta rol o'ynaydi.
4. Aralash iqtisodiyot davlat va xususiy mulkdorlar qarori asosida rivojlanadi.
5. Institutlar asosini uning tarkibiy qismlari hisoblangan normalar tashkil etadi.
6. Institutlarning asosiy xususiyatlarini qamrab olgan holda, ularning asosiy funksiyalarini hamda rivojlanish qonunlarini aks ettiradi.
7. Tovar (xizmat) lar va resurslar doiraviy aylanishi iqtisodiy modelida uy xo'jaligini resurslarga bo'lgan ehtiyoji ifodalanadi.
8. Qoidalarga zarurat hamma vaqt, bittadan ko'p sub'ekt mavjud bo'lib, ular o'rtasida qandaydir munosabatlar yuzaga kelgan taqdirda, tug'iladi.
9. Norasmiy normalar jamiyatda rasmiy qoidalarga qaraganda ancha oldin paydo bo'lib, ko'p jihatdan rasmiy, qonunchilik bilan mustahkamlangan normalar uchun asos bo'lib xizmat qildi.
10. Institutlar qanday ishlayotganligini, nima uchun ular asrlar mobaynida mavjud bo'lishi va rivojlanishini, ularning “hayotiyli” yoki barqarorligini tushunish uchun institutsional o'zgarishlarga olib keluvchi sabablarni o'rganib chiqish lozim.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Institutsional nizo– nima?

- A. Rasmiy va norasmiy qoidalar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasi.
- B. Xufyona iqtisodiyotni yuzaga kelishi.

C. Transaksiya xarajatlarini ko'payib ketishi.

D. Invidlarni o'zaro shartlashishi natijasi.

2. Institutsional texnologiya– nima?

A. rasmiy va norasmiy qoidalar o'rtasidagi nomuvofiq texnologiya.

B. institutlarni joriy etish, transaksiya xarajatlarini pasayishi va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qodir bo'lgan yangi institutlarni ishlab chiqish bilan bog'liq texnologiya.

C. Xufyona iqtisodiyotni ko'payib ketishini oldini olish.

D. Invidlarni o'zaro shartlashishini oldini olishdagi o'yinlar nazariyasi texnologiyasi.

3. Institutsional tuzoq– nima?

A. Bu rasmiy va norasmiy qoidalar o'rtasidagi noaniqlilik.

B. O'zini o'zi qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo'lgan samarasiz barqaror norma

C. Xufyona iqtisodiyotni tartibga solish asoslari.

D. Invidlarni o'zaro munosabatlarni tartibga solish.

4. Institut - nima?

A. jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi.

B. insonlarga amal qilgan holda turmush kechiradigan odatiy tafakkur tarzi.

C. o'tmishda sodir bo'lgan jarayonlar natijasiga to'liq moslashtirish

D. hulq-atvor namunalarini yaratilishiga olib keluvchi tashkilot.

5. Norma - nima?

A. Norma-o'zaro munosabatni belgilab beruvchi rasmiy tizimidir.

B. Norma-o'zaro munosabatlarni belgilab beruvchi qoidadir.

C. Norma - institutlar asosini tarkibiy qismlarini tashkil etadi.

D. Norma–institutsional muhitda individlarning o'z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi.

6. **Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib nechta unsur dan iborat?**
- A. Ikkita.
 - B. Uchta.
 - C. To'rtta.
 - D. Beshta.
7. **Norma–institutSIONAL muhitda individlarning o'z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi. Ushbu unsur o'z ichiga nimalarni oladi?**
- A. Tartibni saqlash funksiyasiga ega bo'lgan majburiyat.
 - B. Shaxslar xatti-harakatidagi ijtimoiy, iqtisodiy, yuridik sanksiyaga tayanuvchi muntazamlik, muqarrarlikni aks ettiradi.
 - C. Shaxsning turli vaziyatlarda o'zini qanday tutishi lozimligi.
 - D. Rasmiy va norasmiy omillar ta'siri.
8. **Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib beshta unsur dan iborat: Bular qaysilar?**
- A. Individlarning guruhlanish belgilari va muqarrarlik omili.
 - B. Maqsad va norma harakatda bo'lgan shart-sharoitlar, sanksiya.
 - C. Tartibni saqlash funksiyasiga ega.
 - D. Individlarni guruhlanish belgilari, muqarrarlik omili, maqsad, norma harakatda bo'lgan shart-sharoitlar va sanksiya.
9. **Norma xillari qaysi qoidalarda to'g'ri berilgan?**
- A. Hamkorlik strategiyasi = belgi + maqsad + shart-sharoit.
 - B. Norma = belgi + muqarrarlik omili + maqsad + shart-sharoit.
 - C. Qoida = belgi + muqarrarlik omili + maqsad + shart-sharoit + sanksiya.
 - D. Barcha javoblar to'g'ri.
10. **Matritsalarining asosiy va qo'shimcha institutlarning muayyan to'plami bilan tavsiflanuvchi nechta xili mavjud?**
- A. Bitta - G'arbiy (bozor, demokratik) matritsa.

- B. Ikkita - G'arbiy (bozor, demokratik) va Sharqiy (buyruqbozlik, diktatura yoki despotiya) matritsalar.
- C. Uchta - G'arbiy (bozor, demokratik) va Sharqiy (buyruqbozlik, diktatura yoki despotiya) xamda Markaziy Osiyo matritsalar.
- D. To'rtta - G'arbiy (bozor, demokratik) va Sharqiy (buyruqbozlik, diktatura yoki despotiya) xamda Markaziy va Sharqiy Osiyo matritsalar.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Institut tushunchasi va ularning asosiy tavsifini izoxlab bering?
2. Institut asosiy tushucha sifatida?
3. Institutlar va qoidalarni tushuntirib bering?
4. Institutlar tipologiyasi nima?
5. Institutlar va tashkilotlar o'rtasida kandy farq bor?
6. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi?
7. Institutsional matritsa?
8. Institutsional o'zgarishlar va institutlarning o'zaro bog'liqligi?
9. Matritsalarining asosiy va qo'shimcha institutlarning muayyan to'plami bilan tavsiflanuvchi nechta xili mavjud?
10. Norma amal qilishi uchun talab etiladigan tarkib nechta unsur dan iborat va ularni sanab bering?

III BOB. O‘YINLAR NAZARIYASI VA O‘ZARO HAMKORLIKLARNI MODELLASH TIRISH

- 3.1. O‘yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari**
- 3.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo‘llari**
- 3.3. O‘yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi**

3.1. O‘yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari

Ma'lumki, neoklassikaning «qat'iy negizi»dagi o'zaro hamkorliklarni tahlil qilishda differensial hisoblashdan foydalanilgan. Institutsional iqtisodiy nazariyada yuqoridagi tadqiqot usulini tayanch usul sifatida qo'llash unchalik qulay emas. Institutsional iqtisodiy nazariyaning predmetini individlarning o'zaro hamkor(harakat)ligi hamda ushbu hamkorlikni ta'minlovchi tuzilmalar tashkil etadi.

Institutsional iqtisodiyot formal modellarni tuzish uchun Jon fon Neyman va Oskar Morgenshternning «O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat» (1944) kitobidagi fikrlarga asoslangan *o'yinlar nazariyasidan* foydalanadi. Ushbu nazariyaning rivojlanishi Djon Nesh 1950 yilda kiritgan muvozanat vaziyati tushunchasi bilan bog'liq. Bu bilan nokoalitsion o'yinlarning Echish usuli ishlab chiqildi.



Djon Forbs Nesh
John Forbes Nash, Jr

Tug'ilgan kuni:	13 iyun 1928 (1928-06-13) (83 yosh)
Tug'ilgan joyi:	Blufild, G'arbiy Virginiya AQSH
Vatani:	AQSH
Ilmiy sohasi:	Matematika , iqtisodiyot
Ish joyi:	Massachusetts-texnologiya instituti
Alma-mater:	Texnologiya instituti Karnegi Prinston universiteti
Ilmiy rahbari:	Albert Taker
Mashhurligi:	Nesh muvozanati Nesh-Keyper nazariyasi Algebra geometriyasi
Unvonlari:	Nobel mukofoti "iqtisodchi" (1994)

1994 yilga kelib, birdaniga uch tadqiqotchi “nokooperativ o‘yinlar” nazariyasidagi muvozonatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldilar. Bular: Raynxad Selten (Germaniya), Jog Nesh (AQSh), Jon S.Xarsani (asli vengriyalik – AQSh). Ushbu tadqiqot usulining o‘ziga xos asosiy belgilari ichida quyidagilarni ajratish lozim. Birinchidan, o‘yinlar nazariyasi individlarning o‘zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish bilan shug‘ullanadi: har bir shartning hal etilishi o‘zaro hamkorlik natijasiga va o‘z navbatida, qolgan individlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi. Individ o‘z harakatlari masalasini hal etayotib, o‘zini kontragentlar o‘rniga qo‘yib ko‘rishi kerak. Ikkinchidan, o‘yinlar nazariyasi, mukammal kalkulyator sifatidagi individdan tortib to robot sifatidagi individgacha qator modellardan foydalangan holda, individlarning to‘liq ratsionalligini talab qilmaydi. Uchinchidan, o‘yinlar nazariyasi o‘zaro hamkorliklardagi muvozanatning mavjudligi, yagonaligi va Pareto-optimalligini nazarda tutmaydi. Ushbu sabablar o‘yinlar nazariyasi yordamida qurilgan institutlarning formal modellariga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.


O'yinlar nazariyasidagi formal modelni tashkil etish uchun: ishtirokchi individlarning mavjudligi; har bir ishtirokchining imkoniyatlar to'plami; ishtirokchilarning strategiyalari hisobga olinishi lozim.

O'yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan kooperativ (koalitsiyali) va nokooperativ (koalitsiyasiz) nazariyalarga ajratiladi. Bunda o'yin ishtirokchilarining o'zaro kelishuvi darajasiga ko'ra, kooperativ(koalitsiyali) va nokooperativ(koalitsiyasiz) o'yinlar nazarda tutiladi. Shartli ravishda aytish mumkinki, birinchi guruh nazariyalar makrodarajadagi tahlilga, ikkinchi guruhdagilar esa, mikrodarajaga e'tiborni qaratadilar.

Kooperativ (koalitsiyali) o'yinlar – bu ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin bo'lgan vaziyatlar. Nokooperativ (koalitsiyasiz) o'yinlarda yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, bunda ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin emas. O'yinlar asosan matritsa shaklida namoyon etiladi. Nokooperativ (koalitsiyasiz) o'yinlarda ishtirokchilar o'zaro ziddiyatli munosabatda bo'ladilar. Har bir ishtirokchi o'z yutuq'ini oshirishga xarakat qiladi. Birining yutuq'i ikkinchisining yutqizishiga olib keladi. Har bir o'yin ishtirokchisining ziddiyatli vaziyatlarni hal etish borasidagi xarakat dasturi o'yin ishtirokchisining strategiyasi deyiladi.

$$G=F(N,St,P)$$

Demak, o'yin (G)ni tahlil etishda uch qism: o'yinchilar soni (N); strategiyalar majmuasi (St); ishtirokchilarning yutuq (P)lari asos bo'ladi(qarang: 3.1.1.-rasm).



3.1.1-rasm.O'yinni tahlil etishning tarkibiy qismlari.

3.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo'llari

Har bir o'zaro hamkorlik uchun muvozanatlarning turli xillari mavjud bo'lishi mumkin: *ustun strategiyali muvozanat*, *Nesh bo'yicha muvozanat*, *Shtakelberg bo'yicha muvozanat* va *Pareto bo'yicha muvozanat*. **Ustun strategiyali muvozanat** – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat'i nazar ishtirokchiga* eng yuqori foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasini. **Nesh bo'yicha muvozanat** – o'yinchilarning hech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat. **Shtakelberg bo'yicha muvozanat** – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi. **Pareto bo'yicha muvozanat**

– o‘yinchilardan birining holatini, ikkinchi o‘yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo‘lmaydigan vaziyat.

Ustun strategiya deb ishtirokchiga boshqa ishtirokchining harakatlaridan qat’i nazar o‘yinchining maksimum foydaliligini ta’minlovchi harakatlar rejasiga aytiladi. O‘z navbatida o‘yindagi ikkala ishtirokchi ustun strategiyalarining o‘zaro kesishuvi ustun strategiyalar muvozanati bo‘ladi. Nesh bo‘yicha muvozanat – har bir o‘yinchining strategiyasi boshqa o‘yinchining harakatiga yaxshi javob bo‘ladigan vaziyat. Shtakelberg bo‘yicha muvozanat o‘yin ishtirokchilari tomonidan qarorlar qabul qilinishida vaqt omili mavjud bo‘lganda yuzaga keladi, ya’ni: ulardan biri boshqasi qanday yo‘l tutganligini bilgan holda qaror qabul qiladi.

**Shtakelberg
bo‘yicha muvozanat**



Genrix fon Shtakelberg
Heinrich Freiherr von Stackelberg

Tug‘ilgan kuni: 31 oktabr 1905 (1905-10-31)
Tug‘ilgan joyi: Moskva, Rossiya
Vafot etgan kuni: 12 oktabr 1946 (1946-10-12)
40 yosh
Vafot etgan joyi: Madrid, Ispaniya
Davlar: Germaniya
Ilmiy sohasi: iqtisodchi
Ishlagan joyi: Gamboldt nomli Berlin universiteti, Bonn universiteti va Universitet Komplyutens (Madrid)
Alma-mater: Keln univeristeti
Ilmiy rahbar: Ervin fon Bekerat
Mashhurligi: Sanoat korxonalarini nazariyasi va Oligopoliya

- Har bir o‘yinchi o‘z yutug‘ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o‘yinchi tomonidan qabul qilinadi, so‘ngra ikkinchi o‘yinchiga ma’lum bo‘ladi

Shunday qilib, Shtakelberg bo‘yicha muvozanat qarorlar bir vaqtning o‘zida qabul qilinmagan sharoitda o‘yinchilarning maksimum foydaliligiga mos keladi.

Ustun strategiyalar muvozanati va Nesh bo'yicha muvozanatdan farqli o'laroq muvozanatning ushbu turi hamma vaqt mavjud bo'ladi. Va nihoyat, bir vaqtning o'zida ikkala o'yinchining ham foydaliligini oshirib bo'lmaydigan holatda Pareto bo'yicha muvozanatga erishiladi. Quyidagi misolda muvozanatning barcha to'rtta turini qidirish texnologiyasini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, A firma B firmaning muayyan mahsulotni ishlab chiqarish uchun monopoliyasini buzishga urinadi. A firma bozorga chiqish-chiqmaslikni, B firma esa, bordi-yu A firma bozorga kirishni hal qilsa, ishlab chiqarish hajmini pasaytirish masalasini hal qiladi. B firmada ishlab chiqarish hajmi o'zgarmay qolgan taqdirda, ikkala firma ham yutqazadi. Agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirishga qaror qilsa, u o'z foydasini A firma bilan «baham ko'radi»¹.

Ko'rsatkichlar		B firma -ishlab chiqarish hajmini	
		saqlab qolish	Pasaytirish
A firma-bozorga	Kirish	-3; -2	4; 4[N ₂ St _A R]
	Kirmaslik	0; 10 [N ₁ St _B]	0; 10

Ustun strategiyali muvozanat. A firma ikkala variantdagi voqealar rivojida o'zi yutug'ini taqqoslaydi (agar B firma narx-navo «urushini» avj oldirmasa, -3 va 0) va (agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirishga qaror qilsa, 4 va 0). U holda A firma uchun B firmaning harakatlaridan qat'i nazar eng ko'p yutuqni ta'minlovchi strategiya mavjud emas:

$0 > -3 \Rightarrow$ agar B firma ishlab chiqarish hajmini avvalgi darajada saqlab qolsa, «bozorga kirmaslik»;

$4 > 0 \Rightarrow$, agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirsas, «bozorga kirish».

¹ Каранг: Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.

B firmada ustun strategiya mavjud: u A firmaning harakatidan qat'i nazar ishlab chiqarish hajmini pasaytirishdan manfaatdor $4 > -2$, $10 = 10$,. Demak, ustun strategiyalar muvozanati mavjud emas.

Nesh bo'yicha muvozanat. B firmaning ishlab chiqarish hajmini avvalgi darajada saqlab turish to'g'risidagi qaroriga A firmaning eng yaxshi javobi - bozorga kirmaslik, ishlab chiqarish hajmini pasaytirish qaroriga esa, - bozorga kirish.

A firmaning bozorga kirish to'g'risidagi qaroriga B firmaning eng yaxshi javobi - ishlab chiqarish hajmini pasaytirish, bozorga kirmaslik qarori qabul qilinganda esa – ikkala strategiya ham bir xil natija beradi. Shuning uchun, Nesh bo'yicha ikkita (N_1 , N_2) muvozanat $(4; 4)$ va $(0; 10)$ nuqtalarida turibdi: A firma bozorga kiradi, B firma esa ishlab chiqarish hajmini pasaytiradi; yoki A firma bozorga chiqmaydi, B firma esa ishlab chiqarish hajmini pasaytirmaydi. Bunga ishonch hosil qilish oson, chunki ushbu nuqtalarda ishtirokchilardan hech biri o'z strategiyasini o'zgartirishdan manfaatdor emas.

Shtakelberg bo'yicha muvozanat. Faraz qilaylik, birinchi bo'lib A firma qaror qabul qiladi. Agar u bozorga kirishga qaror qilsa, pirovardida $(4; 4)$ nuqtada bo'ladi: B firmaning tanlashi ushbu vaziyatda bir xil, $4 > -2$. Agar u bozorga chiqmaslikka qaror qilsa, yakun ikki nuqta $(0; 10)$: B firmaning qarori ikkala variantni ham qo'llash imkonini beradi. Buni bilgan holda, A firma, 4 va 0 ni taqqoslab, o'z foydasini $(4; 4)$ nuqtalarda ko'paytiradi. Qarorlar bir xil va Shtakelberg bo'yicha birinchi muvozanat $St_A (4; 4)$ nuqtalarda bo'ladi. Huddi shu tariqa, birinchi bo'lib qarorni B firma qabul qilganda, Shtakelberg bo'yicha muvozanat $St_B (0; 10)$ nuqtalarda bo'ladi.

Pareto bo'yicha muvozanat. Pareto bo'yicha optimumni aniqlash uchun, biz «O'yinning istalgan boshqa yakuniga o'tish bir vaqtning o'zida ikkala ishtirokchi uchun ham foydalilikning oshishini ta'minlaydimi?» degan savolga javob berayotib, o'yinning barcha to'rtta yakunini izchil tanlab olishimiz zarur.

Pareto
bo'yicha muvozanat



Vilfredo Pareto
Vilfredo Pareto

Tug'ilgan kuni: 15 iyul 1848 (1848-07-15)

Tug'ilgan joyi: Parij, Fransiya

Vafot etgan kuni: 20 avgust 1923 (1923-08-20)
75 yosh

Vafot etgan joyi: Selinyi, Shveytsariya

Vatani: Italiya

Ilmiy sohasi: iqtisodchi, sotsiolog

Ishlagan joyi: Lozanskiy universiteti

Mashhurligi: Egri Pareto, Pareto qonuni, Pareto bo'yicha samaradorlik, Pareto taqsimoti

- O'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat

Masalan, (-3; -2) yakundan biz ko'rsatilgan shartni bajarayotib, istalgan boshqa yakunga o'tishimiz mumkin. Faqat (4; 4) yakundan biz, bunda o'yinchilardan hech birining foydaliligini kamaytirmagan holda, harakatlana olmaymiz va bu Pareto bo'yicha – R muvozanat bo'ladi.

3.3. O'yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi

O'yinlar nazariyasi uchun bir necha tayanch modellar mavjud [40]. Ushbu modellar Nesh bo'yicha muvozanat nuqtalarining soni bilan va ularning Shtakelberg bo'yicha va Pareto bo'yicha muvozanat nuqtalariga mos kelishi yoki mos kelmasligi bilan farq qiladi.

Umumiy ko'rinishda modellar tipologiyasi o'yinlar nazariyasida foydalaniladigan ikkala ishtirokchisi uchun quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:¹

St/N	2	1	0
-------------	----------	----------	----------

¹ Олейник А.Н. Институциональная экономика. Теория игр и моделирование взаимодействий / Вопросы экономики. №3, 1999. – С. 141.

=	I. $N_1=St_1=St_2=R \neq N_2$	II. $N=St_1=St_2=R$	
		III. $N=St_1=St_2 \neq R$	
≠	IV. $N_1=St_1=R_1 \neq (N_2=St_2=R_2)$	V. $N=St_1=R_1 \neq (St_2=R_2)$	VII. $St_1=R \neq (St_2=R)$
		VI. $N=St_1 \neq (St_2=R)$	VIII. $St_1=R \neq St_2$

I model. Masalan, ikkita talaba tomonidan uchrashuv joyining tanlanishi vaziyatini aks ettiradi. Ulardan har birini yo kutubxonada yoki bufetda topish mumkin. Bufetdagi uchrashuv ikkala talabaga ham foydalilikni ta'minlashi nazarda tutiladi: ular kofe yoki biror xil sharbat ustida suhbat o'tkazishlari mumkin.

1-talaba	2-talaba	
	Kutubxonaga borish	Bufetga borish
Kutubxonaga borish	0; 1	2; 2[N ₂]
Bufetga borish	3; 3[N ₁ St ₁ St ₂ R]	1; 0

Bu o'yin uning yordamida «fokal nuqta» - ikkala talaba tomonidan o'zlari tanlaydigan uchrashuv joyi g'oyasi aks ettirilishi tufayli qiziqarli. Agar ikkalasi ham bir-birini yaxshi bilsa, ular bir birini topishi mumkin bo'lgan joyni taxmin qilish unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. «Fokal nuqta» bufet bo'lishi ehtimoli ko'proq.

II model. Er-xotin o'rtasidagi qat'iy shakldagi keskin vaziyatni namoyon etadi. Er-xotin ikkita muqobil – konsertga yoki futbolga borish variantidan birini tanlash yo'li bilan kechki vaqtni qanday o'tkazishni hal etadi. Har birining fikri ravshan: xotin - konsertga, er - futbolga borishni afzal ko'radi. Bunda er-xotin kechki vaqtni birgalikda o'tkazishdan hordiq chiqarishni ancha past baholashadi.

Er	Xotin	
	Konsertga borish £	Futbolga borish
Konsertga borish	1; 3	0; 0
Futbolga borish £	2; 2[N ₁ St ₁ St ₂ R]	3; 1

O‘yin shunisi bilan qiziqki, bu Erda ikkala ishtirokchida ham ustun strategiya mavjud (£) «konsertga borish» – xotin uchun, «futbol matchiga borish» - er uchun.

III model. «Mahbuslar dilemmasi» muhokamasi.

1-gumondor	2-gumondor	
	Aybni tan olish £	Aybni tan olmaslik
Aybni tan olish £	1; 1 [N St ₁ St ₂]	3; 0
Aybni tan olmaslik	0; 3	2; 2 [R]

IV model. Er-xotin o‘rtasidagi avvalgi qattiq shakldagi ixtilofli vaziyatning yumshoqroq varianti. Qat’iy shakldagi ixtilofli vaziyatning yumshoq shakldan faqat bitta farqi mavjud, er-xotin birgalikda o‘tkazilgan kechki vaqtdan ko‘rilgan manfaatni yuqori baholashadi:

Er	Xotin	
	Konsertga borish	Futbolga borish
Konsertga borish	2; 3 [N ₂ St ₂ R ₂]	0; 0
Futbolga borish	1; 1	3; 2 [N ₁ St ₁ R ₁]

V model. Ushbu model quolsizlanish muammosini ifodalaydi. A mamlakat B mamlakatga nisbatan urush boshlash masalasini hal etadi, B mamlakat esa qurollanish yoki quolsizlanish variantlaridan birini tanlaydi. Muammo shundan ibortki, quolsizlangan B mamlakt tajovvuzkor A mamlakat uchun oson o‘ljaga aylanadi, qurollangan mamlakat esa tajovvuzga tajovvuz bilan javob qaytarishi mumkin:

A mamlakat	B mamlakat
------------	------------

	Qurollanish	Qurolsizlanish £
Urush e'lon qilish	0; 0	3; 1 [N St ₁ R]
Urush e'lon qilmaslik	2; 2[St ₂ R]	1; 3

VI model. Biron-bir romanni o'qish to'g'risida qaror qabul qilish bilan bog'liq og'ir ma'naviy tanlash vaziyatini aks ettiradi. Birinchi kitobxon, agar u kitobni o'qiy olmasa, afsus chekadi, lekin, agar u ushbu romanni baribir o'qishni boshlasa, o'zi bundan uyaladi. Ikkinchi kitobxon – munofiqlarning fikriga ko'ra, kitobni o'qishni hammaga taqiqlash lozim, lekin agar romanni o'qish kerak bo'lsa, u holda faqat uning o'zi o'qishi lozim:

1-kitobxon	2-kitobxon	
	O'qimaslik £	O'qish
O'qimaslik	0; 3	3; 1 [St ₂ R]
O'qish	1; 1 [N St ₁]	2; 0

VII model quyidagi o'yin ko'rinishida amalga oshiriladi. Har bir o'yinchi o'yin boshida 2 dollarga ega va ushbu summaning yarmini qutiga solib qo'yadi. So'ngra quti birinchi o'yinchiga topshiriladi, u ushbu summani o'zida qoldirishi yoki quduqqa tashlab yuborishi mumkin. Ikkinchi ishtirokchi birinchi o'yinchining xatti-harakatini oldindan aytib berishi lozim va, agar u buning uddasidan chiqsa, 1 dollar oladi. Bundan tashqari, agar quti quduqqa tashlanmasa, o'yinchilar undagi summani o'zaro bo'lib olishadi:

1-o'yinchi	2-o'yinchi	
	Quduqqa tashlash	Quduqqa tashlamaslik
Quduqqa tashlash	0; 2	2; 0
Quduqqa tashlamaslik	3; 1 [St ₂ R]	1; 3 [St ₁ R]

VIII modelda davlat bilan sarmoyador o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ifodalanadi. Sarmoyadorda harakatlarning ikkita varianti mavjud – mamlakatda investitsiyani amalga oshirish yoki oshirmaslik. Davlat esa investitsiyalardan olinadigan daromadlarga yuqori soliq belgilashi yoki soliqni umuman bekor qilishi mumkin:

Davlat	Sarmoyador	
	Investitsiya kiritmaslik	Investitsiya kiritish
Soliq joriy etish	0; 1	3; 0
Joriy etmaslik	1; 2 [St ₂]	2; 3 [St ₁ R]

Yuqorida izohlangan modellarni ko'rib chiqish individlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan qator muammolarni aniqlash va tahlil qilish imkonini beradi:

- *muvofiqlashtirish muammosi* Nesh bo'yicha ikkita nuqta mavjud bo'lgan hollarda paydo bo'ladi (I, IV modellar). Muvofiqlashtirish muammosining hal etilishi qo'shimcha institutsional shart-sharoitlar joriy etilishi, «fokal nuqtalar» yoki kelishuvlar mavjud bo'lishini talab qiladi. Masalan, er-xotinning qiziqishlari bir joydan chiqqan hollarda, ular o'z harakatlarini muvofiqlashtirishi ancha osonlashadi;

- *birga bo'la olishlik muammosi* Nesh bo'yicha muvozanat mavjud bo'lmagan vaziyat uchun xosdir (VII, VIII modellar). Agar institutlar strategiyalarni tanlashni cheklamasa va «yo'naltirmasa», individlar o'z harakatlarini muvofiqlashtira olishmaydi. Masalan, davlat bilan sarmoyador o'rtasidagi o'zaro munosabatga davlatning nufuzi omilining joriy etilishi (2, 3) yakunda to'xtalish imkonini beradi;

- *kooperatsiya muammosi* - Nesh bo'yicha muvozanat mavjud, u yagona, lekin Pareto bo'yicha optimal emas (III model - «mahbuslar dilemmasi»). Ushbu vaziyatda ham institutsional cheklovning joriy etilishi Pareto bo'yicha optimal natijaga erishishni ta'minlaydi;

- *adolatlilik muammosining* dolzarbligi - Nesh bo'yicha yagona muvozanat asimmetrik, yutuqning o'zaro hamkorlik ishtirokchilari o'rtasida adolatsiz taqsimlanishi bilan tavsiflanadi (V, VI modellar). Adolatsizlik muammosini hal etish variantlaridan biri takrorlanadigan o'yinlarga o'tish va «aralash» strategiyalar asosida normalarni ya'ni, t_0 vaqt lahzasida individ A strategiyani, t_1 vaqt lahzasida esa B strtegiyani tanlaganda bo'ladi.

Xulosa

Institutsional iqtisodiy nazariyaning predmetini individlarning o'zaro hamkorligi hamda ushbu hamkorlikni ta'minlovchi tuzilmalar tashkil etadi.

Jon fon Neyman va Oskar Morgenshternning «O'yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat» (1944) kitobidagi fikrlar institutsional iqtisodiyotda *o'yinlar nazariyasini tatbiq etish* uchun asos bo'lgan. 1994 yilga kelib, birinchi bor "nokooperativ o'yinlar" nazariyasidagi muvozonat tahlili uchun bir varakayiga uch tadqiqotchi iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. Bular: Raynxad Selten (Germaniya), Jon Nesh (AQSh), Jon S.Xarsani (asli vengriyalik – AQSh). O'yinlar nazariyasidagi formal modelni tashkil etish uchun: ishtirokchi individlarning mavjudligi; har bir ishtirokchining imkoniyatlar to'plami; ishtirokchilarning strategiyalari hisobga olinishi lozim.

O'yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan kooperativ(koalitsiyali) va nokooperativ (koalitsiyasiz) nazariyalarga ajratiladi. O'yin (G)ni tahlil etishda uch qism: o'yinchilar soni (N); strategiyalar majmuasi (St); ishtirokchilarning yutuq (P)lari asos bo'ladi.

Har bir hamkorlik uchun muvozanatlarning turli xillari mavjud bo'lishi mumkin: ustun strategiyali muvozanat, Nesh bo'yicha muvozanat, Shtakelberg bo'yicha muvozanat va Pareto bo'yicha muvozanat

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Nesh bo'yicha muvozanat – o'yinchilarning hech biri o'z harakatlari rejasini o'zgartirgan holda o'z yutug'ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

Pareto bo'yicha muvozanat – o'yinchilardan birining holatini, ikkinchi o'yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo'lmaydigan vaziyat.

Ustun strategiyali muvozanat – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat'i nazar ishtirokchiga* maksimum foydalilikni ta'minlovchi harakatlar rejasi

Shtakelberg bo'yicha muvozanat – hech bir o'yinchi o'z yutug'ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o'yinchi tomonidan qabul qilinadi, so'ngra ikkinchi o'yinchiga ma'lum bo'ladi.

O'yin ishtirokchisining strategiyasi- har bir o'yin ishtirokchisining ziddiyatli vaziyatlarni hal etish borasidagi harakat dasturi o'yin ishtirokchisining strategiyasi deyiladi.

Kooperativ (koalitsiyali) o'yinlar – ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin bo'lgan vaziyatlar.

Nokooperativ (koalitsiyasiz) - o'yinlarda yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi, bunda ishtirokchilar o'rtasida axborot almashish va ittifoq tuzish mumkin emas.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol.Shtakelberg bo'yicha muvozanat hamma vaqt mavjud bo'ladimi?

- a) ha;
- b) yo'q.

Javob: a), mavjud bo'lmasligi mumkin bo'lgan Nesh bo'yicha muvozanatdan farqli ravishda Shtakelberg bo'yicha muvozanatga har qanday o'yinda erishiladi. Uning mavjud bo'lishi ishtirokchilar tomonidan qarorlar qabul qilinishidagi vaqt lagi bilan shartlangan.

2–misol.Faraz qilaylik, o'yinda Nesh bo'yicha ikkita muvozanatli yakun mavjud. Gap qanaqa muammo haqida borayapti?

- a) moslik muammosi;
- b) muvofiqlik muammosi;
- v) adolat muammosi;
- g) kooperatsiyamuammosi.

Javob: b), gapmuvofiqlik muammosihaqida borayapti.

3–misol. Ishtirokchilarda ustunlik qiluvchi strategiyalar bor bo‘lib, demak, ustunlik qiluvchi strategiyalar muvazanati mavjud bo‘ladigan, Nesh bo‘yicha muvazanat esa mavjud bo‘lmaydigan vaziyat yuzaga kelishi mumkinmi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: b), bunday vaziyat bo‘lishi mumkin emas. Ustunlik qiluvchi strategiya ishtirokchi tomonidan boshqaning harakatlaridan qat’iy nazar eng katta yutuqqa erishilishni anglatadi Nesh bo‘yicha muvazanat ishtirokchilar o‘zining foydaliligini bir tomonlama tartibda oshirishi mumkin emasligini nazarda tutadi. O‘z navbatida, muvazanat nuqtasida ustunlik qiluvchi strategiyalar topilganda ishtirokchilar tomonidan strategiyaning o‘zgartirilishi ular yutug‘ining ortishiga olib kelmaydi.

4–misol. A firma B firmaning muayyan mahsulotni ishlab chiqarish uchun monopoliyasini buzishga urinadi. A firma bozorga chiqish-chiqmaslikni, B firma esa, bordi-yu A firma bozorga kirishni hal qilsa, ishlab chiqarish hajmini pasaytirish masalasini hal qiladi. B firmada ishlab chiqarish hajmi o‘zgarmay qolgan taqdirda, ikkala firma ham yutqazadi. Agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirishga qaror qilsa, u o‘z foydasini A firma bilan «baham ko‘radi».

Ko‘rsatkichlar		B firma-ishlab chiqarish hajmini	
		saqlab qolish	pasaytirish
A firma-bozorga	Kirish	-3; -2	4; 4[N ₂ St _{AR}]
	Kirmaslik	0; 10 [N ₁ St _B]	0; 10

Echish:

Ustun strategiyali muvozanat. A firma ikkala variantdagi voqealar rivojida o'zi yutug'ini taqqoslaydi (agar B firma narx-navo «urushini» avj oldirmasa, -3 va 0) va (agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirishga qaror qilsa, 4 va 0). U holda A firma uchun B firmaning harakatlaridan qat'i nazar eng ko'p yutuqni ta'minlovchi strategiya mavjud emas:

$0 > -3 \Rightarrow$ agar B firma ishlab chiqarish hajmini avvalgi darajada saqlab qolsa, «bozorga kirmaslik»;

$4 > 0 \Rightarrow$, agar B firma ishlab chiqarish hajmini pasaytirsan, «bozorga kirish».

B firmada ustun strategiya mavjud: u A firmaning harakatidan qat'i nazar ishlab chiqarish hajmini pasaytirishdan manfaatdor $4 > -2$, $10 = 10$,. Demak, ustun strategiyalar muvozanati mavjud emas.

Nesh bo'yicha muvozanat. B firmaning ishlab chiqarish hajmini avvalgi darajada saqlab turish to'g'risidagi qaroriga A firmaning eng yaxshi javobi - bozorga kirmaslik, ishlab chiqarish hajmini pasaytirish qaroriga esa, - bozorga kirish.

A firmaning bozorga kirish to'g'risidagi qaroriga B firmaning eng yaxshi javobi - ishlab chiqarish hajmini pasaytirish, bozorga kirmaslik qarori qabul qilinganda esa – ikkala strategiya ham bir xil natija beradi. Shuning uchun, Nesh bo'yicha ikkita (N_1 , N_2) muvozanat $(4; 4)$ va $(0; 10)$ nuqtalarida turibdi: A firma bozorga kiradi, B firma esa ishlab chiqarish hajmini pasaytiradi; yoki A firma bozorga chiqmaydi, B firma esa ishlab chiqarish hajmini pasaytirmaydi. Bunga ishonch hosil qilish oson, chunki ushbu nuqtalarda ishtirokchilardan hech biri o'z strategiyasini o'zgartirishdan manfaatdor emas.

Shtakelberg bo'yicha muvozanat. Faraz qilaylik, birinchi bo'lib A firma qaror qabul qiladi. Agar u bozorga kirishga qaror qilsa, pirovardida $(4; 4)$ nuqtada bo'ladi: B firmaning tanlashi ushbu vaziyatda bir xil, $4 > -2$. Agar u bozorga chiqmaslikka qaror qilsa, yakun ikki nuqta $(0; 10)$: B firmaning qarori ikkala variantni ham qo'llash imkonini beradi. Buni bilgan holda, A firma, 4 va 0 ni taqqoslab, o'z foydasini $(4; 4)$ nuqtalarda ko'paytiradi. Qarorlar bir xil va Shtakelberg bo'yicha birinchi muvozanat $St_A (4; 4)$ nuqtalarda bo'ladi. Huddi shu

tariqa, birinchi bo‘lib qarorni B firma qabul qilganda, Shtakelberg bo‘yicha muvozanat St_B (0; 10) nuqtalarda bo‘ladi.

Pareto bo‘yicha muvozanat. Pareto bo‘yicha optimumni aniqlash uchun, biz «O‘yinning istalgan boshqa yakuniga o‘tish bir vaqtning o‘zida ikkala ishtirokchi uchun ham foydalilikning oshishini ta’minlaydimi?» degan savolga javob berayotib, o‘yinning barcha to‘rtta yakunini izchil tanlab olishimiz zarur. Masalan, (-3; -2) yakundan biz ko‘rsatilgan shartni bajarayotib, istalgan boshqa yakunga o‘tishimiz mumkin. Faqat (4; 4) yakundan biz, bunda o‘yinchilardan hech birining foydaliligini kamaytirmagan holda, harakatlana olmaymiz va bu Pareto bo‘yicha – R muvozanat bo‘ladi.

5–misol. davlat bilan sarmoyador o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ifodalanadi. Sarmoyadorda harakatlarning ikkita varianti mavjud – mamlakatda investitsiyani amalga oshirish yoki oshirmaslik. Davlat esa investitsiyalardan olinadigan daromadlarga yuqori soliq belgilashi yoki soliqni umuman bekor qilishi mumkin:

Davlat	Sarmoyador	
	Investitsiya kiritmaslik	Investitsiya kiritish
Soliq joriy etish	0; 1	3; 0
Joriy etmaslik	1; 2 [St_2]	2; 3 [St_1R]

6-misol. Er-xotin o‘rtasidagi qat’iy shakldagi keskin vaziyatni namoyon etadi. Er-xotin ikkita muqobil – konsertga yoki futbolga borish variantidan birini tanlash yo‘li bilan kechki vaqtni qanday o‘tkazishni hal etadi. Har birining fikri ravshan: xotin - konsertga, er - futbolga borishni afzal ko‘radi. Bunda er-xotin kechki vaqtni birgalikda o‘tkazishdan hordiq chiqarishni ancha past baholashadi.

Er	Xotin	
	Konsertga borish £	Futbolga borish
Konsertga borish	1; 3	0; 0
Futbolga borish £	2; 2 [$N_1St_1St_2R$]	3; 1

O‘yin shunisi bilan qiziqki, bu Erda ikkala ishtirokchida ham ustun strategiya mavjud (£) «konsertga borish» – xotin uchun, «futbol matchiga borish» - er uchun.

KEYSLAR

Aholiga maishiy xizmatlar ko‘rsatish

Xaridor (erkak kishi) do‘kondan kurtka sotib oldi. Uni kimyoviy usul bilan tozalash korxonasiga topshirdi. U Erda kurtkani tozalash vaqtida uni yirtib qo‘yishdi. Mijoz kurtkani olishdan bosh tortib, kompensatsiya talab qildi. Biroq korxonada bu hol zavodda yo‘l qo‘yilgan nuqson tufayli yuz berdi deb javob qilishdi. Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi kompensatsiya to‘lashdan bosh tortib, mustaqil ekspertiza xulosasining taqdim etilishini taklif qildi. Do‘konda kurtkani almashtirishdan bosh tortishmoqda, chunki uni xaridor kiygan. Do‘konning cheki va kimyoviy usul bilan tozalash korxonasidan berigan kvitansiya mijozda mavjud emas. Xaridorga zararni kim qoplashi kerak?

Savollar:

Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnoma tarkibining asrsiy qismlarini ajrating.

Shartnomaning tuzilishi kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi va mijozga (ularshartnoma tuzmagan vaziyat bilan solishtirilganda)qanaqa ustunliklarberadi?

Shartnomaga tozalash jarayonida buyum shkastlanishi mumkinligi to‘g‘risidagi ogohlantirishning kiritilishikimyoviy usul bilan tozalash korxonasining xatti-harakatiga qandayta‘sir ko‘rsatishi mumkin? Mazkur holatda kurtkaning sifatini o‘lchash xarajatlari kimning bo‘yniga qo‘yiladi? Qaysi taraf o‘zini opportunistik tutish imkoniyatiga ega bo‘ladi?

Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi bilan mijoz o‘rtasidagi tuzilgan shartnomamukammal hisoblanadimi? O‘z javobingizni asoslang.

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Adolatlilik muammosining dolzarbligi -Nesh bo‘yicha yagona muvozanat asimmetrik, yutuqning o‘zaro hamkorlik ishtirokchilari o‘rtasida adolatsiz taqsimlanishi bilan tavsiflanadi.
2. Birga bo‘la olish muammosi Nesh bo‘yicha muvozanat mavjud bo‘lmagan vaziyat uchun xosdir.
3. Institutsional tuzoq -bu rasmiy va norasmiy qoidalar o‘rtasidagi noaniqlilik.
4. Kooperativ (koalitsiyali) o‘yinlar – bu Pareto-optimalligi hisoblanadi.
5. O‘yin ishtirokchisining strategiyasi yakka ishtirokchi tahlil qilishning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanadi.
6. Muvofiqlashtirish muammosining hal etilishi qo‘shimcha institutsional shart-sharoitlar joriy etilishi, «fokal nuqtalar» yoki kelishuvlar mavjud bo‘lishini talab etadi.
7. O‘yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan Pareto-optimalligi nazariyasiga ajratiladi.
8. Ustun strategiyalar muvozanati va Nesh bo‘yicha muvozanatdan farqli o‘laroq muvozanatning ushbu turi hamma vaqt mavjud bo‘ladi.
9. O‘yinlar nazariyasidagi formal modelni tashkil etish uchun ishtirokchi individlarning mavjudligi qoidasi amal qiladi.
10. Shtakelberg bo‘yicha muvozanat qarorlar bir vaqtning o‘zida qabul qilinmagan sharoitda o‘yinlarning maksimum foydaliligiga mos keladi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. O‘yinlar nazariyasi qanday taxminlarga asoslanadi?

- A. Bir necha muvozanat nuqtalari kesishga va teng bo‘lishi.
- B. Muvozanat nuqtalari Pareto bo‘yicha optimum nuqtalariga mos kelishi shart emas.
- C. Muvozanat darajasi har doim teng bo‘lmasligi mumkin.
- D. Muvozanat har doim teng kuchli

2. **“Nokooperativ o‘yinlar” nazariyasidagi muvozonatni birinchi bor tahlil qilib chiqqanligi uchun iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘lgan olimlarni ko‘rsating?**
- A. Jon fon Neyman va Oskar Morgenshter.
 - B. Raynxad Selten, Jon Nesh, Jon S.Xarsani.
 - C. R.Kouz, O.Uilyamson va D.Nort.
 - D. G.Demsets va R.Pozner.
3. **“O‘yinlar nazariyasi va iqtisodiy xatti-harakat” (1944) kitobi asoschilari kimlar?**
- A. Jon fon Neyman va Oskar Morgenshter.
 - B. Raynxad Selten va Jon Nesh.
 - C. R.Kouz va O.Uilyamson.
 - D. Jon S.Xarsani va G.Demsets.
4. **O‘yinlar nazariyasi tadqiqot usulining o‘ziga xos asosiy belgilari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?**
- A. individlarning o‘zaro shartlashilgan xatti-harakatlari vaziyatini tahlil qilish, har bir shartning hal etilishi o‘zaro hamkorlik natijasiga va qolgan individlarning qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi.
 - B. individdan tortib to robotgacha bo‘lgan omillar.
 - C. o‘zaro hamkorliklardagi muvozonatning mavjudligi va teng emasligi
 - D. shaxs ish vaqtiga tezlik bilan kelishi va uning muvozonatini mavjudligi
5. **O‘yinlar nazariyasidagi formal modelni tashkil etish uchun qaysi qoidalar amal qiladi?**
- A. Ishtirokchi individlarning mavjudligi, har bir ishtirokchining imkoniyatlar to‘plami.
 - B. Ishtirokchining amalga oshirilmagan ishlari
 - C. Ishtirokchilarning rejalari.
 - D. Ishtirokchining rasmiy fikrlar va g‘oyalari.
6. **O‘yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan qanday nazariyalarga ajratiladi?**
- A. Kooperativ va koalitsiyali.

- B. Nokooperativ va koalitsiyasiz.
- C. Pareto-optimalligi.
- D. Kooperativ va nokooperativ .
- 7. Tahlil etish uchun o‘yin nechta qismni o‘z ichiga oladi?**
- A. Uchta qismni.
- B. To‘rtta qismni.
- C. Beshta qismni.
- D. Oltita qismni.
- 8. Qaysi formulada o‘yinning asosi ko‘rsatilgan?**
- A. $G=F(N,St,P)$
- B. $N=F(G,St,P)$
- C. $St=F(N,G,P)$
- D. $P=F(N,St,G)$
- 9. Muvofiqlashtirish muammosinima sababdan yuzaga keladi**
- A. o‘zaro munosabatlarishtirokchilarining anonimligi;
- B. bir necha potensial muvazanatlarining mavjudligi;
- C. sof strategiyalarda muvazanatning mavjud emasligi;
- D. o‘zaro munosabatlar ishtirokchilari sonining g‘oyat ko‘pligi.
- 10. Fokal nuqta**
- A. Pareto-samarali muvazanatni o‘zida namoyon etadi;
- B. muvofiqlashtirish muammolarini hal etish imkonini beradi;
- C. jamiyatning rivojlanish darajasi haqidagi axborot;
- D. individlar muvazanatsiz vaziyatga tushib qolganda.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Nima uchun institutsional nazariyada matematik apparat neoklassikasi uchun an’anaviy hisoblangan matematik apparat tilidan emas, balki o‘yinlar nazariyasidan foydalaniladi?
2. Individlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning qaysi asosiy muammolari o‘yinlar nazariyasi yordamida modellashtiriladi?
3. Kooperativ va nokooperativ nazariyalarning xususiyatlarini izohlang?

4. Ustun strategiyali muvozanatni sharhlab bering?
5. Nesh bo'yicha muvozanatni sharhlab bering?
6. Shtakelberg bo'yicha muvozanatni, Pareto bo'yicha muvozanatdan farqini tushuntiring?
7. Fokal nuqta deganda nimani tushunasiz?
8. Tahlil etish uchun o'yin nechta qismni o'z ichiga oladi?
9. O'yin ishtirokchisining strategiyasi - deb nimaga aytiladi?
10. O'yinlar nazariyasi tarkibiy jihatdan qanday nazariyalarni o'z ichiga oladi?

IV BOB. REJA INSTITUTI VA BOZOR INSTITUTI

4.1. Iqtisodiyot konstitutsiyalarining shakllanishi

4.2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari

4.3. Bozor konstitutsiyasi normalari

4.4. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash

4.1. Iqtisodiyot konstitutsiyalarining shakllanishi

Normalar individlarning o‘zaro muvofiq munosabatlari barqarorligining asosiy kafolati hisoblanadi. Individ kontragent harakatlarini tushunish va o‘z harakatini ular bilan muvofiqlashtirish uchun u yoki bu normani tanlash barobarida umuman tizimning barqarorligini ta‘minlaydi. Individ normadan chetga chiqsa, uni normaga qaytaruvchi tartibga solish mexanizmining mavjudligi normalar tizimini shakllantiradi. Shuningdek, normalar tizimi makro va mikrodarajalar o‘rtasidagi asosiy bog‘lovchi bo‘g‘inga aylanadi.

Individlarning iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlovchi normalar tizimiga iqtisodiyot konstitutsiyasi deyiladi. Iqtisodiyot konstitutsiyasi buyruqbozlik va bozor tizimlaridagi o‘zaro zid normalarga amal qiladi. Masalan, bozor tizimi faqat individlar o‘zlarining kundalik iqtisodiy faoliyatida u asoslanadigan normalardan foydalangan darajaga qarab barqaror va takror ishlab chiqarishga qodir bo‘ladi. O‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlovchi individlar o‘rtasidagi bitimlardan makroiqtisodiy darajaga o‘tish bozor xatti-harakatlari normalari orqali amalga oshiriladi.

Buyruqbozlik iqtisodiyotining normalar tizimi surunkali taqchillik, ya‘ni resurslarning Etishmasligini o‘zida namoyon etadi. Taqchillikning ma‘lum darajada barqarorlashuvi hamda iqtisodiy agentlar ushbu darajaga moslashuvi tizimda *normal taqchillik* holatini yuzaga keltiradi. Bunda buyruqbozlik iqtisodiyoti uchun xos bo‘lgan navbatning normal uzunligi, resurslar va tayyor

mahsulotlarning normal zahiralari va hokazolar tushuniladi. Boshqacha aytganda, nafaqat Valras bo'yicha umumiy muvozanat iqtisodiy tizimning barqaror holati bilan cheklaniladi, balki tizim hatto muvozanatsiz holatda ham barqarorlashishi mumkinligi namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, buyruqbozlik va bozor tizimlarida qo'llaniladigan normalarning tarkibiy tuzilishini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin. Quyida ushbu normalarning iqtisodiyotda namoyon bo'lishi ko'rib chiqilgan.

4.1.1.-jadval

Iqtisodiyot konstitutsiyalari normalarining guruhlanishi

Bozor konstitutsiyasi	Buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasi
Murakkab utilitarizm	Oddiy utilitarizm
Ratsional maqsadli fe'l-atvor	Mafkuraviy qadriyat ratsionalligi
Depersonifikatsiyalangan ishonch	Personifikatsiyalangan ishonch
Empatiya	«Sen – menga, men - senga»,
Ijobiy ma'noda erkinlik	
Qonunga ixtiyoriy bo'ysunish	Qonunga tilda buysunish

4.2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari

Buyruqbozlik iqtisodiyotining normal holatlari uchun zarur bo'lgan normalardan biri oddiy utilitarizm hisoblanadi. Bunda individ tomonidan o'z foydaliligini oshirilishi o'ziga xos ravishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, **oddiy utilitarizm** - individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda o'z foydaliligini oshirishga intilishidir.

Individ iste'mol madaniyatidagi oddiy utilitarizm "kvartira – mashina – dala hovli" uchligida aks etadi. Individda bunday idealning tarqalishi va qulay hayot

sharoitlarini ta'minlashga intilish sho'rolar (sovetlar) jamiyati namunasida XX asrning 70-80-yillardagi o'ziga xos shaklga ega tendensiyalar bilan tavsiflanadi. Bunda iste'molning ma'lum darajasiga erishish uchun noyob (taqchil) resurslardan foydalanish imkoniyati samarali mehnat bo'yicha emas, balki ma'lum kasb toifasidagi xodimlar (savdo sohasi, byurokratik apparat, temir yo'l va havo yo'li transporti xodimlari, chet elga chiqish imkoniyatidagilar) o'rtasida bo'lingan edi.

Ya'ni, utilitarizm normasi buyruqbozlik iqtisodiyotida faqat oddiy shaklda – individning samarali faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan holda foydalilikni oshirishga intilishi sifatida mavjud bo'lgan. Ikkinchidan, taqchilik sharoitidagi iste'molda foydalilikni oshirishga intilish navbatda turish zarurligi, asabbuzarliklar, ovoragarchiliklar, janjallar (nizolar) tufayli kelib chiqqan yuqori ruhiy kechinmalar bilan cheklandi. Buyruqbozlik tizimining bu tavsifi «sabr chegarasi» tushunchasi bilan ham izohlanadi. Sabr chegarasi deganda nizolar va keskinliklar jamlanishining undan keyin iqtisodiy agentlar shikoyat qila boshlaydigan va norozilik namoyish etadigan darajasi tushuniladi. Shunday qilib, buyruqbozlik iqtisodiyotining birinchi normasi *oddiy va cheklangan utilitarizmdan* iborat.

Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari tizimining ikkinchi unsuri to'liqsiz ratsional faoliyat bilan izohlanadi. Bunda, birinchi navbatda axborotning cheklanganligi va to'liqsizligi bilan shartlangan to'liqsiz ratsionallik tushuniladi. Iqtisodiy agentlar erkin shakllanmagan narx va taqchil resurslar sharoitida narxlardagi mavjud axborotni narxga taalluqli bo'lmagan – zahiralar hajmi, navbatlarning uzunligi va hokazolar haqidagi ma'lumotlar bilan to'ldiradilar. Sof ko'rsatkichlarda axborot olish esa, hamma vaqt uni yig'ish bilan bog'liq yuqori darajadagi xarajatlarni keltirib chiqaradi. Natijada tizimda «nizo», ya'ni sotuvchilar va xaridorlar pozitsiyalarini muvofiqlashtirishda kechikishlar paydo bo'ladi. Nizo prognozlardagi xatolar, manfaatdor shaxsda boshqa sub'yektlarning holati va maqsadlari to'g'risida axborotning mavjud emasligi, manfaatdor shaxsning qaror qabul qilishdagi beqarorligi, o'zgaruvchan sharoitga moslashishdagi o'ng'aysizligi shakliga ega bo'ladi. Bundan tashqari, to'liqsiz ratsional faoliyat, iqtisodiy agent uchun faqat tashqaridan belgilangan

maqsadlarga erishish vositalarini tanlash erkinligi bilan shartlangan. Mafkura bilan belgilangan partiya-xo‘jalik apparatining mafkuraviy maqsadlari reja topshiriqlari shaklini qabul qiluvchi muayyan ma‘muriy va xo‘jalik vazifalariga aylanadi. Boshqacha aytganda, buyruqbozlik iqtisodiyotida iqtisodiy sub’yektlarning faoliyati – mafkuraviy qadriyat ratsionalligi normasiga asoslanadi.

Ishonch normasi ikkita shaklda davlatga ishonch sifatida va bir birini yaxshi bilgan shaxslar doirasi bilan cheklangan mikrodarajadagi ishonch sifatida mavjud bo‘ladi. Har qanday ahamiyatli bitimning davlat organiga: partiya, reja, ta‘minot organiga murojaat etish bilan bog‘liqligi sababli davlatga ishonmasdan turib, yo‘l tutishning iloji yo‘q. Bunday vaziyatda bevosita kontragentga ishonish mutaqo ortiqcha – davlat uchinchi tomon sifatida bitim shartlarining bajarilishini kafolatlaydi. Biroq mikrodarajadagi *ishonch* baribir *maksimal individuallashtirilgan* shaklda mavjud bo‘ladi.

Bu norma ham uy xo‘jaligida, ham korxonada amal qiladi. Uy xo‘jaligining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida og‘irlik markazining oila-qarindoshchilik tarkibiga, do‘stlar va tanish-bilishlarga ko‘chiriladi. Masalan, o‘zaro hamkorlik umuman vrach, sartaosh bilan emas, balki *tanish* vrach yoki sartaosh bilan amalga oshiriladi. Korxonalar xatti-harakatini ham huddi shunday ta‘riflash mumkin. Ulardan har biri barqaror sherikchilik doirasiga ega bo‘lib, bunda ushbu korxonalar rahbarlari o‘rtasida shaxsiy darajada ishonchli munosabatlar yo‘lga qo‘yiladi. Ya‘ni, direktorlar o‘rtasida o‘zaro yordam va o‘zaro ishonch tamoyillari asosiga qurilgan korporativ munosabatlar shakllanadi.

Buyruqbozlik iqtisodiyotining navbatdagi bazaviy normasi «*sen – menga, men - senga*», yoki o‘zaro xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi kelishuvdir. Taqchil resursni olishning keng tarqalgan variantlaridan biriga ko‘ra, iste‘molchi va Etkazib beruvchi vaqti vaqti bilan vazifalarini almashtirib turadi, ya‘ni “bugun men po‘lat berib turaman, sen esa ertaga boltdan yordam qilib turasan”. Aynan har qanday barter bitimining asosida «*Sen – menga, men - senga*» normasidan foydalanish yotishiga ishonch hosil qilish mumkin. Hatto, barter almashuvi zanjir

bo'yicha amalga oshirilishi mumkin bo'lsa-da, ushbu normaga lokal va tanish-bilishlar doirasi bilan cheklangan xususiyatni yo'qotish imkonini bermaydi.

Va nihoyat, *qonunga bo'ysunish* normasi. Har qanday o'zaro munosabatning davlat nazorati ostida bo'lishiga qaramay buyruqbozlik iqtisodiyoti doirasida qonunlar partiya manfaatlariga bo'ysungan. Buning uchun rasmiy asos bo'lmasda, partiya qarorlari *de facto* qonun kuchiga ega bo'lgan. Hatto e'lon qilingan *de yure* umumxalq mulkchilik shakli ham *de facto* mulkchilik shakli bilan, xususan, byurokratik organlar – «idoralar» (vazirliklar va idoralar) mulki bo'lgan. Byurokratiyaning bunday o'zboshimchaligi oddiy fuqarolarning qonunga nisbatan munosabatiga aks ta'sir o'tkazgan. Boshqacha aytganda, buyruqbozlik iqtisodiyotida iqtisodiy sub'yektlarning xatti-harakati *qonunga tilda buysunish* normasi sifatida tavsiflanadi. Demak, buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasining asosiy normalari tizimning muvozanatsiz holatini barqarorlashtirga xizmat qiladi.

4.3. Bozor konstitutsiyasi normalari

Bozor konstitutsiyasi – bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o'zaro shartlangan normalari yig'indisini tashkil etadi. Bozorlardagi barqaror muvozanat bozor normalaridan foydalanishning natijasi hisoblanadi Bozor konstitutsiyasining asosida yotuvchi birinchi norma – *murakkab utilitarizm* normasi bo'lib, u nafaqat individni o'zining foydaliligini oshirishga yo'naltirishni, balki uning olinadigan foyda bilan o'zining samarali faoliyati o'rtasidagi aloqani anglab Etishini nazarda tutadi. **Ya'ni, murakkab utilitarizm** – individ tomonidan o'z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.

Murakkab utilitarizm normasi individning ehtiyojlar darajasi va samarali faoliyati o'rtasidagi nomuvofiqlikni istisno etadi. Ba'zan, bunday nomuvofiqlik yuqori ishlab chiqarish salohiyatiga va yuqori mehnat samaradorligiga ega bo'lmagan mamlakat aholisi o'rtasida yuqori iste'mol standartlarining tarqalishida yuzaga keladigan «nomuvofiq kutishlar inqiloblari» asosida yotadi. Ushbu

vaziyatda asosan ommaviy axborot vositalari orqali yuz beradigan yangi iste'mol standartini qabul qilish jamiyatda hukmronlik qiluvchi samarali faoliyat modeliga taalluqli bo'lmaydi.

Bundan tashqari, qulay sharoitlar mavjud bo'lganida oddiy utilitarizm foydalilikni oshirishni rentani qidirishga aylantirishni nazarda tutadi. Mukammal raqobat vaziyatidan har qanday chetga chiqish, almashish (tariflar, kvotalar) uchun cheklovlar o'rnatilishi oddiy utilitarizm sa'y-harakatlarini rentani qidirishga yoki, boshqacha aytganda, foydaga samarasiz yo'naltirilishga aylantiradi. Individdning rentani ko'paytirishga intilishini normativ cheklash sifatida murakkab utilitarizm, ya'ni individ tomonidan boshqalar ziyoniga emas, balki faqat o'z faoliyati hisobidan yutuqqa erishish mumkinligining tan olinishi muqobil variant hisoblanadi.

Agar utilitarizm normasi individning maqsadli funksiyasini belgilasa, *ratsional maqsadli fe'l-atvor (hulq, xatti-harakat)* normasi foydalilikni muayyan vazifalarning hal etilishi bilan bog'lagan holda oshirishni muayyanlashtiradi. Ma'lumki, ratsional maqsadli fe'l-atvor individ tomonidan o'zining ratsional qo'yilgan va o'ylangan maqsadiga erishish uchun tashqi olam predmetlari va *insonlarning* ma'lum fe'l-atvoridan foydalanishini nazarda tutadi. Axborotning to'liqsizligi va uni qayta ishlash bo'yicha kognitiv qobiliyatlarning cheklanganligi sharoitida ratsional maqsadli fe'l-atvor nayrang qilishga aylanadi: agar individ katta hajmdagi axborotga ega bo'lsa, u o'zining hamkori bilan nayrang qiladi. Individ shu usul bilan atrofidagilarni o'z maqsadiga – foydalilikni oshirishga erishish vositasiga aylantirishga urinadi.

Ayrim agentlarning foydalanilgan avtomobillar bozori va «ma'naviy xatar» bilan bog'liq sug'urta bozorida boshqalarni ziyonga uchratishi axborot asimmetriyasidan foydalanishga klassik misol bo'ladi. Bunday ayyorlik, yaqqol yoki nozik shaklda aldash bilan shaxsiy manfaat ko'zlanadigan xatti-harakatga opportunizm nomi berilgan. Ratsional maqsadli fe'l-atvorni opportunizmga aylantirishga qarshi kafolatlar barcha ishtirokchilar faoliyatining quyidagi yo tarkibiy yoki rasmiy-huquqiy jihatlari bilan tavsiflanadi:

- mukammal kognitiv qobiliyat va almashuvda to‘liq axborotga ega bo‘lish;
- shartnoma tuzishda maxsus taomillardan foydalanish.

Ikkinchi jihat optimal shartnoma nazariyasini maxsus o‘rganish predmeti hisoblanadi, shuning uchun bu Erda bozor konstitutsiyasining ikkinchi unsuri sifatida *to‘liq ratsionallik* mezonlariga javob beruvchi *ratsional maqsadli fe‘l-atvorni* ta’kidlash lozim.

Maqsadli ratsional fe‘l-atvor shakllanishining asoslardan biri atrof-muhit predmetlari va odamlarning fe‘l – atvorini kutilayogan voqelikka nisbatan mos ravishda ayta olishdir. Individ tomonidan qabul qilinadigan qarorlar xatarining hamkor faoliyati asosida aniqlangan vaziyatlari kutilayotgan voqelikka kontragent xarakterining mos bo‘lishi uchun o‘ta ahamiyatlidir. O‘zaro bog‘liqlar sharoitida individlar o‘rtasidagi munosobatlarni tartibga soluvchi norma sifatidagi ishonch bo‘lgan taqdirda maqsadli ratsional harakatga erishiladi. Individga o‘z harakatini boshlashidan oldin atrofdagi harakatlar aniq bo‘lib, individ tanloviga ayrim atrofdagi harakatlar bo‘yicha kutilishlarning ta’sir qilishiga ishonch deyiladi. Bozordagi bitim bilan individuallashmagan ishonch o‘rtasidagi bog‘liqlik oldindan to‘lovlarning amal qilishida namoyon bo‘ladi. Bu eng oddiy bozor bitimi hisoblanadi. Iqtisodiyoti rivojlangan malakatlarda ishonchning individuallashmaganligi bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlarga javoblar (Daniya-94 %; Germaniya-90 %; Fransiya-84%)da yuqori natijalar olingan.

Bozor konstitutsiyasining yana bir normasi empatiya bo‘lib, bunda individ o‘zini hamkor o‘rniga qo‘yib ko‘radi va uning barcha kechinmalari, qiziqishlari va mo‘ljallarini bozor subekti sifatida o‘zidan o‘tkazishga harakat qiladi. Ayrim shaxslar doirasi bilan cheklanmagan empatiya individning o‘z xarakterlarida erkinlikka chiqqani bilan bog‘liq. Insonning faoliyati qancha erkin bo‘lsa, u atrofdagilarning harakatini shuncha yaxshi tushunadi va uni oldindan ayta oladi. Bu erkinlik normasining ratsional asoslangan maqsadga erishishda to‘siq emas, balki muvaffaqiyat shartiga aylanishini ta’minlaydi. So‘nggi norma legalizm bo‘lib, bunda qonunni hurmat qilish va o‘z ixtiyoriga ko‘ra, unga bo‘ysinish

tushuniladi. Bu norma ayni chog‘da, mulkiy huquqlarning samarali himoya qilinishiga ham yo‘l ochadi. Yuqorda bayon etilganlardan shu narsa kelib chiqadiki, bozor konstitutsiyasi normalarida ham ayrim nuqsonlar mavjud bo‘lgani holda, ularning o‘zaro bog‘liq tarzda amal qilishi tizimning muntazam takomillashuviga xizmat qiladi.

4.4. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash

Individlar uchun mulkchilik huquqlarini o‘rnatish hamda ushbu huquqlarga ularning amal qilish zarurati qonunga ixtiyoriy bo‘ysunish normalari bilan o‘zaro uzviy bog‘langan. Mulkchilik huquqlari individlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlardagi noaniqlikni kamaytiruvchi institutlardan biri hisoblanadi.

Mulkchilik huquqlarini tahlil qilish uchun ikkita fermer o‘z podalarini biri past hosildor bo‘lgan ikkita yaylovda o‘tlatishi misolini ko‘rib chiqamiz¹. Berilgan holatga ko‘ra, Em-hashak zahiralari ushbu yaylovlarning har birida bir vaqtning o‘zida ikkita podani o‘tlatish imkonini bermaydi.

4.2.1-jadval

Fermerlarning yaylovlardan foydalanish imkoniyatlari

Ko‘rsatkichlar		2-fermer	
		Birinchi yaylovda o‘tlatish -R ₂	Ikkinchi yaylovda o‘tlatish-1- R ₂
1-fermer	Birinchi yaylovda o‘tlatish - R ₁	2; 2	8; 4 [N ₂ R ₂ R St ₁]
	Ikkinchi yaylovda o‘tlatish -1- R ₁	4; 8 [N ₁ R ₁ St ₂]	1; 1

Ushbu holatda Pareto bo‘yicha optimallik nuqtai nazaridan ikkita bir xil yakun (4; 8) yoki (8; 4) mavjud. Yakunlardan birini qayd etuvchi institutsional

¹ Қаранг: Олейник А.Н. Институциональная экономика: Учебное пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 416 с.

qarorlar bir nechta bo'lishi mumkin. Ulardan eng oddiysi yaylovdan foydalanishdagi ustuvorlikni unga birinchi bo'lib o'z podasini olib kelgan fermerga beruvchi qoidani qo'llashdan iborat. Kelish tartibi bo'yicha noyob resurs (yaylov)ni taqsimlash – navbat instituti faoliyat ko'rsatishining asosida yotuvchi tamoyillardan birini aks ettiradi. Biroq navbat institutidan foydalanish podani qaysi yaylovga olib borish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida fermerlarning ikkilanishini kamaytirmaydi, balki oshiradi. Bundan tashqari, ikkilanish undan keyin ham har safar yaylovni tanlashda takrorlanadi.

Yaylovda mulkchilik huquqlarining o'rnatilishigina masalani hal etishning muqobil varianti bo'ladi. Masalan, 1-fermer birinchi yaylovning, 2-fermer esa ikkinchi yaylovning mulkdori hisoblansin. Hatto fermerlarning nafliligi nuqtai nazaridan bunday qarorning nomutanosibligini hisobga olgan holda, *ikkalasining* ham manfaatlari yo'lida mulkchilik huquqlarini tan olish va hurmat qilish lozim. Kam hosilli yaylovni oluvchi ikkinchi fermerning mulkchilik huquqlari joriy etilgunga qadar va undan keyingi nafliligini taqqoslaylik.

Mulkchilik huquqlari o'rnatilgunga qadar ikkinchi fermer, agar u podasini birinchi yaylovga olib borsa, $2R_1 + 8(1 - R_1) = 8 - 6R_1$ ga, agar u podasini ikkinchi yaylovga olib borsa, $4R_1 + 1(1 - R_1) = 3R_1 + 1$ ga ega bo'ladi. So'ngra, ikkinchi fermer tomonidan birinchi yaylovning tanlanishi ehtimolini hisobga olgan holda, $R_1, EU = R_2(8 - 6R_2)(3R_1 + 1)$ ga, oddiy holatda $R_1 = R_2 = 1/2$ ga ega bo'lamiz, bu $EU = 3,75$ ni beradi. Mulkchilik huquqlari o'rnatilganidan keyin esa ikkinchi fermerga 4; ya'ni, $4 > 3,75$ ga teng bo'lgan yutuq kafolatlangan.

Ikkala fermer ham bir vaqtning o'zida bitta yaylovdan foydalangan hollarda past yutuqlarga erishishiga alohida e'tiborni qaratish lozim. Mazkur holat ochiq foydalanishda bo'lgan resurslarni nooqilona iste'mol qilishda o'z aksini topadigan «jamoat mulki fojiasini» namoyon etadi. Bunday resurslardan foydalanishning xususiy va jamoat sarf-xarajatlarining nomuvofiqligi ularning tugashiga olib keladi. Boshqacha aytganda, resursga nisbatan mulkchilik huquqlari aniq o'rnatilmagan hollarda uning iste'mol qilinishi salbiy tashqi ta'sirlar yoki eksternallarning paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yana misol tariqasida ikkala fermer

tomonidan bir vaqtning o'zida bir yaylovdan foydalanilishini tasvirlovchi holatni ko'rib chiqaymiz. Misolda ishlab chiqarishning faqat ikkita omili – fermerlarning Eri va mehnati hisobga olinsin.

Faraz qilaylik, yaylovga qo'shimcha mehnat birligi sarflangan, ya'ni birinchi fermer egallagan yaylovga ikkinchi fermer o'z podasini olib keldi. Ushbu holatda qo'shimcha mehnat sarfining samarasi pasayadi. Ishlab chiqarish (etishtirish) umumiy hajmi oshgani holda qo'shimcha mehnat qilgan fermerning manfaaddorligi pasayadi va o'rtacha mahsulotning kamayishi yuz beradi. Agar yaylov xususiy mulkchilikda bo'lsa, u holda mulkdorning shaxsiy sarf-xarajatlari ko'proq samara keltiradi va renta eng yuqori bo'ladi. Agar yaylov umumiy foydalanishda bo'lsa, mehnat sarfi samaradorligining darajasi pasayib, renta yo'qoladi. Yuqorida bayon etilganlarga yakun yasab, ta'kidlash lozimki, mulkchilik huquqlarining o'rntilishi kamida ikkita sababga ko'ra iqtisodiy agentlar manfaatlariga mos keladi, ya'ni ularning o'zaro hamkorligidagi noaniqlik (ikkilanish) kamayadi va resurslardan foydalanish optimallasadi.

Xulosa

Normalar individlarning o'zaro muvofiq munosabatlari barqarorligining asosiy kafolati hisoblanadi. Iqtisodiyot konstitutsiyasi deb individlarning iqtisodiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi normalar tizimiga aytiladi. Buyruqbozlik va bozor tizimlarida iqtisodiyot konstitutsiyasining normalari o'zaro zid holda amal qiladi. Buyruqbozlik iqtisodiyotining normalar (oddiy utilitarizm, maksimal individuallashtirish, «sen – menga, men - senga», qonunga tilda buysunish) tizimi surunkali taqchillik, ya'ni resurslarning Etishmasligini namoyon etadi. *Bozor konstitutsiyasi* – bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o'zaro shartlangan normalari (murakkab utilitarizm, ratsional maqsadli fe'l-atvor, depersonifikatsiyalangan ishonch, empatiya, legalizm) yig'indisini tashkil etadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Bozor konstitutsiyasi– bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o‘zaro shartlangan normalari yig‘indisini tashkil etadi.

Iqtisodiyot konstitutsiyasi- deb individlarning iqtisodiy faoliyat yuritishini ta‘minlovchi normalar tizimiga aytiladi.

Murakkab utilitarizm – individ tomonidan o‘z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.

Oddiy utilitarizm – individning samarali faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda o‘z foydaliligini oshirishga intilishidir.

Empatiya- bunda individ o‘zini hamkor o‘rniga qo‘yib ko‘radi va uning barcha kechinmalari, qiziqishlari va mo‘ljallarini bozor subekti sifatida o‘zidan o‘tkazishga harakat qiladi.

Legalizm- bunda qonunni hurmat kilish va o‘z ixtiyoriga ko‘ra, unga bo‘ysinish tushuniladi.

Ratsional maqsadli fe‘l-atvor(hulq, xatti-harakat)normasi – bu foydalilikni muayyan vazifalarning hal etilishi bilan bog‘lagan holda oshirishni muayyanlashtiradi.

Mulkchilik huquqlari- individlar o‘rtasida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlardagi noaniqlikni kamaytiruvchi institutlardan biri hisoblanadi.

Sabr chegarasi deganda nizolar va keskinliklar jamlanishining undan keyin iqtisodiy agentlar shikoyat qila boshlaydigan va norozilik namoyish etadigan darajasi tushuniladi.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol.Evropa hamjamiyatining MDH mamlakatlariga texnik ko‘maklashish dasturi (TACIS) budjeti 2001-2005 yillarda 2268 mln. ekyuni tashkil qildi. Misol tariqasida mazkur Dastur doirasida qo‘llab-quvvatlangan 2200 ta loyihadan birini ko‘rib chiqamiz (loyiha budjeti 4 mln. ekyuni tashkil qildi). Loyihaning nomi: "Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda huquqiy davlatni va huquqiy

ta'limni kuchaytirish". Loyihaning maqsadi: bozor iqtisodiyotiga o'tishning iqtisodiy va ijtimoiy haqiqat ekanligiga mos keluvchi qonunlar loyihalarini ishlab chiqishda yordam ko'rsatish; qonunlarni amalga oshirish mexanizmlari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish; ishlab chiqilayotgan loyihalarni Evropa mamlakatlarining qonunchiligiga muvofiqlashtirish; huquq sohasidagi professionallar uchun maxsus ta'lim dasturlarini ishlab chiqish. Loyiha quyidagi sohalardagi qonunchilikni isloh qilishga yo'naltirilgan: korporativ huquq, ma'muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoiy huquq. Loyihaning amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlar tabiatini tasniflan.

- a) rasmiy institutlarni import qilish xarajatlari;
- b) amaldorlar va mutaxassislarni o'qitish xarajatlari;
- v) yangi qonunlarning qabul qilinishiga bosim o'tkazish xarajatlari;
- g) yangi qonunlar haqidagi axborotni tarqatish xarajatlari;
- d) qonunga bo'ysunish narxi;

Javob: j), ko'rib chiqilayotgan loyihaning amalga oshirilishi rasmiy institutlarni import qilishni (qonunlar loyihalarini G'arbiy Evropa namunalari asosida ishlab chiqishni), huquq sohasidagi amaldorlar va mutaxassislarni o'qitishni, yangi qonunlarning qabul qilinishiga bosim o'tkazish (shu jumladan loyiha doirasida o'qitilgan amaldorlar orqali), yangi qonunlar haqidagi axborotni tarqatish (bir qator seminarlarni tashkil etish orqali).

2-misol. Fermerlarning yaylovlardan foydalanish imkoniyatlari

Ko'rsatkichlar		2-fermer	
		Birinchi yaylovda o'tlatish -R ₂	Ikkinchi yaylovda o'tlatish-1- R ₂
1-fermer	Birinchi yaylovda o'tlatish - R ₁	2; 2	8; 4 [N ₂ R ₂ R St ₁]
	Ikkinchi yaylovda o'tlatish -1- R ₁	4; 8 [N ₁ R ₁ St ₂]	1; 1

Echish: Ushbu holatda Pareto bo'yicha optimallik nuqtai nazaridan ikkita bir xil yakun (4; 8) yoki (8; 4) mavjud. Yakunlardan birini qayd etuvchi institutsional qarorlar bir nechta bo'lishi mumkin. Ulardan eng oddiysi yaylovdan foydalanishdagi ustuvorlikni unga birinchi bo'lib o'z podasini olib kelgan fermerga beruvchi qoidani qo'llashdan iborat. Kelish tartibi bo'yicha noyob resurs (yaylov)ni taqsimlash – navbatinstituti faoliyat ko'rsatishining asosida yotuvchi tamoyillardan birini aks ettiradi. Biroq navbat institutidan foydalanish podani qaysi yaylovga olib borish to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida fermerlarning ikkilanishini kamaytirmaydi, balki oshiradi. Bundan tashqari, ikkilanish undan keyin ham har safar yaylovni tanlashda takrorlanadi.

Yaylovda mulkchilik huquqlarining o'rnatilishigina masalani hal etishning muqobil varianti bo'ladi. Masalan, 1-fermer birinchi yaylovning, 2-fermer esa ikkinchi yaylovning mulkdori hisoblansin. Hatto fermerlarning nafliligi nuqtai nazaridan bunday qarorning nomutanosibligini hisobga olgan holda, *ikkalasining* ham manfaatlari yo'lida mulkchilik huquqlarini tan olish va hurmat qilish lozim. Kam hosilli yaylovni oluvchi ikkinchi fermerning mulkchilik huquqlari joriy etilgunga qadar va undan keyingi nafliligini taqqoslaylik.

Mulkchilik huquqlari o'rnatilgunga qadar ikkinchi fermer, agar u podasini birinchi yaylovga olib borsa, $2R_1 + 8(1 - R_1) = 8 - 6R_1$ ga, agar u podasini ikkinchi yaylovga olib borsa, $4R_1 + 1(1 - R_1) = 3R_1 + 1$ ga ega bo'ladi. So'ngra, ikkinchi fermer tomonidan birinchi yaylovning tanlanishi ehtimolini hisobga olgan holda, $R_1, EU = R_2(8 - 6R_2)(3R_1 + 1)$ ga, oddiy holatda $R_1 = R_2 = 1/2$ ga ega bo'lamiz, bu $EU = 3,75$ ni beradi. Mulkchilik huquqlari o'rnatilganidan keyin esa ikkinchi fermerga 4; ya'ni, $4 > 3,75$ ga teng bo'lgan yutuq kafolatlangan.

3-misol. OO'Yuga o'qishga kirishda ota-onalar o'zining farzandlarini abituriEnt sifatida "sug'urta qilish" uchun o'z vaqtida abituriEntning otasi bilan bir maktabda o'qigan dekan o'rinbosari bilan uzoq vaqtdan buyon saqlanib kelayotgan aloqadan foydalanishga qaror qilishadi. Bunday xatti-harakat ko'proq uy xo'jaligining qaysi xiliga xos?

a) bozor;

- b) o‘tish;
- v) buyruqbozlik;
- g) v) yoki b).

Javob: g), buyruqbozlikiqtisodiyoti doirasida aloqa uy xo‘jaligining faoliyat ko‘rsatishida asosiy rolni o‘ynadi. Shuning uchun oila farovonligining darajasi aynan keng va tabaqalangan aloqalarning mavjudligi bilan belgilandi. Ikkinchi tomondan, o‘tish iqtisodiyotidaaloqalar uy xo‘jaligining resurslaridan biri bo‘lgani holda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda (Rouzning fikriga ko‘ra, aloqalar va poralardan foydalanish «resurs portfeli»ning oltita qismidan biri sifatida ishtirok etadi).

KEYSLAR

Qo‘shma tijoratning paydo bo‘lishi yoki «Keling uylar bilan do‘stlashaylik»

Yangi «*Daloyit maslahat*» tadqiqotiga muvofiq savdo sheriklari o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tarmog‘ini yaratish — biznesda o‘shishga erishish kaliti. «Kompaniyalar o‘zining raqobat jihatdan ustunligini savdo sheriklarining dinamik ekotizimi bilan tobora mustahkam bog‘lagan holda raqobat tarzida katta o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda» — deyiladi Nyu-york «*Daloyit maslahat*» tadqiqotida. Biznes sohasidagi 300 ta Etakchidan olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, qarorlarning birgalikda qabul qilinishi, hujjatlar va ma’lumotlar aylanishini avtomatlashtirilishi biznesning o‘shishini 70 foizdan ko‘pga oshiradi.

«Qo‘shma tijorat kompaniyalarga qo‘shma korxonani boshqarish usulini va izchil jarayonlarni baholashni yaxshilash imkonini beradi», — deydi Djon Ferreyra, «*Daloyit maslahat*» sherigi — «Turli kompaniyalarda ishbilarmonlik jarayonlari axborot tizimlarining muvaffaqiyatli integratsiyalashuvi ularga raqobatda katta ustunlikni berdi — ushbu kompaniyalar o‘z foydasini yaxshiroq anglab Etmoqda, katta foyda olmoqda, bozorning katta segmentiga ega bo‘lmoqda».

«Daloyit»ga muvofiq eng muvaffaqiyatli kompaniyalar unda kompaniya va uning eng muhim savdo sheriklari bir zanjirning yaxshi yo'lga qo'yilgan bug'ini kabi hamjihatlik bilan harakat qiladigan vaziyatni yaratishdi. «Daloyit» tadqiqoti natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, kompaniyalarning deyarli to'rtidan uch qismi bahamjihat harakatlarni o'zining oliy maqsadi deb hisoblashadi, boshqa kompaniyalar bilan ishbilarmonlik jarayonlarini uyg'unlashtirgan kompaniyalar esa o'zining savdo sheriklari bilan integratsiyalashmagan kompaniyalarga qaraganda 70 foizga ko'p foyda olishmoqda. Ushbu raqamlar ikki yil oldin o'tkazilgan ana shunday tadqiqot natijalariga qaraganda 20 foizga oshdi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot kompaniyalarning tobora ko'pchiligi ushbu tamoyilni amalga oshirishga kirisha boshlayotganligini ko'rsatmoqda. Katta korxonalar (5 mlrd. dollardan ko'p aylanma mablag'larga ega bo'lgan kompaniyalar)ning 33 foizi dastlabki dasturlarni amalga oshirishni boshlab yubordi, yana 45 foizi dastlabki loyihani rejalashtirmoqda. «Daloyit» tahlilchilarining fikriga ko'ra, 2012 yilga kelib kompaniyalarning 85 foizi qo'shma tijorat borasidagi ayrim tashabbuslarni hayotga tatbiq etmoqda.

Savollar:

«Daloyit maslahat» tadqiqotiga muvofiq qanaqa muammolarni tarmoq ichidagi o'zaro hamkorlik orqali hal etish mumkin? Qo'shma tijoratni tashkil etish va yuritish jarayonidakorxonalarda qanaqa xarajatlar yuzaga kelishi mumkinligini taxmin qiling?

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO'G'RIMI YOKI NOTO'G'RIMI?

1. Iqtisodiyot konstitutsiyasi buyruqbozlik va bozor tizimlaridagi o'zaro zid normalarga amal qiladi.
2. Buyruqbozlik iqtisodiyotining normalar tizimi surunkali taqchillik, ya'ni resurslarning Etishmasligini o'zida namoyon etadi.

3. Taqchillikning ma'lum darajada barqarorlashuvi hamda iqtisodiy agentlar ushbu darajaga moslashuvi tizimda normal taqchillik holatini yuzaga keltiradi.
4. Oddiy utilitarizm individning samarasiz faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan holda o'z foydaliligini oshirishga intilishidir.
5. Buyruqbozlik iqtisodiyotining birinchi normasi oddiy va cheklangan utilitarizmdan iborat.
6. Ishonch normasi ikkita shaklda davlatga ishonch sifatida va bir birini yaxshi bilgan shaxslar doirasi bilan cheklangan mikrodarajadagi ishonch sifatida mavjud bo'ladi.
7. Bozorlardagi barqaror muvozanat bozor normalaridan foydalanmaslik natijasi hisoblanadi.
8. Murakkab utilitarizm individ tomonidan o'z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.
9. Oddiy utilitarizm foydalilikni oshirishni rentani izlashga va yuqori foyda olishga aylantirishni nazarda tutadi.
10. Ratsional maqsadli fe'l-atvor individning ratsional qo'yilgan va o'ylangan maqsadga erishish uchun tashqi olam predmetlari va insonlarning ma'lum fe'l-atvoridan foydalanishini nazarda tutadi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Iqtisodiyot konstitutsiyasi – nima?

- A. Individlarning iqtisodiy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi normalar tizimiga.
- B. Bozor iqtisodiyoti normalariga.
- C. Rasmiy normalr tizimiga.
- D. Norasmiy normalar tizimiga.

2. Iqtisodiyot konstitutsiyasi qanday normalarga amal qiladi?

- A. Individlarning iqtisodiy faoliyat ko'rsatishi.
- B. Buyruqbozlik va bozor tizimlaridagi o'zaro zid normalarga.

- C. Bozor iqtisodiyoti normalariga.
D. Norasmiy normalar tizimiga.
- 3. Bozor konstitutsiyasida qo'llaniladigan normalarning tarkibiy tuzilishi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?**
- A. Murakkab utilitarizm va ratsional maqsadli fe'l-atvor, empatiya.
B. Bozor iqtisodiyoti normalariga.
C. Ijobiy erkinlik asosidagi qonunlarga.
D. Norasmiy va rasmiy qoidalarga.
- 4. Buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasida qo'llaniladigan normalarning tarkibiy tuzilishi qaysi javobda to'g'ri keltirilgan?**
- A. Oddiy utilitarizm va mafkuraviy qadriyat ratsionalligi.
B. Personifikatsiyalanmagan ishonch.
C. Qonunga bo'ysunmaslik.
D. Rasmiy qoidalar.
- 5. Bozor konstitutsiyasi – nima?**
- A. individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan intilishidir.
B. bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o'zaro shartlangan normalari yig'indisini tashkil etadi.
C. individning qulay hayot sharoiti.
D. Rasmiy qoidalar asosida.
- 6. Murakkab utilitarizm– nima?**
- A. individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lgan intilishidir.
B. bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish.
C. individ tomonidan o'z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.
D. individning qulay hayot sharoiti.
- 7. Ratsional maqsadli fe'l-atvor(hulq, xatti-harakat)normasi – nima?**
- A. foydalilikni muayyan vazifalarning hal etilishi bilan bog'lagan holda oshirishni muayyanlashtiradi.
B. individning samarali faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan intilishidir.

- C. bozorda bitimlarni amalga oshirishdir.
- D. muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlar.
- 8. Empatiya – nima?**
- A. individ o‘zini hamkor o‘rniga qo‘yib ko‘radi, uning barcha kechinma, qiziqish va mo‘ljallarini bozor subekti sifatida o‘zidan o‘tkazish.
- B. individ rasmiy normalarga amal qilmaydi.
- C. individning samarali faoliyati pulda ifoda etiladi.
- D. individ shartnomani ikki tomonlama tuzadi.
- 9. Legalizm – nima?**
- A. qiziqishlarini bozor subekti sifatida o‘zidan o‘tkazish.
- B. individ rasmiy normalarga amal qilmaydi.
- C. qonunni hurmat kilish va o‘z ixtiyoriga ko‘ra, unga bo‘ysinish tushuniladi.
- D. individ shartnomani ikki tomonlama tuzadi.
- 10. Amal qilish xarakteriga qarab bozor qanday tasnifga ega?**
- A. tartibsiz (stixiyali), tartibli, boshqariladigan bozor;
- B. tartibli, boshqariladigan, qulay bozor;
- C. aralash, tartibli, boshqariladigan bozor;
- D. qonuniy, tartibli, boshqariladigan bozor;

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. Agar buyruqbozlik iqtisodiyoti hatto surunkali taqchillik mavjud bo‘lganda ham barqaror tizimni o‘zida namoyon etgan bo‘lsa, u holda o‘tish iqtisodiyotining tub beqarorligining sabablari nimada?
2. Bozor konstitutsiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. Buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasida qo‘llaniladigan normalarning tarkibiy tuzilishi yuzasidan fikringiz?
4. Bozor konstitutsiyasi o‘z ichiga qanday normalarni oladi?
5. Buyruqbozlik iqtisodiyotining normalar qanday unsurlarni o‘z ichiga oladi?
6. Buyruqbozlik iqtisodiyotining unsuri hisoblangan utilitarizm normasi utilitarizmning bozor normasidan qanday farq qiladi?

7. Iqtisodiyot konstitutsiyasi deganda nimani tushunasiz va unga misollar keltiring?
8. Iqtisodiyot konstitutsiyasi tushunchasining mohiyatini sharhlang.
9. “Sen – menga, men – senga” buyruqbozlik iqtisodiyotining normasini tushuntirib bering? Bunda qanday fikrlar ilgari surilgan.
10. Utilitarizm bilan empatiyani bir biridan farqini tushuntirib bering?

**V BOB. TRANSAKSIYA VA TRANSFORMASIYA
XARAJATLARI HAMDA ULARNI TAHLIL QILISHGA
NISBATAN YONDASHUVLAR**

5.1. Transaksiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Kouz-Uilyamson yondashuvi

5.2. Transformatsiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Nort yondashuvi

5.3. Transaksiya xarajatlarini optimallashtirish tajribasi va uning O‘zbekistondagi xususiyatlari

Tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi iqtisodiyot sub’yektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) faoliyati jarayonida mulkchilik huquqni almashishi (shartnomalar asosida mahsulotni sotish yoki sotib olish va shu kabi boshqa holatlarda), boshqa shaxslar tomonidan mulkga nisbatan noqonuniy xatti-harakatlar sodir etilgan sharoitlarda uni himoya qilish yoki iqtisodiy islohotlar jarayonida avval faoliyat yuritib turgan institutlarni va normalarni yangilari bilan almashtirish zaruriyati yuzaga keladi. Shunday vaziyatlarda tadbirkor yoki davlat tomonidan turli xarajatlar qilishiga zarurat paydo bo‘ladi. Bunday xarajatlar xorijiy manbalarda “transaksiya xarajatlari” tushunchasi bilan yuritiladi va u institutsional iqtisodiyot nazariyasining tarkibiy qismlaridan biri sifatida institutlar bilan bir qatorda uning kategoriyasi hisoblanadi.

Transaksiya xarajatlari tushunchasi bilan bir qatorda transformatsiya xarajatlari tushunchasi ham mavjud bo‘lib, ushbu tushunchalarni to‘g‘ri anglab etish ularni tahlil qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

**5.1. Transaksiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan
Kouz-Uilyamson yondashuvi**

Transaksiya xarajatlari tushunchasini qo‘llagan holda dastlabki tadqiqotlar R.Kouz tomonidan firmalar faoliyatini tahlil qilish uchun o‘tkazilgan¹. Bunga 1960-yillarda sanoati rivojlangan Etakchi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi sabab bo‘lgan. Yagona xo‘jalik tizimini yaratishga bo‘lgan intilish, mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, mulkning yangi turlari, masalan intellektual mulkning paydo bo‘lishi, mulk huquqlarining alohida vakolatlariga bo‘linib ketishi – bularning barchasi transaksiya xarajatlarining sezilarli darajada o‘shishiga olib keldi.

Transaksiya xarajatlari nazariyasi doirasida o‘tkaziladigan tadqiqotlarni mikro va makro darajalarga bo‘lish mumkin. Mikro darajada gap jarayonlarni korxonalar (firma), alohida iqtisodiy sub’yektlar darajasida tahlil qilish haqida, makro darajada esa umuman iqtisodiy tizimni tahlil qilish haqida boradi. Ushbu tahlil qilish belgisiga muvofiq transaksiya xarajatlari nazariyasida ikkita yondashuv mavjudligini izohlash mumkin: birinchisi, Kouz – Uilyamsonning transaksion yondashuvi (barqaror faoliyat ko‘rsatuvchi institutlarni tahlil qilish uchun) va ikkinchisi Nortning transformatsion yondashuvi (institutsional o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun).

Bunday yondashuvlar o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda transformatsion jarayonlarning institutsional jihatlarini tadqiq etish imkonini beradi. Xususan birinchi yondashuvni davlat va xususiy mulkchilik tuzilmalarining samaradorligini qiyosiy tahlil qilish, norasmiy institutlarning shakllanish jarayonlarini, jamiyat va iqtisodiyotning kriminallashtiruvini izohlash uchun, ikkinchi yondashuvni esa buyruqbozlik tizimidan bozor iqtisodiyoti tizimiga o‘tishning institutsional sabablarini, o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarda islohotlar jarayonlarining borishi va natijalarini tahlil qilish uchun qo‘llash mumkin.

Transaksiya xarajatlarini iqtisodiy tahlilga kiritish, R.Kouzning fikriga ko‘ra, bozorga qarama-qarshi bo‘lgan firma kabi o‘zini-o‘zi ongli ravishda nazorat

¹ Каранг: Коуз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело, 1993. – 143 с.

qilish imkoniga ega bo'lgan "orolchalari"ning mavjud ekanligini tushuntirish uchun zarur bo'lgan.

O'zining "Firma tabiati", deb nomlangan maqolasida (1937) R.Kouz transaksiya xarajatlarini "narxlar mexanizmidan foydalanish xarajatlari", "ochiq bozorda almashuv transaksiyalarini amalga oshirish xarajatlari" yoki "bozor xarajatlari" sifatida belgilagan. Keyinchalik "Ijtimoiy xarajatlar muammosi" maqolasida (1960) R.Kouz "bozor transaksiya xarajatlari" iborasidan foydalangan. Ularning mohiyatini u quyidagicha ifodalagan: "bozor transaksiyasini amalga oshirish uchun kim bilan bitim tuzish ma'qulligini aniqlab olish, kim bilan va qanday shartlarda bitim tuzishni istayotganligi haqida barchaga ma'lum qilish zarur, dastlabki muzokaralarni o'tkazish, shartnomani tayyorlash, shartnoma shartlarining bajarilishiga ishonch hosil qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish va hokazolar"¹.

Ammo, iqtisodiyot adabiyotida "transaksiya xarajatlari" iborasi mustahkam o'rin egallagan. Bunda transaksiya xarajatlariga berilgan quyidagi ta'rif keng tarqaldi: "transaksiya xarajatlari – axborotni yig'ish va qayta ishlash xarajatlari, muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish, shartnomaning bajarilishini nazorat qilish va yuridik himoyalash xarajatlari".

Ilmiy manbalarda berilgan ta'riflarga muvofiq transaksiya xarajatlarini quyidagi tarzda tasniflash mumkin:

- 1) axborotni izlash xarajatlari (narxlar, mavjud tovarlar, Etkazib beruvchilar va iste'molchilar to'g'risida axborotni yig'ish va qayta ishlash uchun sarflangan vaqt);
- 2) muzokaralar olib borish xarajatlari;
- 3) almashuvga kirgan tovarlar va xizmatlarning miqdori va sifatini o'lchash xarajatlari;
- 4) tafsirlash va mulkiy huquqlarni himoyalash xarajatlari;

¹ Коуз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело ЛТД, 1993. –С. 8-9.

5) opportunistik xatti-harakatdan himoyalash xarajatlari, bunda bitim shartlarini buzuvchi yoki bir tomonlama foyda olishga yo'naltirilgan noinsoflik xatti-harakat tushuniladi.

Transaksiya xarajatlarini tasniflashga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Tasniflashni bitimni tuzish bosqichlariga muvofiq amalga oshirgan ma'qul. O.Uilyamson transaktsiya xarajatlarini bitim tuzilguncha va bitim tuzilganidan so'ng yuzaga keladigan xarajatlar, deya ta'riflaydi. Agar sherikni qidirib topish, manfaatlarni muvofiqlashtirish, bitimning bajarilishini nazorat qilish bitim tuzishning bosqichlari sifatida ajratilsa, u holda transaktsiya xarajatlarini tasniflash quyidagi 5.1.1-jadval ko'rinishga ega bo'ladi.

5.1.1-jadval

Transaksiya harajatlarining tasniflanishi

Bitim tuzilguncha amalga oshirilgan xarajatlar	Bitim tuzilganidan keyingi xarajatlar
Axborotni qidirib topish xarajatlari - imkoniyatli sherik haqidagi, bozordagi vaziyat haqidagi axborotni qidirib topish xarajatlarini, shuningdek qo'lga kiritiladigan to'liqsiz va nomukammal axborot bilan bog'liq yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.	Monitoring va opportunizmni oldini olish xarajatlari - bitim shartlariga rioya etilishini nazorat qilish va ushbu shartlarning bajarilishidan bosh tortilishini oldini olish xarajatlari
Muloqot yuritish xarajatlari -almashuv shartlari, bitim shaklini tanlash haqida muloqotlar olib borish xarajatlarini o'z ichiga oladi	Tafsirlash va mulkchilik huquqlarini himoya qilish xarajatlari - sudlar, hakamlar xarajatlari; shartnomani bajarish jarayonida buzilgan huquqlarni tiklash uchun zarur bo'lgan vaqt va resurslar sarflari, shuningdek mulkchilik huquqlarining yaxshi tafsirlanmagan va ishonchsiz himoyadan ko'rilgan yo'qotishlar
O'lchash xarajatlari - bitim predmeti bo'lgan tovarlar va xizmatlar sifatini o'lchash uchun zarur bo'lgan xarajatlar	
Shartnoma tuzish xarajatlari - bitimni	Uchinchi shaxslardan himoyalash

yuridik yoki xufyona (norasmiy) rasmiylashtirish xarajatlari	xarajatlari - uchinchi shaxslar (davlat, uyushgan jinoyatchilik va h.k.)ning bitim natijasida olinadigan foydali samara qismiga e'tirozlaridan himoyalash xarajatlari
--	--

Transaksiya xarajatlarining bunday tasniflanishi ularni miqdoriy baholash masalasiga nisbatan mikro va makroiqtisodiy darajada yondashish imkonini beradi. Masalan, kvartiradan foydalanish huquqining mulkdor tomonidan ijarachiga topshirilishini nazarda tutuvchi kvartirani ijaraga olish bo'yicha bitim tuzishda ijarachining transaksiya xarajatlari quyidagi shakllarga ega bo'ladi (5.1.2.-jadval).

5.1.2.-jadval

Kvartira ijarasi bo'yicha transaksiya xarajatlari

Xarajat mazmuni	Xarajat shakli
Ijaraga topshiriladigan kvartiralar, uy-joy bozorida narxlar haqidagi axborotni qidirib topish xarajatlari: maxsus nashrlarni xarid qilish va e'lonlar bo'yicha qo'ng'iroqlar yoki rieltorlik firmasiga murojaat etish;	Pul shaklidagi xarajatlar va vaqt sarflari;
Tanlangan kvartiralar mulkdorlari bilan ijaraning alohida shartlari haqida muloqatlar olib borish xarajatlari;	Vositachi sarflari va vaqt sarflari;
Tanlangan kvartiralarni borib ko'rish jarayonida uy-joy sifatini baholash xarajatlari	Vositachi zimmasiga yuklatish mumkin bo'lgan vaqt sarflari va transport xarajatlari
Ijara shartnomasini yuridik rasmiylashtirish, uni notarial tasdiqlash xarajatlari;	Pul shaklidagi xarajatlar;
Mulkdorning ijara shartlarini o'zgartirish (ijara to'lovini oshirish) bo'yicha opportunizmni oldini olish xarajatlari;	Vaqt va asab sarflari;
Mulkdor ijarachiga kvartirani saqlab turish yuzasidan e'tiroz bildirgan va / yoki shartnomani muddatidan oldin buzishni xohlagan taqdirda shartnoma amal qilishi	Vaqt sarflari va sudga murojaat etish bilan bog'liq pul shaklidagi xarajatlar

muddatiga berilgan foydalanish huquqini himoya qilish xarajatlari	
--	--

Shunday qilib, uy-joyini ijaraga olishda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini miqdoriy baholashga yo vositachilik firmalarining daromadlarini tahlil qilish, yoki o'rtacha soatlik ish haqiga ko'paytirilgan bevosita pul xarajatlari va vaqt sarflarini qo'shish yordamida erishish mumkin.

Transaksiya xarajatlarining ko'plab turlari bevosita kuzatilmaydi va shuning uchun bunday toifa xarajatlar hajmi statistik qiyin o'lchanadi.

Insonlar hamma vaqt, hech qanday xarajatlarni qilmasdan, natijada ishlab chiqarish qiymati oshishi uchun huquqlarni qo'lga kiritish, bo'lish va o'rin almashtirish to'g'risida kelishib olishlari mumkin. Bu "nol darajali transaksiya xarajatlari" deb yuritiladi va bu huquqiy chegaralarga bog'liq hisoblanadi.

Nol darajali transaksiya xarajatlarida ishlab chiqaruvchi shartnomaga pirovard natijada ishlab chiqarish qiymatini oshirish uchun zarur bo'lgan barcha narsani kiritadi. Agar transaksiya xarajatlari mavjud bo'lmasa, firmaning faoliyat ko'rsatishi uchun hech qanday iqtisodiy asos bo'lmaydi.

Qandaydir baland transaksiya xarajatlariga ega bo'lgan aniq holatda shartnomalarning ko'pchiligi tuzilmaydi va amalga oshirilmaydi. Chunki ularni ijro etishdan keladigan foyda xarajatlarga qaraganda ancha kam bo'ladi. Shu tariqa, transaksiya xarajatlari amalga oshiriladigan transaksiyalar soniga ta'sir ko'rsatadi (transaksiya – shartnoma shaklidagi bitim). Shularni inobatga olganda korxonalar nisbiy ustunligini oshirish uchun transaksiya xarajatlarini tejash imkoniyatlarini qidirish zarurdir.

Mikrodarajada turli xususiy tashkiliy tuzilmalarda xarajatlarni tahlil etishda quyidagi tamoyillar qo'llanilishi lozim:

1. Transaksiya (bitim-shartnoma) – bu tahlilning bazaviy birligi.
2. Har qanday muammoni, bevosita yoki bilvosita shartnomaviy muammo, deb qarab, uni transaksiya xarajatlarini kamaytirish nuqtai nazaridan o'rganish foydalidir.

3. Transaksiya xarajatlarini tejashga turli transaksiyalarni ularni boshqarish tuzilmalariga tabaqalashtirilgan tarzda birlashtirish yo‘li bilan erishiladi.

4. Tashkiliy tuzilmani tanlash muqobil variantlarni qiyosiy institutsional baholash asosida kechadi.

Mikrodarajada transaksiya xarajatlari – bu korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar hisoblanadi. Bunda quyidagi xarajatlar, ya’ni shartnoma loyihasini tuzish, muzokaralar yuritish va kelishuv kafolatlarini ta’minlashda yuzaga keladigan xarajatlar, shuningdek shartnomani samarasiz moslashtirish, unga tuzatish kiritish bilan bog‘liq bo‘lgan, shartnomani amalga oshirish bo‘yicha tanlangan yo‘lda qaytish, shartnomadagi xatolar va kutilmagan tashqi nizolar natijasida yuzaga keladigan xarajatlar farqlanish lozim.

Shuni inobatga olgan holda, iqtisodiyotda institutlarni shakllantirishda, ular faoliyatini samaradorligini oshirishda transaksiya xarajatlari asosiy rol o‘ynaydi. Shu nuqtai nazardan¹ O.Uilyamsonning quyidagi xulosasi diqqatga sazovor: “moddiy va xomashyolarga kam xarajatlar bilan ko‘p mahsulotlar ishlab chiqaradigan jamiyat emas, balki mahsulotni ishlab chiqarishda transaksiya xarajatlari ulushi past bo‘lgan jamiyat yutuqqa ega bo‘ladi”.

¹ Уильямсон О.И. Экономические институты капитализма: фирмы, рынки, «отношенческая контракция». – СПб.: Лениздат, CEV Press, 1966. –С. 640-641.

5.2. Transformatsiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Nort yondashuvi

Mikrodarajada transaksiya xarajatlarini tahlil qilishga nisbatan Kouz – Uilyamson yondashuvi transaksion yondashuv, deb yuritilsa, makrodarajada Nort yondashuvi transformatsion yondashuv, deb yuritiladi [46].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, dastlab transformatsiya xarajatlarini o'rganish ishlab chiqarish nazariyasi doirasida olib borilgan va xarajatlarning ushbu turi ko'pincha ishlab chiqarish xarajatlari – materialni jismoniy o'zgartirish, buning natijasida muayyan qiymatga ega bo'lgan mahsulot olinadigan jarayonidagi xarajatlarga tenglashtirilgan. Ushbu xarajatlarga nafaqat materialga ishlov berish xarajatlari, balki ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirish va muvofiqlashtirish bilan bog'liq xarajatlar ham kiritilgan. Shunday qilib, bunday talqin etishda transformatsiya xarajatlari tushunchasi keng ma'no kasb etadi, chunki ushbu ishlab chiqarish xarajatlariga ularni faqatgina shartli ravishda ishlab chiqarish xarajatlari, deb atash mumkin bo'lgan transformatsiya xarajatlari ham kiradi.

Mazkur holatda transformatsiya xarajatlari muayyan mahsulotni ishlab chiqarish bilan emas, balki institutsional tizimni o'zgartirish bilan bog'liq. Shunday qilib, transformatsiya xarajatlariga quyidagi umumiy ta'rifni berish mumkin: transformatsiya xarajatlari – bu eski institutlarni tugatish, iqtisodiy tizimda yangi institutlarni shakllantirish (yoki import qilish) va moslashtirish bilan bog'liq xarajatlar. Bular tarkibiga nafaqat yuqorida sanab o'tilgan xarajat turlari, balki yangi institutlar, shu jumladan yangi tadbirkorlikni tashkil etish va bu faoliyatni yuritish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni ham kiritish mumkin.

Transformatsion yondashuvga muvofiq jamiyatdagi eski rasmiy va norasmiy qoidalarning tugatilishiga va yangilarining belgilanishiga olib keluvchi o'zgarishlar transformatsiya xarajatlarining oshishiga sabab bo'ladi.

Respublikamizda amalga oshirilgan mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, sud-huquq tizimini o'zgartirish, yangi qonunchilik tizimini barpo etish, bozor tizimlarini shakllantirish

va shu kabi boshqa institutlarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlar shular jumlasiga kiradi.

Transformatsiya va transaksiya xarajatlari o‘rtasida farq mavjud bo‘lishiga qaramay, ushbu xarajatlar o‘zaro uzviy bog‘langan. T.Eggertsson tomonidan ifodalangan quyidagi fikr uning mohiyatini ochib beradi: agar transaksiya xarajatlari katta bo‘lmasa, u holda iqtisodiyot undagi mavjud siyosiy va boshqa institutlar to‘plamidan qat’i nazar hamma vaqt optimal yo‘nalish bo‘yicha rivojlanadi. Ya’ni institutsional tizim faoliyat ko‘rsatishining transaksiya xarajatlari katta bo‘lmaganda har qanday o‘zgarishlarga yuqori transformatsiya xarajatlarining tahdidi to‘sqinlik qiladi, texnik taraqqiyot va (jismoniy va inson) kapitalni jamg‘arish esa avtomatik tarzda iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Ta’kidlash lozimki, institutsional tizimni o‘zgartirish nafaqat transformatsiya xarajatlarining o‘sishiga, balki ilgarigi tizimda mavjud bo‘lmagan bir qator transaksiya xarajatlarining paydo bo‘lishiga ham olib keladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi ko‘p jihatdan samarasiz institutlarning uzoq vaqt mavjud bo‘lishini va iqtisodiy tashkilot turg‘un shakllarining faoliyat ko‘rsatishini ham izohlaydi.

O‘zgarishlarga to‘sqinlik qiluvchi asosiy kuchlar D.Nort tomonidan ham ko‘rib chiqilgan. Ular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) davlat – agar bu g‘azna daromadlari bilan xarajatlari o‘rasidagi farqni kamaytirishga yordam bersa;
- 2) o‘zining shaxsiy manfaatlarini ko‘zlovchi nufuzli guruhlar;
- 3) jamiyatning uning avvalgi rivojlanish yo‘nalishiga bog‘liqligini belgilab beruvchi institutsional matritsa.

O‘z navbatida, yuqori transformatsiya xarajatlari, yuzaga kelgan institutsional tizimning samaradorligidan qat’i nazar, uning o‘ziga xos barqarorlashtiruvchisi hisoblanadi.

Yanada samarali institutsional qoidalarning joriy etilishi va institutlarning tashkil etilishi katta miqdordagi transformatsiya xarajatlari bilan bog‘liq, biroq

yangi institutlardan (transaksiya xarajatlarini tejashdan) keladigan samara ancha katta bo'lishi mumkin.

Islohotlarga sarflangan mablag'lar oddiy investitsiyalarga qaraganda katta xatarlar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay yangi institutlarning ko'proq samaradorligini kutish, shuningdek boshqa mamlakatlar tajribasi institutlarni import qiluvchi islohotchilarni harakatga keltiradi.

Bunday o'zgarishlarni transformatsiya xarajatlarining yuqori darajasiga ega bo'lgan o'tish iqtisodiyotida ham kuzatish mumkin. O'tish iqtisodiyotida transformatsiya xarajatlariga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

1. ***Resurslarni investitsiyalashning an'anaviy sohalaridan yangi institutlarni barpo etishga yo'naltirish.*** Eski xo'jalik mexanizmini tugatish, narxni shakllantirish va soliq solishning yangi usullariga o'tish, xususiylashtirish mexanizmlarini yaratish, moliya va bank tizimini tubdan o'zgartirish – bularning barchasi resurslarni investitsiyalashning an'anaviy sohalaridan chetlashtirish bilan bog'liq.

2. ***Qayta tashkil qilish xarajatlari.*** Uning ikkita jihatini farqlash lozim. Birinchidan, islohotlar jarayonida eski tizimining buzilishi yangi tizimning samaradorligi namoyon bo'lgunga qadar yuz beradi. Bozorni egallab olish bo'yicha qat'iy kurashda ishtirok etuvchi ko'p sonli iqtisodiyot sub'ektlarining faqatgina bir qismi o'z loyihalarini amalga oshiradi, natijada – jamiyat yo'qotishlarga duch keladi. Ikkinchidan, muvozanatga tomon harakatlanish jarayonida turli sub'yektlar, shu jumladan davlatning ham, harakatlarining uyg'unlashmaganligi. Ushbu jihat islohotchilar tomonidan Etarlicha baholanmagan va bu hanuzgacha Etarlicha o'rganilmagan.

3. ***O'tish rentasini qayta taqsimlash xarajatlari.*** Buyruqbozlik tizimida jamiyatdagi mavjud resurslarning qat'iy tartibga solinishi alohida guruhlar uchun imtiyozlarning paydo bo'lishiga olib keldi, bu renta daromadi bilan bir xil bo'ladi. Ulgurji va chakana narxlar, shuningdek ichki va jahon narxlari o'rtasidagi farqlar hisobidan olingan rentaning katta qismi davlatga kelib tushib, turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida qayta taqsimlandi, ularning kichik qismi esa amaldorlar va

xufyona bozor sub'yektlar tomoniga o'tdi. Iqtisodiyotning erkinlashtirilishi ushbu xildagi renta daromadlari va suiiste'mol qilish imkoniyatlarining yo'qolishiga olib kelishi lozim.

Transformatsiya xarajatlarining turlarini tahlil qilish o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlarda ularning o'sishi mexanizmini tushuntirish imkonini beradi: institutlarning dastlabki sifati qanchalik yomon bo'lsa, ularni takomillashtirish uchun shunchalik ko'p investitsiyalar yo'naltiriladi; tizim muvozanatdan qanchalik yiroq bo'lsa, o'tish jarayoni shunchalik uzoq davom etadi va tugatish yo'qotishlari shunchalik ko'p bo'ladi; muvozanatdan yiroqlik o'tish rentasini qayta taqsimlash ko'lamlarining kattaligini, demak u uchun kurashish oqibatida yo'qotishlar katta bo'lishini anglatadi. Ta'kidlash lozimki, islohotlar xarajatlari va foydasi aholining turli guruhlari o'rtasida noteng taqsimlanadi, bu ko'p jihatdan turli ijtimoiy guruhlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq bo'lgan transformatsiyalar dinamikasida o'z aksini topadi.

Hozirgi vaqtda o'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar, shu jumladan O'zbekistonda hamda rivojlanayotgan mamlakatlarda yuz berayotgan keng ko'lamli institutsional o'zgarishlar munosabati bilan katta hajmdagi transformatsiya xarajatlari muammosi g'oyat keskin turibdi. Bu o'rinda transformatsiya xarajatlarini qanday qilib qisqartirish mumkin va ularni qisqartirib bo'ladimi degan savol tug'iladi.

Institutsional muhitni sun'iy ravishda o'zgartirishda (mavjud institutlarni o'zgartirishda yoki mutlaqo yangi institutlarni import qilishda) ko'p jihatdan ularda bunday institutlar jamiyat evolyutsiyasi jarayonida shakllangan va muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib turgan mamlakatlar tajribasini puxta o'rganish transformatsiya xarajatlarining qisqarishiga ko'maklashishi mumkin.

Afsuski, transformatsiya xarajatlari muammosiga olimlar va iqtisodchilar faqat so'nggi yillarga kelib e'tibor qarata boshladi va, transformatsiya xarajatlari o'tish iqtisodiyoti va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining iqtisodiyot fanida eng zarur va muhim unsur hisoblanishiga qaramay, ular kam o'rganilgan omil bo'lib qolmoqda.

Shu bilan bir qatorda yangi institutlarini tashkil etishning u yoki bu usullari foydasiga hal etish nafaqat ularning faoliyat ko'rsatish samaradorligi turlicha ekanligi tufayli, balki insonlar o'rtacha chamalangan bahoni chiqarishda ko'rsatkichlarni o'lchashning turli usullaridan foydalanishi sababli ham farq qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan transaksiya hamda transformatsiya xarajatlarini o'lchash muammosi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki transaksiya xarajatlari ko'pincha ushbu tarkibiy qismning o'lchab bo'linmasligi bilan tavsiflanadi. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan mutaxassislar fikriga ko'ra, iqtisodiy tahlilga transaksiya xarajatlarining kiritilishi deyarli barcha hodisalarni transaksiya xarajatlarini kamaytirish yo'li bilan erishilgan samaradorlik nuqtai nazaridan izohlash imkonini bergan bo'lar edi. Transaksiya xarajatlarini o'lchash imkonini beruvchi usullarning ishlab chiqilishi ushbu sohada erishilgan samarali qadam bo'ldi.

Tahlillarga ko'ra, o'lchash muammosini shartnomalar tuzishning turli usullaridagi transaksiya xarajatlarini taqqoslash yo'li bilan hal etish mumkin. Boshqaruvning muqobil aniq (mavjud) tuzilmalarini taqqoslashni ko'pincha murakkab matematik apparatni qo'llamasdan yoki chegara qiymatlarni hisoblab chiqmasdan turib amalga oshirish mumkin. Ikkita qiymatning bir biriga mos kelmaganligini ko'rsatib berish uchun ushbu qiymatlarning chegara qiymatlari tengligiga erishiladigan sharoitlarni aniqlashdagi kabi nozik va murakkab usullar talab etilmaydi.

Ayrim iqtisodchilar har bir muayyan holatda xarajatlarni aniq tafsirlashni taklif etadi, masalan, bir holatda – bu xususiy tadbirkorlikni tashkil etish xarajatlari (tadbirkorlik shaklini ro'yxatdan o'tkazish, litsenziya olish va h.k.), ikkinchi holatda mulkiy huquqlarning harakatini ta'minlovchi xarajatlar, uchinchi holatda shartnomalarni tuzish va himoyalash bilan bog'liq xarajatlar, to'rtinchi holatda korxonada qarorlar qabul qilish bilan bog'liq xarajatlar bo'lishi mumkin va h.k.

Transaksion yondashuvni qo‘llashdagi o‘ziga xos murakkabliklar shundan iboratki, ayrim transaksiya xarajatlari ushbu turdagi xarajatlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan transaksiyalarning mavjud emasligi tufayli tafsirlanishi va hisoblab chiqilishi mumkin emas. Bunday xarajatlarning ushbu turlari “virtual xarajatlar”, deb ataladi.

5.3. Transaksiya xarajatlarini optimallashtirish tajribasi va uning O'zbekistondagi xususiyatlari

Ma'lumki, iqtisodiyot sub'yektlari sarf-xarajatlarining ma'lum qismini transaksiya xarajatlari tashkil etadi. Ushbu toifaga kiruvchi xarajatlarni kamaytirish iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy ekspertlarining fikriga ko'ra, firmaning umumiy chiqimlaridan transaksiya xarajatlarining ulushi ular an'anaviy bozorda faoliyat ko'rsatganda 1,5 foizdan 5 foizgacha, yangi sotish bozorlariga chiqishda esa 10-15 foizni tashkil qiladi. Rivojlangan mamlakatlarda transaksiya xarajatlarining eng katta ulushi xo'jalik aloqalari sub'yektlari sonining o'sishi, demak, ular tomonidan amalga oshiriladigan transaksionalar sonining oshishi bilan bog'liq. O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda esa, transaksiya xarajatlarining yuqori darajada bo'lishiga yana bir sabab – ularda hanuzgacha davlat organlari bilan tadbirkorlik sub'yektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmi puxta ishlab chiqilmagan. Rivojlanayotgan mamlakatlarda muammo shundan iboratki, davlatning sud va huquqni muhofaza qilish xarajatlarining asosiy qismi iqtisodiy sub'ektning zimmasiga tushadi. Bundan tashqari, transaksiya xarajatlarining tarkibiga muayyan mahsulotni sotish bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Xorijiy manbalar ma'lumotlariga ko'ra, AQSh YaMMda xususiy sektor tomonidan ko'rsatiladigan transaksiya xizmatlarining ulushi 1870 yilgi 23 foizdan 1970 yilda 41 foizgacha, davlat tomonidan ko'rsatiladigan transaksiya xizmatlarining ulushi 1870 yilgi 3,6 foizdan 1970 yilda 13,9 foizgacha oshgan, bu umumiy ko'rinishda 26,1 foizdan 54,7 foizgacha o'sishni tashkil qiladi. Yuz yil mobaynida ushbu o'sish qismi transaksiya xarajatlarining nobozor sohadan bozor sohasiga tomon siljishini aks ettirdi, lekin uning boshqa qismi esa resurslarning real investitsiya qilinishini namoyon etdi.

Jahon amaliyotida transaksiya xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan maqsadida kichik va o'rta biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini tartibga

solish va qo‘llab-quvvatlash ko‘plab mamlakatlarda davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Ayrim olimlarning fikricha, jahon amaliyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash uch turdagi modellar orqali amalga oshiriladi¹.

Birinchi model proteksionistik g‘oyaga asoslanib, unda rivojlangan davlatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning maqsadli dasturlarini amalga oshirishda o‘z ifodasini topadi. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlarida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash “Kichik biznesda innovatsion tadqiqotlar dasturi”(SBIR) va “Kichik biznes texnologiyalari transferti dasturi” (STTR) kabi dasturlar orqali amalga oshiriladi. Ikkinchi model aksincha, erkin tadbirkorlikka asoslangan modeldir. Bunga misol tariqasida Fransiyada kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan yirik ko‘lamli dasturlar qabul qilinmasligini ko‘rsatish mumkin. Uchinchi kombinatsiyalashgan modelda yuqorida ko‘rsatilgan ikkala model birlashgan holda amal qiladi. Jumladan, Buyuk Britaniyada shunday yondashuvni kuzatish mumkin. Ushbu yondashuvda davlat darajasida e‘lon qilingan kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari erkin tadbirkorlik asosida amalga oshiriladi².

Ko‘pgina mamlakatlarda kichik korxonalar faoliyatini tartibga solishga umumiy yondashishlar va asosiy yo‘nalishlar xosdir. Ularga quyidagilar kiradi:

- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan maxsus qonunlarni qabul qilish;

- korxonalar faoliyatining umumiy va xususiy tomonlarini (masalan, kichik firmalarda boshqaruv usullarini) takomillash-tirishni, biznes bilan shug‘ullanishni istayotganlarga moliyaviy yordam ko‘rsatishni, kichik biznesni rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi ma‘lum maqsadga qaratilgan davlat rejalarini ishlab chiqish;

¹ Колесникова Л. Порядок для хаоса: государство и предпринимательство в переходной экономике.-М., 2001.-С.77; Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Докторлик дисс. Автореферати.-Т., 2016.-С.15.

² Қаранг: Муродова Н.К. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан қўллаб-қувватлашнинг назарий асосларини такомиллаштириш. Докторлик дисс. Автореферати.-Т., 2016.-С.15.

- kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning tarkibiy-tashkiliy xizmatlarini tashkil qilish;

- kichik bizneslarga davlatning moliyaviy yordam ko‘rsatishi (Italiyada kichik firmalar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruk-torlik ishlarini moliyalashtirishga katta mablag‘lar ajratiladi);

- kichik biznesni kafolatlash va imtiyozli kreditlashtirish firmalarini tashkil qilish (Angliyada kichik korxonalarni moliyalashtirishni ta‘minlovchi maxsus firmalar bor, buning ustiga davlat qarzlarning 70% ni kafolatlaydi);

- kichik korxonalar faoliyatini imtiyozli soliqqa tortishni keng tarqatish (masalan, Fransiyada har yili 10000 ga yaqin korxonalar to‘liq yoki qisman soliq to‘lashdan ozod qilinadilar)¹.

AQShda 1953 yildayoq butun mamlakat bo‘yicha vakillarning keng tarmog‘iga ega kichik biznes ishlari bo‘yicha ma‘muriyat tashkil qilingan edi, unda 4 ming xodimlar xizmat qiladi. Bu tashkilot faoliyatining asosiy yo‘nalishi shaxsiy ishni ochish va olib borishda yordam berish, kichik biznesga kreditlar va kafolatlangan qarzlarni berishdan iborat. Kichik korxonalariga ko‘pchilik yarim hukumat tashkilotlari yordam ko‘rsatadilar: xizmatlar savdosi sohasidagi siyosat bo‘yicha qo‘mita, Prezident xuzuridagi xususiy tadbirkorlik muammolari bo‘yicha maxsus komissiya, sanoat raqobatbardoshligi masalalari bo‘yicha komissiya va boshqalar. Ko‘p sonli jamoatchilik tashkilotlari – savdo palatasi, sanoatchilarning milliy assotsiatsiyasi, savdo, qishloq xo‘jaligidagi har xil assotsiatsiyalar, klublar, guruhlar va hokazolar kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashga yordam ko‘rsatadilar. AQShda kichik korxonalar soliq imtiyozlaridan foydalanmaydi, ammo subsidiyalar, dotatsiyalar, moliyaviy kafolatlar bilan qo‘llab-quvvatlanadilar.

Yaponiyada kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlashda kichik biznes bo‘yicha boshqarma, Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha davlat korporatsiyasi, moliyalashtirish bo‘yicha milliy korporatsiya, Kichik va o‘rta tadbirkorlik assotsiatsiyalarining butun yapon federatsiyasi, Kichik va o‘rta

¹Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2018.-

tadbirkorlikni butun yapon markazi va boshqalar faoliyat yuritadilar. Bulardan tashqari unga yaqin maxsus banklar Kichik va oʻrta tadbirkorlikni kreditlashga xizmat qiladi. Davlat qoʻllab-quvvatlashi oʻz ichiga quyidagilarni oladi: imtiyozli soliqqa tortish, jadallashtirilgan amortizatsiya, imtiyozli kredit-lashtirish, xodimlarni oʻqitishda yordam, bankrotlik hoida yordam koʻrsatish, KOʻKning texnik darajasi oʻsishini ragʻbatlantirish. Prefekturalarda harakat qiluvchi 500dan ortiq savdo-sanoat palatalari va ularning filiallari kichik korxonalariga maslahat, moliya, taʼlim yordamini koʻrsatadilar. Kichik biznesni qoʻllab-quvvatlashning maxsus fondi, xalq fondi hamda moliyaviy korporatsiya davlatning kichik va oʻrta tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlashning moliyaviy bazasini tashkil qiladilar¹.

Oʻzbekistonda transaksiya xizmatlari davlat va nodavlat sektorlari takshilotlari tomonidan olib boriladi. Oʻzbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishini davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash va tartibga solish jahon amaliyotidan kelib chiqib va respublikamizga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi davlat tomonidan bevosita, bilvosita va tashqi iqtisodiy dastaklar asosida tartibga solinadi. Bunda bevosita taʼsir qilish usullariga qonun va boshqa huquqiy-meʼyoriy hujjatlar qabul qilish asosida ularning faoliyat yuritishi qoidalarini yaratish kiradi.

Davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bilvosita taʼsir qilish usullariga iqtisodiy dastaklar hamda davlat imtiyozlari orqali taʼsir koʻrsatish kiradi. Iqtisodiy vosita, dastaklar orqali tartibga solish oʻz ichiga soliq tizimi , davlat budjeti, pul-kredit tizimlari hamda narx orqali tartibga solishni oladi. Davlat imtiyozlariga qisman yoki toʻliq soliqdan ozod qilish, subsidiyalar berish, kredit va bojxona imtiyozlari va boshqa imtiyozlar kiradi. Tashqi iqtisodiy usullarga tadbirkorlarga qoʻshma korxonalar tuzish, oʻz mahsulotlarini eksport qilishga koʻmaklashish va boshqalar kiradi².

¹ Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2018.-

² Қаранг: Арипов О. Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikни давлат томонидан тартибга солиш. –Т.:”Фан”, 2012.-29-30-бетлар

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tadbirkorga turli transaksiya xizmatlarini ko'rsatish, ayniqsa ularning o'z ishlarini ochish bilan bog'liq xarajatlar ushbu sohada xizmat ko'rsatuvchi davlat sektori tuzilmalari zimmasiga to'g'ri keladi. Shularni inobatga olib, mamlakatimizda Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi chora-tadbirlar dasturi doirasida tadbirkorlarga ruxsat berish bilan bog'liq amalda bo'lgan transaksiya xarajatlari (to'lov miqdori) qisqartirildi va ular optimallashtirildi.

O'zbekistonda davlat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash tizimi yaratilgan bo'lib, u o'z ichiga quidagilarni oladi:

- KBXT sub'yektlarini ro'yxatga olish va tugatish tizimi;
- Soliq imtiyozlari tizimi;
- Imtiyozli kreditlash tizimi;
- Bojxona imtiyozlari;
- Davlat xarid tizimi;
- Kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi;
- KBXT faoliyati zrkinliklari va kafolatlarini xuquqiy himoyalash tizimi;
- Sug'urtalash tizim;
- Xorijiy investitsiya jalb etish tizimi;
- Axborot bilan ta'minlash, konsultativ- huquqiy ko'mak berish tizimi;
- Moddiy - texnika, xom ashyo va xizmatlar ta'minoti tizimi;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish tizimi¹.

Davlat boshqaruvi organlarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasidagi vakolatlari qonunchilikda belgilangan. Davlat boshqaruvi organlari tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'z vakolatlari doirasida: a) tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi; b) tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi va tadbirkorlik faoliyatining rivojlantirilishi ustidan monitoringni amalga oshiradi, mavjud muammolarni o'rganadi hamda tadbirkorlikning huquqiy

¹Абулқосимов Х.П. Иқтисодиётни давлат томонидан тартибга солиш. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2018.-

kafolatlarini mustahkamlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi; v) tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlaydi; g) tadbirkorlik faoliyati sub'yektlariga moliyaviy, moddiy-texnik va axborot resurslaridan foydalanishda ko'maklashadi; d) tadbirkorlik faoliyati sub'yektlariga o'z tovarlarini (ishlarini, xizmatlarini) tashqi va ichki bozorlarda realizatsiya qilishda, shu jumladan tadbirkorlik faoliyati sub'yektlarini davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoniga faol jalb etish hamda ularning mahsulotini o'tkazish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilotlar tashkil etish yo'li bilan ko'maklashadi; E) tadbirkorlik faoliyati sub'yektlari o'rtasida axborot va tushuntirish ishlarini, konsalting, lizing, sug'urta va boshqa xizmatlar tizimi rivojlantirilishini tashkil etadi; yo) kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishda tadbirkorlik faoliyati sub'yektlariga ko'maklashadi. Davlat boshqaruvi organlari qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash sohasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

Biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2018 yilga Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili, deb nom berilishi munosabati bilan barcha tadbirkorlik sub'yektlarining **moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tekshirishni 2 yilga to'xtatish**, Tadbirkorlar huquqlarini ishonchli himoya qilishda Savdo-sanoat palatasining rolini oshirish, nopok tadbirkorlarga nisbatan murosasiz bo'lish, Internet tarmog'ida elektron savdolar va auksionlar orqali **Er uchastkalarini, jumladan, tadbirkorlar uchun ajratishning yagona tartibini** o'rnatish vazifalari belgilandi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatida "Tadbirkorlikni keng rivojlantirish va bu soha uchun yangi sharoitlar yaratishga barcha imkoniyatlarimizni safarbar etyapmiz. "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida o'z biznesini boshlayotgan oilalarga 5,9 trillion so'm kreditlar

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2017 йил 22 декабрь. //Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

ajratildi. Yangi soliq siyosati doirasida ish haqiga soliq yuki 1,5 barobar kamaytirildi. Natijada rasmiy sektorda ishlayotganlar soni yil davomida 500 mingtaga ko'paydi. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizdan 15 foizga tushirildi. Buning hisobidan o'tgan yili soliq to'lovchilar ixtiyorida 2 trillion so'm qoldi. Joriy yilda bu raqam 11 trillion so'mni tashkil etishi kutilmoqda. Bir yilda tadbirkorlar ixtiyorida shuncha mablag' qolishi, albatta, ularga o'z bizneslarini rivojlantirish uchun juda katta qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi. Islohotlarimiz natijasida o'tgan yili 93 mingta yoki 2018 yilga nisbatan qariyb 2 barobar ko'p yangi tadbirkorlik sub'yektlari tashkil etildi. Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida 7 pog'ona ko'tarilib, biznesni ro'yxatga olish ko'rsatkichi bo'yicha dunyoning 190 ta davlati orasida 8-o'rinni egalladik va eng yaxshi islohotchi davlatlar qatoridan joy oldik"¹, -deb ta'kidlagan.

Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan biznes muhitini yanada yaxshilash vazifasi belgilanda. Buning uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

-Jahon bankining "Biznes yuritish" reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish bo'yicha qabul qilingan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- yangi Soliq kodeksiga muvofiq, 2020 yildan boshlab soliq turlari 13 tadan 9 taga kamaytirildi. Soliqlarni to'lash muddatini uzaytirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashga ruxsat berish bo'yicha Engillashtirilgan mexanizmlar kiritildi;

-birinchi marta tadbirkorlarga ichki bozorda sotgan mahsuloti bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ining bir qismini qaytarish tartibi joriy etildi. Hozirgacha bu tartib faqat mahsulot eksport qilinganda qo'llanar edi. Buning hisobidan tadbirkorlar ixtiyorida 3,4 trillion so'm yoki o'tgan yilga nisbatan 2,5 barobar ko'p mablag' qoladi;

-endi tadbirkor tomonidan to'langan ortiqcha soliq o'z muddatida qaytarilmasa, unga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha budjetdan foiz to'lanadi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020йил 25 январь.

-solliq xizmati xodimlari dunyoqarashini tubdan o'zgartirish va malakali kadrlarni tayyorlash maqsadida Davlat soliq qo'mitasi qoshida Fiskal institutini tashkil etish taklif qilindi;

-mavjud 280 ga yaqin litsenziya va ruxsatnomalar orasida faoliyat turlari hisobini yuritish, mablag' undirish yoki shunchaki nazorat qilish uchun joriy qilinganlari ham bor. Shu sababli Adliya vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Biznes-ombudsman 2020 yil 1 martga qadar litsenziya va ruxsatnomalar berish asoslarini tubdan qayta ko'rib chiqib, ularning sonini kamida 2 barobar qisqartirish bo'yicha aniq taklif kiritish belgilandi;

-“Kichik va o'rta biznes to'g'risida”gi qonun loyihasini ishlab chiqish zarur. Unda kichik va o'rta biznes mezonlari hamda bu soha vakillarini rag'batlantirish mexanizmlari nazarda tutish;

-har bir hududda tadbirkorlarga Er uchastkalariga oid ma'lumotlarni ochiq va haqqoniy Etkazish bo'yicha yangi tizim joriy etish. Unga ko'ra, tadbirkorning faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bo'sh Er maydonlari, bino va inshootlar, ularning qiymati va shartlari haqidagi to'liq xaritani istalgan vaqt va hududda onlayn tartibida olish imkoniyati yaratiladi.

-2020 yilning birinchi choragida, ilg'or tajribalar asosida, barcha darajadagi nazorat qiluvchi idoralarda yangi zamonaviy tizim joriy etish. Ana shu tizim orqali har bir korxonalar va tadbirkor bo'yicha alohida-alohida ish olib borib, ularning qonuniy faoliyat yuritishini ta'minlash, tekshirishni esa eng so'nggi favqulodda chora sifatida adolatli o'tkazish belgilandi.

- to'lovga qobiliyatsiz korxonalarini eng ilg'or xorijiy tajriba asosida sog'lomlashtirish bo'yicha yangi tizim joriy etish belgilandi;

- tadbirkorlarning huquqlarini ta'minlashda Oliy Majlisning ikkala palatasi ham ta'sirchan parlament nazoratini yo'lga qo'yish;

-tadbirkorlik sohasida ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayrim jinoyat turlarini jinoyat toifasidan chiqarish siyosatini izchil davom ettirish. Jumladan, soxta tadbirkorlik, raqobatchining obro'sini tushirish kabi qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik bekor qilinadi. Shuningdek, bojxona qonun hujjatlarini buzish bilan

bogʻliq jinoyatni birinchi marta sodir etgan, lekin toʻlovlarni toʻlagan shaxslarni jinoiy javobgarlikdan ozod qilinadi¹.

Jahonning deyarli barcha mamlakatlarini qamrab olgan koronavirus pandemiyasi davrida koʻplab tadbirkorlik sub'yektlarining iqtisodiy holati ogʻirlashishining oldini olish maqsadida krizisga qarshi chora-tadbirlar qabul qilindi. Mamlakatimizda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy taʼsirini yumshatish boʻyicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi farmoni qabul qilinib, unga asosan 10 trln soʻm miqdoridagi Inqirozga qarshi kurashish jamgʻarmasi tashkil etildi. Mazkur farmonga muvofiq tadbirkorlik sub'yektlarini qoʻllab-quvvatlash maqsadida a) 2020 yil 1 apreldan 1 oktyabrgacha boʻlgan davrda:

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliqning oylik eng kam summasi bazaviy hisoblash miqdorining 50 foiziga qadar kamaytiriladi;

alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shugʻullanuvchi korxonalarining ajratmalari miqdori 5 foizdan 3 foizga pasaytiriladi;

umumiy ovqatlanish korxonalari uchun alkogol mahsulotlarini chakana sotish huquqi uchun yigʻimlar miqdori belgilangan miqdorlardan 25 foizga kamaytiriladi;

b) 2020 yil 1 apreldan 1 iyulgacha boʻlgan davrda turistik (mehmonxona) yigʻimini hisoblash va toʻlash toʻxtatiladi;

v) qishloq xoʻjaligidagi Erlarni sugʻorish uchun foydalaniladigan hajmlar boʻyicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 2020 yilda oʻrnatilgan stavkalardan 50 foizga pasaytiriladi;

g) 2019 yil uchun jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari toʻgʻrisidagi deklaratsiyani taqdim etish muddati 2020 yil 1 avgustga qadar uzaytiriladi;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020йил 25 январь.

d) jismoniy shaxslarning mol-mulk solig‘i va Er solig‘ini to‘lash muddati 2020 yil 15 oktyabrga qadar uzaytiriladi¹.

Shuningdek, Xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga faoliyati turizm sohasiga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining qat‘iy belgilangan summalarini 30 foizga kamaytirish tavsiya qilingan hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlarga mol-mulk solig‘i, Er solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to‘lash bo‘yicha foizlarni undirmasdan 6 oyga kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) belgilangan va yuridik shaxslarning kreditlari bo‘yicha 7,9 trln so‘m hajmdagi qarzdorligi kechiktirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sonli “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub‘yektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq Karantin tadbirlari davrida o‘z faoliyatini to‘xtatishga majbur bo‘lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i qat‘iy belgilangan summasini va ijtimoiy soliqni hisoblash to‘xtatilsin, bunda faoliyatni to‘xtatganlik to‘g‘risida soliq to‘lovchining shaxsiy kabineti orqali davlat soliq xizmati organlari xabardor qilinadi va davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganlik to‘g‘risida guvohnomani topshirish talab etilmaydi. Endilikda turistik va mehmonxona faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar shu yil yakuniga qadar Er va mol-mulk soliqlarini to‘lashdan ozod etiladi. Ularga ijtimoiy soliq stavkasi hozirgi 12 foizdan 1 foizga tushiriladi. O‘z faoliyatini to‘xtatgan va (yoki) tovarlar (xizmatlar) realizatsiyasidan tushumi joriy yilning birinchi choragidagi o‘rtacha oylik miqdoriga nisbatan 50 foizdan ko‘proqqa kamaygan mikrofirma, kichik korxonalar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga soliq organlarini xabardor qilgan holda 2020 yil 1 oktyabrga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlariga ariza bermasdan turib aylanmadan olinadigan soliq, mol-mulk solig‘i, Er solig‘i, suv resurslaridan

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 19 мартдаги “Коронавирус пандемияси ва глобал инқироз ҳолатларининг иқтисодиёт тармоқларига салбий таъсирини юмшатиш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони// Халқ сўзи, 2020 йил 20 март.

foydalanganlik uchun soliq bo'yicha - ularni keyinchalik 12 oy davomida teng ulushlarda to'lash sharti bilan; ijtimoiy soliq bo'yicha - uni keyinchalik 6 oy davomida teng ulushlarda to'lash sharti bilan soliqlarni foizsiz kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) huquqi taqdim etildi¹.

Ushbu farmon bilan tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan yordam berish ko'lami yanada kengaytirilmoqda. Hozirgi kunda tadbirkor olgan kredit stavkasi 24 foizgacha bo'lganda uning 8 foizini jamg'arma qoplab berar edi. Endi kredit stavkasi 28 foizgacha bo'lganda ham uning 12 foizini davlat qoplaydi. Buning uchun tadbirkorlarning 3 trillion so'mlik kreditlari foizini qoplashga jamg'armadan qo'shimcha 400 milliard so'm yo'naltiriladi. Asosiysi, endi jamg'arma bir tadbirkorning faqatgina bitta loyahasiga kafillik berishi bo'yicha cheklov ham bekor qilinadi. Ta'kidlash joizki, mazkur hujjatga ko'ra, qiyin ahvoldagi korxonalar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va aholining 12 trillion so'mlik kredit majburiyati muddati uzaytirilmoqda. Shu bilan birga moliyaviy qiyinchiliklarga yuz tutgan korxonalarga nisbatan bankrotlik tartib-taomillari tashabbusi bilan chiqish va ularni bankrot deb e'lon qilishga moratoriy joriy qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-son Farmonining 6-bandida nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibda soliqlarni

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 3 апрелдаги ПФ-5978-сонли "Коронавирус пандемияси даврида аҳоли, иқтисодиёт тармоқлари ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги фармони// Халқ сўзи, 2020 йил 4 апрель.

to‘lash bo‘yicha foizsiz kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) berish muddati 2020 yil 31 dekabrgacha uzaytirish belgilandi¹.

AOKAda o‘tkazilgan brifingda Davlat soliq qo‘mitasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari Muzaffaryusuf Nazarov bergan ma‘lumotlarga ko‘ra O‘zbekistonda karantin davrida 142,5 mingta kichik biznes sub’ekti jami 332,8 mlrd so‘m miqdoridagi soliqlardan ozod etilgan. Bu summa ikki turdagi – mol-mulk va Er solig‘i hissasiga to‘g‘ri keladi. Kichik tadbirkorlik sub’yektlariga foizsiz kechiktirish imkoniyati (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) taqdim etilgan, aprel-may oylari uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan mol-mulk va Er solig‘i summalaridan voz kechilgan. Bugungi kunda bu huquqdan foydalanishni istagan 4259ta sub’ekt soliq organlariga murojaat qilgan. Natijada 2422ta soliq to‘lovchining 123 milliard so‘m miqdoridagi kechiktirilgan soliqlaridan voz kechilgan².

Yuqoridagi lardan kelib chiqib, aytish lozimki, transaksiya xarajatlarini pasaytirish va ular tarkibini optimallashtirish tadbirkorlarni moliyaviy-iqtisodiy salohiyatini ko‘tarishning ta’sirchan yo‘li bo‘lib, u tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga ko‘proq ichki investitsiyalarni ajratishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони// <https://uza.uz/oz/documents/koronavirus-pandemiyasi-davrida-a-oli-va-tadbirkorlik-subekt-27-04-2020>

² Карантин даврида кичик бизнес вакиллари 332,8 млрд сўм солиқдан озод этилган // <https://kun.uz/news/2020/06/23/karantin-davrida-kichik-biznes-vakillari-3328-mlrd-som-soliqdan-ozod-etilgan>

Xulosa

Transaksiya xarajatlari iqtisodiy nazariyasi unda transaksiyani tahlil qilishning bazaviy birligi sifatida ishtirok etadigan iqtisodiy tashkilotni o'rganishga nisbatan qiyosiy institutsional yondashuvni o'zida namoyon etadi.

Transaksiya xarajatlari nazariyasi institutsionalizmning tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Transaksiya xarajatlari esa institutlar bilan bir qatorda uning asosiy kategoriyasidir.

Asosiy vosita sifatida "transaksiya xarajatlari" kategoriyasini qo'llagan holda dastlabki tadqiqotlar firma faoliyatini tahlil qilish uchun amalga oshirildi va bu R.Kouz nomi bilan bog'liq.

Transaksiya xarajatlari nazariyasi qaysidir ma'noda neoklassik iqtisodiy nazariya bosib o'tgan, firmani tadqiq etishdan to iqtisodiy tizimni tahlil qilishgacha bo'lgan yo'lni takrorladi.

Transaksiya xarajatlari – bu mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash bilan bog'liq barcha xarajatlardir. Transaksiya xarajatlari paydo bo'lishini izohlashning kamida uchta varianti mavjud: transaksiya xarajatlari nazariyasining yondashuvi, ijtimoiy tanlov nazariyasining yondashuvi va kelishuvlar nazariyasining yondashuvi. Transaksiya xarajatlarini tavsiflashga nisbatan O.Uilyamson yondashuvi, ya'ni transaksiya xarajatlarining bitim tuzilguncha va bitim tuzilganidan so'ng yuzaga keladigan xarajatlarga ajratilishi ularni tahlil qilishning asosiy usuli sifatida qabul qilinishi mumkin.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Transaksiya – shartnoma shakliga ega bo'lgan bitim.

Transaksiya xarajatlari – bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bag'liq bo'lmagan xarajatlar, xususan axborotni yig'ish va qayta ishlash xarajatlari, munozaralarni o'tkazish va qarorlar qabul qilish xarajatlari, shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish va huquqiy himoyalash xarajatlari.

Transaksiya xarajatlari – bu mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash bilan bog‘liq barcha xarajatlar.

Transformatsion xarajatlar – iqtisodiy tizimdagi eski institutlarni tugatish, yangi institutlarni shakllantirish (yoki import qilish) va moslashtirish bilan bog‘liq xarajatlar.

Transaksiya xarajatlari – axborotni yig‘ish va qayta ishlash xarajatlari, muzokaralar olib borish va qarorlar qabul qilish, shartnomaning bajarilishini nazorat qilish va yuridik himoyalash xarajatlari.

Mikrodarajada transaksiya xarajatlari – bu korxonada ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lmagan xarajatlar hisoblanadi.

Transformatsiya xarajatlari – bu eski institutlarni tugatish, iqtisodiy tizimda yangi institutlarni shakllantirish (yoki import qilish) va moslashtirish bilan bog‘liq xarajatlar.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Odatda o‘qituvchi talabalarga nisbatan qo‘yadigan talablar empatiya (birga qayg‘urish) normalariga misol bo‘ladimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: b), chunki o‘qituvchi uning o‘zi ham qachonlardir talaba bo‘lganligi, unga ham bir yo‘la barcha fanlar bo‘yicha tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘ri zarur bo‘lganligi, uning qiziqishlari X fan, xususan, umuman o‘quv dasturi bilan cheklanmaganligi haqida unutib qo‘yadi.

2–misol. Qanaqa transaksiya xarajatlari iqtisodiyotda kelishuvlar nazariyasi nuqtai nazaridan o‘ta katta?

- a) axborotni qidirish;
- b) monitoring va opportunizmning oldini olish;
- v) o‘lchash;
- g) muzokaralar olib borish;
- d) shartnoma tuzish.

Javob: a) va b), kelishuvlar nazariyasi transaksiya xarajatlari o‘shining asosiy omili sifatida iqtisodiy muhitning bir xil emasligiga e‘tiborni qaratadi. Iqtisodiyotda kelishuvlarnisbati o‘ta beqaror, bu iqtisodiy agentlarga umumiy qabul qilingan “o‘yinlar qoidalari” asosida harakat qilishga halaqit beradi. Bunday sharoitda axborotni qidirish xarajatlari (axborotning yakuniy manbai mavjud emas) va monitoring xarajatlari o‘ta yuqori, chunki axborotning asimmetrikligi va umumiy qabul qilingan “o‘yinlar qoidalari”ning mavjud emasligi opportunistik xatti-harakat uchun zamin hozirlaydi.

3–misol. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda transaksiya sektorining jadal o‘shishi omili, taqiqlanadigan darajada yuqori bo‘lgan transaksiya xarajatlari iqtisodiy rivojlanishning chegaralaridan biri ekanligini anglatadimi?

a) ha;

b) yo‘q.

Javob: b), transaksiya sektori dinamikasining o‘zi emas, balki bir transaksiyaga hisoblaganda transaksiya xarajatlarning dinamikasi muhim. Agar a) transaksiya sektori YaMMga qaraganda past sur‘atlar bilan o‘ssa, b) davlat transaksiya sektorining o‘shish sur‘atlari umuman transaksiya sektorining o‘shish sur‘atlaridan yuqori bo‘lsa, transaksiya sektorining o‘shishi holatidabir transaksiyaga hisoblaganda transaksiya xarajatlari kamayishi mumkin.

KEYSLAR

1. Kvtirani qanday qilib ijaraga olish to‘g‘ri bo‘ladi – ijarachiga maslahatlar

Kvtirani ijaraga olish – hozirgi vaqtda tavaalchilikka qo‘l urishga to‘g‘ri keladigan masalalar jumlasiga kiradi. Ijaraga beruvchi tusatdan ijara haqini oshirishi, sizni muddatidan oldin chiqarib yuborishi, ijaraga olingan uy-joyini ta‘mirlash munosabati bilan siz qilgan xarajatlarning o‘rnini qoplash to‘g‘risida “unutib qo‘yishi” mumkin. Misol uchun, siz kvtirani ijaraga olib, ko‘chib

o‘tdingiz (buyumlarni tashish uchun mashina yolladingiz, – ko‘chish uchun sarf-xarajat qildingiz, barcha Etishmaydigan narsalar (kastyullar, choynaklar, unitaz uchun qopqoq va x.k.)ni xarid qilish maqsadida do‘konlarga borish uchun dam olish kuni oldingiz. Kvartiraga alohida ajratilgan internet liniyasini o‘tkazdingiz, internet xizmati haqini 2 oy oldinga to‘lab qo‘ydingiz, bolani yangi yashash joyidagi bog‘chaga joylashtirdingiz va h.k.). Lekin ikki hafta o‘tgach kvartira egasi kelib sizga kechagina qo‘shnisi Erkin tog‘adan bilib olgan yangilikni, ya’ni sizni kvartiraga shuncha arzon qo‘yib hato qilganligini, aslida uning kvartirasi ikki marta qimmat turishini aytadi. Bu siz kvartirani ijaraga olganda yuz berishi mumkin bo‘lgan vaziyatlardan biri, xolos. Lekin vaziyatning bunday yakun topishi holatlarini keskin kamaytirish mumkin. Buning uchun bir necha qoidalarga amal qilish kerak. Quyida biz Sizga kvartirani qanday qilib ijaraga olish kerakligi, kvartira egasida qanaqa hujjatlar bo‘lishi lozimligi va uy-joyni ijaraga olish shartnomasining shartlariga ko‘ra kim nimaga javob berishi haqida hikoya qilamiz.

Ijaraga oluvchi kvartira egasi uni istalgan vaqtda chiqarib yuborishi mumkin deb o‘ylab hato qiladi. Bu, yumshoq qilib aytganda, unday emas. Ijaraga beruvchi ijaraga oluvchini shartnomaning amal qilishi muddati tugagunga qadar chiqarib yuborishga haqli emas. Agar ijaraga olish shartnomasi bir yil va undan ko‘p muddatga tuzilgan bo‘lsa, ijaraga oluvchi yangi muddatga shartnoma tuzish uchun boshqa shaxslar oldida ustunlikka ega. Shuning uchun ijaraga oluvchilar bizga “shunchaki yoqmay qoldi” (ular shartnomaning hech qanaqa shartlarini buzmagani bo‘lsa-da) va biz o‘zimizga ko‘proq mos keladigan kishilarni topdik qabilidagi barcha gap-so‘zlarda hech qanday ma’no yo‘q. Sizni faqat qonunda belgilangan holatlarda yoki shartnoma shartlari buzilgan holatlarda (masalan, agar siz uy-joy uchun ijara haqini to‘lamagan bo‘lsangiz) sud tartibida muddatidan oldin chiqarib yuborishi mumkin.

E’tibor qarating: biz yuqorida keltirgan va quyida keltiradigan barcha holatlarda asosiy so‘z – bu «shartnoma». Lekin uy egasi «kvartiraga shunchaki odam qo‘ysa», odatda hech qanday shartnoma haqida so‘z bormaydi. Qoidaga

ko‘ra, nimadir haqida og‘zaki kelishiladi, juda bo‘lmasa, qandaydir qog‘ozga imzo chekishadi, lekin agar keyinchalik nizo kelib chiqadigan bo‘lsa, ushbu qog‘ozcha bo‘yicha o‘z huquqlarini himoya qilishning deyarli iloji bo‘lmaydi.

Savollar:

1. Ijara haqini oshiruvchi uy egasining xatti-harakat opportunistik xatti-harakatning qaysi turiga kiritish mumkin?
2. Nima uchun kvartiraegasi o‘zini opportunistik tutish imkoniyatiga ega bo‘ladi?
3. Nima uchun ijara shartnomasi opportunistik xatti-harakat ehtimolinipasaytirishimkonini bersada, taraflar hamma vaqt ham uni tuzishmaydi?

2. Zirani xarid qilishda qanday qilib opportunistik xatti-harakatning oldini olish mumkin

Ziraning tabiatda ikki xil navi uchraydi. Yirik donali zira Qorasu supermarketida 1 kilogrami 80-85 ming so‘m turadi. Ziraning mayda xilining 1 kilogrami 15-20 ming so‘m turadi. Zira ovqatni ta‘mini yaxshilash uchun foydalaniladi. Sinab ko‘rmagan xaridorlar ko‘pincha ushbu ikkinchi navli zirani birinchi navli deb hisoblagan holda katta miqdorda xarid qilishadi. Umuman olganda ziralar xaridorining eng birinchi muammosi – bu qallob va firibgar sotuvchilardir. Ular uchun ikkinchi navli va qisman yirik donli zirani aralashtirib (omuxta qilib) xaridorlarga taklif etish umuman qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bunda arzon ziralar yirik navli qimmatbaho ziralar hidi bilan shunchalik to‘yinadiki, ularni texnik jihatdan ajratib bo‘lmaydi. Faqat keyinchalik, ovqatga ishlatish vaqtida ikkinchi navli ziradan umuman boshqacha hid taraladi.

Zira haqiqatdan ham yirik navlimi yoki shunchaki u bilan ikkinchi (past) navli zira bilan birga saqlanganmi – bu ulkan javobsiz masala hisoblanadi.

Savollar:

1. Ikkinchi navli zirani yuqori navli yirik zira deb sotuvchi qallob sotuvchilarning xatti-harakati opportunistik xatti-harakatning qaysi turiga kiradi? O‘z javobingizni asoslang.

2. Nima uchun qalloblarda o‘zini opportunistik tutish imkoniyatimavjud?
3. Zira (o‘lchash xarajatlarining miqdoriga ko‘ra) tovarlarning qaysi turiga kiradi?
4. Mazkur vaziyatda zirasifatini o‘lchash xarajatlari kimning zimmasida bo‘ladi?
5. Zira sifatini o‘lchash xarajatlarini qanday qilib pasaytirish mumkin?

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Transaksion yondashuvni qo‘llashdagi o‘ziga xos murakkabliklar shundan iboratki, ayrim transaksiya xarajatlari ushbu turdagi xarajatlarning paydo bo‘lishiga olib kelgan transaksiyalarning mavjud emasligi tufayli tafsirlanishi va hisoblab chiqilishi mumkin emas. Bunday xarajatlarning ushbu turlari “virtual xarajatlar”, deb ataladi.
2. Transformatsiya xarajatlarining turlarini tahlil qilish o‘tish iqtisodiyotiga bo‘lgan mamlakatlarda ularning o‘sish mexanizmini tushuntirish imkonini beradi.
3. Transaksiya xarajatlari nazariyasi doirasida o‘tkaziladigan tadqiqotlarni mikro va makrodarajalarga bo‘lish mumkin.
4. Mikrodarajada transaksiya xarajatlarini tahlil qilishga nisbatan Kouz – Uilyamson yondashuvi transaksion yondashuv, deb yuritilsa, makrodarajada Nort yondashuvi transformatsion yondashuv, deb yuritiladi.
5. Jamiyatning uning avvalgi rivojlanish yo‘nalishiga bog‘liqligini belgilab beruvchi yo‘nalishga institutsional matritsa deb ataladi.
6. Bozorni egallab olish bo‘yicha qat’iy kurashda ishtirok etuvchi ko‘p sonli iqtisodiyot sub’yektlarning faqatgina bir qismi o‘z loyihalarini amalga oshiradi orqali amalga oshiriladi.
7. O‘zbekistonda transaksiya xizmatlari davlat va nodavlat sektorlari takshilotlari tomonidan olib boriladi.
8. Transaksiya xizmatlarni ko‘rsatuvchi nodavlat tashkilotlari O‘zbekiston Savdo-sanoat palatasi, axborot-maslahat va konsalting markazlari, mulkni baholovchi tashkilotlar, marketing xizmatlari va boshqa idoralar

tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash, maslahat va axborot xizmatlarni ko'rsatadi.

9. Transaksiya xarajatlarining tarkibiga faqatgina muayyan mahsulotni sotish bozorlarining o'ziga xos xususiyatlari katta ta'sir ko'rsatadi.
10. O'tish iqtisodiyotida transformatsiya xarajatlariga faqatgina resurslarni investitsiyalash asosida barpo etishga yo'naltirish.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Fundamental transformatsiya deb nimaga aytiladi:

- A. transaksiyalarni ikki tomonlama boshqarishga o'tish;
- B. transaksiyalarni uch tomonlama boshqarishga o'tish;
- C. transaksiyalarni yagona boshqarishga o'tish;
- D. to'g'ri javob yo'q.

2. Noqulay tanlash qanday yuz beradi

- A. «prinsipal - agent» munosabatlarida;
- B. axborot hisobiga;
- C. axborotni olish hisobiga;
- D. yuqori tanlash imkoniyati hisobiga.

3. Nima noqulay tanlashga qarshi kurashish mexanizmi hisoblanmaydi

- A. majburlash;
- B. ratsionirlash;
- C. filtratsiya;
- D. signallar.

4. Transaksiyalarning qanaqa xillaribozor munosabatlarini o'zaro bog'liqlik munosabatlariga fundamental aylantirishga sabab bo'lishi mumkin:

- A. spetsifik aktivlar ishtirokida takrorlanadigan bitim;
- B. nospetsifik aktivlar ishtirokida bir martalik bitim;
- C. nospetsifik aktivlar ishtirokida takrorlanadigan bitim;
- D. spetsifik aktivlar ishtirokida bir martalik bitim.

5. Kouz nuqtai nazaridan, firmalar quyidagilar tufayli mavjud bo‘ladi

- A. bozor mexanizmi faoliyat ko‘rsatishi xarajatlarining mavjudligi;
- B. foyda olish imkoniyati;
- C. shartnomaviy majburiyatlar;
- D. ierarxiyaning mavjudligi.

6. Firmaning o‘lchami nima bilan belgilanadi

- A. bozorda va firmaning ichida transaksiyani tashkil etish xarajatlarining nisbati bilan;
- B. o‘z egasining istaklari va moliyaviy imkoniyatlari bilan;
- C. ishlab chiqarish xarajatlaridagi ishlab chiqarish va transaksiya tarkibiy qismlarining nisbati bilan;
- D. firma assortimentida eksperimental va inspeksion tovarlarning nisbati bilan.

7. Iqtisodiyotda transaksiya xarajatlari ba‘zan jismoniy tizimdagi ixtilof bilan taqqoslanadi, chunki

- A. ular ko‘pincha huddi jismoniy vazifalarni hal etishdagi ixtilof kabi iqtisodiy vazifalarni hal etishda inkor etiladi;
- B. bunday ta‘rif transaksiya xarajatlarini o‘lchashni osonlashtiradi;
- C. ushbu xarajatlar, huddi ixtilof kabi, - aynan «muvazanatga Etishmayotgan narsa»;
- D. xarajatlar hisobiga amalga oshiriladi

8. Transaksiya xarajatlari

- A. hech qachon nolga teng emas;
- B. firmaning ichidagi o‘zaro munosabatlarda nolga teng;
- C. Robinzon Kruzo iqtisodiyotida nolga teng;
- D. norasmiy xarajatlar.

9. Iqtisodiy agentning axborotni izlash, shartnomani tuzish, mulk huquqlarini rasmiylashtirish xarajatlari

- A. to‘g‘ridan-to‘g‘ri transaksiya xarajatlariga kiradi;
- B. muqobil transaksiya xarajatlariga kiradi;

C. motivatsiyalash xarajatlariga kiradi;

D. transaksiya xarajatlari hisoblanmaydi.

10. Agar yuqori transaksiya xarajatlari iqtisodiy agentning transaksiya amalga oshirishdan voz kechishiga olib kelsa, u holda bunday xarajatlar qanday nomlanadi

A. muqobil transaksiya xarajatlari;

B. to'g'ridan-to'g'ri transaksiya xarajatlari;

C. muvofiqlashtirish xarajatlari;

D. motivatsiyalash xarajatlari.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. "Transaksiya xarajatlari"ning mohiyatini to'liq ochib beradigan ta'rifni bering.
2. Transaksiya xarajatlarning turlarini sanab bering?
3. Opportunistik xatti-harakatdan himoyalash xarajatlari nima?
4. Transaksiya nima?
5. "Transformatsiya xarajatlari"ga ta'rif bering.
6. Transformatsiya xarajatlari ishlab chiqarish va transaksiya xarajatlari bilan qanday bog'langan?
7. Virtual va real transaksiya xarajatlari nima?
8. Jamiyat rivojlanishi bilan bog'liq holda paydo bo'ladigan transaksiya xarajatlarning yangi turlariga misollar keltiring.
9. Muayyan holatda transaksiya xarajatlarning alohida turlarini hisoblash imkoniyatini baholang.
10. O'zbekistonda transaksiya xarajatlarni pasaytirish va ular tarkibini optimallashtirish uchun qanday choralar amalga oshirilgan?

VI BOB. XUFYONA IQTISODIYOT

6.1. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari

6.2. Xufyona iqtisodiyot turlarining tasnifi va uni baholashga nisbatan yondashuvlar

6.3. Xufyona bozor institutsional tizim sifatida

6.4. Jahonda xufyona iqtisodiyot

6.5. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash yo‘llari.

Norasmiy iqtisodiyot bilan bog‘liq muammolarni o‘rganish iqtisodiyot fanida alohida o‘rin tutadi. Bu hol muzkur faoliyatning keng ko‘lamliligi va ayni paytda uning to‘liq hajini o‘lchab bo‘lmasligi bilan izohlanadi.

Xalqaro valyuta fondi (XVF)ning baholariga ko‘ra, 2000-2001 yillarda jahonda xufyona faoliyatdan olingan daromad bir yilda 1 trl. dollardan 3 trl.dollargachani tashkil qildi, bu jahon yalpi mahsulotining 2 foizidan 3 foizigachasiga teng ko‘rsatkichdir.

So‘nggi vaqtlarda iqtisodiyotning xufyona sektori iqtisodchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslarning diqqatini ko‘proq o‘ziga jalb etmoqda. Xususan, uning paydo bo‘lishi va jamiyatda yanada tarqalishi sabablari batafsil tahlil qilinmoqda. Bunda, ayniqsa, chet elda va Rossiyada ko‘p sonli adabiyotlarni yuzaga keltirgan yangi institutsional yondashuvning qo‘llanilishi eng samarali vosita hisoblanmoqda.

Yangi institutsional yondashuv asosiy e‘tiborni insonning xo‘jalik faoliyatini belgilab beruvchi va cheklovchi “o‘yin qoidalari” bilan iqtisodiy rivojlanish jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikka qaratadi. An’anaviy neoklassik nazariya, rivojlanish jarayonini tahlil qilayotib, ishlab chiqarishni resurslar (er, ishchi kuchi, kapital) sarfi va ishlab chiqarish texnologiyasini tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatish bilan bog‘lovchi tizim sifatida ko‘rib chiqqan holda, uni tor ma’noda ta’riflaydi. Institutsional yondashuv esa iqtisodiyot bilan iqtisodiy

almashuvda “o‘yin qoidalari”ni belgilab beruvchi institutlar o‘rtasidagi teskari bog‘liqlikka e‘tibor qaratgan holda, ushbu asosiy qoidalarni yanada kengaytiradi.

Tadbirkorlarning harakatlari o‘rnatilgan “o‘yin qoidalari”ga mos kelib, ular bilan himoyalansa, iqtisodiyot rasmiy sektorining unsurlari hisoblanadi. Va aksincha, ushbu qoidalarga amal qilinmagan hollarda, tadbirkorlar iqtisodiyot xufyona sektorining unsurlari sifatida ko‘rib chiqiladi. Boshqacha aytganda, o‘rnatilgan qoidalarga itoatkorlik “qonuniy” iqtisodiyotda ishtirok etishning birinchi darajali mezonini hisoblansa, ayni paytda o‘rnatilgan qoidalarga amal qilmaslik yoki ularni chetlab o‘tish esa xufyona iqtisodiyotda ishtirok etish mezonini hisoblanadi.

6.1. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari

Qonuniy ravishda qayd etilgan huquqlarga ega bo‘lgan almashuvning yuqori darajadagi transaksiya xarajatlari hamma vaqt ham eng samarali mulkdorlarga mulkchilikning zarur huquqlariga egalik qilish imkonini bermaydi. Bu hol almashuv umuman sodir bo‘lmayotganligini va iqtisodiy agentlar mulkchilik tarkibi nooptimalligicha qolishiga rozi bo‘lganligini anglatmaydi. Aksincha, iqtisodiy agentlarning muqobil qarorni qidirishi mulkchilik huquqlarini tafsirlashga va ular bilan xufyona, ya’ni davlatning ishtirokisiz, almashishni tashkil qilishga urinishi ko‘rinishida amalga oshiriladi.

Xufyonalik – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq (qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya’ni an’analar va urf-odatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat. Mulchilik huquqlarini dastlabki tafsirlash jarayonida davlat uni eng samarali mulkdorlarga bera olmaydigan, huquqlar bilan almashish esa yuqori

transaksiya xarajatlari tufayli mumkin bo'lmagan, taqiqlanadigan darajadagi tang vaziyatdan chiqish yo'li huddi shu tariqa topiladi¹.

Mulkchilik huquqlarining oshkora va xufyona tizimlari amalga oshirilishiga ko'plab misollar mavjud. Ma'muriy-buyruqbozlik iqtisodiyotida, qonunda mustahkamlangan «mulkchilikning umumxalq xususiyati»ga qaramasdan, asosiy huquqlar ham partiyaviy, ham ma'muriy (vazirliklar, yuqori tashkilotlar) buyurokatiya qo'lida edi. Tegishlicha savdolar va bitimlar shaklini hosil qilgan nizolarni hal etishning muqobil mexanizmlari ham mavjud edi, bunda almashuv predmeti sifatida nafaqat tovarlar va xizmatlar, balki «jamiyatdagi mavqe, hokimiyat va bo'ysunish, qonunlar va ularni buzish huquqi» va hatto ishlab chiqarish davlat rejalari ham ishtirok etgan.

Perulik olim Ernando de Soto tadqiqotlarida Lotin Amerikasi mamlakatlari misolida xufyona iqtisodiyot masalalari jiddiy tahlil etilgan. Ularda davlat sud-huquq tizimi va u himoya qiladigan mulkchilik huquqlari almashuvlarning faqat kichik bir qismi mexanizmini shakllantiradi. Ularda – chakana savdo, jamoat transporti, qurilish kabi iqtisodiyotning bir qator sektorlari faoliyati mulkchilik huquqlarining xufyona tizimiga asoslanadi. Masalan, Peru poytaxti Lima shahrida yangi ko'p qavatli turar joy binosini qurish meriyada ruxsat olishdan emas, balki birinchilik tamoyili bo'yicha qurilish uchun uchastkani egallab olishdan boshlanadi. Shu tariqa mulkchilik huquqlarining o'rnatilishi xufyona qayd etilgan mulkchilik huquqi darajasi bilan emas, balki ijtimoiy sanksiyalar va oddiy huquq bilan himoyalanaadi.

Iqtisodiy faoliyatni xufyona amalga oshirish, birinchi navbatda, qonun doirasidagi harakat bilan, ya'ni yuqori transaksiya xarajatlari bilan bog'liq. Transaksiya xarajatlarning tasnifiga asoslangan holda, ta'kidlash lozimki, bunda asosan shartnomani tuzishdagi yuqori xarajatlar, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoyalash xarajatlari va uchinchi shaxslardan himoyalash xarajatlari nazarda

¹ Қаранг: Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув кўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-485-486-бетлар.

tutiladi. De Soto ushbu xarajatlarni «qonunga bo‘ysunish bahosi», deya ta’riflaydi. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- qonundan foydalanish xarajatlari (yuridik shaxsni ro‘yxatga olish, litsenziya olish, bankda hisobvaraqlar ochish, yuridik manzilga ega bo‘lish va boshqa rasmiyatchiliklarni bajarish xarajatlari);

- qonun doirasida faoliyatni davom ettirish zarurati bilan bog‘liq xarajatlar (soliqlarni to‘lash; mehnat munosabatlari sohasida qonun talablarini bajarish (ish kunining uzunligi, eng kam ish haqi, ijtimoiy kafolatlar); oshkora sud tizimi doirasida nizolarni hal etishda sud xarajatlarini to‘lash).

Ta’kidlash joizki, qonunga bo‘ysunish bahosi nafaqat to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlarni, balki u yoki bu tadbirlarni bajarish uchun vaqt sarflarini ham o‘z ichiga oladi. Bunda uning aynan ushbu tarkibiy qismi qator holatlarda juda katta bo‘ladi. Masalan, Lima shahrida uy-joyni qurish uchun ruxsat olish tadbiri taxminan 4 yilu 1 oy, mayda ulgurji bozorini tashkil qilish uchun ruxsat olish 17 yil, kichik do‘konni ochish uchun ruxsat olish 43 kun vaqtni olgan. «Uchinchi dunyo» ayrim mamlakatlarida yuridik shaxsni ro‘yxatga olish uchun talab etiladigan xarajatlar 6.1.1-jadvalda keltirilgan.

6.1.1-jadval.

Ayrim mamlakatlarda yuridik shaxsni ro‘yxatga olish xarajatlari

Mamlakatlar	Vaqt sarfi (kunda)	Pul shaklidagi xarajatlar (kutlayotgan yillik foydaga nisbatan % da)
Boliviya	15-30	0,3-3
Braziliya	31-60	3-8
Chili	12-65	3-6
Ekvador	60-240	15-24
Meksika	83-240	-
Urugvay	75-90	6-160
Gvatemala	179-525	4-9

Venesuela	170-310	6-24
-----------	---------	------

Rossiyada 1998 yilda korxonani ro'yxatga olish uchun vaqt sarfi unchalik katta emas, lekin shu bilan birga qonun doirasida faoliyatni davom ettirish xarajatlari taqiqlanadigan darajada yuqori bo'lgan. Birinchi navbatda, bu soliq to'lovlariga taalluqli bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i 20 foizni, aylanmadan to'lanadigan soliq 4 foizni, foyda solig'ining o'rtacha stavkasi 35 foizni, ish haqi fondiga to'lovlar (shu jumladan daromad solig'i va budjetdan tashqari fondlarga to'lovlar) 60 foizni tashkil qilgan. Ushbu raqamlarni «uchinchi dunyo» mamlakatlariga xos bo'lgan qonun doirasida faoliyatni davom ettirish xarajatlari miqdori bilan solishtirish mumkin (6.1.2-jadval). Aynan qonunga bo'ysunishning yuqori bahosi korxonaning kundalik faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun qonun me'yorlarini qo'llashning past foizini izohlaydi.

6.1.2-jadval.

Ayrim mamlakatlarda qonunchilik me'yorlariga amal qiluvchi korxonalarining ulushi (%da)

Mamlakat-lar	Patent huquqi	Er solig'i	Foyda solig'i	QQS	Eng kam ish haqi	Mehnat xavfsizligi	Ish kuni ning uzunligi	Ijtimoiy himoya
Jazoir	m.y.	53	83	83	54	29	30	58
Ekvador	72	m.y.	63	40	87	m.y.	49	36
Yamayka	m.y.	m.y.	m.y.	m.y.	46	27	33	20
Niger	66	29	9	12	2	7	2	5
Tailand	m.y.	20	60	m.y.	34	42	33	40
Tunis	85	75	m.y.	m.y.	26	52	60	49
Svazilend	54	m.y.	16	39	16	19	41	7

6.2. Xufyona iqtisodiyot turlarining tasnifi va uni baholashga nisbatan yondashuvlar

Turli qonunchilik me'yorlariga amal qilinmaslik holatlarining tez-tez uchrab turishi xufyona iqtisodiyot o'lchamining indikatorini bo'lib xizmat qiladi. Biroq, uning miqdoriy o'lchovi vazifasini hal etishga kirishishdan oldin xufyona iqtisodiyotning turli unsurlarini ta'riflash lozim. Umuman olganda xufyona iqtisodiyot – unda iqtisodiy faoliyat qonun doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan, ya'ni bitimlar qonundan, xo'jalik turmushining huquqiy me'yorlari va rasmiy qoidalaridan foydalanilmagan holda amalga oshiriladigan soha. Xufyona iqtisodiyot bir nechta unsurdan tarkib topadi.

Xufyona iqtisodiyotning mashhur iqtisodchi E.Fayg¹ tomonidan taklif etilgan tasnifi diqqatga sazavordir.

Faygning fikriga ko'ra, har bir alohida xufyona iqtisodiyot turining tafsifi uning vakillari buzadigan institutsional qoidalar to'plami bilan belgilanadi, ya'ni ularning faoliyati qoidalar va normalarning o'rnatilgan tizimi doirasidan tashqariga chiqadi yoki uni chetlab o'tadi va, o'z navbatida, o'lchanmaydi va ijtimoiy jihatdan hisobga olinmaydi.

U yoki bu holatda qanaqa qoidalarning buzilishi xufyona iqtisodiyot turlarini farqlash mezonini hisoblanadi. Ushbu mezondan tasniflash tizimi uchun asos sifatida foydalangan holda, E.Fayg xufyona iqtisodiy harakatlarning to'rtta xilini ajratadi: nolegal (maxfiy, yashirincha), hisobga olinmagan, ro'yxatga olinmagan va norasmiy iqtisodiy faoliyat.

1. Nolegal iqtisodiyot. Nolegal iqtisodiyot tijoratning qonuniy shakllari sohasini belgilab beruvchi, yuridik normativlarni buzuvchi iqtisodiy faoliyat tomonidan ishlab topilgan daromadning sinonimi sifatida ishtirok etadi. Nolegal tadbirkorlar taqiqlangan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda va ularni taqsimlashda ishtirok etadi (giyohvondlik moddalarini noqonuniy ishlab chiqarish, chayqovchilar tomonidan valyuta ayirboshlanishi va h.k.). Bunday taqiqlangan iqtisodiy harakatlar, qonunni chetlab o'tgan holda, foydali daromad manbai

¹ Файг Э. Определение и оценка подпольной и неформальной экономики: неоинституциональный подход. –М.: РТТУ, 2000. -147 с.

hisoblanadi. Shuningdek, siyosiy, iqtisodiy va yuridik muassasalar barqarorligiga putur Etkazishga xizmat qiladi.

2. Hisobga olinmagan iqtisodiyot. Hisobga olinmagan iqtisodiyot institutsional jihatdan o'rnatilgan, soliq kodeksida qayd etilgan fiskal qoidalarni chetlab o'tuvchi yoki ulardan bo'yin tovlovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Hisobga olinmagan iqtisodiyotdan olingan daromadlar soliq organlariga xabar qilinmaydi. Bunda "soliq bo'shlig'i" – soliq tushumlarini nazarda tutuvchi summa bilan amalda olingan daromad o'rtasidagi farq yuzaga keladi.


Hisobga olinmagan daromatlarni tadqiq etish rivojlangan mamlakatlarda soliq solish sohasidagi turli o'zgarishlarga turtki bo'ldi. Soliq to'g'risidagi qonunlarning soddalashtirilishi va soliq stavkalarining pasaytirilishi soliq solish bazasining kengayishiga va soliq tizimi xarajatlarining qisqarishiga olib keldi. Shu bilan bir vaqtda rivojlanayotgan mamlakatlarda hisobga olinmagan iqtisodiyot, perulik iqtisodchi E. de Sato "merkantilist tizim" sifatida ta'riflagan samarasiz fiskal institutlari mustahkamlangan holda, faoliyat ko'rsatishda davom etmoqda.

3. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot hukumat statistika organlarining talablariga ko'ra belgilangan institutsional qoidalarni chetlab o'tuvchi iqtisodiy faoliyat turidan tarkib topgan. Bu Erda davlat milliy statistika tizimida ro'yxatga olinmagan daromad summasi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. E.Faygning fikriga ko'ra, ro'yxatga olinmagan daromad – bu amaldagi umumiy daromad bilan statistika tizimi tomonidan qayd etiladigan daromad o'rtasidagi farqdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda uyda ishlab chiqarish ro'yxatga olinmagan iqtisodiy faoliyatning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Milliy daromadni hisoblash metodikasi uyda ishlab chiqarishning milliy hisobga kiritilishini nazarda tutsa-da, mazkur sektor, odatda, uni o'lchashning qiyinligi tufayli, e'tibordan chetda qoladi. E.Faygning ta'kidlashicha, uyda ishlab chiqarishning mavjud baholari shuni ko'rsatmoqdaki, u rivojlangan mamlakatlarda ro'yxatga olingan YaIMning 25-50 foizini tashkil qiladi.

Ta'kidlash lozimki, hisobga olinmagan va ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot o'rtasidagi farq, yuqorida keltirilgan ta'riflardan kelib chiqib, g'oyat shartli. Agar faoliyat statistika organlari tomonidan ro'yxatga olinmasa, u hisobga ham olinmaydi.

4. Norasmiy iqtisodiyot. Norasmiy iqtisodiyot jamiyat foydasini hamda mulkchilik munosabatlarini, litsenziyalashni, mehnat shartnomalarini, moliyaviy kreditlash va ijtimoiy sug'urtalash munosabatlarini tartibga soluvchi qonunlar va ma'muriy qoidalar bilan belgilangan huquqlarni buzgan holda alohida xarajatlarni tejovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi. U norasmiy faoliyat yurituvchi iqtisodiy agentlar tomonidan olinadigan daromadlar bilan o'lchanadi(qarang: 6.2.1-rasm).



6.2.1-rasm. Xufyona iqtisodiyot turlari.

Iqtisodiyotning ushbu xiliga uyda ishlab chiqarishni kiritish mumkin, chunki iqtisodiy nuqtai nazardan u hisoblashning qiyinligi tufayli hisobga olinmaydi.

Norasmiy sektorning hozirgi ta'riflari, E.Faygning fikricha, odatda, norasmiylikning huquqiy konsepsiyasini nazarda tutuvchi E. de Satoning

g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Norasmiy sektor to'g'risidagi adabiyotlarning katta qismi shahar iqtisodiyotiga bag'ishlangan bo'lsa-da, albatta, qishloq norasmiy iqtisodiyoti yanada katta.

Xufyona xo'jalik aylanmasi, tabiiyki, rasmiy statistikaga kiritilmasligi bois, xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholash muammosi o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqsad uchun quyidagi yondashuvlardan foydalaniladi:

- **monetar usul**, u xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi (naqd pul massasi harakatining dinamikasi xufyona iqtisodiyotning o'lchamlari haqida fikr yuritish imkonini beradi);

- **xarajatlar va daromadlar balanslari usuli**, unda deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi, tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi;

- **bandlikni tahlil qilish usuli**, u shuni nazarda tutadiki, uzoq vaqt mobaynida saqlanib kelayotgan ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi xufyona sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi (ro'yxatga olinmagan ishsizlar soni xufyona iqtisodiyotning o'lchamlaridan bilvosita dalolat beradi);

- **texnologik koeffitsientlar usuli**, u xarajatlarning ma'lum texnologik koeffitsientlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi (masalan, iste'mol qilinadigan elektr energiyasining dinamikasi va deklaratsiya qilinadigan mahsulot ishlab chiqarish dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlar taqqoslanadi);

- **uy xo'jaliklari va korxonalar rahbarlari o'rtasida so'rov o'tkazish usuli**, u xufyona iqtisodiyotning o'lchamiga ekspert baholarini beradi;

- **sotsiologik usul**, u xufyona bitimlar amalga oshiriladigan alohida me'yorlarni, ularning jamiyatda tarqalganligini, bitimlarni tuzishda qanchalik qo'llanishini tahlil qilishdan iborat.

Yoritilgan yondashuvlarning turli xilligi sababli olinadigan natijalarni ko'pincha taqqoslash qiyin bo'lsa-da, xufyona iqtisodiyot miqdorining ayrim

baholarini keltirish mumkin: (YaIMga nisbatan foiz hisobida): Italiya - 15-30, Belgiya - 4-13, Shvetsiya - 0,5-17, Buyuk Britaniya - 2-16, Fransiya - 15, SShA - 3-28, Peru -27-28. Rossiyada 80-yillarning oxirida YaIMning 20 foizga yaqini, 1996 yilda 23 foiz.

Yuqorida aytib o'tilganidek, qonunga bo'ysunishning yuqori bahosi va xufyona iqtisodiyotning katta o'lchamlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Biroq xufyona rejimda almashuvlarni amalga oshirish ham xarajatlar bilan bog'liq. Xarajatlarning bir turida tejalishga erishgan xufyona iqtisodiyotda faoliyat yurituvchi sub'yektlar boshqa xarajatlarni ko'proq amalga oshirishadi – ular «xufyonalik bahosi»ni to'lashga majburdirlar. Xufyonalik bahosi bir necha unsurlardan tarkib topadi.

Huquqiy qoidalardan bo'yin tovlash bilan bog'liq xarajatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: soliq va boshqa moliyaviy maslahatchilar xizmatlariga haq to'lash; ishlab chiqarish hajmining cheklanishi va reklama natijasida yo'qotilgan foyda (korxonalar qanchalik katta bo'lsa va u reklama kampaniyasini qanchalik faol yuritrsa, nazorat qiluvchi organlarning e'tibori doirasiga tushish imkoniyati unda shunchalik katta); «ikkiyoqlama» buxgalteriyani yuritish xarajatlari va shu munosabat bilan yuzaga keladigan korxonadagi hisob yuritish va nazorat qilishdagi qiyinchiliklardan ko'riladigan yo'qotishlar.

Daromadlar transferti bilan bog'liq xarajatlar. Hatto soliqlar to'lashdan bosh tortuvchi iqtisodiy sub'yektlar ham o'z faoliyatidan foydali samarani davlat bilan baham ko'radi, biroq bunda ular buning evaziga davlatdan hech narsa olishmaydi. Gap shundaki, barcha iqtisodiy sub'yektlar bilvosita soliqlar va inflyatsiya solig'ini to'lashadi (birinchi navbatda bu xufyona almashuvlar chog'idagi mutlaq naqd pullarga taalluqli). Lekin transfertlar bir tomonlama xususiyatga ega – oshkora iqtisodiy sub'yektlardan farqli o'laroq, xufyona iqtisodiy sub'yektlar buzilgan mulkchilik huquqlarini himoyalash yuzasidan davlatga murojaat eta olishmaydi. Bunga, shuningdek, kredit olish bilan bog'liq qiyinchiliklarni ham qo'shimcha qilish lozim – chunki o'z faoliyatini yashiruvchi

sub'yektlar o'zining kreditga layoqatliligini buxgalteriya balansida asoslay olishmaydi.

Soliqlar va ish haqiga hisoblab yozishlardan bosh tortish bilan bog'liq xarajatlar. Daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta fondiga va pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlardan bosh tortish korxonaga ish haqini to'lashga tejash imkonini beradi, lekin bunda mehnatning o'rnini sarmoya bilan bosish va texika bilan qayta jihozlashdan manfaatdorlikni pasaytiradi. Arzon mehnat korxonani «yo'ldan ozdiradi». Bundan tashqari, qo'shilgan qiymat solig'ini undirish tadbiri xufyona faoliyat sohasini faqat ishlab chiqarish zanjirining chetki bo'g'inlari – chakana savdo va xomashyoga ishlov berishning boshlang'ich bosqichlari bilan cheklaydi. Chunki ishlab chiqarish jarayonining aynan boshlang'ich bosqichlarida QQSni to'lamaslikdan ko'riladigan foyda eng ko'p miqdorga Etadi, ayni paytda oraliq bosqichlarda oraliq mahsulotning xufyona yotkazib beruvchilari oshkora Etkazib beruvchilarga qaraganda yutqazish holatiga tushib qolishadi.

Qonuniy qayd etilgan mulkchilik huquqlarining mavjud emasligi bilan bog'liq xarajatlar. Mulchilik huquqlarini xufyona tafsirlash faqat ijtimoiy sanksiyalar va munosabatlarni individuallashtirish yo'li bilan ijtimoiy tuzilmalar doirasida amalga oshirilishi mumkin. Mulchilik huquqlari oshkora (fuqarolik kelishuvi asosida) emas, balki ijtimoiy (an'anaviy kelishuvlar asosida) belgilanadi va himoyalanaadi. Shuning uchun faqat barcha transaksiyalar ijtimoiy tuzulma - qabila, oila-qarindoshchilik yoki qo'shni jamoa, milliy doiralar ichida amalga oshirilganda, huquqlarni almashish va himoyalash xarajatlari juda past bo'ladi. «Chetdan» inson ishtirokidagi har qanday bitimda mulchilik huquqlarini himoya qilishning iqtisodiy mexanizmlari amal qilmay qoladi. Demak, huquqlar faqat ular ichida eng yuqori narxni to'lashga tayyor bo'lgan (ya'ni eng samarali huquq egasi) xaridor topilishi shart bo'lmagan insonlarning qat'iy chegaralangan doirasiga mumkin. Kouz teoremasining bajarilmasligidan tashqari, mulchilik huquqlarini kapitallashtirish, huquqlarni erkin o'tkazishning ilojsizligi ham ma'lum shaxslar doirasi tomonidan huquqlar bilan almashuvni cheklashning natijasi hisoblanadi (o'zboshimchalik bilan egallab olingan Er uchastkasini sotishning iloji yo'q). De

Soto xufyona qayd etilgan mulkchilik huquqlarini ta'riflash uchun «jonsizlantirilgan kapital» atamasidan foydalanadi: ushbu kapitaldan garov sifatida foydalanish, uni garovga investitsiya qilish, erkin sotish, ba'zan esa shunchaki meros qilib qoldirish mumkin emas.

Shartnoma tizimidan foydalanishning imkonsizligi bilan bog'liq xarajatlar. Shartnomalarni tuzishning xufyona tadbiri unda ko'plab iqtisodiy sub'yektlar ishtirok etadigan uzoq muddatli loyihalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi. Chunki uzoq muddatli loyihaga mablag'lar qo'yishga undovchi omil bo'lib unda ishtirok etuvchi insonlarning shaxsiy nufuzi emas, balki nima bo'lishidan qat'i nazar sarmoyadorlarning huquqlari himoyalanihiga ishonch hisoblanadi. Haqiqatdan ham, shartnomani qayta ko'rib chiqish zarurati tug'ilgan hollarda ishtirokchilar bitimning tomonlarning hech biri undan manfaatdor bo'lmagan barcha ikir-chikirlariga e'tibor qaratishi lozim bo'lgan sud yoki arbitrajga murojaat eta olishmaydi.

Xufyona bitimning mutlaq ikki tomonlama xususiyati bilan bog'liq xarajatlar. Faoliyatni va uning natijalarini qonundan yashirishga urinish xufyona bitim ishtirokchilari doirasini mumkin qadar cheklashga undaydi. Xufyona bitim ko'proq ikki tomonlama xususiyatga ega. Bitimdan manfaatdor bo'lgan uchinchi shaxslar (masalan, stixiyali yuzaga keladigan bozorlar yaqinidagi mavzelar aholisi) uning ishtirokchilari doirasidan chiqarilgan va, demak, ularning manfaatlari bitimda hisobga olinmaydi. Boshqacha aytganda, zararli foydalanish huquqi, odatda, xufyona huquqni tartibga solish sohasidan tashqarida qoladi.

Nizolarni hal etishning xufyona tartibotlaridan foydalanish xarajatlari. Oshkora sud-huquq tizimi nizolarni hal etishning qator subinstitutlariga – oilaviy-qarindoshchilik va mafiya mexanizmlariga ega. Yuzaga kelgan nizolarni hal etish uchun ikkala muqobil variantdan ham foydalanish xarajatlar bilan bog'liq. Birinchidan, ko'p sonli qarindoshlar, yurtdoshlar va boshqa «o'zinikilar» bilan yaxshi munosabatlarni ushlab turish e'tibor belgilarini qaratish uchun vaqt va xizmatlar almashish uchun mablag'lar talab qiladi. Ikkinchidan, sud va kuchlilik tuzilmalari funksiyasini bajaruvchi mafiya xizmatlariga murojaat etish o'ziga xos

soliqni to'lash zarurati bilan shartlangan. Hatto Italiyada ushbu soliq alohida – pizzo nomiga ega bo'lgan. Ushbu soliqning miqdori yo korxonaga aylantirilgan nisbatan foizlarda, yoki mafiya tomonidan biznesni himoyalash va nizolarni hal etish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarga teng (ekvivalent) hisobida hisoblab chiqiladi. Bunda davlatdan farqli ravishda mafiya o'z xizmatlarining har bir foydalanuvchisiga «soliqning» alohida miqdorini belgilagan holda monopolchini kamsituvchi siyosatni olib borishga qodir bo'ladi. Oshkora tuzilmaga qaraganda mafiya faoliyatining lokal xususiyati axborot manbalarining ancha keng doirasidan foydalanishda o'z ifodasini topadi.

6.3. Xufyona bozor institutsional tizim sifatida

Xufyona sektor bilan bog'liq eng katta xavf-xatar – bu bozor konstitutsiyasidan keskin farq qiluvchi xatti-harakatlar va bitimlar tuzishning alohida me'yorlari shakllanishidir. Xufyona me'yorlarning asosida ularning amal qilishi hududiy jihatdan va / yoki shaxslarning ma'lum doirasi tomonidan chegaralangan ijtimoiy mexanizmlar yotadi - qonunga bo'ysunish me'yorlarining mavjud emasligi, me'yorlarning ijtimoiy mansubligidan qat'i nazar barcha iqtisodiy sub'yektlarga amal qilishiga imkon bermaydi.

Xufyona me'yorlarning yozilmagan va yakka hol xususiyati tufayli xufyona bitimlar tuzish uchun barchaga mos keladigan o'yin qoidalarini ifodalab bo'lmasada, xufyona iqtisodiyot «konstitutsiyasi»ning asosiy unsurlarini aniqlash mumkin. Ilmiy manbalarda bunga misol tariqasida iqtisodchilar va sotsiologlar tomonidan yaxshi o'rganib chiqilgan Italiya, Sitsiliya, Kalabriya va boshqa rivojlangan xufyona sektorga ega bo'lgan mamlakatlar keltirilgan.

Davlatning (dastlab Ispaniya, so'ngra Italiya davlatining) kam ishtiroki va uning mahalliy aholining turmushini va mulkchilik huquqlarini himoyalashni ta'minlashga layoqatsizligi Italiya janubi tarixiy rivojlanishining muhim omillari bo'lgan. Davlat ushbu mintaqalarning uzoqda joylashganligi va o'zi olib boradigan «bo'lib ol va hokimiyat o'rnat» siyosat tufayli ularning mavjudligi haqida shunchaki unutib qo'ydi. Shuning uchun, ayniqsa feodal huquqning bekor qilinishi

va mayda mulkdorlar sinfining shakllanishi munosabati bilan mulkchilik huquqlarini tafsirlash va shartnomalar bajarilishini ta'minlashning davlatning aralashuviga muqobil mexanizmlari talab etildi. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoyalash bo'yicha davlatga muqobil institut sifatida mafiya haqida dastlabki tilga olinishi feodalizmdan mayda va o'rta Er mulkchiligiga o'tishning aynan shu pallasiga taalluqli. «Mafiya» atamasi odatda turli ma'nolarda va turli xildagi hodisalarni yoritish uchun qo'llaniladi. Iqtisodiy tahlilda ushbu atamadan asosan bitimlarni tuzishda amalga oshiriladigan xatti-harakatning alohida me'yorlari va na'munalarni belgilash uchun foydalaniladi. Ya'ni, mafiya rasmiy tashkilot bo'lmasada, xatti-harakat va hukmdorlik munosabatlarining alohida xili hisoblanadi. Boshqacha aytganda, mafiya institut sifatida shaxslarga o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalardagi faoliyatini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi o'yin qoidalarining yig'indisidir.

Birinchi me'yor «o'yin konstitutsiyasi» o'zaro hamkorlik maqsadlarini aniqlashga taalluqli, uni sha'n me'yori sifatida ifodalash mumkin. Mafiyaning avjiga chiqqan klassik davri (1890-1970 yillar)da Italiya janubi aholisining asosiy maqsadi o'zining foydaliligini oshirishdan emas, balki o'z sha'nini va o'z oilasining sha'nini saqlab qolishdan iborat bo'lgan. Hatto o'zini mafiya deb hisoblagan insonning o'zini nomlashi – «sha'n odami» - uning faoliyati maqsadining an'anaviy xususiyatini tasdiqlagan. Kelishuvlar nazariyasi atamasidan foydalangan holda, sha'n me'yorini an'anaviy kelishuv jumlasiga kiritish mumkin, chunki gap oilaning sha'ni va obro'si haqida, birinchi galda, er-xotinning sha'ni haqida ketayapti. Sha'nning yo'qotilishi ijtimoiy o'zaro munosabatlar sohasidan chiqarilishga olib keladi – uni yo'qotgan insonlar hatto alohida, qishloqlarning chekkalarida yashashadi va faqat o'z muhiti doirasida muloqatda bo'lishadi. Haqiqiy mafioz uchun hatto tijorat sohasidagi muvaffaqiyat ham mustaqil qadr-qimmat emas, balki sha'n belgisi sifatida ko'rib chiqiladi.

Agar utilitarizm me'yorini oqilona harakat me'yori to'ldirsa, sha'nni himoya qilish va tasdiqlashning asosiy vositasi – «hasad raqobatchiligi», erkaklar ega bo'lgan zulm o'tkazish salohiyatini doimiy ravishda taqqoslash (ta'kidlash lozimki,

mafiyaning madaniy sohasi – «machizm», ya'ni erkakka sig'inish)dir. Shaxs tomonidan hamkorlar ehtiyojlarini qondirish orqali foydalilikni oshirishning bozor tamoyili (unga ko'ra almashuvning barcha ishtirokchilari yutadi)dan farqli o'laroq, hasad raqobatchiligida ikkita g'olib bo'lishi mumkin emas: faqat bitta g'olib mavjud – qolganlar hammasi – mag'lublar. Kundalik turmushni tartibga soluvchi vosita sifatida zulm o'tkazishdan foydalanish uchun taqiqlarning mavjud emasligi, zulm o'tkazishni monopollashtirishga urinish iqtisodiy sohadagi mafiya vakillarining xatti-harakatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mafiya bilan bog'liq tadbirkorda foyda olishga cheklashlar oshkora tadbirkornikiga qaraganda kam. Xufyona tadbirkor zarur hollarda zulm qo'llanilishi bilan to'xtab qolmaydi, oshkora tadbirkor esa zulm o'tkazish uchun davlat monopoliyasi oqibatida erkinlikning ushbu darajasidan mahrum etilgan. Shuning uchun mafiya bilan bog'liq korxonalarining raqobat jihatdan ustunliklari raqobat natijasida emas, balki yakka (alohida) monopoliyani hosil qilish va raqobatni cheklash natijasida yuzaga keladi. Mafiya qoidalari bo'yicha faoliyat ko'rsatuvchi bozor mukammal raqobat shartlaridan yiroqlashadi, bunday qoidalarining mavjud bo'lishi iqtisodiy mexanizmlarning amal qilishi tartibini o'zgartiradi.

Navbatdagi me'yoriy – ishonch – an'anaviy xususiyatga ega, chunki u oila doirasida lokalizatsiyalashgan. Oila ichida ishonch bo'lmasa, uning boshlig'ining sha'ni tushunchasi o'z kuchini yo'qotadi. Shu nuqtai nazardan ishonch an'anaviy tarzda oila turmushining bazaviy tamoyillaridan birini aks ettiradi va uning tashqarisiga amal qilmaydi, demak, u bozor konstitutsiyasida ko'zda tutilganidek, oqilona harakatning sharti bo'lishi mumkin emas. Mafiyaning bazaviy tashkiliy birligi – sossa – 15-20 (ko'pi bilan 70-80, kamida 7) kishidan iborat va oila-qarindoshchilik aloqalari asosida shakllanadigan guruhni o'zida namoyon etadi. Sossa faoliyati doirasiga tushgan barcha shaxslar uning a'zolari bilan do'stona munosabatlar orqali bir-biriga bog'liq.

Oila ichidagi munosabatlarni qurish uchun foydalaniladigan ishonch mafiyaning iqtisodiy faoliyatini ham belgilab beradi. Mafiya bilan bog'liq tadbirkorlarning raqobat jihatdan yana bir ustunligi bo'lib ishonch asosida

shartnoma munosabatlarini qurish hisoblanadi – mafiya shartnoma majburiyatlari bajarilishining eng yaxshi kafolati hisoblanadi. D.Gambetta yozganidek, mafiyaning bozorining ishonchning «tabiiy» darajasi haddan ziyod past boʻlgan va bitim tuzish imkonini bermaydigan sektorlarida va ana shunday mintaqalarda (Italiya Janubida bunday holat oʻrin tutadi) ishonchni tugʻdirish, reklama qilish va sotish bilan shugʻullanuvchi alohida korxonalar sifatida namoyon etish mumkin. Shuningdek, ishonch yuqori boʻlmagan sharoitda amalga oshiriladigan oshkora tovarlar bilan istalgan xufyona bitimlarga va taqiqlangan tovarlar (qurol, giyohvandlik moddalari) bilan istalgan bitimlarga ham eʼtibor qaratiladi. Tovar sifatida ishonchning oʻziga xos jihatini hisobga olgan holda, mafiya uni sotishni gʻayrioddiy usul bilan – oila-qarindoshchilik, doʻstona yoki mijozlik aloqalari sohasiga manfaatdor tadbirkorni aralashtirish orqali amalga oshiradi. Xususan, mafiyaning iqtisodiy faoliyatini yoritish uchun koʻpincha mafiyaning oilaviy aloqalari asosida tashkil etiladigan «tarmoq» tushunchasidan foydalaniladi. Aynan oʻzgaruvchan sharoitlarga tez moslashuvchi tarmoqlar doirasida «oʻzlariniki» oʻrtasida yuqori ishonch salohiyatidan foydalanuvchi mafiyaning asosiy iqtisodiy faoliyati amalga oshiriladi.

Bitimlar boʻyicha hamkorlarni «oʻziniki» va «begona» toifasiga boʻlish prinsiplari jihatdan muhim, bu Erda gap ikkita standart, ikki xil xatti-harakat haqida boradi. «Oʻziniki» doirasida shaʼn va obroʻga birgalikdagi saʼy-harakatlar orqali erishiladi va himoya qilinadi, munosabatlar ishonch asosida quriladi. «Oʻziniki» va «begona» oʻrtasida «hasadguylik raqobatchiligi» boʻlishi muqarrar, ishonch esa dushmanlik va zulmga oʻz oʻrnini boʻshatib beradi. Xatti-harakatning ikki yoqlama standarti mantigʻiga yana bir muhim meʼyor – mahfiylik kiritiladi. Ushbu meʼyor tashqi olam bilan, ayniqsa, davlat vakillari bilan munosabatlarda toʻliq yopiqlikni belgilab beradi, uning teskari tomoni sifatida toʻliq ochiqlik va oila aʼzolaridan faqat haqiqatni gapirishni talab qilish ishtirok etadi. Haqiqiy mafiozlar hamma vaqt jim turishadi.

6.4. Jahonda xufyona iqtisodiyot

Xufyona iqtisodiyot iqtisodiy tizimlarning barcha xillariga xos bo‘lib, uning ko‘lamlari rivojlangan mamlakatlarda ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda ham g‘oyat keng.

1990-yillarning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlarda xufyona iqtisodiyot YaIMning o‘rtacha 12 foiziga, o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda 23 foiziga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 39 foiziga teng bo‘lgan.

1998 yilda ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Gretsiya (YaIMning 29,0 foizi), Italiya (27,8%), Ispaniya (23,4%), Belgiya (23,4%) “etakchilik qildi”. Irlandiya, Kanada, Fransiyada ham xufyona iqtisodiyotning ko‘lamlari keng – 14,9 foizdan 16,3 foizgacha. Bu borada Avstriya (9,1%), AQSh (8,9) va Shveysariya (8,0) eng qulay hisoblanadi¹.

Xufyona iqtisodiyot ko‘lamlarining eng tez sur‘atlar bilan o‘shishi Gretsiya, Italiya, Shvetsiya, Norvegiya va Germaniyada kuzatilmoqda. Masalan, Germaniyada 2001 yilda xufyona sektorning o‘shishi 3,5 foizni, ayni paytda YaIMning o‘shishi esa 1 foizni tashkil qilgan. Jami xufyona sektor YaIMning 16,5 foizini tashkil qiladi.

Xufyona sektor rivojlanayotgan mamlakatlarda eng keng ko‘lamlarga ega. Masalan, xufyona sektor Nigeriyada YaIMning 76 foizini, Taylandda 71 foizini, Misrda 68 foizini, Boliviya 66 foizini, Panamada 62 foizini tashkil qiladi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligi sobiq sotsialistik mamlakatlarda amalga oshirilgan chuqur islohotlar bilan bog‘liq. Ham siyosiy, ham huquqiy tizimning beqarorligi iqtisodiy sohaga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ushbu mamlakatlarda xufyona iqtisodiyotning o‘shish sur‘atlari 6.4.1-jadvalda keltirilgan.

Quyidagi jadval ma‘lumotlari o‘z mualliflari tomonidan elektr-muvazanat usuli yordamida hisoblab chiqilgan. Mazkur usul g‘oyasi shundan iboratki, elektr energiyasini g‘amlab bo‘lmaydi va shuning uchun iste‘mol qilinayotgan energiya hajmining o‘shish sur‘atlari YaIM o‘shish sur‘atlariga qaraganda yuqori bo‘lishi energiyaning xufyona iste‘mol qilinayotganligidan dalolat beradi.

¹ Эксперт. 2000. №12 (223) от 27 марта.

6.4.1-jadval

O'tish iqtisodiyotiga ega bo'lgan mamlakatlar uchun xufyona iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi dinamikasi (YaIMga nisbatan foiz hisobida)*

Mamlakatlar	1989	1990	1991	1992	1993	1994	1995
Ozorbayjon	12,0	21,9	22,7	39,2	51,2	58,0	60,6
Belarus	12,0	15,4	16,6	13,2	11,0	18,9	19,3
Bolgariya	22,8	25,1	23,9	25,0	29,9	29,1	36,2
Vengriya	27,0	28,0	32,9	30,6	28,5	27,7	29,0
Gruziya	12,0	24,9	36,0	52,3	61,0	63,5	62,6
Qozog'iston	12,0	17,0	19,7	24,9	27,2	34,1	34,3
Latviya	12,0	12,8	19,0	34,3	31,0	34,2	35,3
Litva	12,0	11,3	21,8	39,2	31,7	28,7	21,6
Moldova	12,0	18,1	27,1	37,3	34,0	39,7	35,7
Polsha	15,7	19,6	23,5	19,7	18,5	15,2	12,6
Rossiya	12,0	14,7	23,5	32,8	36,7	40,3	41,6
Ruminiya	22,3	13,7	15,7	18,0	16,4	17,4	19,1
Slovakiya	6,0	7,7	15,1	18,0	16,4	17,4	19,1
O'zbekiston	12,0	11,4	7,8	11,7	10,1.	9,5	6,5
Ukraina	12,0	16,3	25,6	33,6	38,0	45,7	48,9
Chexiya	6,0	6,7	12,9	16,9	16,9	17,9	11,3
Estoniya	12,0	19,9	26,2	25,4	24,1	25,1	11,8

* Manba: Jensen M. Politics and Enterpreneurships in Transition Esonomies / M.Jensen, P.Kaufmann, A.Sheifer // Working Paper, - 1997/ WDI. - № 57.

Xufyona sektor dastlabki besh yilda Ozorbayjon va Gruziyada eng keng ko'lamlarga ega bo'lgan – tegishlicha YaIMning 60,6 va 62,6 foizini tashkil qildi. Keyingi o'rinlarda Rossiya (41,6%), Bolgariya (36,2%), Moldova (35,7%), Latviya (35,7%) va Qozog'iston (34,3%) turadi. O'zbekistonda esa ushbu ko'rsatkich boshqa davlatlarga nisbatan eng past darajada bo'lgan.

6.5. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash yo‘llari.

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligida 2019 yil 17 sentyabrda ”O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot: baholash, sabablari va uni qisqartirish yo‘llari” mavzusida o‘tkazilgan davra suhbatida O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyotning YaIMga nisbatan ulushi 40-50%ni tashkil etishi bayon qilindi.

BMT Taraqqiyot dasturi konsultantlari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari ham ushbu davra suhbatida e‘lon qilindi. O‘zbekistonda xufyona iqtisodiyot miqyosini monetar usullar asosida, shuningdek, respublika hududlarida 700 dan ortiq korxonalar va 30 nafar tadbirkor o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish yo‘li bilan baholangan. Xufyona iqtisodiyotning asosiy sabablari soliq turlarining, yig‘imlar, majburiy ajratmalar sonining va ular miqdorining ko‘pligi ekanligi ta’kidlandi. Ushbu sabablarga korxonalarda Etarli miqdorda mablag‘larning yo‘qligi, banklar bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarni va to‘lovlarni amalga oshirishdagi, xizmat ko‘rsatish sifati, kredit stavkalarining yuqoriligi bilan bog‘liq muammolar ham kiradi. Noiqtisodiy tavsifdagi sabablarga tadbirkorlarning bilim va tajribalarining, raqobat, ishlab chiqarish infratuzilmasining Etarli emasligi, biznesni tashkil etish va yuritishdagi ma‘muriy to‘siqlarning mavjudligi, korrupsiya va mulk huquqining himoya qilinmaganligi kiradi¹.

BMT taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida monetar yondashuv asosida amalga oshirilgan hisob-kitob natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda “xufyona iqtisodiyot” salmog‘i 46,4 foizni tashkil etadi².

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida”gi qonuniga binoan *korrupsiya* — shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan

¹ Специалисты выявили основные причины существования теневой экономики Узбекистана // <https://www.spot.uz/ru/2019/09/18/shadow/>

² Одилжон Иминов. “Яширин иқтисодиёт”нинг яширинмаган сирлари // <http://www.biznes-daily.uz/ru/gazeta-birja/67316-yashirin-iqtisodiyotning-yashirinmagan-sirlari>

shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; *korrupsiyaga oid huquqbuzarlik* — korrupsiya alomatlariga ega bo‘lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish; *manfaatlar to‘qnashuvi* — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatayotgan yoxud ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyat¹.

Poraxo‘rlik xufyona iqtisodiyotning bir turi bo‘lib, turli konsultantlar, agent, vositachilarga, rasmiy shaxslarga xizmatlariga haq to‘lash ham hisoblanadi. Bunda pora beruvchi naf yoki foyda olish kabi maqsadlarini amalga oshirish maqsadida unga sharoit yaratib beruvchi mansabdor, vakolatli shaxslarga pora beradi².

Poraxo‘rlikni keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar quyidagilardan iborat:

- biznesni boshlash uchun ruxsat olish, ro‘yxatdan o‘tish, qulay sharoit yaratishga intilish;
- korxonalar raqobatchilarini yo‘ldan olib tashlash, ularni bozordan, faoliyat sohasidan surib chiqarish;
- davlat xizmatlariga, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishga erishish, bu yo‘lda mansabdor shaxslar tazyiqi, qarshiligini English;
- soliq to‘lovlari bo‘yicha qarzdorlikni kamaytirishga intilish;
- tartibga solinuvchi narxni oshirish uchun ruxsat olish;
- o‘z xodimlari, o‘zining va oilasining, biznesining xavfsizligini ta’minlash maqsadida pora berishga majbur bo‘lish³.

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январ, ЎРҚ-419-сон.

² Маънавийат: изоҳли луғат. –Т.: Фафур Фулом НМИУ, 2009. 476-477-бет.

³ Қаранг: Кочергина Т.Е. Экономическая безопасность: Ростов Н/Дону: Феникс, 2007. С164-165.

Korrupsiyaning vujudga kelishiga sabab bo'ladigan omil va sharoitlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- amaldagi qonunchilikning takomillashmaganligi, undagi ziddiyatlar, qonun va qonun osti me'yoriy xo'jjatlarning bir-biriga zidligi, qonunlarni amaliyotga joriy qilish mexanizmining ishlamasligi;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi, xo'jalik boshqaruvida byurokratiya, ma'muriyatchilikning rivojlanganligi, boshqaruv tizimida mansabdor shaxslarning haddan tashqari ko'payib ketishi, boshqaruv tizimida bir-birining funksiyalarini takrorlashlarning ko'pligi;

- biznes va tadbirkorlikni ro'yxatga olish, ruxsat berish va ularni tugatish protseduralarining haddan tashqari chigalligi, ko'p bosqichli ekanligi, murakkabligi;

- ishbilarmon va tadbirkorlarning huquqiy bilim, huquqiy madaniyatining yo'qligi yoki sayozligi;

- davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar, ishbilarmon, tadbirkorlarning ahloqi-ma'naviyatining sayozligi va boshqalar¹.

Jinoiy xufyona iqtisodiyotning bir shakli jinoyatchilik yo'li bilan topilgan, harom pullarni, daromadlarni oqlashga, legallashtirishga intilishdir.

Jinoyatchilikdan olingan daromadlarning kelib chiqish manbalarini yashirish, kelajakda jinoyatning ochilib qolishining, jinoiy javobgarlikka tortilishning oldini olish maqsadida, ularni legallashtirishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- banklarda yirik pul mablag'lari hisob varaqasini ochish va keyinchalik boshqa xorijiy banklarga pulni ko'chirish;

- kam miqdorli mablag'larni depozitlarga qo'yish;

- qarindoshlar, yordamchilarga, boshqa shaxslar nomiga banklarda hisob varaqalarini ochish;

- bir hisob varaqasidan boshqasiga o'tkazish usulidan keng foydalanish;

- fiktiv korxonalaridan, offshor zonalardagi korxonalaridan foydalanish va h.k.

¹ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-497-бет.

Jinoiy xufyona iqtisodiyotning yana bir ko‘rinishi narkobiznes bo‘lib, narkotik moddalarni noqonuniy ishlab chiqarish va tarqatish, ular bilan savdo qilish bilan shug‘ullanadilar. Xufyona iqtisodiyot mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdid solgani uchun ham unga qarshi kurash mexanizmini shakllantirish va mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashda quyidagi usullardan foydalaniladi:

- **radikal-liberal**, ya’ni dastlabki jamg‘arilgan kapital eng yuqori sur‘atlariga maqsadli cheklovlar belgilash yo‘li;

- **repressiv usullar** xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi huquq-tartib, xavfsizlik organlari faoliyatini kengaytirish va kuchaytirishni taqozo etadi;

- biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni ta’minlash bo‘yicha **qonunchilikni takomillashtirish bilan huquqiy chora-tadbirlar majmui¹**.

Xufyona iqtisodiyotga nisbatan huquqiy chora-tadbirlarni amalga oshirish quyidagilarga yo‘naltiriladi:

- jinoiy xufyona iqtisodiyot va kuzatilmagan, norasmiy xo‘jalik faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar kapitalini aniq farq qilish, bir-biridan ajratish hamda bu farqni qonunchilikda aniq belgilab qo‘yish;

- biznes va tadbirkorlik uchun qulay huquqiy va xo‘jalik muhitini yaratish hamda bu muhitni barqarorlashtirish;

- aholi jamg‘armalari, kapitalini, xususiy mulkni davlat tomonidan himoya qilishni kafolatlash, aholini turli hil tovlamachiliklardan davlat tomonidan himoyalash chora-tadbirlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

- rasmiy iqtisodiyot sohalariga yo‘naltiriladigan pul mablag‘larini legalligini, xaloligini tekshiruvchi, tasdiqlovchi huquq-tartibot va huquqni himoya qiluvchi muassasalar faoliyati mexanizmini yaratish va takomillashtirib borish;

- davlat va xo‘jalik boshqaruvi tizimi rahbar va mas’ul xodimlarining daromadlarining manbalarini, ular xarajatlarining daromadlariga muvofiqligi,

¹ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-500-бет.

mulkiy ahvolini tekshirish mexanizmini takomillashtirish, moliyaviy nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmini yaratish, xufyona iqtisodiyot sub'yektlari faoliyatiga ma'muriy, jamoat va jinoiy-huquqiy ta'sir choralarini takomillashtirish zarur bo'ladi.

Xufyona iqtisodiy faoliyatga qarshi kurashning eng muhim yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

1. Noqonuniy biznes va tadbirkorlikning oldini olish va barham berish.

2. Yolg'on, soxta tadbirkorlikka qarshi kurash. Bunda yolg'on, soxta tadbirkorlik noqonuniy faoliyatni yashirish, kredit olish, soliqdan ozod bo'lish va boshqa mulkiy naf va foyda olish uchun tadbirkorlik faoliyatini yuritishni niyat qilmasdan soxta tadbirkorlik, biznes korxonasini nomigagina ochishadi. Bunday korxonada hech qanday faoliyat yuritilmaydi. Undan bank kreditini olish, jinoyat yo'li bilan topilgan daromadni legallashtirish uchun foydalanish maqsadida nomigagina, yolg'ondakam ochishadi. Ular o'z maqsadlariga erishganlaridan keyin bu korxonani tezda yopishadi. Shu boisdan bunday yolg'on tadbirkorlikka qarshi qat'iy huquqiy javobgarlik choralarini ishlab chiqish lozim bo'ladi.

3. Tijorat maqsadida sotib olish-davlat va xo'jalik boshqaruvida faoliyat ko'rsatayotgan mansabdor shaxslarga noqonuniy tarzda pul, qimmatli qog'ozlar, boshqa mulkiy qiymatlarni o'z xizmat mavqeidan kelib chiqqan holda ko'rsatgan xizmati, ya'ni tijorat yoki bank sirini oshkor qilgani, pora beruvchiga noqonuniy hatti-xarakati uchun sharoit yaratib bergani uchun pul o'tkazish, berish hisoblanadi. Qonunchilikda tijorat, bank sirlari bo'lgan ma'lumotlarni, hujjatlarni o'g'irlash, sotib olish, qo'rqitish, tahdid qilish kabi noqonuniy tarzda yig'ishga intilishning oldini olish, javobgarlikka tartishga qaratilgan huquqiy normalarni kuchaytirish va amalda qo'llash kerak bo'ladi.

4. Jinoiy yo'llar bilan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi ta'sirchan mexanizmni yaratish.

5. Soxta bankrotlikka qarshi qonunchilikda belgilangan javobgarlikni yanada oshirish.

6. Jismoniy va yuridik shaxslarning bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlashlariga qarshi chora-tadbirlarni, jazo choralarini qo'llash.

7. Kontrabandaga, mamlakatga tovarlarni noqonuniy tarzda olib kirish va tashqariga noqonuniy tarzda tovarlarni olib chiqib ketishga qarshi ta'sirchan tizimni qaror toptirish¹.

Jinoiy xufyona iqtisodiyot va korrupsiya hamda uyushgan iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida milliy, mintaqaviy, tarmoq dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish, biznes va tadbirkorlik faoliyati erkinligi kafolatlarini yaratish, ular uchun qulay muhitni vujudga keltirish, shuningdek, moliyaviy-xo'jalik nazorat tizimlarini muttasil takomillashtirib borish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- qonuniylik;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- ochiqlik va shaffoflik;
- tizimlilik;
- davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;
- javobgarlikning muqarrarligi².

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida **“Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, “halollik vaksinasi” bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz**

¹ Қаранг: Ланд П. Организованная преступность тайная история самого прибыльного бизнеса в мире: пер с англ. –М.: АСТ: Астрнль, 2005 –С 11-43; Қобилов Ш.Р. Глобаллашув ва хавфсизлик. – Т.: ЎзР ИИБ Академияси, 2006. 27-38-бетлар.

² Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон.4-модда.

korruptsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o‘tishimiz kerak,”¹-deb ta’kidlangan.

Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

-aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korruptsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

-davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlash².

Davlat boshqaruvi sohasida korruptsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar quyidagilardan iborat:

-davlat organlari faoliyatining ochiqligini va ularning hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlarining, ular mansabdor shaxslarining va boshqa xodimlarining o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirish;

-korruptsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlarining faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish; davlat organlarining va ular xodimlarining faoliyatida korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik;

-davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o‘z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь// Халқ сўзи, 2020йил 25 январь.

² Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши кураш тўғрисида”ги қонуни. 2017 йил 3 январь, ЎРҚ-419-сон. 5-модда.

-davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-ahloqining yagona prinsiplari va qoidalarini belgilovchi odob-ahloq qoidalarini samarali amalga oshirish;

-davlat organlari xodimlari manfaatlarining to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o'tkazilishini ta'minlash;

-davlat organlari xodimlarining huquqiy maqomini belgilash, xizmatni o'tashning shaffof tartibini o'rnatish, shaxsiy va kasbiy sifatlar, ochiqlik, beg'arazlik, adolatlilik va xolislik prinsiplari asosida tanlov bo'yicha saralash hamda xizmatda ko'tarilish tizimini joriy etish;

-davlat organlari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi, murojaatlarning to'liq, xolisona va o'z vaqtida ko'rib chiqilishi, ular tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlari, erkinliklarini tiklash hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha o'z vakolatlari doirasida choralar ko'rilishi ustidan nazoratni ta'minlash;

-davlat organlari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan ushbu organlar tomonidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholagan holda muntazam ravishda monitoring o'tkazish;

-normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish;

-davlat organlarining mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarining samarali ijtimoiy himoya qilinishini, moddiy ta'minot olishini va rag'batlantirilishini ta'minlash.

Xulosa

Iqtisodiy sub'ekt tomonidan o'z biznesi uchun institutsional muhitni – oshkora yoki xufyona – tanlash to'g'risidagi qaror birinchi va ikkinchi holatlarda bitimlarni amalga oshirishda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini qiyoslash

orqali belgilanadi. Boshqacha aytganda, qonunga bo'ysunish normasi yana bir bor oqilona asoslanadi: shaxs uning talabini mutlaq imperativning ta'siri ostida emas (qonuniy narsalarning hammasi yaxshi), balki qonunga amal qilishdan kutilayotgan foydalar tufayli bajaradi. Qonunga ixtiyoriy bo'ysunishga undovchi omillar shaxsda faqat, davlat iqtisodiyotining oshkora sektorida transaksiya xarajatlarini pasaytirish yo'li bilan uning manfaatlarini amalga oshirishga qodir bo'lgan taqdirda, paydo bo'ladi.

Iqtisodiy sohada xufyona bitimlar amalga oshiriladigan o'yin qoidalarida, birinchi galda bozor konstitutsiyasidan bitimlarning barcha ishtirokchilarini «o'ziniki» va «begonalarga» ajratish bilan katta farq qiladi. O'zini o'ziga nisbatan opportunizmni oldini olishning ijtimoiy mexanizmlari amal qiladi, ishonch va o'zaro yordam me'yorlari hukmronlik qiladi. Aksincha, «begonalarga» nisbatan opportunizm me'yor bo'lib qoladi. Xufyona iqtisodiyot «hasadguylik raqobatchiligiga» asoslangan «yovvoyi» bozor modeliga juda yaqin. Va nihoyat, xufyona iqtisodiyot eng yuqori darajada turli ko'rinishga ega va u to'liq tizim shaklini qabul qilmaydi hamda bozorning barcha ishtirokchilari uchun yagona va majburiy bo'lgan konstitutsiyani qabul qilmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, qonunga bo'ysunishning yuqori bahosiga muqobil variant ham g'oyat qimmat turadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Xufyona iqtisodiyot – unda iqtisodiy faoliyat qonun doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan, ya'ni bitimlar qonundan, xo'jalik turmushining huquqiy me'yorlari va rasman qoidalaridan foydalanilmagan holda amalga oshiriladigan soha.

«Xufiyona» iqtisodiyot milliy xavfsizlikka tahdid sifatida ayrim individlar, ularning guruhlar, institutsional sub'yektlar o'rtasida moddiy ne'matlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish borasida

yuzaga keladigan hamda natijalari u yoki bu sabablarga ko‘ra rasmiy statistikada inobatga olinmaydigan va soliqqa tortilmaydigan munosabatlar majmuidir.

Norasmiy iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning oshkora turlari, unda xarajatlarni pasaytirish maqsadida tovarlar va xizmatlarning qayd etilmagan tarzda ishlab chiqarilishi o‘rin tutadi (ta’kidlash lozimki, davlatdan yashiriladigan barcha faoliyat turlari huquqiy me’yorlar bilan tartibga solinishi mumkin emas va mulkchilik huquqlarini himoyalashning muqobil mexanizmlari qo‘llanilishini talab qiladi).

Sohta iqtisodiyot – qo‘shib yozishlar, chayqovchilik bitimlari, poraxo‘rlik va pulni olish hamda berish bilan bog‘liq har xil tovlamachilik harakatlari iqtisodiyoti.

Kriminal iqtisodiyot – qonunning (birinchi navbatda – Jinoiy va Fuqarolik kodekslarining) to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

Xufyona iqtisodiyot – bu birinchi galda iqtisodiy holat, chunki ushbu sektor ishtirokchilarining xatti-harakatlari oqilonalik motivi va iqtisodiy foyda bilan izohlanadi. Bu Erda faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub’yektlar o‘ziga xos “*homo economicus*” modeli bilan yoritiladi.

Xufyona iqtisodiyot – bu u uchun odatiy xo‘jalik faoliyatini yuritishda mavjud qonunlarga amal qilish xarajatlari (transaksiya xarajatlari) o‘z maqsadlariga erishishdan ko‘riladigan foydadan yuqori bo‘lgan insonlar uchun panoh (E. de Soto).

Ikkilamchi iqtisodiyot– kishilarga zarar keltirmaydigan, ular uchun naf beradigan, lekin rasman ruxsat berilmagan va davlat ro‘yxatidan o‘tmagan iqtisodiy faoliyat. Ular yashirin tadbirkorlik hisoblanadi. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga, qo‘shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo‘l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo‘shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni yashirin sotish.

Mansabni suiiste’mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar. Bular jumlasiga davlat idoralaridagi yashirin poraxo‘rlik, yashirin lobbizm, mansabdan foydalanib, subsidiyalar olishni kiritish mumkin.

Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat. Bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo‘lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo‘shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va boshqalar.

Xufyonalik – shaxslarning kundalik faoliyatni tashkil qilishda mavjud huquq (qonun) normalaridan foydalanishdan bo‘yin tovlash va yozilmagan huquqqa, ya’ni an’analar va urf-odatlarda qayd etilgan normalarga hamda mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash yuzasidan kelib chiqqan nizolarni hal etishning huquq doirasidan chetga chiquvchi mexanizmlariga murojaat etishidan iborat.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Ko‘plab tadbirkorlar qarindoshlarining o‘z oilaviy biznesida ishtirok etishiga yo‘l qo‘ymaslikka intilishadi. Bunday yo‘l tutishni qanaqa kelishuvlar o‘rtasida yuzaga keladigan nizo bilan izohlash mumkin?

- a) industrial va bozor;
- b) an’anaviy, bozorva fuqarolik;
- v) bozorva an’anaviy;
- g) industrial va fuqarolik;
- d) fuqarolikva ijtimoiy fikr to‘g‘risidagi;
- e) an’anaviyva industrial.

Javob:e), qarindoshlarning biznesida ishtirok etishi hamma vaqt ishlab chiqarish intizomi talablari bilan rahbar qarindosh tomonidan rayiga qarashning kutilishi o‘rtasidagi to‘qnashuv bilan bog‘liq. So‘rovda ishtirok etgan rossiyalik tadbirkorlardan birining so‘zlariga qaraganda: "Oilaviy munosabatlar ishdagi munosabatlar bilan hech qachon kesishmasligi kerak. Agar men xodimni jazolashim yoki unga o‘z noroziligimni bildirishim kerak bo‘lsa, agar u bilan qarindoshlik rishtalari orqali bog‘liq bo‘lmasam, buni qilish osonroq kechadi. Bundan tashqari, ko‘p sonli qarindoshchilik aloqalari orqali namoyon bo‘lgan ishdagi munosabatlar oilaga eng kutilmagan tarzda ta’sir etishi mumkin".

2–misol. “Iqtisodiyot” nashriyoti tarjima qilingan iqtisodiy adabiyotlarni chiqaradi. Siz nashriyotga iqtisodiy matnlarni tarjima qilishga ixtisoslashgan kam sonli tarjimonlar bilan munosabatlarni qanday yo‘lga qo‘yishni maslahat bergan bo‘lardingiz?

- a) ularni nashriyot shtatiga taklif qilish;
- b) muayyan matnni tarjima qildirish uchun shartnomalardan foydalanish;
- v) shtatga kiritmagan holda uzoq muddatli shartnomalardan foydalanish;
- g) tarjimonning malakasidan qat’i nazar a), b) yoki v).

Javob: a), malakali iqtisodchi tarjimonlarningtaqchilligini hisobga olgan holda, shuni nazarda tutish mumkinki, ular o‘ziga xos resurs – iqtisodiy matnlarni tarjima qilish ko‘nikmalariga (maxsus (o‘ziga xos) inson kapitaliga) ga. Shuning uchun tarjimonlarni nashriyot shtatiga kiritish – vertikalintegratsiya variantini tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Lekin, u holda tarjimonlarda yaxshi ishlashga stimulyasiya beriladi.

3-misol. “Rash milk” MChJ oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaradi. Xom ashyoni korxonaga Etkazib berishni xorijiy hamkor o‘z zimmasiga olgan. Olib kiriladigan xom ashyoning 1 tonnasi narxi 4500 doll. Ushbu xom ashyo turiga bojxona boji 12% qilib belgilangan, QQS - 20%ni tashkil etadi.

Bojxona xom ashyo narxini bojxona tizimida tashkil etilgan narxlar bazasi bo‘yicha belgilash amaliyotidan kelib chiqib, 6200 doll. qilib belgilandi. Korxonaga xorijiy hamkori bilan kelishgan holda xom ashyoning real narxini hisob varag‘ida kamaytirib yozgan, ya’ni 4500 doll. o‘rniga 3200 doll. Agar korxonaga 6200 doll. hisobidan xom ashyo oladigan bo‘lsa, qanday holat yuzaga kelishi mumkin? Tushuntirib bering?

4-misol. Respublikada bir qator san’at sohasida shug‘ullanuvchilar soliqdan qochishga urindilar. Shuning uchun “San’at” firmasi san’atkorlar konsert dasturlarini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi, ular odatda negadir konsert dasturlari uchun biletlarni belgilangan narxdan 1,7-2 barobarga qimmat baholarda qora bozor narxida sotadi. Bu holat qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin? Bunday holat xufiyona iqtisodiyotni keltirib chiqaradimi?

KEYSLAR

1. Vrachlarning opportunistik xatti-harakati ehtimoli.

-Sport jamoasining vrachi – bu, nafaqat o‘z bilimlari bilan psixoterapevtidan tortib to diEtologgacha turli mutaxassisliklarni birlashtirishi shart bo‘lgan doktor. Doktor, bulardan tashqari, birinchi galda, ayniqsa yuklamalarga doimiy ravishda o‘zgartirishlar kiritish va yuklamalarni tabaqalashtirish zarur bo‘lgan tayyorgarlik davridagi o‘quv-mashg‘ulot jarayonida murabbiyning eng muhim yordamchisi **hisoblanadi.**

Vrach xonasida emas, balki odamlar oldida, holatlarning yarmida, odatda, sharoitlarni oldindan aytib bo‘lmaydigan boshqa shaharlarda aql va qo‘llarning yaxshi reaksiyalarini talab qiluvchi ish.

Bu Erda alohida moyillik va sabr-toqat kerak. Doktor jamoasida – faqat retsept va kasallik varaqasi bilan qutilib bo‘lmaydigan doimiy bemorlar bor. Bir lahzada ham tashxis qo‘yish, ham davolash turini tanlash va so‘zsiz, - natija zarur.

-Qishloq joylarida umumiy amaliyot vrachlari tizimi rivojlanadi. Ushbu vrachlar o‘z ishida, aslida, butun poliklinikaning o‘rnini bosadi va faqat murakkab vaziyatlarda o‘z bemorlarini tor mutaxassislarga yuboradi.

- lekin bemorlar vrach ishining sifatini hamma vaqt ham baholashga qodir emaslar-ku. o‘z ishini yaxshi biladigan, lekin unchalik xushmuomala bo‘lmagan vrachga qaraganda o‘z ishini yaxshi bilmaydigan, lekin xushmuomala vrach ko‘proq bemorlarni qabul qiladigan holat yuz bermaydimi?

- ushbu masala sog‘liqni saqlash vazirligining vakolatiga kiradi. u vrachlik hamjamiyatini namoyon etuvchi tashkilotlar bilan birgalikda ultra tovush xizmati (UTX) tizimiga malakasiz mutaxassislar kirib qolmasligi haqida qayg‘urishi kerak. sog‘liqni saqlash organlari mazkur sohada ishlovchilarning tibbiy-iqtisodiy standartlarni bajarishlariga erishishlari darkor.

- pulning ketidan quvib utx vrachlari bemorlarga keraksiz va ortiqcha mualajalarni tayinlaydigan holat yuz bermaydimi? bunday tajriba, afsuski, ixtiyoriy sug‘urtada mavjud.

• bu jiddiy muammo. agar vrach imkon qadar ko'proq tibbiy xizmatlar ko'rsatishdan moddiy manfaatdor bo'lsa, unga e'tiroz bildirish qiyin. lekin xalqaro amaliyotda bunday holatlarni jilovlash usullari mavjud. birinchi galda bu davolash yordasiga haq to'lash usullari bilan bog'liq. boshlang'ich bo'g'inda vrach yoki poliklinika yil mobaynida har bir ko'rsatilgan xizmatga emas, balki bir yo'la birlashtirilgan bemorlar kontingenti uchun pul oladi.

Savollar:

Kimda opportunizmga intilish ko‘proq —sport vrachidami yoki qishloq vrachidami? Nima uchun?

Kimda vrachning ishini nazorat qilishga intilish kuchliroq — jamoa egasidami yoki Sog‘liqni saqlash vazirligidami? Nima uchun?

Ikkinchi parchada keltirilgan axborot asosida vrachning shartnomadan oldingi va shartnomadan keyingi opportunizmiga misollar keltiring. Qaysi omillar tufayli bunday xatti-harakatga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘ladi? Uning oldini olishning qanaqa usullari taklif etiladi? Ularning samaradorligiga baho bering.

2. Xufyona iqtisodiyot va korrupsiya miqyoslarini kamaytirishda davlatning roli mavzusiga

AQSh Parlamenti, Germaniya Bundestagi, Rossiya Dumasi va O‘zbekiston Oliy Majlisi o‘rtasida farq borligi hammaga ayon. Ularni qonun ijodkorligi faoliyati bilan shug‘ullanishlari, mamlakatda amal qiladigan normativ-xuquqiy asoslarini yaratish mas‘uliyati berilganligi ular so‘zini o‘z makoni uchun ustunligi kafolatidir. Har bir konstitutsion tuzum ma‘muriy vakillari o‘ziga xos vakolat doirasiga ega va bu holat bunday vakillarning vijdonan ish yuritishlari, xalq, mamlakat oldida javobgarliklarini doimo eslatib turishi muqarrar.

Lekin Qadimgi Rimdan ham qadimroqqa borib taqaladigan Korrupsiya tushunchasi negadir oddiy fuqaro, dehqon, hunarmand uchun emas, aynan xukumat doirlari vakillariga, ular faoliyatiga dahldor tushuncha.

Sizningcha nega shunday? Oddiy dehqon korrupsiya ishtirokchisi bo‘lishi mumkinmi? Javobingizni misollar bilan izohlab bering.

QUYIDA KELITIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Huquqiy qoidalardan bo‘yin tovlash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: soliq va boshqa moliyaviy maslahatchilar xizmatlariga haq to‘lash; ishlab chiqarish hajmining cheklanishi va reklama natijasida yo‘qotilgan foyda va boshqalar.

2. Daromadlar transferti bilan bog‘liq xarajatlar. Hatto soliqlar to‘lashdan bosh tortuvchi iqtisodiy sub’yektlar ham o‘z faoliyatidan foydali samarani davlat bilan baham ko‘radi, biroq bunda ular buning evaziga davlatdan hech narsa olishmaydi.
3. Soliqlar va ish haqiga hisoblab yozishlardan bosh tortish bilan bog‘liq xarajatlar. Daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta fondiga va pensiya jamg‘armasiga majburiy to‘lovlardan bosh tortish korxonaga ish haqini to‘lashga tejash imkonini beradi, lekin bunda mehnatning o‘rnini sarmoya bilan bosish va texika bilan qayta jihozlashdan manfaatdorlikni pasaytiradi.
4. Shartnomalarni tuzishning xufyona tadbiri unda ko‘plab iqtisodiy sub’yektlar ishtirok etadigan uzoq muddatli loyihalarning amalga oshirilishini qiyinlashtiradi.
5. Shartnomani qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilgan hollarda ishtirokchilar bitimning tomonlarning hech biri undan manfaatdor bo‘lmagan barcha ikirchikirlariga e‘tibor qaratishi lozim bo‘lgan sud yoki arbitrajga murojaat eta olishmaydi.
6. Xufyona bitim ko‘proq ikki tomonlama xususiyatga ega.
7. Bitimdan manfaatdor bo‘lgan uchinchi shaxslar (masalan, stixiyali yuzaga keladigan bozorlar yaqinidagi mavzelar aholisi) uning ishtirokchilari doirasidan chiqarilgan va, demak, ularning manfaatlari bitimda hisobga olinadi.
8. Zararli foydalanish huquqi, odatda, xufyona huquqni tartibga solish sohasidan tashqarida qoladi.
9. Oshkora sud-huquq tizimi nizolarni hal etishning qator subinstitutlariga–oilaviy-qarindoshchilik va mafiya mexanizmlariga ega.
10. Sud va kuchlilik tuzilmalari funksiyasini bajaruvchi mafiya xizmatlariga murojaat etish o‘ziga xos soliqni to‘lash zarurati bilan shartlangan.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

- 1. Nolegal iqtisodiyot – nima?**

- A. Nolegal iqtisodiyot tijoratning qonuniy shakllari sohasini belgilab beruvchi, yuridik me'yorlarni buzuvchi iqtisodiy faoliyat tomonidan ishlab topilgan daromad;
 - B. tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda qo'laniladigan faoliyat;
 - C. iqtisodiy harakatlar, foydali daromad manbai hisoblanadi.
 - D. norasmiy iqtisodiyotda daromad keltiruvchi xisoblanadi.
- 2. U yoki bu holatda qanaqa qoidalarining buzilishi xufyona iqtisodiyot turlarini farqlash mezonini hisoblanadi. Ushbu mezonlar E.Fayg tomonidan qanday belgilangan?**
- A. Nolegal (maxfiy, yashirincha) xufyona iqtisodiyot;
 - B. Hisobga olingan va ro'yxatga olingan iqtisodiyot;
 - C. rasmiy iqtisodiy faoliyat;
 - D. aniq va to'g'ri iqtisodiyot.
- 3. Hisobga olinmagan iqtisodiyot – nima?**
- A. institutsional jihatdan o'rnatilgan, soliq kodeksida qayd etilgan fiskal qoidalarni chetlab o'tuvchi, ulardan bo'yin tovllovchi iqtisodiy faoliyatni o'z ichiga oladi;
 - B. olingan daromad solig'ini o'z ichiga oladi;
 - C. soliq tushumlarini nazarda tutuvchi summa va olingan daromadni o'z ichiga oladi;
 - D. olingan daromad hisobiga aniqlangan foyda.
- 4. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot – nima?**
- A. hukumat statistika organlarining talablariga ko'ra belgilangan institutsional qoidalarni chetlab o'tuvchi iqtisodiy faoliyat turidan tarkib topgan;
 - B. milliy statistika tizimida ro'yxatga olingan daromad;
 - C. umumiy daromadni aniqlovchi ko'rsatkichga;
 - D. ro'yxatga olingan daromadga aytiladi.
- 5. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda monetar usul:**
- A. xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi.

- B. deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi, tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi.
- C. ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi xufyona sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.
- D. xarajatlarning ma'lum texnologik koeffitsientlari haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

6. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda xarajatlar va daromadlar balanslari usuli:

- A. deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi, tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi.
- B. xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi.
- C. uzoq vaqt mobaynida saqlanib kelayotgan ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi.
- D. mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

7. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda bandlikni tahlil qilish usuli:

- A. uzoq vaqt mobaynida saqlanib kelayotgan ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi xufyona sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.
- B. xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi.
- C. deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasining real hajmlari bilan taqqoslanadi.
- D. xarajatlarning ma'lum texnologik koeffitsientlari haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

8. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda texnologik koeffitsientlar usuli:

- A. xarajatlarning ma'lum texnologik koeffitsientlari asosida mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.
- B. xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi.
- C. tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi.
- D. ro'yxatga olinmagan ishsizlikning yuqori darajasi xufyona sektorda bandlik uchun keng imkoniyatlar mavjudligidan dalolat beradi.

9. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda uy xo'jaliklari va korxonalar rahbarlari o'rtasida so'rov o'tkazish usuli:

- A. xufyona iqtisodiyotning o'lchamiga ekspert baholarini beradi.
- B. xufyona hisob-kitoblarda faqat naqd mablag'lardan foydalanilishi to'g'risidagi gipotezaga asosida quriladi.
- C. deklaratsiya qilinadigan daromadlar xarajatlar summasi, tovarlar va xizmatlar iste'molining real hajmlari bilan taqqoslanadi.
- D. mahsulot ishlab chiqarishning real hajmi haqidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

10. "Xufyonalik bahosi" – qanday unsurlardan tarkib topadi?

- A. Huquqiy qoidalardan bo'yin tovlash va daromadlar transferti bilan bog'liq xarajatlardan
- B. Soliqlar va ish haqidan
- C. Oqilona bitimning mutlaq ikki tomonlama xususiyatidan
- D. Rasmiy va norasmiy qoidalar asosidan.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Faqat iqtisodiyotning xufyona sektori sub'yektlariga nisbatan kuch ishlatish choralarini qat'iylashtirish yordamida ushbu sektorning o'lchamlarini qisqartirishga erishish mumkinmi?
2. Xufyona sektor yalpi ichki mahsulotida yuqori ulushga bilan tavsiflanadigan mamlakatda bozor islohotlarining dastlabki bosqichlari qanday bo'lishi kerak?

3. Bozor islohotlari siyosatining standart dasturiga qanday tuzatishlar kiritilishi lozim?
4. Xufyona iqtisodiyotning qanday unsurlari mavjud?
5. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholash yondashuvlarini izohlang.
6. Xufyonalik bahosining unsurlari nimalardan iborat?
7. «Mafiya» atamasining kelib chiqishini sharhlang?
8. Xufyona iqtisodiyot o'lchamlarini baholashda xarajatlar va daromadlar balanslari usuli?
9. Ro'yxatga olinmagan iqtisodiyot nima?
10. Norasmiy va sohta iqtisodiyot to'g'risida fikrlaringiz?

VII BOB. MULK HUQUQLARI NAZARIYASI VA MULKCHILIK SHAKLLARI RIVOJLANISHINING EVOLYUSIYASI

7.1. Mulk huquqlari nazariyasining asosiy qoidalari

7.2. Mulkchilik ta'riflarining tahlili

7.3. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari

7.4. Mulkiy xuquqlar

7.5. Mulkiy xuquqlar taqsimotining tahlili

Mulk huquqlari nazariyasi o'tgan asrning 60-70 yilarida shakllandi. Hozirgi vaqtda uning rivojlanishi alohida mustaqil konsepsiya sifatida emas, balki iqtisodiy tahlilning uchta yo'nalishi – huquq iqtisodiyoti, yangi iqtisodiy tarix va iqtisodiy tashkilot nazariyasining metodologik va umumnazariy asosi sifatida davom etmoqda.

Amerikalik mashhur iqtisodchilar – R.Kouz va A.Alchiyan mulk huquqlari nazariyasiing asoschilari hisoblanadi. Mazkur nazariyaning keyingi rivojiga uzoq xorij mamlakatlarining Y.Barsel, D.Nort, R.Pozner, S.Peyovich, O.Uilyamson, Yu.Fama, E.Furubotn, S.Chung kabi olimlari o'z hissasini qo'shishdi. Rossiya iqtisodiy adabiyotlarida mulk huquqlari nazariyasi R.Kapelyushnikov, V.RadaEv, A.Radigin va boshqalarning ishlarida rivojlantirildi.

O'zbekistonda mulkiy munosabatlarini isloh qilish, mulkning huquqiy asoslari va mulk nazariyasining boshqa jihatlari X.Abulqosimov, N.Yusupova, N.Nedelkina, D.TojiboEva, Sh.Shodmonov, T.ShodiEv, S.G'ulomov va boshqarlarning ishlarida ko'rib chiqilgan.

Mulk huquqlari nazariyasi huquqiy mexanizmning jamiyatning kundalik xo'jalik hayotidagi rolini o'rganadi. Bunda mulk huquqlarini optimal taqsimlash masalasi markaziy muammo sifatida e'tirof etiladi. Institutsional iqtisodiyot

nazariyasiga ko‘ra, kim mulkdor hisoblanishi to‘g‘risidagi masala emas, balki mulk huquqlarini tafsirlash to‘g‘risidagi masala ancha muhim hisoblanadi.

7.1. Mulk huquqlari nazariyasining asosiy qoidalari

Mulk huquqlari deganda, ne‘matlarning mavjud bo‘lishi munosabati bilan insonlar o‘rtasida yuzaga keladigan va ulardan foydalanishga taalluqli bo‘lgan ruxsat etilgan kundalik munosabatlar tushuniladi. Ushbu munosabatlar ne‘matlar borasidagi xatti-harakatning istalgan shaxs boshqa insonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilishda ularga amal qilishi yoki ularga amal qilmaganlik uchun xarajatlar qilishi lozim bo‘lgan normalarini belgilaydi. Quyida mulk huquqlari nazariyasining R.Kapelyushnikov¹ tomonidan sanab o‘tilgan asosiy qoidalarini ko‘rib chiqamiz:

- mulkchilik munosabatlari “inson/ashyo” munosabatlari sifatida emas, balki insonlar o‘rtasidagi munosabatlar sifatida talqin etiladi: mulk huquqlari atamasi insonlar bilan ashyolar o‘rtasidagi munosabatlarni emas, balki insonlar o‘rtasidagi noyob ashyolardan foydalanish borasidagi munosabatlarni yoritadi;
- mulkchilik munosabatlari noyoblik muammosidan kelib chiqadi: noyobliknig qandaydir omilisiz mulkchilik va adolatlilik haqida gapirishdan ma’no yo‘q;
- mulk huquqlarining talqini o‘ziga ham moddiy, ham jisimsiz ob’yektlarni (shaxsiy erkinlikkacha) o‘zlashtirgan holda, barcha narsalarni qamrab oluvchi xususiyatga ega. Mulk huquqlari insonning istalgan turdagi noyob resurslardan foydalanishga nisbatan nuqtai nazarini qayd etadi;
- mulkchilik munosabatlariga jamiyat tomonidan ruxsat etilgan munosabatlar sifatida qaraladi (davlat tomonidan ruxsat etilgan munosabatlar bo‘lishi shart emas). O‘z navbatida, ular nafaqat qonunlar va sud qarorlari ko‘rinishida, balki yozilmagan qoidalar, an’analar, urf-odatlar, ahloqiy normalar ko‘rinishida mustahkamlanishi va himoya qilinishi mumkin;

¹ Капелюшников Р.И. Экономическая теория прав собственности. – М.: ИМЭМО, 1990.

- mulk huquqlariga xatti-harakat ma'nosi beriladi – bir xatti-harakat usullarini ular qo'llab-quvvatlaydi, boshqalarini esa yo'q qiladi.

Ruxsat etilmagan xatti-harakatlar ham mulk huquqlari nazariyasining diqqat markazida turadi. U iqtisodiy jihatdan tushuniladi: taqiqlar va cheklovlar uni bartaraf etmaydi, balki u bilan bog'liq xarajatlarni (ehtimoliy jazo ko'rinishida) oshirgan holda salbiy omil sifatida ta'sir ko'rsatadi. Ruxsat etilgan xatti-harakat normalariga amal qilish ham, ularni buzish ham oqilona iqtisodiy tanlov harkatlariga aylanadi.

Mulk huquqlari nazariyasi doirasida "mulk" tushunchasi odatda turli shaxslar o'rtasida har xil ulushlarda taqsimlangan huquqlar to'plami sifatida talqin etiladi. Mulk huquqlarining ingliz huquqshunosi A.Onore tomonidan taklif etilgan (Onore ro'yxati) va quyidagi 11 ta unurni o'z ichiga olgan ta'rifi "to'liq" hisoblanadi:

- 1) egalik qilish, ya'ni ashyo ustidan mutlaq nazorat qilish huquqi;
- 2) foydalanish, ya'ni ashyodan shaxsiy foydalanish huquqi;
- 3) boshqarish, ya'ni ashyo kim tomonidan va qanday foydalanilishi mumkinligini hal etish huquqi;
- 4) daromad olish, ashyodan avvalgi shaxsiy foydalanishdan yoki boshqa shaxslarga undan foydalanishga ruxsat etishdan kelib chiqadigan ne'matlarni olish huquqi (boshqacha aytganda – o'zlashtirish huquqi);
- 5) ashyodan o'zgaralar foydasiga voz kechish, uni iste'mol qilish, o'zgartirish yoki yo'q qilish huquqini nazarda tutuvchi "kapital qiymat" huquqi;
- 6) xavfsizlik huquqi, ya'ni ekspropriatsiyaga qarshi immunitet;
- 7) ashyoning meros bo'yicha yoki vasiyatnoma bo'yicha o'tishi huquqi;
- 8) muddatsizlik;
- 9) zararli foydalanishni taqiqlash, ya'ni ashyodan o'zgaralar uchun zararli usul bilan foydalanishdan o'zini tiyish;
- 10) undirish ko'rinishidagi javobgarlik, ya'ni ashyoni qarzni to'lash uchun olib qo'yish imkoniyati;

11) qoldiq xususiyat, ya'ni kimgadir o'tkazilgan vakolatlarning ularning o'tkazish muddati tugagach yoki istalgan boshqa sababga ko'ra ushbu o'tkazish o'z kuchini yo'qotgan hollarda, "tabiiy" ravishda qaytarilishini kutish.

Ushbu ta'riflar aniqdek tuyulganiga qaramay, bu 11 ta unsur L.Bekkerning fikriga ko'ra, "ko'p sonli – taxminan 1,5 mingta kombinatsiyani amalga oshiish imkonini beradi, agar ularning huquq sub'yektlari va ob'yektlari bo'yicha variatsiyalanishini hisobga olsak, u holda mulk shakllarining xilma-xilligi, haqiqiy vahimali omilga aylanadi"¹.

Mulk huquqlari nazariyachilarining nuqtai nazaridan, mulk huquqi mavjud bo'lgan va u mavjud bo'lmagan vaziyatlar o'rtasida qat'iy chegara o'tkaziladigan yondashuv unchalik ham to'g'ri emas. Mulk huquqi – bu qat'iy belgilangan nuqta emas, balki uzluksiz qator. A.Alchiyan va G.Demsetsning ta'kidlashicha², ashyoga bo'lgan u yoki bu vakolat mulkdorga qay darajada tegishli ekanligi haqida uning qarori ashyodan haqiqiy foydalanishni qanchalik belgilab berishiga qarab fikr yuritish mumkin. Mulk huquqlari nazariyasi har qanday almashuv harakati aslida vakolatlar to'plami bilan almashish ekanligi to'g'risidagi bazaviy tasavvurdan kelib chiqadi.

Huquqshunosalar va iqtisodchilarning fikriga ko'ra, "Onore ro'yxati"dagi unsurlardan eng zaifi – bu to'qqizinchi unsur – *zararli foydalanishni taqiqlash* unsuridir. Zararli foydalanishni taqiqlash bilan bog'liq muammo shundan iboratki, boshqa shaxslarga ziyon Etkazishning ko'plab usullari nafaqat taqaqlanmagan, balki qonun bilan himoyalanaadi. Xususiy mulkchilik huquqiy holati sharoitida, odatda, begona mol-mulkning iste'mol qiymatiga bevosita ta'sir etish yo'li bilan jismoniy ziyon Etkazish mamkin emas, lekin uning almashish qiymatini pasaytirgan holda bilvosita yo'l bilan ziyon Etkazish mumkin. Tadbirkor raqobatchining firmasiga o't qo'yib, uni honavayron qilishga haqli emas, lekin u o'zining ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirgan holda, raqibni

¹ Becker LS. Property rights: philosophical foundations. — Cambridge, 1977. P. 21.

² Alchian A., Demsetz H. The property rights paradigm // Journal of Economic Histo 1973. M. 33. № 1. P. 17.

honavayron qilishga haqli. Oʻrta asrlar sexlarida xatti-harakatning ushbu usuli ham noqonuniy hisoblanar edi. Zararli foydalanishni taqiqlash bilan bogʻliq huquq hajmini aniq belgilashning murakkabligi mulk huquqlarini cheklashning yoʻl qoʻyiladigan chegaralari toʻgʻrisidagi asosiy muammoni yuzaga chiqaradi. Ushbu huquqning maʼnosi shundan iboratki, hatto toʻplamga “toʻliq taʼrif”dagi barcha unsurlarni kiritish ham mulk huquqini cheksiz qilmaydi.

7.2. Mulkchilik taʼriflarining tahlili

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasidagi jamiyatning iqtisodiy negizlariga oid XII bobda quyidagilar bayon etilgan: “Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan Oʻzbekiston iqtisodiyotining negizini turli shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat isteʼmolchilar huquqlarining ustunligini hisobga olib, iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqligini va huquqiy jihatdan teng muhofaza etilishini kafolatlaydi. Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin (53- modda). Mulkdor mulkiga oʻz hoxishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar etkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qoʻriqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shart” (54-modda). Oʻzbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksiga mulkchilikning egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish triadasi (164-modda) asos qilib olingan. Ushbu Kodeksda mulkchilikning xususiy va ommaviy shakllari mavjudligi (167-modda) taʼkidlanadi.

Demak, iqtisodiyot va uni tashkil etishning bozor modeli uchun muayyan-tarixiy shakldagi mulkchilik instituti talab etiladi. Mulkchilik institutining negizini mulk tushunchasi tashkil etadi. Mulk – resurslar cheklanganligi sharoitining oqibatidagi noyoblik muammosini hal qilinishining yagona vositasi hisoblanadi. Bu vosita mulkdorga huquqlar tutamini taqdim etadi. Albatta, mulkiy huquqlar

tutami egalik qilish va boshqa huquqlar (foydalanish, tasarruf etish va boshqalar) bilan birgalikda tashkil etadi. Huquqlar tizimi xo‘jaliklar va shaxslar o‘zaro munosabatlarga kirishishlari uchun ham mulkdorni, ham mulkni himoyalaydi. Shaxsning jamiyatdagi erkinligi huquq bilan kafolatlanadi va chegaralanadi. Undagi barcha mavjud huquqlardan eng to‘lig‘i mulkchilik huquqidir. Ushbu huquq shaxs va jamiyat uchun o‘zaro qarama-qarshi bo‘lgan begonalashuv xususiyatini ham namoyon etadi. Ilmiy manbalarda mulkchilik munosabatlari umumiy tan olingan yagona ta’rifga ega emasligi sababli qator talqinlar mavjud (7.2.1-jadval).

7.2.1-jadval.

Mulkchilik institutiga oid talqinlarning turkumlanishi

Yondashuv nomi	Mulkchilikning asosiy belgilari
1. Klassik yo‘nalish	Daromad keltirish qobiliyati mujassamlangan kapital
2. Faylasuflar va neoklassiklar	Tashqi dunyo ob‘yektlar ustidan nazoratni ularni o‘zlashtirib (egallab) olish asosida amalga oshirish
3. Dialektik usul tarafdorlari	Shaxsning tabiatdan ham, ijtimoiy hayot jamoatchiligidan ham begonalashishida hamda ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish vositasidan ajratishda namoyon bo‘luvchi ijtimoiy aloqalarni tarkiblash, murakkablashtirish shakli
4. Nemis tarixiy maktabi	Ijtimoiy o‘zaro hamkorlikning asosiy tamoyili hisoblangan ahloq normasida jamiyat tomonidan oliy va muqaddas qadriyat hamda individ mustaqiligining kafolati. sifatida tan olish
5. Neoinstitutsional yo‘nalish	Turli shaxslar o‘rtasida bir buyumda turli huquqlarning namoyon bo‘lish imkoniyati. buyumga qarashli vakolatlar tutami
6. Xuquqshunoslar	Shaxsning buyum ustidan hukumronligi va boshqa shaxslar imkoniyatlarini cheklash.

7. Sotsiologlar	Iqtisodiy buysundirish asosida ijtimoiy ierarxiyani o'rnatish usuli
8. Ernando de Soto (Peru)	Qiymatga aylanishda ishtirok etish va daromad keltirish qobiliyati

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, mulkchilikni o'zlashtirib olish bilan tenglashtirish neoklassik iqtisodiy tafakkur vakillariga xos bo'lsa, huquqshunoslar uchun shaxsning *buyum ustidan hukumronligi* imkoniyatlarini chegaralash mulkdan boshqa shaxslarning ziyoniga foydalanishga ruxsat bermaslik sifatida ta'riflanadi. Mulkchilik – bu shaxs va buyum o'rtasidagi emas, balki insonlar o'rtasidagi munosabat sifatida gavdalanishi kerak.

Mulkchilik huquqlari nazariyasi nafaqat boshqaruv, xavfsizlik, merosga topshirish huquqlarini qo'shgan holda huquqlar to'plamini kengaytiradi, balki huquqlarning o'zlarining aylanuvchanligiga, oldi-sotdi ob'yektlari bo'lib buyumlarning o'zi emas, balki ularga nisbatan huquq hisoblanishiga e'tiborni qaratadi. Masalan, Er uchastkasidan foydalanish huquqi; mol-mulkdan foydalanishdan keladigan daromadni olish huquqi va b.

Xuquqshunoslarning fikricha, mulk – bu mutlaq huquq. Mulkdorga qonun bilan taqiqlanmagan hamma narsa ruxsat etilgan. Mutlaq huquq ijobiy cheklov emas, balki salbiy cheklov (nima mumkin emas) bilan yoritiladi. Agar huquqlarning muayyan to'plami, masalan, A.Onore tomonidan sanab o'tilgan 11 ta huquqning aksariyati ikkilamchi hisoblanadi. Misol uchun, xavfsizlik huquqini olaylik. Uning o'zi Etarli emas, chunki huquq faqat davlat tomonidan muhofaza qilingan taqdirda, klassik nuqtai nazardan huquq hisoblanadi. Voz kechish huquqi – bu tasarruf etish huquqining bir qismi. Javobgarlik huquqi mulkchilik huquqini emas, umuman fuqarolik huquqini o'zida namoyon etadi.

Iqtisodiy nuqtai nazardan turli huquqlarni hisoblab chiqish texnikasi o'ta samarali. Mulkdor, mulkdorligicha qolib, foydalanish huquqidan ham, boshqarish huquqidan ham, daromad olish huquqidan ham vaqtinchalik voz kechishi mumkin. Tovar esa nafaqat o'zining jismoniy xususiyatlarining yig'indisi sifatida, balki

imkoniyatlar va cheklovlarning ma'lum to'plami sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, boshqa muhim iqtisodiy mavhumlik singari – qiymat, mulk tarkibiy qismlarga bo'linadi, lekin ulardan tarkib topmaydi. Shuning uchun mulkchilikni huquqlarning murakkab tutami sifatida ta'riflash mazmunga emas, balki texnologik xususiyatga ega.


7.3. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari

Iqtisodiyotda, xususan mulkiy munosabatlar shakllarini o'rganishda mulkni tasniflash muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik iqtisodchilar va faylasuflar uchun tasniflash mezoni sifatida mulk subekti olinadi. Agar mulk bir shaxsga tegishli bo'lsa, u – xususiy. Agar u bir necha shaxsga tegishli bo'lsa – jamoaviy. Agar u butun jamiyatga tegishli bo'lsa – umumxalq yoki davlat mulki hisoblanadi. Bunday yondashuv G'arbdagi tadqiqotchilar uchun mulkning uchta shaklini ifodalashga asos bo'lgan.: xususiy, jamoaviy va ijtimoiy. Ba'zan ularga aksiyadorlik (korporativ) va davlat shakllari ham qo'shimcha qilinadi. Ba'zida aksiyadorlik mulkini jamoaviy shakl deb, davlat mulkini esa ijtimoiy shakl deb hisoblashadi. Lekin bundan mohiyat o'zgarmaydi.

- ixtiyoriy shakldagi mulkning namoyon bo'lishi qator omillarga bog'liq. Jumladan:

- mehnat sharoitlari va natijalarini o'zlashtirib olish usullari;
- mehnat sharoitlari va natijalarini tasarruf etish xususiyatlari;
- mehnat sharoitlarini takror yaratish;
- faoliyat turlari bo'yicha almashishning asosiy usuli;
- natijalari qayta taqsimlash usullari;

Mulkchilik munosabati tarixan qanday shakllarda rivojlanganligi katta qiziqish uyg'otadi (7.3.1-rasm).



7.3.1-rasm. Mulk shakllarining rivojlanishi

1. Mulkchilikning eng dastlabki shakli *jamoaviy mulk* G'arb huquqiy tizimining asos (antik taraqqiyot)ini tashkil etadi. U uchta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi:

- jamoaviy mulk jamiyatga – uni to'laqonli a'zolar deb tan oluvchi individlar yig'indisiga tegishli;
- jamoaviy mulkni qayta taqsimlash huquqi mutlaq jamiyatga tegishli;
- jamoaviy mulk jamoaviy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Jamoaviy mulkning asosiy tavsiflari quyidagilardan iborat:

- a) boshqarish (taqsimlash) ijtimoiy;
- b) egalik qilish xususiy;
- v) jamoaviy mulk ob'ektidan voz kechish taqiqlangan;
- g) ijtimoiy majburiyatlar tizimi;
- d) ishlab chiqaruvchining o'z faoliyati natijalariga mulkchiligi.

Jamoaviy mulkning rivojlanishi davlatchilikni yuzaga keltirgan. Ushbu bosqichida davlat majbur etish apparati sifatida hali jamiyatga qarshi turmaydi.

2. **Oliy mulk** davlat mulkining dastlabki shaklidir. Davlatni tashkil etish ko‘p hollarda mulkni, masalan, Erni zo‘rlik bilan tortib va bosib olishlar oqibati bo‘lgan. Oliy mulkning asosiy tavsiflari quyidagilardan iborat:

- a) mulk va hokimiyatning bo‘linmasligi;
- b) xizmat uchun mukofot sifatida resursni hadya qilish shaklida faoliyat bilan almashish;
- v) mehnat sharoitlarini ishlab chiqaruvchilarga biriktirish (xususiy egalik);
- g) biriktirilgan resurslarni tasarruf etish uchun davlat monopoliyasi;
- d) ishlab chiqaruvchining o‘z faoliyati natijalariga mulkchiligi.

Davlat boshlig‘i bunday mulkning «oliy mulkdoriga» aylangan va ularni o‘z fuqarolariga tarqatgan (hadya qilgan). Erni egalikka olish va undan foydalanish sharti davlatga xizmat qilishdan iborat bo‘lgan. Oliy hokimiyat ixtiyorida eng muhim ta’sir etish vositasi – tortib olish (tasarruf etish) huquqi qoldirilgan. Bu bir vaqtning o‘zida ikkita o‘zaro bog‘liq vazifani hal etish imkonini bergan: ishlab chiqaruvchining ehtiyojlarini qondirish va ishlab chiqaruvchini o‘zi foydalanadigan resursni takror Etishtirishga majbur qilish.

Asta-sekin vaqt o‘tishi bilan oliy mulkchilik instituti sharoitida, davlat monopoliyasi xo‘jalik faoliyati mahsulotlari bilan almashuv rivojlanishiga to‘sqinlik qila boshlagan. Iqtisodiy ehtiyojlarning ta’siri ostida mulkchilik instituti o‘zgara boshladi. Natijada turli ishlab chiqarish usullariga xos bo‘lgan ikki xil institut shakllandi: tabaqali va ko‘p pog‘onali mulk.

3. **Tabaqali mulk** – oldingi davrda asosiy mehnat sharti bo‘lgan tabiiy resurslarga tabaqali monopoliyalarning shakllanishi bilan tavsiflanadi, dvoryanlarning o‘zlariga «biriktirilgan» mol-mulkni tasarruf etish huquqining kengayib borishi bilan izohlanadi.

Tabaqali mulkchilikning asosiy xususiyatlari:

- a) mulkdorlar sinfining paydo bo‘lishi;
- b) ishlab chiqarish vositalari cheklangan aylanmasining paydo bo‘lishi;
- v) hokimiyat huquqlariga nisbatan mulkiy huquqlarning cheklangan xususiyati;

g) ishlab chiqaruvchining o'z faoliyati natijalariga mulkchiligi;

d) mulkdan olinadigan daromadni qayta taqsimlash yangi shaklining paydo bo'lishi. Rivojlanishning Evropa modeliga xos bo'lgan tabaqali mulkchilik instituti davlat mulkchiligidan xususiy mulkchilikka o'tish bosqichi sifatida ta'riflanadi.

4. **Xususiy mulkchilik** individning jamoaviy xo'jalik faoliyatidan ajralib chiqishini o'zida namoyon etadi va quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- iqtisodiy agentlarning mustaqilligi;
- mehnat sharoitlari va natijalarining erkin aylanishi;
- hokimiyat huquqlariga qaraganda mulkiy huquqlarning Etarliligi;
- mulkdorning mulkiy javobgarligi.

Xususiy mulk institutining shakllanishi tobelikning yangi shakli – iqtisodiy tobelikning paydo bo'lishiga olib keldi. Xodimning ishlab chiqarish vositalaridan ajralishi bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchining o'z mehnatining mahsuliga bo'lgan huquqidan mahrum etilishi yuz berdi.

5. **Korporativ mulk**. Ko'plab tadqiqotchilar korporativ mulkni xususiy mulk bilan tenglashtirib, korxonani tashkil etishning korporativ shaklini mulkiy majmuani ishonchli boshqarish shakli sifatida talqin etishni taklif qilishadi. Korporativ mulkchilikning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat: mulkning ayrim shaxslarga taqsimlanganligi; iqtisodiy agentlarning tobelik munosabatlari; iqtisodiy agentlar javobgarligining cheklanganligi; qayta taqsimlash munosabatlari sohasida mulkdan keladigan daromadlar rolining keskin ortishi; mulkdor – korporatsiya huquqlarini bilvosita himoyalash orqali mehnat sharoitlarini takroriy yaratish.

6. **Ijtimoiy mulk**. Ijtimoiy mulk yuridik va jismoniy shaxslar mulki bilan birga mavjud bo'ladi. Jamiyat mulki, ko'p holatlarda davlat tomonidan boshqarilishiga qaramay, unga tegishli emas. Jamiyatning muammosi resurslarni takroriy ishlab chiqarish va mulkdan daromad – monopol rentani olish ustidan nazorat o'rnatishdan iborat.

Ijtimoiy mulkchilikning asosiy xususiyatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- a) jamiyatning hokimiyat apparati sifatida davlatdan ajratilishi;

- b) jamiyatning tabiiy resurslarga monopoliyasi;
- v) ijtimoiy mulk ob'yektlaridan foydalanishning konsession mexanizmi;
- g) ishlab chiqaruvchining o'z faoliyati natijalariga mulkchiligi;
- d) ijtimoiy mulkdan keladigan daromadlardan jamiyat a'zolarining ijtimoiy ahamiyatli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish.

7. ***Ko'p pag'onali mulkchilik***ning vujudga kelishi mulkdor vakolatlarining turli xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasida taqsimlanishi jarayonini o'zida namoyon etadi. ***Ko'p pag'onali*** mulkchilikning asosiy xususiyatlari:

- a) mol-mulk va hokimiyatning ajratilmaganligi;
- b) mol-mulk uchun to'liq huquqlariga ega bo'lgan shaxslarning mavjud emasligi;
- v) mulkdor vakolatlarini amalga oshirishda ishtirok etishning xizmat xususiyati;
- g) ular o'rtasida mulkchilik vakolatlari taqsimlanadigan sub'yektlar o'rtasidagi tobelik munosabatlari;
- d) mehnat sharoitlarining ishlab chiqaruvchilarga birlashtirilishi.

Ta'kidlash lozimki, ***ko'p pag'onali*** mulkchilik instituti barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning mehnat sharoitlarini tasarruf etishdagi huquqlarini sezilarli darajada cheklagan holda, mehnat natijalarining erkin aylanishini istisno etmadi. Demak, tabiiy resurslar emas, balki xo'jalik faoliyatining mahsulotlari ishlab chiqarishning asosiy vositalariga aylanishiga qarab mazkur institutning iqtisodiy asosi nuray boshladi. Lekin bu noiqtisodiy majburlashga asoslangan hokimiyat o'z mavqeini osongina bo'shatib berganligini anglatmaydi. ***Ko'p pag'onali*** mulkchilik instituti o'z shaklini o'zgartirdi. Tarixga ushbu o'zgarishning ikkita yo'nalishi ma'lum: totalitar va byurokratiya mulkchiligi.

9. ***Totalitar mulkchilikka*** sobiq SSSRda mavjud bo'lgan «davlat mulkchiligi» instituti yaqqol misol bo'ladi.

Totalitar mulkchilikka mos keluvchi rejali-taqsimlash iqtisodiyotida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'zlariga birlashtirilgan mol-mulkka faqat amalda egalik qilishadi va o'zlari ishlab chiqargan mahsulotning ham, uni sotishdan olingan

mablagʻlarning ham egasi hisoblanmaydi. Totalitar mulkchilikning asosiy xususiyatlari:

hokimiyat va mulkning ajratilmasligi;

ishlab chiqarish vositalariga davlat monopoliyasi;

- mehnat sharoitlarining xoʻjalik yurituvchi subʻyektlar oʻrtasida markazlashgan tarzda qayta taqsimlanishi;

- ishlab chiqaruvchining oʻzi Etishtirgan mahsulot va uni sotishdan olinadigan daromadni tasarruf etish huquqidan mahrum etilishi;

- mehnat sharoitlarini markazlashgan rejalashtirish mexanizmi yordamida takroriy yaratish.

9. Byurokratiya mulkchiligi koʻp pagʻonali mulkchilik rivojlanishining tabiiy mahsuli hisoblanadi. Ishlab chiqarish emas, balki qayta taqsimlash katta miqdordagi pullarni paydo qiladi. Uning asosiy xususiyatari:

a) mulkchilik huquqlarini himoya qilishning samarali tizimi mavjud emasligi;

b) resurslar va mahsulotlarni qayta taqsimlash jarayonida amaldorlar ishtirokining qonunchilikda belgilangan imkoniyati;

v) narxlar va tariflarning byurokratik tartibga solinishi;

g) xufyona iqtisodiyotning katta ulushi;

d) mehnat sharoitlarini takror yaratish samarali mexanizmining mavjud emasligi.

Hokimiyat va mulkning ajralmasligining rasman tan olinishi bilan xususiy mulkchilik huquqini buzmasdan qolmaydi. Noiqtisodiy majburlashga asoslangan hokimiyat mulkdorning erkin irodasiga qaraganda iqtisodiy hayotning muhim omili hisoblanadi. Hokimiyat tuzilmalarida ishtirok etish orqali beriladigan imkoniyatlar xoʻjalik faoliyatidan kelib chiqadigan imkoniyatlarga qaraganda ancha yuqori. Hokimiyaga ega boʻlgan amaldorlar shaxsiy boyligni koʻpaytirish uchun hokimiyat imkoniyatidan foydalanishadi. Lekin hokimiyat oʻz egasiga mulkdan koʻra koʻproq narsani beradi, ularning saʼy-harakatlari birinchi navbatda

hokimiyatni saqlab qolishga yoʻnaltirilgan. Hokimiyatni yoʻqotib, ular, odatda, mulkni ham yoʻqotishadi.

7.4. Mulkiy xuquqlar

1. *Mulk-egalik qilish. Mulkdor.* Egallik qilish ijtimoiy institut sifatida noyob resurslarni takroriy Etishtirish vazifasi paydo boʻlgan vaqtda yuzaga keladi. Dastlab mehnat sharoitlari egallik qilish obʻekti hisoblanadi.

2. *Mulk-imtiyoz. Monopolist.* Vaqti kelib ijtimoiy-iqtisodiy rol ikkita yangi rolga boʻlinadi: tabiiy resurslar mulkdorining roli va ishlab chiqaruvchining roli. Egallik qilish huquqi foydalanish huquqidan, egallik qilish obʻekti esa xoʻjalik yurituvchi subʻektdan ajralib chiqadi. «Mulk-imtiyoz» tushunchasi paydo boʻladi. Bu Erda mulkdor-monopolistning renta – oʻziga tegishli resurslardan daromad olish huquqiga duch kelamiz.

Mulk-imtiyoz aholining maʼlum qismi peshona terisi bilan oʻzining tirikchiligi uchun non topish majburiyatidan ozod boʻlishi uchun imkoniyat, yaʼni fan, sanʼat va harbiy ishni rivojlantirish imkoniyati yaratadi.

Ishlab chiqaruvchi. Xoʻjalik faoliyatini amalga oshiruvchi-ishlab chiqaruvchining shaxsiy maqsadi oʻz ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Koʻplab xoʻjalik yurituvchi subʻyektlar shaxsiy maqsadlariga erishishga intilish natijasida ijtimoiy ahamiyatga molik missiyaning amalga oshishi – jamiyatni takroriy ishlab chiqarish sodir boʻladi.

3. *Mulk-korxonona.* Tovar almashuvining rivojlanishi rollarning yangidan boʻlinishiga dastlabki tarixiy sabab hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchining tabiiy huquqi hisoblangan mahsulotga boʻlgan huquq ishlab chiqarish vositalarining mulkdori – xoʻjayinga oʻtadi.

Xususiy mulk majburlashga asoslangan hokimiyatni hamda obroʻga asoslangan hokimiyatni tarixning chetiga siqib chiqaradi. Mulk-korxonaning paydo boʻlishi bilan birga yollanma xodim va xoʻjayin, ishlab chiqarish vositalariga boʻlgan mulkchilikdan mahrum etilgan va oʻzining mehnat qobiliyatini sotishga

majbur bo'lgan iqtisodiy agent hamda xo'jalikning yangi xili – korxonani tashkil etuvchi iqtisodiy agentning roli paydo bo'ladi.

Xo'jayin. Xo'jayinning shaxsiy maqsadi – qo'shimcha qiymatni olishdan iborat. Bu uni iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beruvchi barcha yangi narsalarni joriy etishga undaydi. Xo'jayin o'ta muhim ijtimoiy-iqtisodiy missiya – iqtisodiy faoliyatni ratsionalashtirish egasiga aylanadi.

Yollanma xodim. Xodim – bu faqat o'zining mehnat qilish qobiliyati uning huquqining ob'ekti hisoblangan individ (ishchi kuchi). Lekin bu qobiliyat, so'zsiz, uning o'ziga tegishli, ya'ni xodimning o'zi kimningdir huquqlarining ob'ekti hisoblanmaydi. U: a) erkin tanlash huquqini qo'lga kiritadi va b) o'z faoliyatining mahsulotlariga bo'lgan huquqni yo'qotadi. Xodimning ijtimoiy-iqtisodiy missiyasi mehnatni taqsimlash samaradorligini oshirishdan iborat.

4. Mulk-kapital. Mulk-imtiyoz holatida bo'lgani kabi mulk-korxonaga o'z egasiga qo'shimcha mahsulotni o'zlashtirib olish huquqini beradi. Albatta, endi ushbu mahsulot ortiqcha mahsulotda emas, balki qo'shimcha qiymat – korxonaga xo'jalik faoliyatining xarajatlari va natijalari o'rtasidagi farq shaklida namoyon bo'ladi. Mulk-kapital paydo bo'lishi bilan xo'jayinning roli kapitalist va menejer, taqsimlash jarayonini nazorat qiluvchi iqtisodiy agent hamda ishlab chiqarish jarayonining o'zining tashkilotchisi rollariga bo'linadi.

Kapitalist. Kapital egasi xo'jayin singari qo'shimcha qiymat olishdan manfaatdor. Lekin ishchi kuchini ishlab chiqarish vositalari bilan birlashtirish emas, balki kapitalni to'g'ri sarflash kapitalist uchun ushbu qiymatni olish usuli hisoblanadi.

Menejer. Kapitalistga menejer – ishlab chiqarish jarayonining rahbari, xo'jayin funksiyasini bajaruvchi, lekin mulkni yo'qotish xatariga ega bo'lmagan iqtisodiy agent qarama-qarshi turadi.

Menejering ijtimoiy-iqtisodiy roli va yollanma xodimning roli o'rtasida o'ta muhim farq mavjud. Xodim o'z ishchi kuchini – mehnat qobiliyatini, menejer esa ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilish bo'yicha xizmatni sotadi. Bitim tuzilgach, xodim ijrochiga, menejer esa korxonaga rahbariga aylanadi. Menejer

daromadining asosini u rahbarlik qiladigan korxonada faoliyatining natijalari uchun mukofot tashkil qiladi.

5. Mulk-biznes. Tadbirkor. Mulk miqdori «qiymat» degan mavhum tushunchaga aylangan sharoitda sahnaga yangi shaxs – tadbirkor va yangi mulk ob’ekti – biznes chiqadi. Chunki nafaqat mehnat, Er va kapital, balki faoliyatning alohida turi – tadbirkorlik ham «qiymatni yaratish» xususiyatiga ega. Shaxsiy boyish masalasini hal etayotib tadbirkor munosib ijtimoiy missiya iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishni amalga oshiradi. U topgan yangi qarorlar asta-sekin ijtimoiy normaga aylanadi. Lekin yangi qarorlar – bu nafaqat yangi imkoniyatlar, balki yangi xatarlardir. Bir vaqtning o’zida mulkdor va tadbirkor sifatida ishtirok etuvchi mulkdor-sarmoyador qismlarga ajrala boshlaydi. Shu tariqa tadbirkor asta-sekin mulkdordan ajralib chiqadi. Unda hatto o’zining, mulkdordan alohida mulk ob’ekti – biznes paydo bo’ladi.

Sarmoyador. Tadbirkorning o’zga mulkka bo’lgan talabi kapitalni qiymatga ega bo’lgan cheklangan resursga aylantiradi. Bir vaqtning o’zida tadbirkorlik faoliyatidan voz kechgan va o’ziga tegishli cheklangan resurs – kapitaldan foydalanish huquqini to’lov evaziga sotuvchi sarmoyador-mulkdorning ijtimoiy-iqtisodiy roli paydo bo’ladi. Sarmoyadorning shaxsiy maqsadi mulkdan (kapitaldan) olinadigan daromadni ko’paytirishdan iborat.

6. Mulk-talab. Sarmoyador rolining ichki qarama-qarshiligi shu narsa bilan bog’liqki, tadbirkorlik faoliyati yukini ko’tarishni istamagan holda, u istar-istamas ushbu faoliyat bilan bog’liq mulkni yo’qotish xatarini o’z zimmasiga oladi. O’z navbatida, bu mulkdan oladigan daromadning ikkita tarkibiy qismni o’z ichiga oladi: cheklangan resurs uchun to’lov va xatar uchun to’lov.

Sarmoyador rolining ushbu ikki taraflamaligi oqibati – yana bir bo’linish: ishtirokchi roli va kreditor roli, tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etish maqsadini ko’zlovchi sarmoyador va mulkni yo’qotish xatarini kamaytiruvchi sarmoyador rolining paydo bo’lishi.

Ishtirokchi – bu mol-mulkka nisbatan mulkchilik huquqidan jamiyatga nisbatan talab huquqi evaziga voz kechuvchi iqtisodiy agent. O’z navbatida

jamiyatning o‘zi va uning mol-mulki emas, balki xo‘jalik jamiyatiga nisbatan majburiyat huquqlari ishtirokchining mulki hisoblanadi.

Ishtirokchining shaxsiy maqsadi – jamiyatning foydasida ishtirok etishdan iborat. Tegishlixa u bu bilan bog‘liq xatarlarning bir qismini o‘z zimmasiga oladi. Natijada mazkur loyihalar xatarlarini ko‘plab ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash asosida o‘ta qimmat va uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Ishtirokchining ijtimoiy-iqtisodiy missiyasi, shu tariqa, xatarlar va javobgarlik dispersiyasidan iborat.


Kreditor. Agar sarmoyador – bu tadbirkorlik roldan voz kechgan kapitalist bo‘lsa, u holda kreditor – bu tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq xatarlardan voz kechgan sarmoyadordir. Professional moliyaviy vositachilardan foydalanish esa xatarlarni pasaytirish usuli hisoblanadi.

7. Mulk-aksiya. Jamiyatning ko‘p sonli ishtirokchilari nafaqat uning xo‘jalik faoliyati natijalari uchun javobgarlikning, balki boshqaruvchilar tomonidan ishtirokchilar ishonchining suiiste‘mol qilinishi imkoniyatining ham taqsimlanishini yuzaga keltiradi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy rol paydo bo‘ladi: nazoratchi – xo‘jalik jamiyatiga nisbatan alohida funksiyalarni: jamiyat mol-mulki va daromadlarining tasarruf etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi uning ishtirokchisi.

Nazoratchining shaxsiy maqsadi xo‘jalik jamiyatini kapitallashtirishning o‘shiga erishishdan iborat.

Aksiyador. Jozibadorligini yo‘qotayotgan biznesdan chiqish ham xo‘jalik jamiyatlarining faoliyati bilan bog‘liq xatarlarni soddalashtirish usuli hisoblanadi. Ushbu imkoniyat jamiyatda ishtirok etishning alohida vositasi – aksiyalarning paydo bo‘lishi bilan ta‘minlanadi.

Rasmiy jihatdan aksiyalar o‘z egalariga jamiyatga nisbatan majburiyat huquqlarini, xususan: boshqaruv organlarida ishtirok etish huquqi, jamiyat foydasining bir qismini olish huquqi va jamiyat tugatilgan taqdirda uning mol-mulkinging bir qismiga ega bo‘lish huquqini beruvchi qimmatli qog‘ozlarni o‘zida namoyon etadi (qarang: 7.4.1-rasm).



7.4.1-rasm. Mulkiy huquqlar.

Biroq ushbu huquqlar ko'p jihatdan deklarativ hisoblanadi. Boshqarishda ishtirok etish huquqini faqat aksiyalarning katta miqdordagi paketlariga egalik qiluvchi aksiyadorlar – majoritariylar amalga oshirishlari mumkin. Jamiyat tugatilgan taqdirda uning mol-mulkining bir qismini olish huquqini esa amalga oshirishning iloji yo'q: jamiyatga nisbatan aksiyadorlar ularning talablari ijro etish uchun qolgan barcha shaxslar qondirilganidan keyin qabul qilinadigan so'nggi navbatdagi kreditorlarni o'zida namoyon etishadi.

Aksiyadorlarining kompaniyadan chiqishi tufayli yuzaga kelgan uning aksiyalari kursining tushib ketishi yangi investitsiyaarni jab etish imkoniyatini keskin pasaytiradi.

Aksiyadorning shaxsiy maqsadi muayyan kompaniyani kapitallashtirishning o'sishi emas, balki o'ziga tegishli aksiyalar paketlarining kurs qiymatidan yutishdan iborat. Ushbu maqsadga aksiyalar bozor kotirovkalarining o'zgarishi

tendensiyalarini doimiy ravishda kuzatish orqali erishiladi. Bu esa, o‘z navbatida, aksiyador ijtimoiy-iqtisodiy missiyasining amalga oshirilishiga olib keladi. Uning sa’y-harakatlar tufayli kapital harakatining tezligi keskin oshadi.

7.5. Mulkiy xuquqlar taqsimotining tahlili

Barqaror bozor iqtisodiyotiga ega huquqiy-demokratik jamiyat qurishning asosiy yo‘nalishlaridan biri – chuqur institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishdan iborat. Bunda nafaqat eski markazlashgan iqtisodiyot institutlarini isloh qilish, balki iqtisodiy munosabatlarning o‘zagini tashkil etuvchi mulkchilik va shartnomaviy munosabatlarni ham bozor iqtisodiyotiga mos ravishda takomillashtirish talab etiladi. Bu boradagi amaliy ishlar mamlakat mustaqilligining dastlabki yillaridanoq boshlangan edi va hozirgi pallada o‘zining yuqori bosqichiga ko‘tarilib bormoqda.

“2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi”da “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulk huquqini himoya qilish va uni ustuvor mavqeini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojini rag‘batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish:

xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minlash, barcha turdagi to‘siq va cheklovlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivojiga to‘liq erkinlik berish, «Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi» degan prinsipni amalga oshirish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik tuzilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan noqonuniy aralashuvlarning qat’iy oldini olish;

davlat mulkini xususiylashtirishni kengaytirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi sub’yektlarning ustav jamg‘armalarida

davlat ishtirokini kamaytirish, davlat mulki xususiylashtirilgan ob'yektlar bazasida xususiylashtirishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

investitsiya muhitini takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlariga va hududlariga xorijiy, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish;

korporativ boshqaruvning zamonaviy standart va usullarini joriy etish, korxonalarini strategik boshqarishda aksiyadorlarning rolini kuchaytirish;

tadbirkorlik sub'yektlarining muhandislik tarmoqlariga ulanishi bo'yicha tartib-taomill va mexanizmlarni takomillashtirish va soddalashtirish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarini tartibga solishda davlat ishtirokini kamaytirish, davlat boshqaruvi tizimini markazlashtirishdan chiqarish va demokratlashtirish, davlat-xususiylashtirish sheriklikni kengaytirish, nodavlat, jamoat tashkilotlari va o'zini o'zi boshqarish organlarining rolini oshirish"¹ kabi vazifalar belgilangan.

Ma'lumki, mulkchilik munosabatlari ishlab chiqarish munosabatlarning negizini tashkil etadi. Mulchilik munosabatlarning tarkibi mulkchilik instituti bilan bog'liq. Mulchilik instituti mohiyatiga ko'ra ijtimoiy institut bo'lib, insonlarga o'z orzu-umidlarini shakllantirish imkonini beradi. Mulchilik instituti mulkiy huquqlardan iborat bo'lib, ushbu huquqlarni bilish insonlarga istiqboldagi o'zlari munosabatga kirishadigan boshqa insonlarning xatti-harakatlari hamda foyda va xarajatlarni hisoblashga imkon beradi. Bunday huquqlar mavjud bo'lmaganda edi, insonlar o'z hamkorlarini xatti-harakatlarini oldindan hisobga olishlari mumkin bo'lmas edi.


Ana shularni inobatga olib, O'zbekistonda mulkiy huquqlarni amalga oshirishni tartibga soluvchi bir qator qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularda mulkiy huquq sub'yektlari (fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat), mulkiy huquq

¹ 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегияси//Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг 1-илоvasи.


ob'yektlari (er, Er osti boyliklari, suvlar, havo bo'shlig'i, o'simlik va hayvonot dunyosi, boshqa tabiiy resurslar, korxonalar, ashyolar, shu jumladan binolar, kvartiralar, inshootlar, asbob-uskunalar, homashyo va mahsulot, pul, qimmatli qog'ozlar va boshqa mol-mulk, shuningdek intellektual mulk), mulkiy huquq turlari (egalik qilish, foydalanish va tasarruf qilish) hamda uni amalga oshirish qoidalari va himoyalash kafolatlari majmui qabul qilindi. Ular 7.5.1-rasmda keltirilgan.

Iqtisodiy nuqtai nazardan mulk ob'ektiga nisbatan mavjud mulkiy huquqlardan foydalangan holda ushbu ob'ektni samarali ishlatilishiga erishadigan mulk egasini topish mulkiy munosabatlarni o'zgartirishning asosiy mohiyatini ifodalaydi. Mulkiy munosabatlarni o'zgartirish institutsional islohotlar vositasida amalga oshiriladi. Uning mexanizmi mulkiy huquqlar taqsimotini amalga oshirishdan iborat. Chunki mulkiy huquqlar iqtisodiy nazariyasiga ko'ra jamiyatda sodir etiladigan har qanday almashuv akti bu – mulkiy huquqlar bilan almashuvdir.

O'zbekistonda mulk xususiy va ommaviy shaklda bo'ladi. Xususiy mulk huquqi shaxsning qonun hujjatlariga muvofiq tarzda qo'lga kiritgan mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidir. Ya'ni xususiy mulk shaklida yuqoridagi mulk huquqlar bir shaxs (jismoniy va/yoki yuridik shaxs)da jamlanadi (7.5.2-rasm), shuning uchun ham ushbu mulk shakli samaraliroq hisoblanadi. Chunki, bozor iqtisodiyotida o'zaro munosabatlar turli mulk shakllariga asoslangan sub'yektlar o'rtasida olib boriladi. Ularning har biri o'z mulkiy huquqlari va o'z manfaatlariga ega. Ularning mulkiy huquqlari juda aniq belgilangan, uning himoyasi qonun bilan kafolatlangan taqdirda o'zaro bitimga kelishish oson kechadi. Bu mulkiy huquqlar o'zining haqiqiy egalari, mulkdan eng unumli tarzda foydalana oladiganlar qo'lga o'tishi uchun ham muhimdir.



7.5.1-rasm. O‘zbekistonda mulkdorlar va ularning mulkiy huquqlarni amalga oshirish¹



7.5.2-rasm. O‘zbekistonda xususiy mulk egalari sub’yektlari²

O‘zbekiston qonunchiligida, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, mulkiy huquqlarning uch turi keltirilgan. Lekin rivojlangan bozor iqtisodiyoti amal qilayotgan mamlakatlarda amalda bo‘lgan umumiy huquqda yanada ko‘proq mulkiy huquqlar ajratiladi. Chunki, iqtisodiy agentlarning bozor tamoyillari nuqtai nazaridan o‘zaro aloqalari murakkab hodisa bo‘lib, u mulkiy huquqlarni chuqurroq aniqlashtirishni talab qiladi. Yuqorida bayon etilganidek, mulkiy huquqlar A.Onore ro‘yxati bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi: egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi, tasarruf qilish yoki boshqarish huquqi, o‘zlashtirish huquqi, kapital qiymat huquqi, xavfsizlik huquqi, ashyoning meros yoki vasiyat bo‘yicha o‘tishiga

¹ Расм Ўзбекистон Республикаси “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги қонуни ва Фуқаролик Кодексига асосан тузилган

² Расм Ўзбекистон Республикасининг “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги Қонуни ва Фуқаролик Кодексига асосан тузилган

bo‘lgan huquq, muddatsizlik huquqi, zararli foydalanishni taqiqlashga bo‘lgan huquq, o‘ndirish ko‘rinishidagi javobgarlik huquqi, qoldiq xususiyat huquqi. Mulkiy huquqlarni aniqlashga bunday yondashish bozor iqtisodiyoti sharoitida individlar o‘rtasida resurslardan foydalanish bo‘yicha har qanday murakkab muzokaralarni olib borish va bitishuvga kelishda samarali hisoblanadi. Chunki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatida keng quloch yoyayotgan ijara, lizing, franchayzing kabi shakllari mulkiy huquqlarni yanada ko‘proq sub’yektlar o‘rtasida taqsimlanishini taqozo etadi. Demak, yuqoridagi huquqlarni ulardan eng umumli foydalanuvchi sub’yektlarga aniq mustahkamlanishi transaksion xarajatlarni qisqartiradi va samarali xo‘jalik yuritishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Davlat korxonalarini xususiylashtirish Davlat dasturlariga muvofiq ochiq aksiyadorlik jamiyati doirasida mulkiy huquqlarning taqsimoti turli variantlari nazarda tutildi. Masalan, mehnat jamoasining a‘zolari aksiyalar umumiy ulushida 10 foizdan oshmaydi, lekin har bir xodim aksiyalarni olish huquqiga ega hisoblanadi. Natijada, mulk subektlari va huquqlarining taqsimlanishi quyidagi 7.5.1-jadvaldagi ko‘rinishiga ega.

7.5.1-jadval

Ochiq aksiyadorlik jamiyati aksiyalariga bo‘lgan mulkiy huquqlarning taqsimlanishi*

Mulkiy huquq turlari	Mulkiy huquq sub’yektlari			
	Aksiyador, korxonaxodimi	Aksiya-dorlar yig‘ilishi	Ijro etuvchi organ, korxonadireksiyasi	Davlat mulki qo‘mitasi
Egalik qilish huquqi	+		+	+
Foydalanish huquqi	+		+	+
Tasarruf etish huquqi	+		+	+
Daromad olish huquqi	+		+	+
Kapital qiymat huquqi		+		

Xavfsizlik huquqi			+	+
Meros va vasiyatnoma bo'yicha o'tish huquqi	+			
Muddatsizlik huquqi	+			
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi				+
O'ndirish ko'rinishidagi javobgarlik huquqi	+	+		
Qoldiq xususiyat huquqi		+		

*Jadval O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni asosida tuzilgan

Mulkiy huquqlarning 7.5.1-jadvaldagi taqsimlanishi birlamchi taqsimot bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda, ya'ni huquqlarning har biri undan samarali foydalanishdan manfaatdor bo'lgan mulkdorning qo'lida bo'lgan vaziyatda mulkning optimal tarkibiga erishish muhim o'rin tutadi. U yoki bu imkoniyatli mulkdorning mulkiy huquqlaridan samarali foydalanishdan manfaatdorlik darajasi haqida mulohaza yuritishda Kouz teoremasi¹ asos bo'lib xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, mulkiy huquqlarning dastlabki taqsimlanishi ishlab chiqarishning tarkibiga ta'sir o'tkazmaydi, chunki pirovardida huquqlarning har biri ushbu huquqdan eng samarali foydalanish asosida u uchun eng yuqori narxni taklif etishga qodir bo'lgan mulkdorning qo'lida bo'ladi. Endi bu holatni xususiy korxonalar misolida ko'rib chiqamiz. Amaldagi qonunchilikka² asosan xususiy korxonalar mulkdori bilan uning ishchilari o'rtasida mulkiy huquqlar taqsimoti 7.5.2-jadvalda keltirilgan shaklda namoyon etilishi mumkin.

7.5.2-jadval

¹ Agar mulkiy huquqlar aniq taqsimlanib, transaktsiya xarajatлари nolga teng бўлса, у ҳолда, агар даромад самарасидан фикрни бошқа томонга бурсак, mulkiy huquqlarning taqsimlanishiдаги ўзгаришлардан қатъи назар, ишлаб чиқаришнинг таркиби ўзгармасдан қолади.

² Ўзбекистон Республикасининг "Хусусий корхона тўғрисида"ги қонуни. 11 декабр 2003 йил.


**Xususiy korxonalarda ustav fondiga bo‘lgan mulkiy huquqlar
taqsimoti***

Mulkiy huquq turlari	Mulkiy huquq sub'yektlari		
	Korxon boshlig‘i (direktori)	Korxon ishchilari (xodimlari)	Davlat
Egalik qilish huquqi	+		
Foydalanish huquqi	+	+	
Tasarruf etish huquqi	+		
Daromad olish huquqi	+	+	
Kapital qiymat huquqi	+		
Xavfsizlik huquqi	+		+
Meros va vasiyatnoma bo‘yicha o‘tish huquqi	+		
Muddatsizlik huquqi	+		
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi	+		
O‘ndirish ko‘rinishidagi javobgarlik huquqi	+	+	
Qoldiq xususiyat huquqi	+	+	

* Jadval O‘zbekiston Respublikasining “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi hamda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunlari hamda Fuqarolik Kodeksi asosida tuzilgan.

Xulosa qilib aytganda, mulkiy huquqlarning bo‘linish va ma’lum bir uyg‘unlikda birlashish xususiyatlari bois ular tarkibidagi har qanday o‘zgarish iqtisodiy rag‘batlar tizimida ham shunga mutanosib siljishlarga olib keladi. Bu esa xo‘jalik jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlarida ham ma’lum o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Demak, mulkiy munosabatlar xo‘jalik yuritishning harakatlantiruvchi omili bo‘lib, turli xo‘jalik yuritish tizimlari uchun o‘ziga xos mulkiy munosabatlar shakllanadi. O‘zbekistonda fermer xo‘jaliklariga qarashli

mol-mulk va ularga boʻlgan mulkiy huquqlar davlat himoyasida. Ular mol-mulkiga quyidagilar kiradi: binolar, inshootlar, qishloq hoʻjalik ekinzorlari va koʻchatzorlari, dov-daraxtlar, chorva mollar, parrandalar, Etishtirgan mahsulot, qishloq xoʻjalik texnikalari, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablagʻlari, intellektual mulk obʻektlari va boshqalar (7.5.3-rasm).



7.5.3-rasm. Fermer xoʻjaliklarida mulkiy huquqlar obʻyektlari

tarkibi*(Manba: 2004 yil 26 avgustda qabul qilingan "Fermer xoʻjaligi toʻgʻrisida"gi Qonun asosida tuzilgan).

Fermer xoʻjaliklarida Erga boʻlgan mulkiy huquqlarni tahlil qiladigan boʻlsak, bu Erda mulkiy huquqlar ikkita subʻekt – fermer xoʻjaligi va davlat oʻrtasida taqsimlangan (7.5.3-jadval).

7.5.3-jadval.

Fermer xo‘jaliklarida Erga bo‘lgan mulkiy huquqlar taqsimoti*

Mulkiy huquq tur lari	Fermer xo‘jaligi	Davlat
Egalik qilish huquqi	-	16 -m. EK
Foydalanish huquqi	13 -m. Fxq, 53 –m. EK	-
Tasarruf etish huquqi	-	16 -m. EK
Daromad olish huquqi	17-m. Fxq, 173 m. FK	-
Kapital qiymat huquqi	-	16 -m. EK
Xavfsizlik huquqi	17 -m. Fxq	-
Meros va vasiyatnoma bo‘yicha o‘tish huquqi	13 , 21 -mm. Fxq	-
Muddatsizlik huquqi	-	10,16 -m. EK
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi	-	36 -m. EK, 173 -m. FK
O‘ndirish ko‘rinishidagi javobgarlik huquqi	227 -m. FK	16 -m. EK
Qoldiq xususiyat huquqi	-	36 -m. EK

Izoh: FK – O‘z Fuqarolik Kodeksi, EK – O‘zR Er Kodeksi, Fxq – O‘zR “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonuni, m. – modda.

*Manba: Amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida tuzilgan

Ma’lum muddatga ijaraga olingan Er uchastkasi uchun fermer tomonidan davlatga ijara haqi to‘lanadi. Davlat, o‘z navbatida, fermerning Er uchastkasiga bo‘lgan huquqini shu muddat ichida mustahkam himoyasini ta’minlaydi. Ya’ni bu holatda fermer uchun ushbu huquqlarni o‘z ichki imkoniyatlari bilan

himoyalashdan ko‘ra, bu vazifani davlatga yuklab, o‘zi ijara haqi to‘lagani foydaliroqdir.

Ma’lumki, fermer xo‘jaliklari mavsum paytida turli qishloq xo‘jaligi texnikasi (mashina, traktor va boshqa transport vositalar)ga muhtojlik sezadi. Tegishli texnikani lizing orqali olish ushbu muammoning samarali Echimi hisoblanadi. Lizing orqali olingan texnikaga bo‘lgan mulkiy huquqlarning taqsimoti 7.5.4-jadvalda ko‘rsatilgan.

7.5.4-jadval.

Fermer xo‘jaliklarida lizing orqali olingan texnikaga bo‘lgan mulkiy huquqlar taqsimoti*

Mulkiy huquq tur lari	Lizing oluvchi (fermer xo‘jaligi)	Lizing beruvchi tashkilot (kompaniya)	Lizing sotuvchi muassasa (bank)
Egalik qilish huquqi	589 -m. FK, 2 -m. Lq	-	-
Foydalanish huquqi	589 -m. FK, 2 -m. Lq	-	-
Tasarruf etish huquqi	-	597 -m. FK, 11 - m.Lq	598 -m. FK
Daromad olish huquqi	183 -m. FK, 6 -m. Lq	590 -m. FK, 22 -m.Lq	-
Kapital qiymat huquqi	-	11 -m. Lq	11 -m. Lq
Xavfsizlik huquqi	593 -m. FK, 19 -m.Lq	19 -m. Lq	-
Meros va vasiyatnoma bo‘yicha o‘tish huquqi	21 -m.Fxq	-	-
Muddatsizlik huquqi	15 –m. Lq	-	-
Zararli foydalanishni	594, 595 -m. FK,	24 -m. Lq	-

taqiqlash huquqi	24 -m. Lq		
O'ndirish ko'rinishidagi javobgarlik huquqi	227 -m. FK, 12, 24 -m. Lq	592 -m. FK, 11 -m. Lq	-
Qoldiq xususiyat huquqi	-	12, 20 -m. Lq	-

Izoh: FK – O‘zR Fuqarolik kodeksi, Fxq – O‘zR “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun, Lq – O‘zR “Lizing to‘g‘risida”gi Qonuni, m. – modda.

*Manba: Amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida muallif ishlanmalari

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ushbu huquqlar bir sub’ekt uchun belgilanmagan, balki uchta (fermer xo‘jaligi, lizing kompaniyalari va banklar) o‘rtasida taqsimlangan. Fermer tomonidan lizing shartnomasi asosida olingan qishloq xo‘jaligi texnikasidan foydalanish huquqi fermerning o‘ziga tegishli, ayni paytda ushbu texnikaga egalik qilish huquqi, fermer lizing to‘lovini to‘liq amalga oshirguniga qadar, uni mablag‘ bilan ta‘minlagan bankka tegishlidir.

Fermer xo‘jaliklarining asosiy faoliyati qishloq xo‘jaligi mahsulotini Etishtirishdan iborat. Ushbu mulkka bo‘lgan huquqlar “tutami” vaziyati oldingilarga o‘xshash, ya’ni fermer xo‘jaligi, ushbu mahsulotni qabul qiluvchi (qayta ishlovchi) korxonalariga hamda davlatga tegishli (7.5.5-jadval). Chunki fermer xo‘jaliklari nafaqat o‘z ehtiyojlari uchun, balki davlat buyurtmasi yoki kontraktatsiya shartnomasiga asosan mahsulot Etishtiradi. Birinchi holatda ushbu mulkka bo‘lgan deyarli barcha huquqlar “tutami” Er uchastkasiga bo‘lgan ijara muddati tugagunga qadar fermer xo‘jaliklarida mujassam, u mutlaq egasi hisoblanadi. Ikkinchi va uchinchi holatda esa huquqlar fermer xo‘jaligi mahsulotni mulk qilib topshirgandan keyin qayta ishlovchi tashkilot yoki davlat korxonalariga o‘tadi. Aynan shunday o‘xshash murakkab mulkiy huquqlar taqsimoti boshqa aylanma vositalarga, masalan pul mablag‘lari, mineral o‘g‘itlar, yoqilg‘i-moylash materiallarida ham kuzatiladi.

Fermer xo‘jaliklarida Etishtirilgan mahsulotlarga bo‘lgan mulkiy huquqlar taqsimoti*

Mulkiy huquq tur lari	Fermer Xo‘jaligi	Qayta ishlovchi tashkilot	Davlat
Egalik qilish huquqi	8 -m.Tq	-	-
Foydalanish huquqi	8 -m. Tq	-	-
Tasarruf etish huquqi	16 –m. Fxq, 8 -m. Tq	386 -m.FK	386 -m.FK
Daromad olish huquqi	16, 24 –m. Fxq, 20 -m. Tq	-	-
Kapital qiymat huquqi	16, 24 -m. Fxq	-	-
Xavfsizlik huquqi	464, 467 -m. FK	466 -m. FK	463-m. FK
Meros va vasiyatnoma bo‘yicha o‘tish huquqi	21 -m. Fxq	-	-
Muddatsizlik huquqi	13 -m. Fxq	-	-
Zararli foydalanishni taqiqlash huquqi	38 -m. Tq	466 -m. FK	464 -m. FK
O‘ndirish ko‘rinishidagi javobgarlik huquqi	-	-	35 –m.Fxq
Qoldiq xususiyat huquqi	19 -m. Fxq, 14 -m. Tq	-	-

Izoh: FK – O‘zR Fuqarolik kodeksi, Fxq – O‘zR “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun
Tq – O‘zR “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, m. – modda.

*Manba: Amaldagi qonunchilik hujjatlari asosida tuzilgan

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligida mulk shakllaridagi tarkibiy o‘zgarishlar asosan mulkiy huquqlar taqsimlanishining davlat tomonidan tartibga solinishi oqibati bo‘lib, aynan mulkiy huquqlar taqsimoti haqiqiy mulkdorlar va

xo'jalik yuritishning samarali shakllarini vujudga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga 7.2-7.5-jadvallarda keltirilgan mulkiy huquqlar taqsimoti amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish hamda mulkdorlar huquqini himoya qilishga doir huquqiy normalarni yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari normalarigina qonun hujjatlariga kiritilgan, qolgan 8 ta mulk huquqi turi hali qonun hujjatlarida to'liq o'z ifodasini topmagan.

Xulosa

Mulk huquqlari nazariyasi mulkiy huquqlarning iqtisodiyot sub'yektlari (yuridik va jismoniy shaxslar) o'rtasida taqsimlanishi hamda mulkiy munosabatlar muammolarini o'rganadi. Mulk huquqi – bu, bir tomondan, sub'ektiv ashyoviy huquq. O'z mazmuniga ko'ra mulk huquqi barcha ashyoviy huquqlar ichida eng keng huquqdir: mulkdor o'z mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqiga ega bo'lishi lozim.

Xorijiy manbalarda mulk huquqi 11 ta turga ajratilgan holda o'rganiladi. Bu esa mulk huquqini kengroq talqin etish imkonini beradi

Mulkiy munosabatlar tarixan turli shakllarga ega bo'lgan va ular mulkiy huquqlarning tabaqalanishida namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda mulk shakli xususiy va ommaviy turlarga bo'linadi. Ommaviy mulk shakli davlat mulkini ham o'z ichiga oladi.

Fermer xo'jaligining mulki fermer va xo'jalik a'zolarining mulki hisoblanadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Inson kapitaliga bo'lgan mulkchilik tizimi– mazkur kapital-ning sub'ekt-ob'ekt tuzilishining barcha elementlari, shuningdek uning iqtisodiy amalga oshuvi

va rivojlanishini belgilovchi shart-sharoitlar va omillarning o‘zaro bog‘liq va rivojlanib boruvchi birligi.

Inson kapitalining haqiqiy mulkdori – yaratiladigan, jumladan muayyan shaxs tomonidan yaratiladigan barcha hayotiy ne‘matlar majmuini taqsimlash va qayta taqsimlash chog‘ida yuzaga keladigan manfaatlarni kelishishga amalda ta‘sir eta oladigan shaxs.

Intellectual mulk– iqtisodiy faoliyat mahsulotlarining tijorat maqsadida foydalanishga berilgan yagona huquqdir.

Ichki (endogen) ishlab chiqarish– shaxsning o‘z insoniy kapitalini yaratish borasidagi ijodiy mehnat faoliyati; shaxsning uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan investitsiyalarni «o‘zlashtirish borasidagi» faoliyati.

Ishtirokchi – bu mol-mulkka nisbatan mulkchilik huquqidan jamiyatga nisbatan talab huquqi evaziga voz kechuvchi iqtisodiy agent. O‘z navbatida jamiyatning o‘zi va uning mol-mulki emas, balki xo‘jalik jamiyatiga nisbatan majburiyat huquqlari ishtirokchining mulki hisoblanadi.

Kapitalist menejer – ishlab chiqarish jarayonining rahbari, xo‘jayin funksiyasini bajaruvchi, lekin mulkni yo‘qotish xatariga ega bo‘lmagan iqtisodiy agent qarama-qarshi turadi.

Korxonalar va tashkilotlar uyushmasi (assotsiatsiyasi) mulki– ma‘lum maqsad yo‘lida uyushma tashkil etganlarning umumiy mulki.

Korxonalar jamoasining mulki– ishchi va xizmatchilar jamoasi davlatdan yoki xususiy mulk sohibidan sotib olgan va umumiy lashtirib, birgalikda o‘zlashtiriladigan mulk. Bu Erda mulk ikkiga ajralmaydi, hamma mol-mulk va pul mablag‘lari korxonalar jamoasi ixtiyorida turadi.

Mahalla mulki– mahalla ahlidan iborat jamoa doirasida unga qarashli boylikning hamjihatlik bilan o‘zlashtirishdir.

Mulk –xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar o‘rtasida ne‘matlarni o‘zlashtirish borasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabat shakli yoki institutsionallashtirilgan raqobatli munosabatlar.

Mulk huquqining spetsifikatsiyasi –ayrim «vakolatlar»ning ushbu «vakolatlar»ning ularni yuqori baholaydigan va ulardan foydalanish orqali ko‘proq foyda ola biladigan xo‘jalik yurituvchi sub’yektlar sotib olishlari uchun qulay sharoit yaratish maqsadida bir yoki bir necha iqtisodiy sub’yektlarga biriktirilishi.

Mulkdan foydalanish - mol-mulkning Iqtisodiy faoliyatda ishlatilishi yoki ijtimoiy hayotda qo‘llanilishi, ya’ni uning nafli jihatlarining bevosita iste’mol qilinishi.

Mulkka egalik qilish - mulkdorlik huquqining uning egasi qo‘lida saqlanib turishi va yaratilgan moddiy boyliklarni o‘zlashtirishning ijtimoiy shakli.

Mulknii tadqiq etishning ilmiy paradigmasi– tegishli asosiy tadqiqot prinsiplari va metodlari tizimi.

Mulknii tasarruf etish - mol-mulk taqdirini mustaqil hal qilish.

Mulknii demokratik (fuqarolik) tizimi– mulknii barcha shakl va turlari xilma-xilligi va tengligi tizimi.

Mulknii iqtisodiy shakli – ne‘matni yaratishning ijodiy mehnat jarayonini bevosita tashkil qilish va boshqarish shakli.

Mulknii institutsional tizimi– mulknii barcha tarkibiy darajalarida amal qiladigan va takror ishlab chiqariladigan institutlarning o‘zaro bog‘liq birligi.

Mulknii rivojlanishi qonuni – yuzaga kelgan mulk shakli ertami-kechmi modifikatsiyalanishini belgilovchi zarurat.

Mulknii shakllanish qonuni– ne‘matni yaratishning har qanday ijodiy mehnat jarayoni ertami-kechmi munosabatlarning muayyan ijtimoiy shakli bilan yakunlanadigan zarurat.

Mulknii shakllanishi va rivojlanishi qonuni– ayni vaqtning o‘zida mulknii tabiiy ravishda yuzaga kelgan shakl va turlarining «rasmiylashuvi»ni, shuningdek ularning ob’ektiv ravishda o‘zgarishi va modifikatsiyasini ifodalovchi ichki aloqalarni aks ettiruvchi qonun.

Mulknii endogen (ichki) tizimi – uning uchta tarkibiy darajasining o‘zaro bog‘liq va rivojlanuvchi birligi.

Mulkning yuridik huquqi spetsifikatsiyasi– mazkur huquqning tegishli yuridik vakolatlarga (egallik, foydalanish, tasarruf etish, javobgarlik kabilarga) bo‘linishi.

Mulkchilik – kishilar o‘rtasida ishlab chiqarish vositalari va mehnat mahsulini o‘zlashtirish yuzasidan paydo bo‘lgan va tarixan aniq bir shaklda namoyon bo‘luvchi iqtisodiy munosabatlar.

Mulkchilik munosabatlari-mulkka egalik qilish, undan foydalanish, uni o‘zlashtirish va tasarruf etish jarayonida vujudga keladigan munosabatlar.

Nominal mulkdorlar sinfi– jamiyatning inson, ashyolarga va tabiiy kapitalga bo‘lgan mulkdorlik yuridik huquqiga ega bo‘lgan, ayni vaqtda iqtisodiy hokimiyatga ega bo‘lmagan ijtimoiy guruhlari.

Oliy mulk – davlat mulkining dastlabki shakli hisoblanadi.

Real mulkdorlar sinfi– rasmiy institutlar ishlab chiqarish hamda shu bilan ishlab chiqariladigan mahsulotni taqsimlash va qayta taqsimlashda faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘lgan ijtimoiy guruhlar.

Xususiy muvozanatlik - bu ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy miqdorlar yoki iqtisodiyot tomonlarining miqdoran teng kelishi.

Xususiy mulkchilik – individning jamoaviy xo‘jalik faoliyatidan ajralib chiqishini o‘zida namoyon etadi.

Xususiy tadbirkorlik – bu fuqarolar (alohida fuqarolar) tomonidan o‘zlarining tavakkalchiliklari va mulkiy javobgarliklari ostida, shaxsiy daromad (foyda) olish maqsadida amaldagi qonunchilik doirasida amalga oshiriladigan tashabbuskor xo‘jalik faoliyatidir.

Shaxsiy mulk – shaxs hamda xo‘jalik munosabatlarining boshqa sub’yektlari o‘rtasida shaxsiy ne‘matlarni o‘zlashtirish borasida yuzaga keladigan munosabatlarning ijtimoiy shakli.

MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR VA KEYSLAR:

1–misol.Siz – oldindan to‘lash sharti bilan tovar partiyasini xarid qilmoqchi bo‘layotgan korxonada menejerisiz. Siz (barcha talabnomalarda tovar narxi va sifatining taxminan bir xil nisbati taklif etilayotganligini hisobga olgan holda) kimning sotish uchun talabnomasini afzal ko‘rgan bo‘lardingiz?

- a) davlat korxonasi;
- b) MChJ;
- v) OAJ;
- g) to‘liq shirkat;
- d) qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyat;
- e) ishlab chiqarish kooperativi.

Javob: g), aynan to‘liq shirkat doirasida shartnomaviy majburiyatlarni ijro etishga rag‘batlantiruvchi omillar eng yuqori: garov sifatida muassislarning mol-mulki ham, ularning shaxsiy nufuzi ham ishtirok etadi.

2–misol. Biznesni tashkil etish aksiyadorlik shaklining mutlaq afzalligi to‘g‘risidagi fikr to‘g‘rimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: b), biznesni tashkil etish u yoki bu shaklining afzalligihamma vaqt nisbiy bo‘lib, biznesning tavsiflariga va taqqoslash mezonlariga, masalan, boshqa tashkiliy muqobil variantlar doirasida transaksiya xarajatlarning miqdoriga bog‘liq.

3–misol. Ro‘yxatdan davlatning subinstitutlarini tanlang (ya’ni davlat bजारadigan funksiyalarni bajarishga qodir bo‘lgan tashkiliy tuzilmalar):

- a) tadbirkor;
- b) aksiyadorlik jamiyati;
- v) klan (oilaviy-qarindoshchilik aloqalariga asoslangan tuzilma);

g) universitet.

Javob: g),ishonchni xususiy qozonishga yo‘naltirilgan tashkilotlar davlatning substitutlari hisoblanadi. Ushbu tuzilmalar doirasida munosabatlarni gavalantirish axborot almashishning narxdan boshqa kanallaridan, masalan, shaxsiy nufuzdan foydalanish imkonini beradi. Shuningdek, shaxsiy nufuz shartnomalar bajarilishining kafolati rolini ham o‘ynashi mumkin.

KEYSLAR

Ishbilarmonlik tarmoqlarining shakllanishi.

Ishbilarmonlik tarmoqlarining shakllanishiga ishbilarmonlik madaniyati katta ta‘sir ko‘rsatadi. Masalan, Yaponiya, Singapur, Janubiy Koreya va Tayvanning oilalar, davlat tuzilmalari, mintaqaviy hamjamiyatlar bilan uzviy bog‘lanib ketgan tarmoq bizneslari G‘arb kompaniyalariga ichki va xalqaro bozorlarda jiddiy raqobat ko‘rsatishga qodir. Sharq bilan raqiblik ham, hamkorlik ham G‘arb kompaniyalarini huddi yapon keyretsulariga o‘xshash «keyretsu»ni tashkil qilgan holda Sharq keyretsulari tuzilmasiga taqlid qilishga majbur etdi. Norasmiy kelishuvga tayangan holda bunday tarmoqlar sa‘y-harakatlarni samarali muvofiqlashtiradi va bozorning katta qismini nazorat qiladi. Munosabatlarni saqlab turishga yo‘naltirilgan Sharq ishbilarmonlik madaniyati yangi sharoitlarda ko‘pincha vazifaga yo‘naltirilgan AQSh ishbilarmonlik madaniyatiga qaraganda raqobatbardosh **hisoblanadi**. O‘zbekiston ishbilarmonlik madaniyatini munosabatlarni saqlab turishga yo‘naltirish, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyati O‘zbekistonda bunday norasmiy aloqalarni rivojlanishning muhim shartiga aylantiradi.

Savollar:

Vertikal va gorizontal keyretsularni quyidagi parametrlar bo‘yicha taqqoslang:

- axborotoqimlari;
- tovarlar va xizmatlar oqimlari;
- nufuzni shakllantirish.

Madaniy o‘ziga xos xususiyatlarishbilarmonlik tarmoqlarining shakllanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

QUYIDA KELITIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

- 1. Jamiyatning ko‘p sonli ishtirokchilari nafaqat uning xo‘jalik faoliyati natijalari uchun javobgardir.*
2. Ishlab chiqaruvchining tabiiy huquqi hisoblangan mahsulotga bo‘lgan huquq ishlab chiqarish vositalarining mulkdori – xo‘jayinga o‘tadi.
3. Kreditning birdan-bir shakli bu iste’molchiga avans berishdir.
4. Mulkdorlarning o‘zlariga «biriktirilgan» mol-mulkni tasarruf etish huquqi borgan sayin davlat hisobiga o‘tadi.
5. Oliy mulk davlat mulkining dastlabki shakli hisoblanadi.
- 6. Sarmoyadarning shaxsiy maqsadi mulkdan olinadigan daromadini oshirishdan iborat.*
7. Tabaqali mulk oldingi davrda asosiy mehnat sharoiti bo‘lgan tabiiy resurslarga tabaqali monopoliyalar shakllanishi bilan tavsiflanadi.
8. Firma kreditida mol beruvchi va sotuvchi to‘lash muddati uzaytirilgan sarmoyani oladi va xaridorga beradi.
9. Firma tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish maqsadida iqtisodiy resurslarning ishlatuvchi tashkilotdir.
10. Xo‘jalik faoliyatining asosiy maqsadi - qoldiq daromad mulk egasining, barcha to‘lovlar amalga oshirganda keyingi daromadini ko‘paytirish, kiritilgan kapitaldan olinadigan foydani oshirish va mehnatdan keladigan daromadni yuksaltirishdan iboratdir.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

- 1. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish qoidasi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?**

- A. transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda mulkchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.
- B. muvazanatli narx bozor ishtirokchilariga past xarajatli va kam buzib ko'rsatilgan axborot bilan almashish imkonini beruvchi rivojlangan axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi.
- C. davlatning ushbu yo'nalishdagi faoliyati almashinadigan tovarlar va xizmatlar sifatini o'lchash xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi.
- D. bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

2. Mulkiy xuquq sub'ektlariga nimalar kiradi?

- A. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, jamoalar, ularning birlashmalari va jamoat tashkilotlari va diniy tashkilotlar.
- B. Fuqarolarning oilaviy idoralari.
- C. Boshqa davlatlar, fuqaroligi bo'lgan shaxslar.
- D. Uy xujjaligi tashkilotlari.

3. Mulkiy xuquq ob'ektlariga nimalar kiradi?

- A. O'zbekiston Respublikasi hududidagi Er, Er osti boyliklari, ichki suvlar, havo havzasi, o'simlik va hayvonot dunyosi.
- B. xizmat ko'rsatish ramzlari, sanoat belgilari.
- C. foydali modellar, boshqa uyushmalar.
- D. Qimmat baho buyumlar va qog'ozlar belgisi.

4. Mulk huquqlarining ingliz huquqshunosi A.Onore tomonidan taklif etilgan (Onore ro'yxati) va quyidagi nechta unsurni o'z ichiga olgan ta'rifi "to'liq" hisoblanadi:

- A. O'n bitta.
- B. O'n ikkita.
- C. O'n uchta.
- D. O'n beshta.

5. Mulk huquqlarining ingliz huquqshunosi A.Onore tomonidan taklif etilgan (Onore ro‘yxati) ta’riflari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A. egalik qilish, foydalanish hamda boshqarish.
- B. xom ashyoning meros bo‘yicha taqsimlanishi.
- C. muddatsizlik, zararli foydalanishni taqiqlash, undirish ko‘rinishidagi javobgarlik hamda qoldiq xususiyat huquqlari.
- D. daromad olish, ashyodan o‘zgaralar foydasiga voz kechish.

6. Ixtiyoriy shakldagi mulkning namoyon bo‘lishi qator omillarga bog‘liq.

Jumladan:

- A. mehnat sharoitlarini o‘zgarishi.
- B. Mehnat sharoitlari va natijalarini tasarruf etish xususiyatlariga hamda mehnat sharoitlarini takror yaratishga.
- C. asosiy usuli va natijalari qayta taqsimlashga.
- D. ijtimoiy ahamiyatli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish.

7. Mulkchilikning eng dastlabki shakli jamoaviy mulk G‘arb huquqiy tizimining asos (antik taraqqiyot)ini tashkil etadi. U nechta asosiy xususiyat bilan tavsiflanadi?

- A. Ikki.
- B. Uchta.
- C. To‘rtta.
- D. Beshta.

8. Jamoaviy mulkning asosiy xususiyatlari qaysi javobda to‘g‘ri keltirilgan?

- A. jamoaviy mulk jamiyatga – uni to‘laqonli a‘zolar deb tan oluvchi individlar yig‘indisiga tegishli.
- B. jamoaviy mulkni qayta taqsimlash.
- C. jamoaviy huquq normalari bilan tartibga solish.
- D. ijtimoiy ahamiyatli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish.

9. Oliy mulkning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?

- A. Mulk va hokimiyatning bo‘linmasligi hamda xizmat uchun mukofot sifatida resursni hadya qilish shaklida faoliyat bilan almashish.

- B. birlashtirilgan resurslarni tasarruf etish.
- C. ishlab chiqaruvchining o'z faoliyati natijalari.
- D. ijtimoiy ahamiyatli ehtiyojlarini qondirish uchun foydalanish.

10. Ijtimoiy mulkning asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?

- A. jamiyatning tabiiy resurslarga asoslanganligi.
- B. ijtimoiy mulk ob'yektlaridan foydalanishning konsession mexanizmi va ishlab chiqaruvchining o'z faoliyati natijalariga mulkchiligi.
- C. ijtimoiy mulkdan keladigan daromadlarni qondirish.
- D. ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalanish.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Daromad olish huquqi deganda nimani tushunasiz?
2. Kapital qiymat huquqi deganda nimani tushunasiz?
3. Muddatsizlik huquqi deganda nimani tushunasiz?
4. Mulk huquqining tasnifi nima va uni O'zbekiston iqtisodiyotining amaliyotida qo'llash imkoniyatlarini izohlab bering?
5. Mulkning qanaqa shakllari mavjud?
6. Tasarruf etish huquqi deganda nimani tushunasiz?
7. Foydalanish huquqi deb nimaga aytilinadi?
8. Xavfsizlik huquqi qaysi huquq turlari bilan bog'liqligini tushuntirib bering?
9. Egalik qilish huquqi deganda nimani tushunasiz?
10. Mulk huquqi ob'ekti va sub'ekti deganda nimani tushunasiz?

VIII BOB MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH SHAROITIDA INSTITUSIONAL ISLOHATLAR

8.1.Mamlakatni modernizatsiya qilish konsepsiyasi va modernizatsiya qilishning bosh maqsadi, vazifalari.

8.2.Institutsional o'zgarishlar va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar.

8.3.Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish.

8.4.Bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

8.1. Mamlakatni modernizatsiya qilish konsepsiyasi va modernizatsiya qilishning bosh maqsadi, vazifalari.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanishi, globallashtirish jarayonlari mamlakatlarni, ularning iqtisodiyotini shiddat bilan o'zgarib borayotgan jarayonlarga tezda moslasha olish qobiliyatini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda nafaqat iqtisodiy jihatdan moslashish, balki ijtimoiy va huquqiy rivojlanishni ham mazkur sharoitlarga moslashtirish kerak bo'ladi.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, taraqqiyotning hozirgi bosqichidagi modernizatsiya tushunchasida faqat iqtisodiy va texnik mohiyatni ko'rish bilan chegaralanmasdan, uni sotsiomadaniy mazmun bilan ham to'ldirish kerak bo'ladi:

- shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligi;
- insonlarning o'z mehnati va hayotidan qoniqishi, mos hayot kechirishi uchun etarli daromadga ega bo'lishi;
- rivojlangan ijtimoiy strukturaning mavjudligi;
- xukumatga ishonch, siyosiy tizimning demokratlashganligi;
- siyosiy va huquqiy madaniyat darajasining yuqoriligi;
- umuminsoniy qadriyatlarni so'zsiz qabul qilish.

Modernizatsiya so'zi «modern», ya'ni yangi, zamonaviy degan ma'noni anglatadi. Modernizatsiyalash ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangilash,

zamon talablari va me'yorlari, sifat ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirishdan iborat jarayon hisoblanadi. Modernizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, unda an'anaviy jamiyatlar industrial jihatdan taraqqiy etgan jamiyatga aylanadilar. Modernizatsiya quyidagilarni ko'zda tutadi:

– yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirish;

– ishlab chiqarish fondlari texnologiyalarni yangilash;

– YaIM tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan, shu jumladan yuqori texnologiyali tarmoqlar mahsulotlari ulushini oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish;

– kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, inson va intellektual kapitalni rivojlantirish;

– jahonda bo'layotgan innovatsion jarayonlarga qo'shilish, boshqa mamlakatlarning yutuqlarini qo'llash, ulardan foydalanish.

O'zbekistonda iqtisodiyotni isloh qilishning pirovard maqsadi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat qilib belgilangan. Mazkur mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning pirovard maqsadiga erishish uchun beshta strategik maqsadlar belgilangan:

1. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, milliy boylikning ortishini, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish.

2. Ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo'lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo'lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash.

3. Korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo'jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni

boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag'batlantirish vositalaridan keng foydalanish.

4. Iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samaraliy foydalanishni ta'minlaydigan chuqur strukturaviy o'zgarishlar qilish, rag'obatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilib borish.

5. Kishilarda yangicha iqtisodiy fikirlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o'zgartirish, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish.

Mamlakatni modernizatsiya va isloh qilishning dastlabki bosqich - 1991-2000 yillar o'tish davri va milliy davlatchilik asoslarini shakllantirish bilan bog'liq birinchi galdagi islohot va o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

2001 yildan to 2016yilning so'ngi choragigacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiya qilish davri bo'lib, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, siyosiy hayotimizni, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilishni ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

O'zbekistonda mamlakatni modernizatsiya va isloh etishning yangi bosqichining asosiy mazmunini va ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da o'z ifodasini topgan. Mazkur farmonda "Iqtisodiyotda ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan boshqaruv tizimidan mutlaqo voz kechilib, bozor islohotlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgani va pul-kredit siyosati puxta o'ylab olib borilgani makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiyotning yuqori sur'atlar bilan o'sishini, inflyatsiyani prognoz ko'rsatkichlari darajasida saqlab qolishni ta'minladi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar va qulay sharoitlar yaratilishiga xizmat qildi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan

taraqqiyot yo‘lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori kon’yunkturasi keskin o‘zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda”¹,-deb ta’kidlanadi. Shu boisdan Harakatlar strategiyasi olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida qabul qilindi.

2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo‘nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash, chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

“Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi yo‘nalishda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni ro‘yobga chiqarish uchun milliy valyuta va narxlarning barqarorligini ta’minlash, valyutani tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, mahalliy budjetlarning daromad bazasini kengaytirish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, eksportga mo‘ljallangan mahsulot va materiallar ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, transport-logistika infratuzilmasini, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda xorijiy investorlar uchun investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish, soliq ma’urchiligini yaxshilash, bank faoliyatini tartibga solishning zamonaviy prinsiplari va mexanizmlarini joriy etish, ko‘p tarmoqli

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони.

fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish, shuningdek turizm industriyasini jadal rivojlantirish nazarda tutilmoqda.

Shuningdek ushbu yo‘nalish xususiy mulkni, moliya bozorini himoya qilish, qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash, zargarlik sohasini rivojlantirish, ayrim milliy korxonalarining aksiyalarini (IPO) nufuzli xorijiy fond birjalariga dastlabki tarzda joylashtirishga tayyorgarlik ko‘rish chora-tadbirlarini ham o‘z ichiga oladi. 2017-2021 yillarda umumiy qiymati 40 milliard AQSh dollari miqdoridagi 649 ta investitsiya loyihasini nazarda tutuvchi tarmoq dasturlarini ro‘yobga chiqarish rejalashtirilmoqda. Natijada keyingi 5 yilda sanoat mahsulotini ishlab chiqarish 1,5 baravar, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash tarmog‘i ulushi 80 foizdan 85 foizgacha oshadi.

“Ijtimoiy sohani rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi yo‘nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo‘l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta‘minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko‘rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta‘lim muassasalarining qulayligini ta‘minlash, umumiy o‘rta ta‘lim, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Hududlarni har tomonlama rivojlantirish bo‘yicha qariyb 25 mingta investitsiya loyihasini ro‘yobga chiqarish hisobiga 256,4 ming ish o‘rni tashkil etish orqali aholini ish bilan ta‘minlash dasturlarini to‘liq ijro etish nazarda tutilgan. Ishsizlik darajasi eng yuqori bo‘lgan mintaqalarda 46,8 ming yangi ish o‘rni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun ta‘lim muassasalarining 10 ming nafar bitiruvchisiga kreditlar ajratish rejalashtirilmoqda.

Katta yoshli avlodni qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy nafaqalar berish tartibini takomillashtirish, sog‘liqni saqlash sohasini isloh qilish chora-tadbirlari kiritilgan. Jumladan, 78 ta tuman tibbiyot birlashmasini, 7 ta shahar va 2 ta viloyat ko‘p

tarmoqli tibbiyot markazini qayta qurish, tez tibbiy yordam xizmatini 1200 ta maxsus avtotransport bilan ta'minlash rejalashtirilmoqda¹.

8.2. Institutsional o'zgarishlar va iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar.

Institutsional o'zgarishlar jarayonida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariga mos keladigan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.


Tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarishni markazlashtirilgan tartibda rejalashtirish va tashkil etishdan boshqarishning iqtisodiy mexanizmlariga o'tish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi. Boshqaruv sohasidagi o'zgarishlar natijasida ko'plab boshqaruv organlari bo'g'inlarining vazifasi o'zgardi, ba'zi o'zini oqlamagan boshqaruv organlari tugatildi va yangi organlar tuzildi.

O'zini oqlamagan Davlat reja qo'mitasi o'rniga Davlat istiqbolini belgilash va statistika qo'mitasi tuzildi. Mazkur Qo'mita 1997 yildan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligiga aylantirildi. Hozirgi davrda bu vazirlik Iqtisodiyot vazirligi deb ataladi. Narxlarni erkinlashtirish sharoitida Davlat narx qo'mitasi batamom tugatildi. Yakkahokim bo'lib olgan taqsimot idorasi - Davlat ta'minot qo'mitasi va uning vorisi –“O'zshartnomasavdo” o'rniga yangi bozor strukturasi – Respublika ulgurji va birja savdosi aksiyadorlik uyushmasi tuzildi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida va bozor munosabatlarini boshqarishda moliya-kredit tizimi muhim o'rinni egallaydi. Islohotlarning birinchi bosqichida, respublika Moliya vazirligi va Markaziy bankning vazifalari qayta ko'rib chiqildi. Ularning yangi bo'g'inlari tuzildi. Nazorat organlari faoliyatini tartibga solish uchun Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi tuzildi.

¹ 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси// Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармони 1-илова.

Institutsional o'zgarishlar jarayonida boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi. Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini boshqarish borasida esa ularning xususiyatlariga mos keladigan, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga iqtisodiy erkinlik berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag'batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi. Iqtisodiyotda nodavlat sektori ulushi kengayib bordi (qarang:8.2.1-rasm).



8.2.1-rasm. O'zbekistonda YaIM ishlab chiqarishning mulkiy tarkibining o'zgarishi.

Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibiy tuzilishi ham o'zgartirildi. Unda qishloq va suv xo'jaligining YaIMdagi ulushi kamayib, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushi esa o'sib bordi (qarang:8.2.1-jadval).

8.2.1-jadval

Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot qo'shilgan qiymat tarkibidagi o'zgarishlar (jamiga nisbatan % da)¹

¹ Основные тенденции и показатели экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости (1990-2010гг.) и прогноз на 2011-2015гг. Стат. Сб. -Т:

Ko'rsatkichlar	2000y.	2005y.	2010y	2016y	2017y	2018y
Jami iqtisodiyot bo'yicha	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Sanoat (qurilish bilan birga)	23,1	29,1	33,3	32,9	33,5	32,0
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	34,4	29,5	19,8	18,2	19,2	32,4
Xizmatlar	42,5	41,4	46,9	49,0	47,3	35,6

Tarkibiy o'zgartirishlar natijasida avtomobilsozlik, neft ximiya va neft gaz, elektrotehnika, farmatsevtika va boshqa shu kabi yangi sanoat tarmoqlari vujudga keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5185-son farmonida mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko'lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi va 2017 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasining** maqsadlariga erishish davlat boshqaruvining mutlaqo yangi, samarali va sifatli faoliyat yurituvchi tizimini yaratishni, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining (keyingi o'rinlarda ijro etuvchi hokimiyat organlari deb yuritiladi) uyg'un faoliyatini tashkil etishni talab qilishi qayd etilgan.

Mazkur farmonga asosan mamlakatimizda institutsional islohotlarning quyidagi yo'nalishlari belgilab berildi:

a) ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

b) ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari (funktsiyalari, vakolatlari)ni, ularni amalga oshirish mexanizmlari va javobgarlik sohalarini

Узбекистан, 2011-с.36; Анализ макроэкономических показателей Республики Узбекистан за годы независимости (1991-2016гг.)// www.stat.uz; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2017год.-Т., Госкомстат РУ, 2018.-С. 17; Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за январь-декабрь 2018год.-Т., Госкомстат РУ, 2019.-С.18 маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

aniqlashtirish, muvofiqlashtirish va o‘zaro hamkorlik jarayonlarini takomillashtirish;

v) iqtisodiyot tarmoqlariga ma‘muriy ta‘sir ko‘rsatishni yanada qisqartirish va boshqaruvning bozor mexanizmlarini kengaytirish;

g) vertikal boshqaruv tizimi va ijro etuvchi hokimiyat organlari hamkorligining mexanizmlarini takomillashtirish;

d) davlat boshqaruvi tizimiga strategik rejalashtirishning zamonaviy shakllari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni joriy etish;

E) professional davlat xizmatining samarali tizimini shakllantirish, ijro etuvchi hokimiyat organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning ta‘sirchan mexanizmlarini joriy etish¹.

Endilikda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish quyidagi yo‘nalishlarda davom ettirish lozim bo‘ladi:

- qishloq xo‘jaligida tarkibiy o‘zgarishlar;
- bazaviy tarmoqlarda tarkibiy o‘zgarishlar;
- uyg‘unlashgan sanoat siyosatini yuritish;
- eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni rag‘batlantirish;
- mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish;
- avtomobilsozlik va gaz kimyo, elektr texnikasi, to‘qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarida yangi va zamonaviy ishlab chiqarishlarni tashkil etish.

8.3. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish.

O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy negizini mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish tashkil etadi. Amalda bu mamlakatni bozor

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 8 сентябрдаги “Ўзбекистон Республикасида маъмурий ислохотлар концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5185-сон фармони //Халқ сўзи, 2017 йил 9 сентябрь.

iqtisodiyotiga o'tishida mulkchilik masalalarini hal etish hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'li hisoblanadi.

O'zbekistonda mulkni xususiylashtirish jarayonida ikkita muhim strategik vazifa hal etilishi ko'zda tutilgan:

Birinchi strategik vazifaning asosiy mazmuni – bu davlat tasarrufidan chiqarilayotgan va xususiylashtirilayotgan mulkning haqiqiy mulkdorlar qo'liga berilishi iqtisodiy munosabatlarni tubdan o'zgartirish uchun real shart-sharoit yaratishga imkon tug'diradi.

Xususiylashtirishning **ikkinchi strategik vazifasi** esa iqtisodiyotda ko'p ukhlilikni hamda rag'batlantiruvchi kuchga ega bo'lgan raqobat muhitini yaratish, shu orqali davlatni mulkka bo'lgan monopol huquqini tugatish, xususiy mulkchilikning turli shaklidagi korxonalarini barpo etishdir.

Ana shu modelga asoslangan holda amalga oshirilgan xususiylashtirish jarayonlari shartli ravishda o'zaro bog'liq uch bosqichga bo'linadi.

Dastlabki, **birinchi bosqich** “kichik xususiylashtirish” davri deb nomlandi va 1992-1993 yillarda amalga oshirildi. Unda aholi yashaydigan davlatga tegishli uy-joylar, savdo, maishiy xizmatlar ko'rsatish, dorixona va shu kabi 53,9 mingta mayda davlat korxonalarini xususiylashtirildi.

Ularning negizida 28,8 mingdan ortiq nodavlat korxonalarini tashkil etildi.

Xususiylashtirishning keyingi **-ikkinchi bosqichi** „ommaviy xususiylashtirish” davri deb nom oldi va u 1994-1998 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda mashinasozlik, Engil va oziq-ovqat sanoati, qurilish, avtomobil transporti, agrosanoat kompleksi va boshqa tarmoqlarning o'rta va yirik korxonalarini ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi va xususiylashtirildi. Shu bilan bir vaqtning o'zida qimmatli qog'ozlar, ko'chmas mulk bozorlarini shakllantirish boshlandi. Bundan asosiy maqsad xususiylashtirish jarayoniga aholining keng qatlamlari hamda chet el sarmoyalarini jalb etish va shu orqali mamlakatimiz iqtisodiyotining nodavlat sektorini jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'ldi. Ushbu bosqichda 21361 xususiylashtirilgan davlat korxonalarini negizida 5747 ta ochiq aksiyadorlik

jamiyatlari, 3903 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat va 11711 ta xususiy mulkchilikning boshqa shaklidagi korxonalar tashkil etildi.

Xususiylashtirishning **uchinchi bosqichi** 1999 yildan boshlanib hozirgi kungacha davom etmoqda. Bu bosqich “yakka tartibda xususiylashtirish” davri hisoblanadi. Xususiylashtirishning ushbu davri avvalgi bosqichlardan bir qator jihatlari bilan farq qiladi. Birinchidan, ushbu davrda iqtisodiyotning yonilg'i-energetika, metallurgiya, kimyo, temir yo'l transporti va shu kabi boshqa strategik tarmoqlarning yirik korxonalarini chet el investitsiyalarini keng jalb etgan holda yakka loyihalar asosida xususiylashtirishga kirishildi. Ikkinchidan, ilgari xususiylashtirilgan korxonalar negizida tashkil etilgan ochiq aksiyadorlik jamiyatlaridagi joylashtirilmagan, shu jumladan, davlatga tegishli aksiyalar paketlari hamda ayrim korxonalarni butunlay yoki ular mulkining bir bo'lagini birja yoki birjadan tashqaridagi bozorlarda turli yondashuvlar va usullarni qo'llash asosida sotish yo'lga qo'yildi. Uchinchidan, iqtisodiy nochor, zarar bilan ishlovchi hamda istiqbolsiz korxonalar va ular mulkidagi davlat ulushlari nol qiymat bilan chet el yoki mamlakatimiz sarmoyadorlariga investitsiya kiritish hisobiga bepul berish tartibi joriy etildi va amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda 2010-2014 yillarda 644 ta davlat ob'yektlari xususiylashtirilgan bo'lib, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 226430 million so'mni tashkil etgan. 2015-2016 yillarda esa jami 1457 ta davlat ob'ekti xususiylashtirildi, xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar esa 268061,8 million so'mni tashkil etgan (qarang:8.3.1-jadval).

8.3.1-jadval.

Korxonalar va ob'yektlarni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarishning borishi (2010-2017 yillar)¹

	2010y.	2011y.	2012y.	2013y.	2014y	2015y	2016y.	2017y.
Xususiylashtirilg	96	95	83	82	288	848	609	542

¹Ўзбекистон Республикаси йиллик statistik тўплами 2010-2016 йиллар.-Т., ЎзР Давлат статистика қўмитаси, 2017.-114-бет.

an korxonasi va ob'yektlari soni								
Xususiylashtirishdan tushgan pul mablag'larini, mln so'm	23028,6	39217,8	32052,8	44149,2	87982,1	103243,8	164818,0	228281,2

2017 yilda esa 542 ta davlat korxonasi va ob'yektlari xususiylashtirildi va davlat tasarrufidan chiqarildi. Xususiylashtirilgan ob'yektlarning 341 tasi (62,9%) mahalliy davlat hokimiyati organlariga, Sog'liqni saqlash vazirligiga-66 tasi (12,2%), Xalq ta'limi vazirligiga -58 tasi (10,7%), Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga- 16 tasi (3%), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga-11 tasi (2%), Navoiy tog' kon metallurgiya kombinati davlat korxonasiga- 10 tasi (1,8%) tegishlidir. Xususiylashtirishdan tushgan mablag'lar 228,3 milliard so'mni tashkil etdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-2895-son Qarorida qayd etib o'tilganki, mamlakatimizning mustaqil rivojlanishi davrida mulkni xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish bo'yicha tizimli ishlar doirasida 30 mingdan ortiq davlat ob'ekti, shu jumladan, 6,5 mingta yirik va o'rta korxonasi xususiy mulk qilib sotildi. Natijada hozir nodavlat sektoriga yalpi ichki mahsulotning 81 foizidan ko'prog'i, sanoat ishlab chiqarishining 94 foizi va barcha band aholining 82 foizidan ziyodi

¹ Социально-экономическое положение Республики Узбекистан за 2017 год.-Т., Госкомстат, 2018.-С.91.

to'g'ri kelmoqda. Ammo shu bilan birga, tanqidiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bir qator korxonalarni xususiylashtirish kutilgan natijalarni bermadi¹.

Xususan, respublika mintaqalaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ishlarining borishi bilan tanishish natijalari xususiylashtirilgan korxonalarining mulkdorlari ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanmayotgani va korxonalarni uzoq muddatli rivojlantirish bilan shug'ullanmayotgani, ixtisoslashtirilgan ishlab chiqarishlarni tiklamayotganligi va ishlab chiqarayotgan mahsulotlarining raqobatdoshligini ta'minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni joriy etmayotganligini ko'rsatmoqda. O'tkazilgan xatlov natijalariga ko'ra, avval xususiylashtirilgan korxonalar negizida 2 mingdan ortiq past rentabelli va zarar ko'rayotgan kam quvvatli xo'jalik sub'yektlari, shu jumladan, mingdan ortiq ishlamayotgan hamda deyarli bo'sh yotgan ob'yektlar, samarasiz foydalanilayotgan Er uchastkalari va ishlab chiqarish xonalari aniqlangan².

Mazkur qarorga muvofiq xususiylashtirish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlar samaradorligini tubdan oshirishni, xususiylashtirilgan korxonalar negizida amalga oshirilayotgan loyihalarni tizimli va manzilli qo'llab-quvvatlashni tashkil etish, shuningdek, belgilangan vazifalarni amalga oshirishda vakolatli organlar faoliyatini zarur darajada muvofiqlashtirishni ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining faoliyatini unga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarga muvofiq tashkil etish;

xususiylashtirilgan korxonalarining reEstrini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni o'z vaqtida va to'liq hajmda amalga oshirish, ular faoliyatining doimiy monitoringi va tahlilini olib borish;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хусусийлаштирилган корхоналар билан ишлаш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2895-сон Қарори, 2017 йил 18 апрель // Халқ сўзи, 2017 йил 19 апрель.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хусусийлаштирилган корхоналар билан ишлаш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2895-сон Қарори, 2017 йил 18 апрель // Халқ сўзи, 2017 йил 19 апрель.

xususiylashtirilgan korxonalarni tiklash va faoliyat samaradorligini oshirish bo'yicha «yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish va amalga oshirishni tashkil etish, shuningdek, «yo'l xaritalari»ni amalga oshirish bilan bog'liq masalalar bo'yicha vazirliklar, idoralar, mahalliy hokimiyat organlari, tijorat banklari va boshqa tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

biznes-rejalar ishlab chiqish, tadbirkorlik faoliyati sohasidagi qonunchilik, menejment, moliya boshqaruvi masalalari va boshqa fanlar bo'yicha xususiylashtirilgan korxonalar rahbarlari va ishlab chiqarish-texnik xodimlari uchun doimiy faoliyat yuritadigan o'quv kurslarini tashkil etishga yo'naltirilgan Tadbirkorlik faoliyati asoslarini o'qitish respublika markazi va uning hududiy filiallarini barpo etish hamda ular faoliyatini samarali tashkillashtirishni ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining kadrlar salohiyatini mustahkamlash, qo'mita kadrlarini tizimli ravishda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasi oshirilishini tashkil etish vazifalari belgilangan¹.

9.4.Bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, modernizatsiyalash, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning istiqbolli yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Iqtisodiyot faoliyatini bozorga xos mexanizmlarini erkinlashtirish;
- Iqtisodiyotni tartiblashning bozor va davlat mexanizmlarini uzviyligini ta'minlash;
- Institutsional o'zgartirishlar;
- Bozor infratuzilmasini rivojlantirish.

Xususiylashtirishni yanada chuqurlashtirish va amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish borasida xususiy mulk miqyoslarini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Хусусийлаштирилган корхоналар билан ишлаш самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2895-сон Қарори, 2017 йил 18 апрель // Халқ сўзи, 2017 йил 19 апрель.

kengaytirish; ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirish; amalda mulkdorlar sinfini shakllantirish lozim bo'ladi.

Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

- barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash;
- makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zaro mutanosibligini ta'minlash;
- inflyatsiya darajasining pasayishini, milliy valyutamizning barqarorligi va uning xarid qobiliyati ta'minlash;
- eksport va oltin-valyuta zahirasini o'stirib borish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi:

-O'zbekistonni texnologik rivojlantirish va ichki bozorni modernizatsiya qilish bo'yicha kuchli milliy g'oya, milliy dastur ishlab chiqish;

-Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili davlat dasturini amalga oshirish;

-mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini samarali ta'minlash;

-soliq yukini kamaytirish va qulaylashtirish, shu asosda ishlab chiqarishni va soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish;

-tez rivojlanayotgan, yiriklashib borayotgan korxonalarni rag'batlantirish siyosatiga o'tish;

-budjet tizimini qayta ko'rib chiqish, budjet daromadlari va xarajatlari xalqimiz uchun ochiq va oshkora bo'lishini ta'minlash;

-investitsiya dasturlarini shakllantirishda puxta rejalashtirilgan, uzoq muddatga mo'ljallangan yagona konsepsiyani yaratish;

-milliy yuk tashuvchilarni qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlarga qo'shimcha sharoitlar yaratish maqsadida "Milliy logistika portalini" tashkil etish;

-qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish bo'yicha kompleks dastur ishlab chiqish;

-hududlarni jadal rivojlantirish;

-qurilish sohasini 2030 yilgacha innovatsion rivojlantirish dasturini ishlab chiqish¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida iqtisodiyot sohasida quyidagi vazifalar belgilangan:

- 2020 yilda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash va inflyatsiyani jilovlash;
- iqtisodiyotni yuqori sur’atlar bilan rivojlantirish uchun faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish. 2020 yilda 23 milliard dollarlik investitsiyalar o‘zlashtiriladi hamda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushirish mo‘ljallanmoqda;

- bank tizimini rivojlantirish uchun bu yil keskin choralar ko‘rish. Afsuski, bank tizimi raqamli texnologiyalarni qo‘llash, yangi bank mahsulotlarini joriy etish va dasturiy ta’minotlar bo‘yicha zamon talablaridan 10-15 yil orqada qolmoqda. 2020 yildan boshlab har bir bankda keng ko‘lamli transformatsiya dasturi amalga oshiriladi;

- barqaror iqtisodiy o‘sishning eng muhim garovi – raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, ular uchun yangi xalqaro bozorlar topish va eksportni ko‘paytirish, tranzit salohiyatidan to‘liq foydalanish;

- sanoat tarmoqlarini uzluksiz xomashyo va zamonaviy infratuzilma bilan ta’minlash. Iqtisodiyotning qator muhim tarmoqlari, jumladan, kimyo, neft va gaz, energetika, elektrotexnika, qurilish materiallari, zargarlik sanoatini xomashyo bilan ta’minlash uchun, avvalo, geologiya-qidiruv sohasini tubdan rivojlantirish lozim. Shuni hisobga olib, joriy yilda istiqbolli konlarni aniqlash va mavjud zaxiralarni ko‘paytirish uchun budjetdan 2 trillion so‘m mablag‘ ajratilmoqda;

-biznes muhitini yanada yaxshilash. Jahon bankining “Biznes yuritish” reytingida eng yaxshi 50 ta mamlakat qatoriga kirish;

-iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o‘sishini ta’minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish;

¹ Қаранг: Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2017йил 23 декабрь.

- turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish. 2020 yilda yurtimizga keladigan turistlar sonini 7,5 millionga Etkazish.

-urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan holda, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish. Ana shu ishlar doirasida 7 ta yirik shahar – Andijon, Buxoro, Samarqand, Qarshi, Farg'ona, Namangan, Nukusga tutash bo'lgan 12 ta yo'ldosh shaharcha tanlab olinib, ularni rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi¹.

Xulosa

Mamlakatimizda oxirgi uch yilda “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo'yicha olib borayotgan keng ko'lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettirishning quyidagi vazifalari belgilab berildi:

-aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.Bu borada kambag'allikni kamaytirish dasturini ishlab chiqish, **yangi ish o'rinlarini yaratadigan tadbirkorlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;**

-sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish bo'yicha islohotlarimizni ham qat'iyat bilan davom ettirish;

- xotin-qizlar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish. 2020 yilda 5,5 ming nafar xotin-qizning kichik biznes yo'nalishidagi loyihalariga 100 milliard so'm miqdorida imtiyozli kredit beriladi. Buning uchun banklarga davlat budjetidan resurs ajratamiz. Bundan tashqari, 1 ming 576 nafar xotin-qizga yangi uy-joylarga ega bo'lishi uchun budjet hisobidan boshlang'ich badal to'lab beriladi;

- aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng qaror toptirish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik holatni yaxshilashga e'tiborni kuchaytirish;

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

-madaniyat va san'at muassasalariga alohida e'tibor qaratish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash choralarini ko'rish¹.

Ushbu ustuvor yo'nalishlarining amalga oshirilishi milliy iqtisodiyotni yanada barqaror rivojlanishiga, uning asosida aholi farovonligini yanada o'stirishga, O'zbekistonning jahon hamjamiyatida o'ziga mos nufuzli o'rinni egallashiga imkoniyat yaratadi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Modernizatsiya – ishlab chiqarishning tayyorlanayotgan mahsulotlar (ish va xizmatlar) raqobatdoshligini oshirishga yo'naltirilgan texnologik yangilanish jarayonidir. U korxonalarining texnologik qoloqligini bartaraf etish vositasi bo'lib, mehnat, moddiy va xomashyo resurslaridan samarali foydalanish darajasiga keskin ta'sir ko'rsatadi. Modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash natijalari yuqori texnologik, raqobatdosh ishlab chiqarishning jadal rivojlanish shartini belgilab beradi

Modernizatsiya –ob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.

Modernizatsiya so'zi «modern», ya'ni yangi, zamonaviy degan ma'noni anglatadi.

Mamlakatni modernizatsiyalash har bir fuqaroni modernizatsiyalash orqali amalga oshiriladi. Mamlakatni modernizatsiyalash ya'ni davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirish ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lgan nazorat mexanizmini shakllantirishga qaratilgan.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash – ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.//Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

Ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning asosiy yoʻnalish va vositalari boʻlib quyidagilar hisoblanadi: korxonalardan eskirgan asbob-uskunalarini chiqarib; zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan almashtirish; mahalliy resurslar asosida ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish; ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini kengaytirish; ishlab chiqarish xarajatlarini pasaytirish va resurslarni tejash; sifatni boshqarish va sertifikatlash tizimini joriy etish; chiqitsiz va ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va boshqalar.

Demokratik tamoyillar – hokimiyat va boshqaruv organlari chiqargan qarorlardan xalqning xabardorligi; ushbu qarorlar bajarilishi ustidan xalqning nazorati, qonun va qarorlarni qabul qilishda xalqning ishtiroki tamoyilidir.

Diversifikatsiya – (lotinchadan diversus- har xil va facere-qilmoq, bajarmoq) – ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sotish bozorlarini kengaytirish maqsadida tarmoq va korxonalar faoliyat sohasini kengaytirish, mahsulot va xizmatlar assortimentlarini koʻpaytirish.

Diversifikatsiya – tavakkalchilikni pasaytirish usuli boʻlib bunda tavakkalchilik (yoʻqotishlar) bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadiki, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovarni sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi. Masalan, 2 ta mahsulotga boʻlgan talabni bir vaqtda kamayib ketish ehtimolidan ulardan bittasiga talabni kamayib ketish ehtimoli yuqori.

Diversifikatsiya – yuqori qoʻshilgan qiymat oʻsish dinamikasini taʼminlaydigan mahsulot va xizmatlar assortimentining oshish va kengayish jarayonidir. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy oʻzgarishlar bilan bevosita uygʻunlashgan hodisasidir

Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – tanglik holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni saqlash va ishlab chiqarishni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni vujudga keltirishdir.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish – nima va qancha ishlab chiqarishni qaErga, qanday bahoda sotishni tadbirkorning oʻzi belgilashi lozim. Iqtisodiyotning barcha sohalari va tarmoqlarini erkinlashtirish, xoʻjalik yurituvchi subʼyektlarning

erkinligi va mustaqilligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Iqtisodiyotning real sektori – iqtisodiyotning bevosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq sohasi bo'lib, u o'z ichiga sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa va boshqa xizmat ko'rsatish tarmoqlarini oladi.

Iqtisodiy islohotlar – iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini sifat jihatidan takomillashtirish, uning barqaror va mutanosib rivojlanishini ta'minlash imkonini beruvchi, maqsadga muvofiq holda va izchil ravishda amalga oshiriluvchi tub o'zgarishlar, chora-tadbirlar majmui.

Iqtisodiy manfaatlar - iqtisodiy kategoriya bo'lib, ular ishlab chiqarishning alohida qatnashchilari (individlari, ularning guruhlari, sinfiy birlashmalari) o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarida ifodalanadi.

Iqtisodiy muvozanat - iqtisodiy jarayonlar, xodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.

Iqtisodiy mutanosiblik - iqtisodiyotning turli tomonlari va soxalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarning mos kelishlik darajasi.

Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish–sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import shaklida xarid qilish orqali qo'llaniluvchi detallar, butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va tayyor mahsulotlarni mahalliy xomashyo va materiallar asosida ishlab chiqarishga o'tkazish jarayoni.

Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi – mamlakatning o'rta va uzoq muddatga iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlab turish qobiliyati

Xususiylashtirish - mulkka egalik huquqining davlatdan xususiy sektorga o'tishi.

MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR VA KEYSLAR:

1–misol. «Gulzor» shaharchasi har kuni 10 ta reys bajariladigan aeroport yaqinida joylashgan. Yo'lovchilar oqimining ortishi munosabati

bilan aeroport rahbariyati tomonidan «Gulzor-Paxtakor»da har kuni qo‘shimcha ravishda 11-reysni tashkil etish masalasi ko‘rib chiqilmoqda. Agar ushbu reys tashkil etilsa, aeroportning to‘liq xarajatlari 1000 ming so‘mni, umumiy daromad esa 1500 ming so‘mni tashkil qiladi, biroq, aeroport infratuzilmasining imkoniyatlari cheklanganligi bois 11-reys faqat oqshom, soat 23.00 dan keyin tashkil etilishi mumkin, bu hol shahar aholisiga noqulaylik tug‘diradi. Parvoz qiluvchi samolyotlarning ovozi ularning uyqusini buzadi, bu esa ularning dam olishiga hamda, o‘z navbatida, ish unumdorligiga va daromadlariga ta’sir ko‘rsatadi. “Gulzor” shaharchasi aholisining umumiy daromadlari har kuni 600 ming so‘mga qisqaradi. Quyidagi holatlarda «Gulzor-Paxtakor»da reys tashkil etiladimi:

- a) agar samolyotlardan zararli foydalanishni taqiqlash huquqi “Gulzor” aeroportga tegishli bo‘lsa;
- b) agar samolyotlardan zararli foydalanishni taqiqlash huquqi “Gulzor” shaharchasi aholisiga?

Javob: a) va b), ikkala holatda ham 11-reys tashkil etilmaydi, bu hol Kouz teoremasining to‘g‘riligini tasdiqlaydi. a) holatda posyolka aholisi samolyotlardan zararli foydalanishni taqiqlash huquqini (soat 23.00 dan keyingi shovqinni) aeroportdan sotib olishga urinadi va unga 600 ming so‘mgacha miqdordagi istalgan summani taklif qiladi. O‘z navbatida, aeroport 500 ming so‘mdan yuqori bo‘lgan, ya’ni uning reysni tashkil etishdan oladigan sof foydasini qoplaydigan istalgan summaga rozi bo‘ladi. Taraflar 500 ming so‘mdan 600 ming so‘mgacha bo‘lgan summaga bitim tuzadi va 11-reys tashkil etilmaydi. b) holatida endi aeroport posyolka aholisiga 500 ming so‘mgacha miqdordagi istalgan summani taklif qilgan holda ulardan samolyotlardan zararli foydalanishni taqiqlash huquqini sotib olishga urinadi. Aholi esa faqat 600 ming so‘mdan yuqori bo‘lgan summaga rozi bo‘lishi mumkin bo‘lardi, ya’ni savdolahish uchun predmet yo‘q (ko‘plab qarorlar puch bo‘lib chiqadi) va 11-reys tashkil etilmaydi.

2-misol. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tashqi davlat qarzi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 17 foizni, eksport hajmiga nisbatan qariyb 60 foizni tashkil etdi. Bu avvalambor xorijiy investitsiyalar va umuman, chetdan qarz olish masalasiga chuqur va har tomonlama puxta o'ylab yondashish natijasidir. 2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig'ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi. Topish kerak: YaIMda tashqi davlat qarzi, davlat budjetida daromad va xarajatlar hajmini.

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO'G'RIMI YOKI NOTO'G'RIMI?

1. Iqtisodiyot va uning Etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash ushbu tarmoqlarda ishlab chiqarishni diversifikatsiya etishga olib keladi, pirovardida mamlakat, korxonalar va mahsulotning ichki va tashqi bozordagi raqobatdoshligi, aholining ish bandligi ortadi, uning turmush darajasi yuksaladi hamda mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi ta'minlanadi.
2. Ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash, zamonaviy innovatsiyalarga asoslangan va yuksak samarali texnologiyalarni joriy etish.
3. Modernizatsiyaob'ektni takomillashtirish, yaxshilash, yangilash, uni yangi talab va me'yorlarga, texnik shart-sharoitlarga, sifat ko'rsatkichlariga moslashtirish.
4. Mamlakatni modernizatsiyalash ya'ni davlatni demokratlashtirish va jamiyatni liberallashtirish ijtimoiy tartibni o'rnatishdir.
5. Diversifikatsiya tavakkalchilikni pasaytirish usuli bo'lib bunda tavakkalchilik bir qator tovarlarga shunday taqsimlanadiki, tovarlardan bittasini sotib olishdan tavakkalchilikning ortishi boshqa tovarni sotib olishdagi tavakkalchilikning pasayishini bildiradi.

6. Diversifikatsiya jarayoni iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya va tarkibiy o'zgarishlar bilan bilvosita uyg'unlashgan hodisasidir.
7. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish holatlariga barham berish asosida makroiqtisodiy muvozanatlikni keltirmaslikdir.
8. Iqtisodiyotning real sektori iqtisodiyotning bilvosita moddiy ne'matlar ishlab chiqarishdir.
9. Iqtisodiy muvozanat iqtisodiy jarayonlar, xodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga mos kelish holati.
10. Ishlab chiqarishni mahalliyashtirish deganda sanoat ishlab chiqarishining turli bosqichlarida import mahsulotlarni ko'paytirish tushuniladi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

- 1. Modernizatsiya jarayoni doirasida odatda qanaqa o'zgarishlar ro'y beradi?**
 - A. ijtimoiy munosabatlar butun tizimining takomillashuvi va turmush tarzining o'zgarishi – ixtiloflarni tartibga soluvchi hamda ijtimoiy muammolarni hal etuvchi yangi tartib va mexanizmlarning paydo bo'lishi
 - B. alohida individlarning ongini oshishi;
 - C. yollanma xodimlarning kasbiy ixtisoslashuvini o'zgarmaganligi
 - D. Tarkibiy o'zgarishlar ro'y bermadi
- 2. Barqarorlik deganda nimani tushunasiz?**
 - A. jamiyatning favqulodda xolatlarida xam o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, xolatni tiklash imkoniyati
 - B. jamiyatning iqtisodiy beqaror xolatlarida o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, xolatni tiklash imkoniyati
 - C. jamiyatning ijtimoiy beqaror xolatlarida o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati, xolatni tiklash imkoniyati
 - D. jamiyatning favqulodda xolatlarida o'z manfaatlarini qoniqtirish qobiliyati
- 3. Modernizatsiya so'zi ma'nosi nima?**
 - A. yangi, zamonaviy

- B. zamonaviy, yuqori
- C. xilma xil, zamonaviy
- D. ortirilgan, aralash

4. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash deganda?

- A. ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, uni ma'naviy jihatdan yangilash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish kabi chora-tadbirlarni o'z ichiga oluvchi jarayon.
- B. Ishlab chiqarishni texnika bilan ta'minlash
- C. Ishlab chiqarishni maxalliylashtirish
- D. Ishlab chiqarishni rivojlantirish xisobiga rentabellikni oshirish

5. Diversifikatsiya deganda nimani tushunasiz?

- A. yuqori qo'shilgan qiymat o'sish dinamikasini ta'minlaydigan mahsulot va xizmatlar assortimentining oshish va kengayish jarayonidir.
- B. iqtisodiyot tarmoqlarida olib borilayotgan modernizatsiya
- C. tarkibiy o'zgarishlar bilan bevosita uyg'unlashgan hodisasi
- D. mahsulot assortimentini ko'paytirish

6. Iqtisodiy manfaatlar bu?

- A. ishlab chiqarishning alohida qatnashchilari (individlari, ularning guruhlarini, sinfiy birlashmalari) o'rtasidagi ishlab chiqarish munosabatlarida ifodalanadi.
- B. Ishlab chiqarishning mahalliylashtirish
- C. Ishlab chiqarish munosabatlarini xilma xillashtirish
- D. Ishlab chiqarishda alohida xukumkornlikka erishish

7. Iqtisodiy mutanosiblik nima? bu-

- A. iqtisodiyotning turli tomonlari va soxalari o'rtasida miqdor va sifat o'lchamlarning mos kelishlik darajasi
- B. iqtisodiyotning soxalari o'rtasida sifat o'lchamlarning mos kelishi
- C. iqtisodiyotning soxalari o'rtasida miqdor o'lchamlarning mos kelishi
- D. iqtisodiyotda mulkdorlar sinfni tashkil etish

8. Mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi—bu?

- A. mamlakatning o‘rta va uzoq muddatga iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta‘minlab turish qobiliyati
- B. mamlakatning uzoq muddatga iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash
- C. mamlakatning o‘rta muddatga iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash
- D. mamlakatning iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarga ko‘tarish

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Diversifikatsiya etishning ustuvor yo‘nalishlari?
2. Iqtisodiyotda modernizatsiyalash jarayonlarini amalga oshirish zaruriyati?
3. Mamlakatni modernizatsiya qilish konsepsiyasi va modernizatsiya qilishning bosh maqsadi, vazifalari va huquqiy asoslari?
4. Iqtisodiyotni Etakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish?
5. Iqtisodiyotni Etakchi tarmoqlarini hamda uning samaradorligini oshirish?
6. Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilishning asosiy omillari?
7. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishning asosiy tamoyillari?
8. Mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardoshligi deganda nimani tushunasiz?
9. Modernizatsiya va diversifikatsiya tushunchalarining ijtimoiy iqtisodiy mazmuni?
10. Modernizatsiya va diversifikatsiyaning o‘ziga xos xususiyatlari?

IX BOB. ShARTNOMALAR NAZARIYASI

9.1. Shartnoma tushunchasi

9.2. Sotish to'g'risidagi shartnoma va yollash to'g'risidagi shartnoma

9.3. Shartnomalarning xillari

9.4. Tashkilot tushunchasi va institut bilan tashkilot o'rtasidagi chegara

9.5. Qishloq xo'jaligida shartnoma munosabatlari


Shaxslar o'zaro hamkorligining umumiy doiralari institutlar tomonidan belgilanadi. Bitimlarni tuzish shartlarining muayyan doiralari esa o'zaro hamkorlikning turli ishtirokchilari o'rtasida qayd etiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 9-bobi (101-112-moddalar) bitimlarga bag'ishlangan. Agar mulkchilik huquqlari nazariyasining atamalaridan foydalansak, mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi har qanday kelishuvni shartnoma, deb atash mumkin. Shartnomani tuzishda shaxslar rasmiy va norasmiy me'yorlarni muayyan bitim ehtiyojlari uchun qo'llagan holda, ulardan foydalanishadi. Boshqacha aytganda, shartnoma belgalangan institutsional doiralarda amalga oshiriladigan almashuv maqsadlari va shartlarining shaxslar tomonidan ongli ravishda va erkin tanlanishini aks ettiradi.

9.1. Shartnoma tushunchasi

Shartnoma – belgalangan institutsional doiralarda shaxslarning ongli ravishda va erkin tanlashi natijasi hisoblangan mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi kelishuv.

Shunday qilib, institutsional tahlil oqilona tanlov modelining umumiy emas, balki xususiy holatini ko'rib chiqish uchun zamin yaratadi. Ushbu model universal emas, u alohida institutsional doiralarda shaxslarning xatti-harakatni yoritish bilan

chegaralanadi, bunda shaxslar ushbu doiralarga cheklangan darajada ta'sir ko'rsatadi. Oqilona tanlov modelini institutsional doiralarga joylashtirish «doira samarasi» deb nom oldi. Biroq oqilona tanlov institutsional doiralarini faqat chegaralash (giyohvondlik moddalari, qurol-aslaha, boshqa ijtimoiy xavfli tovarlar va xizmatlar oldi-sotdisi to'g'risida shartnomalar tuzish uchun qonuniy taqiq) sifatida talqin etish noto'g'ri bo'ladi. Institutsional doiralar nafaqat cheklaydi, balki oqilona tanlovni amalga oshirish uchun zamin yaratishi mumkin. Shu tariqa, ishonchning norasmiy me'yori ham, tomonlarning shartnomadan kelib chiquvchi *majburiyatlarining* paydo bo'lishi to'g'risidagi rasmiy qoida ham, hatto shartnoma tuzish va uni bajarish lahzasi o'rtasida ancha vaqt o'tgan taqdirda ham huquqlar bilan almashish imkonini beradi. Bunday institutsional doiralarda amal qiluvchi «munosabatli» odam, o'z xususiyatlariga ko'ra homo oeconomicusdan farq qiladi – birinchi tushuncha ikkinchisiga qaraganda ancha keng.



9.1.1- rasm. Shartnomaviy majburiyat doirasi

«Munosabatli» odam oqilona maqsadli harakat me'yoriga amal qiladi, lekin shu bilan birga u o'z xatti-harakatini ishonch, empatiya va bozor konstitutsiyasini tashkil qiluvchi boshqa me'yorlar asosida ham quradi.

Uni tuzish va bajarish lahzalarining vaqt bo'yicha mos kelmasligini nazarda tutuvchi shartnoma odatiy holatni o'zida namoyon etadi.

Bozor konstitutsiyasiga ko'ra, shaxs xatti-harakatiga «tabiiy» omillarning ta'sirini aniq oldindan aytishning iloji yo'q. Chunki bozor konstitutsiyasi *shaxs* va «*tabiat*» o'rtasidagi emas, balki *shaxslar o'rtasidagi* o'zaro hamkorlikni tartibga soluvchi


me'yorlar yig'indisini o'zida namoyon etadi. Shaxslar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik natijalariga «Tabiat» ta'sirining uchta varianti mavjud.

1. «Tabiat» o'zaro hamkorlik natijalariga ta'sir ko'rsatmaydi, shaxslar ushbu holatda *aniqlik* sharoitida bo'ladi

2. «Tabiat» o'zaro hamkorlik natijalariga ta'sir ko'rsatadi, lekin uning ta'sirini oldindan aytish mumkin. Shaxs tomonidan qabul qilinadigan qarorni muqobil natijalarning paydo bo'lishi ehtimoli ma'lum bo'lganida «hisoblab chiqish» mumkin.

3. «Tabiat» o'zaro hamkorlik natijalariga ta'sir ko'rsatadi, lekin uning ta'sirini oldindan aytib bo'lmaydi. Qaror qabul qilish natijalarini «hisoblab chiqish» mumkin emas, chunki qarorni qabul qilish vaqtida ularning paydo bo'lishi ehtimoli emas, balki faqat uning muqobil yakunlari ma'lum.

Xatar va noaniqlik sharoitida hamma shaxslar ham bir xil harakat qilmaydi. Insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan ularning uchta xili mavjud: xatarga *qarshi* insonlar; xatarga *betaraf* munosabatda bo'ladigan insonlar va xatarga *moyil* insonlar(qarang:9.1.1-rasm).



9.1.2-rasm. Insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan xillari

9.2. Sotish to‘g‘risidagi shartnoma va yollash to‘g‘risidagi shartnoma

Qaysi institutsional doiralar insonlarning «tabiiy» («tabiat» bilan shartlangan) xatar va noaniqliklarga bo‘lgan munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda shartnomalar tuzish imkonini beradi? Ushbu institutsional doiralar bitim tomonlaridan biriga o‘zaro hamkorlik natijalariga «tabiiy omillar» ta’siridan qat’i nazar kafolatlangan daromad olish huquqini qo‘lga kiritib, xatardan voz kechish imkoniyatini beruvchi yollash to‘g‘risidagi shartnomada belgilanadi. Biroq bunda shartnomaning xatarga qarshi bo‘lgan tomoni vaziyat qulay tus olgan hollarda katta daromad olish uchun e’tirozlardan voz kechadi.

«Yollash to‘g‘risidagi shartnoma» atamasi yollanma xodim va ish beruvchining o‘zaro hamkorligi modelidan kelib chiqib, unda shu narsa nazarda tutiladiki, yollanma xodim – xatarga qarshi, ish beruvchi esa xatarga nisbatan betaraf. Bozor kon’yunkturasi va yollanma xodim ishlab chiqaradigan mahsulotga bo‘lgan talab qanday bo‘lishidan qat’i nazar, u mehnati uchun qat’iy belgilangan mukofotni oladi. Bunda shartnomaning o‘zida qaysi harakatlarni amalga oshirganlik uchun yollanma xodim mukofot olishi aniq ko‘rsatilmaydi, harakatlar

xususiyati «tabiiy» omillar bilan shartlangan u yoki bu vaziyat sodir bo'lishidan kelib chiqadi. Amalda yollash to'g'risidagi shartnoma faqat yollanma xodimning ish beruvchining qarorlariga bo'ysunishi zarurligini qayd etadi.

Endi yuqorida aytilganlarni qat'iyroq shaklda namoyon etamiz. Shartnoma tuzish pallasida uning amalga oshirilishiga shartnoma ishtirokchilarining nazorati ostida bo'lmagan E_i voqealar ta'sir ko'rsatishi ma'lum, deylik. Shu bilan birga ushbu r_i voqealarning sodir bo'lishi ehtimoli ham ma'lum. U holda yollash to'g'risidagi shartnomani tuzishda ish beruvchi tomonidan yollanma xodim shartnomaning amalga oshirilishi pallasida qanday E_i voqea sodir bo'lishiga qarab bajarishi uchun x_i vazifani tanlash tartibi tafsirlanadi. Yollash to'g'risidagi shartnomada butun X vazifalar yig'indisi haqida kelishib olinadi, shulardan ish beruvchi, bunda o'zining foydalilik funksiyasini maksimallashtirgan holda x_i ni tanlashi mumkin. Ya'ni yollash to'g'risidagi shartnoma deb X vazifalar yig'indisining unda funksiyaning maksimal qiymati

$$EU[p_1x_1(e_1) + p_2x_2(e_2) + \dots + p_kx_k(e_k)],$$


bu Erda $x_1, \dots, x_k \in X$ bo'lgan tafsirsiga aytiladi, bu Erda EU – ish beruvchining kutilayotgan foydaliligi. Yollash to'g'risidagi shartnomaga *sotish to'g'risidagi shartnoma* muqobil hisoblanib, unda ehtimoliy vazifalarning yig'indisi emas, balki bajarish uchun qabul qilinadigan va E_i voqealar sodir bo'lishining ma'lum ehtimolligi asosida belgilangan muayyan vazifalar haqida kelishib olinadi. Shunday qilib, sotish to'g'risidagi shartnoma quyidagi funksiyaning qiymati maksimal bo'ladigan (shartnomaning amal qilish muddati mobaynida) *kelgusi* davrlarda bajarish uchun qabul qilinadigan vazifalarni belgilab beradi:

$$r_1U[x_1(e_1)]+p_2U[x_2(e_2)]+\dots+p_kU[x_k(e_k)],$$

bu Erda U – bitim ishtirokchilarining x_i topshirig'ini bajarishdan umumiy foydaliligi.

Yollash to'g'risidagi shartnoma – xatarga betaraf bo'lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshirilishi mumkin bo'lgan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv. Bunda xatarga qarshi shaxs xatarga betaraf bo'lgan shaxsga o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini topshiradi.

Sotish to'g'risidagi shartnoma – bir xil darajada xatarga betaraf bo'lgan shaxslar o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshiriladigan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv (qarang:9.2.1-rasm).



9.2.1-rasm.Shartnomalarning asosiy turlari.

Sotish to'g'risidagi shartnoma faqat uning ikkala tomoni ham xatarga nisbatan betaraf bo'lib, kutilayotgan voqealar sodir bo'lmasligi va shartnomada qayd etilgan vazifalar yuzaga keladigan vaziyatga mos bo'lmagan ehtimollikka ko'nishga tayyor bo'lgan taqdirda tuzilishi mumkin.


Demak, sotish to'g'risidagi shartnoma xatarga bir xil munosabatda bo'ladigan – xatarga betaraf shaxslar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Yollash to'g'risidagi shartnoma esa xatarga har xil munosabatda bo'ladigan – xatarga betaraf va xatarga qarshi insonlar o'zaro hamkorligining institutsional doiralarini yoritadi. Xatarga qarshi shaxslar (yollanma xodimlar) xatarga betaraf bo'lgan shaxslar (ish beruvchilar) foydasiga o'zlarining kelgusida «tabiiy» omillarni hisobga olgan holda harakat strategiyasini erkin tanlash huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechishadi. Shaxsning shartnomada belgilangan faoliyat turi ustidan *nazorat qilish huquqining ixtiyoriy ravishda topshirilishi* yuz beradi. Huddi resurslarni tasarruf etish huquqini topshirish kabi shaxs o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini ham topshirishi mumkin.

Shunday qilib, shaxs, agar u boshqa shaxs tomonidan nazorat qilingan taqdirda katta foyda va (yoki) nazorat qilish huquqi topshirilayotgan shaxsdan kompensatsiya olishiga ishonsa, o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqining topshirilishidan *manfaatdor* hisoblanadi.

Shaxs tomonidan faoliyatning shartnomada belgilangan sohalardagi o'z harakatlari ustidan nazoratning topshirilishi hukmronlik munosabatlarining asosida yotadi. Hukmronlik munosabatlari bir necha xilda bo'ladi:

- *oddiy*, uning doirasida nazorat aynan unga nazorat qilish huquqi topshirilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi;
- *murakkab*, bunda unga nazorat qilish huquqi topshiriladigan shaxs bir vaqtning o'zida ushbu huquqni uchinchi shaxslarga topshirish huquqini ham qo'lga kiritadi;
- *pesonafikatsiyalangan*, unda nazorat qilish muayyan shaxsga topshiriladi;


- *pozitsion*, u nazoratning muayyan shaxsga emas, balki jamiyatning institutsional tarkibida (davlat apparatida, firmaning ichki tuzilishida va h.k.) muayyan mavqega ega bo'lgan shaxsga topshirilishini nazarda tutadi (qarang:9.2.2-rasm).



9.2.2-rasm.Shartnomada belgilangan hukmronlik munosabatlar.

9.3. Shartnomalarning xillari

Endi yollash to'g'risidagi shartnoma bilan sotish to'g'risidagi shartnomani o'zaro taqqoslagan holda, bevosita shartnoma tarkibini muhokama qilishga kirishamiz. Shartnomaning uchta bazaviy xili ma'lum – klassik, *implitsit* va *neoklassik*(qarang: 9.3.1-rasm)



9.3.1-rasm. Shartnomalarning bazaviy xillari

Klassik shartnoma, unda o‘zaro hamkorlikning barcha shartlari aniq va to‘la-to‘kis belgilangan, sotish to‘g‘risidagi shartnomadan hosil bo‘lgan shartnoma.

Implitsit (bundan «implitsit», ya’ni oxirigacha kelishilmagan shartnoma atamasi kelib chiqqan) shartnoma esa, aksincha, o‘zaro hamkorlikning aniq belgilanishini istisno etadi, shartnoma tomonlari shartnomaning amalga oshirilishi jarayonida ularning tafsirlanishini nazarda tutadi. Bunday shartnoma yollash to‘g‘risidagi shartnomadan hosil qilingan. Neoklassik yoki *gibrid*, «munosabatli» shartnoma o‘zida ham yollash to‘g‘risidagi shartnomaning, ham sotish to‘g‘risidagi shartnomaning unsurlarini birlashtiradi va tomonlarga kutilmagan holatlar sodir bo‘lganida uning harflariga amal qilmaslik imkonini beradi.

Quyidagi jadval yordamida uchta xildagi shartnomaning tarkibi va parametrlarini solishtiramiz.

9.3.1-jadval

Shartnoma tarkibi va xususiyatlari


Klassik	Neoklassik	Implitsit
1. Shartnoma tomonlarining tavsifi		
Ishtirokchilarning har birining o‘rnini bosadigan shaxsni topishning osonligi. Natija ishtirokchilarning tarkibiga bog‘liq emas. Tomonlar xatarga nisbatan bir xilda betaraf.	Teng o‘rinbosar topishning qiyinligi tufayli shartnoma tomonlari bir-biriga bog‘liqligining yuqori darajasi. Tomonlar xatarga nisbatan betaraf.	Bitim ishtirokchilarining ikki tomonlama bog‘liqligi: natija ularning birgalikda faoliyat yuritishga qodirligiga bog‘liq. Bir tomon xatarga nisbatan betaraf, ikkinchi tomon xatarga qarshi.

2. Shartnoma shakli		
Shartnoma standart shaklda, unda shartnomani bajarishning barcha detallari haqida to'liq kelishib olingan.	Shartnoma shakli «bitimga moslab» maxsus ishlab chiqiladi. Shartnoma to'liq tafsirlanmagan, balki tuzatishlar kiritish uchun imkoniyat qoldiradi.	Shartnomaning asosiy qoidalari eksplitsit tarzda umuman tafsirlanmasligi mumkin. Shartnoma tomonlarning biri tomonidan o'z harakatini nazorat qilish huquqining boshqa tomonga topshirilishiga olib keladi.
3. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar		
Tomonlar to'liq muxtoriyatni saqlab qolishadi.	Tomonlar muxoriyatni saqlab qolishadi.	Hukmronlik munosabatlari: faoliyatni nazorat qilish huquqini topshirish.
4. Shartnoma tuziladigan davr		
Qisqa muddatli.	O'rta va uzoq muddatli.	Uzoq muddatli. Shartnomaning amal qilish davri haqida umuman kelishmaslik mumkin: u tomonlardan biri uchun nazorat qilish huquqidan mustaqil foydalanganga qaraganda uni topshirish foydaliroq ekan, amal qilaveradi.
5. Kutilmagan holatlarga moslashish usuli		
Shartnomani yangi shartlarda qayta tuzish	Muzokaralar, pozitsiyalarning kelishish, «tomonlarning o'zaro	Shartnoma tomonlaridan birining boshqa tomon qarorlariga bo'ysunishi (X

	munosabatlari mobay- nida to'plangan barcha o'zaro hamkorlik tajribasi» asosida o'zaro voz kechishlar.	vazifalar yig'indisidan x vazifaning bajarilishiga taalluqli).
6. Shartnoma shartlarini bajarishga undovchi omillar		
Kuchli: tomonlarning mukofotlanishi shart- nomada qayd etilgan muayyan vazifalarning bajarilishi bilan bog'langan.	O'rtacha: «oqlash» doktri- nasidan foydalanish tomonlarga majburiyat- larning bajarilishiga to'siq sifatida kutilma-gan holatlarni bahona qilish imkonini beradi.	Kuchsiz: shartnoma tomonlaridan biri nazorat huquqini topshirganlik fakti uchun qat'iy belgilangan mukofotni oladi.
7. Shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun sanksiya		
Shartnomaning o'zida qayd etilgan huquqiy sanksiyalar.	Tomonlarning uzoq vaqtli o'zaro hamkorlik qilishi davri mobaynida orttirilgan obro'ning yo'qotilishi.	Ma'muriy jazo, nazorat huquqini topshirganlik uchun kompensatsiyaning kam foydali shartlari
8. Nizolar hal etiladigan instansiya		
Sud	Uchinchi tomon: arbitraj sud, hakamlar sudi.	Nizolarni hal etish qandaydir uchinchi tomon jalb qilinmagan holda, hokimiyatdan foydalanish asosida amalga oshiriladi.
9. Nizolarni hal etish tartiboti samaradorligini cheklovchi omillar		

Sud tasarrufida bo'lgan axborotning cheklanganligi. qonundan foydalanish narxi nolga teng emas.	Hakamlar sudi yoki arbitraj sudining obro'si. Uchinchi tomonga topshiriladigan vakolatlarning cheklanganligi (arbitraj bundan mustasno). Xufyonalik narxi noldan farq qiladi.	Ma'muriy nazoratni amalga oshirish xarajatlari. Har qanday nizo o'zida tomonlarning nafaqat «ovoz berish», balki «chiqish», ya'ni topshirilgan nazorat huquqini qaytarib olish huquqidan ham foydalanish imkoniyatini o'zida mujassamlantiradi.
10. Misollar		
Oldi-sotdi shartnomasi	Franchayzing. Tabiiy monopoliyalarning tartibga solinishi. Transport, energetika va xomashyo kompaniyalari o'rtasidagi uzoq muddatli shartnomalar.	Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasidagi shartnoma. Firma ichidagi munosabatlarning butun majmui.

O'zbekistonda xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish yoki bekor qilishning huquqiy asoslari "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnoma-huquqiy asoslari to'g'risida"gi Qonun bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikaida amalda bo'lgan xo'jalik shartnomalarining turlari 9.3.2-rasmda keltirilgan.



9.3.1-rasm. O'zbekiston Respublikasida shartnomalar turlari*

* Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan.

9.4. Tashkilot tushunchasi va institut bilan tashkilot o'rtasidagi chegara

Prinsipial jihatdan yangi holat – shaxs tomonidan yollash to'g'risidagi shartnoma doirasida o'z harakatlarini nazorat qilish huquqining ixtiyoriy ravishda topshirilishi – bozor konstitutsiyasi me'yorlariga tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Birinchidan, murakkab utilitarizm me'yoriga faqat yollash to'g'risidagi shartnomaning tomonlaridan biri – unga nazorat huquqi topshirilayotgan tomon amal qiladi. Bitimning ushbu tomonini «*prinsipal*» yoki «*topshiriq beruvchi*» deb ataymiz. Bitimning ikkinchi tomoni – «*agent*» yoki «*ijro etuvchi*» ma'lum darajadan ortiq bo'lgan mukofot evaziga o'z harakatlarini o'zi nazorat qilish huquqidan voz kechadi. Boshqacha aytganda, «*agent*» o'zining foyda olish

darajasini oshirmaydi, balki foydaning ma'lum darajasiga erishishni mo'ljallaydi (*cheklangan* utilitarizm me'yori). «Prinsipal» va «agent» o'rtasidagi munosabatlar qat'iy shaklda quyidagi tenglamalar bilan yoritiladi:

$$\max EU(\text{principal}) = EU[f(Q), Q, A, S],$$

$$EU(\text{agent}) = EU(Y, A, S) \geq U,$$

bu Erda: Q – shartnomani amalga oshirish natijasi ("chiqish");

Y = f(Q) - "agent" faoliyatiga haq to'lashning tanlangan sxemasi;

A - ""prinsipal" tomonidan qo'yilgan vazifalarni bajarish bo'yicha agent" qo'llaydigan sa'y-harakatlar;

S – shartnoma tomonlariga bog'liq bo'lmagan «tabiiy» omillar.

Ikkinchidan, «agent»ning xatti-harakati oqilona maqsadli harakat tamoyillarini buzadi, chunki u maqsadlarni tanlashda erkin emas – maqsadlar «prinsipal»ning manfaatlari bilan belgilangan. «Agent» o'z harakatlarida o'z manfaatlariga amal qilmasligi kerak, u birinchi navbatda «prinsipal»ning manfaatlarini ko'zlashi lozim. Ideal «agent» «prinsipal»ning manfaatlarini o'z manfaatlarini singari qabul qiladi.

Uchinchidan, ishonch me'yorini amalga oshirish bilan bog'liq muammolar ham mavjud. «Agent» «prinsipal»ga u tomonidan u yoki bu vaziyatda qabul qilinadigan qarorlarning to'g'riligi nuqtai nazaridan ishonishi lozim. «Prinsipal»ga ishonmagan «agent» unga nazorat qilish huquqini topshirishdan manfaatdor emas. Bundan tashqari, «agent» «prinsipal» «agent»ning harakatlari ustidan nazorat sohasini shartnoma bilan belgilanmagan munosabatlarga ham yoymasligiga ishonch hosil qilishi kerak. Teskari holat noto'g'ri, chunki «prinsipal» hatto «agent»ning harakatlarini o'z foydaliligini emas, balki «prinsipal»ning foydaliligini oshirishga yo'naltirish zarurligini hisobga olgan holda unga nisbatan ma'lum darajada ishochsizlik bilan munosabatda bo'lishi lozim.

To‘rtinchidan, yollash to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirish uchun empatiya normasi talab etilmaydi. «Prinsipal» mukofotning «agent» rozi bo‘ladigan eng past darajasini bilishi kifoya qiladi. Unda ikkala tomon ham shartnoma yordamida o‘zining foydaliligini oshiradigan, «simmetrik barqarorlik» mezoniga javob beruvchi sotish to‘g‘risidagi shartnomadan farqli o‘laroq, yollash to‘g‘risidagi shartnoma simmetrik barqarorlikni nazarda tutmaydi. Bir tomondan, yollash to‘g‘risidagi shartnomani amalga oshirishdan yutuqni taqsimlash assimmetrik xususiyatga ega. Ikkinchi tomondan - hatto «agent»ga o‘z huquqlarini «prinsipal»ga topshirganlik uchun to‘lanadigan kompensatsiya «gorizontal bo‘yicha» emas, faqat «vertikal bo‘yicha» munosabatlarga taalluqli. Yollash to‘g‘risidagi shartnoma bir necha «agent»ga amal qilingan hollarda ular o‘rtasidagi munosabatlar «prinsipal»ga murojaat etish orqali tartibga solinadi va shuning uchun simmetrik barqarorlikka erishishga yo‘naltirilmagan.

Va nihoyat, qonunga bo‘ysunish me‘yoriga zarurat yo‘q, chunki shartnomani amalga oshirish yuzasidan kelib chiqadigan nizolar umuman qonunga bo‘ysunish orqali hal etilmaydi. Yollash to‘g‘risidagi shartnomaning bajarilishi bilan bog‘liq barcha masalalar «ichki hakam» - «prinsipal» tomonidan hal etiladi.

Shu tariqa «prinsipal» va «agent»ning yoritilgan o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi me‘yorlar yig‘indisi buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasini eslatadi. Lekin, bu tasodif emas. Neoinstitutsional nazariya asoschisi, Nobel mukofotining lauriyati Ronald Kouz o‘zining «Firma tabiati» maqolasida buyruqbozlik asosiga ega bo‘lgan iqtisodiy munosabatlar bozor tizimining ichida ham mavjud, degan xulosaga keladi. «Bizning iqtisodiyotda rejalashtirish mavjud... Firma ichida... bozor transaksiyalariga barham berilgan, almashuv transaksiyalariga ega bo‘lgan murakkab bozor tuzilmasining rolini esa muvofiqlashtiruvchi tadbirkor o‘ynaydi, u ishlab chiqarishni ham boshqaradi».

Boshqacha aytganda, buyruqbozlik iqtisodiyoti konstitutsiyasi nafaqat tarixiy jihatdan qiziqish uyg‘otadi, balki u alohida tuzilmalar – yollash to‘g‘risidagi shartnoma asosida yuzaga keladigan *tashkilotlar* doirasida munosabatlarni tartibga soladi. Tashkilot deganda biz «ta‘riflanadigan chegaralarga ega bo‘lgan va

maqsadlarga yoki ishtirokchi a'zolar tomonidan taqsimlanadigan maqsadlar yig'indisiga erishish uchun faoliyat ko'rsatuvchi muvofiqlashtirish birligi»ni tushunamiz. Firmalar (muvofiqlashtirishning iqtisodiy birliklari), kasaba uyushmalari, siyosiy partiyalar, universitetlar, foyda ko'rmay ishlovchi tashkilotlar va ko'plab boshqa «muvofiqlashtirish birliklari» tashkilotlar hisoblanadi. Ushbu ta'rifdan tashkilotning uchta asosiy xususiyati kelib chiqadi.

Ishtirokchilar yig'indisi.

Barcha ishtirokchilarni «prinsipal» manfaatlaridan hosil bo'lgan tashkilot maqadlariga moslashuv darajasi.

1. Hukmronlik munosabatlarining rasmiy tuzilmasi, ma'lum darajadagi murakkablik bilan tavsiflanuvchi ko'p pog'onalik.

Tashkilot - hukmronlik munosabatlari, ya'ni ishtirokchilarining ayrimlari - «agentlar» tomonidan o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqining uning boshqa ishtirokchisi – «prinsipal»ga topshirilishi asosida qurilgan muvofiqlashtirish birligi.

Tashkilotni muvofiqlashtirish birligi sifatida ta'riflash ushbu tushuncha va insonlarning o'zaro hamkorligini belgilab beruvchi «institut» tushunchasini aniq chegaralashni talab qiladi. Ularni quyidagi jadval yordamida taqqoslaymiz (qarang:9.4.1-jadval).

9.4.1-jadval.

Institut va tashkilot tushunchalarining farqlanishi

Institut	Tashkilot
<i>Makro</i> institutsional toifa	<i>Mikro</i> institutsional toifa
O'zaro hamkorlikning <i>umumiy</i> doiralarini belgilaydi	O'zaro hamkorlik(lar)ning <i>muayyan</i> doiralarini belgilaydi
<i>Sof ijtimoiy ne'mat</i> tavsifiga ega	<i>Klub ne'mati</i> tavsifiga ega
<i>Individuallashtirilmagan</i> va <i>nolokal</i> transaksiyalarni tartibga soladi	Aniq chegaralangan, demak, <i>individuallashtirilmagan</i> va <i>lokal</i>

	transaksiyalarni tartibga soladi
Shaxslar institutlarning o'zgarish jarayoniga ta'sir ko'rsata olishmaydi	Tashkilot shaxslarning ongli ravishdagi tanlovi natijasi sanaladi
Hukmronlik munosabatlarining elementi <i>mavjud emas</i>	Hukmronlik munosabatlari tashkilot <i>faoliyat ko'rsatishining asosida yotadi</i>
Transaksiya xarajatlarining tarkibini va miqdorini belgilaydi	Institutsional doiralar tomonidan belgilangan transaksiya xarajatlarining tejalishiga ko'maklashadi

Transaksiya xarajatlarini tejashga taalluqli bo'lgan so'nggi farq xususida alohida to'xtalib o'tish lozim. Yollash to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish o'sha maqsadlar uchun sotish to'g'risidagi shartnomaning institutsional doiralaridan foydalanishdagiga qaraganda ancha kam transaksiya xarajatlari bilan bog'liq. Tejash, birinchidan, shartnomani muntazam qayta tuzish zarurati yo'qolishi munosabati bilan, ikkinchidan esa, shartnomaning implitsit shakli – o'zaro hamkorlikning barcha detallarini aniq tafsirlashdan voz kechish hisobidan paydo bo'ladi.

Transaksiya xarajatlarini tejashning qolgan bizga ma'lum vositalari ichida *tashkilot* bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Bitimlar tuzishda muzokaralar yuritish xarajatlarini tejash imkonini beruvchi standart (namunaviy) shartnomalardan foydalanish; o'lchash xarajatlarini pasaytiruvchi sifat, o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish va rivojlantirish; jamiyatda mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish xarajatlarining kamayishiga olib keluvchi konsensus mafkurasini shakllantirish kabi vositalar shular jumlasidandir. Ularni qo'llash intensivligini oshirish bilan yuqorida ko'rsatilgan barcha uchta vositaning samaradorligi pasaymaydi. Aksincha, ushbu vositalardan qanchalik keng foydalanilsa, bir bitim hisobida transaksiya xarajatlarining miqdori shunchalik kam bo'ladi.

Tashkilot doirasida transaksiya xarajatlarini tejash borasidagi ishlar esa boshqacha ko‘rinishga ega. Transaksiya xarajatlari miqdorlarining o‘sishi, ya’ni tashkiliy doiralarda bitimlar ko‘proq amalga oshirilishi bilan ushbu sohada uning samaradorligi kamayadi. Tashkilot ichida bitimlarni amalga oshirish hamon axborotni qidirish xarajatlarini, shuningdek muzokaralar yuritish xarajatlari va shartnoma tuzish xarajatlarini pasaytirish imkonini bersa-da, bunda boshqa xildagi xarajatlarning o‘sishi yuz beradi. Tashkilot o‘lchamlarining ortishi bilan, birinchi galda, monitoring va opportunizmni oldini olish xarajatlari oshadi. Birinchidan, tashkilot ishtirokchilari sonining o‘sishi bilan ular manfaatlarining birligiga, aniqrog‘i ular manfaatlarining «prinsipal» manfaatlariga mos kelishiga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun «prinsipal» monitoringni va «agentlar» harakatini nazorat qilish uchun katta sa’y-harakatlarni amalga oshirishga to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari, tashkilotning o‘sishi «prinsipal»ni, «agentlar»ni nazorat qilish bo‘yicha vakolatlarining bir qismini o‘z vakillariga topshirgan holda, murakkab hukmronlik munosabatlari sxemasiga o‘tishga majbur etadi. Ushbu tarkibiy o‘zgarishlar nafaqat «agentlar»ni nazorat qilish xarajatlarining ortishi bilan, balki «prinsipal» manfaatlari vakillarining harakatlarini nazorat qilish zarurati bilan ham bog‘liq

R.Kouz tashkilotning o‘sishi bilan kamayuvchi samaradorlikni «menejmentning kamayuvchi marjinal samaradorligi» deb nomladi va *hamma vaqt institutga (bozorga) nisbatan tashkilot (firma) o‘shining chegarasi mavjud* degan fikrga keldi. «Firma firma ichidagi bitta qo‘shimcha transaksiyani tashkil etish xarajatlari o‘sha transaksiyani ochiq bozorda almashish orqali amalga oshirish xarajatlari bilan tenglashgunga qadar kengayib boradi...». Ya’ni, yolg‘iz firmadan tashkil topgan iqtisodiyot (buyruqbozlik iqtisodiyotini ana shunday deyish mumkin) bo‘lishi *mumkin*, lekin menejmentning marjinal samaradorligi kamayishi tufayli u *samarasiz* bo‘ladi¹.

¹ Қаранг: Коуз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело, 1993. – 143 с.

Masalan, A firma bozorda B, V va G firmalardan (sotish to'g'risidagi shartnoma doirasida) sotib olinadigan butlovchi qismlardan kompyuter yig'ish bilan shug'ullanadi, deylik. O'zining transaksiya xarajatlarini optimallashtirgan holda, A firma B firma bilan yagona korxonaga tuzishga qaror qiladi. U V firma bilan ham masalani huddi shu tariqa hal etadi. G firmani yagona tashkiliy tuzilmaga kiritish firma ichidagi boshqaruv va nazorat xarajatlarining o'sishi tufayli foydasiz bo'lib chiqishi mumkin. Shunday qilib, A firma tomonidan V firmaning qo'shib olinishi *chegara* bitim hisoblanib, shundan so'ng keyingi kengaytirish samarasiz bo'lib qoladi.

Lekin, institut bilan tashkilot o'rtasidagi chegaraning aniq demarkatsiyasi sotish to'g'risidagi shartnoma (bozor bitimlari)ning ham, yollash to'g'risidagi shartnoma (firma ichidagi bitimlar)ning ham elementlarini o'zida birlashtiruvchi neoklassik shartnomalarning mavjud bo'lishi fakti bilan qiyinlashadi. Masalan, A firma o'z tarkibiga G firmani birlashtirishdan bosh tortishi, lekin ayni paytda u bilan butlovchi qismlarni Etkazib berish uchun shartnoma tuzishi mumkin, bu hukmronlik munosabatlari asosida emas, balki ikki tomonlama kelishuv asosida bozorning «tabiiy» oldindan aytib bo'lmasligidan ko'riladigan zararlarni pasaytirish imkonini beradi.

9.5. Qishloq xo'jaligida shartnoma munosabatlari

O'zbekistonda har yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, moddiy-texnika resurslarini Etkazib berish va xizmatlar ko'rsatish uchun ko'p sonli shartnomalar tuziladi. Tomonlar shartnomalar bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarining o'z vaqtida bajarishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining yakuniy natijalariga va ularning samaradorligiga jidiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun davlat tomonidan shartnomalar monitoringini yuritish yo'li bilan shartnomalar shartlarining bajarilishini nazorat qilishga katta e'tibor qaratiladi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari bilan tuziladigan shartnomalar quyidagi tasnifga ega:

- (a) davlat ehtiyojlari uchun mahsulotlar uchun shartnomalar;
- (b) moddiy-texnika resurslarini Etkazib berish uchun shartnomalar;
- (v) kontraksiya shartnomalari;
- (g) xizmatlar ko'rsatish uchun shartnomalar.

Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarining g'alla, paxta xomashyosi, urug'lik paxta, shuningdek g'alla va boshqali ekinlar urug'lari kabi turlari xarid qilingan edi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi sharoitida tomonlar o'rtasidagi mulkiy munosabatlar shartnomalar asosida quriladigan mulkdorlar tadbirkorlik faoliyatini muvaffaqiyatli yuritishi uchun o'z zimmasiga olingan majburiyatlarning bajarilishi alohida ahamiyatga ega. Amaliyotda shartnoma majburiyatlari buzilishi turlarining quyidagi tasnifi qo'llaniladi: ishlarning bajarilmasligi yoki xazmatlar ko'rsatilmasligi; sifatsiz tovarlar (ishlar, xazmatlar)ni Etkazib berish; to'liqsiz tovarlarni Etkazib berish; markalanmagan, shuningdek idishsiz yoki upakovka qilinmagan tovarlarni Etkazib berish; Etkazib berish muddatining kechiktirilishi, tovarlarni to'liq Etkazib bermaslik; akkreditivdan foydalanmaslik; to'lov, tovar-transport hujjatlarining kechiktirilishi; tovarlar (ishlar, xazmatlar) haqini to'lamaslik yoki o'z vaqtida to'lamaslik; tovarlarni saralab olmaslik yoki ulardan voz kechish; mablag'larning akseptsiz hisobdan chiqarilishi.

Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar shartnoma munosabatlariga kirishayotib xo'jalik faoliyatini kelishilgan hajmda, belgilangan vaqtda va joyda amalga oshirilishini ta'minlaydigan mahsulot (ishlar, xazmatlar)ni olish uchun kafolatlangan asosga ega bo'lishni nazarda tutadi. Bu esa tuzilgan shartnomalarning buzilmasligini va o'zgarmasligini ta'minlaydi. Xomashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni xarid qilish uchun shartnomalar tuzgan tomonlarning o'zlari yakuniy mahsulotni tayyorlash zanjiri bo'yicha ushbu mahsulotni boshqa sub'yektlarga sotish uchun ko'p sonli shartnomalarni tuzadi, ya'ni xo'jalik aloqalarining murakkab tizimi shakllanadi. Shuning uchun har

qanday joyda shartnomalarning bajarilishi mamlakat xo‘jalik faoliyatining butun mexanizmida ko‘zlangan topshiriqlar bajarilishining kafolati hisoblanadi, shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi esa keyingi bo‘g‘inlarda nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

Keyingi jihat shundan iboratki, xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar, shu jumladan mulkdorlar shartnoma tuzishda shartnoma majburiyatlarining o‘zgarishi yoki tugatilishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan barcha shartlarni ko‘rsatishga haqli. Bugungi kunda yuzaga kelgan amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, shartnomada xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan majburiyatlarning bajarilishi shartlari qanchalik aniq belgilansa, shartnoma bandlarining o‘zgarishi yoki majburiyatlarning tugatilishi shunchalik oson kechadi.

Bundan tashqari, amaliyotda xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarning bajarilmasligi ko‘pincha amaldagi qonun hujjatlari doirasidan tashqariga chiquvchi ko‘p sonli omillar orqali yuz beradi. Shuning uchun xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan shartnomalar bo‘yicha majburiyatlar bajarilmasligining har bir holatini aniq tarzda ko‘rib chiqish va buning sababini chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaligi xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlari tomonidan o‘z zimmasiga olingan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi to‘g‘risida so‘z yuritadigan bo‘lsak, bu Erda:

birinchidan tomonlar Etkazgan zararlar uchun to‘lov ko‘rinishida javobgarlik;

ikkinchidan, mahsulot Etkazib berish uchun berilgan bo‘nak mablag‘larini qaytarish;

qonun hujjatlarida va shartnoma shartlariga ko‘ra nazarda tutilgan jarimalarni to‘lash kabi choralar qo‘llaniladi.

Respublikamizda o‘zaro va davlat bilan shartnoma munosabatlarida ishtirok etuvchi tomonlarni himoyalash uchun qarzdorlardan zararlarni undirishni talab qilish imkonini beruvchi barcha qonuniy qarorlar mavjud. Bu Erda shuni ta’kidlash lozimki, zararlarning qoplanishi shartnomalarning bajarilishini rag‘batlantirishda

va ishlab chiqarish unumdorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu usulning qo‘llanishi bilan shartnoma intizomiga amal qilinadi va noishlab chiqarish xarajatlari qisqaradi. Bundan tashqari, javobgarlikning mazkur turini qo‘llash moddiy resurslarni tejash rejimiga, shuningdek xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar tomonidan xo‘jalik faoliyatining optimal tarzda yuritilishiga xizmat qiladi.

Shartnomalarni tayyorlash, tuzish va amalga oshirish tamoyillarining belgilanishi respublikada shartnoma munosabatlarning mazmunini muvaffaqiyatli shakllantirishning eng muhim metodologik jihatlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan shartnomalarning bajarilishi monitoringini yuritish tartibi quyidagilardan iborat bo‘lgan.

Tayyorlash va qishloq xo‘jaligi sub‘yektlariga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar xo‘jaliklar bilan tuzilgan shartnomalarning bajarilishi monitoringini yuritadi va ushbu axborotni Qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlariga hisobot davridan keyin 10 kun ichida taqdim etadi. Mazkur bo‘linmalar Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining shartnoma majburiyatlarining bajarilishi bo‘yicha materiallarga ishlov beruvchi tegishli boshqarmalarini bu haqida xabardor qiladi. Shartnoma majburiyatlari bajarilmagan holatlarda umumlashtirilgan ma’lumotlar hududiy sud organlariga yuboriladi. Sud hamda qishloq va suv xo‘jaligi organlari o‘z vakolatlari doirasida tayyorlash va xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar tomonidan shartnomalarning bajarilishi monitoringini yuritadi va nazorat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida **“Ettinchidan, iqtisodiyotimiz rivojini, aholi bandligi va daromadlari o‘shirishini ta’minlaydigan eng muhim sohalardan biri bo‘lgan qishloq xo‘jaligini strategik yondashuvlar asosida taraqqiy ettirish zarur. Tarmoqdagi hozirgi o‘shirish sur‘atlari bizni mutlaqo qoniqtirmaydi. Bu borada bozor mexanizmlarini keng joriy etib, fermer va dehqonlar manfaatdorligini oshirmas ekanmiz, biz kutgan sezilarli o‘zgarish bo‘lmaydi. Shu bois, paxta va g‘alla Etishtirishga davlat buyurtmasini bekor qilib, ushbu mahsulotlarni bozor tamoyillari asosida xarid qilish tizimiga bosqichma-bosqich o‘tamiz.**

Agar bu yo‘ldan bormasak, fermer va dehqonlarimiz mahsulot Etishtirishda erkin bo‘lmaydi, ular o‘zlari kutganlaridek manfaat ko‘rmaydi, hokimlarning esa ish uslubi o‘zgarmaydi. Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasini isloh qilib, agrar sohaning boshqa tarmoqlariga ham arzon kreditlar ajratish yo‘lga qo‘yiladi. Kelgusida Qishloq xo‘jaligi vazirligi soha korxonalariga ko‘rsatma berish, resurslarni taqsimlash, reja belgilash kabi eski ish usullaridan mutlaqo voz kechishi zarur. Buning o‘rniga vazirlik servis tashkilotiga aylanishi, xususiyy agrosanoat tashkilotlariga Er holatini aniqlash, ekin turlari va urug‘ni to‘g‘ri tanlash, zararkunandalarga qarshi kurashish, moliyaviy ko‘maklashish, mahsulot bozorini topish bo‘yicha xizmat ko‘rsatishi kerak”¹, -deb ta’kidladi.

Xulosa

Shartnoma muayyan bitimlarni amalga oshirishning institutsional doiralarini o‘zida namoyon etadi. Har qanday institut singari, shartnoma nafaqat o‘zaro hamkorlikni chegaralaydi, balki uning uchun zamin yaratadi, bu hol ayniqsa bitimlarni tuzish va amalga oshirish lahzalarining vaqt bo‘yicha mos kelmasligida yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunday turdagi bitimlar ular ishtirokchilarining maqsadlariga bog‘liq bo‘lmagan holatlarning paydo bo‘lishi xatari bilan bog‘liq. Insonlar xatarni qabul qilish darajasi bo‘yicha farq qiladi, bu esa ikki turdagi shartnomalarning – xatarga betaraf bo‘lgan sheriklar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi sotish to‘g‘risidagi shartnoma hamda xatarga betaraf bo‘lgan va xatarga qarshi insonlarga o‘zaro hamkorlik qilish imkonini beruvchi yollash to‘g‘risidagi shartnomaning mavjud bo‘lishini izohlaydi.

Tashkilot kichiklashgan buyruqbozlik iqtisodiyotini o‘zida namoyon etadi. Tashkilot ichki o‘shining cheklanishlari aynan shu bilan bog‘liq: tashkilot ko‘lamlarining kengayishi monitoring va opportunizmni oldini olish xarajatlarining

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь.// Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

o'shishiga olib keladi. Institut (bozor) bilan tashkilot (firma) o'rtasidagi eng aniq chegara quyidagi ko'rsatkichlar darajasini baholash yordamida aniqlanadi: aktivlarning o'ziga xosligi, noaniqlik, bitim tomonlarining xatarga moyilligi, bitimning murakkabligi, shuningdek qonundan foydalanish bahosi bilan xufyonalik bahosining o'zaro nisbati.

MAVZUGA DOIR TAYANCh IBORALAR

Shartnoma – belgalangan institutsional doiralarda shaxslarning ongli ravishda va erkin tanlashi natijasi hisoblangan mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi kelishuv.

Sotish to'g'risidagi shartnoma – bir xil darajada xatarga betaraf bo'lgan shaxslar o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshiriladigan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.

Yollash to'g'risidagi shartnoma – xatarga betaraf bo'lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshirilishi mumkin bo'lgan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv. Bunda xatarga qarshi shaxs xatarga betaraf bo'lgan shaxsga o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini topshiradi.

Tashkilot - hukmronlik munosabatlari, ya'ni ishtirokchilarining ayrimlari - «agentlar» tomonidan o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqining uning boshqa ishtirokchisi – «prinsipal»ga topshirilishi asosida qurilgan muvofiqlashtirish birligi.

Implitsit - ya'ni oxirigacha kelishilmagan shartnoma atamasidan kelib chiqqan shartnoma.

Shartnomaviy davlat – bu faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo'lida kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to'lashga majburiyat deb emas, balki o'z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan burch sifatida qaraydi.

Chayqovchilik – turli tovarlarni arzon sotib olib, ularga texnologik ishlov bermasdan qimmat sotish bilan daromad topishni ko‘zlaydigan faoliyat turi.

Shartnoma munosabatlari – tovar ishlab chiqaruvchilar bo‘lmish korxonalar o‘rtasida bitimga binoan amalga oshadigan iqtisodiy aloqalar.

Shartnoma narxlari – tovarlarni ishlab chiqaruvchi bilan uni iste‘mol etuvchi o‘rtasidagi bitimga binoan xar ikkala tomonning roziligiga qarab belgilangan narx.

Shartnomaviy narx – bu shartnoma asosida sotuvchi va sotib oluvchi maxsulot ishlab chiqaruvchi va iste‘mol qiluvchi yoki o‘rtada turuvchi o‘rtasidagi o‘rnatilgan narxdir.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Shartnomani tuzishda shaxslar rasmiy va norasmiy me‘yorlarni muayyan bitim ehtiyojlari uchun qo‘llagan holda, ulardan foydalanishadi. Agar siz uchun shartnoma tuzish og‘zaki usulda amalga oshirish manfaat keltirsa u holda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

- a) shartnoma kafolatlanishi shart;
- b) shartnoma tuzuvchining xuquqiy savodxonligini o‘rganish;
- v) “Lavz puldan ham qimmat” degan mashhur maqol orqali;
- g) kelgusi davr shartnoma tuzish xolatidan yiroq bo‘lishni anglagan holda;
- d) shartnoma tuzishning bu holati doim ijobiy yakun topgani.

Javob: a) va v), institutsional iqtisodiyotda xar qanday shartnoma kafolatlanishi shart, ya’ni rasmiy normalar asosida, balki “Lavz puldan ham qimmat” degan mashhur maqol orqali ham amalga oshirilishi mumkin bunda shartnoma tuzuvchi oila sha’nini e’tiborga oladi.

2–misol. Xatar va noaniqlik sharoitida hamma shaxslar ham bir xil harakat qilmaydi. Insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan ularning

uchta xili mavjud: xatarga qarshi insonlar; xatarga betaraf munosabatda bo‘ladigan insonlar va xatarga moyil insonlar.

Siz insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan talabalik davrida qanday qabul qilasiz?

- a) xatarga qarshi insonlar munosabatida;
- b) xatarga betaraf insonlar munosabatida;
- v) xatarga moyil insonlar munosabatida;

Javob: a) talabalik davrida xatarga qarshi insonlar munosabatida bo‘ladi, chunki, yollash to‘g‘risidagi shartnoma – xatarga betaraf bo‘lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o‘rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida amalga oshirilishi mumkin. Talabalikda tuzilgan shartnoma talabani xatarga qarshi shaxs ekanligini ko‘rsatadi.

3–misol. “Lavz puldan ham qimmat” degan mashhur maqolni institutsional nuqtai nazardan talqin eting. Unda qanaqa shartnoma ideali o‘z aksini topgan?

Siz shu yo‘sinda shartnoma tuzgan bo‘lar edingizmi? Qanday ko‘rinishdagi shartnomalarni?

- a) yollash to‘g‘risidagi shartnomalarni;
- b) sotish to‘g‘risidagi shartnomalarni;
- v) og‘zaki shartnomalarni;
- g) bir martalik kafolatlangan shartnomalarni;
- d) uzoq yillar birga faoliyat olib borayotgan oilaviy shartnomalarni.

Javob: v), g) va d) shartnomalar rasmiy va norasmiy normalarga javob beradi.

KEYSLAR

Keys 1. “Nikoh shartnomasi” nima

“Qanday qilib oila qurishga ulgurmasdan turib, ajrashish, pulni bo‘lish to‘g‘risida o‘ylash mumkin?”, - deya jazavaga tushdi butun umr qonuniy nikohda yashagan bir ayol. “Mumkin, hatto kerak ham! Agar bu o‘zini noxo‘shliklardan himoya qilishning, balki oilani mustahkamlashning yagona usuli bo‘lsa”, — deb

xisoblaydi ko‘plab yigitlar. Chet elda nikoh shartnomasi allaqachon sivilizatsiyalashgan munosabatlarni ta’minlovchi normaga aylangan.

Nikoh shartnomasi — bu bo‘lajak er-xotin o‘rtasidagi, birinchi galda, oilaviy hayotning mulkiy tomonlari haqidagi yozma kelishuv. Mazkur hujjat notariusda tasdiqlanib, kelin-kuyovning har biri bittadan nusxasiga ega bo‘ladi, asl nusxa esa huquqshunosda qoladi. Vaqt o‘tishi bilan nikoh shartnomasining shartlarini o‘zgartirish mumkin, bunda shartnomaning yangi matni o‘sha notarial idorada tasdiqlanadi. Kelishuvni nikoh tuyidan oldin ham, undan keyin ham rasmiylashtirish mumkin. Birinchi holatda, u nikoh tuzilganidan keyin, ikkinchi holatda esa notariusda tasdiqlangan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Ushbu hujjat oilada asosan mulkiy munosabatlarni tartibga soladi, lekin unga siz istalgan bandlarni kiritishingiz mumkin.

Mazkur hujjat yordamida er-xotin birgalikdagi mulkning qonun bilan belgilangan rejimini o‘zgartirishga haqli. Masalan, qonunga ko‘ra, ajrashish holatida birgalikda qo‘lga kiritilgan barcha mol-mulk teng ikkiga bo‘linadi, shuningdek, sud er-xotinning shaxsiy buyumlarini qanday bo‘lish masalasini ham hal etadi. Siz mol-mulkka egalik qilishning istalgan shaklini tanlashingiz mumkin: birgalikda (umumiy), ulushli (hammadada o‘z ulushi) yoki alohida (ya’ni shaxsiy). Har biringizda shaxsiy mulkka ega bo‘lish huquqi mavjudligi tufayli siz nikohgacha o‘zingizga tegishli bo‘lgan, shuningdek, sovg‘alar yoki merosni ana shunday mulk deb atashingiz mumkin. Nikoh shartnomasida siz bir-biringizni, bolalarni va keksa ota-onalarni boqish yuzasidan o‘z huquq va majburiyatlaringizni, bir-biringizning daromadlaringizda ishtirok etish usullari va chegarasini, har biringiz umumiy g‘aznaga qo‘shadigan pul miqdorini belgilab olishingiz, shuningdek, mulki munosabatlarga taalluqli istalga boshqa holatlarni kiritishingiz mumkin.

Nima bo‘lmasin, «Nikoh shartnomasini rasmiylashtirish joizmi?» degan savolga huquqshunoslar tasdiqlovchi javobni berishadi. *Birinchi*dan, ajrashgandan keyin bor-budidan ayriib qolish xatari kamayadi, *ikkinchi*dan, siz shaxsiy mol-mulkni o‘zingizga biriktirasiz, *uchinchi*dan, nikoh shartnomasi hamma vaqt tashkil

etuvchi va to'sqinlik qiluvchi omil **hisoblanadi**. Masalan, er ajrashish holatida muayyan moddiy xarajatlarga duch kelishini bilgan holda oiladan ketish-ketmasligi to'g'risida yana bir bor o'ylab ko'radi.

2. Nikoh shartnomasini tuzishning asosiy tamoyili: bunday shartnoma imkon qadar «rezinali» bo'lishi, ushbu shartnomaga boshqa qaytmaslik uchun ehtimoliy fors-major holatlari vaziyati rivojlanishining imkon qadar ko'proq sonini **hisobga olishi lozim**. Chunki nikoh shartnomasini deyarli har kuni o'zgartirishga bo'lgan qiziqish tez orada er-xotinning bir-birini tovlashiga aylanishi mumkin: agar menga quloq solmasang – shartnomani shunday o'zgartiramanki, ajrashish holatida senga hech narsa tegmaydi. Shuning uchun shu haqida kelishib olish lozimki, shartnomani, albatta, o'zgartirish mumkin, lekin Etarli sabablarga ko'ra va er-xotinning ixtiyoriy ravishda ifodalangan istagi mavjud bo'lgan hollarda. Nikoh shartnomasini tasdiqlovchi notarius ham (bunday shartnoma notarius tomonidan tasdiqlanishi shart) mazkur shartnomaning er-xotinning roziligi bilan tuzilganligiga ishonch hosil qilishi kerak. Hozirgi shartnomalarda an'anaga ko'ra oxirida shunday ibora yoziladi: «Ushbu shartnoma yuzasidan barcha tortishuvlar va kelishmovchiliklarni taraflar o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal etadi. Agar kelishuvga erishilmasa, tortishuv amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi». Ana shunday satrni nikoh shartnomasiga ham kiritish ortiqchalik qilmaydi.

Savollar:

Nikoh shartnomasida shartnomaviy munosabatlarning asosiy tamoyillariga amal qilinadimi?

Nikoh shartnomasining quyidagi tarkibiy qismlarini ajrating- shartnoma predmeti, nizolarni hal etish qoidalari va tartibotlari, ishtirokchilarning kutilayotgan xatti-harakati.

Nikoh shartnomasini shartnomalarning qaysi turiga kiritish mumkin - klassik, neoklassik, yoki munosabat? O'z javobingizni asoslang.

Agar rasmiy nikoh qurgan yoki fuqarolik nikohida yashovchi er-xotin nikoh shartnomasini tuzmagan bo'lsa, ular o'rtasidagi norasmiy kelishuvni shartnomalarning qaysi turiga kiritish mumkin?

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Institut - o‘zaro hamkorlikning umumiy doiralarini belgilaydi, tashkilot esa - o‘zaro hamkorlik(lar)ning muayyan doiralarini belgilaydi.
2. Implisit shartnoma - o‘zida ham yollash to‘g‘risidagi shartnomaning, ham sotish to‘g‘risidagi shartnomaning unsurlarini birlashtiradi.
3. Bozor konstitutsiyasi shaxs va «tabiat» o‘rtasidagi hamkorlikni emas, balki shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni tartibga soluvchi me‘yorlar yig‘indisini o‘zida namoyon etadi.
4. Insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan ularning ikkita xili mavjud: xatarga qarshi insonlar; xatarga betaraf munosabatda bo‘ladigan insonlar.
5. “Yollash to‘g‘risidagi shartnoma” atamasi yollanma xodim va ish beruvchining o‘zaro hamkorligi modelidan kelib chiqib, unda shu narsa nazarda tutiladiki, yollanma xodim – xatarga betaraf, ish beruvchi esa xatarga nisbatan qarshi.
6. Yollash to‘g‘risidagi shartnoma – xatarga betaraf bo‘lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o‘rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.
7. Shaxs tomonidan faoliyatning shartnomada belgilangan sohalardagi o‘z harakatlari ustidan nazoratning topshirilishi hukmronlik munosabatlarining asosida yotadi.
8. Sotish to‘g‘risidagi shartnoma – bir xil darajada xatarga betaraf bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.
9. Klassik shartnoma, unda o‘zaro hamkorlikning barcha shartlari aniq va to‘la-to‘kis belgilangan, sotish to‘g‘risidagi shartnomadan hosil bo‘lgan shartnoma.

10. “Munosabatli” odam oqilona maqsadli harakat me’yoriga amal qiladi, lekin shu bilan birga u o‘z xatti-harakatini ishonch, empatiya va bozor konstitutsiyasini tashkil qiluvchi boshqa me’yorlar asosida ham quradi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Shartnoma – nima?

A. bu belgalangan institutsional doiralarda shaxslarning ongli ravishda va erkin tanlashi natijasi hisoblangan mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to‘g‘risidagi kelishuv.

B. bu qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayoni.

C. bu markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi.

D. bu mulkka egalik qilish huquqidan mahrum etish bilan bog‘liq bo‘lmasa-da, bartaraf etishni talab qilmaydi.

2. Insonlarning xatarga nisbatan munosabatlari nuqtai nazaridan ularning nechta xili mavjud?

A. bular xatarga qarshi, betaraf va xatarga moyil insonlar.

B. bular xatarga betaraf munosabatda bo‘ladigan insonlar.

C. bular xatarga moyil insonlar.

D. bular shartnomani bir tomonlama amalga oshiruvchi insonlar.

3. Sotish to‘g‘risidagi shartnoma – nima?

A. Bir xil darajada xatarga betaraf bo‘lgan shaxslar o‘rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida amalga oshiriladigan vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.

B. Xatarga qarshi shaxslar kelishuvi.

C. Oldindan to‘lab qo‘yish uchun qilingan shartnoma.

D. Xatarga betaraf bo‘lgan shaxslar kelishuvi.

4. Yollash to'g'risidagi shartnoma – nima?

A. Xatarga betaraf bo'lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.

B. Bir xil darajadagi kelishuv.

C. Shaxslar tomonidan bir tomonlama shartnoma.

D. Korxonalar o'rtasidagi o'zaro tovar va xizmatlar ayiraboshlash to'g'risidagi shartnoma.

5. Hukumronlik munosabatlari necha xilda bo'ladi va ular qaysilar?

A. Oddiy, murakkab, personafikatsiyalangan va pozitsion.

B. Murakkab, personafikatsiyalangan

C. Personafikatsiyalangan

D. Personafikatsiyalangan va pozitsion.

6. Shartnomaning nechta bazaviy xili ma'lum?

A. Ikkita.

B. Uchta.

C. To'rtta.

D. Beshta.

7. Shartnoma munosabatlari qanday amalga oshiriladi?

A. Tovar ishlab chiqaruvchilar bo'lmish korxonalar o'rtasida bitimga binoan amalga oshadigan iqtisodiy aloqalar.

B. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi bilan uni iste'mol etuvchi o'rtasidagi bitim.

C. Shartnoma asosida sotuvchi va sotib oluvchi maxsuloti.

D. Faqat yollash shartnomasida amalga oshiriladi..

8. Shartnoma narxlari – nima?

A. Tovar ishlab chiqaruvchilar aloqalaridagi narx.

B. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi bilan uni iste'mol etuvchi o'rtasidagi bitimga binoan xar ikkala tomonning roziligiga qarab belgilangan narx.

C. Sotuvchi va sotib oluvchi maxsulotlari narxi.

D. Iste'mol etuvchi shaxslar o'rtasidagi narx.

9. Shartnomaviy narx – nima?

A. Tovar ishlab chiqaruvchilar aloqalaridagi narx.

B. Tovarlarini ishlab chiqaruvchi bilan uni iste'mol etuvchi o'rtasidagi bitimga binoan xar ikkala tomonning roziligiga qarab belgilangan narx.

C. Bu shartnoma asosida sotuvchi va sotib oluvchi maxsulot ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi yoki o'rtada turuvchi o'rtasidagi o'rnatilgan narxdir.

D. Xatarga qarshi bo'lgan shaxslar o'rtasidagi kelishuv narxi.

10. Klassik shartnoma –nima?

A. Unda o'zaro hamkorlikning barcha shartlari aniq va to'la-to'kis belgilangan, sotish to'g'risidagi shartnomadan hosil bo'lgan shartnoma.

B. Unda kelishilmagan shartnoma esa, aksincha, o'zaro hamkorlikning aniq belgilanishini istisno etadi.

C. O'zaro «munosabatli» shartnoma. sotish to'g'risidagi shartnomaning unsurlarini birlashtiradi.

D. Sotish to'g'risidagi shartnomaning unsurlarini birlashtiradi.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Siz bugun qanday xildagi shartnomalarni tuzishingizga to'g'ri keldi? Amalga oshirilgan bitimlardan birini shu nuqtai nazardan tavsiflang.

2. Sotish to'g'risidagi shartnoma yollash to'g'risidagi shartnomadan qanday farq qiladi?

3. Shartnomalarning xillari bo'yicha misollar keltirib sharxlab bering?

4. Institut bilan tashkilot o'rtasidagi chegara qanday tavsifga ega?

5. Yollash to'g'risidagi shartnomaning institutsional va marksistik talqinini taqqoslang.

6. Nima uchun implitsit shartnomani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etish uchun uchinchi tomonni jalb etishga zarurat yo'q?

7. Qishloq xo'jaligida qanday maqsadlar uchun shartnomalar tuziladi va shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish monitoringining o'ziga xos xususiyatlariga nimalar kiradi?

8. Neoklassik yoki gibridd, "munosabatli" shartnomaga tavsif bering va misollar keltiring?

9. Shartnoma shartlarini bajarmaganlik uchun sanksiyalar kanday amalga oshiriladi?

10. Franchayzing shartnomalarini institutsional taxlil kilib bering va misollar keltiring?

X BOB. FIRMA NAZARIYASI

10.1. «Prinsipal» bilan «agent» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosi

10.2. «Prinsipal-agent» muammolarini hal etish variantlari

10.3. Firmaning ichki tuzilmasi

10.4. Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlanish traEktoriyasi

10.5. Firmalarning asosiy xillari

10.1. «Prinsipal» bilan «agent» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muammosi

Tashkilot tarkibiga kiruvchi «agentlar» sonining o'sishi, agentlar harakati ustidan nazorat qilish uchun talab etiladigan «prinsipal» xarajatlarining oshishini belgilab beradi. «Agent»ni nazorat qilish zarurati va nazoratni amalga oshirishni istamaslik o'rtasidagi tanlovdan iborat bo'lgan «prinsipal» muammaviy holatini o'yinlar nazariyasidan quyidagi model yordamida ko'rish mumkin. «Prinsipal»ning nazorat qilish uchun xarajatlari birga teng deylik, «agent» tomonidan o'z majburiyatlarining vijdonan bajarilishidan olinadigan foyda 2 ga va vijdotsizlik bilan bajarganlik holatlardagi yo'qotishlar esa 2 ga teng, deylik. «Agent» tomonidan o'z vazifasini bajarishga nisbatan vijdotsizlik bilan munosabatda bo'lingan yoki «*ishdan bo'yin tovlash*» holatlari aniqlangan taqdirda, u mukofot olish huquqidan mahrum bo'lishini hisobga olgan holda, «prinsipal» bilan «agent»ning o'zaro munosabatlari quyidagi matritsa bilan izohlanadi.

«Prinsipal» bilan «agent»ning o‘zaro munosabatlari matritsasi

		«Prinsipal»	
		Nazorat qilish	Nazorat qilmaslik
«Agent»	Vijdonan ishlash	1; 1 [St ₂]	1; 2 [St ₁ , P]
	Ishdan bo‘yin tovlash	0; -1	2; -2

Ushbu o‘yinda «prinsipal» va «agent» strategiyasining mos kelmasligi muammosi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunda Nesh bo‘yicha muvozanat mavjud emas: «prinsipal» va «agent» o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda optimal natijaga erishish tashkilotning rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan tahdid ostida bo‘ladi.

Lekin, nazorat xarajatlarining ortishi «agentlar» sonining o‘sishiga to‘g‘ri proporsional emas. Bu Erda «prinsipal» va «agent» o‘rtasida axborot asimmetriyasining paydo bo‘lishi omilini hisobga olish lozim. Uchinchi o‘yinchi – «tabiat» bilan o‘yinni tahlil qilgan holda, biz ikkita asosiy o‘yinchi o‘rtasidagi axborot asimmetriyasidan fikrni boshqa tomonga burdik. Tashkilot *ichida* axborot asimmetriyasining paydo bo‘lishi sabablarini aniqlash uchun, institutsional tizim sifatida buyruqbozlik tizimini tadqiq qilgan Fridrix fon XaEkning isbotlarini eslaymiz. Ya’ni hech qanday o‘ylangan markaz (ya’ni «prinsipal») hamma vaqt barcha hodisalardan xabardor bo‘lib turishga va ushbu axborotni manfaatdor tomonlarning hukmiga tezkor havola etishga qodir emas

XaEk nazarida, bitimning barcha ishtirokchilarini teng va to‘liq hajmdagi axborot bilan ta’minlovchi mexanizm bo‘lib mutlaqo raqobatchi bozorlardagi narxning shakllanishi hisoblanadi. Firma doirasida hech qanaqa raqobatli narx shakllanishi to‘g‘risida gap bo‘lishi mumkin emas, «agent»ning o‘z mehnatining yakuniy mahsuli qiymatidan muntazam ravishda bosh tortishi ana shundan dalolat berib turibdi. Chunki faqat ish haqi mehnatning yakuniy mahsuliga teng bo‘lgan taqdirdagina mehnat bozorida muvozanatga erishish mumkin va narx to‘liq axborotni o‘zida mujassamlantiradi.

Demak, tashkilotning rivojlanishiga qarab aylanadigan axborotning murakkablashuvi va ixtisoslashuvi yuz beradi. Lekin ular samaradorlik bo'yicha narx-navo mexanizmi bilan taqqoslanadigan axborot aylanishi tizimining barpo etilishi bilan kuzatilmaydi. Tashkilot ichida qaror qabul qilish jarayoni ularning har birida sifat jihatdan yangi axborot paydo bo'ladigan ko'plab bosqichlarni o'z ichiga oladi. Buning ustiga, ushbu sifat jihatdan yangi axborotga faqat uni olish va unga ishlov berishda bevosita ishtirok etuvchi tashkilot a'zolari ega bo'ladi.

Noyob axborotga ega bo'lgan tashkilot ishtirokchilari - «agentlar» uni tarqatishdan va uni buzilmagan tarzda «prinsipal»ga uzatilishidan manfaatdor emaslar. Haqiqatdan ham axborot asimmetriyasi «agentlar»ning opportunistik xatti-harakatlari uchun zamin yaratadi – ularning o'z foydaliligini *ko'paytirishga* urinishlari, ular tomonidan yollash to'g'risidagi shartnoma tuzilishida qabul qilingan majburiyatlarga qaramasdan, foydalilikning qandaydir *qat'iy belgilangan* darajasi bilan qondiriladi. «Tabiiy» ko'zda tutilmagan holatlar sodir bo'lgan taqdirda, yollash to'g'risidagi shartnoma yordamida belgilangan mukofot kafolatini olib, «agent»ning o'zi unga «prinsipal» bilan nayrang qilish yordamida faoliyat natijasini o'z foydasiga qayta taqsimlash imkonini beruvchi «sun'iy» kutilmagan holatlarni tashkil etishga urinadi. Sotsializm davrida sodir etilgan «agentlar»ning o'z faoliyati natijalarini o'zlashtirishda ishtirok etishga opportunistik urinishi kabi iqtisodiy jinoyatlarning aksariyatini aynan shu nuqtai nazardan talqin etish lozim.


«Prinsipal-agent» muammosi – «agent»ning «prinsipal» topshirig'i va ko'rsatmasini bajarishda uning nayrang qilish xavfi hisoblanadi. Nayrang qilish axborot asimmetriyasi va «agent» faoliyati ustidan nazorat qilish xarajatlarining yuqori darajasi tufayli mumkin bo'ladi.

Shunday qilib, tashkilotlarning faoliyat ko'rsatishi ajoyib axborotga ega bo'lish oqibati sifatida «agent»ning opportunistik xatti-harakat qilishi imkoniyatini tug'dirishi muqarrar. Shuning uchun «prinsipal-agent» muammosi ma'naviy xatar vaziyatida tez-tez uchraydigan holat hisoblanadi: «prinsipal» «tabiiy» xatarlardan sug'urtalovchi rolida, «agent» esa (sog'liq ahvoli, kutilayotgan daromadlar va h.k.

haqidagi) muhim axborotni yashiruvchi sug'urtalanuvchi rovida ishtirok etadi. Eng muhim masala bu Erda «agent» tomonidan ishonchli axborotning tarqatilishiga ko'maklashuvchi yoki, aksincha, unga to'sqinlik qiluvchi *rag'batlar* tizimini barpo etishdan iborat. Bozorda ishonchli axborotning tarqatilishi raqobat bilan rag'batlantiriladi. Aksincha, «prinsipal» va «agent» munosabatlarining odatiy variantida axborot asimmetriyasi va opprtunizm imkoniyatlari «agent»ni «prinsipal» bilan nayrang qilishga undaydi.

10.2. «Prinsipal-agent» muammolarini hal etish variantlari

«Agent»ning opportunistik xatti-harakatini cheklashga yo'naltirilgan rag'batlar tizimini qidirish bilan optimal shartnoma nazariyasi, yoki, «prinsipal-agent» nazariyasi shug'ullanadi. Ko'pincha ushbu muammoni hal etishning asosiy uchta variantlari ko'rsatiladi (qarang:10.2.1-rasm).



10.2.1-rasm. «Prinsipal-agent» muammosini hal etish variantlari

1. «Agentlar» raqobati. «Prinsipal-agent» muammosini hal etishning birinchi varianti agentlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishni talab qiladi. Bunda odatiy shartnomadan farqli o'laroq «agent» tomonidan nafaqat «prinsipal» belgilagan (masalan, ishlab chiqarish) darajasiga erishilishi, balki qolgan «agentlar»ga nisbatan eng yuqori darajaga erishilishi (qo'shimcha ravishda) rag'batlantiriladi. «Agentlar» raqobati g'oyasi bir-birining harakatlari ustidan o'zaro nazorat qilish uchun «agentlar»ning o'zlaridan foydalanish imkonini beradi. Chunki, agar eng katta mukofot «prinsipal» tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal etishda eng yaxshi nisbiy ko'rsatkichlarga erishgan «agent»ga tegsa, «agentlar» boshqalarning muvaffaqiyatlariga hasad bilan qaray boshlaydilar – atrofdagilarning muvaffaqiyati o'z muvaffaqiyatiga erishish imkoniyatlarining pasayishini anglatadi. Ikkinchi tomondan, boshqa qaloq «agentlar»ga nisbatan oshirib berilgan «g'oliblar» mukofoti unumdorlikni oshirishga nisbatan kuchli rag'bat hisoblanadi. Chunki past ehtimolli yirik yutuq istiqboli yuqori ehtimolli yirik yutuqqa qaraganda kam jozibali (yutuqdan matematik kutish taxminan bir xil). Quyi daraja menejerlarining shunday foydali o'rinni egallashga intilishini rag'batlantirishni hisobga olgan holda, yuqori daraja menejerlariga ular mehnatining yuqori mahsulotidan ortiq bo'lgan mukofotni to'lash samarali bo'lishi mumkin. Biroq raqobatlashish elementidan foydalanish o'z chegarasiga ega:

- faqat «g'olibning» mukofoti eng xatarli strategiyani tanlashni rag'batlantiradi: «agentlarni» «teskari tanlash» yuz beradi, uning natijasida eng xatarli strategiyalarni qo'llovchi «agentlar» qoladi;

- «agent»ning «tabiiy» kutilmagan holatlar bilan bog'liq xatarga moyilligi darajasi chegaralangan;

- «agentlar» o'rtasidagi raqobat ular o'rtasidagi munosabatlardagi ishonch elementlarini butunlay yo'qqa chiqaradi: «agentlar»ning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiluvchi vazifalar deyarli amalga oshirilmaydigan bo'lib qoladi.

2. «Agent»ning qo'shma faoliyat natijalarida ishtirok etishi. Muammoni hal etishning ikkinchi varianti «agent» tomonidan qat'iy belgilanmagan, balki firma faoliyatining natijalariga bog'liq bo'lgan mukofotni to'lashni nazarda tutuvchi

yollash haqidagi shartnomaning tuzilishidan iborat. Bunga, masalan, yollanma xodimlarning firmaning foydasida ishtirok etishining turli shakllari, shu jumladan aksiyadorlik korxonasi kapitalida ishtirok etish kiradi. AQShda ko'p yillardan buyon ESOP dasturi amal qilmoqda, unga ko'ra 10 foizdan ortiq sanoat korxonalarining xodimlari o'z korxonasi aksiyalarini xarid qilishda imtiyozlarga ega bo'lishadi. «Agentlar»ning firma faoliyatining natijalarida ishtirok etishining barcha xildagi sxemalari ichida mukofotning natijalarga *chiziqli* bog'liqligini nazarda tutuvchi oddiy yo'llar eng samarali hisoblanadi. Bu ularda chiziqli bo'lmagan yo'llardan foydalaniladigan shartnomalarni tuzishning yuqori xarajatlari bilan ham, «agentlar» tomonidan mukofotning natijalarga murakkab bog'liqligini qiyin qabul qilinishi bilan ham bog'liq. Eng qulay variantlarda qat'iy belgilangan mukofot «agent»ga emas, balki «prinsipal»ga taklif etiladi, ya'ni «agent» «prinsipal»ga renta va foydaning ulushini to'lagan holda undan mol-mulkni ijaraga oladi. «Agent» tomonidan «prinsipal» topshiriqlarining vijdonan bajarilishini rag'batlantirishning bunday yo'llarni amaliyotda qo'llashga quyidagi omillar to'sqinlik qiladi:

- «agent»ning xatarga moyilligi darajasi;
- «agent» tomonidan mol-mulkning ijaraga olinishi yoki uning mulkda ishtirok etishi uchun resurslarning chegaralanganligi; bunda «agent» tomonidan ushbu maqsadlar uchun bankdan ssudalar olishi o'sha axborot asimmetriyasi muammosi hamda u bilan kreditor sifatida bank o'rtasidagi munosabatlardagi ma'naviy xatar tufayli murakkablashdi.

3. *Firma «agentlar» ittifoqi sifatida.* Ushbu qaror avvalgisidan shunisi bilan tubdan farq qiladiki, bunda nafaqat «agentlar»ning faoliyatdan olinadigan daromadlarda ishtirok etishiga yo'l qo'yiladi, balki «prinsipal» funksiyalarining o'zi «agentlar» tomonidan *navbati bilan bajarila boshlaydi*. «Prinsipal» vaqtincha «tenglar ichida birinchi» bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, hukumronlik munosabatlari «agentlar» tomonidan o'z harakatlari ustidan nazoratning boshqalarga topshirilishi bilan tugatilmaydi, shunchaki nazorat qilish va vazifalarni taqsimlash funksiyalari tashkilotning barcha ishtirokchilari tomonidan navbatma-navbat bajariladi.

Vaqtinchalik axborot oqimlarining kesishuvidagi mavqeni egallagan va buning oqibatida aylanadigan axborotni to'plash imkoniyatiga ega bo'lgan «agent» «prinsipal»ga aylanadi.

«Agentlar»ning «prinsipal» mavqeiga o'tishi faqat ishonchli axborotni uzatishni rag'batlantirish muammosini hal etadi. Lekin eng asosiysi, u «agentlar» o'rtasida ishonchli munosabatlarni mustahkamlash va kooperatsiyani rivojlantirish uchun zamin yaratadi. O.Uilyamson «agentlar» o'rtasida ishonchli munosabatlarning paydo bo'lishida firma ichida foydalilikni oshirish strategiyasi sifatida opportunizmdan bosh tortishga olib keluvchi «assotsiativ muhit» paydo bo'lishining muhim omilini ko'radi: «Unumdorlik umumiy ishga adolatli ulush qo'shganlik uchun javobgarlik hissi tufayli ortadi». O'zini o'zi boshqaruvchi firma bunday ittifoqni amaliyotga joriy etish shakli sifatida ishtirok etadi.

Assotsiativ muhitning paydo bo'lishi bilan bog'liq foyda nafaqat nazorat xarajatlarida tejashdan, balki yangi manba – kooperatsiyadan yutishdan iborat. Klassik iqtisodiyot fani Adam Smitdan keyingi mehnat taqsimotini tashkilot a'zolarining u yoki bu vazifalarni hal etishdagi qiyosiy ustunliklarining asosiy manbai, deya e'tirof etadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, kooperatsiya foydali, chunki alohida vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan xodimlar birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan ular tomonidan barcha vazifalar mustaqil hal etilgandagiga qaraganda ko'p mahsulot ishlab chiqaradi. Ishchining chaqqonligini rivojlantirish u bajarishga qodir bo'lgan ishlar miqdorini oshiradi. Mehnat taqsimoti esa, har bir ishchining ishini qandaydir oddiy operatsiyaga yo'yib va ushbu operatsiyani uning butun hayotidagi yagona mashg'ulotga aylantirgan holda, ishchining abjirligini kerakli darajada oshiradi. Assotsiativ muhit nafaqat mehnat taqsimoti, balki «jamoaviy ish» asosida kooperatsiyadan foyda olish imkonini beradi. Kooperatsiyadan olinadigan ijobiy samara birgalikda ishlash va tashkilot a'zolari – «jamo»ning o'zaro qo'llab-quvvatlashi bilan shartlangan.

Xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, «agentlar» ittifoqi sifatida firmada «prinsipal»dan «agentlar»ni ularning umumiy natijaga qo'shgan ulushiga muvofiq mukofotlashini, «agent»dan esa «prinsipal» tomonidan qo'yilgan vazifalarning

vijdonan bajarilishini talab qiluvchi «oltin qoida» asosida «prinsipal» va «agent» muammosini hal etish imkoniyati paydo bo‘ladi. Misol tariqasida quyidagi modelni keltiramiz, unda o‘yinchilar uchta strategiyadan bittasini tanlashadi: «oltin qoida», teng sa’y-harakatlar standarti va opportunistik xatti-harakat. «Prinsipal» tomonidan teng sa’y-harakatlar standarti «agentlar» mehnatiga qat’iy belgilangan teng haq to‘lanilishini qo‘llashdan iborat, agentlar tomonidan esa yaxshi ham, yomon ham emas, «hamma qatori» ishlashdan iborat. «Prinsipal» opportunisti, bunda «agent» bozordagi barcha vaziyat haqida to‘liq axborotga ega bo‘lmaydigan noqulay «tabiiy» shart-sharoitlar (masalan, bozor kon’yunkturasi) belgisi ostida «agent»ni pasaytirilgan tarzda mukofotlash shakliga ega bo‘lishi mumkin. Ta’kidlash lozimki, Nesh bo‘yicha muvozanat hisoblanmaydigan «oltin qoida» strategiyalarini faqat, bir tomondan, «agentlar» o‘rtasida, ikkinchi tomondan, «agentlar» bilan «prinsipal» o‘rtasidagi *o‘zaro ishonch* me’yorlari asosida qabul qilish mumkin. Ko‘rib chiqilayotgan model unda o‘zaro ishonchsiz o‘yinchilar ham o‘z aybini inkor etishi mumkin bo‘lgan «hukm qilinganlar muammoviy holati»ning varianti hisoblanadi (10.2.1-jadval).

10.2.1-jadval

Ko‘rsatkichlar		«Prinsipal»		
		«Oltin qoida»	Teng sharoitlar andazasi	Opportunizm
«Agent»	«Oltin qoida»	7; 7 [P]	4; 8	1; 9
	Teng sharoitlar andazasi	8; 4	5; 5	2; 6
	Opportunizm	9; 1	6; 2	3;3 [N, St ₁ , St ₂]

Shunga qaramay «agentlar» ittifoqi sifatida firma modelinig tarqalishini quyidagi omillar chegaralaydi:

- «agentlar»ning xatarga moyilligi;
- tashkilot ishtirokchilarining soni: samarali bo‘lish uchun, o‘rin almashish tamoyillari asosida yagona tashkilotga birlashgan 5-10 kishidan iborat guruh

doirasida qo‘llinilishi mumkin; tashkilot a‘zolarining umumiy soni 100 kishidan oshmasligi kerak (10 kishidan iborat 10 ta guruh);

- tashkilot a‘zolari tomonidan «ijtimoiy» kapitalga, ya’ni o‘zaro qo‘llab-quvvatlash va o‘zaro ishonch an‘analari, umumiy maqsadlar va manfaatlarga dastlabki egalik qilish; ijtimoiy kapital tashkilot faoliyat ko‘rsatishining *dastlabki bosqichida* «agentlar» o‘rin almashuviini boshlash uchun zarur.

10.3. Firmaning ichki tuzilmasi

«Prinsipal-agent» muammosi hal etilishi muqobil modellardagi tashkilotning ichki tuzilishi asosida yotadi. Firma ichki tuzilishining quyidagi to‘rtta varianti keng tarqalgan:

- unitar (U-tuzilma),
- xolding (X-tuzilma),
- multidivizional (M-tuzilma)
- aralash (A-tuzilma).

1. *Unitar tuzilma* - hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi. Barcha asosiy qarorlar «prinsipal» tomonidan qabul qilinadi, uning o‘zi nazoratni ham amalga oshiradi. Agar «agentlar» faoliyatini nazorat qilish huquqi boshqalarga o‘tkazilsa, u holda funksional belgi bo‘yicha – funksional bo‘linmalar boshliqlariga: sotish bo‘limi boshlig‘i, bosh muhandis, bosh buxgalter va h.k.ga beriladi. Shunday qilib, funksional bo‘linmalar rahbarlari bir vaqtning o‘zida firma rahbariyatiga nisbatan «agentlar», bo‘lib topshiriqlarning bevosita ijrochilariga nisbatan esa - «prinsipal» hisoblanadi.

Unitar tashkilotda «prinsipal-agent» muammosini hal etishning yagona varianti nazorat qilishning yangi, past xarajatlari bilan bog‘liq usullarini ishlab chiqish asosida nazoratni kuchaytirishdan iborat.

2. *Xolding tuzilmasi* qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi. Amalda «prinsipal» faqat moliyaviy oqimlarni va «agentlar»

faoliyatining moliyaviy natijalarini nazorat qilish vakolatini o'zida saqlab qoladi. «Agentlar» barcha qarorlarni qabul qilishda chetda qoladi, foydani taqsimlash to'g'risidagi qaror bundan mustasno. Boshqacha aytganda, «prinsipal» «agentlar» faoliyatini bevosita emas, balki «agentlar» musobaqasini tashkil etish orqali nazorat qiladi.

Xolding tuzilmasi hatto bir firmaning bo'linmalari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri raqobatni ham istisno etmaydi. Ta'kidlash lozimki, xolding bo'linmalari darajasida «prinsipal» (bir vaqtning o'zida firma rahbariyati uchun «agent» hisoblangan bo'linma boshlig'i) va «agent» o'rtasidagi munosabatlarning unitar xilini ham uchratish mumkin.

Multidivizional tuzilma. XX asrning eng ahamiyatli tashkiliy-boshqaruv innovatsiyasi bo'lib 20-yillarda Per Dyupon («Du Pont» rahbari) va Alfred Sloun («General Motors» rahbari) tomonidan multidivizional tuzilmaning tashkil etilishi hisoblanadi.

Multidivizional tuzilma – mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug'rofiy belgi bo'yicha o'z xarajatini qoplash va o'zini o'zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi yarim tobiy ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

Multidivizional tuzilma unitar va xolding tuzilmalarining o'ziga xos sintezi hisoblanadi. Haqiqatdan ham, unda (masalan, yangi mahsulot ishlab chiqarish to'g'risida) *strategik* qarorlarni qabul qilishning markazlashtirish tamoyili saqlanib qolgan va ayni paytda *tezkor* nazorat va boshqaruv markazlashmagan. Shu tariqa divizionlar («agentlar»)ning o'z moliyaviy xarajatini qoplash tamoyili ularga o'z faoliyatidan olinadigan daromadlarda ishtirok etish imkonini beradi, lekin firma rahbariyati («prinsipal») bunda firmaning maqsadlari va vazifalariga muvofiq bo'linmalar foydasining bir qismini qayta taqsimlash huquqini saqlab qoladi. Sanoat klasterlari va transmilliy kompaniyalar multidivizional tuzilma tamoyillarini amalda qo'llovchi korxonalariga misol bo'ladi.

4. *Aralash tuzilma*, agar bo'linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa, ikkinchi bo'linma xoldingdagi

kabi firma rahbariyatiga moliyaviy jihatdan qaram bo'lsa, uchinchi bo'linma esa operatsion mustaqillikka ega bo'lib, multidivizional tuzilmadagi kabi o'z xarajatini qoplash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatgan taqdirda, yuzaga keladi.

10.4. Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlanish traEktoriyasi

Firma ichki tuzilishi u yoki bu modellarining paydo bo'lishi va tarqalishini *faqat* ularning «prinsipal-agent» muammosini hal etishdagi qiyosiy samaradorligi bilan izohlab bo'lmaydi. Firmaning yangi ichki tuzilishini rivojlantirishga nisbatan ehtiyoj paydo bo'lib, biroq bu amalga oshirilmay qoladigan holat bo'lib turishi tabiiy.

Firmaning ichki tuzilishini tahlil qilishda nafaqat transaksiya xarajatlari dinamikasini (birinchi navbatda monitoring xarajatlari va opportunizmni oldini olish), balki institutlar dinamikasidagi «tarixiy shartlanganlik samarasi» kabi tashkiliy rivojlanishning undan avvalgi traEktoriyaga bog'liqligini ham hisobga olish lozim. Firmaning tashkiliy rivojlanishini tarkibiy o'zgarishlarning alohida *traEktoriyasi* bo'yicha harakat sifatida talqin etish mumkin. Tashkilot rivojlanishidagi «tarixiy shartlanganlik samarasi»ning tahlili institutlar dinamikasini o'rganishda ifodalangan dalillarni to'ldirishni va qisman qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Birinchiidan, tashkilot doirasida institutsional darajada mafkura bajaradigan funksiyalarga o'xshash funksiyalar tashkiliy madaniyat hisoblanadi. Har qanday tashkilotda: korxonada, kasaba uyushmasida yoki siyosiy partiyada umumiy tarkibiy qism – tashkiliy bilim mavjud. Tashkiliy madaniyat, «prinsipal» bilan «agent» o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ular asosida quriladigan me'yorlar, qoidalar va an'analarda amalga oshiriladi. Tashkiliy madaniyatning talqin etish funksiyasi u yoki bu kutilmagan holatlar sodir bo'lganida «prinsipal» qarorlarning asosililigini baholash uchun uning «agentlar» tomonidan foydalanilishidan iborat. Tashkiliy madaniyat bo'ysunuvchilarga tashkilot u yoki bu kutilmagan holatga

qanday munosabat bildirishi haqida tasavvur beradi. Qat'iyroq aytadigan bo'lsak, u tufayli tashkilot o'zining birxilligiga ega bo'ladi.

Tashkiliy madaniyat – tashkilot a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning jamoaviy bilimlari va tajribasining ifodasi hisoblangan me'yorlar, qoidalar va an'analar yig'indisi.

Ikkinchidan, tashkilotning kundalik faoliyat ko'rsatishida *mutaassiblik* muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda mutaassiblik harakatni uni muntazam takrorlash orqali esda saqlab qolish sifatida belgilanadi. Mutaassiblik tashkilot a'zolari ichida axborot almashuvini ta'minlashda markaziy o'rin tutadi: u ularning xabarni olish, talqin etish, ifodalash va uzatish qobiliyatining asosida yotadi. Har bir tashkilot o'zining tashkiliy «dialektiga» ega, hech bir tashkilotda «sof» o'zbek tilida ham, «sof» rus tilida ham gaplashilmaydi.

Bundan tashqari, agar nazorat tadbiri mutaassiblik xususiyatiga ega bo'lsa, nazoratni amalga oshirish ancha Engillashadi. Universitet hayotidan misol keltirgan holda ta'kidlash mumkinki, talabalar davomatining mutaassiblik xususiyati (seminar boshida yoki oxirida) faqat *shu gal* davomatni tekshirishni eslaridan chiqarishiga umid qilish bilan asoslangan dars qoldirishlarning oldini oladi. Demak, tashkilot ichida axborot asimmetriyasini pasaytirish va nazoratni osonlashtirish orqali «prinsipal-agent» muammosini hal etishga ko'maklashgan holda mutaassiblik ayni paytda uning a'zolari o'rtasida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlarning takrorlanishiga olib keladi.

Berilgan traEktoriya bo'yicha harakat tashkiliy madaniyat va mutaassibliklar asosida «prinsipal» bilan «agent» o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum xiliga ega bo'linishi va mustahkamlanishini nazarda tutadi. Shuning uchun tashkiliy rivojlanishning boshlang'ich nuqtasi hisoblangan vaziyatni bilish lozim – u boshda keyingi evolyutsiyaning barcha variantlarini o'zida mujassamlantiradi. Chunki beqaror muhitda unitar firma transaksiya xarajatlarini tejash nuqtai nazaridan juda yomon ko'rsatkichlarga ega, lekin u barqaror sharoitdagi moslashuvchan tashkiliy tuzilmaga ega bo'lgan firmaga nisbatan samarali va bardoshli bo'lishi mumkin. Demak, beqarorlik sharoitida shakllangan va firmaning

keyingi rivojlanishini belgilab bergan firmaning ichki tuzilishi tashqi muhit barqarorlashadigan kelajakdagi yo‘qotishlarni belgilab beradi. Hayratlanarlisi shundaki, qisqa muddatli istiqbolda optimal bo‘lmagan tuzilma uzoq muddatli istiqbolda foydali bo‘lib chiqishi mumkin. Aynan ushbu holatni dastlabki bosqichda yo‘qotishlarga olib kelgan va keyingi bosqichlarda ustunlikni ta’minlagan o‘z evolyutsiyasini yuqori darajadagi integratsiya va tuzilmani markazlashtirishdan boshlagan Yaponiya firmalarining urushdan keyingi rivojlanishi misolida ko‘rsatish mumkin.


10.5. Firmalarning asosiy xillari

Korxonalar rivojlanishi traEktoriyalarining o‘ziga xos xususiyati korxonalar tashkiliy tuzilishidagi milliy farqlarni belgilab beradi. Bugungi kunda istalgan mamlakatdagi yirik korxonalarining aksariyati jahon bozorida yuzaga kelgan tendensiyalarni hisobga olgan holda harakat qilishiga qaramay, ularning tashkiliy tuzilishlari va ular tomonidan amalga oshiriladigan strategiyalarning xilma-xilligi kuzatiladi. Chunki tashkiliy rivojlanish traEktoriyasini tanlashga ta’sir ko‘rsatgan omillar yig‘indisi har bir mamlakatda har xil.

Tashkiliy rivojlanish traEktoriyasini belgilab beruvchi omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- institutsional muhit, shu jumladan institutsional rivojlanish traEktoriyasi;
- aktivlarning o‘ziga xoslik darajasi (raqobot bozorining rivojlanganlik darajasi);
- tashqi muhitning noaniqlik darajasi (bozorning barqarorlik darajasi);
- xatarga moyillik darajasi (mamlakat aholisining umumiy sonida xatarga nisbatan betaraf bo‘lgan insonlar ulushi);
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasiga bog‘liq bo‘lgan bitimlarning murakkablik darajasi;
- qonundan foydalanish bahosi va xufyonalik bahosining nisbati.

Tashkiliy rivojlanish milliy traEktoriyasining farqlari nafaqat tuzilmalarga – unitar, xolding yoki multidivizional, – balki ularning maqsadli funksiyasiga, korxonaning Etkazib beruvchilar, iste'molchilar va yollanma xodimlar bilan munosabatlardagi xatti-harakatiga, shuningdek korxonalar faoliyat ko'rsatishining ko'plab boshqa ko'rsatkichlariga taalluqli. Endi korxonalarining bir necha benuqson xillarini yoritishga harakat qilamiz. Buyruqbozlik iqtisodiyotida faoliyat yurituvchi korxonalar (*B* korxonalar); Amerika firmasi (*A* firma); Yaponiya firmasi (*J* firma) va o'tish xilidagi korxonalar (*O'* korxonalar) (qarang:10.5.1-rasm).



10.5.1-rasm. Korxonalarining turlari

1. *Buyruqbozlik iqtisodiyotida harakat qiluvchi korxonalar.* Korxonaning ushbu xiliga nisbatan qiziqish asosan shu bilan bog'liqki, Rossiya va Sharqiy Evropa korxonalarining katta qismining ildizi buyruqbozlik iqtisodiyotiga borib taqaladi. Buyruqbozlik iqtisodiyotida harakat qiluvchi korxonalar foydani ko'paytirishga emas, balki bir me'yordagi ishlab chiqarish rejasini bajarishga yo'naltirilgan. «Prinsipal» (reja organi)ning farmoyishi mutlaq xususiyatga ega

emas, balki muhokama yoki *rejali savdoning* predmeti hisoblanadi. Ushbu savdoda korxonaning ovozi ruxsatning yuqori chegarasi, normadan yuqoriga chiqish haqida ogohlantiradi, yuqori turuvchi organning ovozi esa ruxsatning quyi chegarasi, normadan quyiga og'ish haqida eslatadi.

Bu Erda «prinsipal» qanday maqomga egaligi alohida tahlilni talab qiladi. Kommunistik mafkuraga muvofiq sotsializmda o'z manfaatlarining vakili – reja organi orqali *B korxon*a faoliyati ustidan o'zining nazorat qilish huquqini amalga oshiruvchi barcha mehnatkashlar «prinsipal» bo'lib hisoblanardi.

Lekin nazorat qilishning samarali mexanizmlari faqat reja organi bilan korxona direksiyasi o'rtasida hamda korxona direksiyasi bilan uning xodimlari o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga kelar edi. Ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarishdagi qat'iy intizomiga nazorat qilishning uchta mexanizmi – partiya (partiya tashkilotlari orqali), xo'jalik (vazirliklar va idoralar orqali) va kengash (Xalq deputatlari kengashining ijroiya organlari orqali) mexanizmlari orqali erishildi. Reja organlarining mehnatkashlar tomonidan nazorat qilinishi mexanizmlari esa mavjud emas edi, buning oqibatida mehnatkashlar «prinsipal» sifatida o'z manfaatlarini amalga oshira olmas edi. Shuning uchun reja organi amalda «agent»dan yagona «prinsipal»ga aylandi: nazoratsiz byurokratik apparat o'z manfaatlarini umuman jamiyat manfaatlari bilan moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Keltirilgan dalillarga asoslangan holda *B korxon*ani unitar tashkilot, ya'ni vazirlik yoki idoraning bo'linmasi sifatida ta'riflash mumkin.

*B korxon*a ishlab chiqarish va sotish aloqalarining tarkibi uning unitar tashkilot bo'linmasi sifatidagi holati tufayli unga «prinsipal» tomonidan belgilab berilgan. *B korxon*alar o'rtasidagi barcha gorizontal aloqalar vertikal aloqalar orqali - «prinsipal»ga murojaat etish orqali amalga oshiriladi. Ta'minot-sotish aloqalarining tarkibi resurslarni taqsimlashning *ajratish* yoki fondlash singari mexanizmidan hosil bo'lgan. Ajratish vazirlik yoki idora tomonidan *B korxon*a mahsulotining asosiy iste'molchilari va Etkazib beruvchilari belgilanishidan iborat. *B korxon*aning ta'minot va sotish tarkibini mustaqil o'zgartirishga urinishlariga «prinsipal» tomonidan keskin to'sqinlik qilindi.

B korxonada mehnat munosabatlarining tizimi ham o'ziga xos. Unda band bo'lganlar sonining quyi chegarasi reja topshiriqlari bilan, yuqori chegarasi esa – ishchi kuchining kutilayotgan taqchilligi bilan belgilanadi. Resurslar cheklangan iqtisodiyotdagi boshqa har qanday resurs singari ishchi kuchi ham taqchil. Shuning uchun korxonada o'zining resurs, shu jumladan *ortiqcha bandlik* shaklida - ishchi kuchi zahirasini barpo etishga urinadi. Bunda, tabiiyki, *B* korxonada o'zining barcha xodimlarini ish bilan ta'minlashga qodir emas va ularga tenglashtiruvchi hamma ular tomonidan amalda ishlab topilmagan ish haqini to'laydi. Ishchidan egalik funksiyasini olib, uni ishlab chiqarish natijalariga real ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etgan holda, qog'ozbozlik tizimi ushbu imkoniyatning o'rni ishlab topilmagan ish haqini olish imkoniyati bilan qoplaydi.

2. *A firma*. Amerika firmasi yoki *A* firma neoklassik darsliklar sahifalarida tahlil qilinuvchi firmaning ideal xiliga ko'proq mos keladi. *A* firma o'z mahsulotiga raqobat tomonidan belgilangan narxda va ishlab chiqarish funksiyasi bilan yoritiladigan xarajatlar tarkibida foydani ko'paytirishni maqsad qilib qo'ygan. Hatto, agar qandaydir firmada raqobat bozorida firmaning muvozanatini to'g'ri hisoblab chiqa oladigan bironta ham xodim topilmasa ham, u bozorda o'zini huddi neoklassik nazariyaning barcha qoidalari bo'yicha foydani ko'paytirgandek, tutadi.

Foydani ko'paytirishga yo'naltirilish *A* firma «prinsipali» - uning aksiyadorlarining maqsadli funksiyasi bilan belgilangan. Aksiyadorlarning asosiy manfaati bir aksiyaga hisoblangan o'z daromadini oshirishdan iborat, bu yil yakuniga ko'ra korxonaning investitsiya qilinmagan foydasining miqdoriga bog'liq. O'z navbatida, foydaning miqdori «agentlar» - *A* firmaning yollanma menejerlarining harakatlari bilan belgilangan. «Prinsipal-agent» xilidagi o'zaro munosabatlar menejerlar bilan yollanma xodimlar o'rtasida ham yuzaga keladi.

Aksiyadorlar bilan menejerlarning o'zaro munosabatlarida «prinsipal-agent» muammosi ikkita muqobil mexanizm – «ovoz berish» va «chiqish» asosida hal etiladi. Aksiyadorlar menejerlarning faoliyati ustidan navzorot qilish huquqini yo aksiyadorlarning yillik yig'ilishida ishtirok etib va direktorlar kengashi tarkibini

o'zgartirish («ovoz berish») orqali yoki o'z aksiyasini sotib va bu bilan menejrlarning harakatlarini ma'qullamasligini ifodalash («chiqish») yo'li bilan amalga oshirishlari mumkin. Menejrlarga o'z xizmatlari bozori tomonidan ko'rsatiladigan intizomiy ta'sir ushbu bozorda yuqori transaksiya xarajatlari va unda almashiladigan resurslar – boshqaruv ko'nikmalari va iqtidorlar o'ziga xosligining yuqori darajasi tufayli, kam samarali hisoblanadi.

Ikkala muqobil variant - «ovoz berish» ham, «chiqish» ham o'zining qator kamchiliklariga ega. Ovoz berish aksiyalarning kichik paketlari egalari uchun «chiptasiz muammosi»ni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, aksiyadorlar yig'ilishning kun tartibini menejrlarning o'zlari nazorat qilishadi. Samarasiz boshqarilayotgan firma aksiyalarining sotilishi esa hamma vaqt aksiyalarning pasaygan kursi tufayli mulkdorlarga zarar keltiradi.

«Ovoz berish» borasidagi ahvolni ishonchli ovoz berish amaliyoti yordamida to'g'rilash mumkin, bunda kichik paketlar mulkdorlari o'z nomidan ovoz berishni yirikroq paketlar egalariга ishonib topshiradilar. «Chiqish» variantidan foydalanishni esa aksiyalarning birlashtirilgan paketlari oldi-sotdisiga tender takliflaridan foydalanish orqali optimallashtirish mumkin.

Menejrlar bilan xodimlarning o'zaro munosabatlarida «prinsipal-agent» muammosining hal etilishi *fordizm* – Buyuk qatag'onlik davrida Genri Ford tomonidan ishlab chiqilgan mehnatni tashkil qilish tizimi tamoyillariga asoslanadi. Menejrlar bilan yollanma xodimlarning o'zaro munosabatlari siyosati sifatida fordizmning asosiy unsurlari quyidagilardan iborat:

- narxlarning o'sishiga qarab ish haqining indeksatsiyalanishini o'z ichiga oluvchi mehnatga haq to'lashning yuqori darajasi;
- qat'iy ishlab chiqarish intizomi, bunda mashina (masalan, konveEr) xodimning harakatlari ustidan nazorat qilish vositasi rolini o'ynaydi;
- kasaba uyushmalari ish beruvchilar bilan yollanma xodimlar o'rtasidagi nizoli munosabatlarda vositachi rolini bajarishadi;
- bir tarmoqning o'ziga qarashli korxonalarda (masalan, «Ford» va «General Motors» o'rtasida) kadrlar o'zni almashtirilishining yuqori darajasi.

Va nihoyat, *A* firmaning ishlab chiqarish va sotish aloqalarining tarkibi transaksiya xarajatlarini pasaytirish vazifasiga to'liq buysungan. Integratsiya – orqaga, oldinga va kombinatsiyalash – muqobil maqsadlarga qaraganda ko'proq transaksiya xarajatlarini pasaytirish maqsadlari bilan bog'liq. Etkazib beruvchilar, xaridorlar, shuningdek ular bilan tuziladigan shartnomaning xilini tanlash firmaning shu onda bozorda yuzaga kelgan transaksiya xarajatlarning darajasini pasaytirishga intilishini aks ettiradi. Masalan, go'sht mahsulotini tashish uchun refrijerator texnika bilan ta'minlashga katta miqdordagi investitsiyalar zarurligi bois, ko'pincha go'shtni qayta ishlovchi korxonalar tashish masalasini refrijeratorlar parkini xarid qilgan holda, pudrat asosida hal etishadi.

3. *J firma*. Matsushika Aoki tomonidan *J* firma deb nomlangan Yaponiya firmasi Amerika firmasidan katta farq qiladi. *J* firmada «prinsipal» maqomini faqat mulkdorlarning turli toifalari o'rtasida aksiyalarning taqsimlanishi to'g'risidagi statistika ma'lumotlari asosida aniqlash qiyin. Ushbu ma'lumotlar faqatgina yapon firmalarida ham, huddi AQShda bo'lgani kabi, yakka aksiyadorlar «prinsipal» hisoblanmaydi, deb ta'kidlash imkonini beradi. Agar 1949 yilda yapon kompaniyalari aksiyalarining taxminan 70 foizi yakka aksiyadorlarga tegishli bo'lgan bo'lsa (eslatib o'tamiz, urushdan keyingi davrda gap institutni - *A* firmani - Yaponiyaga import qilish haqida bordi), 80-yillarning oxiriga kelib ularning qo'lida faqatgina aksiyalarning 24 foizi qoldi. *J* firma aksiyalarining 42 foizi moliyaviy institutlarga, 25 foizi urushdan avvalgi «dzaybats» xilidagi xoldinglarga tegishli¹.

Biroq yapon firmalarini tahlil qilishda yuzaga keladigan asosiy qiyinchilik – bu faqat turli harakatni belgilab beruvchi hujjatlarga biriktirilgan rasmiy ma'lumotlarga tayanishning imkoni yo'qligi. Ochiq mulkdorlar safida *J* firma xodimlari mavjud emasligiga qaramay, ular amalda o'z firmasining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishda bevosita ishtirok etishadi. M.Aoki «prinsipal» rovida bir vaqtning o'zida tashqi aksiyadorlar ham, «insayderlar» - korxonalar

¹ Aoki M. Economic Japonaisc. Information, motivations et marchandage. Paris: Economica, 1991, p. 128, 135.

xodimlari ham ishtirok etadigan vaziyatni yoritish uchun «ikki tomonlama nazorat» atamasini taklif etdi. Bunda nazorat sohalari aksiyadorlar va xodimlar o'rtasida aniq bo'lingan. Yirik aksiyadorlar, birinchi navbatda banklar, korxonalar o'z aksiyasi uchun daromadning qulay (maksimal emas!) darajasini ta'minlagunga qadar joriy nazoratdan bosh tortishadi. Bu bilan ularning o'zlari joriy nazoratni firma xodimlarining o'zlariga ishonib topshiradilar. Bu Erda gap qisqa muddatli shartnomalar asosida yollangan xodimlar haqida emas, balki doimiy xodimlar haqida ketayapti.

Shunday qilib, yapon firmasi «agentlar» ittifoqi modeliga juda yaqin va unda «prinsipal-agent» xilidagi klassik munosabatlar mavjud emas. Ushbu fikr quyidagi faktlar bilan ham tasdiqlanadi. Birinchidan, *J* firmada xodimlarni bo'linmalar va bajariladigan funksiyalar bo'yicha bo'lishdan faol foydalaniladi: o'zaro bog'liq operatsiyalarni bajarishga ham, rahbarlik funksiyasini amalga oshirishga ham qodir bo'lgan universal xodim ideal hisoblanadi. Masalan, yangi mahsulotlarni ishlab chiqish bilan shug'ullanuvchi muhandislarni ishlab chiqarish jarayoniga safarbar etish amaliyoti, va aksincha, «chiziqli» muhandislarning tajriba-konstruktorlik byurosidagi har yillik amaliyoti ko'proq gorizontal muvofiqlashuvga misol bo'ladi. Muvofiqlashuvning gorizontal tamoyillari firma ichida axborot oqimlari aylanishini shunchalik optimallashtirish imkonini beradiki, bo'linmalar shiddat bilan ishlab va zarurat tug'ilishiga qarab yangi mahsulot to'plamlarini boshqa bo'linmalarga buyurtma qilgani holda, sug'urta va butlovchi qismlar zahiralarini barpo etmasdan faoliyat ko'rsatishda davom etishadi.

Ikkinchidan, o'rin almashish tamoyili xodimlarning mansab bo'yicha o'sishlarini rejalashtirishning asosida yotadi. *J* firmada daraja pag'onasi amal qiladi, ya'ni xodimlar mehnatiga haq to'lash va ularning ijtimoiy maqomi ishlab chiqarish o'lchami bilan emas, balki firma ichidagi pog'onaning darajasi bilan belgilanadi. Yangidan ishga qabul qilingan xodim uchun lavozimda o'sish past pag'onalardan boshlanib, uning butun mehnat faoliyati mobaynida davom etadi. Shunisi qiziqki, aksiyador banklar ham, *J* firma ham, uning hamkorlari (o'zaro bog'liq korxonalar) ham darajalarning yagona ierarxiyasini hosil qiladi. Shuning

uchun xodimning mansabda ko'tarilishi korxonadan boshlanib bankda yoki hamkor firmada davom etishi mumkin va aksincha.

Yaponiya korporatsiyasi agentlar ittifoqi tomonidan nazorat qilinadi, bu firmaning maqsadli funksiyasini o'zgartiradi: foydani ko'paytirish uning maqsadlari iErarxiyasida endi daslabki o'rinni egallamaydi. Firma tomonidan nazorat qilinadigan bozor ulushining uzluksiz o'sishini ta'minlash birinchi o'rinda turadi, chunki bunday o'sish tashkiliy o'zgartirish, tuzilmani kengaytirish va rivojlantirish uchun zamin yaratadi. O'sish uni ta'minlaganlarni mukofotlaydi, - tamoyili aynan yapon firmalariga nisbatan to'g'ri, ularda tashkiliy o'zgartirish darajalarining sonini oshiradi va, demak, uning xodimlarining mansabdagi o'sishini yaxshilaydi. Boshqacha aytganda, aksiyadorlarni ham, xodimlarni ham nazorat qilish ishlab chiqarish va sotuv hajmini oshirish orqali firmani tashkiliy yuqori rentani oshirishga yo'naltiradi: faqat ana shunday maqsad turli mulkdorlarning manfaatlarini tenglashtiradi.

J firmaning uning asosiy hamkorlari – o'zaro bog'liq korxonalar va davlat bilan o'zaro munosabatlariga to'xtaladigan bo'lsak, har bir firma kvazidoimiy o'zaro bog'liq korxonalar – «keyretsu» doirasiga ega. Bunda «Toyota» xilidagi yirik korporatsiyalarda o'zaro bog'liq korxonalar bosh firma atrofida uchta qatorga guruhlanadi. Birinchisi – eng barqaror firmalar (neoklassik shartnoma asosida ishlovchi bunday o'zaro bog'liq korxonalarining soni «Toyota»da 122 ta), ikkinchisi – bozordagi vaziyat tubdan o'zgargan holatda ular bilan munosabatlar uzilishi mumkin bo'lgan (5437 ta) firmalar, uchinchisi - qisqa muddatli shartnomalar asosida ishlovchi Etkazib beruvchilardan (41703 ta firma) tarkib topadi. «Keyretsu»ni tuzishda o'zaro bog'liq korxonalarining nufuzi asosida transaksiya xarajatlarini tejash omiliga xatarni bo'lish omili qo'shimcha qilinadi: bozor kon'yunkturasining asosiy ta'sirini ikkinchi va ayniqsa uchinchi qator tarkibidagi o'zaro bog'liq korxonalar o'zlarida his etishadi.

Davlat bilan munosabatlarga kelsak, *A* firmadan farqli o'laroq *J* firma to'liq mustaqillikka intilmaydi. Amalda davlatga yapon firmasi tomonidan korporativ

manfaatlar va umuman jamiyat manfaatlari o'rtasidagi hakam korporatsiyalar kurashida esa muvozanatni saqlashning kafili sifatida qaraladi.

4. *O'tish xilidagi korxonalar.* Sharqiy Evropa mamlakatlarida amalga oshirilgan bozor islohotlari *B* korxonalar bilan *A* firma o'rtasida yarim yo'lda turgan yana bir ideal xilidagi korxonalar – o'tish xilidagi korxonalar paydo bo'lishiga olib keldi. *O'* korxonalarining «oralik» holati, biroq, uni *B* korxonalar va *A* firma elementlarining turli kombinatsiyalaridan foydalanib ta'riflash mumkinligini anglatmaydi. Hech bo'lmaganda *O'* korxonalarining maqsadli funksiyasini olaylik: u ma'muriy buyruqlarni bajarishdan ham, foydani ko'paytirishdan ham iborat emas. *O'* korxonalar *omon qolishga, mehnat jamoasini saqlab qolishga yo'naltirilgan*, shu munosabat bilan ayrim tadqiqotchilar ushbu ideal xilni tavsiflash uchun hatto «*omon qolishga yo'naltirilgan korxonalar*» atamasini ham taklif etishdi.

O'tish xilidagi korxonalar maqsadlarini tanlashning o'ziga xos xususiyati uning mulkining tarkibiga bog'liq. *J* firmada bo'lgani kabi bu Erda ham mulkning rasman va real tarkiblari o'rtasida nomuvofiqlik mavjud va bu ham «insayderlar» - korxonalar xodimlari va rahbarlarining foydasiga. Bu Erda gap qayta kombinatsiyalangan mulk haqida borayapti, ya'ni unda quyidagilarga yo'l qo'yiladi:

- xususiy va davlat mulki o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi. Davlat budjetidan qat'i nazar rasmiy jihatdan xususiylashtirilgan korxonalar. Biroq davlatning shartnoma majburiyatlari va budjet oldidagi majburiyatlarni bajarmagan korxonalarining bankrotligini e'lon qilishga tayyor emasligi, davlatning debitorlik qarzlarning bir qismini o'z zimmasiga olishga roziligini anglatadi. O'zaro hisob-kitoblarni o'tkazish amaliyoti haqiqiy moliyaviy bitimlarni imtatsiya qiladi va korxonani to'xtatib qo'yishning iloji yo'qligi holatini shunchaki niqoblaydi, chunki bu ishchilarning noroziligini va ishlab chiqarishning pasayishini keltirib chiqaradi.

- korxonalar tashkiliy chegaralarining yo'qolishi. To'lanmasliklar muammosi nafaqat pul massasining ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar hajmiga mos kelmasligini, balki korxonalarining o'zi bilan o'zaro bog'liq korxonalariga *tovar krediti* berishga tayyorligini aks ettiradi. Shartnoma majburiyatlarini bajarishning

past madaniyatini hisobga olgan holda, korxonalar tomonidan o‘zaro to‘lanmasliklarga ixtiyoriy ravishda yo‘l qo‘yilishining yagona izohi bo‘lib o‘zaro bog‘liq korxonalar *o‘rtasida* firma *ichidagi* oqimlar kabi tamoyillarda tovar-pul oqimini tashkil qilish imkonini beruvchi o‘zaro nazoratning mavjudligi haqidagi tasavvur hisoblanadi.

- mulkning formal va real tarkibining mos kelmasligi. Tashqi mulkdorlar, odatda, fond bozorining optimal bo‘lmagan tarzda faoliyat ko‘rsatishi va menejerlar tomonidan axborot asimmetriyasidan opportunistik foydalanilishi tufayli *O‘* korxonalar menejerlari ustida o‘zlarining nazorat qilish huquqlarini amalga oshirolmaydilar. Natijada «agentlar» - menejerlar – hatto aksiyalarining asosiy qismi tashqi sarmoyadorlarga tegishli bo‘lgan korxonalar ustidan ham nazoratni saqlab qolishadi.

Shunday qilib, omon qolishga yo‘naltirilish «agentlar»ning «prinsipallar» tomonidan o‘zlarining nazorat huquqining «ovoz berish» orqali ham, «chiqish» orqali ham amalga oshirilishi mumkin bo‘lmagan vaziyatni saqlab qolishga urinishini anglatadi. Demak, «agentlar» opportunistik *O‘* korxonalar faoliyat ko‘rsatishining muhim jihati hisoblanadi. Ta’kidlash lozimki, menejerlarning o‘zlari xodimlar (ularning o‘zlariga nisbatan «agentlar») ustidan nazoratni saqlab qolishga erishdilar. Ular buni moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay korxonalar balansida ijtimoiy soha ob’yektlari (uy-joy-kommunal xo‘jaligi, dam olish bazasi, bolalar muassasalari, asl holatida ta’minlash)ni saqlab turishda ifodalovchi paternalizm siyosati hisobidan uddalashdi.

O‘ korxonalar tomonidan ishlab chiqarish aloqalari tarkibi transaksiya xarajatlarini kamaytirish mezonini bo‘yicha emas, balki vaqt orqali tekshirilgan aloqani saqlab qolishga urinish asosida shakllanadi. 1993-1994 yillarda Rossiya korxonalarining aksariyati asosiy Etkazib beruvchilar (83%) va iste’molchilar (70%) bilan eski aloqalarini saqlab qolishdi va yangi sheriklarni topish istiqboliga shubha bilan qarashdi. Ta’minlash va sotish siyosatidagi konservativizmning ehtimoliy talqinlaridan biri yangi sheriklar bilan shartnomalar tuzishning g‘oyat yuqori transaksiya xarajatlari haqidagi tasavvurdan iborat. Birinchi navbatda bu

yangi sheriklarning opportunistik xatti-harakatlarining yuqori darajada ehtimol tutilishi bilan bog‘liq. Eski sheriklarning opportunizmi ularning yuzaga kelgan nufuzi va rejali iqtisodiyot muhitida faqat «o‘zinikiga» nisbatan amal qiluvchi alohida ahloq normalariga ega bo‘lgan direktorlarning mavjudligi tufayli deyarli istisno etilgan.

Endi korxonalarining to‘rtta benuqson xilining jadval ko‘rinishidagi qiyosiy tahlil qilish natijalarini keltiramiz (10.5.1-jadval).

10.5.1-jadval

Turli iqtisodiyotda harakat qiluvchi korxonalar faoliyat ko‘rsatishi mezonlari*

Taqqoslash mezonlari	B korxonona	A korxonona	J korxonona	O‘ korxonona
<i>Maqsadli funksiya</i>	Normal yuklamali rejani bajarish	Foydani oshirish	Ishlab chiqarish va sotish hajmlarini o‘stirish hisobidan tashkiliy kvazirentani oshirish	Korxonaning omon qolishi, mehnat jamoasini saqlab qolish
Mulkchilik tarkibi	Formal-davlat, «idoralarning» real mulki	Aksiyadorlar ichida jismoniy shaxslar ustunlik qiladigan aksiyadorlik	Formal-aksiyadorlik, jamoa korxonasi elementlariga ega bo‘lgan real aksiyadorlik	Formal-aksiyadorlik, real – «rekombinatsiyalangan»
«Prinsipal»	«Idora» (vazirlik, idora)	Yakka aksiyadorlar	Aksiyadorlar va kvazidoimiy xodimlar ittifoqi	Korxonona rahbariyati
Budjet cheklovlarining	0-2	4	3-4	2-3

qat'iylik darajasi				
Tashqi muhit tavsifi	Barqaror	Xatar	Xatar	Nomalum
«Prinsipal-agent» muammosini muhal etish usullari	Uchta shakldagi bevosita nazorat (ma'muriy, partiya, kasaba uyushmalari yoki kengash)	«Ovoz berish» yoki «chiqish» orqali	«Agentlar» ittifoqi sifatida firma modelidan foydalanish	Korxonalar rahbariyati va uning xodimlarining o'zaro munosabatlaridagi patternalizm siyosati
Xo'jalik aloqalari tarkibini belgilab beruvchi omillar	Barcha gorizontal aloqalar vertikal aloqalar orqali (resurslarni ajratish doirasida) amalga oshiriladi	Transaksiya xarajatlarini pasaytirish	Transaksiya xarajatlarini pasaytirish va xatarni turli eshelonlar tarkibidagi o'zaro bog'liq korxonalar o'rtasida taqsimlash	Ilgari yuzaga kelgan aloqalarni saqlash, yuqori transaksiya xarajatlari tufayli yangi aloqalarni qidirishdan bosh tortish
Davlat bilan o'zaro munosabatlar	Reja organi buyruqlariga bo'ysunish	To'liq mustaqillik	Boshqa korxonalar bilan nizolar paydo bo'lganida hakam sifatida foydalanish	Rasman mustaqillik, lekin davlat passivlarini boshqarishni real markazlashtirish doirasida majburiyatlarining bir qismini o'z zimmasiga

				oladi
Bandlik siyosati	Resurslar taqchilligining kutilayotgan miqdoridan funktsiya sifatida mehnatga bo'lgan talab	Mahsulotga bo'lgan talab va xodim-ning mehnat unumdorligidan kutilayotgan miqdoridan funktsiya sifatida mehnatga bo'lgan talab	Kvazidoimiy xodimlarning mehnatiga bo'lgan talab barqaror, mahsulotga nisbatan kutilayotgan talab faqat qisman va vaqtincha-lik bandlik miqdoriga ta'sir ko'rsatadi	Mehnat jamoasining o'zagini saqlab qolishga bo'lgan intilish tufayli mehnatga bo'lgan talab barqaror, ixtiyoriy ishdan bo'shashlar hisobidan ortiqcha bandlik «na-vesi» qisqa-radi
Ish haqi siyosati	Yagona tarif setkasi asosida qat'iy belgilangan	Eng yuqori mehnat unumdorligiga qarab moslashuvchan	Xodimning darajalar ierarxiyasidagi o'rniga qarab qat'iy belgilangan	qat'iy belgilangan
Kasaba uyushmasi shakli	Tarmoq	Tarmoq	Korxonaning kasaba uyushmasi	Tarmoq
Kasaba uyushmasining funksiyasi	Xodimlarni nazorat qilishning qo'shimcha mexanizmi; ijtimoiy boyliklarni taqsim-lash	Xodimlar va ish beruvchilar o'rtasida nizolari paydo bo'lganida vositachi	Oddiy ishchilardan tortib to direksiyagacha bar-cha «insayderlar» manfaatlarini namoyon etish	Kasaba uyushmalari past safarbar etuv-chi salohiyatga ega

* Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosa

«Prinsipal-agent» muammosi har qanday tashkilot faoliyat ko'rsatishini murakkablashtiradi. «Agent»dan «prinsipal»ning foydaliligini oshiruvchi harakatlarni kutishadi, lekin «agent» hamma vaqt o'zi bilan «prinsipal» o'rtasida mavjud bo'lgan axborot asimmetriyasidan o'z foydasi yo'lida va «prinsipal» manfaatlariga zid ravishda foydalanishga harakat qiladi. Muammoni hal etish yo'llari bir nechta: yuqori harajatlar bilan bog'liq bevosita nazoratni kuchaytirish; «prinsipal» tomonidan «agentlar» musobaqasining tashkil etilishi; «agentlar»ning tashkilot faoliyatining daromadlarida ishtirok etishi va «agentlar»ning o'zlari tomonidan «prinsipal» funksiyalarining bajarilishi. «Prinsipal-agent» muammosini hal etishning ushbu variantlari firma ichki tuzilmasi uchta xilining tabiatini izohlaydi: unitar, xolding va multidivizional.

Firmaning ichki tuzilishi tarkibini shartlab beruvchi omillarning har bir o'ziga xos kombinatsiyasi tashkiliy madaniyat asosida o'zini o'zi takror ishlab chiqarish tendensiyasiga ega. Gap tashkilotning traEktoriya bo'yicha rivojlanishi haqida borayapti. «Rivojlanishning tarixiy shartlanganlik samarasi»ning mavjud bo'lishi korxonalarining to'rtta ideal xili haqida gapirish imkonini beradi: buyruqbozlik iqtisodiyotida harakat qiluvchi *B* korxonasi, *A* firma, *J* firma va o'tish xilidagi korxonasi. Korxonalarining bunday xillari buyruqbozlik iqtisodiyotida (rejali xilidagi iqtisodiyotda), mutlaq raqobat iqtisodiyotida (Amerika iqtisodiyotida), iqtisodiyotning korporativ modelida (Yaponiya iqtisodiyotida) va o'tish iqtisodiyotida yuzaga kelgan omillarning o'ziga xos kombinatsiyalarini aks ettiradi.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Firma – tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish maqsadida iqtisodiy resurslarning ishlatuvchi tashkilotdir. Mulk egasining tavsifiga ko'ra qo'yidagi

turdagi firmalar mavjud: davlat, xususiy tadbirkorlik va kapitalistik firmalar, xar bir ochiq xolda ular xo‘jalik faoliyatining asosiy maqsadi - qoldiq daromad mulk egasining, barcha to‘lovlar amalga oshirganda keyingi daromadini ko‘paytirish, kiritilgan kapitaldan olinadigan foydani oshirish va mexnatdan keladigan daromadni yuksaltirishdan iboratdir.

Tashkiliy madaniyat – tashkilot a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning jamoaviy bilimlari va tajribasining ifodasi hisoblangan me‘yorlar, qoidalar va an‘analar yig‘indisi.

“Prinsipal-agent” muammosi – “agent”ning “prinsipal” topshirig‘i va ko‘rsatmasini bajarishdagi hiylasi (nayrangi). Hiyla ishlatish (nayrang) axborot asimmetriyasi va “agent” faoliyati ustidan nazorat qilishning yuqori darajasi tufayli mumkin bo‘ladi.

Chayqovchilik – turli tovarlarni arzon sotib olib, ularga texnologik ishlov bermasdan qimmat sotish bilan daromad topishni ko‘zlaydigan faoliyat turi.

Firma krediti – bu kredit berish shaklida mol beruvchi va sotuvchi to‘lash muddati uzaytirilgan kreditni xaridorga beradi. Bu kabi kredit shaklining birdan-bir misoli maxsulotni iste‘molchiga avans berishdir, avans beruvchiga shartnomaga qo‘l qo‘yilgandan so‘ng o‘tkaziladi.

Aralash tuzilma, agar bo‘linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to‘liq nazorat qilinsa, ikkinchi bo‘linma xoldingdagi kabi firma rahbariyatiga moliyaviy jihatdan qaram bo‘lsa, uchinchi bo‘linma esa operatsion mustaqillikka ega bo‘lib, multidivizional tuzilmadagi kabi o‘z xarajatini qoplash tamoyili asosida faoliyat ko‘rsatgan taqdirda, yuzaga keladi.

Multidivizional tuzilma – mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug‘rofiy belgi bo‘yicha o‘z xarajatini qoplash va o‘zini o‘zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko‘rsatuvchi yarim muxtor ishlab chiqarish bo‘linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

Xolding tuzilmasi – qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi.

Unitar tuzilma – hukmronlik munosabatlarining maksimal darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

Xususiy mulkchilik – individning jamoaviy xo‘jalik faoliyatidan ajralib chiqishini o‘zida namoyon etadi

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. “Prinsipal” bilan “agent”ning o‘zaro munosabatlari matritsasi

		<i>“Prinsipal”</i>	
		Nazorat qilish	Nazorat qilmaslik
<i>“Agent”</i>	Vijdonan ishlash	1; 1 [St ₂]	1; 2 [St ₁ , P]
	Ishdan bo‘yin tovlash	0; -1	2; -2

Ushbu o‘yinda “prinsipal” va “agent” strategiyasining mos kelmasligi muammosi yaqqol ko‘rinib turibdi. Bunda Nesh bo‘yicha muvozanat mavjud emas: “prinsipal” va “agent” o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda optimal natijaga erishish tashkilotning rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan tahdid ostida bo‘ladi.

Siz korxonada raxbari sifatida ushbu uyinni optimal natijaga erishishda kandy yul tutgan bular edingiz?

- a) “Agentlar” raqobati orkali;
- b) “Agent»ning qo‘shma faoliyat natijalarida ishtirok etishi orkali;
- v) Firma “agentlar” ittifoqi sifatida;
- g) Shartnoma tuzish orkali;
- d) Raxbarlik lavozimidan foydalanish orkali.

Javob: a), b) va v) javoblar tugri, chunki institutsional nazariyada “Prinsipal-agent” muammolarini hal etish variantlariga yukoridagi javoblar tugri keladi.

2–misol. “Prinsipal-agent” muammolarini hal etish variantlariga:

- “Agentlar” raqobatini;
- “Agent”ning qo‘shma faoliyat natijalarida ishtirok etishini;
- Firma “agentlar” ittifoqi sifatida ekanligini kritdik.

Siz yana kanday variantlarni tavsiya etgan bular edingiz?

a) Axborotlar almashinishini erkinligi va shartnomalarni uzok muddatliligi orkali;

b) Malakali xodimlarni tasdiklovchi xujjatlarni mavjudligi uzok muddatlilik shartnomani imzolashni bildiradi;

v) Xar bir xodimni foyda ulushiga aylantirish orkali;

g) Shartnoma tuzish orkali;

d) Raxbarlik lavozimidan foydalanish orkali.

Javob: a), b) Axborotlar almashinishini erkinligi va shartnomalarni uzok muddatliligi orkali xamda malakali xodimlarni tasdiklovchi xujjatlarni mavjudligi uzok muddatlilik shartnomani imzolashni bildiradi.

3–misol. Amaliyotda shartnoma majburiyatlari buzilishi turlarining quyidagi tasnifi qo‘llaniladi: ishlarning bajarilmasligi yoki xazmatlar ko‘rsatilmasligi; sifatsiz tovarlar (ishlar, xazmatlar)ni Etkazib berish; to‘liqsiz tovarlarni Etkazib berish; markalanmagan, shuningdek idishsiz yoki upakovka qilinmagan tovarlarni Etkazib berish; Etkazib berish muddatining kechiktirilishi, tovarlarni to‘liq Etkazib bermaslik; to‘lov, tovar-transport hujjatlarining kechiktirilishi; tovarlar (ishlar, xazmatlar) haqini to‘lamaslik yoki o‘z vaqtida to‘lamaslik va.xo.ko.

Agar siz o‘qish uchun to‘lov shartnomasi majburiyatini buzgangizda sizga nisbatan universitet chora qo‘lladi, masalan talabalik safidan chiqardi u holda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

Siz buni qanday shartlar asosida qabul qilasiz?

a) e’tiroz bildirmayman;

b) ushbu holga tushmaslik uchun doim to'lov kontraktini o'z vaqtida to'lab boraman;

v) akademik ta'til olib moliyaviy imkoniyatlarimni oshirishga harakat qilaman;

g) farqi yo'q, chunki menga o'qishni qizig'i yo'q, oilamizni talablarini bajarish uchun talabalik safiga kirdim;

d) to'lov shartnomasida ko'rsatilgan summani uch barobar shaklda to'lab beraman va ushbu holatni takrorlamaslik uchun harakat qilaman.

Javob: a) va v) e'tiroz bildirmayman va akademik ta'til olib moliyaviy imkoniyatlarimni oshirishga harakat qilaman.

KEYSLAR

Keys 1. *Korporativ missiya transaksiya xarajatlarini pasaytirish usuli sifatida.*

Xodimlar soni 30-50 nafar kishigacha oshgan vaqtda, ko'rsatmali boshqaruv boshi berk ko'chaga kirib qoladi. Rahbar o'z buruqlari bajarilishining odatdagi aniqligi va uyg'unligi yo'qolib borayotganligini his qilgan holda qo'l ostidagilarning harakatlari ustidan nazoratni kuchaytirishga intiladi. Qat'iy talablarning rasmiy doiralariga siqib qo'yilgan xodimlar qarshilik ko'rsata boshlaydi. Insonlar ularni qilishga majbur etgan narsalarga qaraganda o'z istaklariga mos keladigan narsalarni yaxshi qilishadi. Qadriyatlar tizimini bilish korxonada yuz berayotgan barcha tub jarayonlarni tushunish imkonini beradi.

Amaliyot. Toshkentdagi savdo kompaniyasi rahbariyati sanoat asbab-uskunalari tovarining bir turini ishlab chiqaruvchi zavod bilan birlashishga qaror qildi. Ikkala korxonaning ham direktorlari va xodimlari ish jarayonida uzviy aloqada bo'lishdi, ikkala korxonaning ham yagona kompaniya doirasidagi qo'shma faoliyat haqidagi tasavvurlari shunchalik har xil bo'lib chiqdiki, hatto birlashishning maqsadga muvofiqligini shubha ostiga qo'ydi.

Ana shunday birlashish samarasiz bo'lib chiqqan holatlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Muvaffaqiyatsiz chiqqan integratsiyaning asosiy sababi sifatida

ko‘pincha ishtirokchi korxonalarining korporativ madaniyatlaridagi farqlar tilga olinadi. Qadriyatlar xodimlarning xatti-harakatini belgilab beradi, shuning uchun agar qadriyatlar mos kelmasa, u holda har bir korxonada xodimlarining faoliyati turli yo‘nalishlarga ega bo‘ladi. Natijada korxonalar kelisha olishmaydi, samarali o‘zaro hamkorlikka ham erishilmaydi. Ular dastlab birlashib, so‘ngra esa tarqalib vaqtni va pulni boy berishadi yoki o‘zaro foydani qo‘ldan chiqargan holda shunchaki birlasha olishmaydi. Harakatlarning birligiga erishish uchun umumiy qadriyatlarni shakllantirish zarur.

Tadbirkorlar shartnomalarni hamkorlik, Etkazib berish, to‘lovlar shartlarini muhokama qilgan holda tuzishadi, qadriyatlarni birgalikda yaratish haqida muzokaralarni yuritish ko‘nikmalari esa hali mavjud emas. Ko‘pchilik uchun muzokaralar predmeti tushunarsiz va uning ahamiyati ham noma‘lum. Ushbu sabablar tufayli mamlakatimizda mustaqil korxonalarining muvaffaqiyatli birlashganligiga juda ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Qo‘shilish asosan xarid qilish yo‘li bilan yuz beradi.

Qadriyatlar umumiy tizimini shakllantirish uchun birlashgan kompaniyani rivojlantirishning birgalikdagi yo‘llari, kutilayotgan natijalar, missiyaning ijrosi haqidagi tasavvurlar aniqlanishi kerak. Savdo kompaniyasi bilan bo‘lgan holatda birlashgan kompaniyani tashkil etish uchun resurs – biznes-mafkura talab qilindi. Jamoa esa buni maxsus treningda shakllantirishga kirishdi. Yangi, yagona korxonaning missiyasi ishlab chiqildi. Korxonani tashkil etishning asosida yotuvchi tamoyillar aniqlandi. Shu jumladan kompaniya amal qiladigan qadriyatlar ham ishlab chiqildi, — kompaniya ishida ishtirok etuvchi yoki uning faoliyatiga jiddiy ta‘sir ko‘rsatuvchi guruhlarining ehtiyojlarini qondirish. Ana shunday guruhlar jumlasiga quyidagilar kiradi: mijozlar, mulkdorlar, xodimlar, menejment, Etkazib beruvchilar, sheriklar. Ushbu guruhlar bilan kompaniya o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tamoyillari belgilandi. Yangi sharoitda ishlash uchun qanaqa xodimlar talab etilishi, ularni nimaga va qanday o‘qitish lozimligi ma‘lum bo‘ldi. Kelgusidagi motivatsiya tizimining shakli-shamoyili paydo bo‘ldi.

Bundan keyin butun jamoa harakatlarining xususiyatini belgilab beruvchi qadriyatlar tizimining shakllanishi qilingan ishlarning yakuni bo'ldi. Ikkala korxonaning ham xodimlari samarali o'zaro hamkorlik qilgan holda va belgilangan yo'l bo'yicha bir yo'nalishda harakatlanib, sa'y-harakatlarni umumiy maqsadga erishish yo'lida birlashtiradi.

Savollar:

Qadriyatlar korporativ tizimining belgilanishi va joriy etilishi muvofiqlashtirish va motivatsiya xarajatlarining miqdoriga qanaqa ta'sir ko'rsatadi?

Bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qilishni rejalashtirayotgan kompaniyalarda umumiy qadriyatlarning mavjudligi muzokaralar olib borish, shartnomani tuzish, monitoring va shartnomalarni ijro etishga majburlash xarajatlarining miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Qadriyatlar korporativ tizimining mavjudligini Nort tomonidan ajratilgan omillarning transaksiya xarajatlarining darajasi va tarkibini belgilab beruvchi qaysi turiga kiritish mumkin?

Muzokaralar olib borish xarajatlarining uchta toifasini ajrating. Qadriyatlar korporativ tizimining joriy etilishi ushbu toifalardan qaysilariga ta'sir ko'rsatmaydi?

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO'G'RIMI YOKI NOTO'G'RIMI?

1. Tashkilot tarkibiga kiruvchi "agentlar" sonining o'sishi, agentlar harakati ustidan nazorat qilish uchun talab etiladigan "prinsipal" xarajatlarining oshishini belgilab beradi.

2. Prinsipal-agent muammosi – "agent"ning "prinsipal" topshirig'i va ko'rsatmasini bajarishda uning nayrang qilish xavfi hisoblanadi.

3. Nazorat xarajatlarining ortishi "agentlar" sonining o'sishiga to'g'ri proporsional emas.

4. “Prinsipal-agent” muammosini hal etishning birinchi varianti agentlar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirishni talab qiladi.

5. Muammoni hal etishning ikkinchi varianti “agent” tomonidan qat’iy belgilanmagan, balki firma faoliyatining natijalariga bog‘liq bo‘lgan mukofotni to‘lashni nazarda tutuvchi yollash haqidagi shartnomaning tuzilishidan iborat.

6. Unitar tuzilma - hukmronlik munosabatlarning eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi. Barcha asosiy qarorlar «agentlar» tomonidan qabul qilinadi, uning o‘zi nazoratni ham amalga oshiradi.

7. Xolding tuzilmasi- qarorlar qabul qilish va “Prinsipal” harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi.

8. Agar “agentlar” faoliyatini nazorat qilish huquqi boshqalarga o‘tkazilsa, u holda funksional belgi bo‘yicha – funksional bo‘linmalar boshliqlariga: sotish bo‘limi boshlig‘i, bosh muhandis, bosh buxgalter va h.k.ga beriladi.

9. Tashkilot a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning jamoaviy bilimlari va tajribasining ifodasi hisoblangan me‘yorlar, qoidalar va an‘analar yig‘indisiga tashkiliy madaniyat deyiladi.

10. Menejerlar bilan xodimlarning o‘zaro munosabatlarida “prinsipal-agent” muammosining hal etilishi fordizm – Buyuk qatag‘onlik davrida Genri Ford tomonidan ishlab chiqilgan mehnatni tashkil qilish tizimi tamoyillariga asoslanadi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. “Prinsipal-agent” muammosi – nima?

A. “agent”ning “prinsipal” topshirig‘i va ko‘rsatmasini bajarishda uning nayrang qilish xavfi hisoblanadi.

B. “agent” faoliyati ustidan nazorat qilish xarajatlari.

C. axborotga ega bo‘lish oqibati.

D. “agent”ning xatti-harakat qilishi imkoniyati.

2. “Prinsipal-agent” muammolarini hal etishning nechta varianti mavjud?

- A. Uchta.
- B. Oltita.
- C. Beshta.
- D. Cheksiz.

3. Firma ichki tuzilishining quyidagi nechta varianti keng tarqalgan?

- A. Uchta.
- B. Beshta.
- C. Multidivizional ko‘rinishda faqat.
- D. To‘rtta.

4. Unitar tuzilma - nima?

A. Hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi. Barcha asosiy qarorlar «prinsipal» tomonidan qabul qilinadi, uning o‘zi nazoratni ham amalga oshiradi.

B. Qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi.

C. Mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug‘rofiy belgi bo‘yicha o‘z xarajatini qoplash.

D. Agar bo‘linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to‘liq nazorat qilinsa.

5. Xolding tuzilmasi - nima?

A. Hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

B. Qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o‘zida namoyon etadi.

C. Mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug‘rofiy belgi bo‘yicha o‘z xarajatini qoplash va o‘zini o‘zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat

ko'rsatuvchi yarim tobiy ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

D. Agar bo'linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa.

6. Multidivizional tuzilma - nima?

A. Hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

B. Qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o'zida namoyon etadi.

C. Mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug'rofiy belgi bo'yicha o'z xarajatini qoplash va o'zini o'zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi yarim tobiy ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

D. Agar bo'linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa.

7. Aralash tuzilma - nima?

A. Hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

B. Qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o'zida namoyon etadi.

C. Mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug'rofiy belgi bo'yicha o'z xarajatini qoplash va o'zini o'zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi yarim tobiy ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

D. Agar bo'linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa, ikkinchi bo'linma xoldingdagi kabi firma rahbariyatiga moliyaviy jihatdan qaram bo'lsa, uchinchi bo'linma esa operatsion mustaqillikka ega bo'lib, multidivizional tuzilmadagi kabi o'z xarajatini qoplash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatgan taqdirda, yuzaga keladi.

8. Tashkiliy madaniyat - nima?

A. Hukmronlik munosabatlarining eng yuqori darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

B. Qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o'zida namoyon etadi.

C. Mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug'rofiy belgi bo'yicha o'z xarajatini qoplash va o'zini o'zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi yarim tobiy ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

D. tashkilot a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning jamoaviy bilimlari va tajribasining ifodasi hisoblangan me'yorlar, qoidalar va an'analar yig'indisi.

9. Tashkiliy rivojlanish traEktoriyasini belgilab beruvchi omillar jumlasiga quyidagilar kiradi:

A. Institutsional muhit, shu jumladan institutsional rivojlanish traEktoriyasi va aktivlarning o'ziga xoslik darajasi.

B. Mamlakat aholisining umumiy soni

C. Xatarga nisbatan betaraf bo'lgan insonlar ulushi

D. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning umumiy darajasi.

10. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. Mulkiy huquqlarning tafsirlanish darajasi va egalik qilish va qoldiq qiymatni olish huquqlarining iqtisodiy sub'yektlararo taqsimlanishi.

B. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlarida transaksiya xarajatlarini mavjud emasligida.

C. Shartnomalar nazariyasi asosida

D. Xufyona iqtisodiyotni cheklash asosida.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. "Prinsipial" va "agent" so'zlari nimani anglatadi? Ular o'rtasidagi munosabatlar nimalarga asoslanadi?

2. Sizga yaxshi tanish bo'lgan tashkilotni tanlang va quyidagi savollarga javob bering: korxonada “prinsipal-agent” muammosi qanday hal etiladi; korxonaning tashkiliy tuzilishi qanaqa (unitar, xolding, multidivizional, aralash); korxonaning firmaning qaysi benuqson xiliga ko‘proq yaqin?

3. O‘zbekiston bozorida ishlovchi chet el firmasining filiali qanday xildagi korxonaga jumlasiga kirishi mumkin? Javobingizni asoslashda qaysi omilarni hisobga olish lozim?

4. O‘tish xilidagi korxonaning barqaror tashkiliy tuzilma hisoblanadimi yoki ushbu benuqson xil yordamida faqat *B* korxonaning *A* firmaga aylantirilishidagi bosqich yoritilganmi?

5. “Prinsipal-agent” muammolarini hal etish variantlarini tavsiflab bering?

6. Firmaning ichki tuzilmasi institutsional iktisodiyotda qanday shakllarga ajratilgan ular xakida ma’lumotlar bering?

7. Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlanish traEktoriyasi qanday amalga oshiriladi?

8. Firmalarning asosiy xillariga tavsif bering?

9. Bozorda ishonchli axborotning tarqatilishi raqobat bilan rag‘batlantiriladi. Aksincha, “prinsipal” va “agent” munosabatlarining odatiy variantida axborot asimmetriyasi va opprtunizm imkoniyatlari “agent”ni “prinsipal” bilan nayrang qilishga undaydi degan fikrni sharxlab bering?

10. Tashkiliy rivojlanish traEktoriyasini belgilab beruvchi omillar jumlasiga nimalar kiradi?

XI BOB. TASHKILOTNI AMALIY TAHLIL QILISH NAZARIYASI

11.1. Transaksiya xarajatlarining ordinalistik nazariyasi asosida tashkiliy tuzilmalarni amaliy tahlil qilish

11.2. Firmaning balansi uning tarkibi to'g'risidagi axborot manbai sifatida

11.3. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish va ularni kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish

Firmalarni eng maqbul (benuqson) xillarga bo'lish real tashkilotlar to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lish imkonini bermaydi, balki faqat tashkiliy tuzilmaning barqaror qismini ajratib ko'rsatadi. Ammo ushbu fikr institutsional yondashuv faqatgina tashkilot ichida yuz berayotgan jarayonlarni tushunishga qodir ekanligini anglatmaydi. Muayyan tashkilot holatini tekshirish va muayyan amaliy tashkiliy muammolarni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqishda institutsional yondashuv bilan bir qatorda, transaksiya xarajatlari nazariyasi, kelishuvlar nazariyasi va mulkchilik huquqlari nazariyasini ham bimalol amaliy qo'llash mumkin.

11.1. Transaksiya xarajatlarining ordinalistik nazariyasi asosida tashkiliy tuzilmalarni amaliy tahlil qilish

Transaksiya xarajatlarini o'lchashdagi qiyinchiliklar muayyan iqtisodiy tahlil uchun asosiy to'siqlardan biri hisoblanadi. Birinchi galda transaksiya xarajatlari barcha xillari pul ekvivalentida baholanishi mumkinmi degan savol ochiqligicha qolmoqda. Hatto transaksyani amalga oshirish uchun vaqt sarfini pul ekvivalentida ifodalashning oddiy tadbiri ham ko'plab holatlarda transaksianing (masalan, muzokaralar yuritishning) u yoki bu jihatlarini ta'minlashga

ixtisoslashgan vositachilarning yoʻqligi tufayli takomillashmagan. Shuningdek, ilgari ishonchga ega boʻlgan sherikning opportunistik xatti-harakati yoki mulkchilik huquqlarining himoyalalmaganligi munosabati bilan yuzaga keladigan ruhiy tashvish tufayli xarajatlarni pul shaklida baholashga urinishda undanda kattaroq murakkabliklar paydo boʻladi.


Transaksiya xarajatlarini oʻlchash oʻtgan asr oxirida foydalilikni oʻlchash yuzasidan munozaralar jarayonida qoʻyilgan muammoga oʻxshash muammoni keltirib chiqaradi. Agar foydalilikni sifat jihatdan funksional bogʻliqlikdagi aniqlik bilan oʻlchash mumkin boʻlsa, u holda birinchi va ikkinchi hosila naflilik maʼnosini kasb etadi; birinchi hosilaning miqdori eng yuqori naflilikning koʻrsatkichi hisoblanadi, manfiy belgili ikkinchi hosila esa eng yuqori nafni kamaytiruvchi qonunning amal qilishini anglatadi¹.

Munozaralar chogʻida foydalilikni oʻlchashning qabul qilingan usuliga muqobil variant sifatida J.Eejuort va I.Fisher foydalilikning turli darajalari nisbatini aniqlash va ularning mutlaq miqdorini baholashga nisbatan daʼvolardan bosh tortishdan iborat boʻlgan ordinalistik yondashuvni taklif etishgan². Transaksiya xarajatlari nazariyasi ham ushbu yoʻnalishda rivojlanmoqda. Iqtisodiy tashkilotlarni qiyosiy tahlil qilishda hech qachon alohida olingan tashkiliy shakllar tadqiq etilmaydi, ular faqat mavjud muqobil variantlarga nisbatan koʻrib chiqiladi.

Turli shartnomalarda va tashkiliy matnlarda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini taqqoslash ularning miqdorini *ekspertiza yoʻli bilan baholash* orqali chegaralash imkonini beradi. Turli variantlarga aniqliklar kiritish transaksiya xarajatlarini pul shaklida oʻlchashning takomillashmagan usullaridan bosh tortish imkonini beradi. U holda muayyan bitimni amalga oshirishning optimal shaklini tanlash algoritmi ikkita bosqichni oʻz ichiga oladi. Birinchi bosqichda turli xildagi: klassik, neoklassik va implitsit shartnomalardan (5-bobga q.) foydalanishda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlari taqqoslanadi.

¹ Блауг М. Экономическая мысль в ретроспективе. М.: Дело, 1991, -С. 307-30.

² Олейник А. Институциональная экономика: Учебно-методическое пособие. // Вопросы экономики. 1999, №1. –С.134.



11.1.1-rasm. Bitimni amalga oshirish bosqichlari

Agar, ekspert baholarga ko‘ra, eng kam xarajatlar implitsit shartnomalardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lsa, u holda ikkinchi bosqichda unitar, xolding, multidivizional va aralash kabi muqobil tashkiliy tuzilmalar doirasida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini taqqoslash mumkin.

Umumiy ko‘rinishda (bitimning muayyan shartlarini hisobga olmasdan turib) shartnomaning uchta turi qiyosiy ustunliklarini, O.Uilyamson fikriga ko‘ra, quyidagicha tarzda namoyon etish mumkin (11.1.1-jadval).

11.1.1-jadval

Shartnomaning qiyosiy ustunliklari¹

Qiyosiy monitoring xarajatlari parametrlari	Shartnoma xillari
---	-------------------

¹ Ташматов Р.Х., Хашимов У. Особенности земельно-имущественных отношений в фермерских хозяйствах Узбекистана: V Международная научно-практическая конференция. Сборник тезисов. Пенза, Пензенский государственный университет архитектуры и строительства, 2009. – С. 194-196.

	klassik	neoklassik	Implitsit
Ragʻbatlar kuchi	++	+	0
Nazorat qilish samaradorligi	0	+	++
Ishtirokchilarning kutilmagan holatlarga avtonom moslashishi	++	+	0
Ishtirokchilarning kutilmagan holatlarga kelishilgan tarzda moslashishi	0	+	++
Nizolarni hal etish huquqiy tadbirlarining qulayligi	++	+	0

Izoh: ++- eng samarali; +- Etarlicha samarali; 0 - samarasiz.

Misol tariqasida korxonalar rahbarlarining korxonalar sohasiga taalluqli boʻlmagan faoliyat turini mustaqil ravishda yoki chetki tashkilotlarga pudrat (neoklassik shartnoma) asosida bajarishni afzal koʻrishiga oid maʼlumotlari 11.1.2-jadvalda keltirilgan.

11.1.2-jadval

Korxonalarda (implitsit shartnoma asosida) amalga oshiriladigan faoliyat turi ulushining tahlili*

Faoliyat turi	Mustaqil ravishda (implitsit shartnoma asosida) bajarish ulushi, foizda		
	1990-1992 yy.	1994-1995 yy.	1996-1998 yy.
Ilmiy-tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlanmalari (ITTKI)	100	70	50
Qurilishni loyihalashtirish	50	60	50
Qurilish-montaj ishlari	72	44	45
Jihozlarga xizmat koʻrsatish	65	63	63
Asbob-anjomlar ishlab chiqarish	73	77	73
Idishlar ishlab chiqarish	68	51	71

Issiqlik ta'minoti	100	10	10
Transport xizmati	75	72	82

*Manba: horij ekspert baholari ma'lumotlari.

Faoliyatning ma'lum turini mustaqil ravishda amalga oshiruvchi korxonalar ulushining eng tez qisqarishi ITTKI, qurilish-montaj ishlari va issiqlik ta'minoti sohasida kuzatiladi. Tabiiyki, bu ushbu faoliyat turlari klassik shartnomadan foydalanish xarajatlarining pasayishi bilan bog'liq. Aksincha, klassik shartnoma asosida transport xizmatlariga ega bo'lish xarajatlari ko'rib chiqilayotgan davrda korxonaning tarkibiy transport bo'linmasini barpo etishga nisbatan oshdi.

Firma ichki tuzilmalarining turli variantlarini ham huddi shu tariqa taqqoslash mumkin. Butlovchi qismlarning alohida turlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi tarkibiy bo'linmalar yo unitar, yoki xolding, yoxud multidivizional tuzilma doirasida o'zaro hamkorlik qiladi, deylik. Unda barcha axborot oqimi markazlashgan unitar tuzilmada axborotni qidirish xarajatlari eng kam va xolding tuzilmada eng yuqori, chunki bo'linmalar hatto faqat moliyaviy ko'rsatkichlarni nazorat qiluvchi bosh ofisda ham bir biri haqidagi axborotga ega bo'la olmaydi. Muzokaralar yuritish xarajatlari unitar korxonada eng kam, bo'linmalari tarqoq joylashgan xoldingda esa - eng yuqori. O'lchash xarajatlari xoldingda yuqori, u Erda yagona standartlarni joriy etish vazifalari qo'yilmaydi. Shartnoma tuzish xarajatlari bosh ofis va bo'linmalar o'rtasidagi huquqlarni chegaralash qiyinligi tufayli multidivizional tuzilmada eng yuqori. Monitoring xarajatlari xoldingda eng past. U Erda bo'linmalarning opportunistik xatti-harakatlari ustidan nazorat bozor mexanizmlari asosida amalga oshiriladi. Transaksiya xarajatlari miqdorining tafsiloti 11.1.3-jadval ko'rinishida berilgan.

11.1.3-jadval

Transaksiya xarajatlari miqdorining ekspert baholaridagi tafsiloti

Transaksiya xarajatlarining xili	Unitar korxonona	Xolding	Multidivizional tuzilma
Axborotni qidirish	1	3	2
Muzokaralar olib borish	1	3	2
O'lchash	1	2	1
Shartnoma tuzish	1	2	3
Monitoring	3	1	2
Mulkchilik huquqlarini himoyalash	-	-	-
Uchinchi shaxslardan himoyalash	-	-	-
Jami	7 (min)	11 (max)	10

Demak, unitar korxonona transaksiya xarajatlarining eng past umumiy miqdori bilan tavsiflanadi. Biroq amalda tarmoq bozoridagi muayyan vaziyat hisobga olinishi lozim. Masalan, kapital bozori va fond bozorining rivojlanmaganligi kapitalning tarmoqlararo oqimini ta'minlash uchun xoldingning jozibadorligini, kapitalning tarmoq ichida oqimini ta'minlash uchun esa multidivizional tuzilmaning jozibadorligini oshiradi. Bundan tashqari, bitimning xususiyatiga qarab har bir parametr (0 dan 1 gacha) alohida ulush berish zarur. Axborotni qidirish xarajatlarining nisbati emas, balki aynan monitoring xarajatlarining nisbati hal qiluvchi bo'lishi mumkin.

11.2. Firmaning balansi uning tarkibi to'g'risidagi axborot manbai sifatida

Ekspert baholaridan tashqari, transaksiya xarajatlarining nisbiy miqdori va tashkiliy tuzilmaning optimallik darajasi haqidagi axborot manbai bo'lib buxgalteriya hisobotlarining, birinchi galda balans hamda foyda va zararlar haqidagi hisobot (daromadlar haqidagi hisobot)ning ma'lumotlari xizmat qilishi mumkin. Balansdan foydalanishning bunday yo'nalishi asosan firmaning kreditga layoqatliligini imkoniyatli kreditorlar nuqtai nazaridan baholashga qaratilgan moliyaviy tahlilning oddiy texnologiyasidan farq qiladi. *Institutsional* tahlil uchun biz taklif etayotgan balansdan foydalanish metodologiyasi, albatta, to'liq emas, shuning uchun unga nisbatan mutlaq aniq va to'la-to'kis xususiyatga da'vogarlik qilmaydigan xomaki variant singari munosabatda bo'lish lozim.

Buxgalteriya hisobotining institutsional tahlilidagi dastlabki nuqta sifatida biz daromadlar haqidagi hisobot asosida aniqlanadigan firma mahsulotini sotish narxining tarkibi «axborotning uchta xilini: tashkilotning ichki tafsilotlari haqidagi, bozordagi raqobat darajasi haqidagi va firma strategiyasi haqidagi axborotni sintez qiladi», degan tezicni qabul qilamiz. Haqiqatdan ham, tannarx tarkibi nafaqat ishlab chiqarish va texnologik xarajatlarni, balki tashkilot *ichida* yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini ham aks ettiradi. Ikkinchi tomondan, daromadlar tarkibi firma faoliyat ko'rsatadigan *tashqi muhit* haqidagi: talabning holati va dinamikasi, raqobatchilar tovarlarining narxi va sifati, raqib firmalarning savdo tajovuzkorligi darajasi, mazkur sektorda transaksiya xarajatlarining miqdori haqidagi axborotni ham o'zida mujassam etadi.

Alohida firmaning buxgalteriya hisobotida mujassamlangan axborot o'z o'zicha kam ma'lumot beradi: institutsional tahlil uni tarmoq bo'yicha yoki shunday o'lchamdagi firmalar guruhlari bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichlar bilan taqqoslashni talab qiladi, chunki gap transaksiya xarajatlarini mutlaq emas, balki nisbiy ifodada o'lchash haqida borayapti. Masalan, Yaponiyada har yili 865 ta yirik firmaning o'rtacha holatga keltirilgan balansi ko'rsatkichlari hisoblab

chiqiladi (NEEDS – Nikkei Economic Electronic Data System). Aynan o‘rtacha holatga keltirilgan balans ma’lumotlari asosida M.Aoki to‘plangan ishdan biiashashda tiiulanadigan nafaqalar miqdori firma tomonidan xodimning firma uchun o‘ziga xos ko‘nikmalar va bilimlarga ega bo‘lishi uchun sarflanadigan sa’y-harakatlarga to‘g‘ri proporsional degan farazdan kelib chiqib, J firmada inson kapitali o‘ziga xosligining miqdorini baholashga urindi. Bunday ehtimollikni Yaponiya firmalarida chiqarish nafaqalarini shakllantirish tartibotini tahlil qilish orqali qabul qilish mumkin. Har bir yangi xodimning kelishi bilan uning nomiga maxsus hisobvaraqlar ochiladi, undagi mablag‘lar summasi ish stajining ortishi va ichki ierarxiya eshelonlar bo‘yicha harakatlanishga qarab oshadi. Chiqish nafaqasi pensiyaga ketishida yoki muddatidan oldin ishdan bo‘shaganida, to‘lanadi (ikkinchi holatda xodim katta yo‘qotishlarga duch keladi), bu uni firma tomonidan to‘lanadigan yakka pensiyaga yaqinlashtiradi. M.Aoki firmada inson kapitali o‘ziga xosligining darajasini to‘plangan chiqish nafaqalari summasining firmaning umumiy kapitaliga nisbati sifatida hisoblab chiqiladigan indeks yordamida aniqladi. Agar muayyan firma uchun hisoblab chiqilgan bunday indeks o‘rtachalashtirilgan balans ma’lumotlari bo‘yicha hisoblab chiqilgan indeksdan ortiq bo‘lsa, u holda firmada inson kapitali o‘ziga xosligining darajasi nisbatan yuqori, va aksincha.

NEEDSga o‘xshash balans har bir mamlakatda ham hisoblab chiqilavermasligiga qaramay, istalgan yirik konsalting yoki auditorlik firmasining ma’lumotlar bazasi taqqoslash uchun zarur bo‘lgan axborotni o‘zida mujassam etgan. Endi tashkilotning ichki tuzilishi va uning bozor strategiyasi haqida xulosa chiqarish imkonini beruvchi indekslarning yig‘indisini batafsil ko‘rib chiqamiz. Dastlab balansning umumiy tarkibini va GAAP standartidagi daromadlar haqidagi hisobotni yodga olamiz (11.2.1-jadval).

Aktiv va passiv alohida moddalarining tahlili tashkilotda huquqlarning real taqsimlanishi haqida tasavvurga ega bo‘lish imkonini beradi, u rasmiy, ta’sis hujjatlari va aksiyadorlar reEstrida qayd etilgan taqsimlashga hamma vaqt ham mos kelmaydi.

«Xodimlarga ish haqi bo'yicha qarzdorlik»

$$I_1^i = \frac{\text{«Xodimlarga ish haqi bo'yicha qarzdorlik»}}{\text{«Jami joriy operatsion majburiyatlar»}}$$

I_1^i indeks korxonada xodimlarining qarorlarni qabul qilish jarayoniga ta'siri darajasini aks ettiradi. Banklar, davlat va o'zaro bog'liq korxonalar oldidagi qisqa muddatli qarzdorlik bo'yicha ham shunga o'xshash I_1^i indekslar hisoblab chiqiladi. Agar korxonada rahbariyati xodimlar oldidagi majburiyatlarni bajarishni banklar, davlat (budget) va o'zaro bog'liq korxonalar oldidagi majburiyatlarni bajarishdan ko'ra ustuvorli deb hisoblasa, u holda bu mehnat jamoasi tomonidan egalik qilish, tasarruf etish va daromad olish huquqiga norasmiy egalik qilinishidan dalolat beradi.

«Uzoq muddatli kreditlar: ta'minlanmagan»

$$I_2 = \frac{\text{«Uzoq muddatli kreditlar: ta'minlanmagan»}}{\text{«Jami uzoq muddatli majburiyatlar»}}$$

Banklar tomonidan korxonada ustidan nazorat darajasini aniqlash uchun I_2 indeksni hisoblab chiqish ham foydali, chunki bank tomonidan garov bilan ta'minlanmagan kreditlar, faqat berilgan kredit qaytarilishining boshqa, norasmiy kafolatlari ko'zda tutilgan hollarda, berilishi mumkin¹.

11.2.1-jadval

Firmaning balansining ko'rsatkichlari

BALANS	
AKTIV	PASSIV

¹ «Кредиторнинг ўз пулларини қайтариб олиш ҳуқуқи чегараланган, лекин акциядорларникига қараганда кам, чунки (кредиторларда) назорат қилишнинг билвосита, номуайян усуллари мавжуд» (Стиглиц Дж. Кредитные рынки и контроль над капиталом. ~ МЭиМО, 1989, № 6, с. 46~47).

<p>Naqd pul</p> <p>Oson sotiladigan qimmatli qog'ozlar</p> <p>Debitorlar hisobvaraqlari: tijorat</p> <p>Zahiralar: xomashyo</p> <p>Zahiralar: tugallanmagan ishlab chiqarish</p> <p>Zahiralar: tayyor mahsulot</p> <p>Jami zahiralar</p> <p>Bo'lajak davrlar xarajatlari</p> <p>Boshqa aylanma aktivlar</p> <p style="padding-left: 40px;">Jami aylanma aktivlar</p> <p>Binolar, inshootlar va jihozlar</p> <p>Asosiy jihozlar lizingi</p> <p>Amaldagi jihozlar lizingi</p> <p>Minus amortizatsiya</p> <p>Jami binolar, inshootlar va jihozlar: sof</p> <p>Investitsiyalar va ssudalar</p> <p>Uzoq muddatli qimmatli qog'ozlar</p> <p>Debitorlarning turli hisobvaraqlari</p> <p>Sof aktivlar</p> <p>Boshqa aylanmadan tashqari mablag'lar</p> <p>Nomoddiy aktivlar</p> <p>Xaridlarni kapitallashtirish (gudvill)</p>	<p>To'lanadigan veksellar</p> <p>To'lanadigan hisobvaraqlar: tijorat</p> <p>Boshqa joriy majburiyatlar</p> <p>Jami joriy operatsion majburiyatlar</p> <p>Joriy uzoq muddatli qarzdorlikning bir qismi</p> <p>Bo'lajak davrlar daromadlari</p> <p>Uzoq muddatli kreditlar: ta'minlanmagan</p> <p>Uzoq muddatli kreditlar: ta'minlangan</p> <p>Kapital lizingi bo'yicha majburiyatlar</p> <p>Operatsion lizingning hozirgi qiymati</p> <p>Boshqa joriy majburiyatlar</p> <p style="padding-left: 40px;">Jami uzoq muddatli majburiyatlar</p> <p>Subordinatsiyalangan qarzdorlik</p> <p>Qisqa muddatli pensiya majburiyatlari</p> <p>To'lash muddati kechiktirilgan soliq to'lovlari</p>
	J a m i p a s s i v
	XUSUSIY KAPITAL
	<p>To'lash muddati kechiktirilgan soliq to'lovlari</p> <p>Shu'ba korxonalarida tashqi kapital</p> <p>Imtiyozli aksiyalar</p> <p>Oddiy aksiyalar</p> <p>Taqsimlanmagan foyda</p> <p>Sarmoyadorlardan sotib olingan aksiyalar</p>
<i>Jami asosiy vositalar</i>	Jami xususiy kapital

J a m i a k t i v	USTUNDAGI JAMI
-------------------	-----------------------

DAROMADLAR TO‘G‘RISIDA HISOBOT

Sof sotuvlar (tushumlar)

Sotilgan tovarlarning tannarxi (minus amortizatsiya)

Amortizatsiya ajratmalari

Yalpi foyda

Sotish xarajatlari

Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari

Rahbar xodimlarni mukofotlash

Boshqa operatsiya xarajatlari

Operatsion daromad

Boshqa operatsiyadan tashqari xarajatlar

To‘langan foizlar

Olingan foizlar

Korxonalarni yopish va hisobdan chiqarish

Kapital qo‘yilmalardan daromadlar

Soliqlar to‘languncha foyda

Daromad solig‘i

Davom etayotgan operatsiyalardan daromad

To‘xtatilgan operatsiyalardan sof foyda

Korxonani sotishdan foyda (zarar)

Favqulodda daromadni olguncha daromad (zarar)

Favqulodda daromad

Sof foyda

«Debitorlar hisobvaraqlari: tijorat»

$I_3 = \text{_____} ;$

«To‘lanadigan hisobvaraqlar: tijorat»

«Debitorlar hisobvaraqlari: tijorat»

$$I_4 = \frac{\text{«Debitorlar hisobvaraqlari: tijorat»}}{\text{«Jami aylanma mablag‘lar»}}$$

O‘zaro bog‘liq korxonalar tomonidan tashkilot ustidan nazorat darajasini aniqlash uchun (masalan qayta kombinatsiyalangan mulkning mavjudligi haqidagi gepotezani tekshirishda) I_1^i xilidagi indeksni (suratda – «To‘lanadigan hisobvaraqlar») I_3 debitorlik qarzdorligi indeksi va I_4 koeffitsienti bilan muvofiqlashtirish zarur. Agar I_1^i indeksining miqdori o‘zaro bog‘liq korxonalarining imtiyozli holati haqida tasavvur qilish imkonini bersa, u holda I_3 va I_4 indeklari korxonaning o‘zaro bog‘liq korxonalar ustidan nazorat darajasini va o‘zaro bog‘liq korxonalarining korxonalar ustidan nazorat darajasini aniqlaydi. Ushbu indeksning qo‘llanilishi M1 pul agregatining real tovar massasiga mos kelmasligining oqibati¹ sifatidagi to‘lamasliklar va korxonalar o‘rtasidagi tovar kreditining shakli sifatidagi to‘lamasliklar o‘rtasida chegara o‘tkazish imkonini beradi.

«Taqsimlanmagan foyda»

$$I_5 = \frac{\text{«Taqsimlanmagan foyda»}}{\text{«Jami xususiy kapital»}};$$

(«Ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari» +
«Rahbar xodimlarni mukofotlash»)

$$I_6 = \frac{\text{«Ma‘muriy-boshqaruv xarajatlari» + «Rahbar xodimlarni mukofotlash»}}{\text{«Yalpi foyda»}}$$

¹ M1 pulning miqdoriy tenglamasi $MV=PY$ asosida hisoblab chiqiladi, bu erda M - pul agregati, V – pul muomalasining tezligi, P – narxlar darajasi va Y – real daromad.

I_5 indeksi aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatidagi qoldiq daromadni olish huquqidan foydalanishi samaradorligini tahlil qilish uchun taklif etiladi. Agar tadqiq etilayotgan firmaning balansi asosida hisoblab chiqilgan ushbu indeks tarmoq yoki korxonalar guruhlari bo'yicha o'rtacha indeksdan ancha kichik bo'lsa, u holda rasmiy mulkdorlar «agentlar» - menejerlarning opportunistik xatti-harakatlari ehtimoliga e'tiborni qaratishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Menejerlarning opportunistik xatti-harakatlarini, masalan, daromadlar to'g'risidagi hisobotda «Ma'muriy-boshqaruv xarajatlari» moddasining oshirib ko'rsatilishi holatlari tasdiqlaydi, chunki ko'pincha menejerlar o'z daromadini pul shaklida ko'paytirish imkoniyatidan mahrum bo'ladilar. Shuning uchun I_6 indeksi I_5 indeksining tabiiy to'ldiruvchisi hisoblanadi.

$$I_7 = \frac{\text{«Naqd pulda to'langan dividendlar»}}{\text{«Soliqlar to'langanidan so'ng foyda»}} ;$$

$$I_8 = \frac{\text{«Joriy operatsiya xarajatlari»}}{\text{«Soliqlar to'langunicha foyda»}} .$$

Mazkur indekslar firmaning maqsadli funksiyasini tahlil qilish va, o'z navbatida, uning real «prinsipal»ini aniqlash uchun mo'ljallangan. Bir aksiyaga daromadni ko'paytirish gepotezasini tekshirish uchun («prinsipal» - aksiyadorlar) I_7 dividendlarni to'lash koeffitsienti qo'llaniladi (naqd pullar harakati haqidagi hisobotdan «Naqd pulda to'langan dividendlar» moddasi). Bunda I_7 koeffitsientini dinamikada ko'rib chiqish lozim – faqat uning bir necha hisobot davrlaridagi ijobiy dinamikasi firmaning bir aksiyaga daromadni ko'paytirish maqsadini ko'zlaganligidan dalolat beradi. Ikkinchi tomondan, korxonaning omon qolishga yo'naltirilishi darajasi soliqlar to'langunga qadar foydaning barqaror eng kam

miqdori chog'ida joriy operatsiya majburiyatlari va umuman passivning o'zaro nisbati dinamikasi (oshish tomonga) asosida baholanadi.

«Sotilgan tovarlarning tannarxi»

$$I_9 = \frac{\text{«Sotilgan tovarlarning tannarxi»}}{\text{«Zahiralar: xomashyo»} + \text{«Zahiralar: tugallanmagan ishlab chiqarish»}} ;$$

«Zahiralar: xomashyo» + «Zahiralar: tugallanmagan ishlab chiqarish»

$$I_{10} = \frac{\text{«Zahiralar: xomashyo»} + \text{«Zahiralar: tugallanmagan ishlab chiqarish»}}{\text{«Jami aylanma aktivlar»}} .$$

J korxonasi misolida biz shunga amin bo'ldikki, xomashyo va tugallanmagan ishlab chiqarish zahiralarining darajasi firma ichida axborot oqimlarini tashkil etish va bo'linmalar faoliyatini gorizontol muvofiqlashtirish samaradorligini aks ettiradi. Shunday qilib, zahiralarining aylanuvchanligi va darajasi koeffitsientlari firma ichki tuzilishining nisbiy ustunliklari (kamchiliklari)dan dalolat berib turibdi.

«Binolar, inshootlar va jihozlar»

$$I_{11} = \frac{\text{«Binolar, inshootlar va jihozlar»}}{\text{«Jami asosiy vositalar»}} ;$$

«Nomoddiy aktivlar»

$$I_{12} = \frac{\text{«Nomoddiy aktivlar»}}{\text{«Jami asosiy vositalar»}} ;$$

«Jami aylanma aktivlar»

$$I_{13} = \frac{\text{«Jami aylanma aktivlar»}}{\text{«Jami joriy operatsiya majburiyatlari»}} ;$$

$$I_{14} = \frac{\text{«Naqd pullar»} + \text{«Oson sotiladigan qimmatli qog'ozlar»} + \text{«Debitorlar hisobvaraqlari»}}{\text{«Jami joriy operatsiya majburiyatlari»}}$$

Aktivlarning o'ziga xoslik darajasi aktivning quyidagi moddalarini taqqoslash yordamida baholanadi: «Binolar, inshootlar va jihozlar» (joylashish o'rni bo'yicha o'ziga xoslik va texnologik o'ziga xoslik) va «Nomoddiy aktivlar» (tovar belgilari). Aktivlarning o'ziga xosligi darajasi haqida likvidlilik koeffitsientlarini noan'anaviy talqin etishni taklif qilgan holda tasavvurga ega bo'lish mumkin – likvidlilikning joriy (I_{13}) va «tez» (I_{14}) koeffitsientlari qanchalik yuqori bo'lsa, firmaning aktivlari shunchalik kam o'ziga xoslik darajasiga ega.

11.3. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish va kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish


Tashkilotni amaliy tahlil qilishga kelishuvlar nazariyasi ham o'z ulushini qo'shadi. Uning yordamida tashkilot ichidagi nizolar tabiatini, optimal shartnoma nazariyasi va transaksiya xarajatlari nazariyasining tarafdorlari taklif etganidek, «prinsipal» va «agent» manfaatlarining qarama-qarshi qo'yilishiga yo'yish mumkin emas. Kelishuvlar nazariyasi tashkilot tuzilmasining *murakkabligidan* kelib chiqadi – u turli xildagi kelishuvlar unsurlarini o'z ichiga oladi. Odatda, har qanday tashkilotning faoliyat ko'rsatishi kamida quyidagi kelishuvlar imperativiga javob berishi lozim: bozor, industrial, an'anaviy, fuqarolik, ijodiy faoliyat va ijtimoiy fikr. Har qanday tashkilot, hatto foyda ko'rmay ishlayotgan korxonalar ham, o'zining daromadlarini xarajatlarga muvofiqlashtirishi va o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarishi zarur (bozor kelishuvining unsurlari). Har qanday tashkilotni boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish va, o'z navbatida, industrial

kelishuv unsurlaridan foydalaniladi. Tashkilot ichida o'zining alohida madaniyati, eskilik to'plamining shakllanishi uning faoliyatida an'anaviy kelishuvlar unsurlarining paydo bo'lganligidan dalolat beradi. Tashkilotda «agentlar» birlashgan manfaatlari - kasaba uyushmasi vakilining ishtiroki, shuningdek tashkilot *ichki* hayotining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga bo'ysunishi fuqarolik kelishuvi imperativini o'zida aks ettiradi. Tashkilotning ishbilarmonlik doiralaridagi obro'si yoki iste'molchilar o'rtasida uning tovar belgisining mashhurligi bizni ijtimoiy fikr imperativiga amal qilishga undaydi. Va nihoyat, keng ma'nodagi innovatsiyalarga intilish (yangi tovar yoki xizmatlar ishlab chiqarishdan tortib to tashkiliy tuzilmani optimallashtirishgacha) tashkilotning faoliyat ko'rsatishida ijodiy faoliyat imperativini aks ettiradi. Shunday qilib, tashkilot asosida turli imperativlar o'rtasidagi *nizolar* yotadi.

Kelishuvlar nazariyasining ustunligi nafaqat tashkilot faoliyat ko'rsatishi jarayonida yuzaga keladigan nizolarni ozmi yoki ko'pmi muntazam yoritishdan iborat, balki u murosaning turli ko'rinishlarini tahlil qilish asosida nizolarni hal etish variantlarini ham taklif etadi. Masalan, korxonalar rahbari, ishlab chiqarish jarayonini oqilona tashkil etish hisobidan iste'molchilarga taklif etilayotgan mahsulot narxini pasaytirishni ko'zlagan holda, bosh muhandis (inustrial kelishuv) va sotuv bo'limi (bozor kelishuvi) xizmatlarining manfaatlari o'rtasidagi nizoni hal etish yo'lini qidirishi lozim. «Fordizm» tamoyillaridan biri industrial va bozor kelishuvlari o'rtasidagi murosaning bunday ko'rinishini shunday izohlaydi: ishlab chiqarishni uzluksiz tashkil etish asosida ishlab chiqariladigan mashinalar tannarxini pasaytirish, sotuvni rag'batlantirish va hatto iste'molning yangi standartini tashkil etish imkonini beradi.

Fransuz ishlab chiqaruvchisining «Pogrebok Affinua» yangi pishloq navini ishlab chiqarish to'g'risidagi qarori murosaning yanada murakkab ko'rinishiga misol bo'ladi. Ushbu qaror an'anaviy retseptlar, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va pishloqning ushbu xili ko'p sonli sovrinlar bilan taqdirlanadigan nufuzli tanlovlarda ishtirok etishi asosida istemolchining nozik didli talablarini qondirishga urinish ta'siri ostida qabul qilingan edi. Mazkur korxonalar faoliyat

ko'rsatishini belgilab beruvchi bozor, an'anaviy, inustriyal kelishuvlar hamda ijtimoiy fikr to'g'risidagi kelishuv murosasi ko'zga tashlanib turibdi (10.2-rasm.).



11.3.1- rasm. Kelishuvlar nazariyasi bo'yicha tahlil

Har qanday korxonaga uchun yuzaga keladigan muammolarni uning yordamida identifikatsiyalash va ularni hal etish yo'llarini izlash yo'nalishlarini belgilash oson bo'ladigan o'ziga xos kelishuvlar «xaritasini» tuzish mumkin. Kelishuvlar nazariyasi nuqtai nazaridan tashkiliy tuzilmani optimallashtirish tashkilot oldida turgan turli imperativlarni muvofiqlashtirishga yordam beruvchi murosalar tamoyillarini qidirib topishdan iborat.

Xulosa

Faqat transaksiya xarajatlarining miqdorini baholashga nisbatan ordinalistik yondashuv yordamida muayyan tashkilotlar tuzilmasini tahlil qilish uchun transaksiya xarajatlari nazariyasini qo'llash mumkin. Mazkur yondashuv turli shartnoma va tashkiliy shakllarda bitim tuzishda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlari miqdorini ekspertiza yo'li bilan baholash yordamida taqqoslashdan iborat. Ekspert baholaridan tashqari, tashkilotning buxgalteriya hisoboti ham axborot manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. O'z navbatida, kelishuvlar

nazariyasi tashkilotlarni miqdoriy jihatdan emas, balki sifat jihatdan tahlil qilishga o'z ulushini qo'shadi. Uning asosida tashkilot ichida yuzaga keladigan nizolar tabiatini izohlash va uning tuzilishini transaksiya xarajatlari mezonini bo'yicha emas, balki nizolarning keskinligini pasaytirish mezonini bo'yicha optimallashtirish mumkin.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Aylanma fondlar – korxonada ishlab chiqarish fondining bir qismini tashkil qiladi. U bir ishlab chiqarish davrida ishlatiladi va o'z qiymatini ishlab chiqariladigan maxsulotga to'laligicha o'tkazadi. Muomila faodlari tayyor maxsulotni iste'molchilarga yuborilgani, lekin to'lanmagani, bank va kassa hisobidagi pul mablag'ini o'z ichiga oladi.

Aktivlarning likvidligi – bu moddiy boyliklarni sotib naqd pulga aylantirishdagi Engillikdir. Korxonaning ba'zi bir aktivlari o'zaro shunday bog'langan bo'lishlari mumkinki, bittasini yuqotish boshqasini samarali ishlatilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Aktivlarni moliyalashtirish siyosati – korxonaning aloxida turidagi aktivlarini o'z mablag'lari, uzok va qisqa muddatli qarzga olingan mablag'lar hisobidan moliyalashtirishga bo'lgan prinsipial yondashuv.

Asosiy vositalarining qiymatini indeksatsiyalash – asosiy vositalarini inflyatsiya, ma'naviy eskirish va boshqa omillarni hisobga olgan holda qayta baxolash va balansga aks ettirish.

Asosiy vositalarining faol qismi – savdo texnologik jarayonida bevosita ishlatiladigan mashina, mexanizm va uskunalar.

Balans foyda – korxonaning savdo va boshqa faoliyat turlaridan oladigan foydasining soliqlar va boshqa majburiy ajratmalarni to'lashdan oldingi umumiy summasi.

Debitor – korxonada, tashkilot yoki muassasadan qarzi bo'lgan yuridik yoki jismoniy shaxs.

Debitorlik qarzi – o‘zaro xo‘jalik aloqalarini olib boruvchi korxonalar, tashkilotlarning bir-biridan qarzi summasi.

Debitorlik qarzning qayta moliyalashtirish – debitorlik qarzlarini pul aktivlariga aylanishini tezlashtirish bo‘yicha moliyaviy operatsiya.

Kredit – pul vositalarini, tovar va xizmatlarini ma‘lum ustama (foiz) to‘lab kaytarib berish sharti bilan noma‘lam muddatga qarz berish.

Kredit munosabatlari – ssuda fondini shakllantirish va undan foydalanish munosabatlari.

Kredit pullari – kredit aloqalarida ishlatiladigan qog‘oz pullar, kredit pullar oltin o‘rniga paydo bo‘lgan qarz beruvchi va qarzdor o‘rtasidagi amalga oshadigan xarakatlarda qo‘llanadi.

Passivlar – korxonalar tomonidan o‘z xo‘jalik faoliyatini moliyalashtirish uchun ishlatiladigan, qarzga olingan pul mablag‘lari.

Hisob-kitoblarning pulsiz shakli – barter almashuvi, o‘zaro hisob-kitob (kliring) sxemalari, shuningdek notijorat yo‘li bilan kreditlashning barcha turlari (shu jumladan, to‘lamasliklar).

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Kasaba uyushmasining faoliyati quyidagi kelishuvlar qismlarini o‘z ichiga oladi: fuqarolik, bozor, industrial va an’anaviy. Ushbu holatda kelishuvlarning qanaqa varianti haqida gap borayapti?

- a) murosa,
- b) dahl,
- v) ekspansiya.

Javob: a), gap murosa haqida borayapti. Chunki to‘rtta kelishuv normalari zid emas, balki qaysidir ma‘noda bir-birini to‘ldiradi. Masalan, ish haqini oshirish talabi (bozor kelishuvi) muayyan tarmoq yoki korxonalar xodimlarining jamoaviy harakatlari (ish tashlash, jamoaviy shartnomani imzolash uchun kurashish) orqali amalga oshiriladi (industrial kelishuv yollanma xodimlarni kasbiy toifalarga

bo‘lishning asosida yotadi). Kurashish an‘analari esa (masalan, ishchilarning an‘anaviy bahorgi va kuzgi chiqishlari) tashkilot nufuzining o‘shishiga (oxirigacha kurashishga tayyorlik) ko‘maklashadi, bu ish beruvchilar tomonidan ish haqining oshirilishi to‘g‘risidagi talablarning qondirilishi imkoniyatlarini oshiradi.

2–misol. Qanaqa transaksiya xarajatlari iqtisodiyotda kelishuvlar nazariyasi nuqtai nazaridan o‘ta katta?

- a) axborotni qidirish;
- b) monitoring va opporunizmning oldini olish;
- v) o‘lchash;
- g) muzokaralar olib borish;
- d) shartnoma tuzish.

Javob: a) va b), kelishuvlar nazariyasi transaksiya xarajatlari o‘shishining asosiy omili sifatida iqtisodiy muhitning bir xil emasligiga e‘tiborni qaratadi. Iqtisodiyotda kelishuvlar nisbati o‘ta beqaror, bu iqtisodiy agentlarga umumiy qabul qilingan “o‘yinlar qoidalari” asosida harakat qilishga halaqit beradi. Bunday sharoitda axborotni qidirish xarajatlari (axborotning yakuniy manbai mavjud emas) va monitoring xarajatlari o‘ta yuqori, chunki axborotning asimmetrikligi va umumiy qabul qilingan “o‘yinlar qoidalari”ning mavjud emasligi opporunistik xatti-harakat uchun zamin hozirlaydi.

3–misol. Biznesni tashkil etish aksiyadorlik shaklining mutlaq afzalligi to‘g‘risidagi fikr to‘g‘rimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: b), biznesni tashkil etish u yoki bu shaklining afzalligi hamma vaqt nisbiy bo‘lib, biznesning tavsiflariga va taqqoslash mezonlariga, masalan, boshqa tashkiliy muqobil variantlar doirasida transaksiya xarajatlarining miqdoriga bog‘liq.

KEYSLAR

Keys 1. *Transaksiyalarni tahlil qilishga nisbatan Uilyamsonning yondashuvi: qurilish bozori*

Shaharda elita uy-joy bozorida ishlovchi, o'zining qurilish bo'linmalarini ochgan kompaniyalar soni ortib bormoqda. «"Bank uyi" kompaniya guruhi to'liq qurilish siklini ta'minlab turishi va o'z qurilish bo'linmalariga egaligi bois pudratchilarni saralab olish bo'yicha tenderlar faqat tor ixtisoslashgan ish turlari uchun o'tkaziladi, - deydi Xamid Xalilov. - Pudratchilarni tanlashda birinchi navbatda bozorda yaxshi nufuzga ega bo'lgan va ular bilan hamkorlikning ijobiy tajribasi yuzaga kelgan kompaniyalar ko'rib chiqiladi. Lekin bu "Bank uyi" yangi pudratchilar bilan ishlamaydi degani emas, - tender hamma uchun ochiq, unda sifati va narxi bo'yicha eng qiziqarli taklif g'olib bo'ladi». «Uy ularilish kombinati (UQK)» kompaniyalar guruhi doirasidagi o'z qurilish kompaniyamiz nafaqat pulni tejash, balki, eng asosiysi, ishlarning sifati va loyihaning amalga oshirish muddatlari ustidan umumiy nazoratni ta'minlash imkonini ham beradi. «"UQK" — xususiy tuzilma va bizning vaqtni yo'qotishga yoki ehtimoliy hatolarga yoxud autsorsing bo'yicha ishlovchi pudratchining noinsofligiga duch kelib ishlarning sifatidan voz kechishga haqqimiz yo'q», — deya ta'kidlaydi ish boshqaruvchi Vali RizaEv.

Savollar:

Transaksiyalarni tahlil qilishga nisbatan Uilyamsonning yondashuviga muvofiq «Bank uyi» kompaniyasi bilan pudratchilar o'rtasidagi transaksiyalarni boshqarish shaklini ta'riflang.

- Transaksiyalarni boshqarishning bunday shakli qanday nomlanadi?
- "Bank uyi" kompaniyasi bilan pudratchilar o'rtasidagi transaksiya parametrlarini ajrating. O'z javobingizni asoslang.
- Transaksiya parametrlari uni boshqarish shaklidan qanday ta'sir ko'rsatadi?

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Firmalarni eng maqbul (benuqson) xillarga bo‘lish real tashkilotlar to‘g‘risida to‘liq tasavvurga ega bo‘lish imkonini bermaydi, balki faqat tashkiliy tuzilmaning barqaror qismini ajratib ko‘rsatadi.
2. Balans – muvozanat, muttasil o‘zgarib turuvchi xodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar sistemasi.
3. Aktivlar – korxonalar aktivlarini moliyalashtirishning xamma manbalari ko‘rsatiladigan korxonalar balansining bo‘limi.
4. Passiv – korxonalar xo‘jalik faoliyatida foyda olish maqsadida ishlatiladigan moddiy qimmatliklar shaklidagi iktisodiy resurslar.
5. Muayyan tashkilot holatini tekshirish va muayyan amaliy tashkiliy muammolarni hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda institutsional yondashuv bilan bir qatorda, transaksiya xarajatlari nazariyasi, kelishuvlar nazariyasi va mulkchilik huquqlari nazariyasini ham bemalol amaliy qo‘llash mumkin.
6. Turli shartnomalarda va tashkiliy matnlarda yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini taqqoslash ularning miqdorini ekspertiza yo‘li bilan baholash orqali chegaralash imkonini beradi.
7. Har qanday tashkilot, hatto foyda ko‘rmay ishlayotgan korxonalar ham, o‘zining daromadlarini xarajatlarga muvofiqlashtirishi va o‘zining moliyaviy majburiyatlarini bajarishi zarur (bozor kelishuvining unsurlari).
8. Har qanday tashkilotni boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish va o‘z navbatida, industrial kelishuv unsurlaridan foydalaniladi.
9. Tashkilot ichida o‘zining alohida madaniyati, eskilik to‘plamining shakllanishi uning faoliyatida an’anaviy kelishuvlar unsurlarining paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

10. Tashkilotda «agentlar» birlashgan manfaatlari - kasaba uyushmasi vakilining ishtiroki, shuningdek tashkilot ichki hayotining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga bo'ysunishi fuqarolik kelishuvi imperativini o'zida aks ettiradi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. M.Aoki indeksi qanday xisoblanadi?

A. Chiqish nafaqalari summasining firmaning umumiy kapitaliga nisbati sifatida hisoblab chiqiladigan indeks yordamida aniqladi.

V. O'rtacha ko'rsatkichlar bilan transaksiya xarajatlarini taqqoslash orqali indeks xisoblanadi.

S. Mutloq ko'rsatkichlar bilan nisbiy ko'rsatkichlarni taqqoslab indeks xisoblanadi.

D. Korxonaning pul mablag'lari bilan asosiy vositalari taqqoslanadi.

2. J.Eejuort va I.Fisherlar qaysi ordinalistik yondashuvni taklif etishgan?

A. Foydalilikning turli darajalari nisbatini aniqlash va ularning mutlaq miqdorini baholashga nisbatan ordinalistik yondashuvni taklif etishgan.

V. Iqtisodiy tashkilotlarni qiyosiy tahlil qilishda hech qachon alohida olingan tashkiliy shakllar tadqiq etilmaydigan ordinalistik yondashuvni taklif etishgan.

S. Ishlab chiqarishni uzluksiz tashkil etish asosida ishlab chiqariladigan mashinalar tannarxini pasaytirishning ordinalistik yondashuvni taklif etishgan.

D. Sotuvni rag'batlantirish va hatto iste'molning yangi standartini tashkil etish imkonini beradigan ordinalistik yondashuvni taklif etishgan.

3. «Fordizm» tamoyillaridan biri – bu...

A. Industrial va bozor kelishuvlari o'rtasidagi murosa.

V. Bozor va an'anaviy kelishuvlari o'rtasidagi murosa

S. An'anaviy va fuqarolik kelishuvlari o'rtasidagi murosa

D. Ijodiy faoliyat va ijtimoiy fikr kelishuvlari o'rtasidagi murosa

4. Korxonada faoliyat ko'rsatishini belgilab beruvchi kandy kelishuv murosasi ko'zga tashlanib turadi?

A. Bozor, an'anaviy, industrial va fuqarolik.

V. Faqat bozor kelishuvlari o'rtasidagi murosa

S. Faqat an'anaviy kelishuvlari o'rtasidagi murosa

D. Fakat ijtimoiy fikr kelishuvlari o'rtasidagi murosa

5. Har qanday tashkilot, hatto foyda ko'rmay ishlayotgan korxonalar ham, o'zining daromadlarini xarajatlarga muvofiqlashtirishi va o'zining moliyaviy majburiyatlarini bajarishi zarur – bu kaysi kelishuvning unsuri?

A. Bozor kelishuvining unsurlari.

V. Industrial kelishuv unsurlari

S. An'anaviy kelishuvlar unsurlari

D. Fuqarolik kelishuvi impertivi

6. Har qanday tashkilotni boshqarishda mehnatni ilmiy tashkil qilish va, o'z navbatida kaysi kelishuv unsurlaridan foydalaniladi?

A. Bozor kelishuvining unsurlari.

V. Industrial kelishuv unsurlari.

S. An'anaviy kelishuvlar unsurlari

D. Fuqarolik kelishuvi impertivi.

7. Tashkilot ichida o'zining alohida madaniyati, eskilik to'plamining shakllanishi uning faoliyatida – kaysi kelishuvlar unsurlarining paydo bo'lganligidan dalolat beradi?

A. Bozor kelishuvining unsurlari.

V. Industrial kelishuv unsurlari.

S. An'anaviy kelishuvlar unsurlari.

D. Fuqarolik kelishuvi impertivi

8. Tashkilotda «agentlar» birlashgan manfaatlari - kasaba uyushmasi vakilining ishtiroki, shuningdek tashkilot ichki hayotining mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlariga bo'ysunishi kaysi kelishuv impertivini o'zida aks ettiradi?

A. Bozor kelishuvining unsurlari.

V. Industrial kelishuv unsurlari.

S. An'anaviy kelishuvlar unsurlari.

D. Fuqarolik kelishuvi impertivi.

9. Balans nima?

A. Muvozanat, muttasil o'zgarib turuvchi xodisa yoki tushunchaning nisbatini ifodalovchi ko'rsatkichlar sistemasi.

V. Karxona aktivlarini moliyalashtirishning xamma manbalari ko'rsatiladigan xujjat.

S. Korxonaning xo'jalik faoliyatini ifodalovchi maxsus xujjat.

D. Foyda olishni va daromad kilishni belgilab beradigan rejali xujjat.

10. Kelishuvlar nisbatining qanday variantlari mavjud?

A. Murosa, urinish, ekspansiya.

B. Bozor, talab vataklif.

C. Shartnomalar asosida.

D. An'anaviy, uruf-odatlar asosida.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR :

1. Transaksiya xarajatlari va foydalilikni o'lchashning o'ziga xos jihatlari tushuntiring?

2. Transaksiya xarajatlarining ordinalistik nazariyasi asosida tashkiliy tuzilmalarni amaliy tahlil qilish koidalarini sharxlab bering?

3. Transaksiya xarajatlari miqdorining ekspert baholaridagi tafsiloti kanday?

4. Firmaning balansi uning tarkibi to'g'risida ma'lumot bering?

5. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish va ularni kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish variantlarini sharxlab bering?

6. Nizolarning keskinligini pasaytirish mezonini bo'yicha optimallashtirish variantlarini sanab uting?.

7. Shartnomaning qiyosiy ustunliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

8. Transaksiya xarajatlari tarkibining axborot bazasi qanday hujjatlarda mujassamlangan?

9. Firma balansi qanday maqsadda tahlil qilinadi va bunda qanday indekslar hisoblab chiqiladi?

10. Kelishuvlar nima uchun zarur va ularning qanday yo'nalishlari mavj

XII BOB. FIRMANING TASHKILY-HUQUQIY SHAKLINI TAHLIL QILISH

12.1. Mulkiy xuquqlarning tavsiflanishi

12.2. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari

12.3. Tashkiliy-huquqiy shakl firmaning strategiyasi haqidagi axborot manbasi sifatida

12.1. Mulkiy xuquqlarning tavsiflanishi

Mulkchilik huquqlari nazariyasi har qanday tashkilotni mulkchilik huquqlarining ishtirokchilari o'rtasida taqsimlanishini belgilab beruvchi shartnomaga olib keladi. «Firma» atamasi shartnoma kelishuvlari asosida faoliyatni tashkil etishning qisqartirilgan ta'rifi hisoblanadi. Kouz teoremasiga muvofiq erkin almashuv natijasida erishilgan huquqlar taqsimoti eng optimal variant (transaksiya xarajatlari nolga teng) bo'lib, o'zaro hamkorlik ishtirokchilari uni o'zgartirishdan manfaatdor emaslar. Shu sababli tashkiliy tuzilmani amaliy tahlil qilish uchun mulkchilik huquqlari nazariyasini qo'llashga bo'lgan qiziqish shu bilan shartlanganki, haqiqatda transaksiya xarajatlari nolga teng emas, demak, huquqlar taqsimoti resurslardan foydalanish samaradorligiga *ta'sir ko'rsatadi*. Mulkchilik huquqlari nazariyasi tashkilot faoliyatining o'ziga xosligiga qarab mulkdorlar o'rtasida huquqlar taqsimotining eng optimal variantini tanlashga yordam beradi. Bundan tashqari, korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli to'g'risidagi ma'lumotlar asosida sheriklarni tanlash imkoniyati ochiladi.

U yoki bu tashkiliy-huquqiy shaklga xos bo'lgan huquqlar taqsimoti O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining «Yuridik shaxslar» deb nomlanuvchi 4-bobida qayd etilgan me'yorlar bilan belgilanadi. Yuridik shaxslarni tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari mulk huquqining turli iqtisodiy sub'yektlarga tegishli alohida huquqlarga ajratilishiga yo'l qo'yadi. Misol tariqasida tashkiliy-huquqiy shaklni belgilovchi huquqlar to'plamining ayrim

jihatlarni quyidagi jadval orqali havola etamiz, unda turli huquqlarning tegishliligi Fuqarolik kodeksining tegishli moddasida belgilangan (12.1.1-jadval).

12.1.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida mulkiy xuquqlarning tavsiflanishi

	Shaxs	Ulushli mulk	Birgalikdagi mulk	Davlat
Egalik qilish huquqi	154,207	219	225	
Foydalanish huquqi	154,207	219	225	
Tasarruf etish huquqi	154,207	218	225	179,180
Xo‘jalik yuritish huquqi				176
Tezkor boshqarish huquqi				178

Ulushli mulk huquqi esa quyidagi sub’yektlar o‘rtasida taqsimlanadi: uning ishtirokchilari, ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi, ijro etuvchi organ va davlat. Qonunda qayd etilgan huquqlarning bunday taqsimlanishi iqtisodiy faoliyatni ta’minlash nuqtai nazaridan qanchalik optimalligiga oid savolga javob berish uchun tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlaridan foydalanish mumkin.

12.2. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari

Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari sifatida quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi.

1. Mulkiy huquqlarning tafsirlanish (aniq va bir xil ma’noda belgilanish) darajasi.
2. Egalik qilish va qoldiq qiymatni olish huquqlarining iqtisodiy sub’yektlararo taqsimlanishi.

3. Huquqlar to'plami doirasini o'zgartirishga nisbatan cheklovlar mavjudligi.

4. Mulkiy xuquq triadasining turli iqtisodiy subektlarga («Prinsipal» va «agent») tegishliligi.

5. Xatarlarni bo'lish va o'tkazish darajasi.

6. Kapitalni jamg'arish darajasi.

1. Mulkiy huquqlarning tafsirlanish (aniq va bir xil ma'noda belgilanish) darajasi.

Tafsirlash darajasi juda muhim, chunki Kouz teoremasiga muvofiq resurslarning ikkita samarali omilidan biri huquqlarni tafsirlashning to'liqligidan iborat. Ikkinchi tomondan, huquqlar egasini aniq belgilamaslik yoki mulk huquqining yo'qolganligi resurslardan samarali foydalanishga qiziqtirishga to'sqinlik qiladi. Ulushli mulkda barcha huquqlar egalari aniq va bir xil ma'noda belgilangan, qoldiq qiymatni olish huquqi va ustav kapitalidagi ulushning meros bo'yicha o'tishi huquqi bundan mustasno. Davlat sud organlari orqali hamma vaqt «qonunni bir necha marta yoki qo'pol buzganlik» uchun yuridik shaxsni tugatishning tashabbuschilaridan biri hisoblanishini hisobga olgan holda, tafsirlash bilan bog'liq yagona muammo ustav kapitalidagi ulushning meros bo'yicha o'tishi huquqining ehtimoliy «yo'qolishi»dan iborat.

2. Egalik qilish va qoldiq qiymatni olish huquqlarining iqtisodiy sub'yektlararo taqsimlanishi.

Agar mulkdor, ya'ni tashkilot faoliyatini nazorat qiluvchi «prinsipal» bir vaqtning o'zida qoldiq qiymatni olish huquqiga ham ega bo'lsa, u holda bu unga o'zining nazorat-boshqaruv funksiyalarini bajarishda o'zini opportunistik tarzda tutmaslik uchun turtki beradi. MChJ holatida ko'rib chiqilayotgan ikkala huquq ham ishtirokchilarning umumiy yig'ilishiga tegishli. Biroq umumiy yig'ilishning jamoaviy tabiati samarali nazoratga bo'lgan rag'batlarning amaliyligini chegaralaydi, chunki «chiptasiz» muammosi paydo bo'ladi. Aslida barcha ishtirokchilar firmaning foydali faoliyat ko'rsatishidan manfaatdor, biroq shu bilan birga ular nazoratni amalga oshirish xarajatlarini boshqa shaxslar zimmasiga

yuklashga intilishadi, buning natijasi o‘laroq, nazorat funksiyasini *hech kim* bajarmaydi. Lekin, ulushli mulk holatida uning ishtirokchilarining soni qonun bilan cheklanganligi tufayli «chiptasiz» muammosining keskinligi pasayadi.

3. Huquqlar to‘plami doirasini o‘zgartirishga nisbatan cheklovlar mavjudligi.

Huquqlarni almashishga cheklovlar masalasi Kouz teoremasi nuqtai nazaridan ham muhim: transaksiya xarajatlaridan tashqari yana qanday omillar huquqlarning ulardan eng ko‘p manfaatdor bo‘lgan mulkdorlar qo‘liga o‘tishiga to‘sqinlik qiladi? Masalan, huquqlarni jismoniy va yuridik shaxslarning alohida toifalariga (nerezidentlarga, bank tuzilmalariga, istalgan boshqa uchinchi shaxslarga) topshirishdagi hamda huquqlar to‘plamining turlarini tubdan o‘zgartirishdagi qonuniy cheklovlar. Ulushli mulk doirasida huquqlar bilan almashish uchun cheklovlar ustavda qayd etilishi va ishtirokchilarning o‘z ulushlarini umuman uchinchi shaxslarga va xususan merosxo‘rlarga o‘tkazish huquqiga taalluqli bo‘lishi *mumkin*. Fuqarolik Kodeksida ulushli mulkka ega bo‘lgan subektlarning turli variantlari “tjorat tashkilotlari” (58-69-modda) bandida keltirilgan. Qonun ulushli mulk subektlari uchun huquqlar to‘plamining turlarini o‘zgartirish uchun eng kam to‘siqlarni belgilaydi.

4. Mulkiy xuquq triadasining turli iqtisodiy subektlarga («*Prinsipal*» va «*agent*») tegishliligi.

Bunday muammo egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqlari turli sub’yektlarga tegishliligi bilan bog‘liq. Barcha uchta huquq turli sub’yektlarga tegishli bo‘lgan holatda «prinsipal-agent» muammosi ikkita darajada paydo bo‘ladi: mulkdorlar va menejer (boshqaruvchi) o‘rtasidagi munosabatlarda hamda menejer va bevosita ijro etuvchi (xodim) o‘rtasidagi munosabatlarda. «Prinsipal-agent» muammosi ko‘plab usullar yordamida hal etilishi mumkin – «agentlar»ning firma faoliyatining natijalarida ishtirok etishdan tortib to «prinsipal» tomonidan «ovoz berish» va «chiqish» huquqidan foydalanilishigacha. Ulushli mulkli subekt holatida «prinsipal-agent» muammosi ishtirokchilarning umumiy yig‘ilishi («prinsipal») va ijro etuvchi organ («agent») o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatlarda paydo bo‘ladi. Aksiyadorlik jamiyatidan farqli o‘laroq, ma’suliyati cheklangan jamiyat (MChJ)da «agent»ga bosim o‘tkazish varianti sifatida «chiqish» mumkin emas, chunki ustav kapitalining summasiga fond bozorida kotirovka qilinadigan aksiyalar chiqarilmaydi. Har yillik auditorlik tekshiruvlari va ishlarni yuritish natijalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarning chop etilishi majburiy emasligi tufayli umumiy yig‘ilishning samaradorligi ham katta emas.

5. Xatarlarni bo‘lish va o‘tkazish darajasi.

Huquqlar to‘plamining konfiguratsiyasi uning qarorlar qabul qilish (tasarruf etish huquqi) va xatarni qabul qilish (qoldiq qiymatni olish huquqi) funksiyalariga bo‘linishini yoki ushbu to‘plamning bitta mulk huquqi sub’ektining qo‘lida bo‘lishini nazarda tutadi. Birinchi holatda xatarning *xejirlanishi*, ya’ni uning menejer Elkasidan mulkdor Elkasiga o‘tishi o‘rin tutadi. Xejirlash xatarga kamroq qarshi bo‘lgan iqtisodiy sub’yektlar xatarini qabul qilish funksiyasiga ixtisoslashuvni nazarda tutadi. So‘ngra, xatar ko‘plab mulkdorlar o‘rtasida bo‘linishi va, boz ustiga, ma’lum miqdor (masalan, ustav kapitaliga qo‘shilgan ulush miqdori) bilan chegaralangan bo‘lishi mumkin. Xatarni bo‘lish va o‘tkazish tamoyillari dastlab faoliyatining boshidan sof iqtisodiy faoliyatga yo‘naltirilmasdan, balki ijtimoiy (diniy, ta’lim, o‘zini o‘zi boshqarish) faoliyatni moliyalash bilan shug‘ullangan korporatsiyalar doirasida amalga oshirilgan edi.

MChJda ham xatarni o‘tkazish (jamiyat ishtirokchilariga), ham xatarni bo‘lish va chegaralash (barcha ishtirokchilar o‘zlari kiritgan ulushlarning qiymati doirasida zarar ko‘rish xatariga ega) mexanizmlari amal qiladi. MChJning yagona kamchiligi – uning ishtirokchilari sonining qonun bilan cheklanganligi, bu hol ushbu tashkiliy-huquqiy shaklni aksiyadorlik jamiyati bilan solishtirilganda kam jozibali qiladi.

6. Kapitalni jamg‘arish darajasi.

Mazkur tashkiliy-huquqiy shakl kapitalning kam transaksiya xarajatlari bilan to‘planishini ta’minlashga qodirmi? Bu Erda ham ochiq aksiyadorlik jamiyati ideal hisoblanadi, chunki unda ustav kapitalini oshirish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarori asosida qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish hisobidan amalga

oshadi. MChJda kapitalni jamg'arish jarayoni, yuqori transaksiya xarajatlari bilan bog'liq bo'lmasa-da (ustav kapitalini oshirish uchun umumiy yig'ilishning qarori Etarli), MChJ ishtirokchilarining eng ko'p soni qonun bilan cheklanganligi tufayli, chegaralarga ega.

Yuqorida taklif etilgan mezonlar yordamida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat yuritayotgan mulkchilikning o'n bitta tashkiliy-huquqiy shakllarni taqqoslaymiz. Ushbu mezonlar bo'yicha eng optimal tashkiliy-huquqiy shaklni bir ball bilan, eng past optimallik shaklni esa o'n bir ball bilan qayd etgan holda tashkiliy-huquqiy shakllarni oltita mezonning har biri bo'yicha ko'rib chiqamiz (12.2.1-jadval). Bunday ekspert baholari shartli bo'lgani holda, ular ochiq aksiyadorlik jamiyati (OAJ) (kamida 19 ball) va xususiy korxonalar (dehqon va fermer xo'jaliklari) (25-28 ball)ning ustunliklarini hamda tezkor boshqaruv huquqiga (ko'pi bilan 54 ball) va xo'jalik yuritish huquqiga ega bo'lgan (52 ball) unitar korxonalarining samarasizligini tasdiqlab turibdi.

12.2.1-jadval

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot subektlarni turli mezonlar bo'yicha baholash

Tashkiliy-huquqiy shakl	Mezonlar					
	1	2	3	4	5	6
Xususiy korxonalar	1	1	1	1	11	11
Ishlab chiqarish kooperativi	4	2	9	2	10	10
Ochiq aksiyadorlik jamiyati	2	8	2	5	1	1
Yopiq aksiyadorlik jamiyati	3	7	3	9	2	2
Shu'ba korxonalar	9	9	4	6	3	3
Mas'uliyat cheklangan jamiyat	5	5	5	8	6	4
Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat	6	6	6	7	7	5
Tezkor boshqaruv huquqiga ega bo'lgan unitar korxonalar	11	10	11	11	5	6
Xo'jalik yuritish huquqiga ega	10	11	10	10	4	7

bo‘lgan unitar korxonalar						
Fermer xo‘jaligi	2	2	1	2	10	11
Dehqon xo‘jaligi	1	1	1	1	11	10

12.3. Tashkiliy-huquqiy shakl firmaning strategiyasi haqida axborot manbasi sifatida

Tashkiliy-huquqiy shakl nafaqat firmaning tashkiliy tuzilishi haqidagi, balki shartnomani amalga oshirish jarayonidagi ehtimoliy xatti-harakati haqidagi axborotni ham o‘zida mujassam etadi. Shu nuqtai nazardan tashkiliy-huquqiy shaklni tahlil qilish bitimni amalga oshirish uchun sherikni tanlashda foydali hisoblanadi. Boshqa shartlarda (aktivlarning o‘ziga xoslik darajasi, bitimning murakkablik darajasi) bitimning yakuni uning tashkiliy-huquqiy shaklini belgilab beruvchi shartnoma bo‘yicha hamkor xatti-harakatining o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liq. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, hamkorning tashkiliy-huquqiy shaklni bilish bitimni amalga oshirishda garovning mavjudligi hamda mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish qanchalik mumkinligi haqida axborot olish imkonini beradi. So‘nggi jihat muloqotlarni yuritish va shartnomani bajarish shartlarini firmaning *rasmiy* egalari bilan muvofiqlashtirishning samarasizligi tufayli muhim, bunda shartnomani bajarish korxonani *haqiqiy* nazorat qiluvchi insonlarning harakatlariga bog‘liq.

Garov shakllari. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishini kafolatlash uchun bitim tomonlari an‘aviy tarzda garovdan foydalanadi. Pul shaklidagi garovni bitimni tuzish vaqtida tomonlardan biri, maboda shartnoma bekor qilingan yoki u kerakli tarzda bajarilmagan taqdirda, ikkinchi tomonning yo‘qotishlarini qoplash uchun to‘laydi. Mulk huquqi nazariyasining atamalarida undirib olish ko‘rinishida javobgarlikni o‘tkazish yuz beradi. Masalan, bank tomonidan kredit berilayotganda, u odatda kreditning qaytarilishi va u bo‘yicha foizlar to‘lanishining kafolati sifatida garov kiritilishini talab qiladi. Bitim shartlaridan qat’i nazar pul

shaklidagi garov miqdorini hisoblab chiqish oson, bunda yagona muammo shartnomaning to‘liqsizligida va, demak, garovni begonalashtirishning qonuniyligi xususida nizolar kelib chiqishining muqarrarligida. Shuning uchun shartnoma tomonlarining ixtisoslashgan garovni birgalikda barpo etishini nazarda tutuvchi sof (natura) shakldagi garov (ushbu garov haqida shartnomada kelishilmasa-da) ancha samarali. Masalan, imkoniyatli xaridor nafaqat mahsulotni sotish tarmoqlariga ega, balki uni ishlab chiqarish va unga sotuvdan keyin xizmat ko‘rsatish xarajatlarining bir qismini ham o‘z zimmasiga oladi.

Firma tomonidan majburiyatlar bajarilmagan taqdirda, Fuqarolik kodeksi me‘yorlariga muvofiq uning mulkdorlari zimmasida bo‘ladigan javobgarlik ulushi shartnoma shartlarida ko‘rsatilmaydigan garovning yana bir shakli hisoblanadi. MChJ, YoAJ va OAJ holatlarida bunday javobgarlik *ustav kapitalining miqdori bilan* chegaralanadi, bunda, ushbu tashkiliy-huquqiy shakllardan har birining muassislari soniga nisbatan cheklovlarni hisobga olgan holda ustav kapitaliga nisbatan eng kichik talablar MChJda, eng katta talablar OAJda qo‘yiladi.

Qolgan tashkiliy-huquqiy shakllar uchun mulkdorlarning ancha katta hajmdagi javobgarligi ko‘zda tutilgan. Bu Erda garov sifatida *muassislarning mol-mulki* ishtirok etadi, uning miqdori mulkdorlar tomonidan kiritilgan hissalarining yoki ularga tegishli aksiyalarning qiymati bilan chegaralanmaydi. To‘liq shirkat ishtirokchilari zimmasiga yuklatiladigan majburiyatlar hajmi eng katta, chunki garov rolini unga tegishli barcha mol-mulk bajaradi. Qo‘shimcha mas‘uliyatli jamiyatda ishtirokchilar o‘zining barcha mol-mulki bilan emas, balki barcha uchun baravar bo‘lgan, ular hissalarini qiymatining karrasi miqdorida javobgarlikka egalar. Ishlab chiqarish kooperativining asosida ham huddi shunday tamoyil yotadi. Tezkor boshqarish huquqiga asoslangan unitar korxonalar shakli mulkdor – davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan uning majburiyatlari yuzasidan o‘z mulki bilan subsidiar javobgarlikka ega bo‘lishini nazarda tutadi. Sho‘ba xo‘jalik jamiyati holatida ham huddi shunday tamoyil, lekin faqat «prinsipal» (boshqa xo‘jalik jamiyati yoki shirkat) ko‘rsatmalarini bajarish yo‘lida amalga oshirilgan bitimlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ta’kidlash lozimki, bu Erda muassislarning mol-

mulki shaklidagi garovning miqdori emas, balki mulkdorning firma faoliyati uchun o‘z mol-mulki bilan javob berishi tufayli yuzaga keladigan shartnoma majburiyatlarini bajarishga undovchi omillar muhim. Bunday omillar to‘liq shirkatda eng kuchli va MChJ, YoAJ va OAJda – eng kam (12.3.1-rasm).

To‘liq shirkat	Kommandit shirkat	Qo‘shimcha ma’suliyatli jamiyat	Ishlab chiqarish kooperativi	YoAJ, OAJ, MChJ
←				

12.3.1-rasm. Majburiyatni bajarishdan rag‘batlanish intensivligi

Muassislar nufuzini va korxonaning tovar belgisini pulda baholash bitimni amalga oshirishda implitsit ishtirok etuvchi garovning navbatdagi shakli hisoblanadi. Bu asosan tijorat doiralarida, shu jumladan imkoniyatli sheriklar hamda o‘zi ishlab chiqaradigan tovarlar va xizmatlarning iste‘molchilari ichida ishtirokchilarning va umuman firmaning nufuziga bog‘liq. Bu Erda asosiy tushuncha - tovar belgisining kapitallashtirilgan qiymati: firma o‘ziga tegishli tovar belgilarining qiymatini saqlab qolishga intiladi. Shunday qilib, nufuzni ushlab turish faqat ijtimoiy sanksiyalarga bog‘liq bo‘lmay qoladi. Nufuz bozor narxiga ega bo‘ladi, chunki u o‘zida imkoniyatli sherikning ishonchliligi va uning harakati strategiyasi haqida qo‘shimcha axborotni mujassamlashtiradi. Ayni paytda, iqtisodiy sub’ekt yoki firma ko‘pincha reklama xarajatlari shaklidagi nufuzni barpo etish uchun to‘lashga tayyor.

Reklama – imkoniyatli xaridorlarga sotuvchilar haqida bilimlar berish usuli. Tabiiyki, bu vosita bilimlarni berish uchun og‘zaki ma’ruza o‘rniga kitobdan foydalanish bilan taqqoslanadigan xabardor bo‘lmaslikni tugatish uchun juda muhim. Reklama institutning muvoffaqiyatli evolyutsiyasiga misol bo‘lib,

egasizlantirilgan o‘zaro ta’sir ko‘rsatish tartibida norasmiy institutning ustunligini – nufuzni saqlashga yordam beradi.

Ayrim korxonalarining, birinchi galda to‘liq shirkat va ishonchga asoslangan shirkatning tashkiliy-huquqiy shakli ijtimoiy nufuzni bozor tovar belgisiga aylantirish uchun zamin yaratadi. Haqiqatdan ham, to‘liq shirkat va ishonchga asoslangan shirkatning firma nomi barcha to‘liq o‘rtoqlarning yoki «va kompaniya» so‘zlari qo‘shimcha qilingan holda kamida bitta to‘liq o‘rtoqning nomini o‘zida mujassamlantirishi kerak. Shuning uchun xo‘jalik shirkatlari tijorat sohasidagi sheriklar sifatida eng jozibali, chunki bitim tuzishda garov sifatida ular bilan nafaqat muassislarning shaxsiy mol-mulki, balki ularning tovar belgisi shaklidagi ijtimoiy nufuzi ishtirok etadi. Shu munosabat bilan xo‘jalik shirkatlariga soliq imtiyozlari va ro‘yxatga olishdagi imtiyozlarni berish asosli hisoblanadi. Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab qonunga bo‘ysunish bahosini tabaqalash shartnoma madaniyatining oshishiga va o‘z navbatida, transaksiya xarajatlarining pasayishiga ko‘maklashgan holda iqtisodiyotni davlat tomonidan bilvosita tartibga solishning samarali vositasiga aylanishi mumkin.

Mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish shakllari. Tashkiliy-huquqiy shakl mulk huquqlari to‘plamining rasmiy - qonunda qayd etilgan va haqiqiy konfiguratsiyasini muvofiqlashtirishning ehtimoliy variantlari haqidagi axborotni ham o‘zida mujassam etadi. Ushbu axborot qayta tashkil etilgan mulk asosida faoliyat ko‘rsatuvchi o‘tish xilidagi korxonalar (*O‘* korxonalar)ga nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi. Evristik tarzda tashkiliy-huquqiy shakl va mulk huquqlari to‘plamining rasmiy - qonunda qayd etilgan va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish ehtimoli o‘rtasidagi quyidagi bog‘liqliklarni ifodalash mumkin.

Birinchi, qonunda huquqlar qanchalik kam tafsirlangan bo‘lsa (1-mezon), «agentlar» (ijroiya organi) opportunitizmi va ular tomonidan firmaning faoliyati ustidan nazorat qilish funksiyalarining o‘zlashtirilishi ehtimoli shunchalik yuqori. Ikkinchi, korxonaning tashkiliy-huquqiy shakli «prinsipal-agent» muammosini hal etish mexanizmlarining qanchalik kam sonidan foydalanishga yo‘l qo‘ysa (4-mezon), «Agentlar» tomonidan real nazorat qilish ehtimoli

shunchalik yuqori. Masalan, YoAJda aksiyadorlarning soni ancha ko'p, bu ular tomonidan «ovoz berish» mexanizmidan foydalanishda «chiptasiz» muammosining kelib chiqishiga zamin yaratadi, lekin shu bilan birga YoAJ aksiyalari fond bozorida kotirovka qilinmasligi tufayli «chiqish» mexanizmi ham ishlamaydi. Uchinchidan, qonunda qayd etilgan huquqlarni qayta taqsimlash transaksiya xarajatlari qanchalik yuqori bo'lsa, mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish ehtimoli shunchalik yuqori. Shuni nazarda tutish lozimki, u yoki bu huquqqa egalik qilishdan eng manfaatdor bo'lgan shaxslar pirovardida uni qo'lga kiritadi, lekin oshkora emas, balki xufyona usul bilan. Fond bozorida, masalan, OAJ aksiyalari bilan bitimlar tuzilishining faolligini kuzatish unda huquqlarni almashish bilan bog'liq transaksiya xarajatlarining miqdorini bilvosita baholash imkonini beradi. Shuningdek, huquqlarni almashish bo'yicha bitimlarning qonuniy cheklanishi natijasida yuzaga keladigan transaksiya xarajatlarini ham hisobga olish lozim (3-mezon). MChJda ishtirokchining ulushini sotib olishning imtiyozli huquqiga boshqa ishtirokchilar ega, ushbu ulushdan uchinchi shaxs hisobiga voz kechish uchun esa, boshqa ishtirokchilar uni sotib olishdan bosh tortganlaridan so'ng, uch oy o'tishi kerak. Yuqorida aytilganlar fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki, mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish ehtimoli unitar korxonalarining ikkala xilida, YoAJ, MChJ va OAJda eng yuqori. Aynan ana shunday firmalar bilan o'zaro munosabatlarda rasmiy mulkdorlar tomonidan taqdim etiladigan shartnomalarning bajarilishi kafolatlari Etarli emas va haqiqiy mulkdorlar bilan «norasmiy» shartnoma tuzish bo'yicha qo'shimcha sa'y-harakalar talab etiladi, bunday mulkdorlar sifatida ko'pincha «agentlar» - boshqaruvchilar ishtirok etadi.

Xulosa

Transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan sharoitda huquqlar to'plamini taqsimlash korxonalar faoliyat ko'rsatishining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik kodeksida mustahkamlangan, u yoki bu tashkiliy-huquqiy shakl uchun

xos bo'lgan huquqlarning taqsimlanishi iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mulk huquqlari turli xillarining optimallik darajasini baholash uchun oltita mezonlardan foydalaniladi: (1) qonunda mulk huquqlarining tafsirlanish darajasi; (2) egalik qilish huquqi va qoldiq qiymatni olish huquqini taqsimlash; (3) huquqlar bilan almashish uchun cheklovlarning mavjudligi; (4) «prinsipal-agent» muammosini hal etish variantlarining soni; (5) xatarlarni bo'lish va o'tkazish darajasi; (6) kapitalni jamg'arish darajasi. Ushbu mezonlardan faqat korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga taalluqli axborot mavjud bo'lganda bitimni amalga oshirish uchun sherikni tanlashda foydalanish mumkin.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Kouz teoremasi: agar mulk huquqi aniq tafsirlangan bo'lsa, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'yektlar huquqlarining chegaralari aniq belgilangan bo'lsa va ijro etilsa, u holda tomonlar o'rtasidagi ushbu mulkdan foydalanishdan Etkazilgan zararlar bo'yicha ixtilofli masalani uchinchi tomon (davlat)ni jalb qilmagan holda hal etish mumkin bo'ladi, chunki mazkur holatda transaksiya xarajatlari kam bo'ladi.

Kouz teoremasi (J.Stigler tomonidan ifodalangan): mukammal raqobat sharoitida xususiy va ijtimoiy xarajatlar teng bo'ladi.

Kouz teoremasi (T.Eggertsson tomonidan ifodalangan): agar transaksiya xarajatlari katta bo'lmasa, u holda iqtisodiyot, undagi mavjud siyosiy va boshqa institutlar to'plamidan qat'i nazar, optimal traEktoriya bo'yicha rivojlanadi.

Aksiyalarning nazorat paketi – aksiya egasiga aksioner jamiyatda amaldagi xukmronligini ta'minlaydigan aksiyalar miqdori.

Aksioner jamiyat – turli korxonalar, tashkilot, bank, kompaniya va ayrim shaxslar pul mablag'larini sherikchilik asosida va soxibkorlik maqsadida birlashtiradigan jamiyat.

Auditor firma – korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy xo‘jalik faoliyatini tekshirib beruvchi, ular ishining iqtisodiy ekspertizasini o‘tkazuvchi firma.

Kartel – monopolistik birlashma shakli, kartel bitimlari ko‘proq yirik trest va konsernlar o‘rtasida tuziladi.

Konsalting – bu ishlab chiqarishga ish yuzasidan xizmat ko‘rsatish sohasida ixtisoslashgan firmalarning o‘z mijozlariga maslahat xizmati ko‘rsatish va texnikaviy loyihalarni ekspertizi qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyatdir.

Konsorsium - firmalar yoki firmalar bilan xukumat o‘rtasida muayyan amaliy, juda keng qo‘llandagi iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish maqsadida shartnoma asosida tuzilgan vaqtinchalik birlashma.

Konsern – ishlab chiqarish diversifikatsiyasi asosida tartib topadigan yirik, ko‘p tarmoqli korporatsiya.

Kichik biznes – bozor iqtisodiyoti rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda o‘ziga mustaqil mayda korxonalarining daromad ko‘zlovchi soxibkorlik faoliyati.

Ko‘p ukladli iqtisod – turli mulk shakllari va xar-xil xo‘jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

MAVZUGA DOIR AMALIY MASHQLAR:

1–misol. Quyida sanab o‘tilgan tuzilmalardan qaysilarini tashkilot sifatida tasniflash mumkinligini ko‘rsating:

- a) talabalar guruhi;
- b) oliy o‘quv yurti;
- v) yo‘l harakati qoidalari;
- g) oila;
- d) Markaziy bank;
- e) marketing kompaniyasi;

Javob: b), g), d), va E), ta’rifiga ko‘ra, tashkilotlar – bu ularda hukmini o‘tkazish munosabatlari elementi ishtirok etadigan va insonlarning cheklangan doirasi ichidagi o‘zaro hamkorlikni tartibga soluvchi tuzilmalardir. Talabalar guruhida, o‘zaro hamkorliklarning lokal xususiyatiga qaramasdan, hukmini o‘tkazish munosabatlari mavjud emas. Yo‘l harakati qoidalari esa, agar ular bajarilmasa, ancha qattiq normalar va me’yorlarni qo‘llaydi.

2–misol. “Gulzor” shahrida yangi oliy o‘quv yurti paydo bo‘ldi. Mintaqaviy mehnat bozorining OO‘Yu tayyorlashni nazarda tutayotgan kadrlarga bo‘lgan yuqori darajadagi ehtiyojini, shuningdek, mintaqaviy hokimiyatlarning va qator xalqaro tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlashini hisobga olgan holda, unga qabul va mutaxassisliklar nomenklaturasi har yili ortib boradi. Siz yangi OO‘Yuda talabalarning asosiy qismi bepul o‘qishini hisobga olib, uning rektoriga qanaqa tashkiliy tuzilmani taklif qilgan bo‘lardingiz?

- a) keng erkinlikka ega bo‘lgan, shu jumladan moliyaviy masalalarda mustaqil bo‘lgan fakultetlarga bo‘linish;
- b) moliyaviy mustaqillikka ega bo‘lmagan fakultetlarga bo‘linish;
- v) fakultetlarni tashkil etmagan holda: barcha muhim joriy va istiqbolli masalalarni rektorat hal etadi;
- g) turli darajadagi erkinliklarga ega bo‘lgan fakultetlarga bo‘linish.

Javob: b), o'qituvchilar va talabalar sonining jadal ortishi bevosita nazoratni samarasiz qiladi (v) variant). Xolding tuzilmasining tashkil etilishi (a) variant) fakultetlarning moliyaviy manfaatlari bilan bog'liq nizolarni keltirib chiqarishi mumkin, tijorat ta'lim muassasasida bunga yo'l qo'ymagan ma'qul. Fakultetlar o'rtasidagi nizo ularning maqomi har xil qilib belgilanganda ham kelib chiqadi (g) variant). Shuning uchun multidivizional tuzilma varianti optimal ko'rinmoqda.

3–misol. Faraz qilaylik, Siz – shaharning turli qismlarida do'konlar tarmog'ining egasisiz. Ularda ishlash uchun Siz, asosan qishloq joylaridan, sotuvchilarni yollaysiz, bunda mehnat bozorida ularning muqobil ish haqi past. Sotuvchilarni tovar aylanmasini oshirishga motivatsiyalashni qanday qilib amalga oshirgan ma'qul – kiosklar egasi sifatida Sizning manfaatlaringiz aynan ana shundan iborat?

a) sotuvchilarning halolligini nazorat qilish maqsadida savdo nuqtalariga tez-tez borib turish;

b) sotuvchilarning mehnat haqini savdo tushumi bilan bog'lash;

v) do'konlarni sotuvchilarga ijaraga berish;

g) faqat eng katta tovar aylanmasini ta'minlagan sotuvchilarni mukofotlash;

d) sotuvchilarni sheriklarga aylantirish (savdo korxonasi bilan birgalikda egalik qilish).

Javob: g), sotuvchilar uchun rag'batlantirishning optimal sxemasini tanlashda quyidagi omillarni hisobga olish lozim. Birinchidan, savdo nuqtalarining jug'rofiy tarqoqligi tufayli bevosita nazorat qilish xarajatlari katta bo'ladi. Ikkinchidan, oilali ayollarning tavakkalchilikka moyilligi darajasi ancha past, deb faraz qilish maqsadga muvofiq, bu esa Sizga "agentlar"ning tavakkalchilikka yuqori darajada moyilligini nazarda tutuvchi sxemalarni (b), v) va d)) tanlash imkonini bermaydi. Bundan tashqari, "agentlar" tasarrufidagi resurslarning cheklanganligi tufayli v) va d) variantlarni tanlash ehtimoli kam (past darajadagi muqobil ish haqi). Va nihoyat, qat'iy belgilangan mukofot bilan "agentlar" musobaqasining yakunlariga ko'ra mukofotni o'zida birlashtiruvchi g) variant

"agentlar"ning o'ziga xos xususiyati bilan "prinsipal" manfaatlari o'rtasidagi yaxshi murosaga keltiruvchi hisoblanadi.

KEYSLAR

Keys 1. *Shartnoma tuzilgunga qadar opportunistik xatti-harakat ehtimoli*

Toshkent shahrida bugungi kunda 180 taga yaqin stomatologiya klinikalari va xonalari ishlab turibdi. Tish shifokorining xizmatlariga bo'lgan talab barqarorligicha qolmoqda. Boshqa kasalliklarga ko'nishga tayyor bo'lgan insonlar tish og'rig'iga uzoq vaqt dosh berolmaydi. Sug'urtalovchilar tibbiy bozorning bunday sig'imli segmentini shunchaki e'tibordan chetda qoldirolmaydi.

Bozorda sug'urta "stomatologiyasi"ning ikkita turi taqdim etilgan. Ko'pincha tish shifokorlik muolajalari an'anaviy ixtiyoriy tibbiy sug'urta (ITS) dasturlari doirasida qoplanadi. Mazkur holatda tishlarni davolash xizmatlari ko'p tarmoqli davolash korxonalarida oilaviy shifoxonalar yordami bilan birgalikda taklif etiladi. Lekin vaqt o'tishi bilan mijozlarni bevosita stomatologiya klinikalariga biriktirishni nazarda tutuvchi ixtisoslashgan dasturlar paydo bo'la boshladi. Albatta, bozor operatorlari hozircha bunday mahsulotlarning sug'urta qildiruvchilar o'rtasida ommaviyligiga shubha qilmagan holda, ularga nisbatan sergaklik bilan munosabatda bo'lishmoqda. Bacha chakana ITSga xos bo'lgan polis egalarining o'z xaridining xarajatlarini qoplashga intilishi «stomatologiyada» juda tez-tez namoyon bo'ladi. Rentabellikni saqlab turish uchun sug'urtalovchilar zarar ko'rish tavakkulchiligini «klinikalarga biriktirilgan ko'p sonli sug'urtalangan xizmatlar va ushbu sug'urta dasturlariga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarning qat'iy ro'yxati» bilan tartibga soladi.

Yordam hajmiga ko'ra «tish» mahsulotlarining butun assortimentini shartli ravishda uchta toifaga bo'lish mumkin: ekonom-sinf, biznes-sinf va eksklyuziv-sinf. Quyi narx toifasida (75 doll.) bemorlarga standart muolajalar ko'rsatiladi. Xizmatlar doirasi bo'yicha qimmat bo'lmagan dasturlar bir yilda ko'pi bilan uchto'rtta tishni davolash imkonini bergan holda yordam hajmi bo'yicha cheklavlarni o'zida mujassam etgan. Biznes-sinf mahsulotlari (150 doll.) stomatologiya

sohasida kengroq ko‘lamli vazifalarni hal etishga qodir. Ularda xizmatlar hajmi ham, ro‘yxati ham kengaytirilgan. Dasturning maxsusligi unga stomatologiya yordamining eng qimmatbaho turlari kiritilishi bilan belgilanadi. Albatta, barcha ITS-dasturlar (eng arzonlaridan tortib eng qimmatlarigacha) maslahat va tashxis xizmatlarini, shuningdek, stomatologiyada juda muhim bo‘lgan og‘riqsizlantirishni o‘z ichiga oladi.

Savollar:

Quyidagi savollarga javob bergan holda, shartnoma tuzilgunga qadar sug‘urta kompaniyasi bilan bemor o‘rtasida yuzaga keladigan opportunistik xatti-harakatga misol keltiring.

- Opportunistik xatti-harakatning bunday turi qanday nomlanadi?
- Taraflardan qaysisi o‘zini opportunistik tutishi mumkin?
- Nima uchun unda o‘zini opportunistik tutish imkoniyati paydo bo‘ladi?

O‘z javobingizni asoslang.

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Mulkchilik huquqlari nazariyasi tashkilot faoliyatining o‘ziga xosligiga qarab mulkdorlar o‘rtasida huquqlar taqsimotining eng optimal variantini tanlashga yordam beradi.
2. tashkiliy-huquqiy shaklga xos bo‘lgan huquqlar taqsimoti O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining “Yuridik shaxslar” deb nomlanuvchi 4-bobida qayd etilgan me‘yorlar bilan belgilanadi.
3. Tashkiliy-huquqiy shakl nafaqat firmaning tashkiliy tuzilishi haqidagi, balki shartnomani amalga oshirish jarayonidagi ehtimoliy xatti-harakati haqidagi axborotni ham o‘zida mujassam etadi.
4. Tezkor boshqarish huquqiga asoslangan unitar korxonalar shakli mulkdor – davlat yoki mahalliy hokimiyat organlari tomonidan uning majburiyatlari yuzasidan o‘z mulki bilan subsidiar javobgarlikka ega bo‘lishini nazarda tutadi.

5. Korporativ mulk xususiy mulk bilan tengdir.
6. Mulkdor faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.
7. Mulkchilik huquqlari nazariyasi nafaqat boshqaruv, xavfsizlik, merosga topshirish huquqlarini qo'shgan holda huquqlar to'plamini shakllanadi.
8. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatda ishtirokchilar o'zining barcha mol-mulki bilan emas, balki barcha uchun baravar bo'lgan, ular hissalarini qiymatining karrasi miqdorida javobgarlikka egalar.
9. Shartnoma majburiyatlarining bajarilishini kafolatlash uchun bitim tomonlari an'aviy tarzda garovdan foydalanadi.
10. Reklama – imkoniyatli xaridorlarga sotuvchilar haqida bilimlar berish usuli.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Mulkiy huquqlar Byurokratiya mulkchiligining asosiy xususiyatlariga nimalar kiradi?

- A. Mulkchilik huquqlarini himoya qilishning samarali tizimi mavjud emasligi va resurslar va mahsulotlarni qayta taqsimlash jarayonida amaldorlar ishtirokining qonunchilikda belgilangan imkoniyati.
- V. Tashqi dunyo ob'ektlar ustidan nazoratni ularni o'zlashtirib (egallab) olish asosida amalga oshirish.
- S. Mehnat sharoitlarini erkin holda takror yaratish samarali mexanizmining mavjud emasligi.
- D. Ijtimoiy o'zaro hamkorlikning asosiy tamoyili hisoblangan ahloq normasida jamiyatni shakllanishi.

2. Faylasuflar va neoklassiklar yondashuvi bo'yicha mulkchilikning asosiy belgilari qanday talqinga ega?

- A. Daromad keltirish qobiliyati mujassamlangan kapital.
- V. Tashqi dunyo ob'ektlar ustidan nazoratni ularni o'zlashtirib (egallab) olish asosida amalga oshirish.

S. Shaxsning tabiatdan ham, ijtimoiy hayot jamoatchiligidan ham begonalashishida hamda ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish vositasidan ajratishda namoyon boʻluvchi ijtimoiy aloqalarni tarkiblash, murakkablashtirish shakli.

D. Ijtimoiy oʻzaro hamkorlikning asosiy tamoyili hisoblangan ahloq normasida jamiyat tomonidan oliy va muqaddas qadriyat hamda individ mustaqiligining kafolati. sifatida tan olish.

3. Dialektik usul tarafdorlari yondashuvi boʻyicha mulkchilikning asosiy belgilari qanday talqinga ega?

A. Daromad keltirish qobiliyati mujassamlangan kapital.

V. Tashqi dunyo obʼyektlar ustidan nazoratni ularni oʻzlashtirib (egallab) olish asosida amalga oshirish.

S. Shaxsning tabiatdan ham, ijtimoiy hayot jamoatchiligidan ham begonalashishida hamda ishlab chiqaruvchini ishlab chiqarish vositasidan ajratishda namoyon boʻluvchi ijtimoiy aloqalarni tarkiblash, murakkablashtirish shakli.

D. Ijtimoiy oʻzaro hamkorlikning asosiy tamoyili hisoblangan ahloq normasida jamiyat tomonidan oliy va muqaddas qadriyat hamda individ mustaqiligining kafolati. sifatida tan olish.

4. Mulchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish qoidasi qaysi javobda toʻgʻri koʻrsatilgan?

A. - transaksiya xarajatlari nolga teng boʻlmagan taqdirda mulchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga taʼsir koʻrsatadi.

V. - muvazanatli narx bozor ishtirokchilariga past xarajatli va kam buzib koʻrsatilgan axborot bilan almashish imkonini beruvchi rivojlangan axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi.

S. - davlatning ushbu yoʻnalishdagi faoliyati almashinadigan tovarlar va xizmatlar sifatini oʻlchash xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi.

D. - bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlarini oʻz ichiga oladi.

5. Axborot bilan almashish tarmoqlarini barpo etish qoidasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A. - transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda mulkchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

V. - muvazanatli narx bozor ishtirokchilariga past xarajatli va kam buzib ko'rsatilgan axborot bilan almashish imkonini beruvchi rivojlangan axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi.

S. - davlatning ushbu yo'nalishdagi faoliyati almashinadigan tovarlar va xizmatlar sifatini o'lchash xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi.

D. - bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlarini o'z ichiga oladi.

6. Ulushli mulk huquqi qaysi sub'yektlar o'rtasida taqsimlanadi?

A. Uning ishtirokchilari, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi, ijro etuvchi organ va davlat o'rtasida.

V. Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi o'rtasida.

S. Shartnomalarni bajarilishi bo'yicha.

D. Davlat va jamiyat a'zolari o'rtasida.

7. Reklama instituti – bu

A. Imkoniyatli xaridorlarga sotuvchilar haqida bilimlar berish usuli.

V. Korxonaning tashkiliy-huquqiy shakliga qarab ma'lumot olish.

S. Xarajatlarning pasayishiga ko'maklashish.

D. Axborotni qayta tashkil etish.

8. Tashkilot –nima?

A. Hukmronlik munosabatlari, "agentlar" tomonidan o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini "prinsipal"ga topshirilishi.

V. O'zaro hamkorlikning umumiy doiralarini belgilaydi.

S. Transaksiya xarajatlarning tarkibini va miqdorini belgilaydi.

D. Korxonani biznes rejasi asosida tavsiflanishi

9. Ko'p ukladli iqtisod – bu..?

A. Turli mulk shakllari va xar-xil xo‘jalik turlarining yaxlitligidan tashkil topgan iqtisodiyot.

V. Tashkiliy-huquqiy shaklni fakat uchta kurinishi.

S. Davlat takilotlarini jami tashkilotlardagi ulushiga aytiladi.

D. Tarmoklarni kengaytirish va modernizatsiyalashga aytiladi.

10. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlarini nechta yondashuvi qo‘llaniladi?

A. 4 ta

V. 5 ta

S. 6 ta

D. 10 ta

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. “Imkon kapital” kompaniyasining ijrochi direktori bilan tuzilgan shartnoma unga yiliga 750000 so‘m miqdoridagi har yillik mukofot hamda dividendar to‘langanidan so‘ng qoladigan 11 foiz miqdoridagi yillik foydaning 2 foizi to‘lanishini nazarda tutar edi. Menejrlarni rag‘batlantirish bunday tizimlarining paydo bo‘lishi xatarlarni bo‘lish va o‘tkazish darajalariga qanaqa yangiliklar kiritadi?
2. Qonun hujjatlari «Iqtisodiy manfaatlar bo‘yicha birlashuvlarni» - o‘z mustaqilligini yo‘qotmagan holda boshqa korxonalar bilan qo‘shma faoliyat yuritish va hamkorlik qilishni istovchi korxonalar yig‘indisini nazarda tutadi. Ushbu tashkiliy-huquqiy shaklga aksiyadorlik jamiyatining ham, yuridik shaxslar birlashmalarining ham xususiyatlari xos. Fuqarolik kodeksiga bunday tushunchaning kiritilishi biznes uchun qanday o‘ziga xos vaziyatni qonunlashtirishi mumkin?
3. Korxonalar bo‘linmalari o‘rtasidagi nizolarni hal etishda uning rahbari bajaradigan hakamlilik funksiyalarining o‘ziga xosligi nimadan iborat? Chunki «firma ichidagi nizolarni sudda hal etishning imkoni bo‘lmagan sharoitda

ushbu nizolar tomonlari firma ichida nizoni hal etish yo'lini qidirishga majburlar. Ierarxiya firmaning o'z «appelyatsiya sudi»ga aylanadi».

4. LUKoyl, O'zbekneftgaz kabi neft-gaz qazib chiqarishdan tortib to benzin-gaz sotishgacha bo'lgan texnologik zanjirning barcha bo'g'inlarini birlashtiruvchi vertikal integratsiyalashgan kompaniyalarni shakllantirish foydasiga xizmat qiluvchi institutsional dalillarni keltirishga urinib ko'ring.
5. Notijorat tashkilotlarida, masalan, ta'lim muassasalarida – oliy o'quv yurtlarida mulkning rasmiy va haqiqiy tarkiblarini muvofiqlashtirish mumkinmi? Muvofiqlashtirish sabablari nimalardan iborat bo'lishi mumkin? Siz tahsil olayotgan universitet yoki O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida mulkiy huquqlarning tavsiflanishini sharhlab bering?
6. Institutda muvofiqlashtirish kuzatiladimi?
7. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari sifatida egalik qilish va qoldiq qiymatni olish huquqlarining iqtisodiy sub'yektlararo taqsimlanishini tushuntirib bering?
8. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari sifatida xatarlarni bo'lish va o'tkazish darajasini tushuntirib bering?
9. Kapitalni jamg'arish darajasi nima?
10. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan iqtisodiyot subektlarini qaysi tashkiliy-huquqiy shakl mezonlari bo'yicha baholaymiz?

XIII BOB. DAVLAT INSTITUSIONAL TASHKILOT SIFATIDA

13.1. Davlatning funksiyalari

13.2. Davlatning institusional tabiati

13.3. Davlatning mohiyati va uning ta'rifi

13.4. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik konsepsiyasi

13.5. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»

Davlat va davlat tomonidan tartibga solish tabiatining konseptual asoslarini tadqiq etish institusional nazariyada alohida o'rin tutadi. Bu shu bilan izohlanadiki, jahon xo'jalik tizimi rivojlanishining hozirgi bosqichida iqtisodiy rivojlanish va u yoki bu davlatning iqtisodiy asosini shakllantirish yo'lini aniqlashda muhim rol o'ynovchi mulk huquqlarini taminlash mulk sohasida muayyan cheklovlarni belgilash, ushbu cheklovlarga rioya etilishini nazorat qilish va mazkur cheklovlar buzilgan hollarda kuch ishlatish monopoliyasiga ega bo'lgan mavjud siyosiy tuzilmaga bog'liq.

Shunday qilib, davlat jamiyatda rasmiy qoidalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi va bu bilan institusional muhitning o'zgarishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.

13.1. Davlatning funksiyalari

1970-yillarda jahon xo'jalik tizimida yuz bergan larzalar davlatning iqtisodiyotdagi roli va davlatning tabiati to'g'risidagi yangi bahs-munozaralarga turtki berdi.

Davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi chegarasi nima bilan belgilanadi? Davlatning iqtisodiy sohada ishtirok etishining o'zi inqiroz sababi va iqtisodiy rivojlanish uchun to'siq hisoblanmaydimi? Agar davlatning aralashuvi Etarlicha samarali bo'lmasa, buni qanday qilib to'g'rilash mumkin? Davlatning

roliga taalluqli bo'lgan shu va boshqa savollarga javob qidirish bilan turli ilmiy maktablar va yo'nalishlar iqtisodchilarining aksariyati band.

Davlat tomonidan tartibga solish sohalari to'g'risidagi masala eng bahsmunozarali bo'lib, biz ushbu paragrafda unga javob topishga urinib ko'ramiz.

Adam Smit 18-asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlari doirasini belgilab berdi:

- birinchidan, jamiyatni kuch ishlatish va boshqa mustaqil jamiyatlarning bostirib kelishidan himoyalash;

- ikkinchidan, imkon qadar, jamiyatning har bir a'zosini adolatsizlikdan va uning boshqa a'zolari tomonidan jabrlashdan himoyalash yoki yaxshi adolat hukmini o'rnatish;

- uchinchidan, ularni barpo etish va saqlab turish alohida shaxslar yoki kichik guruhlar manfaatlari yo'lida amalga oshirilmaydigan muayyan ijtimoiy inshootlar va ijtimoiy muassasalarni barpo etish va saqlab turish, chunki ulardan keladigan foyda hech qachon alohida shaxslar yoki kichik guruhlariga xarajatlarni to'lay olmaydi, lekin ko'pincha xarajatlarni katta jamiyatga ortiqcha to'lashi mumkin¹.

Ikki asrdan ortiq vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, mazkur tasnif davlat faoliyati sohalarining asosiy ma'nosini aks ettiradi.

Yangi institutsional maktabning hozirgi vakillari davlat intervensionalizmini iqtisodiy asoslashni bozorning nuqsonlarida yoki nochorligida ko'rmoqda. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning funksiyalari quyidagilardan iborat:

- *mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish*: transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda mulkchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi;

- *axborot bilan almashish tarmoqlarini barpo etish*: muvazanatli narx bozor ishtirokchilariga past xarajatli va kam buzib ko'rsatilgan axborot bilan

¹ Смит А. Исследование о природе и богатстве народов – М.: Лекиздат, 1935. –С. 231.

almashish imkonini beruvchi rivojlangan axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi;


- *o'lchash va tortish standartlarini ishlab chiqish*: davlatning ushbu yo'nalishdagi faoliyati almashinadigan tovarlar va xizmatlar sifatini o'lchash xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi, yanada keng ma'noda esa universal chora-tadbirlar jumlasiga davlat tomonidan pul muomalasining tashkil etilishi ham kiradi, chunki almashuvning universal tadbir – pulning eng muhim funksiyalaridan biri;

- *tovarlar va xizmatlar bilan jismoniy almashish tarmoqlari va mexanizmlarini barpo etish*: bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlari (transport tarmoqlari, savdolar uchun uyushgan maydonchalar va h.k.)ni o'z ichiga oladi;

- *huquqni muhofaza qilish faoliyati va nizolarda «uchinchi» tomon rolini bajarish*: shartnomalarni bajarishda kutilmagan holatlarning paydo bo'lishi sharnoma tomonlarining ulardan opportunistik foydalanishidan kafolatlash uchun «uchinchi» tomon (sud)ning aralashuvini talab qiladi;

- *sof ijtimoiy farovonlikni yaratish* «chiptasiz» muammosini keltirib chiqaradi, bu uni moliyalash uchun davlat tomonidan majburlov choralaridan foydalanishni talab qiladi (birinchi navbatda mudofaa, keyin sog'liqni saqlash va ta'lim singari ijtimoiy farovonlikni yaratish)¹ (qarang:13.1.1-rasm).

¹ Олейник А. Институциональная экономика. – М.: ИНФРА-М, 2000. –С. 344-345.



13.1.1-rasm. Davlatning funksiyalari.

Yangi institutsional nazariya vositalariga tayanib, davlatni shakllantirish va rivojlantirish bosqichlarini tadqiq etgan holda, davlatni boshqarishning asosiy sohalarini tanlashning institutsional sabablarini aniqlash mumkin bo‘ladi.

13.2. Davlatning institutsional tabiati

Kelishuvlar va almashuvning oddiy shakllaridan tortib to hozirgi davrning rivojlanayotgan iqtisodiyotini ajratib turuvchi murakkab shakllargacha bo'lgan inson hamkorligining evolyutsiyasi o'z-o'zidan avtomatik tarzda yuz bergani yo'q.

Iqtisodiy tarixning katta qismida mayda ishlab chiqarish va mahalliy savdo-sotiq jarayonida tomonlarning individuallashtirilgan munosabatlari bilan tavsiflanuvchi almashuv xili ustunlik qildi. Bunday almashuv takrorlanib turishi, madaniy gomogenlik (ya'ni boyliklar umumiy to'plamining mavjudligi) va uchinchi shaxslar tomonidan nazorat va majburlovning mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Bunday almashuv ishtirokchilari uchun cheklovlar qonli aloqalar, garovlar, garovga olinganlarni almashish kabi holatlarlar tufayli yuzaga kelardi.

Jamiyatning rivojlanishi bilan almashuv turlari ko'paydi, ko'proq ilgari belgilangan cheklovlar doirasidan tashqariga chiquvchi almashuv harakatlari amalga oshirildi. Bunday individuallashtirilmagan almashuv bozorni kengaytirish hamda yanada murakkab ishlab chiqarish va kichik jug'rofiy yoki etnik birliklar doirasidan tashqariga chiquvchi bitimlar foydalarini sotish imkonini berdi. Tomonlar o'rtasida tuzilgan yanada murakkab kelishuvlar shartnomalardan foydalanishni ta'minlovchi qo'shimcha institutlarning shakllanishiga yordam berdi. Almashuvning ushbu xili davlatning shakllanishiga va ixtisoslashgan institutlarning savdogarlarni himoyalash va savdo kodekslarini qabul qilishdagi rolining o'sishiga xizmat qildi.

Shunday qilib, almashuvning uchinchi shakli paydo bo'ldi – bu uchinchi tomondan nazorat qilinadigan individuallashtirilmagan almashuv. Uchinchi tomondan kelishuvlar shartlarining ta'minlanishi hech qachon ideal va mukammal bo'lmaydi va u almashuv ishtirokchilari uchun katta xarajatlar bilan bog'liq. Davlat rivojlanishining dastlabki bosqichida uning faoliyatini ikki tomondan tavsiflash mumkin: bir tomondan – u mulk huquqlarini himoyalash va ta'minlash manbai bo'lib xizmat qildi, ikkinchi tomondan – ushbu funksiyalarni ko'pincha almashuv ishtirokchilari uchun katta miqdordagi transaksiya xarajatlari evaziga amalga oshirdi. Biroq, tomonlarning kelishuvlarni mastaqil ravishda ta'minlashi

yanada katta xarajatlar bilan bog'liq edi, chunki murakkab jamiyatlarda xatti-harakatning opportunizim (aldash, tovlamachilik) kabi shakllari foydaliroq bo'ladi.

Davlat rivojlanishining yuqorida keltirilgan bosqichlariga davlat tuzilishining quyidagi turlari mos keladi¹:

1) unda qonun chiqaruvchi, sud va huquqni muhofaza qilish organlari va umumiy qoidalar mavjud bo'lmagan hamjamiyat;

2) unda mutlaq huquqlarni tafsirlovchi umumiy qoidalar, qonun chiqaruvchi organ, sudlar mavjud bo'lgan, lekin politsiya yoki armiya mavjud bo'lmagan va bu bilan qonunga rioya etishga majburlash alohida xususiyatga ega bo'lgan jamiyat;

3) unda davlat qoidalarni belgilaydi, nizolar yuzaga kelganda hakamlar sudi funksiyasini bajaradi va mutlaq huquqlarni ta'minlaydi².

13.3. Davlatning mohiyati va uning ta'rifi

Davlat nima? Institutsional yondashuvga muvofiq uning asosiy mohiyatini "transaksiya xarajatlari" kategoriyasidan foydalangan holda ochib berish mumkin.

D.Nortning ta'riflashicha, davlat – zo'rlikni amalga oshirishda qiyosiy ustunliklarga ega bo'lgan, chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug'rofiy hududni qamrab oluvchi tashkilot. Ushbu ustunliklar nimalar bilan belgilanadi?

Haqiqatdan ham, har qanday kafolatlangan almashuv, pirovardida, mol-mulkni himoyalashni sof kuch bilan amalga oshirishga yoki kuch ishlatish tahdidini solishga olib keladi. Shu ma'noda zo'rlik (kuch ishlatish), iqtisodiy jihatdan, xo'jalik faoliyatining boshqa ikki xilidan farq qilmavydi.

Bundan tashqari, transaksiya xarajatlari iqtisodiy tizimning samaradorligiga ta'sir ko'satadi, ular iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy tuzilmalar faoliyat

¹ Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики – М.: Фонд экономической книги "Начала", 1997. – 54-55 б.

² Эггертссон Т. Экономическое поведение и институты. –М.: ДЕЛЮ. 2001. – С. 75-76.

ko'rsatishining samaradorligini taqqoslashda bazaviy mezonlardan biri hisoblanib, jamiyat, shu jumladan, davlat tuzumi faoliyatining barcha sohalarida agentlik munosabatlari ushbu mezonga asoslanadi. Shunday qilib, u yoki bu tuzilmani tanlash va rivojlantirish minimal transaksiya xarajatlari bilan shartlangan.

Demak, suveren (davlat) hokimiyati agentlik munosabatlarining xarajatlari bilan cheklangan va unga raqobat to'sqinlik qiladi¹. Endi ushbu holatga oydinlik kiritamiz. Agar jamiyatda tartibni saqlash va davlat funksiyalarini amalga oshirish o'lchamsiz yuqori narxlarda amalga oshirilsa, u holda bu davlatning ichida ham, uning tashqarisida ham (ham rasmiy, qonun doirasida faoliyat yurituvchi, ham norasmiy) raqobatlashuvchi tuzilmalarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Soliq solish ehtimoli ham agentlik munosabatlari va o'lchash (soliq solish bazasini aniqlash va o'lchash) hamda soliqlarni yig'ish xarajatlari bilan bog'liq qator cheklovlar tufayli yuzaga keladi.

Shunday qilib, davlat – nazariy jihatdan eng samarali majbur qilish organi hisoblanib, bunda uning samaradorligi uning legitimligiga, ya'ni “soliq solinadigan fuqarolar tomonidan” davlatda kuch ishlatish huquqi mavjudligining tan olinishiga bevosita bog'liq. Chunki agar jamoat fikriga mos keladigan bunday tan olish mavjud bo'lsa, u holda davlat o'z funksiyalari va maqsadlarini amalga oshirish uchun cheklangan resurslardan oqilona foydalanuvchi tashkilot sifatida o'z imkoniyatlarini aholining ushbu funksiyalar va maqsadlar bajarilishiga qarshiligini English uchun sarflamasligi mumkin².

13.4. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik konsepsiyasi

Fuqarolar bilan davlat o'rtasida huquqlarning taqsimlanishi, odatda, jamoat shartnomasi rolini o'ynovchi Konstitutsiyada qayd etiladi. Biroq davlatning

¹ Эггертссон Т. Экономическое поведение и институты. – М.: ДЕЛО. 2001. – С. 77.


² Томбовцев В.Л. Государство и переходная экономика: Пределы управляемости . – М.: МГУ – ТЕИС, 1997. – С. 34.

mohiyati fuqarolar bilan davlat apparati o'rtasida yuzaga keladigan hokimlik munosabatlari bilan belgilanadi.

Kelishuvlarning uchinchi tomonning kuchlari bilan samarali ta'minlanishiga so'ngra norasmiy cheklovlarni ham samarali qiladigan qoidalarni yaratish yo'li bilan erishiladi. Lekin kelishuvlarni muayyan qoidalarni qo'llovchi ta'sirchan huquqiy tizim orqali uchinchi tomonning kuchlari bilan ta'minlash muammosi institutsional evolyutsiya tadqiqotlaridagi eng muhim muammo hisoblanadi.

Davlatning yuqorida keltirilgan ta'riflari ko'p jihatdan uning shartnomaviy mohiyatini tavsiflaydi, ya'ni davlat – bu jamoat shartnomasi. U tartibni ta'minlash vositasi sifatida (nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy almashuvlarning ham tartibga solinganligi) kuch ishlatish holatini emas, balki fuqarolarning o'zaro kutishlari tizimi sifatida ushbu tartibning o'zini o'rnatish holatini ta'kidlaydi.

Davlatning shartnomaviy nazariyasidan tashqari davlatning asosan ekspluatatorlik mohiyatini nazarda tutuvchi nazariya ham mavjud (qarang:13.4.1-rasm).



13.2.1-rasm. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik nazariyalari

J.Byukenen¹ o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi rolining ikki tomonlamaligiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni davlat ham himoya qiluvchi, ham ishlab chiqaruvchi vositadir.

¹ Бьюкенен Дж. Границы свободы. – М.: Таурус Альфа, 1977. – С. 272.

Himoya qiluvchi yoki huquqiy davlat konstitutsion bosqichda kelishuvchi tomonlarga nisbatan konseptual tashqi va huquqlarni hamda bunday huquqlarni ixtiyoriy ravishda almashish bo'yicha shartnomalarni ta'minlash uchun yagona javobgarlikka ega bo'lgan huquqlarni ta'minlash instituti yoki organi sifatida paydo bo'ladi. Ushbu bosqichda davlat faqatgina konstitutsiyaviy shartnomada mustahkamlangan huquqlarni ta'minlaydi va ijtimoiy ne'matlarni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog'liq emas. Sud hokimiyati jamoaviy tanlovni amalga oshiruvchi qonun chiqaruvchi hokimiyatga qaram emas.

Gap ijtimoiy ne'matlarni ishlab chiqarish haqida borganda, ishlab chiqaruvchi davlat namoyon bo'ladi. Davlat konstitutsiyadan keyingi (shartnomadan keyingi) bosqichda amalga oshiriladigan mazkur rolda muayyan huquqlarni "himoya qilmaydi", balki jamiyatning iqtisodiy farovonligi darajasining oshishiga, hech bo'lmaganda nazariy jihatdan, eng yaxshi ko'maklashuvchi ishlab chiqarish jarayonini o'zida mujassam etadi. Nazariy jihatdan olib qaralganda, mazkur jarayonning natijalari ularning yakuniy natijalarga ta'siri tanlovni amalga oshirishning konstitutsion qoidalari bilan belgilanadigan insonlar afzal bilishlarining tarkibini aks ettiruvchi individlar manfaatlarining uyg'unlashuvini o'zida namoyon etadi.

Shu munosabat bilan xususiy va jamoat ne'matlarini, ularni ishlab chiqarish xarajatlarini taqsimlash va ishlab chiqarish hajmi borasidagi yakuniy qaror qanday bo'lishi ularga bog'liq bo'lgan yakka tartibdagi afzal bilishlarni aniqlashga e'tibor qaratish lozim.

Konstitutsiyadan keyingi shartnoma sharoitida alohida sub'yektlar uchun ushbu qayta taqsimlashni o'z manfaatlari yoki alohida guruhlar manfaatlari yo'lida amalga oshirish imkoniyati mavjud. Agar himoya qiluvchi davlat funksiyasini amalga oshiruvchi amaldorlarning o'zlari yakka tartibdagi hokimiyatni mustahkamlagan holda shartnoma shartlarini bajarishmasa, davlat jamiyatni siyosiy jihatdan ta'sir etuvchi alohida sub'yektlar manfaatlari yo'lida ekspluatatsiya qiluvchi majburiy repressiv mexanizm sifatida qabul qilina boshlaydi.

13.5. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»

Istalgan boshqa tashkiliy tuzilma singari davlatning faoliyat ko'rsatishi ham transaksiya xarajatlari bilan bog'liq. Va ular katta miqdordagi transaksionalarga qaraganda qanchalik ko'p bo'lsa, davlat shartnoma shartlarini bajarishning kafili sifatda ishtirok etadi. Shaxs va davlat o'tasida yuzaga keladigan hukumronlik munosabatlari *murakkab* va *pozitsion* xususiyatga ega. Birinchidan, shaxslar davlatga nazorat qilish huquqi bilan birga ushbu huquqni o'z vakillariga – davlat xizmatchilariga o'tkazish huquqini ham topshirishadi. Ikkinchidan, shaxslar nazorat qilish huquqini muayyan shaxsga emas, balki davlat tuzilmasida ma'lum mavqeni egallab turgan funksioner - *byurokratlarga* topshirishadi. Hukumronlik munosabatlari funksionerlarning shaxsiy xususiyatlariga emas, balki ularning «oqilona yaratilgan qoidalar bilan asoslangan ishbilarmonlik mahoratiga» asoslanadi. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilishda davlatning roli qanchalik faol bo'lsa, davlatning ichki tuzilishi shunchalik murakkab va davlat xizmatchilarining soni shunchalik yuqori, demak, davlat apparatining ichida aylanuvchi axborotning buzib ko'rsatilishi darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, monitoring va davlat tomonidan o'z vakillari – byurokratlarning opportunistik xatti-harakatlarini oldini olish xarajatlari ham ortadi. Shuning uchun davlatning mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish jarayoniga har qanday aralashuvini modellashtirishda, birinchidan, axborotning ehtimoliy buzib ko'rsatilishini, ikkinchidan, majbur qilishdan *legitim* foydalanish ehtimoli hamma vaqt 100 foizdan kamligini hisobga olish zarur.


Shu nuqtai nazardan bozorning «muvaffaqiyatsizliklari» bilan bir qatorda davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»ni ham e'tiborga olish lozim. Xususan, davlatning quyidagi «muvaffaqiyatsizliklari» ajratiladi:

- *daromadlar va xarajatlarning mos kelmasligi*: oddiy firmadan farqli o'laroq, davlatning qat'iy budjet cheklovi darajasi mutlaq darajadan ancha yiroq, davlat, hatto agar o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga qodir bo'lmagan taqdirda ham, uni bankrotga aylantirish ancha mushkul;

- *davlat faoliyati samaradorligining aniq mezonlari mavjud emasligi:* firma uchun foyda singari samaradorlikning aniq mezonlari mavjud emasligi tufayli davlat tuzilmalari ularni mustaqil ishlab chiqilgan standartlar bilan almashtiradi va ushbu holatda davlatning faoliyati ularning o'zlari tomonidan beriladigan mezonlar (budjet tushumlarining o'sishi, davlat nazoratining ekspansiyasi va h.k.) bo'yicha baholanadi;

- *oldinga qo'yilgan natijalardan farq qiluvchi natijalarga erishish ehtimoli:* axborot xarajatlari hamda monitoring va nazorat xarajatlarining o'sishi amalga oshirilgan vazifalarning oldinga qo'yilgan vazifalardan muntazam farq qilishi uchun zamin yaratadi (yuqorida keltirilgan, unda davlatning kuch ishlatishdan xususiy foydalanishni cheklashga urinishi uning eskalatsiyasiga olib kelishi mumkin bo'lgan model bunga yaqqol misol bo'ladi);

- *resurslarning noteng taqsimlanishi:* transaksiya xarajatlari noldan farq qilganda resurslarga bo'lgan mulkchilik huquqlarini taqsimlashda davlat uchun adolatlilikning bir necha standartlari mavjud (qarang: 13.5.1-rasm).



13.5.1-rasm. Davlatning “muvaffaqiyatsizliklari”.

Pareto bo'yicha optimum bilan bir qatorda quyidagilar ana shunday standartlar hisoblanadi: Kaldora qoidasi (agar resurslarni taqsimlash natijasidan yutayotgan tomon yutqazayotgan tomonga yo'qotishlarni qoplashga qodir bo'lsa, resurslarni taqsimlashga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yiladi), Rolz qoidasi (eng kam ta'minlanganlarning ahvolini yaxshilovchi - resurslarning adolatli taqsimlanishi) va ko'plab boshqa standartlar.

Shuning uchun ikkita ideal holat (bir tomondan, shartnomaning bajarilishi qisman kafolatlangan mulkchilik huquqlarini xarajatlarsiz faoliyat ko'rsatuvchi bozor almashuvi asosida taqsimlash va, ikkinchi tomondan, huquqlar bilan almashish ustidan nazoratni shartnoma tomonlarining manfaatlari yo'lida harakat qiluvchi davlatga o'tkazish) o'rtasida emas, balki ikkita takomillashmagan muqobil vaiantlar o'rtasida tanlashga to'g'ri keladi. Bozor va davlat o'rtasidagi tanlov faqat nomukammalliklarning turli darajalari va xillari o'rtasidagi tanlov hisoblanadi. Shunday qilib, mulkchilik huquqlarini almashish va himoya qilishning *bozor* mexanizmi noldan farq qiluvchi transaksiya xarajatlarini va kuch ishlatish eskalatsiyasini nazarda tutadi, *davlat tomonidan* kuch ishlatishdan foydalanish uchun monopol huquqning qo'lga kiritilishi ham, bu safar davlat apparatining ichida, transaksiya xarajatlarining o'sishiga olib keladi, bu hol huquqlarning taqsimlanishida muntazam buzib ko'rsatishlarni keltirib chiqaradi.

Shu munosabat bilan O.Uilyamson mulkchilik huquqlarini taqsimlashning u yoki bu varianti samaradorligini, uni faraziya bilan emas, balki *real* amalga oshiriladigan muqobil variantlar bilan taqqoslagan holda baholashni taklif etadi. Agar taqsimlashning qaysidir varianti uchun uni ta'riflash va katta miqdordagi sof yutuq bilan joriy etish mumkin bo'lgan muqobil variantni taklif etish mumkin bo'lmasa, uni optimal deb hisoblash lozim. Shu nuqtai nazardan, ilgari samarasiz

hisoblangan mulkchilik huquqlarini taqsimlash misollari real muqobil variantlarni hisobga olgan holda, optimal bo‘lib chiqmoqda.

Xulosa

Davlat tashkilotning bir turi hisoblanadi. Davlatning o‘lchamlari katta bo‘lsa-da, iqtisodiyotga davlatning iqtisodiyotga aralashuvini tahlil qilish mikroiqtisodiyot emas, balki makroiqtisodiyot predmetiga kiradi. Davlatni alohida tashkilot sifatida emas, balki institut sifatida ko‘rib chiqish lozim. Fuqarolar tomonidan o‘z huquqlari bir qismining davlatga topshirilishi holati bunday yondashuvning asosini tashkil qiladi. Davlat o‘z faoliyatini aynan shu asosda amalga oshiradi, ya’ni davlatning mohiyati fuqarolar va davlat apparati o‘rtasida yuzaga keladigan hukumronlik munosabatlari bilan belgilanadi. Shuning uchun institutsional nuqtai nazardan davlatning asosiy funksiyasi - mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilishdan iborat. Davlatning optimal o‘lchamlari ularda davlat kafil sifatida boshqa kafillar (bitim tomonlari, arbitr, ijtimoiy guruh)ga qaraganda samaraliroq faoliyat ko‘rsatadigan bitimlar doirasi bilan belgilanadi. Davlatning optimal o‘lchamlari absolyut emas, balki tarixan shartlangan.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Davlat – bu chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug‘rofiy hududga joylashgan, hukmini amalga oshirishda qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan tashkilot.

Byurokratik renta – bu o‘zining lavozim mavqeidan noqonuniy tarzda daromad olish uchun foydalanuvchi davlat amaldori tomonidan olingan daromad (masalan, pora, sovg‘alar va h.k.).

Byurokratiyaning iqtisodiy nazariyasi – bu ijtimoiy tanlov nazariyasining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u qimmatbaho ne‘matlarni ishlab chiqarmaydigan va daromadlari o‘z faoliyatining natijalarini sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishini o‘rganadi.

Davlat buyurtmasi – davlat tomonidan muayyan maxsulot turini tayyorlash va uni iste'molchiga Etkazib berish, ishlab-chiqarish va ilmiy tadqiqot xarakteridagi ma'lum ishni bajarish bo'yicha korxonalar va xo'jaliklarga beriladigan topshiriq.

Davlat budjeti – davlat daromadlari va xarajatlarning pul bilan ifodalanadigan yillik majmui.

Davlat zayomlari – davlat budjetiga mablag' to'plashda kredit sifatida maydonga chiqadigan kredit-moliya faoliyatining bir ko'rinishi.

Davlat mulki – jamiyatdagi mulkchilikning shakllaridan biri, davlat mol-mulkidan kelgan daromad budjetga tushadi.

Davlat qarzi – davlatning o'z fuqarolari, banklar, korxonalar va tashkilotlar, shuningdek xorij mamlakatlaridan qarzi.

Oliy mulk – davlat mulkining dastlabki shakli hisoblanadi.

Davlatning "muvaffaqiyatsizliklari" - daromadlar va xarajatlarning mos kelmasligi, davlat faoliyati samaradorligining aniq mezonlari mavjud emasligi, oldinga qo'yilgan natijalardan farq qiluvchi natijalarga erishish ehtimoli va resurslarning noteng taqsimlanishi kiradi.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Quyida keltirilgan jadvaldagi davlat budjetining asosiy moddalarini tahlil qilish asosida davlatning modeliga nisbatan xulosalar chiqaring:

Daromadlar (YaMMga nisbatan % hisobida)		Xarajatlar (YaMMga nisbatan % hisobida)	
To'g'ridan-to'g'ri soliqlar	12,0	Ijtimoiy xizmatlar,	15,7
Bilvosita soliqlar	11,4	shu jumladan:	
Mulkda ishtirok etishdan olinadigan dividendlar	1,4	mahalliy o'zini o'zi boshqarish	12,6
		uy xo'jaliklariga subsidiyalar	2,3
Boshqa mamlakatlarga berilgan kreditlar bo'yicha	0,2	ijtimoiy sug'urta	0,8
		Davlat boshqaruvi	4,8

foiz			
		Mudofaa	2,9
		Korxonalariga subsidiyalar	0,8
		Davlat qarzigga xizmat ko'rsatish	0,2
Jami	26,0	Jami	27,9
		Budjet taqchilligi	1,9

a) shartnomaviy model;

b) ekspluatatorlik model.

Javob: a), davlat budjetining tuzilishini tahlil qilish quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, soliq tushumlari budjet daromadlarining asosiy qismni tashkil qiladi (90 %). Ikkinchidan, mudofaa xarajatlarining ulushi 3 foizdan oshmaydi. Uchinchidan, davlat boshqaruvi xarajatlari ancha yuqori, biroq ularning miqdori mahalliy hokimiyat organlari va jamoat tashkilotlariga beriladigan subsidiyalar bilan solishtirilganda ancha kichik. To'rtinchidan, davlat xarajatlarining nisbiy miqdori "umumiy farovon" davlatlar guruhi bo'yicha o'rtacha darajaga yaqin.

2–misol. Soliq yuki asosan yuridik shaxslarning Elkasiga tushishi qaysi model uchun xos:

a) davlatning shartnomaviy modeli;

b) davlatning ekspluatatorlik modeli.

Javob: b), soliqlarning bevosita jismoniy shaxslar tomonidan to'lanishi o'z fuqarolarining farovonligini oshirishga yo'naltirilgan shartnomaviy davlat g'oyasiga yaqin. Fuqarolar davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'g'ridan-to'g'ri to'lashadi. Aksincha, birinchi galda yuridik shaxslarga soliq solish fuqarolar bilan davlatning shartnomaviy munosabatlarida vositachini hosil qiladi.

3–misol. Davlat subinstituti sonining oshishi quyidagilarga olib keladi:

a) davlat chegaralarining kengayishiga;

- b) davlat chegaralarining qisqarishiga;
- v) davlatning chegaralariga ta'sir ko'rsatmaydi.

Javob: b), masalan, xalqaro miqyosda ishchi kuchining erkin harakatlanishi oqibatida davlatning yaqin subinstitutlari sonining oshishi davlat o'z funksiyalarini bajarish uchun tasarruf etadigan aktivlar o'ziga xosligining pasayishini keltirib chiqaradi. Davlatning tasarrufidagi o'ziga xos aktivlar ichida qonunda qayd etilgan, kuch qo'llashdan foydalanish monopoliyasini (tovar belgisining o'xshashi), zamonaviy davlatlarning asosida yotuvchi hududiy yaxlitlik tamoyilini (aktivlar joylashgan joy bo'yicha), "ratsional byurokratlar" alohida guruhining shakllanishini (inson kapitalning o'ziga xosligi) ko'rsatamiz.

KEYSLAR

Keys 1. Ko'chmas mulkni xarid qilishda shartnoma tuzilgunga qadar transaksiya xarajatlari¹

«Kredit-Sentr» YoAJ: Ko'chmas mulk xaridorlari va sotuvchilari bitimni amalga oshirishda xarajatlar darajasini pasaytirish uchun ko'chmas mulk agentligining xizmatlariga murojaat etishadi. Ana shunday xarajatlar jumlasiga vaqt, resurslar sarflari va bitimni amalga oshirishdagi tavakkalchiliklar kiradi. Firmamiz xarajatlarning barcha turlari bo'yicha kafolatlarning eng yuqori darajasini ta'minlaydi.

Bitimni amalga oshirish yo'lidagi xarajatlarning birinchi turi – bu ob'yektlar haqidagi axborotni qidirish yoki bitim bo'yicha kontragentni izlash uchun vaqt va resurslar sarflari. «Kredit-Sentr» YoAJ Janubi-Sharqiy Moskava ostonasida ko'chmas mulk ob'yektlarini sotish va ularga doir axborotni qidirish borasida eng qudratli tizimga ega. Biz ko'chmas mulk bo'yicha maxsus reklama rubrikalarini yuritamiz va mintaqamizning barcha asosiy ommaviy axborot vositalarida hamda Moskvadagi ko'chmas mulk bo'yicha ixtisoslashgan nashrlarda tegishli bo'limlarga egamiz, Firma Internet tamog'ida o'z saytiga (www.credit-center.ru), tashqi reklama vositalarining rivojlangan tarmog'iga ega bo'lib, turli

¹ <http://www.credit-centcr.ra/anicles/garant.html>.

ko'rgazmalarda ishtirok etadi. Shu sababdan biz ko'chmas mulk ob'ektiga xaridorni tezda topamiz, xaridorlarga esa turli variantlarni taklif etamiz.

Lekin ob'ekt yoki bitim bo'yicha kontragentni izlash – bu ishning boshlang'ich qismi. Ob'ektning huquqiy maqomi, uning jismoniy tavsiflari, huquq egasi haqida axborot olish va, eng asosiysi, ushbu axborotni sinchkovlik bilan tekshirish talab etiladi.

Shundan keyin bitim shartlari (narx, hisob-kitoblar tartibi, ob'ektни topshirish tartibi) haqida dastlabki muzokaralarni o'tkazish va bitimni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni tayyorlash bosqichi boshlanadi. Shartnomani tuzish, ehtimol uni notariusda tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazish bitimning yakuniy bosqichi hisoblanadi.

Narxni to'g'ri belgilash, ob'ektни va huquq egalarini sifatli huquqiy ekspertiza qilish, hujjatlarni to'g'ri va tez tayyorlash, barcha bosqichlarda muzokaralarni to'g'ri o'tkazish, hisob-kitoblarning xavfsizligini ta'minlash, ob'ektни avvalgi egasidan yangisiga topshirish – bularning barchasi yuksak darajadagi professionalizmni talab qiladi.

«Kredit-Sentr» o'z xodimlari mahoratining yuqori darajasini kafolatlaydi. Firma ko'chmas mulk bozorida 1993 yildan buyon faoliyat ko'rsatmoqda va Rossiya Rieltorlar gildiyasiga a'zo hisoblanadi. Firmaning har bir bo'limi ko'chmas mulkning qandaydir bir turiga: ikkilamchi yoki birlamchi bozorlar kvartirallari, zahar ortidagi ko'chmas mulk, tijorat ko'chmas mulki, garajlarga ixtisoslashadi.

Maxsus bo'limlar yuridik rasmiylashtirish va ekspertiza, baholash hamda marketing bilan shug'ullanadi.

Bularning barchasi ixtisoslashuv va professionalizmning yuqori darajasiga, demak, bitimlarni tayyorlash va amalga oshirishda mijozlar uchun kafolatlarning yuqori darajasiga erishish imkonini beradi.

Lekin ko'chmas mulk bilan amalga oshiriladigan barcha bitimlar nafaqat bitimlarni tayyorlash va amalga oshirish jarayonida tavakkalchilikning yuqori darajasi bilan ajralib turadi. Bitim buzilgan hollarda mulk yoki puldan ajralib

qolish xavfi ko'chmas mulk bozorining eng asosiy tavakkalchiliklaridan biri hisoblanadi. «Kredit-Sentr»ning ko'chmas mulk bilan amalga oshiriladigan bitimlarni tayyorlash va uni o'tkazishda ishtirok etishi tavakkalchilikni keskin kamaytiradi.

Rieltorlarning kasbiy javobgarligi 65 ming AQSh dollari qiymatida sug'urtalangan. Bundan tashqari, firmaning o'z ko'chmas mulki kafolatni ta'minlashning eng ishonchli omili hisoblanadi. «Kredit-Sentr» mutaxassislari faoliyat ko'rsatadigan ofis firmaga mlk huquqida tegishli, demak, agar mijozlar bizning aybimiz bilan zarar ko'rsa, ularni qoplashning ta'minoti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ishlayotganimizga 8 yildan ko'p bo'lgan bo'lsa, hozircha bunaqa holat yuz bergani yo'q.

Savollar:

Matnda ko'chmas mulkni xarid qilish bilan bog'liq ex ante transaksiya xarajatlariga, xususan:

- axborotni izlash xarajatlariga;
- muzokaralarni olib borish xarajatlariga;
- shartnomani tuzish xarajatlariga oid barcha misollarni toping. O'z tanlovingizni asoslang.

QUYIDA KELITIRILGAN FIKRLAR

TO'G'RIMI YOKI NOTO'G'RIMI?

1. Davlat jamiyatda rasmiy qoidalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi va bu bilan institutsional muhitning o'zgarishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.
2. Bozor infratuzilmasi nafaqat axborot bilan almashish tarmoqlarini, balki tovarlar va xizmatlarning jismoniy harakatlanishi tarmoqlarini o'z ichiga oladi.
3. Davlat – zo'rlikni amalga oshirishda qiyosiy ustunliklarga ega bo'lgan, chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug'rofiy hududni qamrab oluvchi tashkilot.
4. Davlat – nazariy jihatdan faqat soliq undiruvchi tashkilot.

5. Davlat barcha mulkga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.
6. Yangi institutsional maktabning hozirgi vakillari davlat intervensionalizmini iqtisodiy asoslashni bozorning nuqsonlarida yoki nochorligida ko'rmqda.
7. J.Byukenen o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi rolining ikki tomonlamaligiga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni davlat ham himoya qiluvchi, ham ishlab chiqaruvchi vositadir.
8. Davlat qoidalarni belgilaydi, nizolar yuzaga kelganda hakamlar sudi funksiyasini bajaradi va mutlaq huquqlarni ta'minlaydi.
9. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning funksiyasi fakat nazorat kilishdan iboratdir.
10. Davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi fakat talabni ragbatlantirishdan iboratdir.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Davlat – nima?

- A. bu jamiyatda rasmiy qoidalarning shakllanishida katta rol o'ynaydi va bu bilan institutsional muhitning o'zgarishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi.
- B. bu jug'rofiy hududga joylashgan tashkilot.
- C. bu fuqarolarga soliq soluvchi tashkilot.
- D. bu jamiyatda norasmiy qoidalarni qo'llovchi tashkilot.

2. Diversifikatsiya – nima?

- A. bu korxonaning faoliyat sohalari va ishlab chiqaradigan maxsulot turlarining kengayishi.
- B. bu jamiyatda rasmiy qoidalarning shakllanishi.
- C. bu jamiyatda norasmiy qoidalarning shakllanishi.
- D. bu boshqaruvni eng samarali mexanizmi.

3. Adam Smit XVIII-asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlarini qanday doirasini belgilab berdi?

- A. jamiyatni kuch ishlatish va boshqa mustaqil jamiyatlarning bostirib kelishidan himoyalash.
- B. a'zolari jabrlashdan himoyalash.
- C. kichik guruhlar manfaatlarini ximoyalash.
- D. qonunlarni kirituvchi tashkilot.

4. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning funksiyalari nimalardan iborat?

- A. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash, himoya qilish va axborot bilan almashish tarmoqlarini barpo etish.
- B. Tovarlar va xizmatlar bilan bozorni ta'minlash
- C. Tarmoqlarni doimiy nazorat qilish
- D. Huquqni doimiy boshqaruvda saqlash.

5. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish qoidasi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A. transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda mulkchilik huquqlarining taqsimlanishi resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.
- B. muvazanatli narx axborot infratuzilmasi bazasida shakllanadi.
- C. davlatning faoliyati tovarlar va xizmatlar xarajatlarini pasaytirish imkonini beradi.
- D. bozor infratuzilmasi faqat axborot bilan almashish tarmoqlarini oladi.

6. Davlatning qanday "muvaffaqiyatsizliklari" mavjud?

- A. Daromadlar va xarajatlarning mos kelmasligi va davlat faoliyati samaradorligining aniq mezonlari mavjud emasligi.
- B. Tarmoqlarni doimiy yangilanishi.
- C. Resurslarning teng taqsimlanishi.
- D. Fan-texnikani joriy etilishi.

7. J.Byukenen o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi roliga alohida e'tibor qaratadi, ya'ni davlat -?

- A. Himoya qiluvchi ham ishlab chiqaruvchi vositadir.
- V. Mulk va hokimiyatning bo'linmasligi.

S. Xizmat uchun mukofot sifatida resursni hadya qiluvchi.

D, Mehnat sharoitlarini ishlab chiqaruvchi.

8. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning funksiyalari nechta?

A. 6 ta

V. 4 ta

S. 5 ta

D. 3 ta

9. Adam Smit 18-asrning ikkinchi yarmidayoq davlatning asosiy majburiyatlari doirasini belgilab berdi: Bular - ...

A) 3 ta

B) 4 ta

V) 5 ta

G) 2 ta

10. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari» nechta qismga ajratiladi?

A. 4 ta

V. 3 ta

S. 5 ta

D. 2 ta

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1. “Davlat”ga ta’rif bering. Davlatning institutsional mohiyatini tushuntirishga urinib ko’ring. Ta’rifdan kelib chiqib, davlatning asosiy funksiyalarini sanab bering.
2. Davlat, institutlar va iqtisodiy tizim o’rtasida qanday bog‘liqlik mavjud?
3. Davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi chegarasi nima bilan belgilanadi?
4. Davlatning iqtisodiy sohada ishtirok etishining o‘zi inqiroz sababi va iqtisodiy rivojlanish uchun to‘siq hisoblanmaydimi?

5. Agar davlatning aralashuvi Etarlicha samarali bo'lmasa, buni qanday qilib to'g'rilash mumkin?
6. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik tabiati nima?
7. Bozorning «muvaffaqiyatsizliklari» bilan bir qatorda davlatning «muvaffaqiyatsizliklari»ni ham e'tiborga olish lozim. Xususan, davlatning qaysi «muvaffaqiyatsizliklari» ajratiladi?
8. Yangi institutsionalistlarning hozirgi talqinida davlatning funksiyalari qayday ko'rinishlarda bo'lishi talab etiladi?
9. Adam Smit davlatning asosiy majburiyatlari doirasini qanday belgilab bergan?
10. J.Byukenen o'z asarlarida davlatning jamiyatdagi rolini qanday vositalarga bo'lib ko'rsatgan?

XIV BOB. DAVLATLAR XILLARI

14.1. Davlat va «prinsipal-agent» muammosi

14.2. «Shartnomaviy» davlat tushunchasi

14.3. «Ekspluatatorlik» davlati tushunchasi


14.4. Davlat xususiyatini baholash usullari va mezonlari

14.5. Korrupsiya muammosi

14.1. Davlat va «prinsipal-agent» muammosi

Davlatni fuqarolar bilan davlat apparati o'rtasidagi ijtimoiy shartnoma orqali ta'riflash «prinsipal-agent» muammosini oldingi o'ringa suradi. Bu Erda birinchi galda kim «prinsipal» va kim «agent» ekanligini aniqlab olish talab etiladi. Javob umuman aniq emas. Fuqaro ham, davlat ham ikki taraflama rol o'ynaydi. Bir tomondan, fuqaro davlatga ayrim funksiyalarning bajarilishini yuklagan holda uning tarkibini belgilaydi, ya'ni u «prinsipal», davlat esa «agent» hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, fuqaro «agent» rolida ishtirok etib, shartnomalar bajarilishining kafili sifatida davlatning qarorlariga bo'ysunadi. J.Byukenen¹ ushbu ikki taraflamalilikni «bo'ysunuvchining paradoksi» deb nomlagan: inson o'zini bir vaqtning o'zida ham davlat boshqaruvining ishtirokchisi – ob'ekti sifatida, ham o'zi tanlamagan xatti-harakat me'yorlariga amal qilishga majbur etiladigan sub'ekt sifatida qabul qiladi. Shunday qilib, «prinsipal-agent» muammosi mazkur holatda ikki taraflama xususiyatga ega va uni quyidagi chizma yordamida tasvirlash mumkin:

¹ Бьюкенен Дж. Границы свободы. – М.: Таурус Альфа, 1977. – С. 272.



14.1.1-rasm. «Prinsipal-agent» munosabati

«Prinsipal-agent» modeli davlatning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq quyidagi xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beradi. Birinchidan, davlat o'z nazorati sohasini tomonlar bilan aniq kelishilgan bitimlar doirasidan tashqariga ham yoymaydimi, degan xavf-xatar haqida 1651 yildayoq mashhur ingliz faylasufi Tomas Gobbs o'zining aynan «Leviafan», deb nomlanuvchi kitobida ogohlantirgan edi. Ikkinchidan, bir tomondan, davlat kuch ishlatishni qo'llash uchun monopoliya huquqidan foydalangan holda, fuqarolarning manfaatlarini inkor etmaydimi? Ikkinchi tomondan, fuqarolar davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'lashdan bosh tortishga urinib, huddi jamoat transportidagi oddiy chiptasiz kimsa kabi, o'zlarini opportunistlarcha tutishmaydimi? Chunki davlat xizmatlari va jamoat transporti xizmatlari ijtimoiy farovonlik xususiyatiga ega.


Ikki taraflama «prinsipal-agent» muammosining qay tarzda hal etilishiga qarab, davlatning turli modellari shakllanadi. Nazariy jihatdan yakka hisob-kitoblardan hosil bo'lgan davlat shartnoma vositasi sifatida, murakkab almashuvga ko'maklashish va uni amalga oshirish vositasi sifatida paydo bo'ladigan davlatdan mutlaq farq qiladi.

O'z navbatida, davlatning ikkita benuqson modeli mavjud. Biz, D.Nort bo'yicha, «shartnomaviy» deb ataydigan birinchi model yuqorida sanab o'tilgan muammolarni hal etish chog'ida paydo bo'ladi. Ikkinchi – «ekspluatator» modeli

unda davlatning ham, fuqaroning ham opportunistik xatti-harakatiga to'siq mavjud bo'lmagan davlat faoliyatini yoritadi. O'zaro munosabatlarning ikkala tomoni ham, bir-birida birinchi navbatda dushmani ko'rgan holda, o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni ado etmaydi. Shu o'rinda har bir modelni alohida tarzda batafsil ko'rib chiqamiz.

14.2. «Shartnomaviy» davlat tushunchasi

Shartnomaviy davlatning qisqacha ta'rifi shunday bo'ladi: bu – faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo'lida kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to'lashga majburiyat deb emas, balki o'z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan majburiyat sifatida qaraydi. Boshqacha aytganda, davlatning roli ularda mulkchilik huquqlarini himoya qilishni davlat ixtiyoriga topshirish qulay bo'ladigan bitimlar doirasi bo'yicha kafil roli bilan chegaralanadi. Transaksiya xarajatlari nolga teng bo'lmagan taqdirda, mulkchilik huquqlarini himoya qilish funksiyasidan tashqari, davlat Kouz nazariyasida yoritilgan huquqlarning optimal taqsimlanishini ko'zda tutgan holda ularni tafsirlash jarayoniga ham aralasha boshlaydi. Shunday qilib, shartnomaviy davlatning maqsadi huquqlarni ularni optimal tarzda tasarruf etishga qodir bo'lgan iqtisodiy sub'yektlar qo'liga topshirish asosida mulkchilik huquqlarining jamiyatning umumiy daromadini oshiradigan tarzda taqsimlanishiga erishishdan iborat. Qanday sharoitda shartnomaviy davlat mavjud bo'ladi?(qarang: 14.2.1-rasm).



14.2.1-rasm. Shartnomaviy davlat mavjudligining shartlari

1. *Davlat faoliyatining aniq konstitutsiyaviy doiralarining mavjud bo'lishi.* Konstitutsiyada shaxslar tomonidan davlatga topshiriladigan va hech bir sharoitda begonalashtirilishi mumkin bo'lmagan huquqlar eksplitsit tarzda kelishilgan. Bundan tashqari, davlat apparatining o'zi ular asosida faoliyat ko'rsatadigan me'yorlar aniq ifodalangan¹.

2. *Fuqarolarning davlat faoliyatida ishtirok etishi mexanizmlarining mavjud bo'lishi.* Fuqarolar davlat faoliyatida ishtirok etishining siyosiy

¹ Тамбовцев В. Государство и переходная экономика: пределы управляемости. – М.: 1997 - С. 80-81.

mexanizmlari jumlasiga demokratik tartibotlar kiradi. Biroq demokratiya me'yorlari o'z o'zicha etarli emas, ular fuqarolar ishtirokining barqaror an'analarga tayanishi lozim, ular ba'zan fuqarolarning umumiy farovonlikning o'sishini ta'minlashdagi roli tufayli ijtimoiy kapital deb ataladi. Iqtisodiy sohada fuqarolar ishtirokining an'analari alohida firmalar darajasida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish shaklini qabul qiladi. Ish o'rnidagi demokratiya umuman jamiyatni demokratlashtirishning unsuri hisoblanadi: inson, agar u davlatni demokratik boshqarishda faol ishtirok etishga intilsa, o'zining kundalik turmushida demokratik o'zini o'zi boshqarish tajribasiga ega bo'lishi lozim.

3. Mulkchilik huquqlarini taqsimlashning asosiy muqobil mexanizmi sifatida bozor institutining mavjud bo'lishi. Davlat mulkchilik huquqlarining bozorda nolli transaksiya xarajatlari chog'ida erishilishi mumkin bo'lgan tarzda taqsimlanishiga erishishni ko'zlaydi. Shuning uchun davlat vaqti-vaqti bilan bozorga taqqoslanmagan holda faoliyat ko'rsata olmaydi.

4. Mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish muqobil mexanizmlarining mavjudligi. «Ovoz»dan foydalanish, ya'ni fuqarolarning davlatning faoliyatida ishtirok etishi bilan bir qatorda «chiqish» - shaxslarning shartnomalar bajarilishining boshqa kafillariga murojat etishining muqobil variantlari ham mavjud bo'lishi kerak. Muqobil kafillar sifatida boshqa davlatlar, davlatni nazorat qiluvchi guruhga muholifat, mafiya, ijtimoiy guruh, hakamlar sud'yasi ishtirok etishi mumkin. Subinstitutlar qanchalik takomillashgan bo'lsa, davlat shunchalik kam darajada erkinlikka ega, umumiy daromadning shunchalik katta ulushi fuqarolarning qo'llariga tegadi. Shu nuqtai nazardan bir davlat mintaqalari o'rtasidagi hamda davlatlar o'rtasidagi migratsion oqimlar insonlarning samarasiz davlat apparatiga qarshi ovoz berish istagini aks ettiradi. Umuman olganda mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish mexanizmlarining «bozori» haqida gapirish mumkin. Ushbu bozorda shaxslar nafaqat muayyan jamiyat doirasidagi mavjud muqobil variantlar o'rtasida tanlaydi, balki boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lgan, tarixda yoki nazariyada mavjud bo'lgan muqobil variantlarni ham hisobga olishadi. Sharqiy Evropa mamlakatlarida bunday bozor

ayniqsa yaqqol ifodalangan: ushbu bozorning davlatni uning shartnomalarning muqobil kafillari bilan raqobatlashishi jarayonida isloh qilishdagi roli o‘ta muhim.

14.3. «Ekspluatatorlik» davlati tushunchasi

Shartnomaviy davlatdan farqli o‘laroq ekspluatatorlik davlati o‘z daromadini (soliq tushumlarini), aniqrog‘i, - davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning daromadini oshirish uchun majbur qilish monopoliyasidan foydalanadi. Ekspluatatorlik davlatining mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilishdagi asosiy maqsadi «mulkning boshqaruvchi rentasini oshiruvchi tarkibiga» erishishdan iborat, hatto agar bunga umuman jamiyat farovonligiga ziyon Etkazib erishilsada. Masalan, qirollar o‘rta asrlar korporatsiyalariga hunarmandchilikning rivojlanishi va texnika taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi ko‘plab huquqlarni topshirib, buning o‘rniga barqaror tushumlar manbasiga erishgan. Bundan tashqari, davlat unga ijtimoiy shartnoma bilan berilgan doiralar bilan chegaralanmaydi, davlat apparati insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikning yangi sohalariga doimiy ekspansiyani amalga oshiradi, bu hol ekspluatatorlik davlatining o‘z daromadlarini va davlat budjeti orqali o‘tuvchi resurslar hajmini oshirishga intilishi bilan izohlanadi.

Ekspluatatorlik davlati faoliyatidan ko‘riladigan zararni faqat og‘ir soliqlar (nohaq yig‘imlar) va mulkchilik huquqlarini taqsimlash *muntazam* va *oldindan aytib bo‘ladigan* xususiyatga ega bo‘lgan taqdirda qisqartirish mumkin. Og‘ir soliqlarning oldindan aytib berilishi davlatning ham, uning fuqarolarining ham manfaatlariga xizmat qiladi, bunda davlat uzoq muddatli istiqbolda barqaror daromadga ega bo‘ladi, fuqarolar esa o‘z faoliyatini davlatga ajratmalarning yuqori, lekin oldindan ma’lum bo‘lgan darajasini hisobga olgan holda rejalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan ekspluatatorlik davlati ko‘p jihatdan mafiya bilan umumiylikka ega – ularning ikkalasi ham o‘zi nazorat qiladigan hududa yashovchilardan soliq yig‘ sada, lekin ayni paytda «chegarani biladigan» va buning ustiga ularni «o‘g‘irlash va qochish» tamoyili bo‘yicha harakat qiluvchi «qo‘nimsizlar»dan himoyalovchi «o‘troq» qaroqchiga o‘xshaydi.

Ekspluatatorlik davlatining faoliyat ko'rsatishida majbur qilish salohiyatining fuqarolar o'rtasida taqsimlanishi muhim rol o'ynaydi. Chunki aynan shaxs yoki kuch ishlatining katta imkoniyatiga ega bo'lgan guruh davlat apparatini nazorat qiladi va kuch ishlatishni qo'llash monopoliyasini qo'lga kiritadi. Aynan shuning uchun harbiy texnologiyaning rivojlanishi ekspluatatorlik davlati faoliyatining asosiy omillaridan biriga aylanadi. Bu esa, o'z navbatida, uning ichki beqarorligini nazarda tutadi. Haqiqatdan ham, harbiy texnologiyaning o'zgarishi kuch ishlatish salohiyatining turli aholi guruhlari o'rtasida qayta taqsimlanishiga, demak, davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning almashishiga olib keladi. Davlatning ekspluatatorlik modelidan shartnomaviy modelga o'tish ham mumkin. Bundan davlat qurilishi dinamikasining, demak, mulkchilik huquqlari tarkibi dinamikasining tebrantirib turuvchi xususiyati haqidagi taxminlar kelib chiqadi. Rentani undirishga yo'naltirilgan tizimdan keyin samaradorlikni oshiruvchi tizim kelishi muqarrar va aksincha.

14.4. Davlat xususiyatini baholash usullari va mezonlari

Davlatning xilini aniqlash (shartnomaviy yoki ekspluatatorlik) davlat budjetining tarkibini tahlil qilish imkonini beradi. Firmaning balansi kabi davlat budjeti ham institutsional tahlil uchun zarur bo'lgan Etarli miqdordagi axborotni beradi. Talab etiladigan ma'lumotlar qabul qilingan va real ijro etilgan davlat budjeti daromadlar va xarajatlar qismlarining qator moddalarida mujassamlangan. Bundan tashqari, agar budjet taqchilligi mavjud bo'lsa, uni qoplash usullari davlatning muhim tavsifi hisoblanadi. Quyida davlat budjetining taxminiy tarkibini keltiramiz:

DAROMADLAR	XARAJATLAR
<i>Soliq daromadlari,</i> shu jumladan:	Iqtisodiyotga budjet kreditlari Tashqi iqtisodiy faoliyat

foйда солиғ'и	Ijtimoiy-madaniy tadbirlar
darmoad солиғ'и	Fan
qo'shilgan qiymat солиғ'и	Mudofaa
maxsus soliqlar	Huquqni muhofaza qilish
aksizlar	faoliyati
eksport-import bojlari	Adliya
resurs to'lovlari	Davlat boshqaruvi
letsenziyalar	Davlat zahiralarini to'ldirish
<i>Soliqdan tashqari daromadlar,</i>	Favqulodda holatlar bo'yicha
shu jumladan:	xarajatlar
tashqi iqtisodiy faoliyatdan	Xizmat ko'rsatish hamda tashqi
daromadlar	va ichki qarzni to'lash
davlat mulkida bo'lgan	Mahalliy budjetlarni moliyalash
aktivlar	
davlat zahiralarini amalga	Jami
oshirish	
Budjet kreditlarini qaytarish	
Maqsadli budjet fondlari	
Jami	Taqchillik

Davlatni u yoki bu xilga kiritishning birinchi mezoni – bu daromadlar turli moddalarining nisbati. Soliqdan tashqari tushumlarning ulushi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi shunchalik faol bo'ladi – bunday holatda uning roli shartnomalar bajarilishining oddiy kafili doirasidan tashqariga chiqadi. Budjet soliqdan tashqari daromatlari ulushining dinamikasi barqaror tendensiyaning mavjudligi haqida gapirish imkonini bermaydi. Buning ustiga turli xildagi soliq tushumlari nisbatining tahlili ularning musodara xususiyati haqida (renta to'lovlari va maxsus soliqlar ustunlik qilishida), yoki soliq tizimining ishlab chiqarish faoliyatini rag'batlantirish maqsadlariga bo'ysunishi («bozor» soliqlari: foyda soliғ'и, QQS, aksizlar, daromad soliғ'и, mol-mulk soliғ'и ustunlik qilgan

holatda) haqida fikr yuritishga imkon beradi. Ta'kidlash lozimki, budgetda «bozor» soliqlarining ulushi barqaror qisqarish tendensiyasiga ega. Shuningdek, soliqlarning yig'ilishi, ya'ni amaldagi soliq tushumlari va soliq solish bazasining real miqdorlaridan kelib chiqib hisoblab yozilgan soliqlar o'rtasidagi nisbat to'g'risidagi ma'lumotlar ham muhim axborotni o'zida mujassamlantiradi. Soliqlarning yig'ilishi qanchalik yuqori bo'lsa, davlat shartnomaviy modelga shunchalik yaqin bo'ladi.

Ikkinchi mezon – davlat xarajatlarining tarkibi va birinchi navbatda real moliyalangan hamda davlat budjeti to'g'risidagi qonunda qayd etilgan xarajatlar nisbati. Eksploatatorlik davlatida uning majbur qilish salohiyatini saqlab qolish va kuchaytirish bilan bog'liq xarajatlar («kuch ishlatuvchi» vazirliklarni saqlab turish xarajatlari) hamda bevosita davlat apparatini saqlab turish uchun yo'naltirilgan xarajatlarni moliyalashning ustuvorligi o'rin tutadi. Mudofaa, huquqni muhofaza qilish faoliyati va davlat apparati xarajatlarni katta tayyorgarlik bilan amalga oshiradi.

Xarajatlar moddalari
Huquqni muhofaza qilish faoliyati (adliyasiz)
Ijtimoiy-madaniy tadbirlar
Davlat boshqaruvi
Xalqaro faoliyat (shu jumladan davlatning tashqi qarzig'a xizmat ko'rsatish)
Mudofaa

Uchinchi mezon – budget taqchilligini moliyalash usullari. Budget taqchilligini qoplashning uchta asosiy usuli – Markaziy bankning hukumatga kreditlari, tashqi va ichki qazlardan eksploatatorlik davlati birinchisini afzal ko'radi. Bundan tashqari, markaziy bankning kreditlaridan foydalanish davlatga musodara xususiyatiga ega bo'lgan «inflyatsiya solig'i» orqali daromad olish imkonini beradi. Aksincha, shartnomaviy davlat budget taqchilligini

moliyalashning eng kam inflyatsiya usuli – tashqi bozordagi qarzlarni afzal ko‘radi. Ichki bozordagi qarzlarni uzoq muddatli davrda inflyatsiya xavfini tug‘diradi va jamiyat umumiy farovonligining o‘shishiga to‘sqinlik qiladi, chunki moliyaviy resurslar real sektordan davlat qarz majburiyatlari bozoriga oqib ketadi.

Budjet taqchilligini moliyalash usuli
MB kreditlari, tashqi kreditlar, qimmatli qog‘ozlar
Xazina majburiyatlari

14.5. Korrupsiya muammosi


Korrupsiya nazariyasining rivojlanishi davlatning iqtisodiyotdagi roli to‘g‘risidagi masalaga nisbatan yangicha yondashuvga misol bo‘ladi va shu bilan birga nazariy jihatdan to‘liq anglab Etilmagan tajribadan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosa qilishning xavfliligini o‘zida namoyon etadi.

Faqatgina 1970-yillarga kelib korrupsiyaning iqtisodiy muammo ekanligi anglab Etildi. Korrupsiya – bu nafaqat rivojlangan va o‘tish iqtisodiyotiga ega bo‘lgan mamlakatlarning, balki butun jahonning muammosi.

Korrupsiyalanish indeksi quyidagi qator omillarni baholash usullari yordamida hisoblab chiqilgan: yuridik qoidalarning ochiq-oydinligi, idoraviy tuzilmalarning Etukligi, erkinlashish darajasi, litsenziyalar olish va ro‘xatdan o‘tkazishning qiyinligi, sud tizimlarining samaradorligi, byurokratiyaning omilkorlik darajasi, fiskal tizimning samaradorligi va ochiq-oydinligi, bojxona ishining samaradorligi va h.k. Mamlakatning indeksi (noldan 10 gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha) qanchalik yuqori bo‘lsa, uning korrupsiyalanish darajasi shunchalik past bo‘ladi.

Byurokratik apparatning korrupsiyasiga qarshi kurashish muammosiga turli xalqaro tashkilotlar, shu jumladan Jahon bankining materiallarida katta e‘tibor

qaratiladi. 14.5.1-rasmda byurokrtiyaga qarshi kurashish va davlat institutlarining qobiliyatini oshirish yuzasidan asosiy tadbirlar keltirilgan.



14.5.2-rasm. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlatning imkoniyatlarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi mexanizmlar doirasi

Mazkur dasturning asosiy bandleri quyidagilardan iborat:

- samarali normalar va cheklovlarni qabul qilish;
- davlat xizmatchilari, shuningdek davlat va xususiy sektor sohasida raqobatni kuchaytirish;

- davlatni insonlarga yaqinlashtirish: fuqarolar bilan davlatning o‘zaro hamkorligini kuchaytirish, fuqarolar fikrlarini hisobga olish;

- budjetning o‘shirishini ichki barqarorlashtiruvchi vositalarini yaratish, masalan, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari, qarorlarni kim belgilashi, qabul qilish va amalga oshirishi ustidan nazorat qilish.

Ushbu dastur davlat va davlat institutlari faoliyat ko‘rsatishining asosida yotuvchi motivatsiyaning o‘zgarishi bilan bog‘liq. Uning amalga oshirilishi davlat amaldorlariga jamoaviy manfaatlar yo‘lida harakat qilish uchun rag‘batlantiruvchi omillarni yaratishga ko‘maklashuvchi va bir vaqtning o‘zida majburiy harakatlar ehtimolini cheklovchi qoidalar va normalarning joriy etilishini nazarda tutadi.

Yanada samaraliroq davlatni barpo etishga urinishlar shundan dalolat berib turibdiki, hatto sanoati rivojlangan mamlakatlarda ham biroz yaxshilanishlardan samara juda yuqori. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, hatto davlat samaradorligining past darajada oshirilishi ham vaqt o‘tishi bilan insonlar hayotining sifatini sezilarli darajada oshiradi, chunki islohotlar, odatda, o‘zining foydali bir vaqtiga etadi. Jahon banki tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, shu narsa anilandiki, past salohiyatli davlatga ega bo‘lib, amalga oshirilayotgan siyosatning sifati past bo‘lgan mamlakatlarda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad hajmi bir yilda, taxminan, 0,4 foizga o‘sgan, ayni paytda kuchli davlatga ega bo‘lib, oqilona siyosat yurituvchi mamlakatlarda esa aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad hajmi bir yilda o‘rtacha 3 foizga o‘sgan¹.

Korrupsiyaviy jinoyatchilikka qarshi sifatli va samarali kurashish uchun davlatning korrupsiyaviy jinoyatchilikni oldini olish borasida tizimlashgan chora-tadbirlarini ishlab chiqish lozim. Shu bilan birga mazkur chora-tadbirlarda korrupsiyaga qarshi fuqarolik jamiyati institutlari bilan keng hamkorlik qilinishi nazarda tutilishi shart bo‘ladi. Davlatning korrupsiyaga qarshi kurash dasturida quyidagilar belgilanadi:

¹ Государство в меняющемся мире. Отчет о мировом развитии 1997. – М.: ПРАЙМ-ТАСС, 1997. – С. 39.

- davlat xizmati sifatini ko‘tarish uning ishlash prinsiplarini qayta ko‘rib chiqish;
- mansabdorlik maqomini —huquq va majburiyatlarini aniq belgilab qo‘yish;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlangan mansabdor shaxslar ro‘yxatini qat’iy belgilab qo‘yish;
- davlat xizmatchilarining mulkiy holatini deklaratsiya qilib borishning samarali va qat’iy mexanizmini o‘rnatish;
- davlat xizmatidan ishdan bo‘shatilgandan so‘ng tadbirkorlik tuzilmalariga ishga o‘tishga cheklovlar joriy etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash: korrupsiyaviy qilmishlar sanalgan jinoyatlarga belgilangan jazolarni qayta ko‘rib chiqish, ularga amnistiya qo‘llanilishini istisno etish;
- korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risida, Jinoiy va yashirin pul mablag‘lari qonuniylashtirishini odini olish to‘g‘risida qonunlarni qabul qilish zaruriyati;
- huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning korrupsiyaga qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish, ularning funksiyalarini bir-birini takrorlamasligi nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqish.

Bugungi kunda ijtimoiy ongda mamlakatda korrupsiyaga qarshi jiddiy kurash olib bormay turib jamiyat va davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga, islohotlarning muvaffaqiyat bilan yakun topishiga erishish mumkin emasligi to‘g‘risida fikr qaror topgan. Darvoqe, davlat va xalq o‘rtasidagi ishonch deb atalmish uzvning ham mustahkam bo‘lishi davlat xizmatchilarining o‘zini nechog‘lik korrupsiyadan tiyilganligiga bog‘liq. Korrupsiya to‘g‘risida ko‘p va muhim bo‘lgan ma’lumotlarni yozish mumkin. Biroq ularni mazmunan hozirgi paytda xorijiy va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi dasturlar va loyihalarda takrorlanib turadigan “Korrupsiya barq urgan jamiyatda ozodlik uzoq vaqt hukm surishi mumkin emas” degan jumla bilan ifodalash mumkin.

Xulosa

Quyida keltirilgan ma'lumotlar davlatning ikkita benuqson xilini taqqoslash imkonini beradi:

	Shartnomaviy davlat	Ekspluatatorlik davlati
Maqsadi	Jamiyat a'zolarining umumiy daromadi (YaIM)ni ko'paytirish, transaksiya xarajatlarini pasaytirish	Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish
Vazifalari (funktsiyalari)	Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish	Kafil roli bilan chegaralanmagan holda iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro hamkorlikka faol aralashish
Vositalar (majbur qilish monopoliyasidan foydalanish)	Ijtimoiy shartnoma va konstitutsiyaviy doiralar bilan chegaralangan	Davlatni nazorat qiluvchi guruhning siyosiy irodasiga bog'liq
«Prinsipal-agent» muammosini hal etish mexanizmlari	Prinsipal – fuqaro: demokratik nazorat mexanizmlari, konstitutsiyaviy doiralarning mavjudligi, muqobil variantlarning mavjudligi. Prinsipal – davlat: qonunga ixtiyoriy bo'ysunish me'yorlarini yoyish	Prinsipal – fuqaro: mavjud emas. Prinsipal – davlat: majbur qilish va kuch ishlatishdan foydalanish, har tomonlama nazoratni amalga oshirishga urinish
Budjet cheklolari	Qat'iy, budjetni tasdiqlashning demokratik tartiboti bilan cheklangan	Yumshoq

Daromadlarning asosiy moddalari	Birinchi navbatda «bozor» soliqlaridan tushumlar	Musodara soliqlari va soliqdan tashqari tushumlar
Xarajatlarning asosiy bandlari	Adliya, huquqni muhofaza qilish faoliyati	Mudofaa, davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qilish faoliyati
Budjet taqchilligini qoplashning asosiy usullari	Tashqi bozordagi qarzlar	MBning hukumatga qarzlari, ichki bozordagi qarzlar, musodara solig‘ining turi sifatida majburiyatlarni bajarishdan bosh tortish ham mumkin

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

“**Prinsipal-agent**” muammosi – “agent”ning «prinsipal» topshirig‘i va ko‘rsatmasini bajarishdagi hiylasi (nayrangi). Hiyla ishlatish (nayrang) axborot asimmetriyasi va “agent” faoliyati ustidan nazorat qilishning yuqori darajasi tufayli mumkin bo‘ladi.

Kriminal iqtisodiyot – qonunning (birinchi navbatda – Jinoiy va Fuqarolik kodekslarining) to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog‘liq iqtisodiy faoliyat.

Shartnomaviy davlat – bu faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo‘lida kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to‘lashga majburiyat deb emas, balki o‘z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan burch sifatida qaraydi.

Ekspluatatorlik davlati o‘z daromadini (soliq tushumlarini), aniqrog‘i, - davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning daromadini oshirish uchun majbur qilish monopoliyasidan foydalanadi.

Ekstreal vaziyatlar – mulk huquqini qayta taqsimlashni qonunning qabul qilinishi natijasida zarar ko‘rgan tomonlarni xufyona harakat qilishga undaydigan holat.

Xufyona iqtisodiyot – bu jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan tovar moddiy boyliklar va xizmatlarning harajati. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi davlat boshqaruv organlaridan yashirinadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ham ifodalaydi.

Rasmiy iqtisodiyot – bu davlat tomonidan kuzatiladigan va nazorat qilinishi mumkin bo‘lgan iqtisodiyot.

Yashirish yoki norasmiy iqtisodiyot – rasmiy hisobotlarda va rasmiy shartnomalarda aks ettirilmaydigan xo‘jalik munosabatlari yig‘indisi.

Korrupsiya – lotincha (corruptio) so‘zidan olingan bo‘lib, buzilish degan ma’noni anglatadi. korrupsiya – xavfsizlikka tahdid soluvchi hodisa va xufyona iqtisodiyotning ko‘rinishidir.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Mamlakatning noqonuniy sektoriga nimalar kirishi va ular asosan soliqdan qochishga urinishlari haqida bilsangiz kerak. “San’at” firmasi san’atkorlar konsert dasturlarini tashkil qilish bilan shug‘ullanadi va ular odatda negadir konsert dasturlari uchun biletlarni belgilangan narxdan 1,5-2 barobarga qimmatroqqa “qora” bozorda sotadi. Bu holat qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

Javob, “San’at” firmasiga bo‘lgan ishochni yo‘qolib borishiga olib keladi.

2-misol. Davlatning iqtisodiyoti quyidagi ma’lumotlar orqali ifodalangan:

Ko‘rsatkichlar	Pul birliklari
YaIM	600
Uy xo‘jaliklari iste’moli	320
Sof investitsiyalar hajmi	110

Davlat xarajatlari	90
Eksport	120
Import	90
Budjetga tushuvchi bevosita soliqlar hajmi	40
Bilvosita soliqlar hajmi	30
Tadbirkorlarga subsidiyalar	25

Savollar: a) amortizatsiya mablagʻlari hajmi, b) milliy daromad (MHTning eski talqiniga koʻra), v) davlat budjeti holatini.

Javoblar, a)xarajatlarga koʻra YaIMni hisoblash formulasiga asoslanib yalpi investitsiyalar hajmini topamiz:

$$I = YaIM - C - G - N_x. \text{ Bunda, } T = 600 - 320 - 90 - 30 = 160.$$

$$A = I - I_{\text{cof}} = 160 - 110 = 50.$$

b) milliy daromad quyidagicha aniqlanadi:

$$MD = YaIM - A - T_n, \text{ Bu Erda, } T_n - \text{ biznesga bilvosita soliqlar.}$$

$$\text{Bunda } MD = 600 - 50 - 30 = 520.$$

v) davlat budjeti holatini aniqlash uchun davlat daromad va xarajatlarini qiyoslash zarur.

$$T = 40 + 30 = 70. \text{ Bunda } T - G = 70 - 90 = - 20, \text{ ya'ni budjet defitsiti mavjud.}$$

3-misol. A va V mamlakatlarning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan yoritib berilgan:

Koʻrsatkichlar	A mamlakat	V mamlakat
1. Moliyaviy yil boshida davlat qarzi qiymati (mln. dol.da)	2000	2000
2. Moliyaviy yil davomidagi nominal davlat xarajatlari(mln.dol.da)	200	200
3. Narx darajasi (yil boshida)	1,0	1,0
4. Inflyatsiyaning yillik sur'ati	0,0	0,1
5. Davlat qarzi bo'yicha nominal foiz stavkasi	0,03	0,13
6. Davlat budjetiga nominal soliq tushumlari	260	260

(mln.dol.da)		
--------------	--	--

Savollar:

a) Mamlakatda davlat qarzlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarining nominal miqdori qanday?

b) Har bir mamlakatda budjet defitsitining rasmiy bahosi qanday?

v) Har qaysi mamlakatda davlat qarzining nominal va real qiymati qanday (yil oxirida)?

Javoblar

a) A mamlakat uchun statistik ma'lumotlardan foydalangan holda, nominal foiz stavkasi va davlat qarzi miqdorini ko'paytirish orqali davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarining nominal miqdoriga ega bo'lamiz:

$$0,03 \times 2000 = 60 \text{ (mln.dol.)}$$

Mamlakat uchun ham xuddi shu tarzda hisoblab chiqamiz: $0,13 \times 2000 = 260$ (mln.dol.).

b) Har qaysi mamlakatda davlat budjeti defitsitini rasmiy (ya'ni nominal) bahosi milliy davlat xarajatlari hamda qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha nominal foiz to'lovlari bilan birga budjetga nominal soliq tushumlari o'rtasidagi farq sifatida yuzaga keladi:

A mamlakat uchun quyidagiga egamiz:

$$200 + (0,03 \times 2000) - 260 = 260 - 260 = 0 \text{ (mln.dol.)}.$$

$$V \text{ mamlakat uchun bunga: } 200 + (0,13 \times 2000) - 260 = 460 - 260 = 200 \text{ (mln.dol.)}.$$

v) Yil oxirida davlat qarzining nominal qiymati yil boshidagi qarz miqdori hamda yil davomida hosil bo'lgan davlat budjetining nominal defitsitiga teng.

A mamlakat uchun quyidagiga egamiz: $2000 + 0 = 2000$ (mln.dol.).

B mamlakat uchun shunga o'xshash: $2000 + 200 = 2200$ (mln.dol.).

Ikki mamlakatda davlat qarzining real qiymatini baholash uchun ularning har qaysisida yil oxiridagi narx darajasini hisoblab chiqish zarur. Dastlabki ikki mamlakatda narx darajasi bir xil va 1,0 teng, lekin yillik inflyatsiya sur'ati boshqacha: A mamlakatda 0,0 va B mamlakatda 0,10.

Binobarin, yil oxirida narx darajasi A va B mamlakatlar uchun 1,0 va 1,1 tashkil etdi (muvofiq tarzda).

Yil oxirida davlat qarzining real qiymati yil oxiridagi narxlar darajasiga bo'lingan uning yil oxiridagi nominal qiymatiga teng. Muvofiq tarzda quyidagiga egamiz:

A mamlakat uchun: $2000 : 1,0 = 2000$ (mln.dol);

B mamlakat uchun: $2200 : 1,1 = 2000$ (mln.dol.);

ya'ni ikkala mamlakatda real qarzdorlik bir xil.

KEYSLAR

Keys 1. Bozor iqtisodiyotida davlatning maqsadi

Bozor iqtisodiyotida davlatning oliy maqsadlari bo'lib iqtisodiy rivojlanish va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi.

Boshqa maqsadlar aynan ushbu ikki masaddan kelib chiqadi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solar ekan birinchidan:

- YaIMni o'stirish;
- ishsizlikni minimallashtirish;
- barqaror baholar darajasini ta'minlash;
- tashqi iqtisodiy muvozanatni, ya'ni to'lov balansining ijobiy (musbat)

qoldig'ini ta'minlash maqsadlarini ko'zda tutadi.

Ikkinchi tartibdagi maqsadlarga foydani ko'paytirish uchun qulay qonunchilik bazasini yaratish va raqobatni keng yoydirish, ishlab chiqarishga innovatsiyalarni joriy qilish, iqtisodiyotning davriy tebranishlari darajasini kamaytirish, atrof muhitning qoniqarli holatini ta'minlab turish, aholini ijtimoiy himoya qilish kabilar kiradi.

Savollar:

Quyidagi savollarga javob bergan holda, xozirgi zamon iqtisodiyotida davlatning asosiy funksiyasi bo'lib ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning huquqiy

bazasini yaratish borasidagi xatti-harakatiga misol keltiring.

- global muammolarni hal etishdagi chora-tadbirlar borasidagi xatti-harakatiga;
- xalqaro miqyosdagi chora-tadbirlar borasidagi xatti-harakatiga;
- yangi institutlar faoliyatini shakllantirish borasidagi xatti-harakatiga;
- inson kapitalini shakllantirish chora-tadbirlar borasidagi xatti-harakatiga.

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Davlatni fuqarolar bilan davlat apparati o‘rtasidagi ijtimoiy shartnoma orqali ta’riflash “prinsipal-agent” muammosini oldingi o‘ringa suradi.
2. Fuqaro davlatga ayrim funksiyalarning bajarilishini yuklagan holda uning tarkibini belgilaydi, ya’ni u “prinsipal”, davlat esa “agent” hisoblanadi.
3. Fuqaro “agent” rovida ishtirok etib, shartnomalar bajarilishining kafili sifatida davlatning qarorlariga bo‘ysunadi.
4. Nazariy jihatdan yakka hisob-kitoblardan hosil bo‘lgan davlat shartnoma vositasi sifatida, murakkab almashuvga ko‘maklashish va uni amalga oshirish vositasi sifatida paydo bo‘ladigan davlatdan mutlaq farq qiladi.
5. Shartnomaviy davlat bu – faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo‘lida kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to‘lashga majburiyat deb emas, balki o‘z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan majburiyat sifatida qaraydi.
6. “Ekspluatatorlik” davlat bu - unda davlatning ham, fuqaroning ham opportunistik xatti-harakatiga to‘siq mavjud bo‘lmagan davlat faoliyatini yoritadi.
7. Korrupsiya – bu faqat rivojlangan mamlakatlarning muammosi.
8. Budjet taqchilligini qoplashning asosiy usullaridan biri bu soliqqa tortish stavkalarini pasaytirish va majburiy yig‘imlarni joriy etish.
9. Davlat mulkini o‘sishi natijasida davlat boshqaruvi pasayib boradi.

10. Qonunning to'g'ridan-to'g'ri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat kriminal iqtisodiyotdir.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Qanday sharoitda shartnomaviy davlat mavjud bo'ladi?

- A. Davlat faoliyatining aniq konstitutsiyaviy doiralarning mavjud bo'lishida.
- B. Faqat fuqarolarning davlat faoliyatida ishtirok etishida.
- C. Mulchilik huquqlarini faqat davlat taqsimlashida.
- D. Muqobil mexanizm sifatida budjet institutining mavjud bo'lishida.

2. Shartnomaviy davlatning maqsadi – nima?

- A. Jamiyat a'zolarining umumiy daromadi (YaIM)ni ko'paytirish, transaksiya xarajatlarini pasaytirish.
- B. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.
- C. Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik, mulchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish.
- D. Kafil roli bilan chegaralanmagan holda iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro hamkorlikka faol aralashish.

3. Ekspluatatorlik davlatining maqsadi – nima?

- A. Jamiyat a'zolarining umumiy daromadi (YaIM)ni ko'paytirish, transaksiya xarajatlarini pasaytirish.
- B. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.
- C. Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik, mulchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish.
- D. Kafil roli bilan chegaralanmagan holda iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro hamkorlikka faol aralashish.

4. Shartnomaviy davlatning vazifasi – nima?

- A. Jamiyat a'zolarining umumiy daromadi (YaIM)ni ko'paytirish, transaksiya xarajatlarini pasaytirish.
- B. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.
- C. Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish.
- D. Kafil roli bilan chegaralanmagan holda iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro hamkorlikka faol aralashish.

5. Ekspluatatorlik davlatining vazifasi – nima?

- A. Jamiyat a'zolarining umumiy daromadi (YaIM)ni ko'paytirish, transaksiya xarajatlarini pasaytirish.
- B. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.
- C. Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik, mulkchilik huquqlarini tafsirlash va himoya qilish.
- D. Kafil roli bilan chegaralanmagan holda iqtisodiy va ijtimoiy o'zaro hamkorlikka faol aralashish.

6. Shartnomaviy davlatda “Prinsipal-agent” muammosini hal etish mexanizmlari qanday?

- A. Prinsipal – fuqaro: demokratik nazorat mexanizmlari va Prinsipal – davlat: qonunga ixtiyoriy bo'ysunish me'yorlarini yoyish.
- B. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.
- C. Shaxslar o'rtasidagi qator bitimlarda kafillik
- D. Iqtisodiy va siyosiy hamkorlikka faol aralashish.

7. Ekspluatatorlik davlatda “Prinsipal-agent” muammosini hal etish mexanizmlari qanday?

- A. Prinsipal – fuqaro: mavjud emas va prinsipal – davlat: majbur qilish va kuch ishlatishdan foydalanish, har tomonlama nazoratni amalga oshirishga urinish.
- B. Davlatni nazorat qiluvchi guruhning siyosiy irodasiga bog'liq.

C. Qat'iy, budjetni tasdiqlashning mavjudligida.

D. Unitar tashkilotlarni shakllantirish orqali.

8. Shartnomaviy davlatda budjet cheklovlari qanday?

A. Qat'iy, budjetni tasdiqlashning demokratik tartiboti bilan cheklangan.

B. Shartnomaviy davlatda budjet cheklovlari yumshoq amalga oshiriladi.

C. Davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning rentasini (soliq tushumlarini) ko'paytirish.

D. Unitar tashkilotlarni shakllantirish orqali.

9. Ekspluatatorlik davlatda budjet cheklovlari qanday?

A. Ekspluatatorlik davlatda budjet cheklovlari yumshoq amalga oshiriladi.

B. Ekspluatatorlik davlatda budjet cheklovlari demokratik tartibot bilan cheklangan.

C. Davlatni nazorat qiluvchi guruhning siyosiy irodasiga bog'liq.

D. Qat'iy budjetni tasdiqlash mavjud emasligida.

10. Shartnomaviy davlatda daromadlarning asosiy moddalari qanday?

A. Birinchi navbatda "bozor" soliqlaridan tushumlar.

B. Musodara soliqlari va soliqdan tashqari tushumlar

C. Alohida guruhlarning rentasidan.

D. QQS va aksiz soliqlaridan.

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Davlat va «prinsipal-agent» muammosining mohiyatini tushuntiring?

2. "Shartnomaviy" davlatga ta'rif bering?

3. "Shartnomaviy" davlat qanaqa sharoitlarda mavjud bo'ladi?

4. "Ekspluatatorlik" davlatining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?

5. Davlat xususiyatini belgilashning qanday usullari va mezonlari mavjud?

6. Korrupsiya va unga qanaqa omillar ta'sir ko'rsatadi?

7. Korrupsiya va jinoyatchilikning xavfsizlikka soladigan tahdidlari nimalardan iborat?

8. Davlat budjetining ijrosi buyicha joriy va utgan yillar oraligidagi takkoslama balansini sharxlab bering?
9. Budjet taqchilligini moliyalash usullarini sharxlab uting?
 10. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlatning imkoniyatlarini mustahkamlashga ko'maklashuvchi mexanizmlar doirasini sharxlab bering?

XV BOB. UY XO‘JALIGI VA UNING XILLARI

15.1. Uy xo‘jaligi iqtisodiyot sub’ekti sifatida

15.2. Uy xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatishida mutaassiblikning roli

15.3. Uy xo‘jaligining xillari

15.4. O‘zbekistonda uy xo‘jaligi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari

Uy xo‘jaligi iqtisodiy faoliyatning muhim sub’yektlaridan biri hisoblanib, nafaqat oila yoki xo‘jalik, balki butun mamlakat aholisining farovonligi uning natijalariga bog‘liq. Uy xo‘jaligi iqtisodiyotning yirik sektori sifatida tijorat korxonalarini va davlat bilan bir qatorda barcha makroiqtisodiy tartibga solish jarayonlarida ishtirok etadi. Shu nuqtai nazardan uy xo‘jaligining tarkibi, maqsadi va asosiy vazifalarini o‘rganish oila biznesi (tadbirkorligi)ni tashkil etish va uni yuritish uchun muhim asos bo‘lbi xizmat qiladi. Ularning turlarini taqqoslash uy xo‘jaligining bozor munosabatlariga mos turini va uning tarkibini tanlash imkonini beradi.

15.1. Uy xo‘jaligi iqtisodiyot sub’ekti sifatida

Uy xo‘jaligi to‘g‘risida so‘z yuritganda, ikki tushuncha-oila va uy xo‘jaligi tushunchalarni chegaralash lozim. Uy xo‘jaliklari bozor iqtisodiyotining muhim sub’yektlaridan biri hisoblanadi. F.T.EgamberdiEv va B. Sharofitdinovlar “Uy xo‘jaliklari o‘ziga xos ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa funksiyalarni bajarib, davlat va jamiyat rivojiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Uy xo‘jaligi alohida olib qaralganda mikroiqtsod darajasidagi sub’ekt, jami uy xo‘jaliklarining yig‘indisi makroiqtisod sub’ekti sifatida olib qaraladi”¹, -deb ta’kidlashadi.

¹ Эгамбердиев Ф.Т., Б.Шарофитдинов. Уй хўжаликлари миллий иқтисодиётни ривожлантиришнинг омили сифатида.//”Миллий иқтисодиётни модернизациялаш стратегияси ва уни ўрта муддатларда амалга оширишнинг устувор йўналишлари” мавзусидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами.2-қисм.-Т.:”Университет”,2014.-37-бет.

B.B.Berkinov uy xo‘jaligi to‘g‘risida so‘z yuritganda, ikki tushuncha-oila va uy xo‘jaligi tushunchalarni chegaralash lozim, degan fikrni olg‘a suradi. Uning fikricha, «Uy xo‘jaligi» tushunchasi tor ma‘noda oila a‘zolariga maishiy xizmat ko‘rsatish, shaxsiy yordamchi xo‘jalikni yuritish, uyda natural holda mahsulot ishlab chiqarish kabi xo‘jalik yuritish bo‘yicha an‘anaviy uy ishlari yig‘indisini oladi. Hozirgi «uy xo‘jaligi» tushunchasi keng ma‘noda o‘ta murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p jihatli bo‘lib, «individ» va «oila» tushunchalari bilan tavsiflanuvchi, lekin ayni paytda unga o‘xshash bo‘lmagan (chunki u bir individdan ham, bir necha oila a‘zolaridan ham tarkib topishi mumkin) iqtisodiy kichik tizim, ya‘ni tashkilot sifatida karib chiqiladi»¹. R.Kouzning “Firmaning tabiati” maqolasida firma tashkiliy tuzilma sifatida “qora quti” deb izohlangan². Bunday tavsif aslida uy xo‘jaligiga nisbatan ko‘proq mos keladi. Uy xo‘jaligi uchun faqat “qora quti”ga “kirish”dagi (ish haqi, soliqlar chiqarib tashlangan davlat tomondan ijtimoiy transfertlar) va undan “chiqish”dagi (inson kapitali, mehnat, jamg‘arma, iste‘mol) omillar ma‘lum. J.Gelbreyt ta‘kidlaganidek, uy xo‘jaligi odatda iste‘mol qiluvchi va ishlovchi shaxs bilan tenglashtiriladi hamda tashkilotni tavsiflovchi hokimlik munosabatlari bilan bog‘liq bo‘lmagan holda ko‘rib chiqiladi³.

B.B.Berkinovning fikricha, « ko‘pincha uy xo‘jaliklari oilaning iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va statistik belgilanishi sifatida karib chiqiladi. Oila an‘anaviy tarzda nikoh-qarindoshlik munosabatlari, birgalikda hayot kechirish, umumiy budjet va birgalikda xo‘jalik yuritish belgilari bilan tavsiflanadi... Oila xo‘jalik nuqtai nazaridan, birinchi navbatda, uy xo‘jaligi negizi sifatida qarab chiqiladi. Bunda xo‘jalik-iqtisodiy tavsiflar, insonlarni kichik guruhga birlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar birinchi o‘ringa qo‘yiladi. Shunday qilib, «uy xo‘jaligi» tushunchasining mazmuniy ahamiyati ijtimoiy-iqtisodiy yo‘nalishga ega baladi. U oilaning ijtimoiy tarkibi, daromad-mulkiy hamda sarf-xarajat va iste‘mol qilish

¹ Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: Ўқув қўлланма. 2-нашр, қайта ишланган. – Т.:Иқтисодиёт, 2013.- 172-бет.

² Коуз Р. Фирма, рынок и право. – М.: Дело, 1993. –С.41.

³ Гэлбрейт Дж.К. Экономические теории и цели общества. – М.: Прогресс, 1976.-С.154.

salohiyati bilan tavsiflanadi». B.B. Berkinov uy xo‘jaligi va oila tushunchalarining farqli belgisi sifatida ularning asosiy maqsadli funksiyalaridagi farqasos qilib oladi. Shundan kelib chiqib, u «oilaning asosiy maqsadli funksiyasi – insonni dunyoga keltirish, uy xo‘jaligini esa – inson kapitalini takror tiklash va saqlash... Inson kapitalini takror tiklash tushunchasi ko‘p qirrali jarayon mohiyatini chuqurroq aks ettirgan holda nafaqat shaxs sifatida insonni va jamoa sifatida uy xo‘jaligini ham biologik, ham ijtimoiy, ham xo‘jalik-iqtisodiy jihatdan tiklash, balki uning hayoti va faoliyati shart –sharoitlarini ham tiklashni o‘z ichiga oladi», -deb ta’kilaydi.

H.P.Abulqosimovning fikricha, uy xo‘jaligi – iqtisodiyotning iste’molchilik va ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko‘rsatuvchi asosiy tarkibiy birlik bo‘lib, uning doirasida moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida o‘z ist’moli uchun mahsulotlar hamda sotish, ayirboshlash maqsadida tovar va xizmatlar ishlab chiqariladi va iste’mol qilinadi, shuningdek, bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaliklari mulkdor va ishlab chiqarish omillarini Etkazib beruvchilar hisoblanadi³. Iqtisodiyot sub’ekti sifatida uy xo‘jaliklari inson kapitalini kengaytirilgan takror ishlab chikarishni ta’minlaydi. Uy xo‘jaliklarining iqtisodiy resurslarni sotishdan olingan pul daromadlari shaxsiy ehtiyojni qondirish hamda xo‘jalik faoliyatini yanada kengaytirish uchun sarflanadi. Uy xo‘jaligining tarkibiga kiruvchi tadbirkor kapital egasi bo‘lib, resurslar bozoriga kapital resursini Etkazib beradi. Ishchi esa ishchi kuchi (mehnatni), tabiiy resurslar egalari esa ularni resurslar bozoriga Etkazib beradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida uy xo‘jaligining namoyon bo‘lish shakli oila bo‘lib, unga tegishli xususiyatlar oilaga ham tegishli bo‘ladi. Oila qarindoshlik aloqalari va maishiy hayot umumiyligi asosida ongli ravishda tashkil etilgan

¹ Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: Ўқув қўлланма. 2-нашр, қайта ишланган. – Т.:Иқтисодиёт, 2013.- 172-бет.


² Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: Ўқув қўлланма. 2-нашр, қайта ишланган. – Т.:Иқтисодиёт, 2013.- 175-бет.

³Абулқосимов Х.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тadbirkorликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари.-Т.:”Университет”, 2015.-48-49 бетлар.

kishilarning kichik guruhidan iborat. Oilaning hayot faoliyati shaxsning, u a'zo bo'lgan oilaning va jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish maqsadida amalga oshiriladi. Amaliy hayotda oila ko'pchilik hollarda esa erkak va ayolning o'zaro birikishidan iborat bo'lib, o'zining uy xo'jaligini mustaqil ravishda yuritadi. An'anaga ko'ra oila nikohdan boshlanadi. Iqtisodiyot nazariyasi nuqtai nazaridan nikohlar erkak va ayolning bir-biriga mosligini aniqlaydigan "bozor"da shakllanadi. Samarali bozorda erkak va ayolning bir - birlariga mosligi nazariyasi asosida o'zaro tanlashlari yuz beradi. Oilada har bir tomon ochiq yoki bilvosita ma'lum majburiyatlarni oladilar. Bunda ular tomonlarning huquq va imtiyozlarini tan oladilar.

Nikohni iqtisodiy nuqtai nazaridan har qanday firma yoki tashkilot ustaviga o'xshatish mumkin. Xuddi tashkilotda bo'lgani kabi oilaning o'ziga yarasha hayot kechirish qonun-qoidalari vujudga keladiki, ular cheklangan yoki moslashuvchan bo'lishi mumkin. Shuningdek, oilani investitsiya loyihasiga o'xshatish mumkin. Chunki, bir muncha vaqt o'tgach, ushbu nikohdan ma'lum natija, samara olish qo'lda tutiladi.

Oila deganda, bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyliigi bilan birlashgan guruh tushuniladi. Uy xo'jaligi esa umumiy vazifalar, yashash joyi, budjet va odatda oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o'zida namoyon qiladi. Boshqacha aytganda, oila faoliyati ko'plab o'lchamlarni o'z ichiga oladi: biologik, demografik, ruhiy, ijtimoiy va b. Uy xo'jaligi faoliyati esa oilani faoliyat sohasining birgina-iqtisodiy turiga yo'naltiradi. Uy xo'jaligining asosiy funksiyasini *inson kapitalini* shakllantirish, undan foydalanish va saqlash deb belgilash lozim. Bu o'z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko'nikmalari va mehnatga tirishqoqligining yig'indisi sifatida tushuniladi. 15.1.1-rasmda inson kapitalini shakllantirish bo'yicha uy xo'jaligi faoliyatining tarkibi izohlangan. Uy xo'jaligini yuritish uning a'zolarining oila biznesida ishtiroki hamda oila kapitalini uni shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirish asosiy masala hisoblanadi.



15.1.1-rasm. Inson kapitalini shakllantirish bo'yicha uy xo'jaligi faoliyatining xususiyatlari

Institutsional nazariya uy xo'jaligini firmadan va davlatdan farq qiluvchi tashkilotning alohida shakli sifatida tahlil qilishga e'tibor qaratadi. Hokimlik munosabatlarining uy xo'jaligi doirasida yuzaga keladigan o'ziga xoslik shundan iboratki, ular *oddiy* va *individuallashtirilgan* xususiyatga ega(qarang:15.1.1-jadval).

Hokimlik munosabatlarining xususiyatlari

Tashkilot xillari	Hokimlik munosabatlarining murakkablik darajasi	Hokimlik munosabatlarining individuallashtirish darajasi
Firma	Sodda yoki murakkab	Pozitsion
Davlat	Murakkab	Pozitsion
Uy xo'jaligi	Sodda	Individuallashtirish

Uy xo'jaligining asosida yotuvchi hokimlik munosabatlari haqidagi tezis aniqliklar kiritilishini talab qiladi. Bir tomondan, uy xo'jaligining faoliyat ko'rsatishi quyidagilarni nazarda tutadi:

- bolalar harakatlarini nazorat qilish huquqining ota-onalarga topshirilishi, buning o'rniga bola uchun u haqida qayg'urish va uni manfaatlarining ta'minlanishi kafolatlanda;

- oilaviy budjetning shakllanishi va sarflanishi ustidan nazorat qilish, huquqining uy xo'jaligining odatda "oila boshlig'i" deb nomlanuvchi bir a'zosiga topshirilishi, u barcha oila a'zolarining manfaatlarini ko'zlab harakat qiladi va ularga o'zlari alohida erisha olishi mumkin bo'lgandan ortiq darajadagi farovonlikni ta'minlaydi.

Umuman uy xo'jaligining maqsadi – o'z a'zolariga kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat'i nazar kafolatlangan farovonlik darajasini ta'minlashdan iborat. Uy xo'jaligining himoya funksiyasi o'zaro yordam va oila a'zolarini moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning rasmiy va norasmiy me'yorlariga asoslanadi.

Ikkinchi tomondan, uy xo'jaligi shunday tarzda tashkil etilishi mumkinki, ya'ni u o'z xususiyatiga ko'ra a'zolarining mulkiy va boshqa huquq va majburiyatlari aniq belgilangan yollash to'g'risidagi shartnomaga yaqin keladi.

Bunday holda birgalikda xo‘jalik yuritish to‘g‘risida qaror qilish farovonlikning ma’lum darajasiga rozi bo‘lishni emas, balki uni ko‘paytirishga intilishni aks ettiradi. Unda umr yo‘ldoshini tanlash va bolalarning tug‘ilishi to‘g‘risida qaror qabul qilish sotuv haqida shartnoma tuzish yordamida iste’mol tanlovining alohida holati bo‘lib qoladi. Lekin, so‘nggi holatda biz uy xo‘jaligidan yiroqlashamiz, chunki birgalikda mulkka egalik qilish rejimidan va birgalikdagi budjetni shakllantirishdan voz kechish ehtimoli paydo bo‘lishi mumkin. Shuning uchun bundan buyon uy xo‘jaligini hokimlik munosabatlarining, binobarin, tashkilotning alohida varianti sifatida ko‘rib chiqamiz.

Uy xo‘jaligi – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir. Uy xo‘jaligining asosida hokimlik munosabatlari yotadi – birgalikdagi iqtisodiy faoliyat ustidan nazorat qilish huquqi uning bir a’zosiga – “oila boshlig‘i”ga o‘tadi.

15.2. Uy xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatishida mutaassiblikning roli

Firmaning faoliyat ko‘rsatishini ko‘rib chiqishda biz mutaassiblikning axborot olish xarajatlari va monitoring hamda opportunistiklikdan ogohlantirish xarajatlarini pasaytirishdagi rolini alohida ko‘rsatdik. Firmadan farqli ravishda, uy xo‘jaligining faoliyati ko‘proq mutaassiblik xususiyatiga ega. Buning sababi umuman transaksiya xarajatlarini tejashda emas, chunki uy xo‘jaligi doirasida barcha o‘zaro munosabatlar ajratilgan bo‘lib, nazorat qilish oson, shuningdek ijtimoiy choralarni qo‘llash uchun imkoniyatlar mavjud. Mutaassibliklar rolini izohlash yo‘llari bir nechta.

Birinchidan, o‘z atrofida o‘ziga ma’qul keladigan muhitni yaratishga bo‘lgan ehtiyoj insonga xos xususiyatdir. Bozorda yoki fuqarolik kelishuvi sohasida harakat qila turib, inson xoh u bozor kon’yunkturasi yoki siyosiy beqarorlik bo‘lsin, o‘zgaruvchan holatlar bilan bog‘liq asablarning taranglashuviga doimiy


ravishda duch kelib turadi. Oila va uy xo'jaligini tashkil etish insonga o'zini kundalik hayotining bir qismini mutaassiblik yordamida, ya'ni uzluksizlik va oldindan bilish tamoyillariga muvofiq ravishda tashkil etish imkonini beradi. Odatiy kundalik hayot monandlik, insonning shaxsiy xususiyatlariga moslashgan holda xarakatlarning ajrimligi va oldindan aytib berilishini ta'minlovchi mutaassibliklar doirasida kechadi.

Aynan mutaassiblik bilan himoyalangan kenglik doirasida dastlab ishonch me'yorini paydo bo'ladi. Olimlarning fikriga ko'ra, bolada atrofdagi odamlarga bo'lgan ishonchning paydo bo'lishi ota-onalarning hatti-xarakatlariga bog'liq, chunki ular bola unda o'zini juda qulay his qiladigan tashqi muhitdan himoyalangan kenglikni hosil qilgan holda u haqida qayg'urishadi. Ushbu kenglikda bola o'z hatti-harakatlarini to'liq nazorat qila oladi, harakatlari natijasiga tashqi omillar deyarli ta'sir qilmaydi.

Ikkinchidan, atrofdagi odamlar bilan o'zaro hamkorlikdagi ko'plab "o'yin qoidalari" (kelishuvlar: bozor, industrial, fuqarolik va b.) mavjud sharoitda insonda u o'zi bilan o'zi yolg'iz qolishi mumkin bo'lgan sohani shakllantirishga ehtiyoj tug'iladi. Boshqacha aytganda, insonda o'zi uchun kundalik hayotning uning boshqa kishilar va tabiat bilan muloqot aloqalari uning shaxsiyatli o'xshashlikka erishishi va uni saqlashga ko'maklashuvchi muhitni yaratish ehtiyoji mavjud. Ushbu talab ikki sohani – shaxsiy va oshkora hayotni chegaralash orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy hayot sohasi oila va uy xo'jaligini ham o'z ichiga olib, oshkora hayot sohasidan shaxsiy hayotga aralashmaslikning qonuniy kafolatlari va mutaassibliklar bilan chegaralangan. Aynan insonning o'zi tomonidan va uning ehtiyojlari zahirida barpo etilgan mutaassibliklar u o'zi bilan o'zi yolg'iz qoladigan kenglikni chegaralaydi.

15.3. Uy xo'jaligining xillari

Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatishidagi mutaassibliklar rolini tahlil qilish uning tarkibining u harakat qilayotgan institutsional muhitning o'ziga xos xususiyatlari bilan shartlanganligini tushunishga yordam beradi. Haqiqatdan ham, uy xo'jaligi insonni tashqi muhitning noaniqligidan, unga yuklatiladigan o'yin normalari va qoidalaridan, kundalik muammolarga ortiqcha e'tibor qaratishdan saqlaydi. Binobarin, institutsional muhit xususiyatlari (noaniqlik darajasi, rasmiy va norasmiy me'yorlarning o'zaro nisbati, sodir bo'layotgan o'zgarishlar tezligi) uy xo'jaligining tarkibiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, firma yoki davlatning universal modeli bo'lmagani kabi, uy xo'jaligining ham universal modeli mavjud emas. Shu munosabat bilan uy xo'jaligining uchta xilini yoritishga harakat qilamiz: bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi, buyruqbozlik iqtisodiyoti instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi (15.3.1-rasm).



15.3.1-rasm. Uy xo'jaliklarining xillari.

Buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo'jaligi. Buyruqbozlik iqtisodiyotida inson kapitalini tiklash bir qator muammolarga duch keladi. Tashqi muhitning barqaror xususiyatga egaligiga qaramasdan, uy xo'jaligining kundalik hayoti iste'mol

tovarlari va xizmatlarning tanqisligi bilan murakkablashadi. Boshqa holatda mahsulotlar yoki kiyim-kechak xarid qilishning mutaassiblik tadbiri ko'p vaqt, kuch va ruhiy xayajonlarni talab qiluvchi jarayonga aylanadi. Bundan tashqari, totalitar davlat xususiy sohani himoya qilishning faqatgina kafolatlarini o'zida namoyon qiladi. Umuman buyruqbozlik iqtisodiyoti doirasida davlat tomonidan himoyalangan shaxsiy hayot sohasining mavjud bo'lishi haqida gapirib bo'lmaydi. Bu bilan oila va uy xo'jaligini kuchaytirishga bo'lgan talab kuchayadi: faqat ushbu tashkilotlar insonning shaxsiy muhitini himoya qilishga qodir.

Uy xo'jaligining tarkibi va uning xo'jalik aloqalari ko'p jihatdan aynan o'zaro xizmatlar ko'rsatish ("sen-menga, men-senga") tamoyili bo'yicha faoliyat ko'rsatgan "g'arazli aloqalar"ni barpo etish jarayoni bilan shartlanadi. Taqchillik iqtisodiyotida uy xo'jaligi eng noyob resurslarni birlashtirish natijasida paydo bo'ldi. Bunday resurslar tanqis tovarlar va xizmatlarning o'zlari emas, balki ularga "ruxsat berish xizmatlari" edi.

Ruxsat berish xizmati uchun hech qanaqa shaxsiy mablag'lar kerak emas edi. "Shaxsiy cho'ntakdan emas, balki davlat yoki jamiyat cho'ntagidan yordam, xizmat ko'rsatish sohasiga esa – "o'zga" mijozlar hisobidan ko'rsatildi. Tanqis tovar va resurslardan foydalanishda ustunlik partiya-davlat apparati, savdo, transport xodimlari, tez-tez xorijga safar uyushtiruvchilarga (artistlar, sportchilar, diplomatlar), shuningdek, alohida mintaqa va shaharlarning oddiy fuqarolariga (ro'yxatga ko'ra) berilardi.

Taqchillik iqtisodiyotida uy xo'jaligining shakllanishini iqtisodiy jihatdan asoslash uning negizida tanqis tovar va resurslardan foydalanishni kengaytirishdan iborat bo'lgan. Partiya-davlat ierarxiyasidagi o'rniga qarab noyob resurslardan foydalanishning tabaqalanishi uy xo'jaligi va davlatning o'zaro munosabatlarining alohida xilini shartlab beradi. Uy xo'jaligi budjet cheklovlari korxonaning budjet cheklovlariga qaraganda ancha qat'iy bo'lishiga qaramasdan, uy xo'jaligi tomonidan davlatdan olinadigan pul (ijtimoiy transfertlar) va pul bo'lmagan (nufuz, taqchil tovarlardan foydalanishda ustunlik) shakldagi "renta daromadlari"ni hisobga olish lozim. Uy xo'jaligi davlatga qaramligining yuqori darajasi

buyruqbozlik iqtisodiyotining *etokratik* tizim sifatida tavsiflash imkonini beradi: “U yoki bu ijtimoiy guruh davlat hokimiyati boshqaruviga va davlat resurslarini taqsimlash tarmoqlariga qanchalik yaqin bo‘lsa, uning iqtisodiy va ijtimoiy mavqei shunchalik yuqori bo‘ladi”¹. Shuning uchun uy xo‘jaligini birinchi galda davlat siyosatining unga partiya-davlat pag‘onasidagi mavqei asosida rentani olish imkonini beruvchi yo‘nalishlari qiziqtiradi, bular: pensiya, uy-joy kommunal siyosati, ijtimoiy ta‘minot siyosati, ta‘lim sohasidagi siyosat.

Bozor iqtisodiyotida uy xo‘jaligi. Bozor instituti uy xo‘jaligini kamyob tovarlar va xizmatlarni qidirish hamda ular uchun navbatda turish bilan bog‘liq vaqtning yo‘qotilishidan xalos etadi – xarid qilish jarayoni mutaassiblikka aylanadi. Masalan, shanba kuni kechqurun va dam olish kuni ertalabdan savdo do‘nonlarida xaridorlar ko‘p bo‘ladi, shu kunlari odamlar an‘anaviy tarzda keyingi xaftaga Etadigan miqdorda xarid qilishadi. Xaridning mutaassiblikka aylanishi natijasida bo‘shab qoladigan qisqa vaqtli imkoniyatlar nima uchun sarflanadi? Birinchidan, xarid xatti-harakatining o‘zini optimallashtirishga. Agar buyruqbozilik iqtisodiyotida nimani xarid qilish mumkin bo‘lsa, o‘sha narsani sotib olish muhim hisoblansa, bozor iqtisodiyotida sifat va narxning eng yaxshi o‘zaro nisbati asosida iste‘mol qilishda eng ko‘p foydani ta‘minlovchi narsani xarid qilish muhim sanaladi. Iste‘molni optimallashtirish ishlab chiqaruvchilarning reklama yordamida talabni tartibga solishga intilishi bilan murakkablashadi. Reklama xarid jarayonini mutaassiblikka butunlay aylanishiga to‘sqinlik qilgan holda, doimiy ravishda yangi talablarni shakllantiradi.

Ikkinchidan, uy xo‘jaligining u uchun asosiy daromad manbai bo‘lgan mehnat bozorida ishtirok etishi doimiy nazoratni talab etadi. Uy xo‘jaligi mehnat bozoridagi bandlikning muqobil varinatlari, uy xo‘jaligini yuritish va bo‘sh vaqt o‘rtasida tanlagan holda, mehnat bozorida o‘z inson kapitalini eng foydali tarzda sotishga intiladi. Bir tomondan, uy xo‘jaligining a‘zosi egalik qiladigan inson kapitalining o‘ziga xoslik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, uy xo‘jaligini yurtish bilan emas, balki o‘z mehnat resurlarini bozorda sotish bilan shug‘ullanish, shunchalik

¹ Радаев В. Экономическая социология. –М.: Аспект Пресс, 1997. –С. 309.

foydali. Ikkinchi tomondan, inson kapitalining o'ziga xoslik darajasi qanchalik past bo'lsa, uning egasi uchun uy xo'jaligini yuritish bilan chegaralanish shunchalik asoslidir. O'z navbatida, bandlikni optimallashtirish ham uy xo'jaligi doirasida amalga oshadi.

Uy xo'jaligining asosiy daromad manbalarini bozor bilan belgilanadigan sohaga yo'naltirish uning davlatdan kam qaram bo'lishini ta'minlaydi. Davlatning faoliyati uy xo'jaligini faqatgina davlat mehnat bozorida bitimlar kafolati sifatida ishtirok etish darajasida va u (soliq kodeksi orqali) uy xo'jaligi daromadining bir qismiga da'vogar bo'lishi me'yorida qiziqtiradi.

O'tish iqtisodiyotida uy xo'jaligi. Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatadigan institutsional muhitning noaniqligi va beqarorligi mutaassibliklarning mavjud bo'lishini shubha ostiga qo'yadi. Bunday sharoitda mutaassibliklar doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishini talab qiladi, ya'ni ular inson ongining ongsiz sohasidan ongli va doimiy e'tiborni talab etuvchi sohasiga o'tadi. Islohotlar qanchalik faol amalga oshirilsa, ularning mutaassibliklarga nisbatan Emiruvchi ta'siri shunchalik kuchli bo'ladi. Bundan o'tish iqtisodiyotida uy xo'jaligining maqsadi kelib chiqadi: uy xo'jaligining himoya funksiyasini saqlab qolishga intilish borgan sayin ortib boruvchi sa'y-harakatlarni va imkon qadar ko'p e'tiborni talab etadi.

Asosiy faoliyatdan olinadigan daromadlar va renta daromadlari (pensiylar, ijtimoiy to'lovlar, xodimning obro'si) bilan yuzaga keladigan noaniqliklar uy xo'jaligini o'z faoliyatini maksimal tarzda diversifikatsiya qilishga majbur etadi, axir har qanday daromad manbai ham barqaror manba sifatida qaralishi mumkin emas. A'zolarining inson kapitalini takror ishlab chiqarishga aniq ixtisoslashuviga tayanadigan bozor xilidagi uy xo'jaligidan farqli o'laroq, o'tish iqtisodiyotidagi uy xo'jaligi ishchi kuchini mehnat bozorida sotish bilan ham, ijtimoiy transfertlarni iste'mol qilish bilan ham, shuningdek, tomorqa Eri yordamida o'zini o'zi ta'minlash va ko'plab boshqa faoliyat turlari bilan ham shug'ullanadi.

15.4. Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning institutsional asoslari

Bugungi kunda inson xavfsizligi tushunchasi iqtisodiyot va boshqa sohalarida keng o'rganilmoqda. "Xavfsizlik" tushunchasi ko'p qirrali bo'lib, turli ma'nolarda talqin etiladi. O'zbek tilining izohli lug'atida "xavf-qo'rqinch, qo'rqish, vahima, hadiksirash, biror xatarli hodisa yoki falokat sodir bo'lish ehtimoli, xatar, xavotirlanish, xavfsirash, xavotir, tashvish" ma'nosida, "xavfsizlik - xavf-xatarning yo'qligi; xavf bo'lmagan holat, xavfsizlik ta'minlangan", deb ta'rif berilgan¹.

Bizning nazarimizda xavfsizlik ko'p qirrali bo'lib, u butun insoniyat, davlat yoki iqtisodiy tizimning normal faoliyat yuritishi, rivojlanishi uchun noxush, salbiy, zararli ta'sirlardan, xavf-xatarlardan saqlanish, himoyalanih holatini ifodalaydi. Xavfsizlik umumiy tarzda ziyon Etkazish uchun potensial sharoitlarning yo'qligi, xavfdan saqlanish, himoyalanih va ishonchlilikni anglatadi. Bu tushuncha kishilar va jamiyat hayot faoliyatining aniq spetsifik sohalarida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi². Xavfsizlik tushunchasining milliy xavfsizlik; ekologik xavfsizlik; sanoat xavfsizligi; yong'in xavfsizligi; axborot xavfsizligi; harbiy xavfsizlik; iqtisodiy xavfsizlik va boshqa bir qancha turlari mavjud.

Akademik L.I.Abalkin iqtisodiy xavfsizlikka milliy iqtisodiyotning mustaqilligini, barqarorligini va mustahkamligini, doimo yangilanib, o'zidan o'zi takomillashib borishini ta'minlovchi shart-sharoit va omillar yig'indisi deb ta'rif bergan³. Uning ushbu ta'rifini akademik Q.X.Abduraxmonov boshchiligidagi o'zbekistonlik olimlar ham qo'llab-quvvatlagan⁴.

D.V.GordiEnkoning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik milliy xo'jalikning ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanih holati bo'lib, bu holat jamiyatning izchil

¹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж.И.В. Тартибот-Шукр. Тахрир хайъати. Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.: ЎзР ФА Тил ва адабиёт ин-ти.-Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти.2008.-372-бет.

² Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Ҳ. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019.-11-бет.

³Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение [Текст] / Л.И.Абалкин //Вопросы экономики, 1994.-№12.-С.4-14.

⁴Экономическая теория. Учебник для студентов вузов. // Колл. Авт: К.Х.Абдурахманов и др./.-Т.: Шарк. 1999. – С.560.

rivojlanishini, ichki va tashqi salbiy omillar ta'sir ko'rsatayotgan sharoitda ham iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydi¹.

V.K.Senchagovning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyot va hokimiyat institutlarining shunday holatidirki, bunday holatda mamlakat milliy manfaatlarining kafolatli himoyalanganligi, mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ijtimoiy yo'naltirilganligi, ichki va tashqi jarayonlar rivojlanishining eng noqulay sharoitlarida ham mudofaa salohiyatining Etarli darajada ta'minlanganligini ifodalaydi². Keyinchalik u iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini nafaqat milliy manfaatlarining himoyalanganligi, shu bilan birga hokimiyat institutlarining mamlakat iqtisodiy rivojlanishining milliy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini vujudga keltirish qobiliyati va tayyorligi deb ta'riflaydi³.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib, bizning nazarimizda, iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyot va uning sub'yektlarining mustaqilligini, barqarorligi va bardoshlilikini, izchil yangilanib va takomillashib borishi holatini hamda aholi, shuningdek, alohida olingan inson shaxsining turmush darajasi va sifatiga xavf soluvchi ichki va tashqi tahdidlardan ishonchli himoyalanganligini ifodalaydi⁴.

Iqtisodiy xavfsizlikning iqtisodiyot sub'yektlari nuqtai nazardan shakllaridan biri shaxs iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Inson doimo yaxshi yashash, o'zining turmush darajasining oshib borishi, yashash sharoitlarining yaxshilanishiga, tinch, xavf-xatarsiz yashashga umid qiladi va bunga ishonchli kafolat bo'lishini istaydi.

A.P.Gaydar, E.I.Mixaylik va boshqalar shaxsning iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy sharoitlarini himoya qilishning kafolatlangan va ijtimoiy rivojlanishi va

¹ Гордиенко Д.В. Основы экономической безопасности государства. Курс лекций: учеб-метод пособие. –М.: Финансы и статистика; ИНФРА-М, 2009. –С.8.

²Қаранг:Экономическая безопасность: Производство, финансы, банки./под ред. В.К.Сенчагова.- М.:Финстатинформ, 1998.-С.23.

³Қаранг: Сенчагов В.К.Мировой финансовый кризис и экономическая безопасность России. Анализ, проблемы и перспективы.-М.: Экономика, 2010.-С.54.

⁴ Абулқосимов М.Ҳ.Бозор иқтисодиёти шароитида шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси қўл ёзмаси.-Т., 2020 йил, 17-бет.

ijtimoiy muhofazasi ta'minlangan holati deb ta'riflaydilar¹. G'arb mamlakatlari nashrlarida shaxsning iqtisodiy xavfsizligi mamlakatda hayotiy zarurat deb hisoblanadigan asosiy qadriyatlarning minimal maqbul darajasiga qat'iy tahdidlarning yo'qligi deb izohlanadi. Bu tahdid tashqi iqtisodiy parametrlarning o'zgarishi natijasida mavjud ijtimoiy-siyosiy tizimni Emiradigan sharoitlar paydo bo'lganda vujudga keladi². Boshqa mualliflar shaxs iqtisodiy xavfsizligini asosan qashshoqlik va aholi daromadlari tabaqalanishining chuqurlashuvi bilan bog'liq ravishda izohlaydilar³.

Ta'kidlash lozimki, kishilar daromad, shaxsiy boyligi, turmush farovonligi darajalari hamda jamiyatda va mamlakat erishgan ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli bo'yicha bir-birlaridan farqlanadilar. Ular aholining turli ijtimoiy-iqtisodiy tabaqasiga, stratga mansub bo'ladilar. Shu boisdan aholining har bir tabaqasi uchun shaxsiy iqtisodiy xavfsizligi turlicha mazmunga, tavsifga ega bo'ladi. Bizning fikrimizcha, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi – uning hayotiy manfaatlarining, ya'ni yashash va shaxsiy daxlsizlik, erkin mehnat qilish, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, mulkdor bo'lish, hayotiy iste'mol ehtiyojlarini qondirish, salomatligini saqlash, bilim olish va kasbga ega bo'lish, qariganda ijtimoiy ta'minot olish huquqlarining himoyalanganligini ifodalaydi⁴. Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash jamiyat, davlat, korxonalar iqtisodiy xavfsizliklari bilan uzviy aloqadorlikda va bog'liqlikda bo'ladi hamda davlat hokimiyati organlari, mehnat jamolari, ko'pchilik kishilar faoliyati va ularning

¹См.:Экономическая безопасность личности // <http://newinspire.ru/1/2/25/1071-ekonomicheskaya-bezopasnost-lichnosti.html>; Михайлик Е.И. «Современные угрозы экономической безопасности личности в России»//<https://xreferat.com/84/2892-2-sovremennye-ugrozy-ekonomicheskoiy-bezopasnosti-lichnosti-v-rossii.html>;ГайдарА.П. Безопасность жизнедеятельности - Учебное пособие // <http://www.newsocio.ru/nspgs-333-1.html>

²Гуреева М.А.Экономическая безопасность личности в современной России //Международный научный журнал “Символ науки”,№4 2016год.-С.58.

³Обеспечение экономической безопасности личности как многоуровневый интегрированный процесс//<http://www.strategplann.ru/estatiw/obespechenie-ekonomicheskoy-bezopasnosti-lichnosti-kak-mnogourovnevuyj-integrirrovannyj-protsess.html>

⁴Қаранг: Абулқосимов М.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида шахсинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари // Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2017й. 5-сон. 47-48-бетлар; Абулқосимов М.Х. Ўзбекистонда барқарор иқтисодий ўсиш шахс иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнингмуҳим шартлари// Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2018й. 4-сон, 57-58-бетлар.

o‘zaro ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Shu boisdan, bizning fikrimizga ko‘ra, shaxsning iqtisodiy xavfsizligi iqtisodiy kategoriya sifatida kishilar o‘rtasida shaxsning ijtimoiy himoyalanganligi va ijtimoiy rivojlanishini ta‘minlash, uning hayotiy manfaatlarining kafolatli himoyalanganlik holatini vujudga keltirish jarayonlarida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi. Har bir inson uchun shaxsiy iqtisodiy xavfsizlik muvaffaqiyatga erishishning hamda jamiyatdagi barqarorlik va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi¹.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlar bo‘yicha iqtisodiy adabiyotlarda turli qarashlar va tavsiflar mavjud. A.P.Gaydarning fikricha shaxsga nisbatan xavf-xatar va tahdidlar quyidagilardan iborat:

- aholining ish bilan past darajadagi bandligi va ishsizlik;
- inflyatsiya;
- kambag‘allik va qashshoqlik;
- shaxs va oilaning degradatsiyaga uchrashi;
- iqtisodiyotning kriminallasuvi;
- ta‘lim, sog‘liqni saqlash va fanning huquqiy normalar bilan tartibga solinmagan holda tijoratlashuvi;
- ta‘lim, aholining bilim darajasining pasayishi;
- bepul tibbiy xizmat sifatining pasayishi;
- aholi turmush darajasining pasayishi va umr uzoqligining qisqarishi².

Ushbular haqiqatda inson hafvsizligiga tahdidlar hisoblanadi. Ammo bu tahdidlar insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan yoki ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vujudga keladigan tahdidlar bo‘yicha turlarga ajratilmagan.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligining tarkibiy elementlari (komponentlari) va ularga xavf soluvchi tahdidlarning birmuncha keng qamrovli klassifikatsiyasi O.A.Stepicheva, V.V.Chernova, M.A.Kotelnikovalar tomonidan ishlab chiqilgan.

¹Абулқосимов М.Х.Бозор иқтисодиёти шароитида шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси кўл ёзмаси.-Т., 2020 йил, 21-22-бетлар.

²Гайдар А.П. Безопасность жизнедеятельности. Учебное пособие.// Источник: <http://www.newsocio.ru/nspgs-333-1.html>.

Ular shaxsning iqtisodiy xavfsizligining oziq-ovqat va uy-joy bilan ta'minlanish, aholini takror ishlab chiqarish, huquqbuzarlik, sog'liqni saqlash, ekologiya, mehnat munosabatlari, madaniyat va ta'lim, axborot bilan ta'minlanish, daromadlar bo'yicha tabaqalanish va moliyaviy xavfsizlik sohalaridagi shakllarini hamda ularning har biriga xavf soluvchi tahdidlarni tavsiflaganlar¹.

M.H.Abulqosimovning fikriga ko'ra, shaxsning iqtisodiy xavfsizligiga tahdidlarni shaxsning o'ziga bog'liq bo'lgan ichki hamda ichki va tashqi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar va tabiiy omillar ta'siridagi tashqi tahdidlar guruhiga ajratish orqali yanada to'ldirish maqsadga muvofiqdir².

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi, siklik o'zgarishlar, bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar, iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik va inflyatsiya darajasining boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi, hududlar rivojlanishidagi nomutanosiblikning kuchayishi, tabiiy yoki inson, kapital resurslarining Etarli emasligi, ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaliigi, mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi, tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar hamda jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar, mamlakat tashqi qarzining haddan tashqari o'sib ketishi sababli ham vujudga kelishi mumkin³.

Iqtisodiy sohada inson shaxsiga nisbatan tajovuz reketda, tovlamachilik va firibgarlikda o'z ifodasini topadi. Shaxsning xavfsizligiga nisbatan jinoiy mazmunga ega tahdidlar mamlakatda kriminallashuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi orqali vujudga keladi (qarang: 15.4.1-jadval).

15.4.1-jadval

¹ Qarang: Котельникова М.А. Трансформация модели экономической безопасности личности в современных условиях. Диссертация на соис. Уч.степени к.э.н.. Тамбов, 2015.-С.26; Степичева О.А., Чернова В.В., Котелникова М.А.Целевая функция и угрозы экономической безопасности личности//Социально-экономические явления и процессы. Т. 10, № 2, 2015-С.88.

²Абулқосимов М.Х. Шахс иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар ва уларнинг олдини олиш йўллари.// Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2017й. 12-сон, 21-бет.

³ Абулқосимов М.Х. Шахс иқтисодий хавфсизлигига таҳдидлар ва уларнинг олдини олиш йўллари.// Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2017й. 12-сон, 21-22-бетлар.

Shaxs iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahdidlar¹

Tashqi tahdidlar	Ichki tahdidlar
mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sur'atlarining jamiyat ehtiyojlari o'sishiga nisbatan orqada qolishi	shaxsning o'z oldiga noto'g'ri maqsadlarni qo'yishi
bozor kon'yunkturasidagi tebranishlar, siklik o'zgarishlar, iqtisodiy inqirozlar	bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yo'qligi
Aholining ish bilan bandlik darajasining pastligi, ishsizlik va inflyatsiyaning boshqarib bo'lmaydigan darajalarda o'sishi	kam haq to'lanadigan ishlarda ishlashi
	ishsiz bo'lib qolishi
ijtimoiy sohalar, shu jumladan, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalar rivojlanishining past darajadaliigi	Mehnat salohiyatining pastligi, ishchi kuchi raqobatbardoshligining pastligi yoki yo'qligi,
	raqobat kurashida sinishi, bozori kasod bo'lishi
mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning yomonlashuvi	daromadi kam bo'la turib bolalari va boqimandalarining ko'p bo'lishi
tabiiy muhitning yomonlashuvi, tabiiy ofatlar, favqulodda vaziyatlar	tug'ma nogironlik, insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi
tabiiy yoki inson, kapital resurslarining Etarli emasligi	boquvchisidan ayrilib qolishi
mamlakatda kriminallasuv, uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaning kuchayishi	qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik yoki butunlay yo'qotganligi
mamlakat tashqi qarzlarning haddan	insonning qat'iyatsizlik, sabrsizlik,

¹M.X.Абулқосимов томонидан тузилган. Қаранг: Абулқосимов М.Х. Шахс иқтисодий хавфсизлигига тахдидлар ва уларнинг олдини олиш йўллари// “Иқтисод ва молия/Экономика и финансы”, 2017. 12-сон.-22-бет.

tashqari ortib ketishi	chidamsizlik, dangasalik, passivlik kabi salbiy shaxsiy xususiyatlari
jahon iqtisodiyotidagi inqirozli vaziyatlar	insonning yomon hulq va odatlar(ahloqsizlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik va nosogʻlom hayot tarzi)ga moyilligi
turli davlatlar oʻrtasida nizo, ziddiyat, qarama-qarshiliklarning kuchayishi	Omadsizlik

Shaxsning oʻziga bogʻliq boʻlgan tahdidlar ichki tahdidlar hisoblanadi. Bu turdagi tahdidlarga shaxsning oʻz oldiga notoʻgʻri maqsadlar qoʻyganligi; bilim va kasb-malaka darajasining pastligi yoki yoʻqligi; kam haq toʻlanadigan ishlarda ishlashi; raqobat kurashida sinishi, bozori kasod boʻlishi; daromadi kam boʻla turib bolalari koʻp boʻlishi; tugʻma nogironlik; insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarining cheklanganligi; qariganligi va kasalliklari hamda travmalar sababli mehnat qobiliyatini vaqtinchalik va butunlay yoʻqotganligi; boquvchisidan ayrilib qolishi; insonning qatʼiyatsizlik, sabrsizlik, jizzakilik, shoshqaloqlik, chidamsizlik, dangasalik, passivlik, va boshqa shu kabi shaxsiy xususiyatlari; insonning yomon hulq va odatlar(ahloqsizlik, ichkilikbozlik, qimorbozlik va nosogʻlom hayot tarzi)ga moyillik; omadsizlik kiradi.

Ushbulardan kelib chiqib, bizning nazarimizda, bozor iqtisodiyoti sharoitida shaxs iqtisodiy xavfsizligi uning ishsilik, bozori kasod (bankrot)boʻlishi va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy sabablar oqibatida kambagʻal va qashshoq, mol-mulkidan mahrum boʻlib qolishi yoki jiddiy moddiy zarar koʻrishi, turmush darajasining

pasayishi xataridan saqlanishda ifodalanadi¹. Kambag'allik va qashshoqlik inson uchun eng dahshatli xavf hisoblanadi².


Iqtisodiy adabiyotlarda kambag'allik – bu turmush kechirish, mehnat layoqatini saqlab turish, avlodlar uzviyligini davom ettirish uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarni qondirish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxs yoki ijtimoiy guruhlar iqtisodiy ahvolining ko'rsatkichi, ijtimoiy guruh yoki individning hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmasligining iqtisodiy sharoitini aks ettiruvchi xususiyat, deb ta'rif beriladi. Kambag'allik nisbiy tushuncha hisoblanib, har bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy standartiga bog'liq bo'ladi. Deprivatsion yondashuv bo'yicha kambag'allik tushunchasi nafaqat hayot uchun zarur bo'lgan eng kam ehtiyojlarini qondira olmaslik va daromadlarning Etishmovchiligini, balki sifatsiz ovqatlanish, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanolmaslik hamda munosib uy sharoitlariga ega bo'lmaslik kabi sharoitlarni ham o'z ichiga oladi³.

Insonning shakllanishida va xavfsizligini ta'minlashda davlat va u yaratgan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarning, shu jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqalarning rivojlanishiga, davlat organlarining iqtisodiyotni tartibga solish hamda boshqarish salohiyatiga ham bog'liqdir. Ushbularga muvofiq ravishda shaxs iqtisodiy xavfsizligi milliy, uning tarkibiy qismlari bo'lgan davlat, korxonalar, hudud iqtisodiy xavfsizligining qay darajada ta'minlanganligiga ham bog'liqdir. Shundan kelib chiqib, bizning nazarimizda yuqorida keltirilganlar birgalikda shaxs iqtisodiy xavfsizligining yaxlit modelini tashkil etadi (qarang:1-rasm).

¹ Qarang: Абулқосимов М.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари.// Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2017й. 5-сон 49-бет.

² Qarang: Абулқосимов М.Х. Камбағалликка қарши кураш-шахс иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг муҳим йўналиши.// Ж. Иқтисод ва молия /Экономика и финансы, 2020й. 2-сон, 134-144-бетлар.

³ Qarang: Экономика труда. Учебник. / Под ред. Н.А.Волгина, Ю.Т.Одегова. -М.:Экзамен, 2004, – С. 392-394; Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти (назария ва амалиёт). Дарслик. –Т.: Меҳнат, 2004, 445-446-бет; Инсон тараққиёти. Дарслик: и.ф.д., проф. Қ.Х.Абдурахмонов таҳрири остида.-Т.: “Fan va texnologiya”, 2013.-228-230-бетлар; Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. Ўқув қўлланма. Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. – Т.:“ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 261-264-бетлар




15.4.1-rasm. Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi modeli¹

M.H.Abulqosimovning fikricha, shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi davlat hokimiyati organlari, nodavlat tashkilotlari va institutlari, oila, mahalla, hudud, korxonalar hamda ular faoliyatining maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullarini belgilab beruvchi huquqiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi. Ta'kidlash lozimki, davlatning iqtisodiy siyosati uning strategik vazifalaridan kelib chiqib jamiyatda ishlab chiqarish, daromad va ne'matlarni taqsimlash jarayonlarini tartiblash uchun davlat tomonidan joriy davr ichida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimini ifodalaydi. Davlat samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirish

¹ M.X.Abulqosimov tomonidan tuzildi. Abulqosimov M.X. Buzor iqtisodiyoti sharoitida shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari va yullari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiya qul yzmasi.-T., 2020 yil, 43-bet.

orqali fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.



15.4.2-rasm. Shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning davlat institutsional mexanizmi va dastaklari¹

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va tartibga solish hamda boshqarishga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratadi. Moliya vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan budjet-soliq siyosati orqali shaxs iqtisodiy xavfsizligini, aholining

¹ M.Х.Абулқосимов томонидан ишлаб чиқилди. Қаранг: Абулқосимов М.Х.Бозор иқтисодиёти шароитида шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси қўл ёзмаси.-Т., 2020 йил, 44-бет.

kambag'al, kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy fondlar, ijtimoiy soha va chora-tadbirlarni moliyalashtirish manbalari yaratiladi. Markaziy bankning pul-kredit siyosati orqali fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, ijtimoiy nafli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga hamda ijtimoiy ahamiyatli loyihalarni imtiyozli kreditlash, inflyatsiyani tiyib turishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Buning oqibatida shaxs iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Davlat mintaqaviy siyosati mintaq va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish darajalaridagi farqlarni kamaytirish, mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lib, buning natijasida shaxs iqtisodiy xavfsizligi ham ta'minlanadi¹.

Shaxs xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish va ularning ta'sirini kamaytirish uchun davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- iqtisodiyotni rivojlantirish va erkinlashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarni izchillik bilan davom ettirish, kishilarning tadbirkorlik faoliyatini hamda iste'molchilar manfaatlari va huquqlarini himoya qilishni yanada kuchaytirish;

- fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy erkinliklari va huquqlarini ta'minlashning samarali mexanizmlarini vujudga keltirish;

- ijtimoiy nizolarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan darajada ishsizlikning o'sishining oldini olish, yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini, daromadlarini o'stirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

- kambag'allik va qashshoqlik muammosini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan tahdidlarni baholash va ularning oldini olish, aholini zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, kam ta'minlangan aholini kuchli ijtimoiy himoya qilish mexanizmini takomillashtirish;

¹ Абулқосимов М.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида шахснинг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси қўл ёзмаси.-Т., 2020 йил, 44-45-бетлар.

- uyushgan jinoyatchilik, korrupsiya, narkomaniya va boshqa ijtimoiy illatlarga qarshi kurashishni kuchaytirish;

- insonning faollik, bag'rikenglik (tolerantlik), qat'iyatlilik, chidamlilik, irodalilik, shukronalik kabi qobiliyat va sifatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Shaxsning xavfsizligini ta'minlashda davlatning ijtimoiy siyosati muhim rol o'ynaydi. Uni amalga oshirish mexanizmlari odamlarning mehnatdagi faolligini va tadbirkorligini o'stirish, kambag'al aholi guruhlarini qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekistonda davlatning ijtimoiy siyosati quyidagilarga qaratilgan:

- fuqarolarning erkin iqtisodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat, kasb-korlik turlarini hamda sohalarini erkin tanlash kabi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash;

- mehnat motivatsiyasining kuchli mexanizmini kiritish, aholining iqtisodiy faolligini oshirish uchun sharoitlar yaratishga;

- aholini maqsadli va manzilli ijtimoiy himoya qilish hamda kambag'al guruhlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

- ta'lim, ijtimoiy sug'urta, sog'liqni saqlash, uy-joy-kommunal xizmat ko'rsatish tizimlarini isloh qilish yo'li bilan aholining ijtimoiy xizmatlarga bo'lgan zarur kafolatni ta'minlash².

Shuningdek, davlat ijtimoiy siyosati aholining daromad va mulkka egalik darajasi bo'yicha keskin tabaqalashuvining oldini olish, kambag'allikni kamaytirish hamda aholining to'lov talablarini keng miqdorda qondirish va uning o'sishini ta'minlash chora-tadbirlarini amalga oshiradi.

¹ Абулқосимов М.Х. Бозор иқтисодиёти шароитида шахсн инг иқтисодий хавфсизлигини таъминлашнинг назарий жиҳатлари ва йўллари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзган диссертацияси қўл ёзмаси.-Т., 2020 йил, 45-46-бетлар.

² Қаранг: АбулқосимовХ.П. Шаклланаётган бозор иқтисодиётида инсон омили ва уни фаоллаштириш йўллари. –Т., ТМИ, 2005. 182-б.; Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.-Т.: Ноширлик ёғдуси, 2019.-411-412-бетлар.

15.5. O‘zbekistonda uy xo‘jaligi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari

O‘zbekistonda aholi daromadlari va turmush darajasining muttasil o‘shib, oilalar iqtisodiy asoslarining mustahkamlanib borishida mamlakatimizda yuqori va mutanosib iqtisodiy o‘shishning ta‘minlanganligi, ishbilarmonlik-biznes yuritish uchun amaliy qulay sharoitning yaratilganligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ijtimoiy sohani rivojlantirish, ish joylarini shakllantirish va aholi bandligi, uy-joylar qurish va aholi punktlarini obodonlashtirish, ta‘lim-tarbiya va sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh etish va takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar muhim omillar bo‘lib xizmat qilmoqda.

Oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati katta. Birinchidan, u aholi uchun zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni yaratadi, ikkinchidan, oiladagi ishchi kuchini mehnat bilan band etib, oilaga o‘z- o‘zini daromad bilan ta‘minlash imkonini yaratadi. Oilaviy tadbirkorlikning bir qator afzalliklari bor, bular uni raqobatbardosh qiladi:

1) oilaviy tadbirkorlik kichik bo‘lgani sababli katta kapital talab qilmaydi, uni boshlash uchun pul topish engil bo‘ladi;

2) oilaviy tadbirkorlikning oilaning ixtiyoridagi ko‘chmas mulkka tayanadi, oila uyida yuritilgani uchun kapital qurilish yoki joyi ijaraga olishni talab qilmaydi;

3) oilaviy tadbirkorlikning ommaviy iste‘mol uchun emas, balki mahalliy bozordagi saylangan iste‘molchilar uchun ishlaydi. Uning bozori kichik bo‘lgani uchun raqobatga kam yo‘liqadi;

4) oilaviy tadbirkorlik ko‘proq qo‘l mehnatini talab qiluvchi mahsulot va xizmatlarni arzon ishlab chiqarishga moslanadi;

5) oilaviy tadbirkorlik oiladagi bekor turgan mehnat rezerslariga tayanadi, ya‘ni bekalar, bolalar va qariyalar ko‘magida yuritiladi, natijada ish kuchi yollash zaruriyati kamayadi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin oilaviy biznes va tadbirkorlikni qayta tiklash uchun katta ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida O‘zbekiston Respublikasining “Dehqon ho‘jaligi to‘g‘risida”gi va “Fermer ho‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 5 yanvarda qabul qilgan “Yirik sanoat korxonalari bilan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 11 yanvardagi “Oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, “Kasanachilik to‘g‘risida Nizom” va “Oilaviy tadbirkorlikni va hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risida Nizom” kabi me‘yoriy xujjatlar qabul qilingan. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonuni 2012 yil 26 aprelda qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi qonunining 3-moddasida “Oilaviy tadbirkorlik oila a‘zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Oilaviy tadbirkorlik o‘z ishtirokchilarining ixtiyoriyligiga asoslanadi. Oilaviy tadbirkorlik yuridik shaxs tashkil etgan yoki tashkil etmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Yuridik shaxs tashkil etmagan holda oilaviy tadbirkorlik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi”¹-deb ta‘rif berilgan. Mazkur qonunning 4-moddasida oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lgan oilaviy korxonaga quyidagicha ta‘rif berilgan: ”Oilaviy korxonaning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Оилавий тadbirkorlik тўғрисида”ги қонуни, 2012йил 26-апрель.3-модда.

ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonalar ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek oilaviy korxonalar ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir. Oilaviy korxonalar faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxonalar tadbirkorlik sub'yektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Oilaviy korxonalar faoliyatini faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonalar o'z mulkida alohida mol-mulkka ega bo'lishi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.

Oilaviy korxonalar o'z majburiyatlari bo'yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan o'ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi. Oilaviy korxonalar ishtirokchilari korxonalar mol-mulki Etarli bo'lmaganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo'yicha o'ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo'ladi. Oilaviy korxonalar qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxonalar ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiy soni kichik tadbirkorlik sub'yektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o'rtacha yillik sonidan ko'p bo'lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxonalar ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo'lmasligi kerak"¹.

O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuniga va boshqa tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishga oid qonunlar asosida oilaviy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalashni ta'minlashda muhim omilga aylanadi. Chunki oilaviy tadbirkorlik kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim tashkiliy-huquqiy shakllaridan biri sifatida quyidagi ijtimoiy-iqtisodiy afzalliklarga ega:

¹ Ўзбекистон Республикасининг "Оилавий тadbirkorlik тўғрисида"ги қонуни, 2012йил 26-апрель.4-модда.

-oilaviy biznes va tadbirkorlikning bozor konyunkturasi o'zgarishlariga o'ta moslashuvchanlik va innovatsiyalarga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga intiluvchanlik darajasi yuqori bo'lib, yangi mahsulot va xizmatlarni tez o'zlashtiradi;

-oilaviy tadbirkorlik iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlariga kirib boradi, unutilib ketayotgan hunarmandchilik turlarini qayta tiklashga, yangi soha va tarmoqlarning vujudga kelishi asosida iqtisodiyot tarkibiy tuzilishini bozor talablariga mos ravishda tubdan o'zgartirishga jiddiy ta'sir etadi;

-oilaviy tadbirkorlik boshqarish tizimi oddiy bo'lgan va sarf-xarajatlari tez qoplanadigan, mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni tashkil etish va iste'molchilar bilan bevosita aloqa o'rnatish imkonini yaratadi;

-oila a'zolarining samarali bandligini ta'minlash bilan bir qatorda yangi ish o'rinlarini kam xarajat sarflab yaratish imkoniyatiga ega;

-oilaviy tadbirkorlik yirik biznes uchun qiziqish uyg'otmaydigan ishlab chiqarish va bozor bo'shliqlarini to'ldiradi, kichik va yirik biznesning o'zaro kooperatsion aloqalarini kengaytiradi, o'zi ham kapitalning konsentratsiyalashuvi va markazlashuvi jarayonlari tufayli yiriklashib, yirik biznes turiga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi;

-oilaviy tadbirkorlik kishining o'z bilimi, kasb-malakasini, ichki qobiliyatlarini amalda sinab ko'rish, shaxs va jamiyatning faol a'zosi sifatida o'zini namoyon qilish va qaror toptirish, nufuzga va obro'-e'tiborga sazovor bo'lishga imkon beradi;

-oila daromadlari va farovonligini oshirishni, oila a'zolari jipsligini va ahilligini ta'minlaydi, farzandlarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga undaydi, kishilarda amalda mulkdorlik hissini shakllantiradi. Shu boisdan, oilaviy biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligi va demokratik izchil rivojlanishining kafolati bo'lgan o'rta sinf shakllanishining asosi hisoblanadi.

Oilaviy biznes va tadbirkorlik dunyoning ko'plab mamlakatlarida keng tarqalgan bo'lib, oilaviy korxonalarining iqtisodiyotdagi ulushi dunyo bo'yicha

oʻrtacha 70% ni, shu jumladan, Hindistonda -95%, Finlyandiyada – 94%, AQSh da 80%, Germaniya – 36%, Fransiya -30% ni tashkil etmoqda¹. AQShda iqtisodiyotda band boʻlganlarning 62%, Germaniyada ishchilarning 66%, Shvetsiyada ishchilarning 61% oilaviy korxonalarda ish bilan band. Italiyada 70 foizga ish oʻrinlarining ishchilar soni 50 kishidan oshmaydigan kichik korxonalarda yaratiladi. Oilaviy biznes sohasida ishlaydiganlar iqtisodiyotda band boʻlganlarning 40 foizini tashkil etadi². London iqtisodiyot maktabi ekspertlarining baholashicha, agar korxonada boshqaruv toʻgʻri tashkil etilsa, oilaviy biznesning samaradorligi boshqa shakldagi korxonalar dagiga qaraganda oʻrtacha 10-12 foizdan yuqori oshib borishi mumkin ekan³. Shuningdek, oilaviy korxonalar iqtisodiyotda yuz beradigan turli boʻhron va beqarorliklarga juda bardoshli boʻlib. Uzoq yillar davomida faoliyat yuritishi mumkin. Masalan, Fransiyada vino mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Shato Gulen” oilaviy korxonasi 1000 yildan beri faoliyat olib borib, Evropaning faxriga aylangan. Yaponiyaning “Xoshi Rayokan” nomli mehmonxona biznesi bilan shugʻullanuvchi oilaviy korxonalar 14-asrdan buyon faoliyat olib boradi va Ginnesning rekordlar kitobiga kirishga muvaffaq boʻlgan. Germaniyadagi “Berenberg” nomli oilaviy bank 1590-yildan buyon muvaffaqiyatli faoliyat yuritib kelmoqda. Hozirgi davrda personal kompyuterlar uchun antivirus dasturlarini yaratish bilan shugʻullanuvchi Kasperskiy kompaniyasi er va xotin ajrashgan boʻlishlariga qaramasdan birgalikda oʻz bizneslarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqdalar⁴.

Oʻzbekiston Respublikasida oilaviy biznes bilan shugʻullanish azaldan anʻana tusiga kirgan boʻlib, ayrim maʼlumotlarga koʻra u bilan har toʻrtinchi oilalar shugʻullanmoqda⁵. Respublikamizda oilaviy tadbirkorlikning holati, turlari va

¹Юлдашев Д.Т. Оилавий тadbirkorликни ривожлантиришнинг иқтисодий механизмини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Т., 2019.-15-бет.

² [http // www. creativeconomy ru./articles/11319/](http://www.creativeconomy.ru/articles/11319/)

³Абдуллаева Р.Г.Оилавий бизнес-аҳоли бандлигини таъминлаш ва турмуш фаровонлигини юксалтиришнинг муҳим омили//Миллий иқтисодиётни модернизациялашнинг назарий ва амалий жиҳатлари(илмий мақолалар тўплами).”Иқтисод ва молия” журнаliga илова, 4-сон.2014йил.-40-41-бет.

⁴Ўша ерда, 41-бет.

⁵ В Узбекистане семейным бизнесом занимается каждая четвертая семья. [http// news I ru. net/news/1390407.html](http://news1.ru.net/news/1390407.html)

rivojlanish istiqbollarini aniqlash maqsadida “Ijtimoiy fikr” jamoat fikrini o‘rganish markazi tomonidan 2011 yil 1-8 sentyabr kunlari o‘tkazilgan “Oilaviy biznes: rivojlanishning yangi bosqichi” deb nomlangan so‘rov natijalariga ko‘ra, oilaviy biznes bilan shug‘ullanuvchi har uchunchi oila qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini Etishtirish va ishlab chiqarish bilan shug‘ullanishi, har oltinchisi-savdo sohasida ishlashi, har sakkizinchisi- hunarmandchilik va kundalik iste‘mol mollari ishlab chiqarish bilan bandligi, 6,5% oila esa transport xizmati ko‘rsatish sohasida mehnat qilishi aniqlangan (qarang:15.5.1-jadval).

15.5.1-jadval.

O‘zbekistonda oilaviy biznes faoliyati turlari (so‘rovda qatnashganlarning jamisiga nisbatan % hisobida)¹.

Oilaviy biznes turlari	Jamisiga nisbatan %da
Hunarmandlik,keng iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish	12,1
Qishloq xo‘jaligi dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish	35,0
Sut, sut mahsulotlarini ishlab chiqarish	5,3
Go‘sht va go‘sht mahsulotlarini ishlab chiqarish	4,9
Umumovqatlanish, restoran biznesi	4,0
Transport xizmati ko‘rsatish	6,3
Kiyim kechak Etkazib berish va savdosi	17,2
Tibbiy xizmat ko‘rsatish	0,4
Kiyim, yostiq, ko‘rpa va boshqalarni tikish	3,6
Ijtimoiy-maishiy xizmatlar ko‘rsatish	4,4
Mebel savdosi	2,0
Qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish	0,8
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish	2,4

¹ Муртазина Р.О развитии семейного бизнеса в Узбекистане(по материалам социологического исследования). //Общественные науки в Узбекистане. №3, 2012.г.

Javob berishga qiynalaman	0,8
---------------------------	-----

Ushbu jadval ma'lumotlari tibbiyot, ta'lim va huquqiy xizmat ko'rsatish sohasida oilaviy biznes Etarli darajada rivojlanmaganligini ko'rsatmoqda. Oilaviy biznes va tadbirkorlik qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida ko'proq rivojlangan bo'lib, bu qishloq aholisining tomorqa Erlari bilan ta'minlanganligi bilan asoslanadi.

Hozirgi paytga kelib, dehqon xo'jaliklari soni 4.2 milliondan ortiqni tashkil etmoqda. Ularda mehnatga layoqatli qishloq aholisining katta qismi birlamchi va ikkilamchi ish bilan band bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda katta ulushga egadirlar. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar natijasida 1998-2019 yillarda qishloq xo'jaligi korxonalarining qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotidagi ulushi 35,8% dan 3,9% ga kamaygani holda, dehqon xo'jaliklarining ulushi 60,3% dan 70,1%ga, fermer xo'jaliklarining ulushi 3,9% dan 26,9%ga o'sdi (qarang: 15.5.1-jadval).

15.5.1-jadval

Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotida xo'jalik sub'yektlari toifalari ulushining o'zgarishi¹.

№	Xo'jalik sub'yektlari toifalari	YILLAR				2019 yilda 1998 yilga nisbatan o'zgarish (+,-)
		1998	2005	2010	2019	
1.	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	35,8	15,3	2,2	3,0	-32,8

¹ Ўзбекистон иқтисодиёти. Ахборот ва таҳлилий шарҳ. 2005 йил. -Т.: "Ўзбекистон", 2006.-85-бет; Экономика Узбекистана: информационно-аналитический бюллетень за 2012 год. -Т., ЦЭИ, 2013.-С.56. Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2019 йил январь-декабрь. -Т., ДСК, 2020.-127-бет маълумотлари асосида муаллифлар томонидан тузилди.

	tashkilotlar					
2.	Dehqon xo'jaliklari	60,3	60,2	63,7	70,1	+9,9
3.	Fermer xo'jaliklari	3,9	24,5	34,1	26,9	+23,0
	Jami	100,0	100,0	100,0	100,0	

O'zbekiston Respublikasida 2019 yilda donning 15,3%i, kartoshkaning qariyb 83,8%i, sabzavot mahsulotlarining 70,7%i, poliz ekinlarining 59,8%, meva va rezavorlarning 60,0%i, uzumning 56,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida, ya'ni uy xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan. Qishloq xo'jaligida yirik shoxli qora mollar sonining 93,6% dan ko'prog'i, qo'y va echkilarning 84,1%, parrandalarning 58,0% dan ortig'i uy xo'jaligiga to'g'ri keladi. Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida go'sht (tirik vaznda)ning 91,8%, sutning 95,1%, tuxumning 57,1% ishlab chiqarilgan¹. Bu ma'lumotlar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida oilaviy tadbirkorlikning salmoqli ulushga ega ekanligidan dalolat beradi.

Hunarmandchilik ham oilaviy tadbirkorlikning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda hunarmandchilik hamma davrlarda saqlanib, rivojlanib kelgan. Sobiq totalitar tuzum davrida ham turli taziyoqlarga qaramasdan badiiy va amaliy hunarmandchilik saqlanib qolgan. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin hunarmandchilikning rivojlanishiga qulay sharoitlar yaratilib, yo'qolib ketayotgan hunarmandchilik turlari ham qayta tiklanmoqda. Hozirgi davrda oilaviy sulolalar tomonidan uzoq yillar davomida shug'ullanib kelinayotgan oilaviy hunarmandchilik kasbkorliklaridan hisoblangan kashtachilik, tikuvchilik, to'quvchilik, durodgarlik, zardo'zlik, misgarlik, kulolchilik, naqqoshlik, zargarlik, novvoylik, kosibchilik, o'ymakorlik, milliy pichoqchilik va shu kabi boshqa hunarmandchilik yo'nalishlarida oilaviy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda². Shuningdek, respublikamizda

¹ Ўзбекистон Республикаси ижтимоий-иқтисодий ҳолати. 2019 йил январь-декабрь.-Т., ДСҚ, 2020.-131-141, 144-148-бетлар.

² Абдуллаева Р.Г.Оилавий бизнес-аҳоли бандлигини таъминлаш ва турмуш фаровонлигини юксалтиришнинг муҳим омили//Миллий иқтисодиётни модернизациялашнинг назарий ва амалий

hunarmandchilikning zamonaviy turlari, jumladan, avtomobil, elektrotexnika mahsulotlarini, televizor va radiotexnika hamda mobil telefonlar, kompyuter texnikalarini ta'mirlash kabi kasbkorliklar vujudga kelib, rivojlanmoqda.

Respublikamizda uzoq yillar mobaynida oilaviy biznes va tadbirkorlik bilan aholi asosan norasmiy ,ya'ni rasman oilaviy korxonalar tashkil etmasdan shug'ullanib kelgan. Endilikda O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonuni qabul qilingandan keyin oilaviy korxonalar tashkil etish orqali oilaviy tadbirkorlik bilan rasman shug'ullanish imkoniyatlari tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasida ham koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish davrida aholini ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirish va iqtisodiyot tarmoqlari faoliyat ko'rsatishining barqarorligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5978-sonli Farmoni hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalaridan samarali foydalanish, ekin ekish ishlarini tizimli tashkil qilish hamda mahsulot Etishtirish hajmlarini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uy xo'jaliklarida dehqon (yordamchi) xo'jaliklarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish borasidagi ishlarni to'g'ri tashkil etishda muhim hujjat bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq 2020 yilda xodimga to'lanadigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga tortilmaydigan moddiy yordam summasi mehnatga haq to'lash eng kam

жиҳатлари(илмий мақолалар тўплами)."Иқтисод ва молия" журнаliga илова, 4-сон.2014йил.-43-бет.; Абдуллаев Р.Г. Хунармандчилик фаолиятини тadbirkorликни кенгайтириш орқали ривожлан тиришининг назарий асосларини такомиллаштириш. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.-Т., 2019.-13-14-бетлар.

miqdorining 4,22 baravaridan 7,5-baravarigacha oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligining pensiyalar to‘g‘ri tayinlanishi hamda to‘lanishi bo‘yicha tekshirishlar natijasida aniqlangan, ortiqcha to‘langan pensiyalar bo‘yicha 2020 yil 20 aprel holatiga pensionerlarning qarzdorlik summasini hisobdan chiqarish belgilandi. Farmonda 2020 yil 1 maydan boshlab barcha ishlovchi pensionerlarga (O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti hisobidan pensiya oluvchi shaxslardan tashqari) pensiyalar to‘lovi to‘g‘ridan-to‘g‘ri Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tomonidan amalga oshirish belgilandi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi “Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub’yektlarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF–5978-son Farmonining 6-bandida nazarda tutilgan soddalashtirilgan tartibda soliqlarni to‘lash bo‘yicha foizsiz kechiktirish (bo‘lib-bo‘lib to‘lash) berish muddati 2020 yil 31 dekabrgacha uzaytirildi¹.

Endilikda, oilaning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yanada mustahkamlash, oilaviy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish, uning mamlakatimizda barqaror iqtisodiy rivojlanishni va tarkibiy o‘zgarishlarni ta‘minlashdagi rolini oshirish hamda uni yanada qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va isloh etishni izchil davom ettirish negizida barqaror iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash asosida aholi daromadlari va turmush darajasi hamda sifatini oshirib borish;

- oila institutini mustahkamlash maqsadida yoshlarni oila qurishga tayyorlash uchun o‘rta umumta‘lim maktablarining yuqori sinflarida hamda o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalarida oilaga yigit va qizlarni bosqichma-bosqich tayyorlashga yo‘naltirilgan maxsus o‘quv va fakultativ kurslarni joriy etish;

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 27 апрелдаги “Коронавирус пандемияси даврида аҳоли ва тadbirkorlik субъектларини қўллаб-қувватлашга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги фармони //Халқ сўзи, 2020 йил 28 апрель.

- oila iqtisodiyoti, uy xo‘jaligi, oila moliyasi va ro‘zg‘or yuritish asoslariga bag‘ishlangan mavzularni o‘rta umumta‘lim maktablarida o‘qitiladigan iqtisodiy bilim asoslari fanlari o‘quv rejalariga kiritish ushbu fanlar bo‘yicha darsliklarni ular hisobiga takomillashtirish; iqtisodiyot yo‘nlashidagi oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida “Mikroiqtisodiyot” fani doirasida “Oila yoki Xonadon iqtisodiyoti”, “Oilaviy tadbirkorlik”, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni boshqarish” kabi maxsus o‘quv kurslarini o‘qitishni yo‘lga qo‘yish; shahar va tumanlarda nikohdan o‘tish uchun ariza bergan yigit va qizlar uchun “Oila – ro‘zg‘or yuritish asoslari” bo‘yicha maxsus qisqa muddatli o‘quvlarni tashkil etish;

- nikoh to‘y marosimlarini ixchamlashtirish va oqilonlashtirish hisobiga yosh oilaning dastlabki mol-mulkini va sarmoyasini yigit va qizning otalarining o‘zaro kelishuvi asosida baholi-qudrat ishtirok etishlari;

- yoshlar faoliyat qiladigan tashkilot va korxonalaridagi mehnat munosabatlarida ijtimoiy sherikchilik tizimlari rivojlanib borgan sayin ularning yosh oilalarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashdagi ishtiroklarini kengaytirib borish;

- respublikamizda onalikni va bolalikni muhofaza qilish va “sog‘lom ona - bola” dasturlarini amalga oshirish borasida to‘plangan tajribalardan kelib chiqqan holda “sog‘lom va ma‘suliyatli ota-mustahkam oila va sog‘lom bola kafolati” tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga qo‘llash bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda;

- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish joylarda, ayniqsa, qishloqlarda transport yo‘llarini, elektr energiya va gaz ta‘minotini yaxshilashni, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirishni ta‘minlashga qaratilgan ustuvor vazifani amalga oshirishga bog‘liqdir;

- oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi tarkibiy yangilanish jarayonlaridagi rolini oshirish uchun ularni xizmatlar va servis sohasiga jalb etilishini rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish lozim. Bu soha katta kapital talab qilmaydi, shu sababli unga oilaviy biznes subektlarini jalb qilish maqsadga muvofiqdir;

- import o'rnini bosuvchi va eksport mahsulotlarini ishlab chiqaradigan oilaviy korxonalarni rag'batlantirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish, ularning eksport va xalqaro yarmarkalarda ishtirok etishini ta'minlash;

- qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan oilaviy korxonalarni jadal rivojlantirishni rag'batlantirish uchun qo'shimcha imtiyozlar berish, bu borada mahalliy xom ashyo va materiallar asosida yirik sanoat korxonalari bilan oilaviy korxonalar o'rtasidagi ishlab chiqarish va xizmatlar kooperatsiyasini hamda mahalliy lashtirish tizimini yanada rivojlantirishga qaratilgan ishlarni izchil davom ettirish lozim bo'ladi. Buning uchun kasanachilik faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasining "Kasanachilik to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi;

- an'anaviy va zamonaviy hunarmandchilik sohalarida oilaviy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasining "Hunarmandlik faoliyati to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish kerak;

- ilm talab qiluvchi sohalarda intellektual salohiyati yuqori bo'lgan kishilar tomonidan oilaviy korxonalarining tashkil etilishini qo'llab-quvvatlash, bunday korxonalar bilan oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish;

- oilaviy tadbirkorlikni moliyalashtirish, kreditlash va sug'urtalash tizimini takomillashtirish, ularning malakasini oshirish kurslarini tashkil etish, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagishli sohalarda bo'yicha "Biznesni boshqarish" ixtisosligida kadrlar tayyorlashni davom ettirish choralarini ko'rish;

- oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda davlat boshqaruvi organlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, Savdo-sanoat palatasi, Fermerlar Kengashi, "Oila" respublika ilmiy-amaliy markazi va boshqa manfaatdor nodavlat va jamoat tashkilotlari, siyosiy partiyalar hamda turli darajadagi xalq deputatlari kengashlari

ishtirokida joylarda muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir¹.

Xulosa

Uy xo‘jaligi va ularning eng asosiy shakllarining o‘ziga xos tavsiflari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan:

Taqqoslash ko‘rsatkichlari	Bozor uy xo‘jaligi	Buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo‘jaligi	O‘tish iqtisodiyotidagi uy xo‘jaligi
Maqsadli funktsiya	To‘lovga qodir talabning chegaralanganligi sharoitida foydalalikni ko‘paytirish. Budget cheklovlari yagona chegaralovchi omil sifatida	Resurslar tanqisligi sharoitida foydalalikni ko‘paytirish. Budget cheklovlaridan tashqari, vaqt va ijtimoiy cheklovlar ham murim	Yashovchanlik qobiliyatini yo‘qotmaslik
Resurslar	Asosiy ishdagi maosh	Asosiy ishdagi maosh + bo‘sh vaqtning mavjudligi (asosiy ishga bog‘liq) + aloqa-lar + transfer-tlar	Rasmiy, norasmiy va kriminal bandlikdan va renta daromadlari sifatida olinadigan resurslar “portfeli”
Budget cheklovlarining qat‘iyligi	Mutlaq qat‘iy: uy xo‘jaligi maoshdan tashqari boshqa daromad	Davlat uy xo‘jaliklariga transfertlar shaklida daromadlarning	Daromadlar turli manbalari o‘rtasidagi chegaralarning egiluvchanligi farovonlik va pul daromadlari miqdorlari

¹Қаранг: Абулқосимов Х.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари.-Т.:”Университет”, 2015.-106-108- бетлар.

	manbalariga ega emas	katta qismini olish imkonini beradi	o'rtasidagi qat'iy bog'liqlik olib tashlashga imkon beradi
Jamg'armalarning muhimligi va ularning miqdori	Jamg'armalar miqdori jamg'arishga bo'lgan moyillik chegarasi miqdori va jamg'armaning maqsadi bilan izohlanadi	Jamg'armalar ham majburiy (tanqislik va barcha daromadni sarflash imkoniyatining yo'qligi tufayli), ham ixtiyoriy xususiyatga ega, bunda majburiy jamg'armalar tanqislik intensivligining o'sishiga qarab o'sadi	Jamg'armaga nisbatan "sug'urta" yuklamasi maksimal darajada, ular muhim, lekin ularning miqdori ikki tendensiya-mumkin qadar ko'proq jamg'armaning zaruriyligi va jamg'armaning uchun joriy daromadlarning Etishmasligi kabi ikki tendensiyaning qarama-qarshi harakati natijasida aniqlanadi
Iqtisodiy resurslarni birlashtirishning maqsadga muvofiqligi	Uy xo'jaligi a'zolarining har biri noyob resurslarga ega, shuning uchun oila qurish uzoq muddatli investitsiyalash to'g'risidagi qaror bilan aynan bir xil	Oila asosida alohida turdagi noyob resurslarni birlashtirish yotadi-aloqalarga, ma'muriy huquqlarga (propiska, partiyaga a'zolik) ega bilish	Har bir oila a'zosidan mustaqil daromad manbalarining mavjud bo'lishi xatarni kamaytirishga imkon beradi
Uy xo'jaligining optimal hajmi (shu jumladan, bolalar to'g'risida qaror qabul qilish)	Uy xo'jaligining o'sishi noyob resurslar ishlab chiqarish imkoniyatining pasayishiga qarab to'xtatiladi	Uy xo'jaligining hajmi o'ta noyob resurslarni olish xarajatlari bilan cheklangan-aloqalar, turar-joy va h.k.	Uy xo'jaligi a'zolarining o'xshash turdagi bandligi tufayli xatarlar diversifikatsiyasining chegaralanganligi bilan belgilanadi
Ichki tuzilma	Oddiy pag'onali, bunda "boshliq"	Oddiy pag'onali, partiya-davlat	Oddiy pag'onali, jinsi va oiladagi o'rnidan qat'i nazar eng

	mavqeini egallagan jins ahamiyatga ega emas (eng noyob aktivga ega bo'lgan shaxs boshliq hisoblanadi)	tizimida eng yuqori o'rnin egallagan oila a'zosi "Oila boshlig'i" hisoblanadi, ko'proq bu erkaklardir	barqaror daromadga ega bo'lgan uy xo'jaligi a'zosi "boshliq" hisoblanadi
Davlatga nisbatan munosabat	Davlat bozor "xato"larini to'g'rilash mexanizmi sifatida ko'rib chiqiladi, o'z navbatida soliqlarning to'lanishi ratsional tarzda amalga oshadi	Davlat uy xo'jaligi farovonligining so'nggi bosqichidagi kafolat sifatida qabul qilinadi, o'z navbatida, soliqlarni to'lash burch hisoblanadi	Uy xo'jaligi davlat faoliyatida o'zining yashovchanlikni yo'qotmaslik uchun to'sqinlikni ko'radi (uy xo'jaligi faoliyati sektorlari o'rtasidagi to'siqlar manbasi, o'z navbatida soliqlarni to'lash o'lpon sifatida qabul qilinadi)
Uy xo'jaligi uchun eng muhim bo'lgan ijtimoiy siyosat sohasi	Mehnat munosabatlari sohasidagi siyosat, soliq siyosati, ta'lim sohasidagi siyosat uy xo'jaligi uchun ustivor hisoblanadi. Barcha ushbu yo'nalishlar uy xo'jaligining bozordagi daromadlariga taalluqli	Pensiya, uy-joy-kommunal siyosati, ijtimoiy ta'minot siyosati, ta'lim sohasidagi siyosat ustivor soha hisoblanadi. Barcha ushbu yo'nalishlar o'ta noyob resurslarga ega bo'lishga taalluqli	Sog'liqni saqlash sohasidagi siyosat, ijtimoiy ta'minot tizimi va pensiya tizimi siyosati ustivor hisoblanadi. To'g'ri ma'noda uy xo'jaligining yashovchanligi ushbu sohalardagi davlat siyosatiga bog'liq.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Uy xo‘jaligi – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir.

Iste‘mol (consumption) – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.

Iste‘mol xarajatlari – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste‘mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo‘jaliklari va davlatning iste‘mol xarajatlariga bo‘linadi. YaIMning xarajatlariga ko‘ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

Iste‘mol narxlar indeksi (consumer price index) – o‘rtacha oila tomonidan, odatda, iste‘mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi o‘rtacha darajasini aks ettiradigan ko‘rsatkich, inflyatsiya ko‘rsatkichi sifatida ishlatiladi.

Iste‘molga o‘rtacha moyillik – iste‘mol xarajatlarining daromaddagi (yoki shaxsiy tasarrufdagi daromad hajmidagi) hissasi.

Iste‘molga (jamg‘arishga) chegaralangan moyillik – iste‘mol xarajatlaridagi (jamg‘arish hajmigi) o‘zgarishning bu o‘zgarishni keltirib chiqargan daromadlarning (ShTDdagi) o‘zgarish miqdoridagi ulushi.

Inson (mehnat) resurslarini rivojlantirish (Human resources) Ish bilan bandlik va ishsizlik, daromad bilan ta‘minlanish, ta‘lim va o‘qitish hamda sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq bo‘lgan dasturlar va yondoshuvlardir. Ushbu sohalarning hammasi birgalikda «ijtimoiy sektor» deb ataladi.

Inson salohiyati (Human capital) Insonda mujassamlashgan ko‘nikma va belgilar bo‘lib, u qisman insonning ta‘lim ma‘lumot natijasi hisoblanadi.

Oila nafaqasi (Bola uchun nafaqa) (Family allowance) Ushbu nafaqa turi har oy to‘lanib, odatda u soliqqa tortilmaydi va daromadlarning miqdoriga kiritilmaydi. Ushbu nafaqa turi bola ma‘lum bir yoshga to‘lguncha to‘lanadi.

Mexnat bozori – bu ish kuchini oldi-sotdi qilish munosabatini bildiradi. Bu Erda tovar bozoridan farqli o‘laroq, insonning o‘zi emas, balki uning mexnat qilish qobiliyati, oldi-sotdi tuzish asosida, ma’lum muddatga sotiladi. Ish kuchi avval iste’mol etilib, sungra uning xaqi to‘lanadi.

Mexnat unumdorligi – tirik mexnat xarajatlari va natijalarining vaqt birligidagi munosabati.

Mexnat resurslarini rejalashtirish – bu korxonaning faoliyati tizimini rejalashtirishning asosiy qismidir. Kadrlarni rejalashtirish qo‘yidagi 3 boskichdan iborat:

A) mavjud mexnat resurslarni baxolash:

B) kadrlarga bo‘lgan talabni baxolash:

V) mexnat resurslarni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Universitetning iqtisodiyot fakultetidagi o‘qishini endigina tugallagan qiz (yoki yigit) tijorat firmasiga menejer bo‘lib ishga kiradi. Oliy iqtisodiy ma’lumot haqidagi diplom uning egasida maxsus (o‘ziga xos) inson kapitali mavjudligidan dalolat beradimi?

a) ha;

b) yo‘q.

Javob: b), universitet ma’lumoti haqidagi diplom uning egasida universal, ya’ni ixtisoslashmagan bilimlar mavjudligidan dalolat beradi. Maxsus (o‘ziga xos) inson kapitali muayyan tashkilotda muayyan vazifalarning bajarilishi natijasida to‘planadi: inson bir joyda qanchalik uzoq vaqt ishlasa, u mazkur tashkilot uchun maxsus (o‘ziga xos) bo‘lgan bilim va qo‘nikmalarning shunchalik katta hajmini to‘playdi. Shuning uchun xodim egallagan inson kapitalining maxsusligi (o‘ziga xosligi)ni baholash mezonini bo‘lib diplom emas, balki tashkilotdagi ish staji xizmat qiladi.

2-misol. Bir kishidan iborat uy xo‘jaligining xilini shartli oylik

budjetning quyidagi tuzilmasi asosida tahlil qiling:

Daromadlar			Xarajatlar		
Moddalar	ming soʻmda	% da	Moddalar	ming soʻmda	% da
Ish haqi	200	23,5	Ovqatlanish	150	23,8
Qoʻshimcha ish	320	37,7	Kommunal xarajatlar	120	19,0
Nomuntazam ish haqlari	250	29,4	Nooziq-ovqat tovarlar	80	12,7
Dividendlar (renta)	80	9,4	Taʼlim	60	9,5
Jami	850	100	Dam olish	220	35,0
			Jami	630	100
			Jamgʻarmalar	+220	25,9

- a) bozor;
- b) oʻtish;
- v) buyruqbozlik;
- g) aniqlanmagan.

Javob: b), daromadlar tarkibi uy xoʻjaligining oʻtish xiliga mansubligidan dalolat berib turibdi: daromadlar iqtisodiyotning oshkora va (asosan) xufyona sektorlarida bandlikdan kelib tushadi. Dam olish xarajatlarining yuqori ulushi bozorda xizmatlarning ancha katta toʻplami koʻrsatilganligidan dalolat bersa-da, ushbu "bozor" dalil-isboti Nooziq-ovqat tovarlar uchun xarajatlarning juda past ulushi bilan "tenglashtiriladi".

3-misol. OOʻYuga oʻqishga kirishda ota-onalar oʻzining farzandlarini abituriEnt sifatida “sugʻurta qilish” uchun oʻz vaqtida abituriEntning otasi bilan bir maktabda oʻqigan dekan oʻrinbosari bilan uzoq vaqtdan buyon saqlanib kelayotgan aloqadan foydalanishga qaror qilishadi. Bunday xatti-harakat koʻproq uy xoʻjaligining qaysi xiliga xos?

- a) bozor;

- b) o‘tish;
- v) buyruqbozlik;
- g) v) yoki b).

Javob: g), buyruqbozlik iqtisodiyoti doirasida aloqa uy xo‘jaligining faoliyat ko‘rsatishida asosiy rolni o‘ynadi. Shuning uchun oila farovonligining darajasi aynan keng va tabaqalangan aloqalarning mavjudligi bilan belgilandi. Ikkinchi tomondan, o‘tish iqtisodiyotida aloqalar uy xo‘jaligining resurslaridan biri bo‘lgani holda muhim rol o‘ynashda davom etmoqda (Rouzning fikriga ko‘ra, aloqalar va poralardan foydalanish «resurs portfeli»ning oltita qismidan biri sifatida ishtirok etadi).

4-misol. Mutaassiblik institut hisoblanadimi?

- a) ha;
- b) yo‘q.

Javob: a), Nelson va Uinterning fikricha, mutaassiblik u orqali bugungi xatti-harakat kelgusidagi xatti-harakatga ta’sir ko‘rsatadigan "oldindan aytib bo‘linadigan va takrorlanuvchi" harakat sifatida ta’riflanadi; "takrorlanuvchi harakat modeli". Mutaassiblik kundalik faoliyatni tashkil etish va atrofdagilar bilan o‘zaro hamkorlikning alohida usuli bo‘lib xizmat qiladi, va ushbu jihatdan uni institut deyish mumkin.

KEYSLAR

Keys 1. Aholiga maishiy xizmatlar ko‘rsatish

Xaridor (erkak kishi) do‘kondan kurtka sotib oldi. Uni kimyoviy usul bilan tozalash korxonasiga topshirdi. U Erda kurtkani tozalash vaqtida uni yirtib qo‘yishdi. Mijoz kurtkani olishdan bosh tortib, kompensatsiya talab qildi. Biroq korxonada bu hol zavodda yo‘l qo‘yilgan nuqson tufayli yuz berdi deb javob qilishdi. Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi kompensatsiya to‘lashdan bosh tortib, mustaqil ekspertiza xulosasining taqdim etilishini taklif qildi. Do‘konda kurtkani almashtirishdan bosh tortishmoqda, chunki uni xaridor kiygan.

Do‘konning cheki va kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan kvitansiya mijozda mavjud emas. Xaridorga zararni kim qoplashi kerak?

Savollar:

Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi bilan mijoz o‘rtasida tuzilgan shartnoma tarkibining asrsiy qismlarini ajrating.

Shartnomaning tuzilishi kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi va mijozga (ular shartnoma tuzmagan vaziyat bilan solishtirilganda) qanaqa ustunliklar beradi?

Shartnomaga tozalash jarayonida buyum shkastlanishi mumkinligi to‘g‘risidagi ogohlantirishning kiritilishi kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi xatti-harakatiga qanday ta‘sir ko‘rsatishi mumkin? Mazkur holatda kurtkaning sifatini o‘lchash xarajatlari kimning bo‘yniga qo‘yiladi? Qaysi taraf o‘zini opportunistik tutish imkoniyatiga ega bo‘ladi?

Kimyoviy usul bilan tozalash korxonasi bilan mijoz o‘rtasidagi tuzilgan shartnoma mukammal hisoblanadimi? O‘z javobingizni asoslang.

QUYIDA KELITIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Uy xo‘jaligi iqtisodiy faoliyatning muhim sub‘yektlaridan biri hisoblanib, nafaqat oila yoki xo‘jalik, balki butun mamlakat aholisining farovonligi uning natijalariga bog‘liq.

2. Uy xo‘jaligi iqtisodiyotning yirik sektori sifatida tijorat korxonalarini va davlat bilan bir qatorda barcha makroiqtisodiy tartibga solish jarayonlarida ishtirok etadi.

3. Oila deganda - bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiylik bilan birlashgan guruh tushuniladi.

4. Uy xo‘jaligi bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir.

5. Uy xo‘jaligining asosiy funksiyasini inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish va saqlash deb belgilash lozim.

6. Oila - bu o‘z navbatida, insonning bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va mehnatga tirishqoqligining yig‘indisi sifatida tushuniladi.

7. R.Kouzning “Firmaning tabiati” maqolasida firma tashkiliy tuzilma sifatida “qora quti” deb izohlangan. Bunday tavsif aslida uy xo‘jaligiga nisbatan ko‘proq mos keladi.

8. Uy xo‘jaligi uchun faqat “qora quti”ga “kirish”dagi (ish haqi, soliqlar chiqarib tashlangan davlat tomondan ijtimoiy transfertlar) va undan “chiqish”dagi (inson kapitali, mehnat, jamg‘arma, iste’mol) omillar ma’lum.

9. Institutsional nazariya - uy xo‘jaligini firmadan va davlatdan farq qiluvchi tashkilotning alohida shakli sifatida tahlil qilishga e’tibor qaratadi.

10. Uy xo‘jaligining asosida hokimlik munosabatlari yotadi – birgalikdagi iqtisodiy faoliyat ustidan nazorat qilish huquqi uning bir a’zosiga – “oila boshlig‘i”ga o’tadi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Uy xo‘jaligi iqtisodiyoti qanday tasnifga ega?

A. Uy xo‘jaligi iqtisodiy faoliyatning muhim sub’yektlaridan biri hisoblanib, nafaqat oila yoki xo‘jalik, balki butun mamlakat aholisining farovonligi uning natijalariga bog‘liq.

B. Uy xo‘jaligi iqtisodiyotning xizmat ko‘rsatish sektorida faoliyat yuritadi.

C. Uy xo‘jaligining tarkibi faqat yirik oilalar jumlasiga asoslanadi.

D. Oila biznesi (tadbirkorligi)ni tashkil etish faqat oila mulkiga asoslanishi kerak.

2. Oila deganda nimani tushunasiz?

A. Bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyliги bilan birlashgan guruh tushuniladi.

B. Umumiy vazifalar, yashash joyi, budjet va odatda oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhini o‘zida namoyon qiladi.

C. Mol-mulki yagona bir guruhga tegishli boshqaruvga aytiladi.

D. Yashash joyi bir bo'lgan yagona makonga aytiladi.

3. Uy xo'jaligi deganda nimani tushunasiz?

A. Bir uyda yashashi oila-qarindoshchilik aloqalarining umumiyliigi bilan birlashgan guruh tushuniladi.

B. Inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir.

C. Mol-mulki yagona bir guruhga tegishli boshqaruvga aytiladi.

D. Yashash joyi bir bo'lgan yagona makonga aytiladi.

4. Uy xo'jaligining asosiy funksiyasi nima?

A. Uy xo'jaligining asosiy funksiyasini inson kapitalini shakllantirish, undan foydalanish va saqlash deb belgilash lozim.

B. Bu o'z navbatida, insonning bilimlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat.

C. Bu o'z navbatida, insonning amaliy ko'nikmalari va mehnatga tirishqoqligining yig'indisi sifatida tushuniladi.

D. Bu o'z navbatida oila mulkini tashkil etadi.

5. Uy xo'jaligining asosiy maqsadi nima?

A. Inson kapitalini shakllantirish.

B. Inson kapitalidan foydalanish.

C. O'z a'zolariga kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat'i nazar kafolatlangan farovonlik darajasini ta'minlashdan iborat.

D. Insonning amaliy ko'nikmalari.

6. Uy xo'jaligining qanday xili mavjud?

A. Bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi.

B. Bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyoti instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi.

C. Bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyoti instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi hamda buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi uy xo'jaligi.

D. Bozor instituti hukmronligi sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi va buyruqbozlik iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi.

7. Uy xo'jaligining iste'mol xarajatlariga nimalar kiradi?

- A. Kundalik va uzoq muddat foydanishga va xizmatlarga qilinadigan iste'mol xarajatlariga.
- B. Faqat investitsiyalarga qilingan xarajatlarga.
- C. Ishlab chiqarish vositalariga va ko'chmas mulkka qilingan xarajatlarga.
- D. Import tovarlariga qilingan xarajatlarga.

8. Buyruqbozlik iqtisodiyotida uy xo'jaligi qanday tasnifga ega?

- A. Inson kapitalini shakllantirish.
- B. Inson kapitalidan foydalanish.
- C. O'z a'zolariga kutilmagan holatlar yuzaga kelishidan qat'i nazar kafolatlangan farovonlik darajasini ta'minlashdan iborat.
- D. Barcha javoblar to'g'ri.

9. Oilaning asosiy maqsadli funksiyasi – bu

- A. Insonni dunyoga keltirish
- B. Inson kapitalini takror tiklash va saqlash
- S. Umumiy budjet tuzilmasini ta'minlash
- D. Birgalikda xo'jalik yuritish

10. Uy xo'jaligining asosiy maqsadli funksiyasi – bu

- A. Insonni dunyoga keltirish
- B. Inson kapitalini takror tiklash va saqlash
- S. Umumiy budjet tuzilmasini ta'minlash
- D. Birgalikda xo'jalik yuritish

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Uy xo'jaligi ta'rifini keltiring va uning tashkilot sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iboratligini ayting.
2. Oila bilan uy xo'jaligi o'rtasidagi farq nimada?

3. Uy xo'jaligini yuritish va inson kapitalini shakllantirishda qanday vazifalar (funktsiyalar) amalga oshiriladi?
4. Uy xo'jaligining qanaqa shakllari mavjud va ularning bir-biridan farqi nimada?
5. Inson kapitalini shakllantirish bo'yicha uy xo'jaligi faoliyatining xususiyatlarini sharxlab bering?
6. Uy xo'jaligi faoliyat ko'rsatishida mutaassiblikning rolini sharxlab bering?
7. Uy xo'jaligining xillariga tavsif bering?
8. Uy xo'jaligi iqtisodiyoti va oila boshqarishning konseptual asoslarini aytib bering?
9. Uy xo'jaliklari daromadi va xarajatlari tarkibi va ularning o'zgarish tendensiyasini sharxlab bering?
10. Uy xo'jaligi va ularning eng asosiy shakllarining o'ziga xos tavsiflarini aytib o'ting?

XVI BOB. RIVOJLANISHNING INSTITUSIONAL NAZARIYASI VA INNOVASIYA TURLARI

16.1. Innovatsiyalarning mohiyati va turlari.

16.2. Innovatsion iqtisodiyot va rivojlanish konsepsiyalari

16.3. Innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash yo'nalishlari

16.4. O'zbekistonda innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga o'tishning xususiyatlari

16.1. Innovatsiyalarning mohiyati va turlari.

Innovatsion iqtisodiy rivojlanish, ya'ni innovatsion iqtisodiyot nazariyasini XX asr boshlarida Yozef Shumpeter yaratdi. Uning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" deb nomlangan monografiyasi 1911 yilda nashr etilgan va 1926 va 1934 yillarda qayta nashr etilgan. Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi ko'plab taniqli olimlar tomonidan muntazam takomillashtirib borilgan. U birinchi bo'lib iqtisodiy o'sish va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi farqni aniqladi va innovatsiyaga ta'rif berdi, uni tavsifladi:

- Yangi tovarni yoki uning yangi sifatini yaratish. Iste'molchilarga hali tanish bo'lmagan yangi tovarni yoki tovarning yangi sifatini yaratish. Sanoatning ma'lum tarmog'ida haligacha sinalmagan ishlab chiqarishning yangi usulini yaratish. Bu usul yangi ilmiy kashfiyotga asoslangan bo'lishi shart emas va tovar ayirboshlashning yangi tijorat shakllariga ega bo'lishi mumkin.
- Yangi bozorlarni ochish. Mamlakatdagi ma'lum sanoat tarmog'i haligacha o'z tovarlarini sotmagan yangi bozorlarni ochishi. Bu bozorlarning ilgari mavjud bo'lgan yoki bo'lmaganligidan qat'iy nazar ma'lum tarmoq yoki korxonaga uchun yangi bozor hisoblanadi.
- Yangi ishlab chiqarish omillari manbalarini ochish. Bu manbalar ilgari mavjud bo'lgan yoki yangidan yaratishga to'g'ri kelganligidan qat'iy nazar tarmoq yoki korxonaga uchun yangi hisoblanadi.
- Tarmoqlarni yangicha tashkil etish. Bu yangi tarmoq monopoliya tomonidan vujudga keltirilgan yoki monopol pozitsiyasining barham topishi tufayli vujudga kelganligi ahamiyatli emas.

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishining hozirgi bosqichida innovatsiya insoniyat taraqqiyoti va iqtisodiy o'sishning asosiy omiliga aylanmoqda. Innovatsiya jarayonining doimiy rivojlanib borishi insoniyat va ijtimoiy hayot o'zgarishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsiyalarga turlicha ta'riflar mavjud. Jumladan, Y.Shumpeter: "Innovatsiya – bu mavjud jarayonga yangicha qarash, yondashuv bo'lib, zamonaviy kashfiyot va ishlanmani yoki insoniyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yangi ishlab chiqarishni ma'lum bo'lgan qandaydir jarayonga qo'llashdir"¹, -deya ta'kidlagan.

Innovatsiya - jamiyat rivojlanishi bilan o'zgarib boruvchi inson ehtiyojlarini qondirishga oid yangiliklar, ularni yaratish, tarqatish va foydalanish jarayonining majmuasi. *Innovatsiya* - yangi kiritilgan tartib – qoida, usul, rasm–rusum va yangilik, yangi ko'rinishdagi buyumlarni, texnologiyani ishlab chiqarishga joriy etish va ommalashtirishga qaratilgan ijodiy faoliyat natijasi. *Innovatsiya* (inglizcha "innovationas"- kiritilgan yangilik, ixtiro so'zidan olingan) - fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribaga asoslangan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishidir. *Innovatsiya* deb yangi ko'rinishda mahsulot (tovar, ish, xizmat) yaratilishini yoki takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayonining yangi ko'rinishi joriy qilinishini yoki ushbu jarayonning takomillashtirilishini, biznesni yuritishda yangi marketing yoki tashkiliy usullarning joriy qilinishini, ish o'rinlari tashkil etishni yoki tashqi aloqalar o'rnatilishini o'zida mujassamlashtirgan innovatsiyaviy faoliyatning yakuniy natijasi tushuniladi. *Keng ma'noda innovatsiya* deyilganda yangi texnologiyalar, mahsulot va xizmatlar turlari sifatidagi yangiliklar, ishlab chiqarish, moliya, tijorat, ma'muriy yoki boshqa xususiyatlarga ega tashkiliy-texnikaviy va ijtimoiy-iqtisodiy qarorlardan samarali foydalanish tushuniladi. Yangilik g'oyasining tug'ilishi, yaratilishi va ommalashishidan boshlab foydalanishgacha bo'lgan vaqtni innovatsiyaning hayotiy sikli deb atashadi. Ana shular bilan bog'liq ishlarni olib borish tartibi

¹ Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: ЭКМО, 2007.-С.278.

hisobga olingan holda innovatsiyaning hayotiy sikliga innovatsiya jarayoni sifatida qaraladi. Xalqaro standartlarga ko‘ra *innovatsiya* bozorda joriy etilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda qo‘llaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon yohud ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv ko‘rinishidagi innovatsiya faoliyatining pirovard natijasi sifatida baholanadi¹.

Innovatsiya jarayoni - yangilik g‘oyasini rivojlantirishdan uning pirovard iste‘molchi tomonidan iste‘mol qilinishigacha bo‘lgan mantiqiy izchillikda harakatlanuvchi jarayon. Bu yangilikning ilmiy-texnik, ishlab chiqarish-iqtisodiy va ijtimoiy-tashkiliy salohiyatini yaratish, rivojlantirish va undan foydalanish jarayonidir. Innovatsiya jarayonining quyidagi bosqichlari mavjud - yangilikni yaratish, uni o‘zlashtirish, tarqatish va takomillashtirish².

Jati Senguptaning innovatsiyalarga bergan ta‘rifiga to‘xtalib o‘tsak. “Innovatsiyalar turli shakllarda bo‘lishi mumkin, ammo har qanday shaklda u mahsulot tannarxini kamaytirish va/yoki bozor talabini kengaytirishga yordam qiladi. Innovatsiyalarning ba‘zi bir muhim turlari sifatida:

- Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar
- Endogen yoki ekzogen innovatsiyalar
- Sanoat rivojlanishida tanlov mexanizmi innovatsiyasi
- Texnologiyalar konsorsiumi orqali shakllantiriladigan innovatsiyalar” qabul qilinadi³.

“Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar mahsulot innovatsiyasi, sanoatda “ilmiy izlanish va rivojlanish” ko‘rinishidagi investitsiyalar va taqlid va takomillashtirishni o‘z ichiga olgan texnologiyalar transferini o‘zida mujassam etadi. Ingliz ilmiy adabiyotlarida uchraydi R&D (research and development) -

¹ Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. -Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.-203-204-бетлар.

² Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. -Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 204-бет.

³ Jati Sengupta. Theory of innovation. A new paradigm of growth. Springer International Publishing Switzerland 2014. P 12

“ilmiy izlanish va rivojlanish (IIR)”degani bo‘lib, rivojlanishga olib keluvchi, turtki bo‘luvchi ilmiy izlanish deganidir.

Endogen innovatsiyalar o‘z ichiga innovatsiyalarga investitsiya kiritishga moyillikni bozor tomonidan rag‘batlantirishni qamrab oladi. Bozor rag‘bati deganda monopoliyadan patentlash qonunlari orqali himoyalanih va texnologik musobaqada g‘olib chiqishni nazarda tutadi.

Ekzogen innovatsiyalarni ilmiy va notijorat institutlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasini misol sifatida keltirish orqali yoritadigan bo‘lsak, innovatsiyalarning bu turi ba‘zan yangi mahsulot va yangi jarayonga sababchi bo‘lishi mumkinligi aniqlangan. Solounig iqtisodiy o‘sh modelida barcha texnologik rivojlanishlar ekzogen innovatsiya sifatida qaralgan bo‘lsada, pirovardida sanoatda va butun bir mamlakat uchun ishlab chiqarish imkoniyatlarini keskin o‘zgartirdi.

Innovatsiyalarning keyingi ikki turi kamroq e‘tiborga sazovor bo‘lishi mumkin. Evolyutsion tanlov mexanizmi firmalarni dinamik bozor samaradorligi va patent tizimi orqali tanlaydi. Bu mexanizm texnologik o‘zgarishlarning ham kumulyativ xususiyatini, ham bozor strukturasiing endogen aspektlarini hisobga oladi.

Patentlash tizimi texnologik tanlovning ikkinchi instrumentlar tizimidir. U mulkchilik huquqini aniqlashtirib texnologik innovatsiyalarni rag‘batlantiradi. Masalan, farmatsevtik sanoatda shunday rag‘batga erishish uchun IIRdan foydalanishadi. Adabiyotshunoslik texnologiyasida patentlash tizimi cheklangan darajada texnologiya va bilimlarni tarqalishini o‘z ichiga olgan. Bu esa o‘z o‘rnida texnologik izlanishda innovatsiyalarning keng ko‘lamli eksperimentlarni olib borilishiga turtki bo‘ladi.


Innovatsiya turlari quyidagilardan iborat: 1. Texnologik innovatsiyalarning ikkita turi mavjud: mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar va jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar. 2. Marketing innovatsiyalar. 3. Tashkiliy innovatsiyalar. *Texnologik innovatsiyalar* deganda yuridik shaxsning texnologik yangi mahsulotlar va jarayonlarni, shuningdek mahsulotlar va jarayonlarda sezilarli darajada

takomillashtirishlarni, texnologik yangi va sezilarli darajada takomillashtirilgan xizmatlarni, xizmatlar ishlab chiqarilishi (etkazib berilishi) bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan usullarni ishlab chiqish va joriy etish bilan bog'liq faoliyati nazarda tutiladi. *Marketing innovatsiyalari* deganda yangi yoki sezilarli yaxshilangan marketing uslublarini joriy etish tushuniladi. Bular o'z ichiga: mahsulotlarning dizayni va qadoqlanishida jiddiy o'zgartirishlar; mahsulotlarni sotish va taqdimoti bo'yicha, shuningdek ularni bozorlarga tanitish va olg'a siljitish bo'yicha yangi uslublardan foydalanish; yangi narx strategiyalarini shakllantirishni oladi. *Tashkiliy innovatsiyalar* - bu biznesni yuritishda, ish o'rinlarini yoki tashqi aloqalarni tashkil etishda yangi uslublarni ishlab chiqishdir. Bunday innovatsiyalar boshqaruv va transaksion xarajatlarni qisqartirish, tashkilot tomonidan ishchilarning ish o'rinlari (ish vaqtlari) bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish, mehnat samaradorligini oshirish, bozorda mavjud bo'lmagan aktivlarga yo'l topish yoki Etkazib berish narxini kamaytirish yo'li bilan tashkilot faoliyatining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi¹.

Innovatsion faoliyat yo'nalishlari o'z ichiga texnologik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy, savdo-sotiq, boshqaruvdagi innovatsion faoliyatlarni oladi (qarang: 16.1.1-rasm).

¹Қаранг: Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати. - Т.: Т.: – “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 206-бет.

Innovatsion faoliyat yo'nalishlari



16.1.1-rasm. Innovatsion faoliyat yo'nalishlari.

Innovatsion iqtisodiyot (bilimlar iqtisodiyoti, intellektual iqtisodiyot) iqtisodiyotning innovatsiyalar oqimiga, ishlab chiqarishning doimiy ravishda texnologik takomillashib borishiga va juda yuqori qo'shilgan qiymatli yuqori texnologik mahsulot va texnologiyalar eksportiga asoslangan turidir¹. Innovatsion iqtisodiyot-mamlakatning ko'plab korxonalar va tashkilotlari innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan, innovatsion mahsulot ishlab chiqaradigan va undan foydalanadigan, ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar hajmining jami mahsulotlar umumiy hajmining yarmidan ko'pini tashkil etadigan iqtisodiyotdir.

¹ Инновационная экономика-Википедия.

Innovatsion iqtisodiyot jamiyat uchun foydali bo'lgan har qanday patent, litsenziya, nou-xau, tashqaridan keltirilgan va o'zida ishlab chiqarilgan yangi texnologiyalardan samarali foydalanadigan iqtisodiyotdir¹.

¹ Корчагин Ю.А. Инновационная экономика и экономика знаний //http: //www .lerc.ru /?part= articles&art =11& page =37

16.2. Innovatsion iqtisodiyot va rivojlanish konsepsiyalari

XX asrning ikkinchi yarmida rivojlangan mamlakatlar innovatsion sohalar ustuvor bo'lgan post industrial jamiyatni yaratdilar. Bu iqtisodiyot innovatsion iqtisodiyot deb ataldi, chunki innovatsiyalar iqtisodiyotning barcha sohalarida va jabhalarida yaratildi va ishlatildi. Natijada innovatsiyalarni ommaviy ishlab chiqarish va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy kaliti – yuqori malakali va ijodiy inson kapitali to'plandi. Mashhur Amerikalik futurologist A.Tofflerning ta'kidlashicha, innovatsion iqtisodiyot birinchi bo'lib AQShda tashkil etilgan va olim uning boshlanishini 1956 yillardan deya qayd etadi ¹.

Innovatsion jarayonning o'zi bir necha bosqichlardan iborat:

1. Fundamental va amaliy ilmiy tajribalar, muhandislik loyihalarining natijasi hisoblanuvchi yangilik, yangi g'oya, yangi bilimlar;
2. G'oyani amaliyotga tatbiq etish, tijoratlashtirish;
3. Innovatsiyalarning tarqalishi (diffuziyasi) – yangiliklarni yangi joy va sharoitda tarqatish va ishlatish.

Makroiqtisodiy darajada innovatsion iqtisodiyot mamlakatning iqtisodiyoti sifatida e'tirof etilgan bo'lib, unda ko'pchilik innovatsion faoliyat (innovatsion mahsulot ishlab chiqarish va ulardan foydalanish) bilan shug'ullanadi va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishning yarmidan ko'pini tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda sanoat korxonalarining qariyb 60-80 foizi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning yarmidan ko'pi innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadi².

Zamonaviy iqtisodchilar innovatsion iqtisodiyotga quyidagi ta'riflarni beradi³:

- Innovatsion iqtisodiyot – jamiyat uchun foydali bo'lgan har qanday innovatsiyalar (patentlar, litsenziyalar, nou-xau, import qilinganyoki mahalliy yangi texnologiyalar va boshqalar)ni ko'llay oladigan iqtisodiyot;

¹Toффлер Э. Третья волна. –М.: «АСТ», 2004.

² Корчагин Ю. А. Человеческий капитал и инновационная экономика России. –Воронеж: ЦИРЭ, 2012. –С.70

³Ўша манба.

- Innovatsiya iqtisodiyoti – olimlarning g‘oyalarini amalga oshirishga va ularni innovatsion mahsulotga aylantirishga yordam beruvchi mamlakatdagi innovatsion tizim (infratuzilma)dir;

- Innovatsiya iqtisodiyoti – bu ijobiy, konstruktiv inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirish, aqlli kapitalning salbiy, halokatli qismining to‘planishining oldini olish imkoniyatiga Ega bo‘lgan iqtisodiyot.

Innovatsion iqtisodiyot ikkita asosiy tamoyilga asoslanadi: iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadi yuqori samaradorlik va innovativlikni oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak hamda yuqori darajadagi samaradorlik va katta innovatsiyalarni kuchaytirishda narx signallariga asoslanuvchi bozorlar davlat-xususiy sektor hamkorligi kabi samarali bo‘lmaydi. Innovatsion iqtisodiyot tarafdorlarining ta’kidlashicha, bugungi kunda zamonaviy bilimga asoslangan iqtisodidagi iqtisodiy o‘shishni neoklassistlar ta’kidlaganidek kapital jamg‘arish emas, balki innovatsiyalar ta’minlaydi¹. Innovatsion iqtisodiyotdagi iqtisodiy o‘shish tadbirkorlik va innovatsiyalar (ya’ni, ITTKI xarajatlari, ruxsatnomalar, litsenziyalar) ga imkon beruvchi bilimlar, rejimlar va siyosatning, innovatsion muhit (klasterlar, aglomeratsiyalar, metropoliya hududlari)ni yaratuvchi hamkor korxonalar va innovatsion tizimlar o‘rtasidagi texnologik o‘zgarishlar va tashqi ta’sirlarning yakuniy mahsulotidir^{2,3}.

Nazariy jihatdan innovatsion iqtisodit 6 asosiy komponentdan iboratdir⁴:

1. Ta’lim;
2. Fan;
3. Inson kapitali;
4. Innovatsion iqtisodiyotning huquqiy asosi va moddiy komponentlarini qamrab oluchi innovatsion tizim (texnologik transfer markazlar, biznes-

¹[www.theIngenesistProject./A Definition for Innovation Economics by Dan Roble on November 26, 2009](http://www.theIngenesistProject./A%20Definition%20for%20Innovation%20Economics%20by%20Dan%20Roble%20on%20November%2026,%202009)

²Antonelli, C. The economics of innovation, new technologies, and structural change.– London: Routledge. 2003. –67-p.

³Johnson B. (2008). Cities, systems of innovation and economic development//.Innovation: Management, Policy, and Practice.–Volume 10, № (2/3).–146-p.


⁴Корчагин Ю. А. Человеческий капитал и инновационная экономика России –. Воронеж: ЦИРЭ, 2012. – С.73

inkubatorlar, texnoparklar, texnologik shaharlari, innovatsion markazlar, klasterlar, hududlar, venchur biznes va boshqalar);

5. Yangiliklarni amalga oshiruvchi innovatsion sanoat;
6. Inson kapitali, ishchi kuchi va innovatorlarning hayot faoliyati uchun qulay bo'lgan muhit.

Innovatsion iqtisodiyotning eng muhim elementi bo'lmish inson kapitali doimo iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega sanaladi. Bu o'ridna esa, inson kapitali mamlakat aholisining barcha bilimlari, iqtidor va qobiliyatlari, tajribasi, aqli hamda donoligining yig'indisi sanaladi. Iqtisodiy faoliyat turlarining bilim sig'imkorligi tobora oshayotgan bir paytda yuqori malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Shu sababli ham, ilm-fan, ta'lim, ITTKI, innovatsion ishlanmalarga kiritilayotgan investitsiyalar iqtisodiy o'sishning kalitiga aylanmoqda¹.

Innovatsion iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini 4 guruhga ajratish mumkin:



¹National innovation systems. –Paris: OECD, 1997.–11-p.

16.2.1-rasm. Innovatsion iqtisodiyotning komponentlari

Manba: Korchagin Yu. A. Chelovecheskiy kapital i innovatsionnaya ekonomika Rossii. –Voronej: SIRE, 2012. – S.73

Bundan tashqari, quyidagi ko‘rsatkichlar ham innovatsion iqtisodiyotning xususiyatlarini belgilaydi ¹:

□ 4-6 texno-iqtisodiy paradigmalari (4-texno-iqtisodiy paradigmalari (ishlab chiqarish liniyasi, simli telefon aloqasi, avtomobilsozlik, samolyotsozlik, yoqilg‘i kimyosi); 5-texno-iqtisodiy paradigmalari (mikroElektronika, informatika, biotexnologiya, genetik muhandislik, yangi energiya turlari, materiallar, kosmik tadqiqotlar, yo‘ldoshli aloqa, optik-fibrli texnika, robototexnika) va innovatsiyalarning 6 to‘liqini (nanoElektronika, molekulyar va nano fotonika, biotexnologiya, nano-biotexnologiya, kognetiv fanlar, ijtimoiy-gumanitar texnologiyalar);

□ Iqtisodiy erkinlikning yuqori ko‘rsatkichi. Erkin iqtisodiyotda har bir insonning o‘z mehnativa mol-mulkini nazorat qilishi uning asosiy huquqidir. Iqtisodiy jihatdan erkin jamiyatda, odamlar erkin ishlaydilar, ishlab chiqaradilar, iste‘mol qiladilar va xohlagan uslubda sarmoyalar bilan shug‘ullanadilar¹;

□ Iqtisodiyotning raqobatbardoshligi. Aynan raqobat shaxsning, iqtisodiyotning, jamiyat va inson kapitalining dvigateli bo‘lib, iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sanaladi²;

□ Kapitalni almashtirish. Inovatsion iqtisodiyotda inson kapitali jismoniy kapitalni almashtiradi va bu milliy boylikni oshiradi³;

□ Yangi bozorni ishga tushirish. Yangi bozorlarda iqtisodiyotning eski tuzilmalari g‘oyalar, rivojlanish, intellektual mulk, innovatsion mahsulotlar bilan almashtiriladi va yangi sifatga o‘tadi;

¹Корчагин Ю.А. Современная экономика России. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008.–С.403

¹ “Frequently Asked Questions”. Index of Economic Freedom. 2009-01-25

²Портер. М. Д. Конкуренция. Пер. с англ. М.: Вильямс, 2003.

³Несторов Л., Аширова Г. Национальное богатство и человеческий капитал//Вопросы Экономики, РАН–М.: 2003.,–№2. (available at: www.historyodeconmics.narod.ru/16.09.02-23.06.03)

□ Bozorning xilma-xilligi tamoyili (innovatsion mahsulotlar bozori, xizmatlar, takliflar, talab, intellektual mulk, intellektual mehnat, bilim va g'oyalar, innovatsion ilmiy tashkilotlar, biznes farishtalar va boshqalar);

□ Innovatsiyalarga bo'lgan talab va innovatsiyalarning ko'pligi.

Shuningdek, venchur biznesga, ilmiy-texnikaviy va texnologik biznesni rivojlantirishga katta e'tibor berish muhimdir. Venchur biznes ilmiy kashfiyotlar, ixtirolar, yirik va o'rta texnologik innovatsiyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, tadbirkorlik nuqtai nazaridan yuqori foyda olishni maqsad qiladi. Rivojlanish nuqtai nazaridan innovatsiyalar va jahonning yuqori texnologiya bozorida Etakchilik qiluvchi yangi kuchli kompaniyalarni yaratishga qaratilgandir. Global innovatsion iqtisodiyot asosan g'oyalar tomonidan boshqariladi va sanoat iqtisodiyotidan katta farq qiladi (qarang: 16.2.1-jadval).

16.2.1-jadval.

Sanoat iqtisodiyoti va innovatsion iqtisodiyot o'rtasidagi farq

	Sanoat iqtisodiyoti	Innovatsion iqtisodiyot
Hom-ashyo	Tabiiy resurslar, ishchi kuchi, kapital	G'oyalar
Mijozlar tomon yo'nalish	Ommaviy ishlab chiqarish	Axborot texnologiyalari va mahsulot dizayniga asoslangan ommaviy kastomizatsiyalash
Tashkiliy jihat	Katta korporatsiyalar, masshtab iqtisodiyoti	Tadbirkorlar, kichik o'lchamlilik, Erkin agentliklar, tarmoqlar
Omad olib keluvchi omil	Mehnat; Sifat; Arzon narx Barqarorlik; Nazorat	Talant tezligi, innovatsiya Moslashuvchanlik; Kastomizatsiyalash

Source: The innovation driven economic development model. A practical guide for the regional innovation broker. Collaborative Economics.–California, 2008.–5-p. (available at: www.InnovateCalifornia.com)

Innovatsion iqtisodiyotni ishlab chiqish va yangi bozorlarni shakllantirish jarayonini rag‘batlantirish uchun innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlovchi maxsus innovatsion infratuzilmani va institutlarni yaratish zarur. Bu Erda mamlakatlarning milliy innovatsion tizimlari hal qiluvchi omilga aylanadi. Milliy innovatsion tizim odamlar, korxonalar va muassasalar o‘rtasida texnologiya va axborot oqimini anglatadi va milliy darajada innovatsion jarayonni ta‘minlaydi. Iqtisodchilar milliy innovatsion tizim (MIT)ga turlicha ta‘riflar beradilar:

– MIT – davlat va xususiy sektorda faoliyat yurituvchi va yangi texnologiyalarni import qilish, o‘zgartirish va tarqatish sohasidagi o‘zaro aloqador muassasalar tarmog‘i¹;

– MIT– yangi, iqtisodiy va foydali bilimlarni ishlab chiqarish, tarqatish va ulardan foydalanishda o‘zaro ta‘sir qiluvchi, bir millat davlati chegaralarida joylashgan yoki ildiz otgan elementlar va munosabatlardir¹;

– MIT– milliy kompaniyalarning innovatsion faoliyatini belgilab beruvchi institutlar to‘plamidir²;

– MIT–mamlakatda texnologik ta‘limning darajasi va yo‘nalishini belgilaydigan milliy institutlar, ularni rag‘batlantiruvchi tuzilmalar va vakolatlar yig‘indisi³;

– MIT–yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tarqatish uchun birgalikda va individual ravishda o‘z hissasini qo‘shadigan turli xil muassasa va tashkilotlar bo‘lib, ular hukumatning innovatsion jarayonga ta‘sir o‘tkazish siyosatini shakllantiradi va amalga oshiradi. Shunday qilib, MIT yangi texnologiyalarni

¹ Freeman C. The National System of Innovation in Historical Perspective//Cambridge Journal of Economics.– Cambridge, 1995. – No. 19.P. 5-24

¹ Lundvall, B.A. National Innovation Systems: Towards a Theory of Innovation and Interactive Learning. –London: Pinter, 1992. –45- p.

² Nelson, R. National innovation systems. A comparative analysis. –New York: Oxford University Press, 1993. – P.102

³ Patel, P and Pavitt L. The Nature and Economic Importance of National Innovation Systems//STI Review– OECD: Paris, 1994.–№. 14

aniqlaydigan bilim, ko'nikma vaishlarni yaratish, saqlash va uzatish uchun o'zaro bog'langan muassasalar tizimi ¹.

Innovatsion jarayonda universitetlar; ITTKI institutlari; kansalting markazlari; yuridik institutlar; marketing agentliklari; Etkazib beruvchilar, iste'molchilar va boshqalar asosan axborot oqimlari orqali faoliyat yuritadilar. Tadqiqotchilar innovatsion jarayon, milliy xo'jalikning innovatsion faoliyatida bilimning bosh omil ekanini ta'kidlab, kichik hajmda bo'lsada, ammo ochiq bilim katta hajmdagi, ammo yopiq bilimdan ko'ra ko'proq samara olib kelishini aytadilar. Bu esa innovatsion tizim faolitini tushunish, tarqash va diffuziya qiliga yordam beradi².

Bugungi kunda milliy innovatsion tizimni shakllantirishning universal amaliyoti yo'q. Biroq ekspertlar Evro Atlantik, Sharqiy Osiyo modelini va rivojlanayotgan mamlakatlar modeli keltirib o'tadilar. Barcha modellarning taraqqiyoti quyidagi shart-sharoitlarga asoslanadi ¹:

- Iqtisodiy rivojlanishning Etarlicha darajasi – innovatsion tizimni moliyalashtirish uchun tegishli mablag'lar ajrata oladigan rivojlanish darajasi bo'lib, YaIM va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaIM) bilan belgilanadi;

- milliy innovatsion tizimni shakllantirish va rivojlantirish uchun Etarli bo'lgan texnologik va innovatsion salohiyat;

- Innovatsion rivojlanishga yo'naltirilgan institutlarning mavjudligi;

- uy xo'jaliklarining innovatsiyalarga bo'lgan talablari.

Innovatsion tizimda innovatsion faoliyatni moliyalashtirish muhim ahamiyatga ega. Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda g'oyalar va bilimlarni yakuniy mahsulotga aylantirish va ularni amaliyotga joriy qilish uchun zarur moliyaviy resurslarni jalb qilishni tushunamiz. Iqtisodchilar innovatsion faoliyatni

¹ Metcalfe, S. The Economic Foundations of Technology Policy: Equilibrium and Evolutionary Perspectives. Handbook of the economics of innovation and technological change. – Blackwell Oxford, 1995

² Cowan R. and Gert van de Paal. Innovation policy in a knowledge-based economy. The Commission of the European Communities, Luxembourg. – ECSC-EC-EAEC: Brussels-Luxembourg, 2000. –21-p.

¹ Камилова М.Х., Ходжаева К.А. Модернизация экономики Узбекистана: формирование национальной инновационной системы (www.ukros.ru>2013/03>камилова_ходжаева)

moliyalashtirishni manbasiga ko‘ra ikki turni ajratadilar: davlat tomonidan moliyalashtirish va xususiy moliyalashtirish.

Innovatsion iqtisodiyotni rag‘batlantirish uchun ayrim xorijlik iqtisodchilar quyidagi takliflarni beradilar¹:

- ishchi kuchi samaradorlini o‘lchash uchun yaxshiroq o‘lchovlardan foydalanish. Ishchining yoki barcha ishchilarning ish soatining YaIMga nisbatan hisoblanuvchi eskicha yondoshuvlar raqamli texnologiyalarning transformatsional tabiatini nazardan chetda qoldiradi;

- kichik biznes, startaplarni boshlash uchun kreditni kengaytirish orqali tadbirkorlikni rag‘batlantirish, maktab o‘quv dasturlariga tadbirkorlik ko‘nikmalarini qo‘shish;

- hukumatning innovativligi va hamkorligini kuchaytirish, xizmat ko‘rsatishning yangi yondashuvlari rivojlantirish, shaffoflikni oshirish;

- keng tarmoqli, axborot uzatish markazlari va mobil uyali aloqalariga investitsiya kiritish orqali infratuzilmani mustahkamlash va simsiz dasturlardan foydalanishni yaxshilash;

- muhim raqamli aktivlarni himoya qilish, muhim infratuzilmalarga tahdidlarni monitoring qilish jarayonlarini ishlab chiqish;

- raqamli darsliklar orqali bilimlarni Etkazib berishni takomillashtirish, o‘quv materiallari uchun ijodiy uyushmalarning litsenziyalaridan keng foydalanish;

- davlat va xususiy sarmoyalarni ish joylari va iqtisodiy faoliyatga aylantirish, shuningdek, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik va farovonlikni yaxshilash uchun universitetlar va mahalliy laboratoriyalardan bilimlarni tijoratlashtirishda keng kengaytirish;

- global innovatsiyalar va iqtisodiy erkinlikni rag‘batlantirish uchun transchegaraviy qonunlarni uyg‘unlashtirish.

Innovatsiyalar mamlakat va uning iqtisodiyotini rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan sanaladi. A.Toffler, F.Fukuyama, D.Bell kabi

¹West D., Friedman A., and Valdivia W. Building an innovation-based economy. Governance Studies at Brookings, – November 2012.– 1-p..

iqtisodchilarning ta'kidlashicha, aynan innovatsiyalar zamonaviy dunyoda rivojlangan mamlakatlarning boshqa mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy ustunligini belgilab bermoqda. Shuningdek, Massachusetts Texnologiyalar Instituti professori D. Achemogluning fikricha “innovatsiya uzoq muddatli o'sish uchun eng muhim narsaligiga iqtisodchilarning 95 foizi qo'shiladi”. Misol uchun, innovatsiyalarning ahamiyati va muhim roli tufayli, 2008-yilda Katta 20 talik (G-20) rahbarlari tomonidan “dinamizm, innovatsiya va tadbirlorlik iqtisodiy o'sish uchun muhimdir” deb nomlanuvchi qo'shma bayonotni qabul qilindi¹.

Har yili global innovatsiyalar indeksi, global ijodkorlik indeksi, global raqobatbardoshlik indeksi, bilimlar iqtisodiyoti indeksi, tarmoqqa tayyorlik indeksi, Blumberg innovatsiyalar indeksi, Jahon iqtisodiy forumining hisobotlari, Birlashgan Millatlar Tashkilotining innovatsion salohiyatiga ko'ra dunyo mamlakatlarining reytinglari e'lon qilib boriladi.

Global innovatsiyalar indeksi (GII) har yili chop etiladigan nashr bo'lib, unda mamlakatlarning (iqtisodiyotlarning) innovatsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratishi va innovatsion natijalari bo'yicha yig'ma ko'rsatkichi taqdim etiladi. GII 140 dan ortiq mamlakatlarni 84 ko'rsatkichdan foydalangan holda baholaydi. Iqtisodiy o'sish va farovonlik omili sifatida innovatsiyalarning muhim roli e'tirof etilib, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llaniladigan innovatsiyalarga keng gorizontdan qarash zarurligini ta'kidlagan holda, GII an'anaviy innovatsion tadqiqotlar darajasiga kirmaydigan ko'rsatkichlarni ham o'z ichiga oladi. Jahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO), Kornel universiteti va Evropa biznes boshqaruvi instituti (INSEAD) tomonidan birgalikda nashr etiladigan Global Innovatsiyalar Indeksi bo'yicha 2019yilda Shveysariya, Shvetsiya, AQSh, Gollandiya va Buyuk Britaniya dunyoning eng innovatsion jihatdan rivojlangan mamlakatlari sanaladi ¹. Blumberg Innovatsiyalar Indeksining

¹www.innovationexcellence.com/blog/2015/02/03/triumph-of-the-innovation-economy-part-7/ February3, 2015 by Rowan Gibson

¹https://www.wipo.int/global_innovation_index/en/2019/

2019 yilgi reytingiga ko'ra esa Janubiy Koreya, Germaniya, Finlandiya, Shvetsariya, Istoil jahonda Etakchilik qiladi ¹.

Xulosa qilib aytish mumkin, jahon iqtisodiyotida zamonaviy tendensiyalardan hisoblanuvchi innovatsion iqtisodiyot rivojlanishning yangi bosqichi sanaladi. Innovatsiya asoslanuvchi iqtisodiyot inson kapitali, fan, ta'lim, ishlab chiqarish, institutlarning samaradorligi, infratuzilma, bozor ba biznesning rivojlanganlik darajasi, bilim va va texnologik natijalarning yig'indisi bo'lib, unda bilim, ijodkorlik, olimlar va ixtirochilar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy resursi sanaladi. Milliy innovatsion tizim mamlakatning innovativligini va uning global maydonda raqobatbardoshligini belgilab, innovatsion siyosatning asosiy yo'nalishlarini aniqlab beradi. Shunday ekan, innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslarini hayotga tadbiiq etgan, jozibador innovatsion muhitini yaratgan mamlakatlarga global raqobatda ustunliklarga ega bo'laveradi. Natijada, hukumat va xususiy sektorning mustahkam hamkorligi yaratilib, uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga asos solinadi.

16.3. Innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash yo'nalishlari

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish zaruratini iqtisodiyotda davriylik tavsifiga ega bo'lgan iqtisodiy inqirozlarning vaqti-vaqti bilan sodir bo'lib turishi, bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik sub'yektlarining moliyaviy mustaqilligini va raqobatbardoshligini ta'minlash, tabiiy, iqtisodiy va mineral resurslarning cheklanganligi, aholi sonining uzluksiz ravishda oshib borishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi asosiy fondlarning eskirish darajasining yuqoriligi kabi omillar kiradi. Ushbu omillarning har biri muayyan funksional vazifani bajaradi. Mazkur omillar har bir milliy davlatni innovatsion rivojlanish yo'lini tanlashga

¹<https://www.bloomberg.com/news/articles/2019-01-22/germany-nearly-catches-korea-as-innovation-champ-u-s-rebounds>

majbur etadigan va mamlakatda esa barqaror iqtisodiy o‘shni ta’minlaydigan omillar hisoblanadi.

Innovatsion rivojlanish o‘tishda turli strategiyalardan foydalaniladi. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda asosan “o‘stirish”, “olib kelish” va “tanlov – seleksiya” strategiyalaridan birini yoki bir nechasidan bir vaqtning o‘zida foydalaniladi.

”O‘stirish” strategiyasi - mahalliy ilmiy-texnik salohiyatga tayangan xolda, chet el mutaxassislarini jalb kilib, fundamental va amaliy tadkikotlar natijalari asosida, doimiy ravishda yangi turdagi ilmiy hajmdor maxsulotlar ishlab chikariladi, yaratilgan ilg‘or texnologiyalar sanoatda va ijtimoiy soxalarda o‘zlashtiriladi.

”Olib kelish” strategiyasi - chet davlatlarda mavjud, iqtisodiyotda samara ko‘rsatgan texnologiyalarga litsenziya sotib olinadi va tashki bozorda extiyoj sezilayotgan maxsulotlar ishlab chikariladi. Kelajakda, maxalliy sharoitlarga moslashgan, ishlab chikarish jarayonlarining barcha boskichlarini kamrab olgan, fundamental tadkikotlardan to ishlab chikarishgacha bulgan davrni o‘z ichiga olgan xuddi shunday texnologiya yaratiladi.


”Tanlov–seleksiya” strategiyasi - mamlakat fanini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanadi. Mavjud intellektaul salohiyat va iqtisodiyotning ehtiyojlaridan kelib chiqib davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-texnika dasturlari shallantiriladi. Davlat boshkaruvi va bozor iqtisodiyoti elementlarining uyg‘unlashuvi asosida innovatsiya jarayonlari faollashtiriladi¹.

Mamlakatning innovatsion rivojlanishini bir necha guruh indikatorlari orqali baholash mumkin. Jumladan, innovatsiion rivojlanish indikatorlarini iqtisodiy, ijtimoiy va faol investitsiya sohalari bo‘yicha guruhlash mumkin. Iqtisodiy sohadagi innovatsion rivojlanish indikatorlari ichida iqtisodiy erkinlik indeksi yuqoriligi, kapital joylashuvi va oqimining jo‘shqinligi, samarali investitsion siyosat, raqobat muhitining mavjudligi indikatorlari muhim ahamiyatga ega.

¹ Қаранг: Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изоҳли луғати.-Т.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 203-бет.

Ijtimoiy sohada innovatsion rivojlanish indikatorlar tarkibiga inson kapitali va uning sifatini, aholining hayot sifati va darajasini ifodalovchi, shuningdek, chet el investitsiyalarini jalb etish uchun tegishli sotsial infratuzilmaning mavjudligini ifodalovchi indikatorlar kiradi.

Faol innovatsion faoliyat sohasida mamlakatning global innovatsion reytingdagi o'rnini, indeksining darajasi, YaIM tarkibida ITTKI ga ajratilayotgan mablag'ning ulushi, innovatsion faoliyat sub'yektlariga qo'llanilayotgan keng qamrovli turli imtiyozlar tizimining mavjudligini ifodalovchi indikatorlar qo'llaniladi (qarang: 16.3.1-rasm).



16.3.1.-rasm. Innovatsion rivojlanish indikatorlari¹

Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishini ifodalovchi mezonlarning asosiylari sanoatning rivojlanganlik darajasi, yuqori texnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, YaIMda ITTKIga qilingan xarajatlar salmog'i, YaIM tarkibida innovatsion mahsulotlar ulushi, mamlakatda qilingan va ro'yxatga olingan ixtirolar, kashfiyotlar, patentlar soni va ularning tijoratlashuv

¹ Шокирова Ф. томонидан ишлаб чиқилган

darajasi hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyotni barpo etishda davlatning va xususiy bo'g'inning katta miqdordagi moliyaviy mablag'larini safarbar etish zarur bo'ladi.

Innovatsion rivojlanishni va innovatsion iqtisodiyotga o'tishni ta'minlash maqsadida innovatsion siyosat amalga oshiriladi. **Innovatsiya siyosati** – bu davlat tuzilmalarining innovatsiya jarayonlarini faollashtirish va ular ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish bilan bog'liq holda iqtisodiyot va umuman jamiyatga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maqsad hamda usullar majmuasidir¹.

Hozirgi vaqtda innovatsiya siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

a) milliy mahsulot raqobatbardoshligi ortishini ta'minlaydigan innovatsiya faolligini kuchaytirish;

b) zamonaviy texnologiyalar asosini tashkil etadigan innovatsiyalarni butun choralar bilan qo'llab-quvvatlash;

v) yangi mahsulotlar va ilg'or texnikaviy ishlanmalarga asoslangan texnologiya yaratish hamda keyinchalik ularni moddiy ishlab chiqarish sohasida joriy etish uchun ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik loyihalarini moliyalashtirish;

g) innovatsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni raqobatbardosh bozor innovatsiya mexanizmi samarali amal qilishi va intellektual mulkni himoyalash bilan qo'shib olib borish;

d) innovatsiyalarni amalga oshirish uchun ishlab chiqarish va umuman iqtisodiyotning texnikaviy darajasini tubdan o'zgartirishga qaratilgan qonunchilik va axborot asosini yaratish;

e) texnologiyalarning xalqaro va mintaqalararo transferti, xalqaro investitsiyaviy hamkorlik, milliy innovatsiya tadbirkorligi manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashish¹.

Innovatsion iqtisodiyotga o'tishda quyidagi indikatorlarning zaruriy chegarasini kiritish lozim bo'ladi:

¹ Абулкосимов Х.П., Абулкосимов М.Х. Иқтисодий ҳавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019.-211-212-бетлар.

¹Қаранг: Абулқасимов Х.П., Расулов Т.С. Особенности научно-технической и инновационной политики стран СНГ, Ближнего и Среднего Востока. Учебное пособие.- Т., ТашГИВ, 2017.380 с.

- mehnat unumdorligining oʻsishi iqtisodiy natija (sof daromad) oʻsishining birligiga nisbatan kamida 1,5 martaga, mashinasozlikning ilmhajmkor tarmoqlarda 2 martadan kam boʻlmagan oʻsishiga erishish;
- fondlar tushumining oʻsishi iqtisodiy natija oʻsishining birligiga ilmhajmkor tarmoqlar uchun 5%, iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun minimum 10%dan kam boʻlmasligi lozim;
- Resurslar sigʻimining pasayishi iqtisodiy natija oʻsishining birligiga iqtisodiyot real sektorining barcha tarmoqlari uchun 10%dan kam boʻlmasligi kerak¹.

Moliyaviy mablagʻsiz nafaqat, gʻoya izlash, ilmiy tadqiqot oʻtkazish, zamonaviy jihozlar, asbob-uskunalar orqali sinovlar oʻtkazish, ish haqi berish kabilarni, balki, umumiy innovatsion jarayonni amalga oshirish mumkin boʻlmagan asosiy resurs hisoblanadi. Shu bois ham mamlakatlar oʻzlari erishgan ilmiy-texnik taraqqiyoti darajasini saqlab turish uchun ilmiy-texnologik faoliyatga kiritiladigan investitsiyalarini doimiy oshirib borishlari lozim. 2010-2017 yillar mobaynida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmanlari (ITTKI) xarajatlarining yillik oshishi dunyoda oʻrtacha 5%¹ ni tashkil etgan boʻlsa, dunyo YaIM i bu vaqt oraligʻida oʻrtacha 3%² darajasida oʻsdi. Absolyut narxlarda esa dunyo ITTKI xarajatlari 1437,0 mlrd. AQSh dollaridan rekord darajadagi koʻrsatkich – 2 trillionga Etdi³. Hozirga paytda tadqiqot va ishlanmalarga investitsiya kiritish boʻyicha birinchi beshtalikdan AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Koreya Respublikasi kabi yirik iqtisodiyotga ega mamlakatlar joy olgan, ularga jami xarajatlarning 54% i toʻgʻri keladi (qarang:16.3.1-jadval).

16.1.1-jadval.

Dunyo mamlakatlarning ITTKI xarajatlari

¹Абулқосимов Х.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодий хавфсизлик: назария ва амалиёт. Ўқув қўлланма.- Т.:Ноширлик ёғдуси, 2019.- 212-бетлар.

¹ Муаллиф томонидан The UNESCO Institute for Statistics (<http://uis.unesco.org/>) маълумотлари асосида аниқланди.

² <https://www.worldometers.info/gdp/>

³ The UNESCO Institute for Statistics (http://data.uis.unesco.org/Index.aspx?DataSetCode=SCN_DS&lang=en#)

bo'yicha reytingi¹

Mamlakat	2010 y.	Mamlakat	2017 y.
	ITTKI xarajatlari, mlrd. doll. (XQP bo'yicha)		ITTKI xarajatlari, mlrd. doll. (XQP bo'yicha)
AQSh	395,8	AQSh	538,0
Xitoy	141,4	Xitoy	445,0
Yaponiya	142,0	Yaponiya	185,0
Germaniya	68,2	Germaniya	115,0
Koreya Respublikasi	42,9	Koreya Respublikasi	85,0
Jami	648,3	Jami	1368,0

ITTKI ni moliyalashtirishning davlatlar YaIM iga nisbatan xarajatlaridagi geografik tavofutlar mamlakat yoki mintaqaning global innovatsion tizimda ishtirok etish darajasini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot va ishlanmalarga moliyaviy xarajatlarning miqdori aksariyat hollarda davlat YaIM hajmiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi. Ya'ni, dunyoning YaIM hajmi bo'yicha gigantlari global miqyosda ITTKI ni moliyalashtirishda ham Etakchi hisoblanishadi.

Jahonda ITTKI ni moliyalashtirishning uchta asosiy manbasi mavjud: davlat, xususiy va xorijiy. Birinchi ikki sektorning jami investitsiyalardagi ulushi 90% ni tashkil etadi. Bugungi kunda ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun xususiy kompaniyalar va fondlar tomonidan berilayotgan xorij kapitalning o'zni nihoyatda muhim sanaladi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab dunyo mamlakatlarining innovatsion faoliyatda o'zaro hamkorliklari kuchaya boshladi. Bunda transmilliy kompaniyalar (TMK) katta rol o'ynadi. Hozirda ular ko'plab rivojlanayotgan davlatlar (Hindiston, Malayziya, Tailand va boshqalar) hamda Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlari milliy innovatsion tizimimda asosiy innovatsion

¹ R&D Magazine December 2010; R&D Magazine December 2018 (www.digital.rdmag.com)

faktor hisoblanishadi. Aynan ular TMK lar orqali rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida bilimlar, hoyalari va innovatsiyalar almashinuvi yuz beradi.

Ilmiy-texnik kadrlar joylashuvining o'ziga xosligi ularni mamlakatlar va mintaqalarning kam sonli guruhlarida katta hajmda markazlashishi bilan xarakterlanadi. Misol uchun, Evropa, Osiyo, Shimoliy Amerikaning ko'p sonli aholiga ega davlatlari hissasiga dunyo ilmiy-texnik kadrlarining 90% i, sanoati rivojlangan mamlakatlariga esa 60% dan ortiqrog'i to'g'ri keladi (16.3.2-jadval)

16.3.2-jadval.

Dunyo mamlakatlarining tadqiqotchilar soni bo'yicha reytingi (har ming kishiga)¹


№	Mamlakat	2010	2017
1	Daniya	13.4	15.5
2	Shvetsiya	11	14.6
3	Finlandiya	16.7	14.5
4	Koreya Respublikasi	11	14.4
5	Norvegiya	10.2	12

Keyingi mezon sifatida yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish va eksport qilishni ko'rsatish mumkin. Yuqori texnologik mahsulotlar ITTKI asosida yaratilgan sanoat tovarlari bo'lib, ularni ishlab chiqarishda ham moliyaviy, ham inson resurslari talab etiladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ishlab chiqarishdagi jori qilingan ilmiy uslublar va ITTKI ga qilingan xarajatlardan kelib chiqib yuqori texnologik mahsulotlar eksportining to'rt darajali klassifikatsiyasini ishlab chiqqan bo'lib, unga ko'ra ular eng yuqori, o'rta-yuqori, o'rta-past hamda past darajalarga bo'linadi. Xalqaro savdo standarti klassifikatsiyasiga ko'ra yuqori texnologiyalarga quyidagi sohalar kiradi: aerokosmos, kompyuter, elektronika-telealoqa, farmatsevtika, mashinasozlik, kimyo².

¹ OECD Data (<https://data.oecd.org/rd/researchers.htm>)

² https://ec.europa.eu/eurostat/cache/metadata/Annexes/htec_esms_an5.pdf

Tadqiqotlarga ko‘ra butun jahon yuqori texnologik mahsulotlar bozori hajmi doimiy o‘sib boradi va o‘rtacha yillik o‘sishi 3-4%ni tashkil etadi. Mazkur bozor 2014 yilda o‘zining eng yuqori ko‘rsatkichi – 2,15 trln. AQSh dollariga Etgan bo‘lib, Jahon banki tomonidan taqdim qilingan so‘nggi ma’lumotga ko‘ra, keyingi yillarda dunyo neft bozorida narxlarning tushishi, aksariyat davlatlar iqtisodiy o‘sishining sekinlashuvi oqibatida 1,99 trln (2017 y.) ga pasaydi¹. Davlatlar misolida Etakchilik Xitoy Xalq Respublikasiga tegishli bo‘lib, 2017 yilda jami yuqori texnologik ishlanmalarning to‘rtidan biri (504 mlrd. AQSh dollari) uning hissasiga to‘g‘ri keladi.



16.3.2-rasm. Yuqori texnologik eksport bo‘yicha 2017 yilda jahonning Etakchi Top-10 davlatlari (mlrd. doll.; %)¹

Ikkinchi va uchinchi o‘rinlarni Germaniya va Singapur egallagan bo‘lib, 2017 yilda mazkur davlatlar birgalikda dunyo texnologiyalarining 16% ini (307,8 mlrd. doll.) eksport qilgan. Bunda 2010-2017 yillar oralig‘ida Germaniya

¹ World Bank Data (<https://data.worldbank.org/indicator/TX.VAL.TECH.CD?end=2018&start=2010>)

¹ <https://knoema.ru/atlas/ranks/Экспорт-высокотехнологических-товаров>

Etkazmalari ikki barobarga ko‘paygan bo‘lsa, Singapur dunyoning eng katta iqtisodiyoti – AQSh ni quvib o‘tdi.

Mamlakat innovatsion faolligi ixtirolarga talabnomalar yoki berilgan patentlar soni orqali ham tavsiflanishi mumkin. Ularning soni nafaqat davlat sanoat rivojlanishining ko‘rsatkichi, balki innovatsion harakatlar, amaliy tadqiqotlar va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarning rivojlanish darajasining tashqi belgisi ham hisoblanadi.

Bugungi kunda yirik xalqaro tashkilotlar yirik mamlakatlarning texnologik faolligini ularning Amerika yoki Evropa patent idoralariga berilgan talabnomalar orqali baholab boradilar. Ulardan eng yirigi bo‘lgan Jahon intellektual mulk tashkiloti (World Intellectual Property Organization) ga ko‘ra, 2018 yilda patent talabnomalari soni bo‘yicha AQSh (56142 ta), Xitoy (53,345 ta) va Yaponiya (49,702 ta) Etakchi bo‘lib, ular umumiy patentlar hajmida mos ravishda 22,2%, 21,1% va 19,6% ulushga egalik qilmoqda¹.

Yuqorida qayd etib o‘tilgan ko‘rsatkichlarni tahlil etish natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy bosqichda innovatsionlik darajasi aksariyat hollarda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yuqoriligicha qolmoqda. O‘z-o‘zidan aksariyat hollarda aynan o‘z milliy innovatsion tizimini to‘g‘ri shakllantira olgan davlatlar iqtisodiy xavfsizlik jihatidan ham boshqa iqtisodiyotlarga qaraganda Etakchilik qilmoqda. Xulosa qilib aytganda, bugungi sharoitda mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash innovatsion rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liq holda amalga oshirilishi lozim.

16.4.O‘zbekistonda innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga o‘tishning xususiyatlari

O‘zbekiston Respublikasiing milliy innovatsion tizimi yaratilgan bo‘lib, uning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi; Innovatsion g‘oyalar,

¹ WIPO (2019), PCT Yearly Review 2019: The International Patent System. Geneva: WIPO.

texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi ishchi guruhi; Iqtisodiyot Vazirligi; Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish ko'mitasi; Fanlar Akadamiyasi; Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligi; Sog'liqni saqlash vazirligi; Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi; Xalq ta'lim vazirligi. *O'zbekiston Respublikasidagi innovatsion faoliyat* davlat tomonidan (qonunchilik va o'zgaruvchan soliq tizimi, davlat va idora jamg'armalari, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yirik dasturlar va boshqalar orqali) tartibga solinadi. Ustuvor davlat dasturlariga oid innovatsiya loyihalarini tadbiiq etish bo'yicha mas'uliyat Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi zimmasiga yuklatilgan. Mamlakatimizda yaratilgan ilmiy hajmdor innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish masalalarini ko'rib chiqishni Iqtisodiyot vazirligi qoshida tashkil etilgan Texnologiyalar transferi agentligi, innovatsiyalarni patent bilan himoyalash ishlarini Intellektual mulk agentligi amalga oshiradi. Eksportga chiqariladigan innovatsiyalar, litsenziyalarni sotish va investitsiyalarni jalb etish masalalari Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi ko'magida amalga oshiriladi¹.

Mamlakatimizda innovatsion rivojlanish tizimini shakllantirish va rivojlantirish quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda:

-ilmiy-texnikaviy rivojlanishni boshqarishning ma'muriy usullarini bosqichma-bosqich ilmiy-texnik ijodkorlikni, kreativlikni rag'batlantirishga qaratilgan iqtisodiy tartibga solishning bozor usullari bilan almashtirish;

- amaldagi fan va ilmiy tadqiqot tizimini qayta tashkil etish va zamonaviy modellar va ilg'or tajribalarni hisobga olgan holda ilmiy-tadqiqot tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

-fan va ta'lim, ishlab chiqarish va bozorning o'zar bog'liq harakati mexanizmini vujudga keltirish uchun zamonaviy innovatsion rivojlanish infratuzilmasini shakllantirish.

¹ Қаранг: Абулқосимов Ҳ.П., Абулқосимов М.Х. Иқтисодиётга оид атама ва тушунчаларнинг изохли луғати.-Т.:“ABU MATBUOT-KONSALT”, 2017.- 204-205-бетлар.

O‘zbekistonda ilmiy-texnikaviy va innovatsion faoliyatni tartibga solishga qaratilgan huquqiy-me‘yoriy baza yaratilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 29 avgustdagi “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi (yangi tahrir), 2001 yil 30 avgustdagi ” Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida»gi, 1996 yil 30 avgustda qabul qilingan va 2002 yil 29 avgustda yangi tahrirdagi «Seleksiya yutuqlari to‘g‘risida»gi, 2006 yil 20 iyuldagi “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida»gi va boshqa qonunlar qabul qilingan. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 14 yanvardagi R-3557-sonli Farmoyishiga binoan №1 –sonli Ekspert guruhi tashkil etilgan va “Innovatsiyalar va innovatsion faoliyati haqida”gi yangi Qonun loyihasi ishlab chiqilib, keng jamoat muhokamasiga qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 7 avgustdagi “Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 436-son Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 916-son Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 10 noyabrdagi “Ilmiy, ilmiy-tadqiqot muassasalari va tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 241-son Qarori; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 15 oktyardagi “Texnologiyalar Transferi Agentligi” Davlat unitar korxonasi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 228-son Qarori qabul qilingan. 2016 yil 29 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining akademiklari faoliyatini yanada takomillashtirish va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi, 2017 yil 16 fevraldagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 17 fevralda “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi , 2017 yil 17martda “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-

tadbirlari to'g'risida "gi, 2017 yil 20 aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi, 2017 yil 27 iyulda "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, qarorlari va 2017 yil 21 noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida "gi Farmoni qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi farmonida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari etib belgilangan:

-mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish;

-davlat xizmatlari ko'rsatishning tartib-taomillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish;

-hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish;

-innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish sohasiga investitsiyalarni keng jalb etish, ularning yanada rivojlanishini ta'minlovchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish;

-ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ishlanmalarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratish;

-mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatining istiqbolli

yutuqlarini targ'ib qilish va joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari, texnoparklar va boshqa innovatsiyaga yo'naltirilgan tuzilmalarni, xususan, chet el investorlari ishtirokida tashkil etish va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

-tabiatni muhofaza qilish, resurs va energiya tejaydigan texnologiyalarni, jumladan, muqobil energiya manbalarini, suvni tozalash va chuchuklashtirish, undan oqilona foydalanishning zamonaviy shakllarini keng qo'llash orqali faol joriy etish;

-sog'liqni saqlash sohasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va profilaktika qilish, o'z vaqtida va samarali davolashga imkon beruvchi ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va sog'lom avlodni tarbiyalashga qaratilgan kompleks tizimni yaratish;

-agrar sohaga innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarni, shu jumladan ishlab chiqarish samaradorligini va qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga ko'maklashuvchi qishloq xo'jaligi ekinlarining yangi seleksiya navlarini targ'ib qilish;

-iqtisodiyotning real sektori tarmoqlarini har tomonlama rivojlantirishni ta'minlovchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya, sanoat va boshqa innovatsion texnologiyalarni jadal joriy etish;

-innovatsiya faoliyati sohasida ilg'or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish¹.

O'zbekistonda ilmiy potensial mavjud bo'lib, mazkur yo'nalishlarni amalga oshirish imkoniyatiga egadir. Quyidagi 16.4.1-jadvalda 2017-yilda mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги 29.11.2017 й.[ПФ-5264](#)-сон фармони// Халқ сўзи, 2017 йил 30 ноябр.

to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Jadvalda ko'rishimiz mumkinki, o'tgan yili mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida jami 1750 ta loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa, ulardan eng katta ulush, ya'ni 39 foizi (683 ta) tabiiy fanlarga to'g'ri kelsa, eng kam ulush, ya'ni 16 foiz loyihalar qishloq xo'jaligi fanlariga to'g'ri kelmoqda.

16.4.1-jadval


2017-yilda mamlakatimizda davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilgan ilmiy-tadqiqot loyihalari to'g'risida ma'lumot

№	Fan yo'nalishlari	Jami loyihalar soni	Shu jumladan:			
			Fundamental loyihalar	Amaliy loyihalar	Innovatsiya ishlari	Yosh olimlar loyihalari
1	Texnika fanlari	482	84	249	95	54
2	Qishloq xo'jalik fanlari	283	27	150	81	25
3	Tabiiy fanlar	683	185	257	177	64
4	Ijtimoiy-gumanitar fanlar	302	66	185	17	34
Jami		1750	362	841	370	177

Manba: www.uzsciEnce.uz/uz/press_07.html O'zbekiston Respublikasi Fan va texnologiyalar agentligida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha III chorak holatiga ma'lumotnoma

Loyihalarning turi bo'yicha qaraydigan bo'lsak, korish mumkinki, umumiy loyihalarning deyarli yarmi amaliy loyihalar bo'lsa, innovatsion loyihalarning ulushi 21 foizga teng.

Quyidagi grafikda ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2000-2016-yillar) berilgan.



16.4.1-rasm. Ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlanmalarini bajargan tashkilotlar dinamikasi (2000-2016 yillar)¹

Ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 2000-yilda mamlakatimizda 301 tashkilotlar ITTKI bilan shug'ullangan bo'lsa, 2016-yilga kelib bunday tashkilotlar soni 2000-yilga nisbatan 136 taga ko'paydi va 437 tani tashkil etdi. Ular tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot tajriba konstruktorlik ishlari hajmi 2016-yilda 396 mlrd. so'mga etdi va 2000 yilga nisbatan 3 barobarga oshdi.

Mamlakatimizda ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni 2017 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 437 tani tashkil etdi, 2010 yilga taqqoslaganda ularning soni 136 taga ko'paydi¹.

O'zbekistonda 2018 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 36,8 mingga yaqin kishilar ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari shug'ullanmoqdalar, bu 2010 yilga nisbatan 3,5% ga ko'paygan. Tadqiqotchi-mutaxassislar soni 2010 yildagi 30043 nafardan 2017 yilda 33320 nafarga etgan, ya'ni 10,9%ga ko'paygan(qarang: 16.4.2-jadval).

¹ <https://stat.uz/uz/432-analiticheskie-materialy-uz/2035-ilm-va-fan> O'zbekiston Respublikasida ilm va fan

¹ Илмий-тадқиқот, тажриба-конструкторлик фаолияти билан шуғулланувчи ташкилотлар сони // НАУКА/stat.uz.

16.4.2-jadval.

Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlar soni (oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-pedagog xodimlarini qo'shgan holda)¹

Ko'rsatkichlar	2000y.	2005y.	2010y.	2015y.	2016y	2017y.
Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar bilan band xodimlar soni, kishi	36837	34094	35550	36839	36984	36785
Shu jumladan, tadqiqotchi-mutaxassislar, kishi	25083	26685	30043	31689	31966	33320
Ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar:						
Fan doktorlari	2009	2353	2526	2111	2242	2291
Fan nomzodlari	8192	8363	9218	8360	8210	7891

Ushbu jadval m'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ilmiy darajaga ega bo'lganlar soni 2010-2016 yillarda kamaygan. Jumladan, fan doktorlari soni shu davrida 11,3%ga, fan nomzodlari esa 11,1%ga kamaygan.

Ta'kidlash lozimki, 2017 yilda fan sohalari bo'yicha tadqiqotchilar soni 31860 kishini tashkil etgan. Ularning 24,5% (7800 kishi) tabiiy fanlar sohasida, 20,6% (6574 kishi) gumanitar fanlar sohasida, 17,4% (5526 kishi) ijtimoiy fanlar sohasida, 37,5% (11960 kishi) texnika, meditsina, qishloq xo'jaligi sohalarida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarganlar¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси йиллик статистик тўплам 2010-2016 йиллар.-Т., 2017.-91-бет; НАУКА/stat.uz.; Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. 2017 йил-Т., 2018.-55-бет.

¹ НАУКА/stat.uz; Ўзбекистонда меҳнат ва бандлик. Статистик тўплам. 2017 йил-Т., 2018.-57-58-бетлар.

Innovatsion taraqqiyotni ta'minlashda oliy ta'lim tizimining roli beqiyosdir. 2020 yil boshiga kelib respublikada 114 ta oliy ta'lim muassasalari, shu jumladan, 93 tasi vatanimizniki, 21 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari faoliyat ko'rsatdi. Keyingi uch yilda 6 ta oliy ta'lim muassasalari va 17 ta filiallar, shuningdek, chet mamlakatlar oliy ta'lim muassasalarining 14 ta filiallari tashkil etildi. Kadrlarga buyurtmachilarning takliflariga asosan oliy ta'lim yo'nalishlari va ixtisosliklari Klassifikatoriga 329 ta ta'lim yo'nalishlari va 582 magistratura ixtisosliklari kiritildi. 2019/2020 o'quv yilida 59 oliy ta'lim muassasalarida sirtqi, 10 ta oliy ta'lim muassasalarida kechki ta'lim shakllari tashkil etildi. Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat yo'nalishlari bo'yicha talabalar soni 410 ming nafarni, magistratura ixtisosliklarida 13 ming talabalar tahsil olishmoqda. Ularning soni keyinga uch yilda 1,7 martaga o'sdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida» 2012 yil 24 iyuldagi PF-4456 farmoni qabul qilingandan so'ng doktoraturada o'qiyotganlar soni keskin o'sdi. Ammo himoya qilganlar soni ko'paymadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi farmoniga asosan ikki bosqichli doktorantura qayta tashkil etildi.

Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan mablag'lar hajmi 2017 yilda 2010 yilga nisbatan 15,7 barobarga, shu jumladan tashkilotning o'z mablag'lari 16,04 barobarga, xorijiy kapital 16,5 barobarga, tijorat banklari kreditlari 2,9 barobarga oshdi (qarang: 16.4.3-jadval)

16.4.3-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar (mlrd. so'm)¹

	2010 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	264,4	5528,3	2571,4	4162,3
Shu jumladan:				
Tashkilotning o'z mablag'lari	184,3	1251,8	1180,0	2956,0
Xorijiy kapital	48,3	156,6	314,9	799,0
Tijorat bank kreditlari	30,0	280,1	157,3	88,4
Boshqa manbalar	1,8	3839,7	919,1	318,8

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish yo'lida O'zbekistonda quyidagi muammolar saqlanib qolmoqda:

-respublikadagi innovatsion faoliyat sub'yektlari (Fanlar akademiyasi, ilmiy-tekshirish institutlari, ta'lim, oliy ta'lim muassasalari, ilmiy ishlab chiqarish markazlari va boshqalar)ning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishdagi harakatlarining sustligi, zamon talabiga javob bermasligi;

-innovatsion iqtisodiyotga o'tishda talab etiladigan infratuzilmaning hududlar kesimida nomutanosib, notekis rivojlanganligi;

¹ Ўзбекистон Республикасининг статистик ахборотномаси. 2017 йил январь-декабрь. /Корхона ва ташкилотларнинг инновацион фаолияти //stat.uz. маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди

-respublikada fan-texnika taraqqiyoti sohasida erishilgan ilmiy natijalar, yangiliklar, ixtirolar, texnika va texnologiyalarni iqtisodiy amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmini hanuzgacha yaratilmagan ;

-milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish relsiga o'tkazishning strategik rejasi, dasturining ishlab chiqilmaganligi hamda xo'jalik amaliyotida istiqbolli prognozlash, rejalashtirish, modellashtirish va dasturlash usullarining qo'llanilmayotganligi;

-innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga kam mablag'ning ajratilishi, moddiy, ilmiy-texnikaviy bazaning zaifligi va ishlab chiqarish quvvatlarining Etishmasligi;

-xodimlar tomonidan ishlab chiqarish jarayonida bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish holatining mavjudligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoniga muvofiq mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish - **Strategiyaning** bosh maqsadi qilib belgilangan.

Bosh maqsadga erishishda **Strategiyaning** asosiy vazifalari quyidagilardan iborat etib belgilangan:

-O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib Global innovatsion indeks reytingi bo'yicha jahonning 50 ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

-barcha darajada ta'lim sifati va qamrovini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimining iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashuvchanligini ta'minlash;

-ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarning ilmiy salohiyatini mustahkamlash va samaradorligini oshirish, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlar natijalarini keng joriy etish uchun ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlikni integratsiya qilishning ta'sirchan mexanizmlarini yaratish;

-innovatsiyalar, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va texnologik ishlarga davlat va xususiy mablag‘lar kiritilishini kuchaytirish, bu sohalaridagi tadbirlarni moliyalashtirishning zamonaviy va samarali shakllarini joriy etish;

-boshqaruvning zamonaviy usullari va vositalarini joriy etish orqali davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish;

-mulkchilik huquqlari himoyasini ta’minlash, raqobatbardosh bozorlar tashkil etish va biznes yuritish uchun teng shart-sharoitlar yaratish, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

-barqaror faoliyat yuritadigan ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmani yaratish.

Mazkur strategiyani amalga oshirish natijasida ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga davlat xarajatlari hajmini YaIMga nisbatan 0,8 foizga, axborot –kommunikatsiya sohasidagi xizmatlarning umumiy eksport hajmidagi ulushini 4 foizga Etkazish mo‘ljallanmoqda¹.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tishda raqamli iqtisodiyot tamoyillarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida **“Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiyasini ishlab chiqishimiz kerak. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini hayotga tatbiq etishimiz zarur.** Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotni kamida 30 foizga o‘stirish, korrupsiyani keskin kamaytirish imkonini beradi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar o‘tkazgan tahlillar ham buni tasdiqlamoqda”², -deb ta’kidlagan edi.

Mamlakatimizning innovatsion iqtisodiyotga o‘tishida faol investitsiya siyosatini amalga oshirish ham dolzarb hisoblanadi. Shu boisdan, davlat rahbari tomonidan 2019 yilga “Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”, deb nom

¹Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2019-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини инновацион ривожлантириш стратегиясини тасдиqlаш тўғрисида”ги 2018 йил 21 сентябрдаги ПФ-5544-сонли Фармони.

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi. 2018 йил 28 декабр. //Халқ сўзи, 2018 йил 29-декабр.

berish taklif qilindi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan iqtisodiyotimiz rivojlanishining muhim sharti bo'lgan faol investitsiya siyosatini izchil davom ettirish vazifasi belgilandi. 2019 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etib, 2018 yilga nisbatan – mana shu raqamga e'tiboringizni qaratmoqchiman – 3,1 milliard dollarga yoki 3,7 barobar o'sdi. Investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 37 foizga Etdi.

Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi. Energetika, neft-gaz, geologiya, transport, yo'l qurilishi, qishloq va suv xo'jaligi, ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti hamda boshqa qator tarmoqlarda chuqur tarkibiy islohotlar boshlandi. Sanoatning 12 ta Etakchi tarmog'ida modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish dasturlari jadal amalga oshirilmoqda. Natijada o'tgan yili iqtisodiy o'sish 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport – 28 foizga ko'paydi. Oltin-valyuta zaxiralarimiz 2019 yil davomida 2,2 milliard dollarga ortib, 28,6 milliard dollarga Etdi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda. Yurtimiz “Xalqaro axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi” bo'yicha 2019 yilda 8 pog'onaga ko'tarilgan bo'lsa-da, hali juda ham orqadamiz. Aksariyat vazirlik va idoralar, korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroq, desak, bu ham haqiqat. Albatta, raqamli iqtisodiyotni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq, qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга murojaatnomasi. 2020 йил 24 январь //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

kirishamiz?! Ertaga juda kech bo‘ladi. Shu bois, raqamli iqtisodiyotga faol o‘tish – kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo‘ladi.

Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor,”¹- deb ta’kidlagan. Shundan kelib chiqib, yurtboshimiz Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma’naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlagan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko‘tarish maqsadida yurtimizda 2020 yilga **“Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”**, deb nom berishni taklif etdi².

Ushbu dastur doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

-bog‘cha yoshidagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini joriy yilda 60 foizga Etkazishimiz zarur. Ushbu maqsadlarga shu yilning o‘zida budjetdan qariyb 1,8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi;

-bu yildan boshlab, tariximizda ilk bora 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimi joriy qilinadi. Bunga budjetdan 130 milliard so‘m ajratilib, bu jarayonda xususiy maktabgacha ta’lim muassasalari ham bevosita ishtirok etadi;

-2020 yilda budjetdan ajratiladigan 1,7 trillion so‘m mablag‘ hisobidan 36 ta yangi maktab qurilib, 211 tasi kapital ta’mir lanadi. Shuningdek, 55 ta xususiy maktab tashkil etilib, ularning soni 141 taga Etkaziladi;

- 2021 yilgi xalqaro baholash jarayoniga tayyorgarlik ko‘rish uchun 348 ta tayanch maktab belgilanib, 6 mingdan ortiq o‘qituvchining malakasi oshiriladi;

-2020-2021 o‘quv yilidan boshlab mutlaqo yangi professional ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilib, 340 ta kasb-hunar maktabi, 147 ta kollej va 143 ta texnikum tashkil etiladi;

¹Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. 2020 йил 24 январь //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

² Ўша ерда.

-kadrlar malakasini xalqaro mehnat bozori talablariga moslashtirish maqsadida milliy malaka tizimi ishlab chiqiladi. Ushbu tizim 9 mingga yaqin kasblar bo'yicha kadrlar tayyorlash imkonini beradi;

-maktab bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2020 yilda kamida 25 foizga va kelgusida 50-60 foizga Etkaziladi;

- 2020 yilda 23 milliard dollarlik investitsiyalar o'zlashtiriladi hamda 206 ta yangi yirik quvvatlar ishga tushiriladi. Jumladan, Sho'rtan gaz-kimyoo kompleksida sintetik suyuq yoqilg'i, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishlab chiqarish quvvatlari barpo etiladi. Yangi Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent metrosining Sirg'ali tarmog'i, Er usti halqa yo'lining birinchi bosqichi ishga tushiriladi¹.

Xulosa

Davlatning innovatsion siyosatini innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- 1)innovatsion rivojlanish fondlari uchun imtiyozlarni kengaytirish;
- 2)ilmiy-amaliy loyihalar, ishlanmalarga, ilmiy tadqiqot ishlariga imtiyozlarni kengaytirish;
- 3)innovatsion infratuzilmalarni, innovatsiyalar va ilmiy yutuqlar bozorini rivojlantirish;
- 4)kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishni davlat tomonidan rag'batlantirish;
- 5)milliy fan xavfsizligini ta'minlash va ilmiy g'oya va intellektual salohiyatni davlat tomonidan himoya qilishni kuchaytirish.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга муурожаатномаси. 2020 йил 24 январь //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.

MAVZUGA DOIR TAYANCH IBORALAR

Innovatsiya – korxonaning savdo ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyatida boshqaruvning yoki texnologiyaning yangi yutuqlaridan foydalanish.

Iqtisodiy o‘shish sifati – iqtisodiy o‘shishning umumlashgan sifat xarakteristikasi bo‘lib, uning qanday sarflar bilan ta‘minlangani va qanday ijtimoiy-iqtisodiy natija berganligini ifodalaydi.

Nou-xau - korxonadan tomonidan patentlanmagan, lekin rasman xujjatlashtirilgan texnika, texnologiya, axborot, tijorat, boshqaruv bilimlari yig‘indisi.

Venchur va innovatsiya tuzilmalar – tashkiliy tuzilmalarning zamonaviy kurinishi xisoblanadi. Bu ikki nom muayyan darajada sinonim xisoblanadi. Inglizyaa «venturi» siz «tavakkal ish» degan ma‘noni bildiradi. Odatda, biznesda tavakkal ish innovatsiyalar, ya‘ni yangi texnologiyalar, tovarlar yoki xizmatlarni ishlab chiqarishda iboratdir. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan barcha mamlakatlarda kichik biznesda ana shunday tuzilmalar tashkil etiladi. Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, bu bozorning tez o‘zgarayotgan sharoitlariga tez munosabat bildirishning eng istiqbol yo‘lidir.

Intellectual irodaviy sifatlar – bu tadbirkorning aqli ifodasi, sabot va matonati kabi sifatlarini o‘z ichiga oladi. Tashkilotchilar sifatlariga esa tadbirkorning faoliyatini uyushtirish va boshqarish, shu jumladan ishchi xizmatchilarni ishga yondashish ularni ishontira olish va ilxomlantirish kabi sifatlar kiradi.

Sanoat nusxasi – bu maxsulotning taaluqli bo‘lgan badiiy va badiiy-konstruktorlik Echimidir. Sanoat nusxalari xajmli (buyurtma shaklda: ya‘ni model), tekis yuza (rasm) va aralash (kombinatsiyalashgan) ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Sanoat nusxasi muallifi – mualliflik xuquqiga ega bo‘ladi va bu xuquq tortib olib bo‘lmaydigan shaxsiy xuquq xisoblanadi va davlat tomonidan muddatsiz

ximoya qilinadi va patent bilan tasdiqlanadi. Patent 10 yilga beriladi va yana 5 yilga uzaytirilish xuquqi kafolatlanadi.

Sanoat nusxasiga patent – sanoat nusxasi muallifiga: uning qonuniy vorisiga, yoki tegishli shartnoma va arizada bu narsa qayd etilgan bo'lsa, u xolda yuridik shaxsga berilishi mumkin. Dastlabki arizada bu ko'rsatilmagan bo'lsa, u xolda sanoat nusxasi Davlat ReEstriga kiritilguncha bo'lgan muddatda qo'shimcha ariza bilan amalga oshirilishi mumkin.

Intellektual tovarlar bozori – bu bozorning maxsus turi bo'lib, aqliy mexnat maxsuli bo'lmish tovarlar va xizmatlarning ayirboshlashini bildiradi. Bu bozorda sotuvchilar va xaridorlar maxsus tovar xisoblangan ilmiy g'oyalar, texnikaviy yangiliklar, san'at va adabiyot asarlari, xilma-xil axborotlarni oldi-sotdi etish yuzasidan munosabatda bo'ladilar.

Aqli kishilarning ketib qolishi — mamlakatdan "intellektual Elita" vakillarini chet elda ishga joylashish maqsadida chiqib ketishi.

Informatsiya va texnologiyalar jahon bozori (ITJB) — intellektual faoliyat natijalari ayirboshlash xalqaro sohasi.

Innovatsion faoliyat — nazariy modelni bozor talabiga mos texnologiya-tovarga aylantirishdan iborat uzoq jarayondir.

Diversifikatsiya – korxonaning faoliyat soxalari va ishlab chiqaradigan maxsulot turlarining kengayishi.

Gudvill – Yangi texnologiyalar, samarali boshqaruv tizimining qo'llanilishi natijasida qo'shimcha daromad olishga imkon beradigan, korxonada xosil buladigan nomoddiy aktivlarining bir turi.

MAVZUGA DOIR AMALIY MISOLLAR VA KEYSLAR:

1–misol. Qo‘yidagi ma’lumotlar asosida iqtisodiy ko‘rsatkichning bazis va zanjirli o‘shish sur‘atini hamda qo‘shimcha o‘shishni aniqlang

Yillar	1994	1996	1998	2000	2002	2004
Milliy daromad hajmi mlrd.so‘m	17,5	20,0	20,4	20,8	21,5	23,3

Javob:

I. a) 2,5, b) 0,4, v) 0,4, g) 0,7, d) 1,8 - qo‘shimcha o‘shish.

II. a) 14,2, b) 2, v) 0,01, g) 3,3, d) 8,3 – zararli o‘shish.

2–misol. Dastlab «Kelajak tongi» korxonasida urtacha doimiy xarajat umumiy xarajatlarning 30 foizini tashkil qiladi. Ishlab chiqarishning xarajatlariga kura foydailigi (rentabelligi) esa 40 foizga teng edi. Inflyatsiya jarayoni natijasida o‘rtcha doimiy xarajatlar 10 foiz, urtacha o‘zgaruvchan xarajatlar esa 20 foizga usdi. Agar korxonada maxsulot narxini 17 foizga oshirsa, xarajatlarga kura ishlab chiqarish rentabelligi nimaga teng bo‘ladi.

Javob: 13%.

3–misol. Xom ashyo uchun qilingan xarajatlar o‘zgaruvchan xarajatlarning 40 foizini tashkil qiladi. Bitta maxsulot hisobida xom ashyoga ketgan xarajat 130 foizga oshganidan keyin «Dilnoza» savdo ishlab chiqarish korxonasi ishlab chiqarish xajmini o‘zgartirdi. Bunda boshqa urtacha uzgaruvchan va doimiy xarajatlar o‘zgarmaydi, urtacha umumiy xarajatlar esa 233 so‘mga ortdi. Agar bu o‘zgarishgacha bitta maxsulotga ketgan urtacha umumiy xarajat 500 so‘m, o‘rtacha doimiy xarajat esa 100 so‘mga teng bo‘lsa, firma ishlab chiqarish xajmini necha foizga o‘zgartiradi?

Javob: 30%

4-misol. Ikki mamlakat iqtisodiyoti quyidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarda yoritilgan:

Ko'rsatkichlar	A mamlakat	B mamlakat
2012 y. Real YaIM	2600 mlrd.pul birligi	2400 mlrd.pul birligi
2013 y. Nominal YaIM	2800 mrd.pul birligi	2250 mlrd.pul birligi
2013 y. YaIM deflatori	1,3	0,9

Har qaysi mamlakat uchun iqtisodiy o'sish va iqtisodiy davr bosqichini aniqlang.

Javob: Iqtisodiy o'sish sur'ati:

$$\frac{2013\text{йил Реал ЯИМ} - 2012\text{йил Реал ЯИМ}}{2012\text{йил Реал ЯИМ}}$$

A mamlakat uchun: Nominal YaIM

$$\text{Deflyator} = 2800 : 1,3 = 2154 \text{ mlrd};$$

$$\text{B mamlakat uchun real YaIM} = 2250 : 0,9 = 2500 \text{ mlrd}.$$

A mamlakat uchun iqtisodiy usish sur'ati:

$$2154 - 2600 / 2600 = 0,17$$

B mamlakat uchun iqtisodiy usish sur'ati:

$$2500 - 2400 / 2400 = 0,041.$$

Binobarin, A mamlakatda real ishlab chiqarish hajmi 17%ga kamayadi, bu iqtisodiy tushish davriga mos keladi; B mamlakatda 2013 yilda real ishlab chiqarish hajmi 4,1% ga o'sdi, bu iqtisodiy o'sish davriga mos keladi.

KEYSLAR

1. Keys. IBM korporatsiyasidagi samaradorlik masalalari.

IBM co'zi – international business machines so'zlarining qisqartirilgan shaklidir. U 1911 yilda hisoblash texnikasi ishlab chiqaradigan bir qator firmalarning birlashishi natijasida tashkil topgan. U kompyuter texnologiyalarini Etishtirib berish bo'yicha dunyodagi eng yirik firmalardan biri hisoblanadi.

XX asrning birinchi yarim yilligidagi IBM firmasining tarixi Tomas J. Watson nomi bilan to'liq bog'liqdir. U IBM ni mayda firmadan yirik korporatsiyaga aylantirishgacha bo'lgan davrda boshqardi.

IBM tarixidagi keyingi bosqich uning o'g'illari – Artur va xususan, kichik Tomas Watsonlar bilan bog'liq.. Ularning rahbarligi ostida IBM tarmoqda hukmron vaziyatga ega bo'lgan yirik korporatsiyaga aylandi.

IBM o'z faoliyatining boshlang'ich davrida boshqa kompaniyalarni sotib olishga intilmadi, balki uning o'zi bir qator kompaniyalarning aralashmasi, ya'ni konglomerati edi. 30-yillarda “Otomatik skeyl” va “Neyshnl skeyl” larni sotib oldi. Tabulyatorli mashinalar sohasida “Tiketograf kompani” va “Pirs ekkaunting kompani” larni sotib oldi, shuningdek, “Ellis” va uning “Elektromatik tayprayter” deb nomlangan bo'linmasini sotib oldi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, “Elektromatik tayprayter” keyinchalik “Ofis produkts divijn” ning asosiga aylandi.

Biroq, IBM ning bu kabi faolligi Ikkinchi jahon urushi arafasida yakun topdi. 70-yillarga kelib kompaniya yana faolligini oshira boshladi. Bu vaqtda u o'zining asosiy ishiga asoslangan edi. IBM barcha kompaniyalarga yuqori o'sish ko'rsatkichlariga ichki omillarning ta'siri ostida erishganligini ochiq-oydin namoyish etdi. Boshqa kompaniyalarni sotib olish hisobidan kengayib borayotgan ko'plab tashkilotlardan farqli ravishda IBM o'z muvaffaqiyatiga og'ir mehnat yo'li bilan erishdi, ya'ni mulkni sotib olish kompaniya stiliga to'g'ri kelmasdi. Korporatsiyaning shiori xususiy ishlab chiqarishni rivojlantirish edi.

Mohiyatan olib qaraganda, IBM jahon sanoatida o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. U dunyoning eng yirik korporatsiyalari qatoridan o'rin olgan bo'lib, faqatgina neft kompaniyalari, avtomobil korporatsiyalari va yapon savdo firmalaridan keyingi o'rinlarda turadi. Kompaniya tarkibida quyidagilar faoliyat ko'rsatadi: 8 ta mamlakatda joylashgan 9 ta ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, 14 ta mamlakatda joylashgan 24 ta zavod, 127 ta mamlakatda joylashgan firma vakolatxonalari. 80-yillarda kompaniyada ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlariga sarflangan xarajatlar har yili 3,5 mlrd. dollarni tashkil etgan.

1964 yildan 1974 yilgacha bo‘lgan davrda IBM ning yillik aylanmasi 3,2 mlrd. dollardan 12,7 mlrd dollargacha o‘tdi, bunda o‘rtacha yillik o‘sish sur‘atlari 14,8% ni tashkil etdi; 1974 yildan 1984 yilgacha bo‘lgan davr ichida 12,7 mlrd dollardan 27,4 mlrd dollargacha ko‘tarildi (8%); 1984 yildan 1990 yilgacha bo‘lgan davrda 27,4 mlrd dollardan 69 mlrd dollargacha ko‘tarildi (25%). 1990 yilda foyda hajmi 6 mlrd dollarni tashkil etdi. Biroq, 1991 va 1992 yillarda savdo hajmlari 64,7 va 64,5 mlrd dollargacha pasaydi. 1991 yilda firma foyda olish o‘rniga 1,4 mlrd. dollar hajmida zarar ko‘rdi.

40-50 yillar davomida IBM Etakchi, biroq AQSh dagi ko‘plab kompyuter ishlab chiqaruvchi kompaniyalarning biri hisoblangan kompaniya sifatida namoyon bo‘ldi. Ayniqsa, ilmiy-texnik ishlanmalar sohasidagi burilish, ya’ni 60-yillar boshida 360 markali mashinalar seriyasining yaratilishi IBM ni tarmoqdagi misli ko‘rilmagan Etakchi kompaniyaga aylantirdi. Bu seriyagacha IBM ko‘p yillar davomida 11 mingta elektron hisoblash mashinalarini ishlab chiqargan edi. 360 seriyasini ishlab chiqarish yakunlanganda ularning umumiy miqdori 35 minggacha o‘tdi.

IBM RSA, “Djeneral elektrik”, “Yunivak” va “Kontrol deyta” kabi firmalar bilan raqobat kurashida muvaffaqiyat qozondi. 50-yillarda ushbu firmalar IBM ning bir qator loyihalarini zarar bilan yakunlanganidan so‘ng bozordagi tashabbusni qo‘lga kiritishga harakat qilishdi. Biroq, kompaniyadagi tijoriy muvaffaqiyatga ega bo‘lmagan bir qator modellarning ishlab chiqishda yig‘ilgan tajriba va aqliy salohiyat kabilar IBM ga 360 seriyasini yaratish imkonini berdi.

Aynan shu ilmiy-texnik muvaffaqiyat IBM ni katta elektron hisoblash mashinalarining jahon bozorida hukmron pozitsiyani egallashiga imkon yaratdi. 1950 yilning 1 yanvarida “IBM world trade” ga asos solindi. Uning tarkibiga firmaning ishlab chiqarish va savdo bo‘linmalari kirdi. Ushbu bo‘linmalar asrning boshlarida Germaniyada (1910 y), Fransiyada (1914 y), Yaponiyada (1925 y), Kanada va Braziliyada (1917 y) tashkil etila boshlangan. Shuni alohida ta’kidlash joizki, hozirgi kunda G‘arbiy Evropada faoliyat

ko'rsatayotgan elektron hisoblash mashinalarining 70% Amerika kompaniyalari tomonidan ishlab chiqarilgan.

IBM ning tashkiliy strukturasi mintaqaviylik tamoyili bo'yicha qurilgan. O'tgan asrning oxirgi 25 yilligi mobaynida korporatsiyaning 2 ta bir xil qismga aniq bo'linishida o'z ifodasini topdi: milliy (AQSh) va xalqaro (qolgan mamlakatlar, asosan Yaponiya, Germaniya, Italiya, Fransiya va Buyuk Britaniya).

IBM ning har bir mamlakatdagi filiallariga yuqori darajadagi mustaqillikni berishi muhim ahamiyatga egadir. Odatda, har bir filialning rahbariyati Kengash tomonidan boshqariladi. Ushbu Kengash deyarli to'laligicha filial joylashgan mamlakatning fuqarolaridan tashkil topadi. Shuningdek, bitta AQSh fuqarosi bo'lgan direktorni o'z ichiga oladi. Biroq, filiallarning mustaqilligiga qaramasdan, IBM ning madaniyati shunchalik kuchliki, buni butun dunyo bo'ylab joylashgan kompaniyaning zavod va idoralarining bir-biriga o'xshashligida ko'rish mumkin.

Xorijda IBM ning ishlab chiqarishini tashkil etishda jug'rofiylik tamoyili asos bo'lib xizmat qiladi. "IBM world trade" ning Nyu-Yorkda joylashgan shtab-kvartirasi o'zining asosiy funksiyalarini Parijda joylashgan xalqaro boshqarish komandasiga bergan. Korporatsiyada mintaqaviy bo'linmalar tashkil etilgan bo'lib, ularning biri Evropa, Yaqin Sharq va Afrika uchun bo'lsa, boshqasi Osiyo, Tinch okeani mintaqasi va Janubiy Amerika uchundir. Alohida mamlakatlarda ularga bo'ysunadigan sho'ba korxonalari (masalan, "IBM Doychland", "IBM Italiya", "IBM Djapen", "IBM Frans", "IBM Yunayted Kingdom") mustaqil yuridik shaxs maqomiga ega bo'lishib qonun nuqtai-nazaridan mahalliy firmalar hisoblanishadi. Ularning deyarli 100% kapitali AQSh dagi bosh kompaniyaga tegishli.

Rahbarlik tamoyillari nuqtai-nazaridan 60-70-yillarda IBM ni boshqargan aka-uka kichkina Tom Vatson va Dik Vatsonlar "Djeneral motors"ning 20-yillardagi tajribasini takrorlashga qaror qilishdi. Qachonlardir Alfred Sloun o'z firmasi avtomobillarini ishlab chiqarishni "Byuik", "Shevrole", "Oldsmobil", "Pontiak", "Kadillak" va boshqa shu kabi mustaqil kompaniyalar o'rtasida taqsimlagan edi. Ular bir-birlari bilan bir qator qism va agregatlarni ishlab chiqarishda hamkorlik qilishardi, ularda umumiy ilmiy-tadqiqot va konstruktorlik

bo‘linmalari va umumiy xizmat ko‘rsatish tizimi mavjud edi. Shuning bilan birga ular bozorda o‘zaro raqobatlashishar va boshqa raqobatchilar bilan mustaqil ravishda kurash olib borishardi.

80-yillarda IBM mahsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida bir qator tashkiliy innovatsiyalarni amalga oshira boshladi. Konzern tarkibida o‘zgarishlarni tez amalga oshirish uchun modullilik tamoyilidan foydalanildi. Yirik elektron hisoblash mashinalari, shaxsiy kompyuterlar, axborot saqlash vositalari, idora texnikasi, aloqa tizimlari va boshqa shu kabilarni ishlab chiqarish zavodlari, jug‘rofiylik tamoyili bo‘yicha bo‘linib joylashgan savdo tashkilotlari va ma‘muriy muassasalar firmani tashkil etgan asosiy bloklar (modullar) sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu bloklardan har biri o‘zining aniq muammosini hal etishga ixtisoslashadi va tegishli sohadagi yuqori malakali mutaxassislarni birlashtiradi. Bu kabi modullarning bir qanchasi bo‘linmalarga birlashadi, bo‘linmalar bo‘lsa guruhlariga birlashadi. Bo‘linma va guruhlarining tarkibi korporatsiya tomonidan hal etiladigan vazifalarning xarakteriga bog‘liq ravishda o‘zgaradi.

IBM uchun yangi bo‘lgan bozorni (shaxsiy kompyuterlarni ishlab chiqarish) egallash uchun korporatsiya “Entri sistemz divijn” deb nomlangan loyihaviy (maqsadli) bo‘linmani tashkil etdi. Menejerlar va yuqori toifali mutaxassislarning unchalik darajada katta bo‘lmagan guruhi o‘zining moliyaviy mablag‘lariga ega bo‘ldi.

Savollar:

1. Kompaniya o‘z faoliyatida boshqaruvning qanday tamoyillaridan foydalanishga asosiy e‘tiborni qaratgan?
2. Kompaniya samaradorligini oshirishda tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini qanday ko‘rinishda yangilash mumkin?
3. Kompaniya faoliyatining samaradorligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi tashqi va ichki omillarni tasnifini keltiring.

QUYIDA KELTIRILGAN FIKRLAR

TO‘G‘RIMI YOKI NOTO‘G‘RIMI?

1. Innovatsiya bu – har qanday faoliyat sohasida kiritiluvchi moliyaviy mablag‘lardir.
2. Innovatsion resurs bu – global tarmoqlarni birlashtiruvchi xalqaro birlashma.
3. Iqtisodiy o‘shishning intensiv turi o‘ziga xosligi shundaki, ishlab chiqarishni kengaytirishga o‘shish omillarini sifat jihatidan takomillashtirishdir.
4. Ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining dastlabki bosqichlarida iqtisodiy o‘shish asosan ekstensiv asosda amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishning mashina texnikasi va yuqori malakali kadrlar bilan to‘yinishi borasida intensiv o‘shish omillarining roli ortib boradi.
5. Intensiv iqtisodiy o‘shishning ekstensiv o‘shishdan keyin kelishi har safar ishlab chiqarishning texnologik usuli – ishlab chiqarish kuchlarini o‘zaro bog‘lash usuli va bu tarkibiy qismlarning sifat o‘zgarishlari ortidan keladi.
6. O‘zini saqlash va naslni davom ettirish tuyg‘usi, har bir avlodning unga qolgan merosni boyitish va davr talablariga javob bergan holda keyingi avlodga yanada yaxshi ko‘rinishda qoldirish istagi.
7. Innovatsiyalar deganda u yoki bu faoliyat sohasida samaradorlikni oshirish uchun inson aqli erishgan yutuqlardan (kashfiyot, ixtiro, ilmiy va konstruktorlik loyihalari va hokazo) foydalanish tushuniladi.
8. Yangilik darajasi bo‘yicha Gerxard Mensh texnologik innovatsiyalarni bazis, yaxshilovchi va soxta innovatsiyalarga ajratadi.
9. V.M. Palterovich texnologik yangiliklarni boshqa mamlakatlarda kiritilgan yangiliklarni takrorlovchi imitatsiya (o‘xshatish) va dunyoda ilk bora amalga oshirayotgan innovatsiyalarga ajratishni taklif qiladi.
10. Ijtimoiy-siyosiy va huquqiy sohalardagi innovatsiyalar ijtimoiy stratifikatsiya hamda ijtimoiy sinf va guruhlar tarkibida o‘zgarishlarga olib keladi.

MAVZUGA DOIR TESTLAR:

1. Innovatsiya bu-

A. Tahliliy, tegishli qaror qabul qilinishi jarayoni orqali o'tgan natija

V. Joriy qilingan yangilik

S. Amalga oshadigan, ro'yobga chiqadigan yangilik

D. G'oya-joriy qilish-natija

2. Yangilikning tashkiliy variantlari

A. Ijtimoiy muassasining tashkiliy tuzilmasi, maxsus maqsadli tuzilmani shakllantirish, aralash yoki tashkiliy tuzilma

V. Yangilikni o'zlashtirish uchun qo'shimcha vakolat olgan bo'g'ini yoki bo'g'inmasi

S. Tuzilma belgilangan davrda innovatsion g'oyasining moddiylashuvini ta'minlashga xizmat qiladi

D. Mavjud va maqsadli tuzilmalar elementlari ni birlashuvi

3. Resurslar ta'minoti, bu:

A. Ta'minot, yangilik

B. Moddiy resurslar

S. Axborot, moddiy, inson, moliyaviy va vaqt kabi resurslar

D. Vaqt resurs tarzida

4. Innovatsiya faoliyati, bu:

A. Yakunlanmagan ishlanmalarni nihoyasiga Etkazish jarayoni

B. Ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi yoki amaliyotda qo'llanib kelayotgan jarayon

S. Yakunlanmagan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'zlashtirishga yo'naltirilgan jarayon

D. Fan va texnikani rivojlantirish uchun g'oyalarni tadbiq qilish jarayoni

5. Innovatsion loyiha:

A. Muddatda yangi tur ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkillashtirishni yoki mavjud texnologik jarayonni takomillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar to'plami

B. Aniq muddatda amalga oshiriladigan to'plam rejasi

S. Kelajakda mahalliy sharoitlarga moslashgan ishlab chiqarish barcha bosqichlarida qo'l keladigan fundamental tadqiqot

D. Yangi g'oyalarni ishlab chiqarishda qo'llash uchun yaratilgan to'plam

6. Innovatsion faoliyatda olib kelish strategiyasi nimani bildiradi?

A. Mahalliy sharoitga moslashgan tashqi bozorda ehtiyoj sezilayotgani mahsulotlarni yaratilishi

B. Iqtisodiyotda samarasini ko'rsatayotgan texnologiyalarni sotib olinishi

S. Ishlab chiqarish jarayonlarining barcha bosqichlarini qamrab olgan, fundamental tadqiqotlardan to' ishlab chiqarishgacha bo'lgan davrni o'z ichiga olgan xuddi shunday texnologiyani yaratilishini

D. Mahalliy sharoitga moslashgan tashqi bozorda ehtiyoj sezilayotgan mahsulotlarni yaratilishi, iqtisodiyotda samarasini ko'rsatgan texnologiyalarni sotib olinishi

7. Innovatsion chetlash strategiyasi yo'nalishlari

A. Tugatish, ortiqchalikni yo'qotish, kamaytirish va qayta moslashtirish

B. So'nish, davolash, yo'qotish

S. O'sib borish, kamaytirish, texnikaga yo'naltirilganlik

D. Muqabil va nomuqabil

8. Innovatsion siyosat

A. Strategiya demakdir

B. Taktika demakdir

S. Boshqaruv tizimini o'zgartirish demakdir

D. Tadbirlar, qoidalar va tashkiliy konsepsiyaning umumiy yig'indisi hisoblanadi

9 Innovatsion nazariyaning nomoyondasi kim?

A. Amerikalik muxandis F.Teylor

B. Amerikalik iqtisodchi T.Emerson

S. Amerikalik olim M.Porter

D. Rus olim R.A.Fatxuddinov

10 Loyiha tiplari va turlari:

- A. Ijtimoiy, iqtisodiy
- B. Tashkiliy
- S. Innovatsion(texnologik), investitsion
- D. Ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy, innovatsion investitsion

MAVZUGA DOIR MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR:

1. Moliyaviy sohada soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirishni takomillashtirishning qaysi yo'llari mamlakatimizda afzal hisoblanadi?
2. Texnologik innovatsiyalar mohiyati nimada?
3. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi qaysi omillarga bog'liq?
4. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining innovatsion omillari nimalardan iborat?
5. Rivojlanish nazariyasining neoklassik variantida qaysi omillarga asosiy urg'u bkrilgan?
6. Iqtisodiy o'sishning neokeynsian nazariyasining o'ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
7. Y.Shumpeterning iqtisodiy o'sish nazariyasida tadbirkor-innovator qanday shaxs sifatida tavsiflanadi?
8. Institutsional nazariyada innovatsiya sub'yektlariga nimalar kiradi?
9. Tashkiliy innovatsiyalar qatoriga nimalar kiradi?
10. Institutsional innovatsiyalarga nimalar kiradi?

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Qonunlar va boshqa huquqiy, siyosiy, rasmiy hujjatlar

- 1.1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. —T., O'zbekiston, 2018.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi //https://lex.uz/docs/2304140
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksi //https://lex.uz/docs/2304140
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi (yangi tahriri) Qonuni, 2003 yil 29 avgust.
- 1.5. O'zbekiston Respublikasining "Xususiy korxonalar to'g'risida"gi Qonuni, 2003 yil 11 dekabr.
- 1.6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida" Konstitutsiyaviy qonuni, 2007 yil 11 aprel.
- 1.7. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi qonuni. 2017 yil 3 yanvar, O'RQ-419-son.
- 1.8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy sektorning ulushi va ahamiyatini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2003 yil 24 yanvar.
- 1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2005 yil 14 iyun.
- 1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yilning 29 dekabrda qabul qilingan "2016-2020 yillarda qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli qarori.
- 1.11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 5 oktyabrdagi «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har

tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-4848-sonli Farmoni.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ma‘muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni. 2017 yil 8 sentyabrdagi PF-5185-son

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Qarori. 29.12.2016 y. PQ-2707

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tadbirkorlik maqsadlarida foydalanish uchun davlat mulki ob‘yektlarini sotishni jadallashtirish va uning tartib-taomillarini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni. 17.01.2017 y. PF-4933

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xususiylashtirilgan korxonalar bilan ishlash samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Qarori. 18.04.2017 y. PQ-2895.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining” Tashqi bozorlarda mahalliy mahsulotlarning eksport qilinishi va raqobatdoshligini ta‘minlashni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi Farmoni. 25.05.2017 y. PF-5057

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentyabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi PF-5590-sonli Farmoni. 2018 yil 7 dekabr. // Xalq so‘zi, 2018 yil 7 dekabr.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 martdagi “Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta‘sirini

yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni// Xalq so'zi, 20210 yil 20 mart.

1.21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 apreldagi PF-5978-sonli "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni// Xalq so'zi, 2020 yil 4 aprel.

1.22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi va tadbirkorlik sub'yektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni// <https://uza.uz/oz/documents/koronavirus-pandemiyasi-davrida-a-oli-va-tadbirkorlik-subekt-27-04-2020>

II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asar va ma'ruzalari

2.1. MirziyoEv Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak: Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2017yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. –T.:”O'zbekiston”, 2017.

2.2. MirziyoEv Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi.//Xalq so'zi, 2016 yil 15 dekabr.

2.3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MirziyoEvning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2017 yil 22 dekabr.//Xalq so'zi, 2017yil 23dekabr.

2.4.MirziyoEv Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi// Xalq so'zi, 2018 yil 8 dekabr

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat MirziyoEvning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. //Xalq so'zi, 2018yil 29dekabr.

2.6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar //Xalq so‘zi, 2020yil 25 yanvar.

III. Maxsus kitoblar va ilmiy to‘plamlardagi maqolalar

3.1.Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot./ Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri.-T.: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyot davlat korxonasi, 2018.-592 b.

3.2.Abdullaeva R.G. Hunarmandchilik faoliyatini kengaytirish orqali rivojlantirishning nazariy asoslarini to‘kimonlashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.-T., 2019.

3.3.Abulqosimov H.P. O‘zbekistonda ishbiarmonlik muhitini yaxshilash va kichik tadbirkorlik faoliyati iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlash yo‘nalishlari. Monografiya.- T.: Ilmiy-Texnika Axboroti-Press, 2017. – 208 b.

3.4. Abulqosimov H.P. Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish. O‘quv qo‘llanma.- T.:“Noshirlik yodusi”, 2018. - 520 b.

3.5.Abulqasimov X.P., Rasulov T.S. Osobennosti nauchno-texnicheskoy i innovatsionnoy politiki stran SNG, Blijnego i Srednego Vostoka. UchebnoE posobiE.-T.: TashGIV, 2017.-380s.

3.6.Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiyotga oid atama va tushunchalarning izohli lug‘ati.- T.: “ABU MATBUOT-KONSALT”,2017.- 628b.

3.7.Abulqosimov H.P., Abulqosimov M.H. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot. O‘quv qo‘llanma.-T.: Noshirlik yodusi, 2019.-620b.

3.8.Agabekyan R.A., Bayaduryan G.A. Institutsionalnaya ekonomika: biznes i zanyatost: Uchebn.posobiE. – M.: Magistr, 2008. – 462 s.

3.9.Agev A.I. Predprinimatelstvo: problemy sobstvennosti i kulturny. - M.: 1991. – 250 s.

3.10.Berkinov B.B., Nedelkina N.I. Imushchestvennyye otnosheniya v sfere nedvijimoy sobstvennosti v Respublike Uzbekistan: V Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferentsiya. Sbornik tezisov. Penza, Penzenskiy gosudarstvennyy universitet arxitektury i stroitelstva, 2009. – C. 22-25.

3.11. Berkinov B.B. Mulkchilik munosabatlari rolining o'zgarishi// Iqtisodiy islohotlar amalda: erishilgan yutuqlar, muammolar va iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar to'plami.- T.: "Iqtisodiyot", 2009. – B. 13-17.

3.12. Berkinov B.B. Transaksiya xarajatlarini kamaytirish iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili: Ilmiy anjuman ma'ruzalari to'plami. – Toshkent, O'zR FA Iqtisodiyot instituti, 2010. – 0,3 b.t.

3.13. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot. O'quv qo'llanma. – T.: Yangi nashr, 2011. – 248 b.

3.14. Berkinov B.B. Institutsional iqtisodiyot: O'quv qo'llanma. 2-nashr, qayta ishlangan. – T.: Iqtisodiyot, 2013. –260 b.

3.15. Berkinov B.B., Umarov I.Yu., Sunnatov M.N., Institutsional iqtisodiyot: fanidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish. -O'quv qo'llanma. –T.:2014.-237 b.

3.16. Brendeleva E.A. Neinstitutsionalnaya teoriya. UchebnoE posobiE / Pod.red. prof. M.N.Chepurina. – M.: TEIS, 2003. – 253 s.

3.17. Vaxabov A.V., Sa'idova Sh.Sh. Ijtimoiy siyosat. O'quv qo'llanma. A.V.Vaxabov umumiy tahriri ostida.-T., Mumtos so'z, 2019. 312bet.

3.18. VvedeniE v institutsionalnuyu ekonomiku: UchebnoE posobiE/ Pod.red. D.S.Lvova. – M.: Iz-vo "Ekonomika", 2005. – 636 s.

3.19. Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. M.: Progress. 1987.

3.20. Golyshev V.A., Zakirova S.A. Natsionalnaya ekonomika Respubliki Uzbekistan v perexodnyy period: UchebnoE posobiE.– T.: UMED, 2007.–142 s.

3.21. Grebennikov V.G. Evolyutsiya institutsionalnykh sistem. - M.: "Nauka", 2004. – 240 s.

3.22. Gribov A. Yu. Institutsionalnaya teoriya deneg: suщnost i pravovoy rejim deneg i tsennykh bumag.- M.: RIOR, 2008. – 200 s.

3.23. Gelbreyt Dj.K. EkonomicheskiE teorii i tseli obщestva. – M.: Progress, 1976.

3.24. Daglas K. Nort. Instituty i ekonomicheskiy rost: istoricheskoye vvedeniye. – M.: 2003. – 265 s.

3.25. Danilov S. Yu. Konstitutsionnaya ekonomika v zarubejnyx stranax: Ucheb. posobie. / S. Yu. Danilov; Gos. un-t – Vysshaya shkola ekonomiki. – M.: Izd. dom GU VShE, 2008. – 145 s.

3.26. InstitutSIONNyye osnovy formirovaniya mnogoukladnoy ekonomiki. Monografiya pod obsh. red. I. L. Butikova. – T.: Konsauditinform, 2002. – 272 s.

3.27. InstitutSIONnaya ekonomika: Ucheb. posobie / Pod obsh. red. A. Oleynika. – M.: INFRA-M, 2009. – 704 s.

3.28. InstitutSIONnaya ekonomika: novaya institutsionnaya ekonomicheskaya teoriya: Ucheb. posobie / Pod obsh. red. d.e.n., prof. A. A. Auzana. – M.: INFRA-M, 2006. – 416 s.

3.29. Kouz R. Firma, rynek i pravo. – M.: Delo, 1993. – 143 s.

3.30. Kuzminov Ya. I. Kurs institutsionnoy ekonomiki: instituty, seti, transaktsionnyye izderjki, kontrakty: ucheb. posobie dlya studentov vuzov. – M.: Izd. dom GU VShE, 2006. – 442 s.

3.31. Nedelkina N. I. Instituty prava sobstvennosti v Respublike Uzbekistan. // Iqtisodiy islohotlar amalida: erishilgan yutuqlar, muammolar va iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari: O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar to'plami. – T.: "Iqtisodiyot", 2009. – B. 146-148.

3.32. Nekipelov A. Stanovleniye i funktsionirovaniye ekonomicheskix institutov: ot «rabinzonady» do rynochnoy ekonomiki, osnovannoy na individualnom proizvodstve. – M.: Ekonomist', 2006. – 328 s.

3.33. Nort D. Instituty, institutsionnyye izmeneniya i funktsionirovaniye ekonomiki. – M.: Fond ekonomicheskoy knigi. «Nachalo», 1997. – s. 6.

3.34. Oleynik A. N. InstitutSIONnaya ekonomika: Ucheb. posobie. – M.: INFRA-M, 2009. – 416 s.

3. 35.Ortiqov A.A. Isoxo‘jaEv A.T., Shestakov A.V. Xufyona iqtisodiyot: O‘quv qo‘llanmasi / Mas’ul muharrir – yu. f. d., prof. U.Tojixonov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2002. – 175 b.

3.36.Рыночные преобразования и развитие предпринимательства // Сборник научных трудов НИУРР. – Т.: Konsauditinform, 2002. – 352 s.

3.37.Suxarev O.S. Institutы i ekonomicheskoye razvitiE. – M.: OOO IKP «DeKA», 2005. – 384 s.

3. 38.Suxarev O.S. Institutsionalnaya ekonomika: teoriya i praktika / O.S.Suxarev; In-t ekonomiki RAN. – M.: Nauka, 2008. – 863 s.

3.39.Tarushkin A.B. Institutsionalnaya ekonomika. UchebnoE posobiE. – SPb.: Piter, 2004. – 368 s.

3.40.Tashmatov R.X. Fermer xo‘jaliklarining institutsional asoslarini takomillashtirish. // Iqtisodiy islohotlar amalda: erishilgan yutuqlar, muammolar va iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari: O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yilligiga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop maqolalar to‘plami.- T.: “Iqtisodiyot”, 2009. – B. 152-154.

3.41.Tashmatov R.X., Xashimov U. Osobennosti zemelno-имущественных отношений в фермерских хозяйствах Узбекистана: V Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya. Sbornik tezisov. Penza, Penzenskiy gosudarstvennyy universitet arxitektury i stroitelstva, 2009. – S. 194-196.

3.42. TojiboEva. D.Agrar sohada xo‘jalik yuritish shakllari samaradorligini oshirishning institutsional jihatlari. Monografiya.-T.: “Fan va texnologiya”, 2019.- 258 b.

3.43.Xodjson Djeffri. Ekonomicheskaya teoriya i instituty: Manifest sovremennoy institutsionalnoy ekonomicheskoy teorii / Per. s angl. – M.: Delo, 2003. – 464 s.

3.44.Shastitko A.E. Novaya institutsionalnaya ekonomicheskaya teoriya. – 3-e izd., pererab. i dop. – M.: MGU, TEIS, 2002. – 591 s.

3.45.Evans Frenk Ch., Bishop Devid M. Otsenka kompaniy pri sliyaniyax i poglosheniyaх: SozdaniE stoimosti v chastnyx kompaniyaх / Per. S angl. – M.:

Альпина Бизнес Буks, 2004. – 332 s.

3.46.Eggertson T. Ekonomicheskoe povedeniye i instituty. –M.: DELO, 2001. 18-19 b.

3.47.On Economic Institutions: Theory and Applications. Alder-shot: Edrdward Elgar, 1995. –c. 19.

3.48.Yuldashev D.T. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.-T., 2019. 62bet.

3.49. Qobilov Sh.R. Globallashuv va xavfsizlik. –T.: O'zR IIV Akademiyasi, 2006.

IV. Statistika to'plam va manbalar

4.1.O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy- ijtimoiy taraqqiyotning mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko'rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo'ljallangan prognozlari: statistik to'plam. T.: O'zbekiston, 2011.

4.2. O'zbekiston iqtisodiyoti: axborot-tahliliy byulleten. 2011yil.-T., ITM, 2012.

4.3.O'zbekiston qishloq xo'jaligi. Statistika to'plam 2016 yil.-toshkent, 2016.

4.4. O'zbekiston raqamlarda. Statistika to'plam 2016 yil. –Toshkent, 2016.

4.5.Ekonomika Uzbekistana: informatsionno-analiticheskiy byulleten za 2016god.-T.,SEI, 2017.

4.6. Monetar siyosatning 2017 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari //O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari.

4.7.O'zbekiston Respublikasini 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida/ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi hisoboti.

4.8.Sotsialno-ekonomicheskoe polojeniye Respubliki Uzbekistan za 2018god.-T.:Goskomstat RUz, 2019.

4.9.Iqtisodiyot va sanoat vazirligi ma'lumotlari.

V.Internet saytlari

5.1.«O‘zbekiston iqtisodiyoti» axborot va tahliliy sharhining o‘zbek, rus va ingliz tillaridagi elektron nusxasi quyidagi veb-sahifada berilgan: www.cer.uz.

5.2.<http://www.uzland.uz>.

5.3.www.economyta-culty.uz. – Ekonomika Uzbekistana

5.4.<http://www.imf.org>.

5.5. <http://www.bank.uz>.

5.6. <http://www.Stat.uz>

GLOSSARIY

Bozor konstitutsiyasi – bozorda bitimlarni amalga oshirish va unda muvozanatga erishish imkonini beruvchi xatti-harakatlarning o‘zaro shartlangan normalari yig‘indisini tashkil etadi.

Byurokratik renta – bu o‘zining lavozim mavqeidan noqonuniy tarzda daromad olish uchun foydalanuvchi davlat amaldori tomonidan olingan daromad (masalan, pora, sovg‘alar va h.k.).

Byurokratiyaning iqtisodiy nazariyasi – bu ijtimoiy tanlov nazariyasining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u qimmatbaho ne‘matlarni ishlab chiqarmaydigan va daromadlari o‘z faoliyatining natijalarini sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishini o‘rganadi.

Davlat – bu chegaralari uning fuqarolarga soliq solish qobiliyati bilan belgilangan jug‘rofiy hududga joylashgan, hukmini amalga oshirishda qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan tashkilot.

Disfunksiya – qandaydir organ, tizim, iqtisodiy institut funksiyalarining asosan sifat jihatdan buzilishi.

Jamoaviy xatti-harakat xarajatlari, J.Kommans metodologiyasidan kelib chiqqan holda, – institutlarni tashkil qilish va ular faoliyatini ta‘minlash xarajatlari.

Ijtimoiy tanlov nazariyasi – bu ular yordamida insonlar hukumat muassasalaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanadigan turli usullarni o‘rganuvchi nazariya.

Institut – insonlar tomonidan barpo etiladigan va o‘zaro hamkorlikni tarkiblovchi siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy me‘yorlar va qoidalar.

Institut – bu jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni belgilab beruvchi rasmiy qoidalar va norasmiy normalar tizimi.

Institutprovayder – neoinstitutsional nazariya doirasida – ishlab chiqarish institutlari va kelishuvlar ishlab chiquvchisi va tarqatuvchisi rolini, institutlar inkubatori rolini (tegishli institutsional muhitda yangi institutlarni Etishtirish), yakka tartibdagi institutsional integrator rolini (ushbu normaga amal qiluvchilar

tarkibiga yangi individlarni jalb qilish) bajargan holda neoinstitutsional tarkibga ta'sir ko'rsatuvchi tashkilot.

Institutsionallashtirish – individlar o'rtasidagi munosabatlarda jamiyat a'zolarining katta qismi tomonidan foydalaniladigan muayyan qoidalar yoki normalarni mustahkamlash.

Institutsional vakuum – bu ilgarigi xo'jalik tizimini boshqarish mexanizmining tugatilishi va yangi mexanizmning mavjud emasligi tufayli institutsional tizimda eng kam transaksiya xarajatlariga ega bitimlarning amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan rasmiy institutlarning mavjud emasligi yoki Etishmasligi.

Institutsional matritsa – bu tarixan barqaror shakllangan, dastlabki davlatlarning paydo bo'lishini va barcha keyingi institutsional tuzilmalarning rivojlanishini belgilab bergan, o'z navbatida, mohiyati hamon saqlanib qolgan birlamchi modelni takror yaratishga xizmat qiluvchi bazaviy ijtimoiy institutlar tizimi.

Institutsional nizo – rasmiy va norasmiy qoidalar o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasi. Bir holatda, institutsional nizo istiqbolsiz institutlarning paydo bo'lishiga, boshqa holatda esa samarasiz bo'lsa-da barqaror hosilalar – institutsional tuzoqlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Institutsional texnologiya – bu institutlarni joriy etish (import qilish), shuningdek iqtisodiy tizim faoliyat ko'rsatishi transaksiya xarajatlarining pasayishiga olib kelishga va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qodir bo'lgan yangi institutlarni ishlab chiqish (etishtirish) bilan bog'liq texnologiya.

Institutsional tuzoq – o'zini o'zi qo'llab-quvvatlovchi xususiyatga ega bo'lgan samarasiz barqaror norma (samarasiz institut).

Ishtirokchi – bu mol-mulkka nisbatan mulkchilik huquqidan jamiyatga nisbatan talab huquqi evaziga voz kechuvchi iqtisodiy agent.

Iqtisodiyotdagi ma'muriy to'siqlar – bu davlat organlarining qarorlari bilan belgilangan, ularga amal qilish bozorda faoliyat yuritishning majburiy sharti

hisoblangan, byurokratik tartibotlarni o'tash uchun odatda budjetga tushmaydigan to'lovlarni joriy etuvchi qoidalar.

Iqtisodiy imperializm – neoklassik yondashuv asosida jamiyat to'g'risidagi fanlarning butun tarqoq oilasini unifikatsiyalash.

Kelishuvlar nisbatining quyidagi variantlari mavjud:

Murosa – unda turli kelishuvlar talablari o'rtasidagi ziddiyatga barham beruvchi sintetik normalar namoyon bo'ladigan kelishuvlar nisbati

Urinish – unda bir o'zaro hamkorlikning o'zi bir-birini istisno etuvchi normalar asosida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan kelishuvlar nisbati.

Ekspansiya – unda o'zaro hamkorlikni tashkil qilish ilgari boshqa kelishuvlar hukmronlik qilgan sohalardagi kelishuvlardan birining normalari asosida amalga oshadigan kelishuvlar nisbati.

Kooperatsiya – insonlar guruhi hamkorligining xili bo'lib, uning natijasida qandaydir resursdan birgalikda foydalanish yakka tartibda foydalanishdagiga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishishga yordam beradi.

Korrupsiyani institutsionallashtirish – qarorlar korrumpirlangan siyosatchilar tomonidan xususiy kompaniyalar manfaatlari yo'lida emas, balki korrumpirlangan byurokratik tuzilmalar manfaatlari yo'lida qabul qilinadigan ma'muriy va siyosiy korrupsiyani sintez qilish.

Kouz teoremasi: agar mulk huquqi aniq tafsirlangan bo'lsa, ya'ni xo'jalik yurituvchi sub'yektlar huquqlarining chegaralari aniq belgilangan bo'lsa va ijro etilsa, u holda tomonlar o'rtasidagi ushbu mulkdan foydalanishdan Etkazilgan zararlar bo'yicha ixtilofli masalani uchinchi tomon (davlat)ni jalb qilmagan holda hal etish mumkin bo'ladi, chunki mazkur holatda transaksiya xarajatlari kam bo'ladi.

Kouz teoremasi (J.Stigler tomonidan ifodalangan): mukammal raqobat sharoitida xususiy va ijtimoiy xarajatlar teng bo'ladi.

Kouz teoremasi (T.Eggertsson tomonidan ifodalangan): agar transaksiya xarajatlari katta bo'lmasa, u holda iqtisodiyot, undagi mavjud siyosiy va boshqa institutlar to'plamidan qat'i nazar, optimal traEktoriya bo'yicha rivojlanadi.

Kreditor – bu tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq xatarlardan voz kechgan sarmoyadordir.

Lobbizm – davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatish yo‘li bilan alohida tashkilotlar va turli jamoatchilik guruhlari manfaatlarini amalga oshirishning alohida tizimi va amaliyoti.

Muvozanalarning quyidagi turlari mavjud:

Pareto bo‘yicha muvozanat – o‘yinchilardan birining holatini, ikkinchi o‘yinchining holatini yomonlashtirmagan holda, yaxshilab bo‘lmaydigan vaziyat.

Shtakelberg bo‘yicha muvozanat – hech bir o‘yinchi o‘z yutug‘ini bir tomonlama tartibda oshira olmaydigan vaziyat. Bunda qaror dastlab birinchi o‘yinchi tomonidan qabul qilinadi, so‘ngra ikkinchi o‘yinchiga ma’lum bo‘ladi.

Nesh bo‘yicha muvozanat – o‘yinchilarning hech biri o‘z harakatlari rejasini o‘zgartirgan holda o‘z yutug‘ini bir tomonlama oshira olmaydigan vaziyat.

Ustun strategiyali muvozanat – boshqa ishtirokchining harakatlaridan *qat’i nazar ishtirokchiga* maksimum foydalilikni ta’minlovchi harakatlar rejasi

Murakkab utilitarizm – individ tomonidan o‘z foydaliligining samarali faoliyat asosida oshirilishidir.

Mutassiblik (rutina) – (fransuzcha “routine” – o‘rganilgan yo‘l ma’nosini ianglatadi) odatga kirgan usul, biror bir faoliyat turi uchun odatdagi ish usuli, o‘zgarishdan cho‘chish, turg‘unlik.

Norma – institutsional muhitda indvidlarning o‘z tanlovini amalga oshirishda foydalaniladigan asosiy unsur hisoblanadi.

Oddiy utilitarizm – individning samarali faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan holda o‘z foydaliligini oshirishga intilishidir.

Oliy mulk – davlat mulkining dastlabki shakli hisoblanadi.

opportunistik xatti-harakatlar – o‘z manfaatiga erishish uchun aldash, yolg‘on, o‘g‘irlik va boshqa qabihliklarni amalga oshirish.

«Prinsipal-agent» muammosi - «agent»ning «prinsipal» topshirig‘i va ko‘rsatmasini bajarishdagi hiylasi (nayrangi). Hiyla ishlatish (nayrang) axborot

asimmetriyasi va «agent» faoliyati ustidan nazorat qilishning yuqori darajasi tufayli mumkin bo‘ladi.

Rasmiy qoidalar – konstitutsiyalar, qonunlar, sud qarorlari, ma’muriy hujjatlar.

Reklama – imkoniyatli xaridorlarga sotuvchilar haqida bilimlar berish usuli.

Sarmoyador – bu tadbirkorlik rovidan voz kechgan kapitalist.

Soliq bo‘shlig‘i – nazarda tutilayotgan soliq tushumlarining summasi bilan real yig‘ilgan daromad o‘rtasidagi farq.

Tabaqali mulk – oldingi davrda asosiy mehnat sharoiti bo‘lgan tabiiy resurslarga tabaqali monopoliyalar shakllanishi bilan tavsiflanadi, mulkdorlarning o‘zlariga «biriktirilgan» mol-mulkni tasarruf etish huquqi borgan sayin kengayishi bilan izohlanadi.

Tashkiliy madaniyat – tashkilot a‘zolari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi va ularning jamoaviy bilimlari va tajribasining ifodasi hisoblangan me‘yorlar, qoidalar va an‘analar yig‘indisi.

Tashkilot - hukmronlik munosabatlari, ya‘ni ishtirokchilarining ayrimlari - «agentlar» tomonidan o‘z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqining uning boshqa ishtirokchisi - «prinsipal»ga topshirilishi asosida qurilgan muvofiqlashtirish birligi.

Tashqi ta’sirlar (eksternaliylar) – narxda o‘z aksini topmagan qo‘shimcha xarajatlar yoki foydalar. Ijobiy tashqi ta’sirlar bir iqtisodiy sub’yektlar faoliyati boshqa sub’yektlar uchun qo‘shimcha foydalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan hollarda yuzaga keladi, bunda u ishlab chiqarilayotgan ne‘matning narxlarida o‘z aksini topmaydi. Salbiy tashqi ta’sirlar bir iqtisodiy sub’yektlar faoliyati boshqa sub’yektlar uchun qo‘shimcha xarajatlarni keltirib chiqargan hollarda yuzaga keladi.

Transaksiya – shartnoma shakliga ega bo‘lgan bitim.

Transaksiya xarajatlari – bu ishlab chiqarish jarayoni bilan bag‘liq bo‘lmagan xarajatlar, xususan axborotni yig‘ish va qayta ishlash xarajatlari,

munozaralarni o'tkazish va qarorlar qabul qilish xarajatlari, shartnomalarning bajarilishini nazorat qilish va huquqiy himoyalash xarajatlari.

Transaksiya xarajatlari – bu mulkchilik huquqlarini almashish va himoyalash bilan bog'liq barcha xarajatlar.

Transformatsiya xarajatlari – iqtisodiy tizimdagi eski institutlarni tugatish, yangi institutlarni shakllantirish (yoki import qilish) va moslashtirish bilan bog'liq xarajatlar.

Uy xo'jaligi – bu inson kapitalini ishlab chiqarishning umumiy vazifalari, yashash, budjet va oila-qarindoshchilik aloqalari bilan birlashgan kishilar guruhidir.

Firma ichki tuzilishining variantlari

Aralash tuzilma, agar bo'linmalardan biri huddi unitar korxonadagi kabi firma rahbariyati tomonidan to'liq nazorat qilinsa, ikkinchi bo'linma xoldingdagi kabi firma rahbariyatiga moliyaviy jihatdan qaram bo'lsa, uchinchi bo'linma esa operatsion mustaqillikka ega bo'lib, multidivizional tuzilmadagi kabi o'z xarajatini qoplash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatgan taqdirda, yuzaga keladi.

Multidivizional tuzilma – mahsulotning xili, savdo markasiga qarab yoki jug'rofiy belgi bo'yicha o'z xarajatini qoplash va o'zini o'zi moliyalash tamoyili asosida faoliyat ko'rsatuvchi yarim muxtor ishlab chiqarish bo'linmalarini tashkil etishni nazarda tutadi.

Xolding tuzilmasi – qarorlar qabul qilish va «agentlar» harakatlari ustidan nazorat qilish jarayonini imkon qadar markazlashgan tizimdan chiqarishni o'zida namoyon etadi.

Unitar tuzilma – hukmronlik munosabatlarining maksimal darajada markazlashuvini nazarda tutadi.

Xususiy mulkchilik – individning jamoaviy xo'jalik faoliyatidan ajralib chiqishini o'zida namoyon etadi

Xufyona iqtisodiyot – unda iqtisodiy faoliyat qonun doirasidan tashqarida amalga oshiriladigan, ya'ni bitimlar qonundan, xo'jalik turmushining huquqiy

me'yorlari va rasmana qoidalaridan foydalanilmagan holda amalga oshiriladigan soha. Xufyona iqtisodiyot quyidagi uchta unsurdan tarkib topadi:

Norasmiy iqtisodiyot – iqtisodiy faoliyatning oshkora turlari, unda xarajatlarni pasaytirish maqsadida tovarlar va xizmatlarning qayd etilmagan tarzda ishlab chiqarilishi o'rin tutadi (ta'kidlash lozimki, davlatdan yashiriladigan barcha faoliyat turlari huquqiy me'yorlar bilan tartibga solinishi mumkin emas va mulkchilik huquqlarini himoyalashning muqobil mexanizmlari qo'llanilishini talab qiladi).

Sohta iqtisodiyot – qo'shib yozishlar, chayqovchilik bitimlari, poraxo'rlik va pulni olish hamda berish bilan bog'liq har xil tovlamachilik harakatlari iqtisodiyoti.

Kriminal iqtisodiyot – qonunning (birinchi navbatda – Jinoiy va Fuqarolik kodekslarining) to'g'ridan-to'g'ri buzilishi va mulkchilikning qonuniy huquqlariga tajovuz qilish bilan bog'liq iqtisodiy faoliyat.

Xufyona iqtisodiyot – bu birinchi galdan iqtisodiy holat, chunki ushbu sektor ishtirokchilarining xatti-harakatlari oqilonalik motivi va iqtisodiy foyda bilan izohlanadi. Bu Erda faoliyat yurituvchi iqtisodiy sub'yektlar o'ziga xos "*homo economicus*" modeli bilan yoritiladi.

Xufyona iqtisodiyot – bu u uchun odatiy xo'jalik faoliyatini yuritishda mavjud qonunlarga amal qilish xarajatlari (transaksiya xarajatlari) o'z maqsadlariga erishishdan ko'riladigan foydadan yuqori bo'lgan insonlar uchun panoh (E. de Soto).

Shartnoma – belgalangan institutsional doiralarda shaxslarning ongli ravishda va erkin tanlashi natijasi hisoblangan mulkchilik huquqlari bilan almashish va ularni himoyalash to'g'risidagi kelishuv.

Sotish to'g'risidagi shartnoma – bir xil darajada xatarga betaraf bo'lgan shaxslar o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshiriladigan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv.

Yollash to'g'risidagi shartnoma – xatarga betaraf bo'lgan shaxs va xatarga qarshi shaxs o'rtasidagi kelajakda shartnomaning bajarilishi jarayonida *amalga oshirilishi mumkin bo'lgan* vazifalar doirasini belgilab beruvchi kelishuv. Bunda

xatarga qarshi shaxs xatarga betaraf bo'lgan shaxsga o'z harakatlari ustidan nazorat qilish huquqini topshiradi.

Shartnomaviy davlat – bu faqat unga fuqarolar tomonidan topshirilgan huquqlar doirasida va ularning manfaatlari yo'lida kuch ishlatish monopoliyasidan foydalanuvchi davlat, fuqarolar esa soliqlarni to'lashga majburiyat deb emas, balki o'z zimmasiga ixtiyoriy ravishda olingan burch sifatida qaraydi.

Ekspluatatorlik davlati o'z daromadini (soliq tushumlarini), aniqrog'i, - davlat apparatini nazorat qiluvchi guruhning daromadini oshirish uchun majbur qilish monopoliyasidan foydalanadi.

Ekstreal vaziyatlar – mulk huquqini qayta taqsimlashni qonunning qabul qilinishi natijasida zarar ko'rgan tomonlarni xufyona harakat qilishga undaydigan holat.

Qarindosh-urug'chilik kapitalizmi – siyosiy va iqtisodiy ierarxiyada rollarning qarindoshchilik yoki oshnachilik belgisi bo'yicha, ya'ni u yoki bu oilaviy qavmga yoki "qalin do'stlar" jumlasiga kirishiga qarab taqsimlanishi.

Hisob-kitoblarning pulsiz shakli – barter almashuvi, o'zaro hisob-kitob (kliring) sxemalari, shuningdek notijorat yo'li bilan kreditlashning barcha turlari (shu jumladan, to'lamasliklar).

“Institutsional iqtisodiyot” darsligiga ilovalar

1-ilova

O‘zbekistonda mulk huquqining asosiy manbalari

I. O‘zR Konstitutsiyasi; O‘zR Fuqarolik kodeksi; O‘zR Er kodeksi.

II. “Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Mulk to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Xususiy tadbirkorlik kafolatlari va erkinliklari to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni;

III. “Xususiy korxonalar to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni; “Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi O‘zR Qonuni va boshqalar.

2-ilova

Mulk huquqi institutining asosiy tamoyillari

1) xususiy mulkning davlat mulki bilan bir qatorda konstitutsiyaviy tan olinishi va davlat mulkining ham, xususiy mulkning ham yuridik jihatdan teng himoyalaniishi;

2) har qanday ob‘ektning xususiy mulk sifatida tan olinishi, qonunda ko‘rsatib o‘tilganlar bundan mustasno;

3) yakka tartibdagi shaxsning xususiy mulkida bo‘lgan ob‘yektlar sifati yoki qiymatiga cheklovlarning mavjud emasligi;

4) xususiy mulk uning mulkdori tomonidan istalgan vaqtda uchinchi tomonga mulkni topshirish usullarini tartibga soluvchi tegishli qoidalarga amal qilingan holda topshirilishi mumkinligi;

5) xususiy mulk ob‘ekti ashyolarni ham, mulkiy huquqlarni ham o‘z ichiga olishi;

6) xususiy mulk egasi bunday mulkni boshqa shaxsga mulkni, ishonchli mulkchilik asosida tasarruf etuvchi shaxsga mulkchilik huquqini o'tkazmagan holda, ishonchli boshqarishga topshirishi mumkinligi;

7) davlat mulkni, o'ziga tegishli korxonani xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqarish huquqlarida topshirishi mumkinligi;

8) barcha Er va tabiiy resurslar mutlaq davlat mulki hisoblanishi;

9) davlat Er va mineral resurslardan foydalanish, ularga egalik qilish va ularni tasarruf etish huquqini xususiy (jismoniy yoki yuridik) shaxsga topshirishi mumkinligi;


10) jamiyat ehtiyojlari uchun xususiy mulk rekvizitsiya qilinishiga faqat qonunda ko'rsatilgan alohida holatlarda ruxsat etilishi va mulkdor uchun Fuqarolik kodeksining 203-moddasidagi rekvizitsiyalash to'g'risidagi qoidada mujassamlangan himoyalash choralarini nazarda tutadi.

3-ilova

O'zbekistonda xususiy mulkchilik shakllari:


- yakka tadbirkorlik;
- xususiy korxonalar;
- fermer xo'jaliklari;
- dehqon xo'jaliklari;
- xo'jalik jamiyatlari (AJ, MChJ, QMJ);
- kichik korxonalar;
- mikrofirmalar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning boshqa institutlar bilan aloqasi




Manba : B.B.Berkinov ishlanmasi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi institutlar



Manba : B.B.Berkinov ishlanmasi

Korxonada chiqimlarning umumiy tarkibida transaksiya xarajatlarining o'ri



Manba: B.B.Berkinov ishlanmasi

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Mundarija

Kirish	5
---------------------	---

I BOB. INSTITUSIONAL NAZARIYALARNING PAYDO BO‘LISHI VA RIVOJLANISHI

1.1. Institutsional nazariyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi	10
1.2. Institutsionalizmning metodologik asoslari va institutsional tahlilda boshlang‘ich nuqta masalasi	18
1.3. Neoinstitutsional nazariyaning asosiy yo‘nalishlari	21
1.4. Institutsional iqtisodiyotning rivojlanish xususiyatlari.....	24
Xulosa.....	28
Tayanch so‘zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	29
Takrorlash uchun savollar.....	34

II BOB. INSTITUTLAR VA ULARNING JAMIYAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI

2.1. “Institut” va “norma” tushunchalarining mohiyati.....	35
2.2. Rasmiy va norasmiy normalar va ularning shakllanishi.....	43
2.3. Institutsional matritsa.....	47
2.4. Institutsional o‘zgarishlar va institutlarning o‘zaro bog‘liqligi.....	49
Xulosa.....	53
Tayanch so‘zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	54
Takrorlash uchun savollar.....	61

III BOB. O‘YINLAR NAZARIYASI VA O‘ZARO HAMKORLIKLARNI MODELLASH TIRISH

3.1. O‘yinlar nazariyasining asosiy tushunchalari	62
3.2. Muvozanatlar turlari va ularni qidirish yo‘llari	65
3.3. O‘yinlar nazariyasi tayanch modellarining tasnifi	69
Xulosa.....	74
Tayanch so‘zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	74
Takrorlash uchun savollar.....	82

IV BOB. REJA INSTITUTI VA BOZOR INSTITUTI

4.1. Iqtisodiyot konstitutsiyalarining shakllanishi	84
4.2. Buyruqbozlik iqtisodiyoti normalari.....	85
4.3. Bozor konstitutsiyasi normalari.....	88
4.4. Mulkchilik huquqlarini iqtisodiy asoslash.....	91
Xulosa.....	93
Tayanch so‘zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	94
Takrorlash uchun savollar.....	101

V BOB. TRANSAKSIYA VA TRANSFORMASIYA XARAJATLARI HAMDA ULARNI TAHLIL QILISHGA NISBATAN YONDASHUVLAR

5.1. Transaksiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Kouz – Uilyamson yondashuvi	103
5.2. Transformatsiya xarajatlari va ularni tahlil qilishga nisbatan Nort yondashuvi	110

5.3. Transaksiya xarajatlarini optimallashtirish tajribasi va uning O'zbekistondagi xususiyatlari	116
Xulosa.....	128
Tayanch so'zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	128
Takrorlash uchun savollar.....	136

VI BOB. XUFYONA IQTISODIYOT

6.1. Xufyona iqtisodiyotning kelib chiqishi sabablari.....	138
6.2. Xufyona iqtisodiyot turlarining tasnifi va uni baholashga nisbatan yondashuvlar	141
6.3. Xufyona bozor institutsional tizim sifatida	149
6.4. Jahonda xufyona iqtisodiyot	153
6.5. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurash yo'llari.....	155
Xulosa.....	162
Tayanch so'zlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	163
Takrorlash uchun savollar.....	169

VII BOB. MULK HUQUQLARI NAZARIYASI VA MULKCHILIK SHAKLLARI RIVOJLANISHINING EVOLYUSIYASI

7.1. Mulk huquqlari nazariyasining asosiy qoidalari	176
7.2. Mulkchilik ta'riflarining tahlili	179
7.3. Mulkchilik munosabatlarini amalga oshirishning tarixiy shakllari.....	182
7.4. Mulkiy huquqlar.....	188

7.5. Mulkiy xuquqlar taqsimotining tahlili.....	193
Xulosa.....	206
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	206
Takrorlash uchun savollar.....	215

VIII BOB. MAMLAKATNI MODERNIZASIYA QILISH SHAROITIDA INSTITUSIONAL ISLOHATLAR

8.1.Mamlakatni modernizatsiya qilish konsepsiyasi va modernizatsiya qilishning bosh maqsadi, vazifalari.....	216
8.2.Institutsional oʻzgarishlar va iqtisodiyotda tarkibiy oʻzgarishlar.....	221
8.3.Mulknı davlat tasarrufidan chiqarish va uni xususiylashtirish.	224
8.4.Bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish.....	229
Xulosa.....	232
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	233
Takrorlash uchun savollar.....	240

IX BOB. SHARTNOMALAR NAZARIYASI

9.1. Shartnoma tushunchasi.....	241
9.2. Sotish toʻgʻrisidagi shartnoma va yollash toʻgʻrisidagi shartnoma.....	246
9.3. Shartnomalarning xillari.....	248
9.4. Tashkilot tushunchasi va institut bilan tashkilot oʻrtasidagi chegara.....	253
9.5. Qishloq xoʻjaligida shartnoma munosabatlari.....	259
Xulosa.....	263

Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	264
Takrorlash uchun savollar.....	272

X BOB. FIRMA NAZARIYASI

10.1. «Prinsipal» va «agent» oʻzaro munosabatlari muammosi.....	274
10.2. «Prinsipal-agent» muammolarini hal etish variantlari.....	277
10.3. Firmaning ichki tuzilmasi.....	282
10.4. Firmalar tipologiyasi va ularning rivojlantirish trayektoriyasi.....	284
10.5. Firmalarning asosiy xillari.....	286
Xulosa.....	299
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	299
Takrorlash uchun savollar.....	309

XI BOB. TASHKILOTNI AMALIY TAHLIL QILISH NAZARIYASI

11.1. Transaksiya xarajatlarining ordinalistik nazariyasi asosida tashkiliy tuzilmalarni amaliy tahlil qilish.....	311
11.2. Firma balansi uning tarkibi toʻgʻrisidagi axborot manbai sifatida.....	317
11.3. Firma ichidagi nizolarni tahlil qilish va kelishuvlar nazariyasi asosida hal etish.....	326
Xulosa.....	328
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	329
Takrorlash uchun savollar.....	336

XII BOB. FIRMANING TASHKILiy-HUQUQIY SHAKLINI TAHLIL QILISH

12.1. Mulkiy xuquqlarning tavsiflanishi.....	337
12.2. Tashkiliy-huquqiy shaklni tanlash mezonlari.....	338
12.3. Tashkiliy-huquqiy shakl firmaning strategiyasi haqida axborot manbasi sifatida.....	343
Xulosa.....	347
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	348
Takrorlash uchun savollar.....	357

XIII BOB. DAVLAT INSTITUSIONAL TASHKILOT SIFATIDA

13.1. Davlatning funksiyalari.....	359
13.2. Davlatning institutsional tabiati.....	362
13.3. Davlatning mohiyati va uning taʼrifi.....	364
13.4. Davlatning shartnomaviy va ekspluatatorlik konsepsiyasi.....	365
13.5. Davlatning «muvaffaqiyatsizliklari».....	368
Xulosa.....	371
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	371
Takrorlash uchun savollar.....	379

XIV BOB. DAVLATLAR XILI

14.1. Davlat va «prinsipal-agent» muammosi.....	381
14.2. «Shartnomaviy» davlat tushunchasi.....	383
14.3. «Ekspluatatorlik» davlati tushunchasi	386
14.4. Davlat xususiyatini baholash usullari va mezonlari	387
14.5. Korrupsiya muammosi.....	390
Xulosa.....	394
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	395
Takrorlash uchun savollar.....	403

XV BOB. UY XOʻJALIGI VA UNING XILLARI

15.1. Uy xoʻjaligi iqtisodiyot subʼekti sifatida.....	405
15.2. Uy xoʻjaligi faoliyat koʻrsatishida mutaassiblikning roli.....	411
15.3. Uy xoʻjaligining xillari.....	413
15.4. Shaxs iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashning institutsional asoslari.....	417
15.5. Oʻzbekistonda uy xoʻjaligi va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish yoʻnalishlari.....	429
Xulosa.....	441
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	444
Takrorlash uchun savollar.....	451

XVI BOB. RIVOJLANISHNING INSTITUSIONAL NAZARIYASI VA INNOVASIYA TURLARI

16.1. Innovatsiyalarning mohiyati va turlari.....	453
16.2. Innovatsion iqtisodiyot va rivojlanish konsepsiyalari.....	460
16.3. Innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga oʻtishni taʼminlash yoʻnalishlari	469
16.4. Oʻzbekistonda innovatsion rivojlanish va iqtisodiyotga oʻtishning	

xususiyatlari.....	477
Xulosa.....	491
Tayanch soʻzlar va iboralar, amaliy mashq, keys, testlar.....	492
Takrorlash uchun savollar.....	503
Adabiyotlar roʻyxati.....	504
Glossariy.....	513
Ilovalar.....	521

Abulqosimov Hasan Pirnazarovich
Berkinov Bozorboy Berkinovich
Abulqosimov Murod Hasanovich
Umarov Abduvahob Tursunovich
Qulmatov Alimjon Abdilloevich

INSTITUSIONAL IQTISODIYOT

Darslik

Muharrir

Baddiy muharrir

Texnik muharrir

Musahhih

Sahifalovchi

Bosishga 2020 yilda ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16. Hajmi b.t.

Adadi 500 nusxa. Buyurtma № .

